



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti**

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi

“IJTIMOIY DAVLATDA INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami
(2026-yil 25-mart)**

Toshkent - 2026

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonida o‘z ahamiyatini topgan IV bob – “Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” masalasi ijrosi yuzasidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining 2025-yil 27-yanvardagi “Universitetda 2026-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar to‘g‘risida”gi 27/11-08-sonli buyrug‘i asosida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida “Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta‘minlashning global ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.

Mas’ul muharrir:

Z.Zamonov – falsafa doktori (PhD), prof.

Nashrga tayyorlovchilar:

*Xushmatova Gulnoza, Jumanazarova Asal,
Yokubov Humoyuddin*

© O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

KIRISH SO‘Z

Assalomu alaykum hurmatli ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari, olimlar sohaning yetakchi vakillari, qadrli mehmonlar va aziz ustozlar!

Ma'lumki, o'zining ko'p ming yillik tarixida navbatdagi yangilanish bosqichiga kirgan Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Zero, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida, "Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak", deb ta'kidlangan.

Shu bilan birga inson huquqlari sohasida ta'limga taalluqli qoidalar ko'pgina xalqaro hujjatlarga, jumladan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga kiritilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga yo'naltirilgan tashabbuslar ilgari surildi va bu izchil hayotga tatbiq etilmoqda. Ular asosida hozirning o'zida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining beshta rezolyusiyasi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligi tarixida birinchi marta mamlatimiz BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga saylandi. Bularni jahon hamjamiyati tomonidan bildirilgan yuksak e'tirof ifodasi, mamlakatimiz yangi tashqi siyosatining, shu jumladan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan keng ko'lamlı hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi sifatida baholash mumkin.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek: "Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Jahon tarixi va demokratik davlatlar tajribasi ham shundan dalolat beradi".

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan Inson huquqlari sohasida ta'lim umumjahon dasturi to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tashkil etildi. Konstitusiyamizda xalqaro

huquq ustuvorligi tamoyili mustahkamlandi. O'zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, aholining turli toifalari – ayollar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilishga yo'naltirilgan ko'plab xalqaro konvensiyalarga a'zo bo'ldi. Bu orqali mamlakatimiz o'z hududida inson huquqlari va erkinliklarini rag'batlantirish hamda himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha muayyan majburiyatlarni qabul qilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilmoqda:

- umume'tirof etilgan inson huquqlari g'oyalari va qadriyatlariga, shuningdek, o'z xalqaro majburiyatlariga sodiqlik;

- davlatning inson huquqlari sohasidagi siyosati huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda asosiy milliy manfaatlardan kelib chiqishi;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini mutanosibligi tamoyili;

- amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tadrijiylik xususiyati;

- ochiqlik va bag'rikenglik:

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi ushbu sohadagi barcha muammolarni fuqarolik jamiyatining barcha tuzilmalari, shuningdek xalqaro hamkorlar bilan muloqotda muhokama qilishga va hal etishga tayyorligi ko'rsatib kelmoqda.

Ta'kidlash lozimki, 2020 yilda mamlakatimiz tarixida birinchi marta Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi va uning "yo'l xaritasi" qabul qilindi. Unda aniq ifodalangan 78 ta vazifani amalga oshirish belgilangan. Shuningdek, quyidagi ustuvor yo'nalishlar ko'zda tutilgan:

- shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilish;

- inson huquqlari va erkinliklari sohasida qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga xalqaro standartlarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, ular monitoringini amalga oshirish;

- inson huquqlari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar: sohaga doir xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, xorijiy davlatlarining huquqni himoya qilish milliy muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Inson huquqlari sohasida ta'lim bo'yicha umumjahon dasturini, BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tayyorlash deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Bugungi kunda xalqaro

shariklar bilan hamkorlikda inson huquqlari bo'yicha 120 dan ortiq asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar davlat tiliga tarjima qilindi va ko'p nusxada nashr etildi.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda O'zbekistonda va dunyoda inson huquqlarini ta'minlash masalalariga doir qator ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazilmoqda. Bugungi tadbirimiz ham ularning mantiqiy davomi sifatida ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlashning zamonaviy yondashuvlariga yana bir bor murojaat qilish, mavjud tadqiqotlarga tayangan holda zarur tahliliy xulosalarni chiqarish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi, deb ishonaman.

Anjumanda ishtirok etayotgan aziz mehmonlarimiz – olimlar va mutaxassislariga yana bir bor minnatdorchilik bildiraman va ilmiy-amaliy anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman!

Ilxomjon Tuxtasinov,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor*

DIALECTICS OF ENSURING HUMAN RIGHTS AND UNDERSTANDING OF THE NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS

Vahob Kuchkorov,
doctor of political sciences, professor

In current globalisation and modernisation processes, the issue of human dignity and human rights is a pressing problem on the global agenda. Naturally, ensuring Man's rights and entitlements goes hand in hand with humaneness, compassion and love for one's fellow man, as well as with the quest for national self-consciousness. In this sense, the analysis of the activities underway in the conditions of New Uzbekistan, and its organisational and legal foundations in relation to national and spiritual self-consciousness, is of significant importance both theoretically and practically. As noted by the head of our state, "By human dignity, we primarily mean ensuring of a peaceful and safe life of every citizen, and their fundamental rights and freedoms. "By human dignity, we mean creating decent living conditions and modern infrastructure, providing highly qualified medical services, quality education, a social protection system, and a sound ecological environment for every citizen."[1].

While on the one hand, this strategic objective defines the social, economic, political and spiritual conditions for a nationally distinctive system of state governance, and on the other hand, outlines the functional directions, aims and tasks of national self-consciousness. From a general point of view, these are also goals and objectives for the realization of the political self-consciousness. However, there are also private goals and objectives for understanding the political self-consciousness. While its purpose is to build a democratic state based on the rule of law, its objectives include studying the traditions of national statehood, building a strong state, ensuring human rights, liberalising the activities of political and legal institutions, promoting democratic values, transforming political pluralism into a tangible reality and part of everyday way of life, and expanding the activities of non-governmental non-profit organisations and the media.

Political self-awareness is considered an integral part of national self-consciousness, and its internal system – the core of self-consciousness. It derives its "social mandate" from national self-consciousness, the spirit of the people, and political goals. It is political goals and objectives that have the opportunity and mechanisms to quickly influence the social systems and, the minds of people. When a society undergoes a transition from one stage to another, as dogmas in the minds of people change and new paradigms are established, the importance of political consciousness-forming actors and institutions increases.

In general, no known society is known in human history, let alone a state, that existed without political consciousness and thinking. With the division of

labour in society, the emergence of management institutions and the concepts of "mine" and "yours", political consciousness and political self-consciousness are formed. Thus, political self-consciousness exists, at least as a form of attitude towards private property. From this perspective, anyone who has expressed an opinion on any property can be regarded as a subject of political processes. However, the realisation of political self-awareness should not be taken as such a simple matter. It is manifested in institutional form in different levels. For example, the relationship of the individual and state, people and political party, state and non-governmental organizations and state institutions can be studied as such levels. Political relations are an integral part of the social relations in society and determine its character.

The integral nature of politics means that "the political relations" are involved in all areas and function as their core. Therefore, when studying political reality (political consciousness, political relations, political culture, political self-consciousness, etc.), it is necessary to proceed from its integral nature. For "research without an integral concept leads to fragmented, descriptive analysis of the political reality and to deductive, metaphysical reflections"[2]. The foundation of political relations, political consciousness and the realisation of political self-consciousness is associated with politics. Indeed, although there are various, and sometimes conflicting, conceptions and definitions of the term "politics", they all agree that politics is an intended activity aimed at regulating interpersonal relations. Political self-consciousness consists of the combination of the concepts of "politics" and "self-consciousness". By understanding these two concepts, one can define the essence of political self-consciousness.

Politics is a type of activity aimed at creating the conditions necessary for the socialisation of the individual, streamlining actions aimed at governing society and the state, safeguarding human rights and addressing diverse interests, as well as managing social processes in line with specific purposes. It is a form of activity related with creating the environment, necessary for the socialisation of the individual[3]. Self-consciousness, on the other hand, is the correct perception of the position of an individual, a group, a nation or a people within the social reality, their participation in and belonging to the historical, cultural and universal development of humanity, as well as an awareness of one's own strength and intellectual potential, and a belief in the immortality of one's spiritual wealth and the demonstration of one's creative potential. Political self-consciousness refers to the activities of an individual, a group, a nation or a people aimed at expressing their intellectual potential, spiritual and political consciousness and thinking on the basis of historical and cultural experience in the governance of society and the state, and the rationalisation of socio-political interests.

Political self-consciousness has the following characteristics and features: its role in participating in the governance of society and the state.



1. A culture of understanding socio-political interests, as well as their rationalisation and reconciliation in accordance with personal, national and general public interests;

2. Playing an active role in global socio-political processes, drawing on its political and historical and cultural experience;

3. Setting clear goals and aspirations as an active participant in socio-political processes;

This is an activity aimed at creating and establishing political values. "If theory reveals the nature of the conditions under which human activity takes place, then politics, drawing on this theory, helps to determine how these objective conditions can be utilised in the interests of this or other particular social group." [4]. Thus, in politics, the theory and practice are in harmony with understanding of the prevailing circumstances and directing them to specific interests. Politics, therefore, is a specific (heuristic) way of perceiving the political reality, and its subject matter is the empirical activity associated with establishing and managing the relations between the individuals of the society. The political self-consciousness is inextricably linked with the mental (psychological) condition. It preconditions participation, and place and level of involvement of the individual in the socio-political life. Awareness of one's political rights and aptitude to exercise them in social life enable the individual to understand their political self-consciousness. Thus, the socio-political orientation of human activity is one of the key characteristics of political self-consciousness. And, political self-consciousness has national and geographical characteristics. For example, when the US people also say "an American", they perceive themselves as a nation, although it mainly means a geographical sign. This feature is clearly illustrated in the works of S. Follett and S. Huntington [5]. S. Huntington writes: "American politics, like the politics of other societies, is the politics of individuals, associations, classes, regions, professional groups and ethnic groups." As a nation, Americans feel responsible for turning their territories into a "paradise on earth" [6].

The work carried out in Uzbekistan in recent years by the Head of State is reflected in the following. These are primarily associated with **the implementation of the Constitutional reforms**. In the new edition of the Constitution adopted in 2023, the guarantees of human rights and freedoms were significantly improved, and the "Miranda Rule" and "Habeas Corpus" mechanisms were consolidated. Attention was also paid to the principle of **"Human Dignity"**. The main objective here is to ensure that government bodies serve the interests of the people, to strengthen the social welfare system, and to uphold human dignity.

- **International commitments:** "Uzbekistan joined the UN Human Rights Council, actively cooperates with the High Commissioner and international observers.

- **Labour rights:** Forced and child labour in cotton and textile industries was completely eliminated, which was recognized at the international level.

- **Fair judicial system:** Measures have been taken to ensure the genuine independence of the courts and to transfer the power to authorise arrests and searches to the courts[7].

It is well known that reforms aimed at safeguarding human rights are directly linked to the 2017–2021 Action Strategy covering the five priority areas of development for the Republic of Uzbekistan.

In particular, looking back over the last few years in our country, we can say with certainty that the main objective of the judicial and legal reforms being implemented is to comprehensively safeguard and guarantee human rights and freedoms. In more than 70 laws adopted last year as part of the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2017–2021 across five priority areas, human rights are also of highest priority[8].

Under this historic document, significant work has been carried out for ensuring the rule of law, improvement of the judicial system, reducing the severity of punishments, prevention of tortures, gender equality, ensuring openness and transparency, strengthening freedom of speech, and, based on the principle of humanity, and giving a second chance to those who have strayed from the right path and reintegrating them into society. The adoption in 2020 of the National Strategy of the Republic of Uzbekistan on Human Rights was also one of the important steps taken to safeguard human rights.

The scientific and practical aspects of national identity, the development of a welfare state within the framework of ‘New Uzbekistan’, and the priority given to human rights within it are defined in all spheres by the principle of "individual – society – state". As early as 2017, the principle established by President Sh. Mirziyoyev – “It is not the people who should serve the state institutions, but these state institutions that should serve our people” – became a key factor in the protection of human dignity and rights.

It should be noted that paragraph 58 of the National Strategy highlighted the need to improve institutional mechanisms for the prevention of tortures. With regard to the implementation of this paragraph, the Decree of the Head of State of 26 June 2021 ‘On Additional Measures to Improve the System for the Detection and Prevention of Cases of Torture’ was adopted, aimed at bringing the system for the detection and prevention of acts of torture into line with universally recognised principles and norms of international human rights law, improving the mechanism for the prompt and impartial examination of complaints concerning cases of torture and the inevitable prosecution of the responsible parties, as well as ensuring that victims of torture receive social, legal guarantees of psychological and medical assistance and compensations for harm caused. Also, priority areas were identified, such as the broad involvement of civil society organisations in the detection and prevention of cases of torture,

as well as the activities of the National Preventive Mechanism (NPM) under the Office of the Ombudsman was further improved.

In particular, public groups dedicated to identifying and preventing tortures were established under the auspices of the expert group arranged at the Ombudsman's Office. They were tasked with identifying instances of tortures and submitting requests to the relevant state authorities for their immediate cessation, as well as participating in the consideration of complaints concerning tortures.

It should also be noted that Uzbekistan's decisive steps to safeguard human rights are also highly regarded by the international community. In 2024, UN Secretary-General António Guterres, during his visit to our country, also highlighted that our country is making steady progress in safeguarding the rights and interests of its citizens.

The Republic of Uzbekistan is currently a party to more than 80 international human rights treaties, including United Nations Organisation's (hereinafter "UNO") six core treaties and four optional protocols, and regularly submits national reports on their implementation to the UN Human Rights Council and its treaty bodies[9].

During 2021, the Ombudsman and the public groups at his office paid 177 visits to facilities that house the persons with restricted freedom of movement. In the first half of 2022, 156 monitoring visits were conducted. These visits are reported openly and transparently.

Most importantly, the Ombudsman carries out the tasks assigned to him in cooperation with and with the assistance of members of the Oliy Majlis houses, representatives of the public, scholars and experts working in the field of human rights, non-governmental organisations and other civil society institutions, as well as representatives of mass-media.

Generally speaking, the dialectics of safeguarding human rights and national self-consciousness manifests itself in the following cases.

Firstly, national self-consciousness is not merely about a people or a nation defining themselves through language, history, traditions and values, but also about treating others with kindness, as well as showing human understanding and compassion.

Secondly, national identity - based on political and legal consciousness that prioritises the processes of political self-consciousness- requires that the state and its authorities serve the people, which means that "our people must feel happy today, not tomorrow".

Thirdly, national self-consciousness is not merely a matter of declaring: "I am Uzbek, I am from Uzbekistan, this homeland belongs to us all, and I too am part of it"; it manifests itself in the activities of civil society institutions within a broader socio-political space; this implies upholding the principles of justice in society, recognition as the most active institution in the fight against corruption,

and a commitment to the principle that no one is above control, and that everyone must be vaccinated with the "vaccine of honesty".

Overall, the fact that, since 2017, this issue has reached a new level and taken on new significance is confirmed by the implementation of key government programmes, in particular the Action Strategy and the National Human Rights Strategy, as well as the adoption of the Development Strategy and the “Uzbekistan–2030” programme.

REFERENCES:

1. Academician Akmal Saidov. Янги Ўзбекистон Инсон шайни кадр қиймати устувор мамлакат. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/m7182>.
2. Политология. –М.: Зерцало, 1999. –С. 31.
3. See: Политология: Краткий энциклопедический словарь-справочник. - М.: 1997. –Б. 366.
4. Политология. –М.: Зерцало, 1999. -С. 57.
5. See: Follers S. The Anthropology of the Nation-State. Chicago, 1968; Хантингтон С. Кто мы? Вызовы американской национальной идентичности. М.ООО. “Транзит книга”, 2004.
6. op.cit, -p. 127.
7. Internet materials.
8. Ф.Эшматова. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман). <https://ombudsman.uz/uz/docs/maqola-1>.
9. Р.Шеркулов. («Халқ сўзи») суҳбатлашди. Инсон ҳуқуқлари устувор мақсад бўлиб қолаверади. | 30 Дек. 2020 й.

O‘ZBEKISTONDA XALQ DEPUTATLARI MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY JIHATLARI

Yoqubov To‘ychi Abduraxmonovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati

Annotatsiya: Joylarda xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida Kengash raisining o‘rinbosari, shuningdek Kengash raisi, uning o‘rinbosari, partiya guruhlar rahbarlari, doimiy komissiyalar raislaridan iborat tarkibda Kengash Rayosati institutlarini joriy etish taklif etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Kengash, sessiya, Kengash kotibiyati, partiya guruhi, doimiy komissiya, Kengash raisining o‘rinbosari, Kengash Rayosati.

O‘zbekiston ijtimoiy davlat deb e‘lon qilindi va buning zamirida har bir fuqaroga munosib turmush tarzini yaratish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, mehnatga oid munosabatlardan tashqari xalqaro huquq normalariga muvofiq ham o‘ziga

hos jiddiy talablar, mas'uliyat, ta'bir joiz bo'lsa, ko'plab ijtimoiy majburiyatlar borligini chuqur anglaymiz.

Mamlakatimizda inson manfaatlari ustuvorligiga jiddiy urg'u berilmoqda, buni birgina inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishiga doir, shuningdek hech narsa insonning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, shaxsning sudlanganligi uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lmasligi kabi qator insonparvar qoidalarning Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yilganligi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish, mamlakatni yanada demokratlashtirish, fuqarolarning davlat boshqaruvida keng ishtirokini ta'minlash kabi dolzarb masalalarni amalga oshirish uchun nafaqat davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, respublika ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimlari balki mahalliy davlat hokimiyati organlari, xususan, hududiy vakillik organlari bo'lmish xalq deputatlari mahalliy Kengashlar faoliyatini ham bosqichma-bosqich takomillashtirish choralari ko'rib borishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-avgustdagi "Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo'yicha huquqiy eksperiment to'g'risida"gi PF-5515-sonli Farmoniga muvofiq eksperiment tariqasida xalq deputatlari Toshkent shahar va tumanlari Kengashi kotibiyatlari tashkil etildi. Eksperiment o'zini oqlagach, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, ushbu amaliyot 2020 yildan boshlab barcha darajadagi xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) ham joriy etildi.

Kengash kotibiyatlarining asosiy vazifasi sifatida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatdan xizmat ko'rsatish kabi masalalar belgilandi. Bunda Kengash kotibiyatining mudiri tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari orasidan uning vakolati muddatiga tayinlanishi nazarda tutilgan bo'lsada, Kengash kotibiyati xodimlarining mehnatga oid munosabatlari xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolat muddatiga bog'liq emasligi qonunchilikda mustahkamlandi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxsning bir vaqtning o'zida xalq deputatlari tegishli Kengashi raisi lavozimini egallashi, Kengash raisi sifatida ikki muddatdan ortiq ayni bir hududda saylanishi mumkin emasligi (hokim lavozimiga ham shunday talab mavjud) belgilab qo'yildi.

2024 yil saylovlar yakunlari bo'yicha xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarida, joriy yil boshidan boshlab esa barcha tuman, shahar Kengashlarida tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari orasidan

Kengash raislari saylandi va qonunchilikka muvofiq o'z faoliyatini jamoatchilik asosida olib bormoqdalar. Mazkur institutning joriy etilishi joylarda hokimiyatlar bo'linishi prinsipini to'laqonli ro'yobga chiqarishga va hududiy boshqaruvni aholi manfaatlariga xizmat qilishi, inson huquqlarini ta'minlash tamoyillari asosida tashkil etishga zamin yaratadi.

Shunga o'xshash amaliyot Gruzziya, Belarus respublikasi, Qirg'iz respublikasi, Yaponiya va boshqa qator davlatlarda ham mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

Bugungi kunda amalda hokimning Kengash raisi sifatidagi faoliyati cheklandi, Kengash raisi jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatmoqda, kotibiyat mudiri deputatlar orasidan tayinlanmoqda va Kengash kotibiyati ishini tashkil etish bilan bir qatorda Kengash sessiyalarini tayyorlash mas'uliyati ham uning zimmasiga yuklatilgan.

Bizga ma'lumki Kengashlarda turli masalalar bo'yicha doimiy va muvaqqat komissiyalar hamda partiya guruhlar kabi institutlar faoliyat ko'rsatadi. Kengash kotibiyati mudirining maqomi Kengash doirasida yuqorida zikr etilgan institutlar rahbarlari maqomidan yuqori emas, boisi Kengash kotibiyatining vazifasi yuqorida qayd etilganidek, asosan Kengashga tashkiliy-texnik jihatdan xizmat ko'rsatishdan iboratdir. Shu o'rinda mahalliy Kengashlar deputatlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari kabi doimiy asosda faoliyat ko'rmatmasligini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, joylarda Kengashlar ishini yanada tizimli va samarali tashkil etish maqsadida ayrim takliflarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashi raisining o'rinbosari institutini joriy etish va unga bir vaqtning o'zida Kengash kotibiyati mudiri vazifalarini yuklash. Ya'ni qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli Kengash deputatlari orasidan Kengash raisi o'rinbosari saylanadi va ushbu lavozimga saylangan deputat bir vaqtning o'zida deputatlik vakolati muddatiga Kengash kotibiyati mudiri hisoblanadi va o'z vazifalarini bajarishga kirishadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyatining mudiriga qonun bilan Kengash raisi o'rinbosari maqomi berilsa, Kengash ishini samarali tashkil etish uchun, Kengash raisi yo'qligida uning vazifalarini bajarib turish va amaldagidek, doimiy komissiyalar raislari yoki partiya guruhlar rahbarlaridan biri emas, balki aynan u sessiyalarga raislik qilishi uchun huquqiy asos yaratiladi.

(Amalda Kengash raisi yo'qligida sessiyalarga raislik qilish tegishli Kengashga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiyadan ilgari surilgan deputatlar tomonidan tashkil etilgan partiya guruhi rahbari raislik qilishi belgilangan.)

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari zaruratga qarab, har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Yuqorida

ta'kidlaganimizdek, mahalliy Kengash deputatlari doimiy asosda faoliyat ko'rsatmaydi, ya'ni aksariyatining asosiy ish joyi mavjud.

So'nggi yillardan mamlakatimizda mahalliy Kengashlarning vakolatlari, ularning nazorat funksiyalari kengayib, takomillashib bormoqda. Davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri ham aynan shu yo'l bilan kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishiga erishishdir.

Kengash deputatlarini tez-tez yig'ish, ko'plab masalalarni bevosita sessiyalarda muhokama qilish amaliyotining saqlanib qolayotganligi Kengash ishini tashkil etishda ayrim noqulayliklar yuzaga kelishiga sabab bo'layotgandek, nazarimizda.

Hokim bir vaqtning o'zida tegishli Kengashga raislik qilganligi bois, sessiyalar oralig'ida ayrim tezkor ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishi, uning qarorlari keyinchalik Kengash sessiyasi tasdig'iga kiritilishi amaliyoti mavjud edi. Endilikda bu institut bekor qilindi. Mazkur huquqiy bo'shliqni bartaraf etish maqsadida, Kengash raisi, uning o'rinbosari (lavozim joriy etilgach), partiya guruhlar rahbarlari, doimiy komissiyalar raislaridan iborat tarkibda Kengashi Rayosati institutini shakllantirishga ehtiyoj mavjud.

Kengash Rayosatiga Kengash sessiyasining kun tartibi loyihasini shakllantirish, xalq deputatlari Kengashining sessiyasini chaqirish, yuzaga kelgan ayrim muammoli masalalarni tezkor bartaraf etish uchun hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari axborotini etishish, Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritilishi lozim bo'lgan ayrim tezkor masalalarni keyinchalik Rayosat qarorini tegishli sessiya tasdig'iga kiritish sharti bilan ko'rib chiqish kabi qator vakolatlarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan takliflar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi bir guruh deputatlari tomonidan tashabbus huquqi asosida qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Xulosa shundan iboratki, hokimning bir vaqtning o'zida vakillik organini boshqarishiga doir norma bekor qilinganligi, Kengash raisi jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsata boshlaganligi nisbatan yangi amaliyot ekanligini inobatga olib, hududiy vakillik organlari faoliyatini institutsional va tashkiliy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning davomli va natijador bo'lishiga, shuningdek joylarda inson manfaatlarini lozim darajada himoya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023 yil, 30 aprel;
2. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1993 yil, 2 sentyabr, 913-XII-son;

3. “Xalq deputatlari Kengashlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”. 2020 yil 14 sentyabr, O‘RQ-636-son;

4. “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”. 2024 yil 17 oktyabr, O‘RQ-976-son;

5. “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘R Prezidenti farmoni, 2023 yil 25 yanvar, PF-14-son;

6. “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘R Prezidenti farmoni, 2023 yil 8 may, PF-67-son;

7. “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘R Prezidenti farmoni, 2025 yil 23 iyun, PF-98-son;

8. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining shtat birliklari sonini tartibga solishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘R Prezidenti farmoni, 2024 yil 22 oktyabr, PF-165-son;

9. “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘R Prezidenti farmoni, 2022 yil 21 dekabr, PF-269-son;

10. “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” O‘R Prezidenti farmoni, 2020 yil 2 mart, PF-5953-son.

BOLA HUQUQLARINI TA‘MINLASHDA IJTIMOIIY HAMKORLIKNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI

Akramova Shaxnoza Abrorovna

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Harbiy-vatanparvarlik, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya va
yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasida boshlig‘i,
pedagogika fanlari doktori, professor, podpolkovnik*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda bola huquqlarini ta‘minlash tizimining zamonaviy holati, ijtimoiy hamkorlikning huquqiy va institutsional asoslari hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada 2023-yildagi yangi tahrirdagi Konstitutsiya, 2024-yilda qabul qilingan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun, Bola huquqlari bo‘yicha vakil to‘g‘risidagi Qonun, shuningdek ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy himoya tizimidagi yangilanishlar asosida oila, mahalla, ta‘lim muassasasi,

ijtimoiy xodim, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi mexanizmi yoritiladi. Muallif bola manfaatining ustuvorligi, erta aniqlash, individual keys-yondashuv, multidissiplinar hamkorlik hamda raqamli monitoringni bola huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshiruvchi asosiy mexanizmlar sifatida asoslaydi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, ijtimoiy hamkorlik, bolalar ombudsmeni, ijtimoiy xizmatlar, zo'ravonlikning oldini olish, mahalla, oila, profilaktika, bola manfaatining ustuvorligi.

Bugungi kunda bola huquqlarini ta'minlash masalasi faqat yuridik yoki pedagogik muammo emas, balki davlat boshqaruvi, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash va fuqarolik jamiyati hamkorligini talab qiladigan kompleks yo'nalishga aylandi. Jahonda avvalgi davrlarda ushbu masalaga ko'proq nazorat, profilaktika va huquqbuzarliklarning oldini olish nuqtayi nazaridan yondashilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda asosiy e'tibor bolani mustaqil huquq egasi sifatida ko'rish, uning sha'ni, qadr-qimmati, xavfsizligi va rivojlanish manfaatlarini birlamchi mezon sifatida belgilashga qaratilmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2026-yil 24-fevral kuni yoshlar bilan muloqotida ta'kidlanganidek, mamlakatdagi 22 milliondan ziyod yoshlar katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch bo'lib, barcha darajadagi rahbarlar birorta yigit-qizni e'tiborsiz qoldirmasdan, ularni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, g'oya, loyiha hamda startaplarini qo'llab-quvvatlash, ishli va daromadli qilish masalasida faol ishlashi zarurligi qayd etildi. Mazkur yondashuv bolalar va o'smirlarni himoya qilish sohasida ham muhim metodologik asos bo'lib, muammoga faqat oqibat nuqtayi nazaridan emas, balki erta qo'llab-quvvatlash, imkoniyat yaratish va xavfning oldini olish tamoyili asosida yondashishni talab etadi.

Shu ma'noda, O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan huquqiy yangilanishlar bola huquqlarini ta'minlash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobida oila, bolalar va yoshlar masalalari alohida mustahkamlandi. Xususan, unda oilaning jamiyatning asosiy bo'g'ini ekani, davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishi, bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish davlatning majburiyati ekani aniq belgilandi. Bu normalar bola masalasini tor doiradagi oilaviy masala emas, balki konstitutsiyaviy qadriyat darajasidagi ustuvor yo'nalish sifatida talqin etish imkonini beradi.

Milliy qonunchilikdagi o'zgarishlar xalqaro standartlar bilan uyg'unlashib bormoqda. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida mustahkamlangan "bolaning eng yaxshi manfaatlari" tamoyili endilikda faqat deklarativ qoidagina emas, balki amaliy qarorlar qabul qilishning mezoni sifatida qaralmoqda. Demak, bola bilan bog'liq har qanday qaror – u ta'limga joylashtirish, oiladagi nizoni ko'rib chiqish, zo'ravonlikdan himoya qilish,

muqobil parvarish, profilaktik hisob, ijtimoiy yordam yoki reabilitatsiya bo'lsin – bolaning hozirgi holati va kelajakdagi rivojiga ta'siri nuqtayi nazaridan baholanishi lozim.

Bu yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u bolaning muammosini faqat sodir bo'lgan salbiy oqibat orqali emas, balki xavf omillari va ijtimoiy sabablar tizimi orqali ko'rishni taqozo etadi. Masalan, dars qoldirish, uydan ketish, tajovuzkor xulq, internetdagi xavfli kontentga moyillik, erta nikohga undash, qarovsiz qolish yoki oiladagi doimiy zo'ravonlik belgilari alohida fakt sifatida emas, balki erta aralashuvni talab qiladigan signal sifatida baholanishi kerak. Aynan shu nuqtada ijtimoiy hamkorlikning roli keskin ortadi.

An'anaviy yondashuvda oila, mahalla va maktabning hamkorligi asosiy mexanizm sifatida ko'rilgan. Bu model o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, biroq zamonaviy xavf-xatarlar sharoitida unga ijtimoiy xodim, psixolog, tibbiyot xodimi, ichki ishlar profilaktika inspektori, vasiylik va homiylik organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda bolalar ombudsmani instituti kabi subyektlarni ham faol integratsiya qilish zarur. Chunki bola huquqlariga tahdid ko'p hollarda bitta sabab bilan emas, bir-biriga bog'liq bo'lgan iqtisodiy, psixologik, oilaviy va axborot omillari bilan yuzaga keladi.

2024-yilda qabul qilingan “Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun mazkur tizimni mustahkamlovchi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Mazkur qonun bolaga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy va boshqa shakldagi zo'ravonlikni aniqlash, oldini olish va unga javob choralari ko'rishning huquqiy asoslarini aniq belgilab berdi. Eng muhimi, u zo'ravonlikni faqat jazolash obyekti sifatida emas, balki erta aniqlanadigan, xabar qilinadigan, ijtimoiy xizmatlar, reabilitatsiya va himoya choralari orqali bartaraf etiladigan tizimli muammo sifatida talqin etadi.

Shu bilan birga, 2024-yilda “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi bolalar ombudsmani institutining maqomi va vakolatlarini ancha aniqlashtirdi. Ushbu institutning mustaqil monitoring, murojaatlarni ko'rib chiqish, davlat organlari faoliyatini tahlil qilish, bolalar manfaatlariga oid qonunchilik takliflarini ilgari surishdagi roli kengaymoqda. Natijada bola huquqlari endi faqat ijro organlarining vazifasi bo'lib qolmay, parlament nazorati va ombudsman monitoringi orqali ham ta'minlanadigan soha sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bolalar huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy xizmatlar tizimining yangilanishi ham alohida ahamiyatga ega. 2023-yildan boshlab aholini, shu jumladan bolali oilalarni qo'llab-quvvatlashda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, ijtimoiy xodimlar instituti va individual keys yuritish mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etildi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy xavf guruhidagi oilalarni erta aniqlash, bolaga nisbatan beparvolik, zo'ravonlik, qarovsiz qolish yoki ta'limdan uzilish holatlarini manzilli ko'rish imkonini bermoqda. Avval muammo ko'proq hodisa sodir bo'lgandan keyin ko'rilgan bo'lsa, endi profilaktika erta diagnostika va ijtimoiy kuzatuvga tayana boshladi.

Bola huquqlarini ta'minlash tizimidagi asosiy yangilanishlar

Yil	Normativ-huquqiy hujjat	Asosiy mazmun	Amaliy ahamiyati
2023	Konstitutsiya (yangi tahrir)	Oila, bolalar va yoshlar bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatlar mustahkamlandi.	Bola huquqlarini davlat majburiyati darajasida talqin etish kuchaydi.
2024	O'RQ-917	Bolalar ombudsmani institutining maqomi va vakolatlari aniq belgilandi.	Parlament nazorati va mustaqil monitoring imkoniyatlari kengaydi.
2024	O'RQ-996	Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning alohida huquqiy mexanizmi yaratildi.	Erta aniqlash, xabar berish va himoya choralarining yagona asoslari paydo bo'ldi.
2024	PF-82, PQ-319, VMQ-539	Ijtimoiy xizmatlar va "Inson" markazlari tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi.	Xavf guruhidagi oilalar bilan individual keys-yondashuv kuchaydi.

Shunday ekan, ijtimoiy hamkorlikning zamonaviy modeli quyidagi tamoyillarga tayanishi maqsadga muvofiq. Birinchidan, bola manfaatining ustuvorligi. Ikkinchidan, idoralararo uzviylik va ma'lumot almashinuvi. Uchinchidan, har bir murakkab holat bo'yicha individual reja ishlab chiqish. To'rtinchidan, oilani jazolash emas, avvalo tiklash va qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish. Beshinchidan, bolaning o'z fikrini eshitish va qaror qabul qilish jarayonida uning ovozi inobatga olish. Oltinchidan, hisobdorlik va monitoring mexanizmlarining shaffof bo'lishi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bola huquqlari ko'proq quyidagi holatlarda buzilish xavfi ostida qoladi: oiladagi zo'ravonlik, ota-onaning migratsiyasi yoki uzoq muddatli ajralishi, moddiy tanqislik, psixologik beqaror muhit, maktab bilan aloqaning sustligi, internet makonidagi nazoratsiz ta'sirlar, nogironligi bo'lgan bolalar uchun yetarli qo'llab-quvvatlashning mavjud emasligi hamda parvarish va g'amxo'rlikdagi uzilishlar. Demak, huquqbuzarlikning oldini olishning o'zi yetarli emas; u bilan birga, xavfni keltirib chiqarayotgan ijtimoiy determinantlarni kamaytirish ham talab etiladi.

Bu yerda mahalla institutining o'rnini alohida. Mahalla hududdagi oilalarning real turmush sharoiti, qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, norasmiy ijtimoiy tarmoq va qo'shnichilik resurslari haqida eng yaqin ma'lumotga ega bo'lgan bo'g'indir. Biroq, mahalla faqat kuzatuvchi emas, balki muvofiqlashtiruvchi va

yo‘naltiruvchi subyekt sifatida ishlashi kerak. Ya‘ni u muammoni “ko‘rish” bilangina cheklanmay, tegishli xizmatlar bilan bog‘lash, oilani ijtimoiy xodimga yo‘naltirish, maktab va tibbiyot muassasasi bilan tezkor aloqani yo‘lga qo‘yish, zarur hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda himoya choralarini ishga tushirishi lozim.

Ta‘lim muassasalari ham bola huquqlarini ta‘minlashning markaziy bo‘g‘inidir. Chunki bola xulqidagi o‘zgarish, davomat pasayishi, emotsional tushkunlik, tajovuzkorlik, o‘zini yakkalash, kamsitilish izlari, gigiyena muammolari yoki oilaviy beqarorlikning bilvosita belgilarini eng birinchi bo‘lib ko‘pincha sinf rahbari, fan o‘qituvchisi yoki maktab psixologi payqaydi. Shu sababli ta‘lim tashkilotlarida “erta ogohlantirish indikatori”ga asoslangan ichki kuzatuv tizimini joriy etish, xodimlarni bola bilan nozik muloqot, zo‘ravonlik belgilarini tanish va xabar berish algoritmlari bo‘yicha muntazam tayyorlash zarur.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ishtiroki ham zamonaviy yondashuvda o‘zgarib bormoqda. Endi ular faqat sodir bo‘lgan huquqbuzarlikka javob beruvchi tuzilma emas, balki profilaktika, xavfni baholash va himoya choralarini ishga tushirish tizimining bir qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilik bolaga nisbatan qattiq jazodan ko‘ra, ijtimoiy-pedagogik tiklash, maslahat, nazorat va yo‘naltirish choralarini ustuvor ko‘rishni talab etadi. Shu ma’noda, profilaktika inspektori, maktab ma‘muriyati va ijtimoiy xodim o‘rtasidagi hamkorlik huquqbuzarlikning chuqurlashib ketishini kamaytiradi.

2-jadval.

Idoralararo hamkorlikning tavsiya etiladigan funksional mexanizmi

Subyekt	Asosiy vazifa	Kutiladigan natija
Oila va ota-ona	Bolaning kundalik xavfsizligi, parvarishi, ta‘limga jalb etilishi va hissiy qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash.	Birlamchi himoya muhiti mustahkamlanadi.
Mahalla	Xavf omillarini erta ko‘rish, oilani xizmatlarga yo‘naltirish va mahalliy muvofiqlashtirish.	Muammo kechikmay aniqlanadi.
Ta‘lim muassasasi	Davomat, xulq va psixologik holatdagi o‘zgarishlarni kuzatish, xabar berish algoritmini ishga tushirish.	Maktabdan uzilish va yashirin zo‘ravonlik kamayadi.

Ijtimoiy xodim / “Inson” markazi	Individual keys-yondashuv, xizmatlar paketi va oilaviy reabilitatsiya rejasini yuritish.	Manzilli yordam va barqaror natija ta’minlanadi.
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar	Himoya choralari ko‘rish, xavfni baholash va profilaktik hamkorlikni kuchaytirish.	Qayta huquqbuzarlik hamda zo‘ravonlik xavfi qisqaradi.
Bolalar ombudsmani va NNTlar	Mustaqil monitoring, huquqiy ko‘mak, jamoatchilik nazorati va advokatsiya.	Hisobdorlik va ochiqlik oshadi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, bolani himoya qilishning samarali mexanizmi ko‘p subyektli, ma’lumotga asoslangan va xizmatlar integratsiyasiga tayangan bo‘ladi. UNICEFning O‘zbekiston bo‘yicha so‘nggi tahlillari ijtimoiy xizmatlar qamrovi kengayib borayotganini, biroq ayrim bolalar toifalari, xususan nogironligi bo‘lgan bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va zo‘ravonlik xavfi ostidagi bolalar uchun xizmatlarning sifati va idoralararo uzviylikni yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa milliy darajada qabul qilingan normativ-huquqiy bazani joylardagi amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlash zarurligini anglatadi.

Bizningcha, O‘zbekistonda bola huquqlarini ta’minlash bo‘yicha ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish uchun bir nechta ustuvor chora muhim. Avvalo, har bir hududda xavf guruhidagi bolalar bilan ishlash bo‘yicha yagona idoralararo protokol ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, mahalla, maktab, poliklinika, ijtimoiy xizmatlar markazi va profilaktika subyektlari o‘rtasida minimal zarur ma’lumot almashishning huquqiy va axborot xavfsizligi talablari aniq belgilanishi kerak. Uchinchidan, ijtimoiy xodimlar, pedagoglar va profilaktika inspektorlari uchun bolaga do‘stona yondashuv, jarohatlardan xabardor amaliyot va gender sezgir kommunikatsiya bo‘yicha malaka oshirish dasturlari kengaytirilishi zarur.

To‘rtinchidan, bolaning o‘zi va ota-onasi uchun murojaat mexanizmlari soddalashtirilishi kerak. Murojaat faqat rasmiy ariza berish bilan cheklanmasdan, maktab, mahalla, bolalar ombudsmani, ishonch telefonlari va raqamli platformalar orqali ham tezkor yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq. Beshinchidan, ijtimoiy sheriklikka nodavlat notijorat tashkilotlari, psixologik markazlar, huquqiy klinikalar va volontyorlik tashabbuslarini jalb qilish foydali. Chunki ayrim hollarda davlat tizimi yetib bormagan nuqtaga aynan jamoatchilik va professional hamjamiyat tezroq kirib borishi mumkin.

Shuningdek, bola huquqlarini ta’minlash samaradorligini baholash uchun yangi indikatorlar zarur. Faqat aniqlangan huquqbuzarliklar yoki hisobga olingan oilalar soni bilan cheklanib qolish yetarli emas. Baholashda takroriy zo‘ravonlik holatlarining kamayishi, maktabga qaytgan bolalar ulushi, oilaga ko‘rsatilgan

Bugun huquqbuzarliklar profilaktikasini, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o’rtasida tashkil etish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini, ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o’rganish va bartaraf etish; jinoyatlarni aniqlash, bartaraf etish va fosh etishda, tergov, sud va sud hujjatlarini ijro etishdan yashirinib yurgan shaxslarni, shuningdek bedarak yo’qolgan fuqarolarni qidirishda ishtirok etish; voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo’ravonlik va shafqatsizlik g’oyalaridan himoyalashga yo’naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish; aholi bilan uning eng muhim muammolarini hal etish va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalarida to’g’ridan-to’g’ri ochiq muloqotni yo’lga qo’yish; huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, g’ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashuvini ta’minlash; huquqbuzarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo’yicha ichki ishlar organlarining boshqa bo’linmalari, davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan o’zaro hamkorlikni amalga oshirish Tayanch punktlarining asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Muhim jihati shundaki, profilaktika inspektorlarining davlat tashkilotlari, boshqa tashkilotlar hamda aholi bilan hamkorligini tashkil etish quyidagi yo’llar bilan amalga oshiriladi: huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo’yicha qo’shma tadbirlarini rejalashtirish va o’tkazish; kollegial qarorlarni talab qiluvchi vazifalardan kelib chiqib qo’shma yig’ilishlar o’tkazish; mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati natijalari haqida xabardor qilib borish; faoliyatga baho berish va birgalikda amala oshirilgan ishlar natijalarini hisobga olish; hamkorlikni tashkil etishning ilg’or shakllari va usullarini umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Bunda, davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlar profilaktika

inspektorlariga o'z vakolatlari doirasida o'quv-metodik, axborot, maslahat va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Zero, bugungi kunda profilaktika inspektorlarining faoliyati rivojlangan davlatlar tajribalari va maxalla institutini inobatga olgan tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda jamiyatda jamoat tartibini saklash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish kabi bir qancha vazifalarni bajarib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ushbu masalalarga alohida to'xtalib, «Biz «Adolat – qonun ustuvorligida» degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqzuarlik holatlariga muvofiqlik hissinini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor karatiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma'suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko'rishimiz darkor», ta'kidlab o'tishi ham bu soha vakillarining adolatli jamiyatda adolatli faoliyat borishi borasida o'ziga xos munosabat deyish mumkin.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishda profilaktika inspektoriga vakolatlari doirasida ko'maklashishi shart va zarur hisoblanadi.

Qolaversa, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish va oshirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari yaqindan hamkorlik qilishi kutilgan natijani beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ichki ishlar organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirib borishi birinchi nabvatda, davlat va jamiyat tinchligi va rivojlanishini amalga oshirishda qo'l kelsa, ikkinchi tomondan esa, jamiyat a'zolarining bu soha vakillarini ko'rganda ulardan cho'chish emas, balki ularga ko'maklashish va amaliy yordam berishning tashabbuskori va jonkuyari munobatini shakllantirishga sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мухамедов Ў.Х. Ҳаракатлар стратегияси асосида ички ишлар органлари тизимидаги ислохотлар: биринчи босқич якунлари ва истиқболдаги вазифалар: Монография. -Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. -Б. 76.

2. Ички ишлар органлари профилактик фаолияти: Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти мутахассислиги учун: Маърузалар курси / А.С.Турсунов, И.Исмаилов ва бошқа. -Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. -Б. 4.

3. Qarang: Қодиров Қ.Б. Мустақиллик даврида Ўзбекистонда ички ишлар идораларининг фаолияти (1991–2011 йиллар). Тарих.фан.бўй.фалс.док. (PhD) ...дисс.автореф. -Т., 2019. -Б. 18.

4. Конституция - эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси /Халқ сўзи, 08.12.2017.

5. Qarang: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 18.04.2017 йилдаги ПҚ-2896-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/3175732>.

6. Шавкат Мирзиёев. «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови». Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси./ Халқ сўзи., 2016., № 243 (6678). -Б. 1-3.

К ВОПРОСУ О КЛАССИФИКАЦИИ ИСТОЧНИКОВ ПОВЫШЕННОЙ ОПАСНОСТИ

Раунова Манзура Турсуновна –

*доктор юридических наук, профессор кафедры гражданского и
экономического права юридического факультета Академии
государственного управления при Президенте Республики Таджикистан.*

В результате научно-технического прогресса, безусловно, человечество будет осваивать новые виды вреда окружающей среде, причиненных источниками повышенной опасности. А на современном этапе обязательства, возникающие вследствие причинения вреда источниками повышенной опасности, развивается с учетом следующих важнейших факторов: кризисного состояния окружающей среды в стране и общественных потребностей в восстановлении благоприятной окружающей среды; дефектов существующего экологического законодательства в Таджикистане и т.д. И, безусловно, совершенствуется и осведомленность самого человека, разрабатываются меры безопасности обращения с опасными предметами, поэтому перечень видов источников повышенной опасности должен подлежать периодическому пересмотру и модернизации.

И в этой связи, представляется, правильное определение классификации источников повышенной опасности будут полезны как для их устранения, так и для правоприменительной деятельности судов, а также упростят поиск юридической истины по конкретным гражданским делам.

Таким образом, если отметит в статье, значение обязательств из причинения вреда, то в обществе происходит постоянное взаимодействие людей друг с другом и с предметами природы. Оно становится все более

интенсивным, а его результаты зачастую непредсказуемы. Нередки случаи, когда в ходе такого взаимодействия имущественным и личным нематериальным благам граждан, организаций и других субъектов гражданского права наносится ущерб. Он может быть результатом случайного стечения обстоятельств и злого умысла, чей-то оплошности и неподконтрольности сил природы. Несомненно, возникает необходимость определить, кто будет нести последствия такого ущерба: тот, кто его понес, или тот, кто его причинил, или какое-то третье лицо, которое не было ни причинителем, ни потерпевшим.

Если принимать во внимание правовую доктрину в вопросах на природу гражданско-правовой ответственности в сфере промышленного загрязнения окружающей среды различны, то это определяет также важность неоднозначного подхода к определению этого понятия.

Месту определения гражданско-правовой ответственности в системе гражданско-правовых способов борьбы с промышленным загрязнением окружающей среды, и правового регулирования охраны окружающей среды в Республике Таджикистане в последние годы уделяется пристальное внимание в связи с нарастающим обращением в судебные инстанции жалоб по поводу загрязнения источниками повышенной опасности. К примеру, наиболее распространен взгляд на источник повышенной опасности как на определенного рода деятельность, создающую повышенную опасность для окружающих (теория деятельности). В настоящее время эта точка зрения имеет известное отражение в п.1 ст. 1094 ГК РТ. Известно, что источником повышенной опасности следует понимать физические, физико-химические, химические и биологические силы, используемые субъектами гражданского права в силу принадлежащего им права собственности, хозяйственного ведения или оперативного управления либо по другим допускаемым основаниям (договор, закон, административный акт и т.п.) и представляющие повышенную опасность для окружающих.

Действительно, любая деятельность, осуществление которой создает повышенную вероятность причинения вреда из-за невозможности полного контроля за ней со стороны человека, а также деятельность по использованию, транспортировке, хранению предметов, веществ и иных объектов производственного, хозяйственного или иного назначения, обладающих такими же свойствами, создает повышенную опасность и может являться источником повышенной опасности.

Безусловно, для отнесения того или иного вида деятельности (материального объекта) к источнику повышенной опасности необходимо, чтобы им создавалась повышенная опасность причинения вреда окружающим.

Признание того или иного вида деятельности (материального объекта) источником повышенной опасности нередко прямо зависит не только от его качественного, но и количественного состава.

Особые правила об ответственности за вред, причиненный источником повышенной опасности, действуют лишь тогда, когда вред причинен теми вредоносными свойствами объекта, которыми обусловлено признание его таким источником. Так, автомобиль является источником повышенной опасности лишь тогда, когда он находится в движении. Поэтому если вред причинен хотя и при эксплуатации общепризнанного источника повышенной опасности, но вне связи с его повышенными вредоносными свойствами, ответственность наступает на общих основаниях. Поэтому более предметное представление о понятии источника повышенной опасности дает их классификация. В Гражданском кодексе РФ ни прежде, ни теперь какого-либо исчерпывающего или, по крайней мере, претендующего на полноту перечня возможных источников повышенной опасности не содержится.

По поводу целесообразности исчерпывающего перечня источников повышенной опасности в литературе имеются различные суждения. Представляется, законодатель должен установить исчерпывающий перечень источников повышенной опасности.

До недавнего времени из практики стран СНГ цивилистами была признана классификация О. А. Красавчикова, в которой были выделены четыре основные группы источников повышенной опасности:[1]

- физические, которые подразделял на механические (например, транспорт), электрические (например, системы высокого напряжения) и тепловые (например, паросиловые установки);
- физико-химические, к которым относятся радиоактивные материалы;
- химические подразделяемые на отравляющие (например, яд), взрывоопасные (некоторые газы) и огнеопасные (некоторые виды топлива);
- биологические, которые делятся на зоологические (дикие животные) и микробиологические (некоторые виды микроорганизмов).

Данная классификация, при всей её спорности и условности, до сих пор признается многими цивилистами и использовалась в качестве ориентира при рассмотрении конкретных дел. Такая же классификация принята в п.1 ст.1094 ГК РФ в толковании определения источника повышенной опасности[2].

Анализ специальной литературы по рассматриваемому вопросу позволяет делать вывод, что в качестве источника повышенной опасности рассматриваются: 1) свойства вещей или сил природы; 2) сложные объекты, обладающие специфическими свойствами, вследствие которых их использование создают повышенную опасность; 3) деятельность по использованию объектов, но не сами объекты; 4) деятельность их объектов.

Не смотря на то, что законодатель, как было уже сказано, в качестве источника повышенной опасности в ст. 1094ГК РФ рассматривает деятельность по использованию определенных объектов, необходимо обратит

внимание, в этой же ст. ответственность за причиненный вред возлагается на владельца источника повышенной опасности.

Некоторые категории вещей опасны и в состоянии покоя (взрывчатые, радиоактивные вещества). Но в этом случае вред не может быть причинен в не пределах сознательной и не сознательной деятельности человека. Бесспорно, что необходимо принимать во внимание характер вещи, чтобы причислит её к числу источников повышенной опасности в состоянии покоя или действия.

Вредоносность должна быть не однократно так как вредоносность, подконтрольная человеку, не создает той повышенной опасности, наличие которой усиливает ответственность за причиненный вред.

Таким образом, не всякий предмет является источником повышенной опасности, а лишь тот, который в процессе деятельности неподконтролен еще человеку, а в действии неизбежно причиняет вред человеку или имуществу, оказавшимся в соприкосновении с ним.

Изучая судебную практику последних лет в Республике Таджикистан, можно привести примерный перечень деятельности, издающей повышенную опасность для окружающих, в отношении которых прогрессирует обращение граждан в разные инстанции, в том числе и судебные разбирательства. Это касается чаще всего использования транспортных средств, механизмов, электрической энергии высокого напряжения, атомной энергии, взрывчатых веществ, силнодействующих ядов и т. п.; осуществление строительной и иной, связанной с нею деятельностью и др.

Очевидно, что это лишь ориентир. Если деятельность не входит в перечень, суд будет в каждом конкретном случае устанавливать, не обладает ли она признаками характерными для источников повышенной опасности.

К таким признакам относятся: а) невозможность мгновенного торможения для транспортных средств; б) высокая вероятность взрыва, самовозгорания и саморазложения для горючих, взрывчатых, химических веществ; в) летучесть и высокая токсичность для ядовитых и отравляющих веществ. Его и невозможно составить ввиду постоянного развития науки и техники.

Таким образом, источник повышенной опасности:

1) Деятельность, создающая повышенную опасность для окружающих, а также объект; 2) Осуществление этой деятельности создает повышенную вероятность причинения вреда из-за невозможности полного контроля за ней со стороны человека, а также деятельность по использованию, транспортировке, хранению предметов, веществ и иных объектов производственного, хозяйственного и иного назначения, обладающих такими же свойствами.

Законодатель и судебная практика относят к источникам повышенной опасности и любую деятельность, связанную с ними, и сами вещества, материалы, предметы и оборудование, несущие на себе повышенную

опасность. Причем особое внимание следует обратить на то, что ответственность за вред, причиненный любой деятельностью, создающей повышенную опасность для окружающих, а также - веществами, материалами, предметами или оборудованием, как источниками повышенной опасности, не обуславливается только лишь владением источниками повышенной опасности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Красавчиков О.А. Учебник советского гражданского права. Ч- 2. - М.: «Высшая школа», 1985.
2. Гражданский кодекс Республики Таджикистан. Душанбе -2002 г.

INSON HUQUQLARINI IJTIMOIIY DAVLAT KONTEKSTIDA HIMOYA QILISH: XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION STRATEGIYALAR

Isomov Muxammadjon Kurontoyevich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, inson huquqlarini ijtimoiy davlat kontekstida himoya qilish, xalqaro tajribalar va innovatsion strategiyalar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Tadqiqotda ijtimoiy davlatning mohiyati klassik va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida ochib beriladi. Hamda inson huquqlarini ta'minlashda davlatning funksional roli yoritiladi. Shuningdek, Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo davlatlari tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, inson huquqlarini himoya qilishning samarali strategiyalari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, ijtimoiy-huquqiy davlat, ijtimoiy adolat, farovonlik davlati, xalqaro tajriba, raqamli transformatsiya, innovatsiya.

Annotation: This article discusses the protection of human rights in the context of a social state, international experiences, and innovative strategies. The study examines the essence of the social state based on classical and modern scientific approaches. It also highlights the functional role of the state in ensuring human rights. Moreover, the experiences of European, North American, and Asian countries are comparatively analyzed to identify effective strategies for the protection of human rights.

Key words: human rights, social and legal state, social justice, welfare state, international experience, digital transformation, innovation.

Kirish. Inson huquqlarini asoslab beruvchi universal tamoyillarni tushunish ularni himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Inson huquqlari har bir inson, uning irqi, jinsi, dini yoki millatidan qat'i nazar, tug'ma qadriyatga ega degan g'oyaga asoslanadi. Inson huquqlarining markazida har bir

shaxs shunchaki inson bo'lgani uchun ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'lishi kerakligi haqidagi tushuncha yotadi [1].

Inson huquqlarining tarixiy rivojlanishi va ularning global miqyosda tan olinishi adolatli va teng huquqli jamiyat barpo etish yo'lida muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Asosiy xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalar inson huquqlarini himoya qilish tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Ular ijtimoiy adolat va tinchlikni targ'ib qilishda yo'l ko'rsatuvchi va umid manbai sifatida xizmat qiladi.

Tarix davomida inson huquqlarini tan olish va himoya qilish jarayoni rivojlanib bordi. Qadimgi sivilizatsiyalardan tortib zamonaviy jamiyatlargacha inson huquqlari tushunchasi madaniy, falsafiy va huquqiy taraqqiyotlar ta'sirida shakllandi. Masalan, qadimgi Yunonistonda tabiiy huquq g'oyasi paydo bo'lib, u ayrim huquqlar barcha insonlarga xos ekanligini ta'kidlagan. Ushbu qarash keyinchalik inson huquqlari haqidagi muhokamalarga asos bo'lib xizmat qilgan va zamonaviy adliya tizimining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Inson huquqlarini himoya qilish masalasi huquq nazariyasi va davlat boshqaruvi tizimining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy davlat konsepsiyasi inson huquqlarining keng qamrovli ta'minlanishini nazarda tutuvchi ijtimoiy-huquqiy model sifatida talqin etiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini ijtimoiy davlat doirasida ta'minlash turli mamlakatlarda turlicha shakllangan bo'lsa-da, umumiy maqsad bir xil - inson sha'ni va erkinliklarini himoya qilishdir. Yevropa davlatlarida, ayniqsa Skandinaviya mamlakatlarida, ijtimoiy davlat konsepsiyasi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu yerda davlat universal ijtimoiy xizmatlar, kuchli ijtimoiy himoya tizimi va yuqori darajadagi tenglikni ta'minlash orqali inson huquqlarini kafolatlaydi [2].

Yevropa inson huquqlari tizimi, jumladan sud nazorati mexanizmlari, huquqlarni xalqaro darajada himoya qilishning samarali vositasi sifatida shakllangan. Shimoliy Amerika mamlakatlarida esa inson huquqlarini himoya qilish asosan konstitutsiyaviy normalar va sud tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizimda shaxs erkinliklari ustuvor ahamiyat kasb etadi va sud hokimiyatining mustaqilligi inson huquqlarining asosiy kafolati hisoblanadi. Osiyo mamlakatlarida esa inson huquqlarini ta'minlash milliy an'analar, iqtisodiy rivojlanish darajasi va siyosiy tizim bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Masalan, Yaponiyada ijtimoiy barqarorlik va jamoaviylik tamoyillari ustuvor bo'lsa, Janubiy Koreyada innovatsion rivojlanish va raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi [3, 236].

Shu bilan birga, globallashuv sharoitida inson huquqlarini himoya qilish yangi muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Ijtimoiy tengsizlikning ortib borishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, ekologik inqirozlar va raqamli notenglik kabi omillar ijtimoiy davlatning an'anaviy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Amartya Sen rivojlanishni inson erkinliklari bilan bog'liq holda talqin qilib, ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi inson imkoniyatlarini

kengaytirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa inson huquqlarini himoya qilishni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi [4,402].

Zamonaviy sharoitda inson huquqlarini himoya qilishning innovatsion strategiyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli davlat konsepsiyasi davlat boshqaruvida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaffoflik va samaradorlikni oshirmoqda. Elektron hukumat tizimlari orqali fuqarolar davlat xizmatlaridan tez va qulay foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda, bu esa ularning huquqlarini amalga oshirish darajasini oshiradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining huquq sohasiga joriy etilishi sud ishlarini ko'rib chiqish jarayonlarini tezlashtirish, huquqbuzarliklarni aniqlash va huquqiy maslahatlar berish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq bu jarayonda shaffoflik, adolat va inson omilini saqlab qolish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy innovatsiyalar ham inson huquqlarini ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Inklyuziv ta'lim tizimlari, ijtimoiy himoya dasturlari va zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatlar ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish, ochiq muloqot va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish ham inson huquqlarini himoya qilishning muhim omillaridan biridir. Xalqaro hamkorlik esa global muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki inson huquqlari universalligi davlatlar o'rtasida hamkorlikni talab etadi.

Ijtimoiy davlat sharoitida inson huquqlarini himoya qilish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u huquqiy, ijtimoiy va texnologik omillarning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Ilmiy nazariyalar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali inson huquqlari tizimi faqatgina qonunlar bilan emas, balki ularni amalda ta'minlovchi mexanizmlar bilan mustahkamlanishi zarur. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqib, yanada adolatli va inklyuziv jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kambag'allikni bartaraf etish, to'liq bandlikni ta'minlash hamda inklyuziv fuqarolik uchun sharoit yaratish boshqaruvning muhim maqsadi sifatida e'tirof etiladi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, doimiy kambag'allik, etnik omillar va gender tengsizligi kabi sabablar natijasida yuzaga kelayotgan tafovut va tengsizliklar inklyuziv fuqarolik, iqtisodiy o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Hatto rivojlangan mamlakatlarda ham ayrim ijtimoiy qatlamlar kambag'allik, diskriminatsiya va tengsiz sharoitlarga duch kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy davlat tushunchasi turli nazariy yondashuvlar orqali izohlanadi. T.H. Marshallning fuqarolik konsepsiyasiga ko'ra, inson huquqlari tarixiy rivojlanish jarayonida fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlarga bo'linadi va aynan ijtimoiy huquqlar bosqichi davlatning ijtimoiy

funksiyalarining kengayishiga olib kelgan. G. Esping-Andersen esa ijtimoiy davlatni liberal, konservativ va sotsial-demokratik modellarga ajratib, har bir modelda ijtimoiy himoya darajasi va davlatning roli turlicha ekanligini asoslab beradi [5, 153].

Shu bilan birga, J. Rawlsning adolat nazariyasida ijtimoiy tenglik va imkoniyatlar tengligi asosiy tamoyil sifatida ilgari suriladi, bu esa ijtimoiy davlatning normativ asoslarini mustahkamlaydi. Ushbu nazariy qarashlar inson huquqlarini himoya qilishda davlatning faolligi va ijtimoiy siyosatning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Aholining barcha qatlamlariga foyda keltiradigan rivojlanish va iqtisodiy o'sish modeliga ehtiyoj, ayniqsa "ish o'rinsiz o'sish" hodisasi va iqtisodiy jihatdan sezilarli yutuqlarga erishgan, o'rta yoki yuqori daromadli mamlakat maqomiga ega bo'lgan davlatlarda ham tengsizlikning ortib borayotgani sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [6, 174].

Inson huquqlari faollari va olimlari bir necha yillardan buyon xalqaro inson huquqlari normalari va standartlarini milliy rivojlanish siyosati hamda dasturlariga integratsiya qiluvchi inson huquqlariga asoslangan yondashuv iqtisodiy o'sish muvaffaqiyati va tengsizlikni kamaytirish o'rtasidagi ziddiyatga javob berishning muhim strategiyasi ekanini ta'kidlab kelmoqda. Ularning fikricha, aynan ushbu normalar va standartlarning integratsiyasi aholining rivojlanish jarayonida faol ishtirok etishi va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi o'n yilliklarda xalqaro inson huquqlarini amalga oshirish tajribasini tahlil qilish hamda turli mamlakatlar tajribasi inson huquqlariga asoslangan yondashuv inklyuziv rivojlanishga erishishda ma'lum darajada hissa qo'sha olishini ko'rsatadimi yoki yo'qmi, degan masalani o'rganish muhim ahamiyatga ega. Inson huquqlarini himoya qilishning muhim huquqiy mexanizmlaridan biri milliy inson huquqlari institutlarini yaratish hisoblanadi. Ushbu mustaqil organlar mamlakat ichida inson huquqlarini nazorat qilish va targ'ib qilish uchun javobgardir.

Huquqiy mexanizmlardan tashqari, institutlar tuzilmasi inson huquqlarini samarali amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday tuzilmalar maxsus sudlar, ombudsman idoralari va inson huquqlari komissiyalarini o'z ichiga oladi. Masalan, xalqaro jinoiy tribunal kabi maxsus sudlar genotsid, urush jinoyatlari va insoniyatga qarshi jinoyatlar kabi og'ir inson huquqlari buzilishlari uchun javobgar shaxslarni sudga tortishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro hamkorlik inson huquqlarini himoya qilishni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va kelishuvlar orqali mamlakatlar inson huquqlari standartlariga rioya qilishni o'z zimmasiga oladi va global miqyosdagi inson huquqlari muammolarini hal qilishda bir-birlari bilan hamkorlik qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va mintaqaviy inson huquqlari organlari kabi xalqaro tashkilotlar ushbu standartlarga rioya qilinishini nazorat qiladi hamda muloqot va hamkorlik platformasini taqdim etadi. Mamlakatlar

birgalikda ishlash orqali eng yaxshi tajribalarni bo'lishishi, bir-birlarining tajribasidan o'rganishi va tizimli inson huquqlari muammolarini birgalikda hal qilishi mumkin [7, 288].

Inson huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Huquqiy va institutlar mexanizmlari, ta'lim va xabardorlikni oshirish, innovatsion yondashuvlar va xalqaro hamkorlik inson huquqlarini targ'ib qilish va himoya qilishga xizmat qiladi. Inson huquqlari tizimlarini mustahkamlash va hurmat hamda hamdardlik madaniyatini rivojlantirish orqali barcha shaxslarning qadr-qimmatini va tengligini ta'minlaydigan dunyoni yaratishimiz mumkin.

Xulosa: Innovatsion yondashuvlar va xalqaro hamkorlik taraqqiyot uchun katalizator vazifasini o'taydi va qadr-qimmat va tenglikni ta'minlash yo'lida hech kim ortda qolmasligini kafolatlaydi. Masalan, texnologiya inson huquqlarini targ'ib qilish va himoya qilishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy tarmoqlar shaxslar o'z hikoyalarini bo'lishishi, yordam jalb qilishi va inson huquqlari buzilishlari haqida xabardorlikni oshirishi uchun platforma taqdim etadi. Shuningdek, onlayn platformalar faollar va tashkilotlarga chegaralarni oshib bir-birlari bilan bog'lanish va hamkorlik qilish imkonini beradi, ularning ta'sirini kuchaytiradi va global birdamlikni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. –T.: O'zbekiston, 1996. [https://nrm.uz/contentf?doc=9124_fuqarolik_kodeksi_\(6-12_boblar_81-163-moddalar\)&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr](https://nrm.uz/contentf?doc=9124_fuqarolik_kodeksi_(6-12_boblar_81-163-moddalar)&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr).
3. Javodbek Yoqubov, Ergash Hayitboyev. «Huquqshunoslik». «Yangi asr avlodi». 2006-yil 236 bet.
4. Marshall, T. H. *Citizenship and Social Class*. Cambridge: Cambridge University Press. 1965. 402 p.
5. United Nations. *Universal Declaration of Human Rights*. Paris: United Nations. 1948. 153 p.
6. United Nations. *International Covenant on Civil and Political Rights*. New York: United Nations. 1966. 174p.
7. Alston, P., Goodman, R. *International Human Rights*. 3rd Edition. Oxford: Oxford University Press. 2013. 288 p.

РОЛЬ ИНДИВИДОВ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

*Захидов О.Х., д.ф.н., доцент
УзГУМЯ кафедры социальных наук.*

Существует социальная теория, которая предлагает о необходимости рассматривать проблему человека в связи с вопросом об обществе. Потому что если общество является основой формирования и развития способностей человека и его воспитания, то причина многообразия людей также зависит от условий в обществе. Ведь многообразие людей зависит от занимаемого ими места в социальной структуре, что является основой социального неравенства и основанием возникновения различных теорий о сущности человека. Различные условия общества усиливают неравенство, как буд-то сущность человека зависит от его природы или каких-то других факторов, и как буд-то такое неравенство существовало с самого начала и не может быть исправлено. Например, греческий философ Платон развил эту точку зрения. По его мнению, человек обладает душой, в которой с самого начала в свернутом виде присутствуют все его способности и черты, что является основой социального неравенства и не может быть уничтожено. Однако с точки зрения марксизма социальное неравенство является результатом неравного отношения к собственности, и для создания наилучших условий необходимо отменить частную собственность, и тогда люди будут развиваться всесторонне и полно. Согласно материализму неравенство людей не дано природой или Богом, а является результатом социальных отношений, в которых люди воспитываются и развиваются. Общество, где существует частная собственность и главным фактором становится материальные интересы, отношение между людьми превращаются в односторонние. В структуре общества, где установлены отношения частной собственности и эксплуатация одного человека другим, человеческая личность становится одномерной[1] (Герберт Маркузе), и с заменой такого общества исчезает и основа эксплуатации, и одномерная личность.

Одномерная личность – это несовершенная личность, которая возникает не из её сознания и мышления, а её мышление определяется социальными условиями, и пока существует такое одностороннее общество, совершенная личность в этом случае остаётся лишь идеалом. Люди, живущие в обществе и действующие в разных условиях, не имеют условий для того, чтобы стать совершенной личностью, но они могут стать великими людьми. Совершенная личность, одномерный человек, великий человек – эти понятия являются наиболее всеобщими и абстрактными понятиями, которые применяются для определения человека. Например, чтобы стать великой личностью, необходимо, чтобы эта личность достигла уникальных успехов в своей области, которые внесут большой вклад в

прогресс общества и человечества. Такие люди отличаются от обычных и простых людей тем, что они упорно трудились, добиваясь значительных результатов, не жалея жизни и имущества ради своих уникальных достижений. В области науки среди таджиков, определивших развитие человечества на многие столетия, можно назвать двух великих людей: Ибн Сино и Мухаммада аль-Хорезми. Ибн Сина превратил медицину из ремесла в науку, а Хорезми стал основателем высшей математики, и этого одного достаточно, чтобы его имя была бы запимана золотыми буквами в истории человечества. Именно труд и усилия этих людей позволили им поднять свою креативность на высокий уровень. Великий человек отличается от простого и рядового человека именно тем, что он невыходя за пределы развития общества, опережает свою эпоху на много вперед. Следует отметить, что великим человеком может стать каждый, но не каждый имеет способности и возможности стать таковым: когда общество сталкивается с неразрешимой проблемой, он предлагает решение. Обычно человек предлагает решение проблемы, стоящей перед обществом, в трех направлениях.[2] Если такие проблемные ситуации возникли в области науки, то способы решения обычно могут быть проверены в течение времени. Однако, если это касается сферы государственной политики и управления страной, то определения личности правителя зависит от конкретных результатов, которые очень легко проверить. В зависимости от решения проблемы оценивается работа государственных руководителей. Первое направление обычно называют прогрессом, если государственная власть действует в направлении, согласно экономическим законам и в результате общество достигает больших успехов за короткий период времени. Второе направление предлагает смещается в крайне левую сторону, что не считается прогрессом для общества, и само общество в этом случае оказывается в трудном положении. Такие люди, как лидеры, заводят общество в тупик, но прекрывают результаты своих работ риторическими приемами. Но, как говорит Маркс, людей и общество оценивают не по тому, что они говорят о себе, а потому что они реально делают.направление полностью разрушает общество и приносит людям насилие, убийства и чрезмерное уничтожение, потому что собственные интересы и своих родственников стоят на первом месте.

Ученые, деятели искусства могут стать великими творцами при жизни, только после их смерти можно по настоящему оценить их деятельность, так как не все из них вносят большой вклад в развитие человечества. Политики могут считаться великими при жизни, но с годами их величие уменьшается, потому что при жизни их восхвалял двор. Например, в таджикской истории султан Махмуд был восхвален придворными и назван одним из великих людей, но Бегунни записал все его злодеяния в своей книге и изобразил его как одного из невежественных и тиранических султанов. То есть, если глава государства во время своего

правления причиняет вред своему народу и осложняет ему жизнь, но обогащает своих родственников, друзей и союзников, превращая народ в нищих у дверей чужеземцев, то называть такого человека «справедливым царем» – это ошибка и грех. Критерием оценки величия лидера является жизнь народа, и это было предложено ещё Аристотелем. Если численность граждан со средним достатком превышает половину населения в обществе[3], то лидера этого государства можно определить как «справедливый правитель». Следовательно, великой личностью также считается тот правитель, который при жизни улучшил жизнь народа и внёс большой вклад в развитие науки, культуры. В XX веке великими политиками можно назвать президента США Ф. Д. Рузвельта, который вывел американский народ из тяжёлого кризиса 1930-х годов и сделал Соединённые Штаты великой державой. Китайский политик Дэн Сяопин[5] также повёл свой народ по этому пути, и сегодня Китай стал одной из великих держав. За сорок лет большая часть населения Китая вошла в средний класс. В частности, очень поучительны действия премьер-министра Сингапура, который за пятьдесят лет ввёл совершенно новую экономическую модель, основанную на знаниях государственного управления и использовании экономической науки. За время своего правления Ли Куан Ю[4] безжалостно подавлял все формы взяточничества, коррупции и подкупа чиновников. Он говорил: «Было два способа управлять государством: 1) обогащать родственников и друзей и обнищать народ, и 2) защищать интересы народа и обогащать его. Я выбрал второй путь». Поэтому после 25 лет правления ВВП на душу населения составляет 11 200 долларов, а в первый год независимости - 450 долларов. В 2021 году ВВП на душу населения достиг 59 000 долларов. В настоящее время Сингапур является одной из наиболее развитых стран мира с населением 6,5 миллионов человек и площадью около 800 км². Поэтому Ли Куан Ю – один из самых известных людей в мире, который своими знаниями и действиями обогатил народ своей страны и укрепил государство. Сингапур, который находился в списке стран третьего мира с отсталой экономикой и отсутствием промышленности, превращается в страну самую передовую, входит в список стран третьего мира.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Маркузе Г. Эрос и цивилизация. Одномерный человек: Исследование идеологии развитого индустриального общества / Г. Маркузе; Пер. с англ., послесл., примеч. А.А. Юдина; Сост., предисл. В.Ю. Кузнецова. - М: ООО "Издательство АСТ", 2002. - 526, [2] с.- (Philosophy).
2. Письмо Ф. Энгельса К. Шмидту от 27 октября 1890.г. // Маркс К., Ф. Энгельс. Сочинения. т.37. С.414-420.
3. Аристотель. Сочинения: В 4 т. М.: «Мысль», 1983. Т. 4. – С. 376–644. Перевод с древне- греч. С.Жебелева.

4. Зотов В.Д. Дэн Сяопин – реформатор китайского социализма // Социально-гуманитарные знания. – 2007. – №2. – С.211-225.

5. Ли Куан Ю. На пути из третьего мира в первый. Взгляды и убеждения Ли Куан Ю. М., 2015.

JAMIYATDA BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING MADANIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI

Abduxoliq Tashanov

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent,

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo’lim boshlig’i

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy globallashuv va qadriyatlar zaiflashuvi sharoitida buzg‘unchi g‘oyalarning vujudga kelishi, buning madaniy va axloqiy muammolari tahlil qilingan. Texnologik taraqqiyot natijasida ayrim hollarda moddiy qadriyatlar va iste’molchilik madaniyatining hukmronligi, ma’naviy inqiroz, madaniy zaiflashuv holatlari, axloqiy me’yorlarning pasayishi, ma’naviy qadriyatlarning inkor qilinishi kabi salbiy oqibatlar ham o’rganilgan.

Kalit so’zlar: madaniyat, globallashuv, qadriyatlar zaiflashuvi, buzg‘unchi g‘oyalar, madaniy va axloqiy muammolar, texnologik taraqqiyot, moddiy qadriyatlar, iste’molchilik madaniyati, ma’naviy inqiroz, madaniy zaiflashuv.

Bugun sodir bo‘layotgan madaniy globallashuv va qadriyatlar zaiflashuvi buzg‘unchi g‘oyalar va uning natijasida vujudga kelayotgan buzg‘unchi faoliyatning asosiy sababalaridan hisoblanadi. Madaniy globalizatsiya insonlar va jamiyatlar o‘rtasida madaniy qadriyatlar va me’yorlarning o‘zaro ta’sirini keltirib chiqaradi[1.10]. Lekin bu jarayon jamiyatlardagi milliy va an’anaviy qadriyatlarni zaiflashtirib, axloqiy inqirozni kuchaytirishi mumkin. Globallashuv mahalliy qadriyatlar va an’analarning yomonlashishiga olib keladi. Milliy qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotganda, jamiyatdagi umumiy axloqiy me’yorlar ham zaiflashib, axloqiy inqiroz yuzaga keladi. Global madaniyatning hukmronligi o‘z navbatida turli madaniy qadriyatlarni yaksonlashtiradi, bu esa jamiyatda axloq va ma’naviy me’yorlarning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Buzg‘unchi faoliyatning mahalliy an’analar va madaniyatga katta zarar yetkazishi tabiiy hol. “Globalizatsiya jarayonida yoki radikal mafkuraviy ta’sirlar ostida milliy madaniyatlar zaiflashadi, asrlar davomida shakllangan qadriyatlar va urf-odatlar yo‘qolishi xavfi paydo bo‘ladi”[2.456]. Bizning fikrimizcha, madaniy inqiroz – bu jamiyatning ma’naviy va madaniy qadriyatlarining yo‘qolishi yoki zaiflashishi natijasida yuzaga keladigan holatdir. Falsafiy nuqtai nazardan, madaniy inqiroz jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlar, an’analar, madaniy me’yorlar va insonning ma’naviy hayoti bilan bog‘liq chuqur

muammolarni ko'rsatadi. Bu muammolar inson ongi, jamiyatning o'zi, axloqiy me'yorlar va global jarayonlar bilan bog'liq.

Jamiyatda vujudga keladigan madaniy inqirozning asosiy sabablaridan biri bu qadriyatlar va an'analarning qadrsizlanishi yoki zaiflashuvidir. Har bir jamiyat o'zining ma'naviy va madaniy qadriyatlari asosida birlashadi, ammo bu qadriyatlarning inkor qilinishi yoki ularning globallashtirish ta'siri ostida buzilishi madaniy inqirozga olib keladi. Shuningdek, jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlar va madaniy me'yorlar yosh avlod tomonidan inkor qilinganda, madaniy meros yo'qola boradi. "Bepoyon koinot bag'rida arzimas bir zarra hisoblangan insoniyat bugungi kunda o'ta murakkab hamda keskin o'zgaruvchan jarayonlar qurshovida yashamoqda. Insonning ehtiyotsiz harakatlari oqibatida moddiy va ma'naviy qadriyatlar muvozanati izdan chiqmoqda. Barqarorlik beqarorlik bilan almashinmoqda"[3.108]. Bu an'analar insonlar o'rtasidagi yaqinlik va o'zaro tushunishni ta'minlaydi, ularning yo'qolishi esa ijtimoiy aloqalarni zaiflashiradi. Bu borada global madaniyatning keng tarqalishi ham milliy madaniyatlar va qadriyatlarni zaiflashtirib, ularning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bu pirovardida jamiyatda ichki tanglik va turli xil ziddiyatlarni kuchaytiradi, chunki har bir madaniyat o'z qadriyatlari va tarixiga ega.

Madaniy inqiroz ko'pincha axloqiy inqiroz bilan chambarchas bog'liq holda sodir bo'ladi. Odatda, axloqiy qoidalar va me'yorlar jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi, ularning yo'qolishi yoki zaiflashuvi insonlarning ma'naviy bo'shliqqa tushib qolishiga sabab bo'ladi. Jamiyatdagi umumiy axloqiy qoidalarning buzilishi yoki ularning sub'ektivlashuvi axloqiy inqirozga olib keladi. Ma'naviy qadriyatlar va ma'nolarning yo'qolishi insonlarning ichki ma'naviy bo'shliqqa tushib qolishiga olib keladi. Insonlar o'z hayotlaridagi asosiy ma'nolarni topa olmay, ruhiy va psixologik tanglikni his qila boshlaydilar, bu esa ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir qiladi.

Madaniy inqiroz jarayonida insonning ma'naviy tabiati va insoniylik qadriyatlari tanazzulga uchraydi. Insonning ma'naviy rivojlanishi va madaniy tajribalarini yo'qotishi uni o'zining ma'naviy asoslaridan uzoqlashtiradi. Shu bilan birga, inson o'zining madaniy va ma'naviy identifikatsiyasini yo'qotganda, o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilmaydi. Bu holat jamiyatda individualizm va ayrim hollarda egoizmning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu o'rinda insoniylik, insoniy qadriyatlar va hurmat kabi tushunchalar madaniy inqiroz jarayonida zaiflashadi. Insonlar o'rtasidagi hamdardlik va o'zaro hurmat yo'qolib, moddiy manfaatlar birinchi o'ringa chiqadi.

Globallashuv katta imkoniyatlar bilan birga, madaniy inqirozning falsafiy muammolaridan biri hisoblanadi, chunki u jamiyatlardagi madaniy xilma-xillikning yo'qolishiga va madaniy parchalanishga olib keladi. Milliy va mahalliy madaniyatlar global madaniyat ta'sirida o'zining xususiyatlarini yo'qota boradi. Globalizatsiya jamiyatlarda umumiy madaniyatlarning tarqalishiga olib keladi, bu esa mahalliy madaniyatlarning kamayishiga va ularning yo'qolishiga sabab bo'ladi[4.456]. Bu jarayonda insonlar o'zining

milliy yoki mahalliy madaniyatidan uzoqlashib, global madaniyatni qabul qiladilar. Globalizatsiya natijasida turli madaniyatlar o'rtasida keskin kurash jarayoni yuz beradi. Turli xil madaniy xususiyatlar va qadriyatlar global madaniyat ta'sirida bir-biriga aralashib ketadi, bu esa jamiyatlarning o'z madaniy meroslarini yo'qotishiga olib keladi. Bu o'rinda ajdodlardan qolgan ma'naviy merosni nafaqat asrab-avaylash, balki uni rivojlantirish muammosi ham yuzaga chiqadi. "Har bir davr va avlod o'ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday"[5.102] bo'ladi.

Madaniy inqiroz moddiy qadriyatlar va iste'molchilik madaniyatining hukmron bo'lishi natijasida ham yuzaga keladi. Iste'molchilik insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini zaiflashtiradi va ularning moddiy boylikka va buyumlarga qaram bo'lishlariga sabab bo'ladi. Moddiy qadriyatlar ma'naviy qadriyatlardan ustun qo'yilganda, jamiyatda iste'molchilik madaniyati hukmronlik qila boshlaydi. Bu holatda insonlar moddiy boylikka erishishni asosiy maqsad qilib, ma'naviy ehtiyojlar va qadriyatlarga e'tibor qaratmaydilar. Moddiy manfaatlar va iste'molchilik madaniyati insonlarning ma'naviy qadriyatlarini yomonlashtiradi. Insonlar moddiy yutuqlarga erishish uchun ma'naviy hayotini va axloqiy qadriyatlarini qurbon qilishlari mumkin. "Jahonning ko'plab mamlakatlarida qayta ildiz otayotgan neofashizm, neonatsizm g'oyalari eng zamonaviylashib borayotgan g'oyaviy tahdidlarga aylanib bormoqda. «Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri turli mamlakatlarni mafkuraviy jihatdan zabt etishning g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganidir»[6.44].

Jamiyatda mutlaq texnologik rivojlanish madaniy inqirozga sabab bo'ladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Texnologiyaning o'sishi bilan insonlar o'rtasidagi muloqot va madaniy aloqalar real dunyodan virtual olamga ko'chadi, bu esa insonlarning haqiqiy madaniy aloqalardan uzoqlashishiga olib keladi. Texnologiya insonlar o'rtasidagi muloqotni yengillashtirsa ham, virtual olamdagi madaniy tajribalar haqiqiy madaniy aloqalarni almashtira olmaydi. Bu jamiyatda insonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati va o'zaro aloqalari zaiflashishiga sabab bo'ladi. Insonlar texnologiya vositalari orqali muloqot qilgani sari, ular o'zlarining milliy va madaniy meroslaridan uzoqlashib, madaniy ajralish holatiga tushib qolishadi. Bu jarayon madaniy inqirozni kuchaytirib, jamiyatda madaniy va ma'naviy bog'liqlikni zaiflashtiradi.

Buzg'unchi g'oya va buzg'unchi faoliyatning ijtimoiy-madaniy muammolaridagi eng ayanchli holat yoshlarning ta'sirlanishidir. Yoshlar buzg'unchi g'oyalarga eng moyil qatlam hisoblanadi. Radikal g'oyalarning ommalashishi yoshlarni ekstremizm va agressiv harakatlarga undaydi, bu esa ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buzg'unchi g'oyalar yoshlar orasida ko'p tarqaladi va ularni milliy an'analarga bee'tiborlikka yoki madaniy irsdan voz kechishga undaydi. Bu milliy madaniyatning zaiflashishiga va globallashtirish oqimida yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkin.

Jamiyatda paydo bo'lgan radikal va yovuz g'oyalar odamlar o'rtasidagi ishonch, birlik va hamkorlikni zaiflashtiradi. Buzg'unchi g'oyalar aholi qatlamlarini bir-biriga qarshi qo'yadi va ijtimoiy ko'lamdagi nizolarga olib keladi. Buzg'unchi g'oyalar jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni qattiqlashtiradi va yangi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi adovatni kuchaytirib, parchalanish va nizolarga olib kelishi mumkin.

Vayronkor g'oyalar ko'pincha demografik va etnik qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, muayyan etnik yoki ijtimoiy guruhlariga nisbatan zo'ravonlik yoki adovatni qo'zg'otadi, bu esa jamiyatdagi turli qavmlar va qatlamlar o'rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni buzadi. Vayronkor g'oyalar milliy madaniyat va an'analarga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi. Ular jamiyatda asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarni va madaniy me'rosni inkor etadi yoki buzishga harakat qiladi. Ayrim buzg'unchi g'oyalar mahalliy madaniyatni yo'q qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Madaniy assimilyatsiya yoki radikalizm orqali jamiyat madaniy o'zligini yo'qotib, chet el madaniyatlarining ta'siri ostida qolishi ehtimoli yuqori bo'ladi[7.35].

Buzg'unchi g'oyalar jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni zaiflashtirib, ma'naviy qadriyatlarni inkor qiladi yoki ularni yomon yo'nalishlarga burib yuboradi. Buzg'unchi faoliyat yovuzlik, zo'ravonlik va qonunsizlikni odatiy holga keltiradi[8.214]. Insonlar o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida axloqiy qoidalarni buzishga moyil bo'lib qoladi, bu esa jamiyatda qonunga bo'lgan hurmatni kamaytiradi. Buzg'unchi g'oyalar insonlarning shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu jamiyatda egoizm va ma'naviy bo'shliqning kuchayishiga olib kelib, odamlarning bir-biriga bo'lgan mas'uliyat va munosabatlari sustlashishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda axborot tarqatishning global tizimlari buzg'unchi g'oyalarning tezkorlik bilan tarqalishiga imkon yaratmoqda. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali radikal va buzg'unchi g'oyalar keng tarqalmoqda. Radikal va ekstremistik g'oyalar ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashib, yoshlar va boshqa oson ta'sirlanuvchi qatlamlarga ta'sir qilmoqda. Bu jamiyatning yosh avlodini buzg'unchi g'oyalarga moyil qiladi.

Buzg'unchi g'oyalar targ'iboti haqiqiy va ijobiy axloqiy qadriyatlarning yoyilishiga to'sqinlik qilib, axborot makonidagi ma'lumotlarning sifatini pasaytiradi va ishonchsizlik muhitini yaratadi. Axloqiy inqiroz va ma'naviy qadriyatlarning buzilishi jamiyatda axloqiy va ma'naviy me'yorlarning inqirozga uchrashi, insoniy munosabatlardagi tanazzul va shaxsiyatning ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashishi bilan tavsiflanadi. Falsafiy tahlil nuqtai nazaridan, bu muammolar axloqning sub'ektivlashuvi, insoniy qadriyatlarning zaiflashishi va jamiyatdagi ma'naviy bo'shliq kabi masalalarni qamrab oladi.

Ma'naviy bo'shliq va hayotning ma'nosi yo'qola borganda buzg'unchi g'oyalar kuchayib boradi. Aynan, ma'naviy bo'shliq insonlar o'z hayotida ma'nolarni va maqsadlarni topa olmaganida yuzaga keladi. Axloqiy inqiroz jarayonida esa ma'naviy qadriyatlarning buzilishi insonlarning ma'naviy yoki

ruhiy ehtiyojlarining inkor qilinishiga sabab bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlar va an'analar yo'qolganda, insonlar o'z hayotlarida ma'noli va ma'naviy maqsadlarni topa olmaydilar. Bu ularning ma'naviy bo'shliqqa tushishiga, ichki tushkunlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning yo'qolishi insonlarning hayotning maqsadi va ma'nosi haqidagi savollarga javob topishlarini qiyinlashtiradi. Bu jarayonda insonlar o'rtasidagi aloqalar ham ma'nolaridan mahrum bo'lib, jamiyatda turli muammolar kelib chiqadi.

Bugun jamiyatda utilitarizm va moddiy manfaatlar ustuvorligi kuchayib bormoqda. "Utilitarizm – inson faoliyatining asosiy maqsadi faqat moddiy manfaat yoki foydalarni ko'zlash ekanligi haqidagi falsafiy nazariyadir"[9.371]. Moddiy manfaatlar ustuvor bo'lgan jamiyatlarda ma'naviy qadriyatlar zaiflashadi, bu esa axloqiy inqirozga olib keladi. Moddiy manfaatlarning ustunligi kuzatilib, insonlarning asosiy maqsadi moddiy boylik va foydalar bo'lib qolganda, ma'naviy qadriyatlar inkor qilinadi. Bu holatda axloqiy prinsiplar zaiflashib, faqat shaxsiy manfaatlarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, moddiy manfaatlar asosiy maqsad bo'lgan jamiyatlarda ma'naviy qadriyatlar, bunyodkorlik va hurmat kabi tushunchalar pasayib ketadi. Bu holat insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarning inqirozga olib kelishiga sabab bo'ladi.

Jamiyatda ma'naviyat taraqqiyotning muhim omillari hisoblanib, ularning zaiflashuvi katta muammolarni keltirib chiqaradi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, ma'naviyat jamiyatda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Lekin ma'naviyatning zaiflashishi axloqiy inqirozni kuchaytiradi hamda insonlarni ma'naviy asoslardan uzoqlashtiradi. Bizning fikrimizcha, ma'naviyat insonlarning ma'naviy-axloqiy faoliyatini tartibga soluvchi asosiy omillardan biri bo'lib, uning ahamiyati inkor qilinganda, insonlar o'z hayotidagi ma'naviy va axloqiy ehtiyojlarini inkor qiladilar. Bu ularning ma'naviy bo'shliqqa tushishiga, ma'naviy qadriyatlarning yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Buzg'unchi g'oyalarning keng tarqalishida bugungi texnologiya va ma'naviy aloqalarning yo'qolishi ham asosiy omil vazifasini bajarmoqda. Texnologik rivojlanishning insonlar o'rtasidagi ma'naviy va axloqiy aloqalarga ta'siri ham madaniy inqiroz va axloqiy muammolarning bir qismi hisoblanadi. Texnologiya insonlarni virtual olamda yashashga majbur qilib, ularning haqiqiy ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. Texnologiya va virtual aloqa insonlar o'rtasidagi real muloqotlarni yo'qotadi. Bu insonlarning bir-biri bilan bo'lgan ma'naviy aloqalarini zaiflashtiradi va axloqiy qadriyatlarning kamayishiga olib keladi. Insonlar virtual dunyoda ko'proq vaqt o'tkazgani sari, ular o'z hayotidagi haqiqiy axloqiy va ma'naviy aloqalardan uzoqlashadilar. Bu jamiyatda insonlarning ma'naviy qadriyatlarini zaiflashtirib, axloqiy inqirozga olib keladi.

Buzg'unchi g'oyalar inson ma'naviyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, uning shaxs sifatidagi rivojlanishini to'xtatadi va ma'naviy qadriyatlardan chetlashtiradi. Buzg'unchi g'oyalar shaxsga jamiyat va boshqa insonlarga

nisbatan mas'uliyatsizlikni targ'ib qiladi[10.36]. Inson o'ziga faqat shaxsiy maqsadlarni qo'yib, ijtimoiy mas'uliyatdan qochishga moyil bo'lib qoladi. Buzg'unchi g'oyalar shaxsning ma'naviy dunyoqarashini zaiflashtiradi va unda ruhiy tushkunlik va ma'naviy bo'shliq tug'diradi. Inson hayotining ma'nosi yo'qolib, yovuzlik va zo'ravonlikka moyillik kuchayadi.

Xullas, bugungi jamiyatda kuchayib borayotgan axloqiy inqiroz va ma'naviy qadriyatlarning buzilishi falsafiy nuqtai nazardan insonning moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi bilan bog'liq. Axloq va ma'naviyatning sub'ektivlashuvi, moddiy manfaatlarining ustuvorligi, din va ma'naviyatning inkor qilinishi va globalizatsiya bu jarayonlarni kuchaytiruvchi omillardir. Insonlar o'rtasidagi ma'naviy va axloqiy aloqalarni tiklash jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta'minlashning muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Buzg'unchi g'oyalar va inson buzg'unchiligi ijtimoiy va madaniy tuzilmalarni zaiflashtiradi, milliy madaniyatni va an'analarni yo'q qilishi mumkin. Shuningdek, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni zaiflashtirib, jamiyatda yovuzlik va zo'ravonlikni odatiy holga keltiradi. Bu muammolarga qarshi samarali va barqaror choralar ko'rish jamiyatning barqarorligini saqlashda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назарчук А. В. Этика глобализирующегося общества. –М.: Директмедиа паблишинг, 2002. -С.10
2. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Т., O'zbekiston, 2013. – 456 б.
3. Тўраев Б. Оддий ва оммабоп синергетика. -Т.: Академнашр, 2025. – Б. 108-109.
4. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Т., O'zbekiston, 2013. – 456 б.
5. Мустақиллик илмий-оммабор луғат. –Т.: Шарқ, 1998.-Б.102.
6. Жакбаров М. ва бошқалар. Миллий ғоя - хавфсизлик ва барқарорлик омили. –Т.: Турон замин зиё, 2014.–Б. 44
7. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар -Т.: Турон замин зиё, 2015. -Б.35-36
8. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси 1-жилд. -Т.: ЎФМЖ, 2022. -Б. 214
9. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-жилд. -Т., ЎФМЖ, 2022. -Б. 371
10. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар -Т.: Турон замин зиё, 2015. -Б. 36.

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN DAVLAT SIYOSATIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Davronova Feruza Raxmonovna,
O‘zDJTU, Siyosiy fanlar kafedrası v.b.dotsenti, s.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Maqolada mamlakat ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy xavfsizligida ayollarning ijtimoiy institut sifatida o‘rni va ahamiyati siyosiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Davlatdagi siyosiy tizim, milliy va hududiy xavfsizlik, tashqi siyosat, mintaqaviy tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash bevosita aqlan yetuk va barkamol avlod qo‘lida ekan, ularni tarbiyalash esa jismonan va ma’naviy sog‘lom, savodxon va oqila ayollarga bog‘liq. Shunday ekan, xotin-qizlar davlat va jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi faolligini kuchaytirish davr va zamon talabi hamdir.

Tayanch iboralar: siyosat, milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy faollik, gender, ma’rifat, oila.

Bugungi global va mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, milliy mustaqillik rivojlanishiga ichki va tashqi potensial tahdidlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy barqaror taraqqiyotini, ijtimoiy muvozanat, tinchlikni ta’minlash masalasini benihoyat dolzarblashtiradi. Ushbu masala ma’naviy xavfsizlik bilan uzviy bog‘liqdir. Zero, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtaliksiz ma’naviy xavfsizlik taraqqiyot strategiyasini hayotda qaror topishida qiyinchiliklar tug‘diradi. «Mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini turli tahdidlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash – barcha yutuqlarimizning bosh garovidir» – deydi Shavkat Mirziyoyev [1].

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlar va ayollarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lishlari uchun shart-sharoitlarni yaratib berish, sog‘lom bola va sog‘lom ona tamoyilini turmush tarziga aylantirish prezidentimiz siyosatida ustuvorlik qiladi. Ana shu asosda beshta muhim tashabbus yuzaga keladi. Jumladan, yoshlarni san’at turlariga qiziqtirish, ularni jismonan chiniqtirish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlariga imkon yaratish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, savodxonligini oshirish va xotin-qizlarni jamiyat va davlat hayotidagi faolligini oshirishdan iborat. Prezident Sh.M.Mirziyoyev siyosiy qarashlarida millat genofondi, eng avvalo, ayol barkamolligi, jismoniy va ma’naviy yetukligi, uning bunyodkorlik va yaratuvchilik imkoniyatlariga bog‘liqligi, buni qadrlash va ayollarni jamiyatning teng va faol ishtirokchisiga aylantirish lozimligi yetakchilik qiladi. Zero, faol, harakatchan, tashabbuskor, fikran uyg‘oq ayoldan jismoniy sog‘lom, aqlan yetuk farzand tug‘iladi. Demakki, millatni tubdan yangilash, zamonaviy sivilizatsiya

talablariga mos keladigan, mamlakat va jahon taraqqiyotiga muhim hissa qo'sha oladigan, jamiyatda hayotida keskin burilish va innovatsion g'oyalar taklif qilib, burilish yasaydigan avlodni dunyoga keltirish g'oyat muhim hisoblanadi.

Jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilada farzand tarbiyasi, avvalambor, ayol zimmasiga tushadi. Bunda ayol-ona sog'lom, bilimli, e'tiqodi butun, dunyoqarashi yetuk, tarbiyali va ziyoli bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, bilimli va zukko, ma'rifatli ayol jamiyatga kerakli, foyda keltiradigan avlodni tarbiyalaydi. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir", -deb ta'rif beradi [2]. Amerikalik mashhur siyosatchi, faylasuf Frensis Fukuyama o'zining "Katta bo'shliq" asarida: "Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy kapitalning asosiy manbalaridan biri – ijtimoiy qadriyat sifatida ta'minlanadigan ta'lim tizimidir" [3] deb yozadi. Darhaqiqat, bugungi informatsion globallashuv davrida innovatsion g'oyalarga ega, muntazam ravishda yangiliklardan xabardor bo'lgan zehqli kishilarga ehtiyoj yuqori bo'lishi, tabiiy. Informatsiyaning eng yuqori shakli esa bilimdir. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida kreativ, nostandart fikrlaydigan, o'z sohasida yangi usullarni taklif qila oladigan professional mutaxassislariga ehtiyoj tobora ortmoqda. Muammoning yechimi shaxsiy imkoniyatlarni muttasil rivojlantirish, demokratik davlatda va fuqarolik jamiyatida yashash ko'nikmalarini egallash, kasbiy malaka va kompetensiyalarni shakllantirish masalasiga borib taqaladi.

1995 yil 16 noyabrda YuNESKO tomonidan qabul qilingan bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida tolerantlik va bag'rikenglikka quyidagicha ta'rif beriladi: "Biz jahon madaniyatlarining boy xilma-xilligini, o'zini namoyon qilish usullari va insonlarning individualligini bayon etish shakllarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishimiz lozim" [4]. Deklaratsiyada insonlar tashqi qiyofasi, mavqei, nutqi, xulq-atvori va qadriyatlari jihatidan farq qiladi. Ular tinch-totuv yashashi va o'z individualligini saqlab qolish huquqiga ega ekanligini tan olish lozimligi keltiriladi. Shunday ekan, har bir davlat va jamiyat o'z rivojlanish yo'lini o'z imkoniyatlari va salohiyatiga asoslanib belgilaydi. Shunday ekan, aksariyat islom diniga asoslangan o'zbek oilalarida bag'rikenglik, boshqa din, irq va millatlar madaniyatiga hurmat, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, bosiqlik, kamtarlik, insoniylik kabi xislatlar ustuvor bo'lib, an'anaviy oilalarda bolalikdan shakllantirilib boriladi. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash bu kabi milliy va madaniy qadriyatlar muhim hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy barqarorlik darajasi – bu farovonlikning eng muhim ko'rsatkichidir. Ijtimoiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida aholining bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishning umumbashariy mezonlari sifatida "tolerantlik" va milliy "bag'rikenglik" tamoyillari, "sabr-toqatlilik", "murosayu-madora" kabi falsafiy komponentlarining mazmun-mohiyati aniqlashtirilgan, islom dinining "murosa", "rahmdillik" va "sabr-bardoshlilik" tamoyillarida kattalarning yoshlarga pand-nasihat an'alarini o'rgatish orqali

loqaydlik, befarqlik illatidan xalos etish turli yot oqimlarningning oldini olishda asosiy yetakchi omil ekanligi asoslab berilgan. Demak, davlat va jamiyatning farovonligi bevosita uni tashkil etuvchi asos – oila tinchligi, butunligi, diniy qarashlari va ijtimoiy-iqtisodiy mutanosibligiga ham tayanadi. Oila ustunini esa ezgu niyat va maqsadlar sari qonuniy asosda birlashgan erkak va ayolning kelishuvi, birligi tashkil etadi. Jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oila instituti Sharq xalqlari madaniyati va ma‘naviyatida muhim o‘rin tutadi. Oila mustahkam ekan jamiyat mustahkam va sog‘lom bo‘ladi. Barkamol avlod yetishib chiqishi bilan birga, yot ta’sirlarga bardosh beradigan ma‘naviy immunitetni shakllantirishda oila institutining roli katta hisoblanadi. Bu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Oila bo‘lajak fuqaro shakllanadigan ma‘naviy-ruhiy muhit, kichik bir jamiyatdir [5]. Yoshlar ongi va qalbida aynan oila, undagi ma‘naviy muhit ta’sirida dastlabki ma‘naviy immunitet, ijtimoiy qadriyatlar refleksi qaror topadi. Bu borada ayol – ona – buvi rolining ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati yetakchi hisoblanishi tabiiy, albatta.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash haqida gap ketganda, oila – mahalla – jamoatchilik nazorati hamkorligi mexanizmini kuchaytirish, ular o‘rtasi maqsadli va manfaatli aloqani ta‘minlash muhim hisoblanadi. Bugun ijtimoiy boshqaruv idorasi hisoblangan mahallaning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli tobora ortib borayotgani ham alohida ta’kidlash lozim. Binobarin, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni ko‘pchilik yordamida hal etishda yuqoridagi uchlikning o‘rni ahamiyatga molikdir. Joylarda ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni aniqlash, o‘rganish va hal etishda mahalla xotin-qizlari faollari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” konsepsiyasi bugunli yoshlarning bosh maqsadiga aylanishini davr taqozo etadi. Xotin-qizlarning kasbiy malaka yutuqlarini egallashi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka innovatsion yondashuvlar, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, qisqasi Vatanga foydasi tegadigan inson bo‘lib yetishish dolzarb bo‘lib bormoqda. “Bilimsizlikka qarshi ma‘rifat”, “jaholatga qarshi – ma‘rifat” faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash orqali ijtimoiy boshqaruv, korrupsiya va uyushgan jinoyatchikka, diniy ekstremizm va yot ta’sirlarga qarshi kurash uchun yoshlarda sog‘lom turmush tarzi, ta’lim va ma‘naviy madaniyat darajasini yuksaltirish, ayniqsa xotin-qizlarga zamonaviy kasb-hunarlarini egallash davlat va jamiyat talabi ekanligini maktab yoshidan boshlab singdirish nihoyatda muhim. Ulardagi boqimandalik, gender stereotiplariga barham berish, ijtimoiy bandlik orqali milliy va diniy bag‘rikenglik immunitetini shakllantirish lozim. Ma‘rifatparvar mutafakkirimiz M.Behbudiy aytganidek, «Xotin-qizlarni jamiyatning to‘la qonli a‘zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to‘g‘ri hal qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘ldan tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uni taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir-oqibat millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog‘liqdir».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, № 271–272 (7229–7230).
2. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2018 yil 7 dekabr. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 8 dekabr, № 253 (7211).
3. Ф. Фукуяма Ф. Великий разрыв. - М., Изд.АСТ.2003. С.19.
4. Декларация принципов терпимости. Принята резолюцией 5.61 Генеральной конференции ЮНЕСКО от 16 ноября 1995 года. Статья 1 // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/toleranc.shtml
5. V.M. Karimova Oilaviy hayot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TTM. 2006. B.: 30.

IJTIMOIIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY KAPITALNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Sodirjonov Muhridin Mahamadinovich

Namangan davlat univeristeti

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), v.b. professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonida ijtimoiy kapitalning o‘rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy kapitalning tarkibiy elementlari – o‘zaro ishonch, hamkorlik, ijtimoiy aloqalar va fuqarolik faolligining tutgan o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy kapitalni rivojlantirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy davlat tamoyillarini qaror toptirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida ijtimoiy kapitalni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda uning zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy davlat, ijtimoiy kapital, jamiyat taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy ishonch, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy davlat konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etib, u fuqarolarning farovon hayotini ta‘minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda jamiyat barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy-ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy davlatning samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan jamiyatda ijtimoiy kapitalning shakllanishi va rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy kapital jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik, ijtimoiy aloqalar va fuqarolik faolligi kabi omillar majmui bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi muhim ijtimoiy resurs hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va jadal ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy kapitalni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri

sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki jamiyatda ijtimoiy aloqalar va o‘zaro ishonchning mustahkamligi fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga, davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishiga hamda ijtimoiy barqarorlikning ta‘minlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ijtimoiy kapitalni rivojlantirish ijtimoiy davlatni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Qadim o‘tmishdan to bugungi kunga qadar kishilik jamiyatidagi ijtimoiy kapitalni tahlil qilishda milliy o‘ziga xoslik munosabatlarini polyuralistik nazariyalar orqali tushunish ilmiy tadqiqotimizning ko‘p jihatlarini ochiqlashda katta yordam berdi, jumladan, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik munosabatlari har bir davrda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan. Masalan, ibtidoiy tuzumda bu tushunchalar insonni o‘rab turgan atrof-muhit bilan bog‘lab tushunilgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda diniy qadriyatlar (teologik dunyoqarash), davlatchilik g‘oyalarida ustuvor bo‘ldi, yangi davrda esa gumanizm g‘oyalarining keng taraqqiy etishi natijasida insonlar bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy konsolidatsiyaning rivojlanishi orqali yangi ijtimoiy davlatlar paydo bo‘lmoqda. Bularning hammasi ijtimoiy kapitalning u yoki bu jihatlaridan tarkib topgan jarayonlar hisoblanadi.

Ilmiy lug‘atlarda ijtimoiy davlat va huquqiy davlat tushunchalari ham bir-biriga sinonim tarzda ishlatib kelinadi, bunda huquqiy davlatning o‘ziga xos me‘yorlari orqali bugun biz tahlil qilayotgan ijtimoiy davlatni yaratishga olib kelishi mumkin bo‘lgan quyidagi tushunchalar izohlanadi:

- qonun ustuvorligi;
- hokimiyatning bo‘linish prinsipi;
- shaxs huquq va erkinliklarining ta‘minlanganligi;
- davlatning majburlov kuchiga ega ekanligi.

Bundan tashqari, nemischa Duden lug‘atida ta‘kidlanishicha, “farovonlik davlati o‘z fuqarolarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga va jamiyat ichidagi ijtimoiy tafovutlarni muvozanatlashga intiladigan demokratik davlatdir”[5].

Daniyalik sotsiolog G. Esping-Andersen[3] 1980-yillarda olib borgan tadqiqotlariga asoslanib, o‘zining keng iqtibos keltirgan “Farovonlik kapitalizmining uch dunyosi” kitobida 18 ta davlatning ijtimoiy siyosatini o‘rganish natijasida quyidagi ijtimoiy davlat modellarini aniqladi:

Globallashuv davrida biz bir mamlakat va bir etnik guruh to‘siqlaridan uzoqlashmoqdamiz va ko‘pincha ko‘plab mamlakatlar, ko‘plab etnik guruhlar yoki turli tillarga ega odamlar bilan muloqotda va hamkorlikda ishlamoqdamiz. Bu vaqtda eng muhimi mamlakatlar, etnik guruhlar va davrlar o‘rtasidagi tafovutlarni, shuningdek, butun dunyo bo‘ylab insoniyatning inson mohiyatini to‘g‘ri ko‘rib chiqish, tushunish va ulardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Ushbu vaziyatni hisobga olgan holda, quyidagi prinsiplarni ta‘kidlab o‘tish maqsadga muvofiq: “qonuniylik, ijtimoiy mas‘uliyat, birdamlik, insonparvarlik va tenglik tamoyillarini o‘z ichiga olgan ijtimoiy kapitalning faoliyati. Agar asosiy tamoyillarga amal qilinsa, ijtimoiy kapitalning ijobiy qiymatini tan olish mumkin”[6].

Ijtimoiy hamjihatlik ijtimoiy kapitalga asoslangan holda rivojlantiruvchi faoliyat sifatida ijtimoiy davlatning muhim omillaridan biridir. Ijtimoiy hamjihatlikka berilgan ta'riflarda unga ijtimoiy kapital tushunchasining hosilasi sifatida qaraladi. Masalan, Darendorf va boshqalar ijtimoiy hamjihatlikni jamiyatdagi insonlar ijtimoiy begonalashuvining oldini oluvchi jihat sifatida ta'rifladilar: "Ijtimoiy birdamlik yoki hamjihatlik o'zining barcha a'zolariga umumiy qadriyatlar va institutlar doirasida imkoniyatlar taqdim etadigan faoliyatni tavsiflaydi"[2] deydi u. Ijtimoiy hamjihatlik tengsizlik va ijtimoiy begonalashuvni kamaytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy hamjihatlik asosidagi munosabatlarni mustahkamlash tashqi ta'sirlar va aloqalarga jamoaviy yondashuv bilan bog'liq. Bu o'lchov, odatda, jamiyatning ijtimoiy kapitali hisoblangan barcha jihatlar (ishonch, sadoqat, sevgi va boshqalar)ni qamrab oladi. Bu masala jamiyatning ijtimoiy hamjihatligini mustahkamlash uchun ikkala jihatni ham, ya'ni – ijtimoiy begonalashuv oqibatlarining oldini olish va ijtimoiy kapitalni uzluksiz shakllantirish nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.

Ijtimoiy kapital quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

- oila, do'stlar, qo'shnilar kabi shaxslararo munosabatlarda;
- klublar, firmalar, siyosiy partiyalar kabi vositachi uyushmalar va tashkilotlar sifatida;
- huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining o'zaro makro munosabatlarida.

Siyosatshunos S.Saidov tadqiqotida keltirilishicha, "ijtimoiy kapital" tushunchasiga ta'rif berilayotganda farovonlik va rivojlanish omillari sifatida axloq normalari, ishonch va samarali hamkorlikdagi faoliyat kabi omillarga ham e'tibor qaratish zarur. U ijtimoiy kapitalni individual (mikro), jamoaviy (mezo) va sotsial (makro) darajalariga bo'lgan. S.Saidov, ijtimoiy kapitalning "yadro"si bu "ishonch" deb keltirgan[10].

Agar jamiyat ijtimoiy davlat prinsiplari asosida barpo etiladigan bo'lsa, avvalo, ijtimoiy kapitalga ehtiyoj sezadi, chunki ijtimoiy davlat negizlaridan birini ijtimoiy kapitalning segmentlari tashkil etadi. "Bu davlatning aniq maqsadi bo'lib, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, ijtimoiy guruh, ijtimoiy muassasalar, insonning ijtimoiy munosabatlarini, qisqa qilib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan va ularning manfaatlarini barchasidan ustun qo'ygan holda faoliyat yuritishni amalga oshiradi"[7].

Ijtimoiy davlatda ijtimoiy kapitalning kelajakdagi yo'nalishlari quyidagi asosiy jihatlar orqali ifodalanadi:

- Ijtimoiy himoyaga ehtiyoj sezuvchi aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;
- Xayriya tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish va ularni rag'batlantirish;
- Aholining mehnat bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini barpo etish;

– Oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish;

– Fuqarolarni munosib daromad va ish haqi bilan ta‘minlash;

– Bepul va sifatli ta‘lim olish uchun qulay sharoitlar yaratish;

– Aholining sog‘liqni saqlash darajasini oshirish va salomatligini mustahkamlash.

Yuqoridagilarning barchasi jamiyatda birdamlik munosabatlarini ta‘minlab, uni ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini yaxshilash, ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirish, mexnatsevarlik, vatanparvarlik asosida faoliyat yuritishga chaqiradi. Yosh avlodda ijtimoiy kapitalni yaxshilash ularning kelgusidagi hayotida muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki hayotda o‘z o‘rinlarini topishda, jadallik bilan o‘zgarayotgan zamonda turli vaziyatlarga ko‘nikuvchanlik va hissiy sog‘lom bo‘lish imkonini beradi.

Ijtimoiy kapital va ijtimoiy davlat o‘zaro munosabatlarida quyidagi taxminlar jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi:

– jamoat mulkini xususiylashtirish va ijtimoiy xizmatlarni erkinlashtirish;

– sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish;

– ta‘lim islohotlarida nodavlat tashkilotlar bilan raqobatbardoshlikni oshirish;

– davlat boshqaruv tizimida demokratik davlatlar tajribalarini qo‘llash va yuqori mansab lavozimlarini quyi tizimdagi mansabdorlarga o‘tkazish;

– o‘z-ozini boshqarish organlari faoliyati tizimini takomillashtirish va oila institutining o‘zagiga aylantirish.

Yuqoridagi sohalarni rivojlantirish ijtimoiy davlatni qaror toptirish va jamiyatdagi turli oqsayotgan sohalarni yaxshilashga yordam beradi deb hisoblaymiz. Jumladan, u kambag‘allik va ishsizlik, umr ko‘rishning pastligi va o‘lim darajasining yuqoriligi, uy-joy, kommunal xo‘jalik sohalaridagi ko‘plab ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Chunki “intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir istedod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unitishga haqqimiz yo‘q”[9].

Bu borada amerikalik sotsiolog Jeyms Kolemanning fikri quyidagicha: “Men bolalarni tarbiyalashda ijtimoiy kapital deganda, bolaning ulg‘ayishi uchun muhim bo‘lgan me‘yorlar, ijtimoiy aloqalar, kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunaman. Ijtimoiy kapital nafaqat oila ichida, balki oiladan tashqarida ham mavjud”[1]. Oila bu bilamizki, har qanday jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Oila bu ijtimoiylashtirish agentlaridan birlamchi va eng muhimi bo‘lib, inson kamolotida uning o‘rni beqiyosdir. Har qanday munosabatlar oiladan boshlanadi va har qanday qadriyatlar oiladan o‘zlashtirilib, shaxs yetuk bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy oilani quyidagicha ta'riflaydi: "Jamiyatning asosiy bo'g'ini – oiladir". Jamiyatni, davlatni u katta oila, deb tushunadi. Oilada azal-azaldan o'rnatilgan tartib-qoidaga ko'ra – kichiklar kattalarga bo'ysunishi lozim bo'lganidek, davlatda ham kichiklar kattalarga bo'ysunishlari darkor. Oiladagi tartib-intizom qavm-qarindoshlik, urug'-aymoqchilik belgilariga asoslansa, davlatda o'rnatilgan tartib-intizom ko'pincha shaxsning ijtimoiy mavqeyiga, jamiyatda egallagan o'rniga qarab belgilanadi"[4].

Aslida, barcha ijobiy xislatlar – xayrixohlik, hamjihatlik va o'zaro yordam tuyg'usi oiladan boshlanadi. Ota-ona tomonidan bolaga ajratilgan vaqt va ishonch ijtimoiy kapitalning eng muhim shakllaridan biridir. Yoshlar o'rtasida muayyan qadriyatlar to'planib, umumiy qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Umumiy qadriyatlarning mavjudligi esa insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi. Ijtimoiy aloqalarni kengaytirish, nafaqat tengdoshlar, balki yangi jamoalar yoki guruhlarda o'zaro yordamlashish tuyg'usini rivojlantirish, doimiy ijobiy munosabatlar o'rnatishga intilish va qadriyatlar hurmat qilish yoshlarning kasbiy yo'lni tanlashida va jamiyatda o'z o'rnini topishida beqiyos ahamiyatga ega.

Ammo oila ijtimoiy kapitalni olish mumkin bo'lgan yagona joy emas. Maktablar va jamoalar ham yoshlarga ta'lim yoki kasbiy faoliyat uchun foydali bo'lgan ijtimoiy resurslarga kirishda yordam beradi. Shuningdek, maktab, oliy ta'lim dargohi va jamiyat normalariularning o'z e'tiqodlari va xatti-harakatlarini amalga oshirishlariga yordam beradi. Oilaviy ijtimoiy kapital huquqbuzarliklarning oldini olish va akademik yutuqlarni yaxshilashga yordam bergani kabi, talaba yoshlar va o'quvchilar o'rtasidagi shaxslararo investitsiyalar ham ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Bu borada "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan tamoyil yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda katta avlod ma'suliyatini oshiradi. Bunday g'oyat muhim vazifani amalga oshirishda biz, avvalo, ko'pni ko'rgan kayvoni onaxonlarimizga, mahalla faollariga, muhtaram faxriylarimizga, siz aziz opa-singillarimizning aql-zakovatingiz, bilim va tajribangizga tayanamiz"[8].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonida ijtimoiy kapital muhim strategik resurslardan biri hisoblanadi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik, ijtimoiy aloqalar va fuqarolik faolligi ijtimoiy kapitalning asosiy tarkibiy elementlari bo'lib, ular jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy kapitalning rivojlangan darajasi fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishiga, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishiga hamda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy kapital jamiyatda ijtimoiy adolat, o'zaro hurmat va hamjihatlik tamoyillarini mustahkamlash orqali ijtimoiy davlatning asosiy g'oyalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Ijtimoiy kapitalni rivojlantirish jarayoni ta'lim tizimini takomillashtirish, fuqarolik madaniyatini oshirish,

ijtimoiy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolarning jamiyat hayotidagi faolligini rag'batlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bois ijtimoiy kapitalni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy chora-tadbirlarni amalga oshirish ijtimoiy davlatni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Natijada jamiyatda barqaror rivojlanish, fuqarolar farovonligi va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash imkoniyati yanada kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Coleman, J. S. (1990). The Foundations of Social Theory. Cambridge, Mass: Harvard University Press.
2. Dahrendorf R. Class and Class Conflict in Industrial Society. L., 1959.
3. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. Princeton, N. J. : Princeton University Press, 1990.
4. To'xtayev H. Ijtimoiy falsafa. –T., 2023. – B.47.
5. Welfare State // <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0080430767010949> (дата обращения: 01.10.2021).
6. Герасимова Л. А. Факторы формирования и особенности развития социального капитала в современном российском обществе. Нералд оф Вятка Стате Университй Ис. 11, 2017. -С. 33-36
7. Игумнов, О.А. Социальный капитал в управлении российскими организациями: методология, теория и практика формирования и развития. Дисс... доктора социологических наук. -М. 2025.
8. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Том 1. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.349-350.
9. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. - Б.24.
10. Саидов С.Ижтимоий капитал – фуқаролик жамиятнинг муҳим мезони. “Kafolat print company”. -Т.: 2019. – Б.7.

ZAMONAVIY DUNYODA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING GLOBAL AHAMIYATI VA DAVLAT SIYOSATI

X.X.Eshov

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy globallashtirish jarayonlari sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning ahamiyati, davlat siyosatining bu boradagi roli hamda xalqaro huquqiy mexanizmlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlashda davlat va xalqaro tashkilotlar hamkorligining muhim jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda inson huquqlarini himoya qilishning zamonaviy tendensiyalari hamda bu sohada davlat siyosatini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, davlat siyosati, globallashuv, demokratiya, xalqaro huquq, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat.

Zamonaviy dunyoda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda xalqaro hamkorlikning kengayishi inson huquqlarini himoya qilish masalasini nafaqat milliy, balki global darajadagi dolzarb muammoga aylantirdi.

Inson huquqlari – bu har bir shaxsning tug‘ilishidan boshlab unga tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar majmuasidir. Ushbu huquqlarni ta’minlash va himoya qilish demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois zamonaviy davlatlar o‘z siyosatini inson huquqlarini himoya qilish tamoyillari asosida shakllantirishga intilmoqda.

Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilish masalasi nafaqat alohida bir davlatning ichki siyosati yoki milliy qonunchiligi doirasida, balki xalqaro hamjamiyat darajasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar kengayib borayotgani inson huquqlarini ta’minlash masalasini ham yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Shu sababli inson huquqlarini himoya qilish faqat milliy qonunchilik bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro huquqiy normalar va standartlar bilan ham mustahkamlanmoqda.

Xalqaro miqyosda qabul qilingan konvensiyalar, deklaratsiyalar va boshqa huquqiy hujjatlar inson huquqlarini ta’minlashning umumiy mezonlarini belgilab beradi. Bunday hujjatlar davlatlarga insonning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish, himoya qilish hamda ta’minlash bo‘yicha muayyan majburiyatlar yuklaydi. Natijada, davlatlar o‘z milliy qonunchiligini xalqaro huquqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirishga, ularni amaliyotga joriy etishga va inson huquqlarining samarali himoyasini ta’minlashga intiladilar. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va institutlar ham inson huquqlarini himoya qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular davlatlarning bu boradagi faoliyatini monitoring qilish, tavsiyalar berish hamda xalqaro standartlarga rioya etilishini nazorat qilish orqali inson huquqlarining global darajada ta’minlanishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida davlat siyosatining xalqaro huquqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashuvini, ya’ni milliy va xalqaro huquqiy tizimlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va muvofiqlikni ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bois, zamonaviy davrda inson huquqlarini samarali himoya qilish davlatning huquqiy siyosatini takomillashtirish, xalqaro majburiyatlarni bajarish hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, inson huquqlarining ta’minlanishi nafaqat milliy, balki global miqyosda ham barqaror rivojlanish va demokratik jamiyat barpo etishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

XXI asrda inson huquqlarini ta'minlash jamiyat taraqqiyotining muhim mezoniga aylandi. Har bir davlatning demokratik rivojlanish darajasi, avvalo, fuqarolar huquq va erkinliklari qay darajada himoya qilinishi bilan belgilanadi. Inson huquqlarining global ahamiyati bir necha omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, inson huquqlari xalqaro hamkorlikning asosiy tamoyillaridan biridir. Turli davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar inson huquqlariga hurmat tamoyiliga asoslanadi.

Ikkinchidan, inson huquqlarini ta'minlash ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Huquq va erkinliklar ta'minlangan jamiyatda ijtimoiy adolat, fuqarolik faolligi va demokratiya rivojlanadi.

Uchinchidan, inson huquqlarining himoyasi global xavfsizlik bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki huquqlar buzilishi ko'pincha ijtimoiy nizolar, migratsiya muammolari va siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli inson huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Davlat siyosatida inson huquqlarini himoya qilish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- sud-huquq tizimini mustahkamlash;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish;
- xalqaro huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish.

Zamonaviy demokratik davlatlarda inson huquqlarini ta'minlashda parlament, sud organlari, ombudsman institutlari hamda nodavlat tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu institutlar davlat hokimiyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash orqali fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytiradi.

Inson huquqlarini himoya qilish tizimi xalqaro huquqiy mexanizmlar bilan ham mustahkamlangan. Bugungi kunda inson huquqlari bo'yicha qator xalqaro konvensiyalar va deklaratsiyalar mavjud bo'lib, ular davlatlar uchun muhim huquqiy majburiyatlarni belgilaydi.

Xalqaro tashkilotlar inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ular inson huquqlarining buzilishi holatlarini monitoring qilish, davlatlarga tavsiyalar berish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi.

Globallashuv sharoitida inson huquqlarini himoya qilish masalasi xalqaro hamjamiyatning umumiy mas'uliyatiga aylangan. Shu sababli davlatlar o'z siyosatini xalqaro huquq normalari bilan uyg'un holda olib borishi muhimdir.

O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash siyosat

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida inson manfaatlarini ustuvor qo'yish tamoyili asosiy prinsip sifatida qaralmoqda. Xususan, sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini

oshirish, ochiq va shaffof boshqaruv tizimini joriy etish orqali inson huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda inson huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashtirish jarayonlari inson huquqlarini himoya qilish masalasini global miqyosdagi dolzarb muammoga aylantirdi.

Davlatlar inson huquqlarini ta'minlashda milliy qonunchilikni takomillashtirish, sud-huquq tizimini rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish ham inson huquqlarini samarali himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida inson huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.
5. Zamonaviy siyosatshunoslik asoslari. – Toshkent.
6. Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy manbalar.
7. Qahharova, D. Z. A. A. (2025, November). Interpretation Of The Image Of A Woman In Literature. In *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research* (Vol. 1, No. 5, pp. 69-72).

XOTIN-QIZLARNI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

Akaeva Marapat Abduxalikovna
Namangan davlat universiteti
Yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni tazyiq va zo'ravonlikdan muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Maqolada xotin-qizlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari, zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan ishlash samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilishga doir qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash va huquqiy asoslarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit soʻzlar. jamiyat, xotin-qizlar, gender, zoʻravonlik, jismoniy zoʻravonlik, jinsiy zoʻravonlik, iqtisodiy zoʻravonlik, ruhiy zoʻravonlik, himoya orderi, fuqarolik jamiyati.

Jamiyatini rivojlantirishda xotin-qizlarning rolini oshirish masalalari nazariy va huquqiy jihatdan yaxshi oʻrganilgan boʻlsa-da, ularning jamiyat hayoti sohalarida teng mavqeni egallashining amaliy ifodasi va uni amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etish, ayol fenomenini siyosiy-fuquqiy jihatdan tahlil etishni taqozo etmoqda. Oʻzbekiston davlat mustaqilligining oʻtgan yillari mobaynida ayollarning huquq va erkinliklarini, bandligini va oila mustahkamligini taʼminlash, gender tenglikka erishish, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish, xotin-qizlar oʻrtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishga yoʻnaltirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi boʻlmogʻi shart”[2]. Ayollarning haqiqiy siyosat subʼekti boʻlishiga koʻmaklashish, tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish, teng huquqlilik hamda teng imkoniyatlar kafolatini ilmiy asoslangan xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekistonda sharqona maʼnaviy-axloqiy yondashuvlarga asoslangan holda xotin-qizlar innovatsion tafakkurini shakllantirish va natijada ularning ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy va praksiologik jihatlarini tadqiq etish zamonaviy ilm-fan oldida turgan muhim masaladir. Mamlakatda bu boradagi amaliy ishlarga alohida eʼtibor berib kelinmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari taʼminlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik boʻladi. Ayol baxtli boʻlsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli boʻladi”[4]. Prezident tomonidan xotin-qizlarga berilayotgan alohida eʼtibor ularning jamiyatimizda yanada faol boʻlishlariga imkoniyatlarni kengaytirishga hizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrdagi 561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”, 2019 yil 2 sentabrdagi 562-son “Xotin-qizlar va yerkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”, Oʻzbekiston Respublikasining 2023 yil 11 apreldagi 829-son “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, yerkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, 2019-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli “Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni, 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab quvvatlashga oid chora-tadbirlar

to'g'risida", 2021-yil 5-martdagi PQ – 5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni tadqiqotimiz uchun huquqiy metodologik manba sifatida o'rgandik. Yurtimizda 17 mln. nafardan ziyod xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ortiq huquqiy me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Muqaddas Qur'oni Karimda "Ayollar uchun (belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir" deyiladi. Zero, Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) ham ayol zotiga hurmat va ehtiromda bo'lib, "Cizlardan eng yaxshilaringiz o'z ahli ayolingiz bilan muomala qilgan kishidir. Men o'z ahli ayollarimga cizlarga bo'lganimdan ham ko'ra xushmuomaladaman" [5] deganlar. Shuningdek, "Niso" surasida xotin-qizlarga nisbatan munosabatlarning xususiyatlari batafsil belgilab berilgan[6].

Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi mavqeini yukaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Cohibqiron caltanatidagi ayollarga bo'lgan hurmat-izzat, e'tibor va ishonch diqqatga cazovor. Bu borada Amir Temur: "Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo'lishga harakat qildim"[7] deb bejiz yozmagan.

Yurtimizda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy. Siyosiy-sadaniy nufuzini yuksaltirish sohasida yerishilgan yutuqlarning milliy siyosiy-huquqiy savodxonligi xususida T.Narbaeva "O'zbekiston Qahramoni", "Akademik", "Senator", "Deputat", "Vazir", "Vazir o'rinbosari", "Olima" kabi yangi siyosiy jihatlarini sanab o'tgan. Jumladan, "ularning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatini keng yo'lga qo'yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning muhim masalalari qatoridan joy oldi", degan fikrlarida o'z ifodasini topgan[8].

O'zbekiston Respublikasida ayollarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy huquqiy maqomini kafolatlari to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi ularning huquqiy turmush tarzini yanada shakllantirishi bilan an'anaviy tafakkuridagi o'zining "ojiza"ligidan to'laqonligi inson huquqiy tafakkuri hosil qilinadi. Mazkur qonunda "jinslarning notengligini bartaraf yetish, xotin-qizlar va yerkaklarning haqiqiy yoki asos bo'ladigan tengligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga yerishish uchun davlat organlari tomonidan ko'riladigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga yega chora-tadbirlar"ni nazarda tutilgan[1]. Mazkur normativ hujjatning maqsadi xotin-qizlarning ijtimoiy maqomini kafolatlariga qaratilgan huquqiy himoya sifatida muhim ahamiyat kasb yetdi.

Zo'ravonlik jamiyatdagi eng yomon illat sifatida insonlar o'rtasi dagi tenglikni, erkinlikni yo'qqa chiqaradi. Qaramlik, qullik, boshqalar ustidan hukm yuritish, ularni tahqirlash va kamsitishga olib keladi. Xotin-qizlarga nisbatan

tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish lozim.

Bugungi kunda xotin-qizlar masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadida bir qator Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar chiqarilgan. Shu bilan birga ularni har xil tazyiqlardan himoya qilish, ularga nisbatan sodir etilgan tazyiqlarga barham berish borasida ham huquqiy asoslar joriy etildi. Birgina 2019 yil 02 sentyabr kuni qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun asosida xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonlikka barham berish maqsadida himoya orderi joriy etilib, unda tazyiq va zo‘ravonlik turiga qarab cheklovlar belgilangan, bu cheklovlar:

- 1) Tazyiq o‘tkazishni va zo‘ravonlik sodir etishini taqiqlash;
- 2) Tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlar bilan aloqasini taqiqlash;
- 3) Tazyiq o‘tkazilgan va zo‘ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganning hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada bo‘lishini taqiqlash;
- 4) Tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganni davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatuvchi maxsus markazga joylashtirish uchun harajatlar va yetkazilgan moddiy zararni qoplash, shuningdek ma‘naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash;
- 5) Tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning qurolini (bundan ov quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderini amal qilish davrida cheklash yoxud ta‘qiqlash, shuningdek uning qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini ta‘qiqlashni tashkil etadi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik, jamiyatsdagi muhim va jadal yechiladigan muammolardan biridir. Muammoning sabablari va yechimlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin. Sabablari – **ijtimoiy va madaniy omillar**(tadbirkorlik, gender tengsizligi, an‘anaviy qadriyatlar.), **iqtisodiy vaziyat** (iqtisodiy xavfsizlikning pasayishi, ishsizlik), **ta’lim yetishmovchiligi** (ta’limsizlik, ma’lumot yetishmasligi). O‘z navbatida bu keltirilan sabablari yechimi sifatilda quyidagilarni keltirish mumkin. **Ta’lim** (xotin-qizlarning huquqlari, gender tenglik va ta’limga e’tibor berish), **Qonun ustuvorligi** (zo‘ravonlikka qarshi qonunlarni kuchaytirish, huquqni muhofaza qilish organlarini samarali faoliyat yuritish) hamda **ijtimoiy dasturlar** (maxallalarda xotin-qizlarga yordam berish dasturlari, psixologik va yuridik ko‘mak).

Tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma‘muriy va jinoiy choralar belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiqlarga barham berish borasidagi qonuniy hujjatlar takomillashtirilib borilmoqda. 2023-yil 11-aprel kuni e’lon qilingan 829-sonli “Xotin-qizlar va bolalarni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya

qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonun asosida ham O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda jinoyat kodeksiga xotin-qizlarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun belgilangan ma'muriy va jinoiy jazo choralari belgilandi, masalan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yangi 41¹-moddasi qo'shilib, bu shahvoniy shilqimlik qilganlik uchun javobgarlik masalasi ko'rsatib o'tilgan, shu moddani o'zini olsak hatto oddiy tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflash va imo-ishora qilganlik ham javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi xotin-qizlarni qanchalik e'zozlanganligini ko'rsatib turibdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki - xotin-qizlarga taalluqli huquqiy tizimni yanada takomillashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga doir keng ko'lamli islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, xotin-qizlarni davlat hokimiyati organlarida ular uchun keng imkoniyatlar yaratishdan asosiy maqsadlardan biri - jamiyatda gender tenglikni amalda ta'minlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni № 562 // Xalq so'zi. – 2019. – 2 sentyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatning yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi// Xalq so'zi, 2019 yil 22 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (7.01.2008 y.) qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 6-martdagi Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-Mirziyoyevning-khalqaro-khotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>
5. Quroni Karim. – Toshkent: Islom universiteti nashriyoti, 2001. – 36 b.
6. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimai. –Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2007. – B .77.
7. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T: Sharq, 2003. – 342 b.
8. Narbaeva T. K. Ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya uyg'unligida xotin-qizlarning o'rni // Xotin -qizlar ijtimoiy-siyosiy faoligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili mavzusidani konferensiya maqolalarining. to'plami. –T.: TDIU, 2019. – B. 5.
9. Arifxodjaeva I.X. Ichki ishlar idoralari psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2008. – B. 405.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ФАКТОР И КОМПЬЮТЕРНАЯ ДИАГНОСТИКА В ПРОГНОЗИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

Эмирова Елена Энверовна

*.ф.н., доцент Узбекского Государственного
университета Мировых языков*

Аннотация: В статье рассматривается метод экстраполяции как фундаментальный инструмент научного познания и его специфическая роль в социальном прогнозировании. Автор анализирует гносеологические особенности исследования социальных систем, выделяя феномен «активных» прогнозов и влияние иррациональных факторов на поведение людей. Особое внимание уделяется практическому применению метода в контексте развития независимого Узбекистана. В работе классифицируются ключевые стабилизирующие факторы, такие как Конституция и Идеология национальной независимости, а также дестабилизирующие угрозы, включая международный терроризм и информационную экспансию. Автор обосновывает необходимость синтеза компьютерной диагностики и интуитивного человеческого мышления для достижения наиболее адекватной картины будущего состояния общества.

Ключевые слова: Экстраполяция, социальное прогнозирование, Узбекистан, стабилизирующие факторы, дестабилизирующие факторы, гносеология, «активные» прогнозы, человекомерные процессы, компьютерная диагностика.

Метод экстраполяции является органической, неотъемлемой частью методологии научного познания. Он сформировался в контексте других основополагающих методов, таких как индукция, дедукция, моделирование и других. Экстраполяция является элементом такой формы сознательной деятельности человека как творчество. Этот метод «навязан» нам, по выражению И.Канта, самой природой нашего мышления.

Несмотря на то, что нет непреодолимых границ между естественнонаучным и социальным познанием, можно выделить некую специфичность в исследовании социальных систем. В частности, в социальном познании существует обратная связь между прогнозом будущего состояния системы с самой системой. Прогнозы становятся «активными». Активность прогнозов является важнейшим фактором обеспечения эффективности социальных прогнозов. Ярким историческим примером "активности" прогнозов в мировом масштабе можно считать опыт Чили 1990-х годов. Осознание рисков политической дестабилизации при переходе от авторитаризма к демократии заставило политические элиты и общество консолидироваться вокруг институциональных факторов стабильности (Конституции). Это подтверждает тезис о том, что социальное

предвидение не просто констатирует будущее, но и активно формирует его, заставляя систему адаптироваться для предотвращения негативных сценариев.

Гносеологические возможности экстраполяции в социальном познании основываются не только на учете объективных закономерностей-тенденций и существующих условий, но и должны подразумевать включенность иррациональных моментов в поведении людей, социальных групп и целых народов.

Развитие Узбекистана как независимого государства подразумевает социальное прогнозирование, которое является органической частью планомерного социального реформирования. Экстраполяция, как способ объяснения будущих конкретных черт социальной организации на основе уже выработанных закономерностей имеет ключевое значение.

Сделав прогноз на будущее развитие Узбекистана как независимого государства, можно изучив и сопоставив факторы стабильности и нестабильности, действующие в стране.

К факторам, стабилизирующим общественное развитие можно отнести:

- Конституцию Республики Узбекистан;
- Идеологию Национальной Независимости;
- Верховенство экономики над политикой;
- Социальную направленность экономических реформ;
- Двухпалатный парламент Республики Узбекистан;
- Открытую миролюбивую внешнюю политику Республики Узбекистан;
- Традиционализм, бережное отношение к обычаям предков народа Узбекистана.

Схожая модель экстраполяции стабильности наблюдается в развитии современных монархий Персидского залива (например, ОАЭ или Катара). Здесь, как и в стратегии развития Узбекистана, во главу угла поставлено верховенство экономики над политикой. Опора на национальную идентичность и традиционные ценности в сочетании с долгосрочным планированием ("Визион 2030") демонстрирует, как учет культурного кода народа позволяет успешно экстраполировать позитивные тенденции роста на десятилетия вперед, нейтрализуя внешние угрозы.

К дестабилизирующим факторам, которые приводят к неоднозначности экстраполяции тенденций и многосложности прогнозирования относятся следующие угрозы:

- угроза международного терроризма и экстремизма;
- геополитический и стратегический интерес к нашей стране мировых держав;
- информационная и идеологическая экспансия чуждых идей и идеологий на территорию страны.

В настоящее время государство идет по пути укрепления стабилизирующих факторов, одновременно стремясь обезопасит себя от факторов дестабилизирующих. В этом направлении прослеживается большая работа, проделанная узбекским народом и руководством страны.

Для того, чтобы экстраполировать существующие тенденции, сделать прогноз на будущее состояние Узбекистана, необходимо проанализировать существующую политическую и экономическую ситуацию, учесть все факторы, которые могут оказать влияние на развитие существующих тенденций и не исключать влияния личностного воздействия на ситуацию. Чтобы составить такой прогноз, необходимо привлечь к исследованию процессов ведущих экономистов, социологов, политологов, этнологов, историков, которые бы, каждый со своей стороны дали картину будущего состояния страны, а философы составили общую картину развития Узбекистана. Внедрение в исследование общества и его будущего развития методов компьютерной диагностики, компьютерного “эксперта”, сложнейших программ, которые могут собрать воедино и обработать такой объемный, громоздкий материал способствует более адекватному и полному изучению объекта. Однако, при этом необходимо присутствие в данном анализе человека, с его интуитивным мышлением, озарением, жизненным опытом и “чувствованием” ситуацию.

В социальном познании речь идет о “человекомерных” процессах, в которых объективно присутствуют и иррациональные моменты, моменты случайности и неопределенности, которые никакая машина предусмотреть не сможет. Мировой опыт показывает необходимость сочетания компьютерной диагностики с человеческой интуицией. Данное положение подтверждается провалами аналитических моделей в период “Арабской весны” 2011 года. Большинство математических моделей, экстраполировавших многолетнюю устойчивость режимов Ближнего Востока, не смогли учесть иррациональный “фактор искры” и накопленную психологическую усталость общества. Это доказывает авторский вывод о том, что в социальном познании мы имеем дело с “человекомерными” процессами, где моменты случайности и неопределенности не поддаются исключительно машинному расчету.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзиеев Ш.М. Мы вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. //Выступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса. Т. 2015 г
2. Князева Е.Н. Случайность, которая творит мир. //Философия и жизнь. – М.: Знание, 2001. - №7.- С.5.
3. Попова Н.Л. Экстраполяция как средство научного познания и интегративный фактор в науке. –Киев, 1965. – 167 с.,
4. Селиванова В.И. Этюды об экстраполяции. -М.:Наука, 1992. – 254 с.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ПРАВА ЧЕЛОВЕКА В СФЕРЕ СВЕТСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И СВОБОДЫ ВЕРОИСПОВЕДАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

*Баратова Махбуба Мубинжановна,
кандидат философских наук,
и.о.доцента кафедры общественных наук УзГУМЯ*

Аннотация: В статье исследуется роль искусственного интеллекта в обеспечении конституционных прав человека на получение светского образования и свободную реализацию религиозных убеждений в условиях реформ Нового Узбекистана. Анализируются институциональные и правовые механизмы цифровой трансформации образовательной и религиозной сфер. Обосновывается необходимость формирования национальной доктрины этического применения ИИ как инструмента гармонизации светских и духовных ценностей в социальном государстве.

Ключевые слова: искусственный интеллект, права человека, светское образование, свобода совести, цифровизация, Новый Узбекистан, социальное государство.

В условиях модернизации Республики Узбекистан приоритетным направлением государственной политики является обеспечение прав и свобод человека. Обновленная редакция Конституции закрепляет светский характер государства и гарантирует свободу совести и вероисповедания. [1]

Цифровая трансформация, осуществляемая в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана [2], предполагает активное внедрение технологий искусственного интеллекта в сферу образования, государственного управления и общественных коммуникаций. Это формирует новые правовые и институциональные механизмы реализации прав человека.

В настоящее время искусственный интеллект выполняет функцию инструмента по реализации права на светское образование. Светский характер системы образования предполагает нейтральность государства в вопросах религии при обеспечении равного доступа к знаниям. [3]

Внедрение технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс существенно трансформирует механизмы реализации права на качественное и доступное образование. Использование интеллектуальных цифровых платформ позволяет выстраивать персонализированные образовательные траектории с учетом индивидуальных способностей, темпа усвоения материала и познавательных интересов обучающихся. Это способствует повышению эффективности обучения и формированию устойчивой мотивации к получению знаний.

Применение ИИ расширяет доступ к образовательным ресурсам для населения отдалённых и сельских регионов, обеспечивая равные стартовые возможности вне зависимости от места проживания. Цифровые решения позволяют преодолевать территориальные барьеры и сокращают социальное неравенство в сфере образования.

Особое значение имеет адаптация учебного контента для лиц с особыми образовательными потребностями. Алгоритмы искусственного интеллекта способны модифицировать формат подачи материала, использовать вспомогательные технологии и создавать инклюзивную образовательную среду, соответствующую принципам недискриминации. Искусственный интеллект выступает эффективным инструментом сокращения социального неравенства и гарантирует равный доступ к образованию вне зависимости от религиозной принадлежности обучающихся.

Автоматизированные системы оценки знаний повышают прозрачность и объективность контроля успеваемости, минимизируя влияние субъективных факторов. Это укрепляет доверие к образовательным институтам и способствует соблюдению принципов справедливости и равенства в системе светского образования. ИИ позволяет модернизировать такие сферы, как образование, здравоохранение, социальная защита, судебная система.

Сегодня тысячи наших одаренных юношей и девушек ведут изыскания в сфере IT и искусственного интеллекта. Для внедрения в практику их конструкторских проектов в направлениях квантовые технологии, дроны, робототехника будет создан Центр цифровых технологий. [4]

Его применение способствует обеспечению равного доступа к образованию через цифровые платформы. В качестве подтверждающего примера необходимо привести факт, согласно которому в Узбекистане создаются дополнительные образовательные возможности для беременных студенток и молодых мам, что отражается в Указе Президента «О дополнительных организационно-правовых мерах по усилению защиты прав женщин и детей, а также предотвращению случаев притеснения и насилия в отношении них». Это включает предоставление возможности продолжения, по своему усмотрению, обучения в дистанционной форме в период академического отпуска беременными студентками или студентами, воспитывающими ребенка в возрасте до 3 лет; создание дополнительных условий для продолжения образования беременными студентками или студентами, воспитывающими ребенка в возрасте до 3 лет, путем увеличения направлений по подготовке кадров и квот приема по дистанционной форме обучения. [5]

Решающее значение ИИ имеет также в деле противодействия экстремизму, религиозному фундаментализму и деструктивной идеологии

посредством работы аналитических систем мониторинга информационного пространства.

Свобода совести является фундаментальным правом, закрепленным международными правовыми актами. Приоритетом межконфессионального диалога в нашем многонациональном обществе является сохранение светского государственного устройства при обеспечении свободы совести. [6] В условиях цифровизации искусственный интеллект выполняет две функции. С одной стороны, расширяет доступ к достоверным религиозным источникам и образовательным материалам, а с другой - позволяет выявлять и ограничивать распространение экстремистского контента, нарушающего общественную безопасность.

Баланс между свободой вероисповедания и обеспечением национальной безопасности требует прозрачных алгоритмов и соблюдения принципов недискриминации.

Особенностью общественного развития Узбекистана является устойчивое и исторически обусловленное сочетание светского государственного устройства с уважением к духовным традициям народа. В условиях цифровой трансформации искусственный интеллект становится важным фактором поддержания данного баланса. Он способствует формированию цифровой культуры критического мышления, позволяющей гражданам осознанно воспринимать информацию и противостоять деструктивным идеологиям.

Одновременно технологии ИИ создают дополнительные возможности для развития межконфессионального диалога, обеспечивая платформы для конструктивного общения и распространения достоверных знаний о религиозном многообразии. Существенное значение имеет и внедрение образовательных программ по цифровой этике, направленных на формирование ответственности при использовании новых технологий.

Применение интеллектуальных систем содействует также укреплению гражданской идентичности, основанной на принципах толерантности, законности и уважения прав человека. Политико-правовая культура и гражданская позиция населения, особенно молодежи, определяют уровень гражданской активности в стране. [7] В данном контексте искусственный интеллект выступает не только технологическим ресурсом, но и социальным инструментом укрепления демократических ценностей и правовых гарантий личности.

В нашей стране становление демократии и определение при этом роли социально политических процессов осуществляется на основе гармонии демократических принципов Востока и Запада. Это, в свою очередь, подразумевает обеспечение свободы личности, установление демократии, уважение национальных и общечеловеческих ценностей, беспрекословное подчинение правовых норм и применение этих принципов в повседневной деятельности в жизни. [8]

Развитие и внедрение технологий искусственного интеллекта сопровождается не только значительным потенциалом, но и рядом правовых и этических вызовов, требующих системного регулирования. К числу ключевых рисков относится алгоритмическая предвзятость, способная воспроизводит или усиливает существующие социальные стереотипы. Не менее значимой проблемой выступает нарушение конфиденциальности персональных данных, особенно в условиях масштабной цифровизации государственных и образовательных сервисов.

Отдельного внимания заслуживает риск возможной дискриминации по религиозному признаку при автоматизированной обработке информации, что может противоречит конституционным принципам равенства и свободы совести. Кроме того, чрезмерная автоматизация управленческих и социально значимых решений способна снизит роль человеческого контроля и ответственности.

В целях минимизации указанных рисков необходима последовательная разработка национальной нормативно-правовой базы в сфере искусственного интеллекта, основанной на приоритете прав человека. Важнейшими принципами такого регулирования должны стать прозрачность алгоритмов, подотчетность разработчиков и операторов систем ИИ, а также эффективные механизмы общественного и экспертного контроля.

В условиях Нового Узбекистана искусственный интеллект выступает эффективным механизмом обеспечения права на светское образование и свободу религиозных убеждений. Его потенциал заключается в расширении доступа к знаниям, укреплении толерантности и формировании устойчивого социального государства. Комплексное правовое регулирование и этическое сопровождение цифровых реформ являются необходимыми условиями гармоничного сочетания светских и духовных ценностей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Конституция Республики Узбекистан - <https://lex.uz/docs/6445147>
2. УП-21-сон 16.02.2026. О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года - <https://lex.uz/docs/8050774>
3. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» - <https://lex.uz/docs/5013009>.
4. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана - <https://president.uz/ru/lists/view/8834>.
5. Указ Президента Республики Узбекистан О дополнительных организационно-правовых мерах по усилению защиты прав женщин и детей, а также предотвращению случаев притеснения и насилия в отношении них - <https://president.uz/ru/lists/view/8982>.
6. ЗРУ-699-сон 05.07.2021. О свободе совести и религиозных организациях - <https://lex.uz/docs/5491541>.

7. Саидов С.Ш. Государственная молодежная политика Узбекистана - <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-molodezhnaya-politika-uzbekistana?ysclid=mm0fkxocct269902632>.

8. Замонов З.Т. Влияние социально-политических процессов на демократизацию общества - <https://cyberleninka.ru/article/n/o3782297025>.

TIBBIYOT PEDAGOGIKASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO INTEGRATSIYALASHUV

Zakirova Feruza Gulyamovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy kengashining ilmiy kotibi,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Tibbiyot pedagogikasi – tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan fan bo'lib, bu jarayonni samarali tashkil etishda ilg'or jahon tajribalari muhim rol o'ynaydi. Jahon miqyosida tibbiyot pedagogikasi ilg'or usullar va yondashuvlar asosida tashkil etiladi.

Kalit so'zlar: tibbiy pedagogika, psixologiya, simulyatsion ta'lim, fiziologiya, interaktiv o'quv platformalari, muammoli o'qitish.

Tibbiyot pedagogikasi ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini birlashtirgan holda, tibbiy bilimlarni pedagogik usullar orqali o'rgatish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishga mo'ljallangan ta'lim yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi.

Tibbiyot pedagogikasining ilmiy asoslari tibbiy pedagogika biologiya, tibbiyot, psixologiya va pedagogika fanlari bilimlari asosida shakllangan bo'lib, unda sog'liqni saqlashga oid ma'lumotlarni ta'lim jarayonida samarali o'qitish uchun interaktiv, individual yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan takomillastirilib boriladi [1].

Tibbiy pedagogikasi atamasi pedagogika tushunchasidan kelib chiqqan bo'lib, tibbiy ta'lim nuqtai nazaridan insonni tarbiyalash va o'qitishni anglatadi. Bu fan insonning sog'ligi, shaxsiy xususiyatlari va tibbiy bilimlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etadi.

Tibbiyot pedagogikasi profilaktik bilimlar berishda kasalliklarning oldini olish, tibbiy-gigiyenik qoidalarni o'rgatish orqali salomatlikni saqlashga qaratilgan faol ta'lim tizimini yaratadi. Psixologik va axloqiy tarbiyada esa inson salomatligini saqlashda ruhiy holatning katta ahamiyatini inobatga olib, o'quvchilar va bemorlarning psixologik barqarorligini yanada mustahkamlaydi. Kasbiy mahorat va mas'uliyatni oshirishda tibbiyot xodimlarini sog'lomlashtirish bilan birga ta'lim jarayonini yuqori sifatli bilim va

ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, bu esa bemorlarga ko'rsatiladigan xizmat sifatiga ijobiy ta'sir qiladi. Tibbiyot pedagogikasi interaktiv va innovatsion metodlarni qo'llash ta'lim jarayonida innovatsion usullar, o'quv texnologiyalari orqali samaradorlikning oshirilib borishi, bu esa salomatlik targ'iboti va inson salomatligini saqlashdagi bilimlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Natijada, tibbiy pedagogika ta'lim jarayonini sog'liqni saqlash va rag'batlantirishga yo'naltirib, insonlarning umumiy hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon miqyosida tibbiyot pedagogikasi ilg'or usullar va yondashuvlar asosida tashkil etiladi, bu esa talabalarning yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limdan foydalanilib, ko'plab mamlakatlarda tibbiyotni o'qitishda nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Klinik va laboratoriya sharoitlari, simulyatsion markazlar orqali talabalar real kasbiy vaziyatlarni o'rganib borishadi. Talabalar haqiqiy kasallik holatlari asosida guruhlarda faoliyat yuritib muammolarni aniqlab, mustaqil izlanish va tahlil qilishga yo'naltiriladi. Jahonda tibbiyot pedagogikasi ko'p tomonlama, amaliyotga qaratilgan innovatsiya va uzluksiz ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Bunday usullar bilan yuqori malakali tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash ta'minlanadi [2].

Tibbiyot pedagogikasini o'qitishda ilg'or jahon tajribalarining asosiy jihatlariga AQSH va Buyuk Britaniyadagi simulyatsion ta'limni misol keltirish mumkin. Bunda ta'lim oluvchilarga yuqori darajadagi simulyatorlar yordamida amaliy ko'nikmalarni xavfsiz muhitda takomillashtirish hamda tibbiyotga oid holatlar va jarayonlarni realistik tarzda mashq qilish imkonini beradigan mashg'ulotlar o'tkazish orqali takomillashtirilib boriladi [3].

Finlyandiya, Kanada esa tibbiyot pedagogikasini o'qitishda interaktiv o'quv platformalaridan foydalanish asosiy o'rinni egallaydi. Aralash (onlayn va offlayn) ta'lim dasturlari orqali ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyati rivojlantirilib, o'iga xos test sinovlari va baholash tizimi shakllantiriladi va tinglovchilar bilimi baholab boriladi.

Tibbiyot pedagogikasini o'qitishda Niderlandiya, Avstraliyada muammoli o'qitish tizimidan foydalaniladi. Bunda kasbiy vaziyatlar tahlil qilinib, bilim va ko'nikmalarni mustaqil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Germaniya, Yaponiyada esa tibbiyot pedagogikasini o'qitishda multidisiplinar yondashuvdan foydalaniladi. Bunda tibbiyot pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari kabi fan tarmoqlarini integratsiyalash orqali amalga oshirilib ta'lim jarayoni boyitib boriladi [4].

Tibbiyot pedagogikasi inson salomatligini targ'ib qilish va saqlash orqali ta'lim jarayonini yaxshilaydi. Tibbiyot pedagogikasi sog'liqni saqlash va ta'limni integratsiyalash orqali inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan fan bo'lib, ta'lim jarayoniga sog'lom turmush tarzini singdirish, ta'limda sog'lom ovqatlanish, jismoniy faoliyat, zararli odatlardan saqlanish kabi sog'lom

hayot tamoyillarini targ'ib qilish, o'quvchilar va bemorlarning umumiy salomatligini yaxshilashga yordam beradigan qarorlar qabul qilishni targ'ib qiladi.

Tibbiyot pedagogikasi – bu tibbiy bilimlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda, ta'lim oluvchilarga inson sog'ligi bilan bog'liq fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qilishni o'rgatadi. Tibbiyot pedagogikasining asosiy jihatlari inson salomatligi, fiziologik holati, emotsional holati, ta'lim oluvchilarning esa inson salomatligini ta'minlashda to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatishdan iborat. Tibbiy pedagogikasi ta'lim jarayonida nafaqat tibbiy bilimlarni berish, balki bu bilimlarni inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda o'rgatishga qaratilgan ilmiy yo'nalishdir.

Tibbiyot pedagogikasini o'qitishda ilg'or jahon tajribalarining tashkiliy jihatlari ta'lim dasturlarini doimiy yangilash va xalqaro standartlarga moslashtirish, akademik tajriba almashish va amaliyotchi mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish, o'quv jarayonida uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'ga qo'yish, o'quvchilarni sog'lomlashtirish va psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etishdan iborat [5].

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot pedagogikasini rivojlantirishda jahonning ilg'or tajribalari amaliyotga tatbiq etilishi ta'lim sifatini oshirish hamda tibbiyot xodimlarining malakasini yuqori darajaga olib chiqishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va multidisipliner yondashuv tibbiyot ta'limining samaradorligini oshirishda asosiy omillardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Буранова Д.Д. Новое звено в медицинском образовании: становление, инновации и перспективы. Журнал Заочный факультет / современное образование №8, 2015. -Т.: 8-15 стр.

2. Жбанников П.С., Горохов В.И. Современные подходы к непрерывному профессиональному образованию специалистов в медицинском вузе. Журнал Высшее образование в России № 8-9, 2019. -М.: 149-156.

3. Павлов А.В., Иванова И.В., Жбанников П.С. Опыт использования симуляционных образовательных технологий при изучении вопросов бережливого производства в медицине: «Фабрика процессов поликлиника» // Дополнительное профессиональное образование в стране и мире. 2018. №1 (37). С. 10–13.

4. Модульный принцип – основа современного образования врачей: Методические рекомендации / Под ред. акад. РАМН И.Н.Денисова. -М.: 2005. С. 29.

5. Ветшева И.Н., Трофименко И.А., Морозов С.П., Низовцова Л.А., Ким С.Ю., Фисенко Е.П. Повышение качества медицинской помощи за счёт усовершенствования системы непрерывного медицинского образования // Журнал Медицинское образование и профессиональное развитие. №2-3. 2017. - М.: С. 60–65.

O‘ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBANING ROLI

Malohat Zoirova

*O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annoatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini samarali ta‘minlash uchun xorijiy tajribani o‘rganishning ahamiyati tahlil qilingan. Bu borada Amerika Qo‘shma Shtatlari va Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiyaning qonunchilik tizimi, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning turlari, shakllari va ularni amalda oshirishning ayrim mexanizmlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, jamoatchilik nazorati, xorijiy tajriba, AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, qonunchilik tizimi, davlat organlari faoliyati, mexanizmlar.

O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini samarali ta‘minlash uchun xorijiy tajribani o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali mexanizmlari shakllangan bo‘lib, ular orqali fuqarolar davlat boshqaruvida faol ishtirok etadilar. Bu jarayonlar mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-474-son “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni[1] va boshqa qonunosti hujjatlari bilan amalga oshiriladi. Bu tajribalarni tahlil qilish orqali ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlashga qaratilgan zamonaviy usullarni milliy tizimga moslashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Natijada davlat organlari faoliyatining samaradorligi oshadi va jamiyatda ishonch muhiti mustahkamlanadi.

Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish jamoatchilik nazoratining huquqiy va institutsional asoslarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayrim mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va nodavlat tashkilotlar davlat boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ularning faoliyatini o‘rganish va ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga mos ravishda joriy etish O‘zbekistonda demokratik boshqaruv tamoyillarini mustahkamlashga, fuqarolarning davlat ishlarida ishtirokini kengaytirishga va jamoatchilik nazorati tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jamoatchilik nazoratining xorijiy va xalqaro tajribasi uni amalga oshirishning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Masalan, AQShda jamoatchilik nazorati ikki asosiy usulda amalga oshiriladi - fuqarolarning irodasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) va xalq nomidan ishlaydigan fuqarolar tomonidan saylanadigan organlar orqali bilvosita (vakil). AQSh federal va shtat qonunlari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoatchilik nazoratining shakllari, xususan: ommaviy

qonunchilik tashabbusi; fuqarolarning munitsipalitetlar, fuqarolar yig'inlari va yig'ilishlari, jamoatchilik muhokamalari orqali mahalliy ishlarni boshqarishda ishtiroki; fuqarolarning davlat organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar va hujjatlardan (shu jumladan Internetdagi ixtisoslashtirilgan veb-saytlardagi elektron shaklda) foydalanish imkoniyati; tergov jurnalistikasi va ommaviy axborot vositalari faoliyati; fuqarolarning davlat va mahalliy boshqaruv organlariga, shuningdek mansabdor shaxslarga yozma va elektron murojaatlarni yuborish imkoniyati; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek jamoat hayotining boshqa masalalarini jamoatchilik muhokamasi; tadqiqot, jurnalistika, jamoatchilik fikrini shakllantirish va hukmron elitaga ta'sir o'tkazish; veksellarning ommaviy ekspertizasi; fuqarolik sudining sud majlisida ishtiroki.

Amerika Qo'shma Shtatlarida "Elektron axborot erkinligi to'g'risida"gi qonunga muvofiq, "Har bir shaxs yoki tashkilot, fuqaroligi yoki tug'ilgan davlatiga qaramay, federal hukumat idoralarida saqlanadigan hujjatlarni talab qilish huquqiga ega[2.622]. Ushbu organlar javobni 20 ish kunidan kechiktirmay berishlari kerak" Ushbu huquq amalga oshirilishi kafolatlanadi:

1) davlat organlarining (birinchi navbatda federal vazirliklar va idoralar) har yili AQShning Bosh prokuroriga ushbu huquqning bajarilishi to'g'risida hisobot taqdim etish orqali uning elektron versiyasi Internetda maxsus saytlarda mavjud bo'lgan hisobot taqdim etish majburiyati;

2) Amerika Qo'shma Shtatlari Bosh prokurorining majburiyati - Bosh prokuratura idorasining yuqorida ko'rsatilgan hisobotlar uchun jamlangan hisobotning elektron versiyasini yagona ochiq ma'lumotlar bazasida AQSh Kongressining tegishli qo'mitalari va komissiyalariga bir vaqtning o'zida yozma va elektron ravishda taqdim etish;

3) Amerika Qo'shma Shtatlari Bosh prokurorining vazifasi, olingan hisobotlarga asoslanib, davlat hokimiyati organlariga yuborilgan holda hisobot va amaliy ishlar bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlash;

4) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari fuqarolarning talabiga binoan so'ralgan ma'lumotni taqdim etish qoidalari va bu to'g'risida hisobot tayyorlash va AQSh Bosh prokuroriga taqdim etish majburiyati.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida jamoatchilik nazoratining shakllari orasida 4 ta asosiy ko'rinishga e'tibor qaratish mumkin: 1) fuqarolarning ma'lumotlari va so'rovlari bilan ishlash (fikrlarni so'rash, ma'lumotlari bilan ishlash; jamoat birlashmalarining ariza va takliflari bilan ishlash; fuqarolarning shikoyatlarini o'rganish); 2) ommaviy maslahatlar (barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida ochiq tinglovlar; jamoatchilik vakillari ishtirokida yopiq tinglovlar; yozma maslahatlar (elektron fokus guruhlar); 3) maslahat forumlari (mahorat darslari; konferensiyalar; fuqarolik sudlari); 4) ijtimoiy tarmoqlar (mavjud ijtimoiy tarmoqlarda; maxsus yaratilgan ijtimoiy platformalarda) orqali interfaol muloqot[3.161].

AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida jamoatchilik nazoratining juda qiziq shakli bu fuqarolik veto instituti bo'lib, u mamlakat fuqarolarining yoki uning alohida mintaqasi yoki munitsipalitetining davlat hokimiyati organlari mahalliy hokimiyat va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni rad qilish (bekor qilish, yuridik kuchga ega emas deb tan olish) huquqi va imkoniyati sifatida tushunilishidir. Haqiqatan ham, jamoatchilik nazoratining ushbu shakli dolzarbdir, chunki u to'g'ridan-to'g'ri aholi tomonidan saylanadigan shaxslardan tashkil topgan hokimiyat vakillik xarakteriga ko'ra qiyin bo'lgan qonun chiqaruvchi (vakillik) hokimiyat organlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazishga imkon beradi. Jamoat nazoratining ushbu shaklini amalga oshirishning noyob amaliyoti mavjud, masalan, fuqarolar tomonidan mansabdor shaxslarni referendumga chaqirish. Bundan tashqari, AQShda asosan saylangan mansabdor shaxslarni (masalan, federal parlament deputatlari, shtatlar parlamentlari) chaqirib olish masalasi bo'lsa, keyinchalik Yaponiyada ham qonuniy ravishda mahalliy hokimiyat vakillarini chaqirib olish imkoniyati yaratildi.

Yevropa Ittifoqining bir qator mamlakatlarida fuqarolar saylangan shaxs yoki mansabdor shaxsni keyingi tartib-qoidalar oldidan qayta saylash masalasini ko'tirishlari yoki hokimiyatdan chetlatilishi ham mumkin. Masalan, Avstriya Konstitutsiyasi Federal Prezidentni xalq ovozi bilan lavozimidan chaqirib olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining o'rinbosarlarini chaqirib olish imkoniyati ham nazarda tutilgan.

Yevropa Ittifoqida jamoatchilik nazoratining ochiq va yopiq tinglash shaklida, fokus-guruhlar shaklida yoki Internet orqali amalga oshiriladigan jamoat shakllari ham mavjud. Ochiq va yopiq tinglash shaklida jamoatchilik muhokamalarida jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif etiladi. Ushbu tadbirlar to'g'risida ma'lumot Internetda joylashtirilishi yoki ishtirokchilarga taklifnomalar yuborilishi mumkin. Ushbu maslahatlar interaktiv ravishda (Internetda) yoki elektron pochta orqali jamoat yoki jamoat tashkilotlaridan intervyu olish orqali o'tkazilishi mumkin. Bu muhokama qilinayotgan masalalarga jamiyatning munosabatini aniqlashga, shuningdek, jamoatchilik nazorati sub'ektlarining aksariyati manfaatlariga javob beradigan yechimlarni ishlab chiqishga imkon beradi. So'nggi yillarda G'arbda jamoatchilik nazoratining ushbu shakli ommalashmoqda, chunki fuqarolar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga Internet orqali murojaat qilishmoqda.

Buyuk Britaniyada "Mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun asosida fuqarolar mahalliy muammolar bo'yicha hokimiyat idoralariga murojaat qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, bu mamlakatda elektron jamoatchilik nazorati shakllaridan faol foydalanilmoqda, aholi hujjatlar, shikoyatlar, arizalar bo'yicha ishlarni elektron tarzda kuzatishi mumkin va bu ham jamoatchilik nazorati shakllaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Aholi munitsipalitet rahbariyatiga amaldagi qonunchilikning ayrim mansabdor shaxslar

tomonidan buzilishi yoki ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishi to'g'risida elektron shaklda xabardor qilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu so'rovlar bo'yicha hujjat aylanishi sezilarli darajada soddalashtirilgan bo'lib, ularga javoblarni tayyorlash vaqti, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash (himoya qilish) bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish vaqti qisqartirildi.

Jamoatchilik nazoratining xorijiy va xalqaro tajribasi uning subektlari, shuningdek, ularning vakolatlari majmui bilan ham ajralib turadi. Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa Ittifoqi davlatlarida davlat hokimiyati organlarining o'zi ham jamoatchilik nazorati sub'ektlari qatoriga kiradi. Bu amaliyot "jamoatchilik nazorati" atamasi jamiyat tomonidan davlat faoliyatini nazorat qilishni anglatishi haqidagi ta'rifni bir oz o'zgartiradi. Jamiyat nazorat predmeti, davlat nazorat ob'ekti hisoblanadi. Shu bilan birga, davlatning o'zi bu jamoatchilik nazoratining ikkinchi sub'ekti bo'lib, bunday nazoratning qoidalari va asoslarini belgilaydi. Biroq, bu ta'rifdagi pozitsiya bilan bahslashish mumkin. Bizningcha, davlat hokimiyati organlarining turli xil jamoatchilik nazorati sub'ektlariga mansubligi, bir tomondan, davlat nazorati turlaridan birini jamoatchilik nazorati shakli sifatida baholashga olib kelsa, ikkinchidan davlat hokimiyati organlari bir vaqtning o'zida jamoatchilik nazoratining ob'ekti va sub'ektiga aylanib qoladi.

Qamoqdagi mahbuslarning huquqlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratining eng qiziqarli namunalaridan biri Yaponiya tajribasida mavjud. Jamiyatning qamoqxonalar bilan o'zaro munosabatlaridagi juda yaxshi rivojlangan tizimi qiziqish uyg'otadi. Yaponiyadagi axloq tuzatish tizimi bilan jamoatchilikning o'zaro munosabati tushunchasi yaponlarning mentaliteti va madaniyati bilan belgilanadi.

Birinchidan, yapon madaniyati uyat, sharmandalik kategoriyasining mavjudligi bilan ajralib turadi, xususan, ozodlikdan mahrum qilish, mahbusni azob-uqubatlar orqali o'zini poklashni oqlaydigan tuyg'u bilan ilhomlantiradi. Agar biror kishi uyat tuyg'usini uyg'otsa, bu tuyg'u ko'pincha ushbu shaxsга tegishli bo'lgan jamoa tomonidan boshdan kechiriladi: oila, kompaniya, maktab va ayniqsa tashkilot rahbari. Ikkinchidan, Yaponiya hatto butun davlat va munitsipal organlarning ishtiroki nuqtai nazaridan davlat miqyosida emas, balki fuqarolarning faol faoliyat ko'rsatadigan jamoat tuzilmalarining keng tarmog'ini o'z ichiga olgan jinoyatchilikka qarshi kurashning umummilliy tizimini yaratdi[4.15].

Xorijiy tajribada jamoatchilik nazoratini tashkil etish va o'tkazish bilan shug'ullanuvchi jamoat tashkilotlarining faoliyati davlat budjeti, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan faol moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar to'g'ridan-to'g'ri aholidan, shuningdek yuridik shaxslardan mablag' jalb qilish huquqiga ham ega. "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jamg'armasi" ma'lumotlariga ko'ra, notijorat tashkilotlarning

daromadlarida davlat tomonidan moliyalashtirish ulushi: G'arbiy Yevropa, Kanada, Isroil - 54%; Sharqiy Yevropa - 42%; Anglo-Sakson mamlakatlari - 36%; Skandinaviya - 35%; Osiyodagi rivojlangan davlatlar - 34%; Lotin Amerikasi - 19%. Fransiya (60%) va Belgiya (76%) kabi mamlakatlarda notijorat tashkilotlarning aksariyati davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bu mamlakatlarda davlat tomonidan moliyalashtirish notijorat tashkilotlar uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi[5.143].

Shu munosabat bilan, mamlakatimizning amaldagi qonunchiligida davlat nazorati choralari tashkil etish, o'tkazish yoki amalga oshirishda ishtirok etgan jamoat tashkilotlari faoliyatini davlat va mahalliy budjetidan moliyalashtirish bo'yicha o'xshash majburiyatni kuchaytirish zarur. Ushbu moliyalashtirish tanlov asosida yoki davlat grantlari, soliq imtiyozlari va boshqalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini shakllantirish, takomillashtirishda xalqaro va xorijiy tajribadan foydalanishning bir qator sabablarini keltirish mumkin:

birinchidan, fuqarolik jamiyatining demokratik institutlari xorijiy mamlakatlarda davlat hokimiyati va uning mansabdor shaxslari ustidan nazorat o'rnatish jarayoni ancha uzoq tarixga ega bo'lib, uning davomida ko'plab muvaffaqiyatli shakl va usullar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi;

ikkinchidan, sobiq Ittifoq parchalanib ketganidan keyin O'zbekistonda davlat huquqiy tizimini qurishda davlat hokimiyatining shakllanishi va faoliyatining rivojlangan davlatlar modeli asos qilib olingani sababli, jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish uchun dunyoning eng yaxshi shakllanish modellaridan foydalanish mantiqan to'g'ri keladi;

uchinchidan, globallashtirish mintaqaviy davlatlararo integratsiyaning ko'plab jarayonlarini (masalan, Yevropa Ittifoqi doirasida) to'xtatib qo'ydi, bu esa davlat hokimiyati ustidan nazoratni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki institutlarini rivojlanishining yangi bosqichiga olib keldi.

O'zbekiston qonunlariga kiritilishi kerak bo'lgan davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar ustidan jamoatchilik nazoratining tashqi shakllari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bizning qonunlarga kiritilishi kerak bo'lgan davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratining tashqi shakllari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, elektron jamoatchilik nazorati, uning mohiyati aholining (ham fuqarolar, ham jamoat tashkilotlari) ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga tegishli har qanday ma'lumotlarga interaktiv kirish imkoniyatini beradi.

Bizda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunni yanada takomillashtirishda bu tajribalardan foydalanish mumkin. Bu keyinchalik mamlakatimizda elektron demokratiya texnologiyasini amalga oshiradigan va jamoatchilik nazorati oshkoraligini va ochiqqligini ta'minlash, uning natijalarini hisobga olish, uning natijalari, jamoatchilik nazorati sub'ektlarining axborot va

texnologik o'zaro hamkorligi uchun "Elektron jamoatchilik nazoratini tashkil qilish" avtomatlashtirilgan axborot tizimining roli berilgan "Jamoatchilik nazorati elektron resurs markazi"ning yaratilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-474-сон "Жамоатчилик назорати тўғрисида"ги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон.
2. Пархоменко А. Н. Общественный контроль в Соединенных Штатах Америки // Молодой ученый. – 2016. – № 20. – С. 622–625. – URL: <https://moluch.ru/archive/124/34196>.
3. Гончаров В. В. Правовое регулирование института общественного контроля: международный и зарубежный опыт // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 10 (107) октябр. –С. 161-163.
4. Александров А. С. Зарубежный опыт общественного контроля и общественного воздействия на осужденных к лишению свободы // Вестник Кузбасского института. – 2018. –№ 1 (34). – С. 15.
5. Кудрявцев А. В., Юдина Н. В. Из истории изучения зарубежного опыта реализации общественного контроля // Российская государственность в XXI веке: модели и перспективы социально-политического развития: материалы научно-практической конференции. –2017. – С. 143–145.

IJTIMOIIY DAVLATDA DINIY VA DUNYOVIY QADRIYATLAR MUVOZANATI

Iqboljon Orziev

NamDU, falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada davlatning dinga oid siyosati, sekulyarizm jahon tajribasiga tayanishi, undan kelib chiqishi, shu bilan birga xalqimizning tarixi, milliy an'analari va psixologiyasidan kelib chiqib yuritilishi tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: sekulyarizm, islom, e'tiqod, ijtimoiy taraqqiyot, ateizm, dogmatik, dialektik, dahriylik mafkurasi, sekulyar siyosat.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy davlat konsepsiyasi doirasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, diniy bag'rikenglik muhitini shakllantirish hamda jamiyatda barqaror ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirishda mazkur masala muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy davlat fuqarolarning turli dunyoqarashlari va e'tiqodlariga hurmat bilan yondashishni ta'minlagan holda, diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasida mutanosiblikni saqlashga xizmat qiladi.

Diniy va dunyoviy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Din insonlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ma'naviy barkamollikni shakllantirishga xizmat qilsa, dunyoviylik tamoyili davlat boshqaruvida barcha fuqarolar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, zamonaviy ijtimoiy davlat sharoitida diniy va dunyoviy qadriyatlarning uyg'unligi jamiyatda barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tarixan sekulyarizm omili dastavval Sharqda emas, G'arb sivilizatsiyasida qaror topdi. U asosan pozitivizm (O.Kont, G.Spenser), liberalizm (B.Rassel, F.Nisshe, E.Fromm), ekzistensializm (J.P.Sartr, T.Lukman), marksizm (K.Marks, F.Engels, V.Lenin) va boshqa ta'limotlar doirasida shakllandi. Bunday yondashuvlar asosiy g'oyasi – din tarixan “qariydi” va inson ruhi rivojlanishining intihosi bo'ladi – u “o'ladi”. Bu yondashuv tarkibida ashaddiy dahriylik (ateizm), desakralizatsiya hodisasi ham ajralib chiqadi. “Sekulyarizatsiya va Sakrilizatsiya (lotincha. saecularis-dunyoviy. sacer-muqaddas) – diniy-falsafiy tushunchalar. Ushbu tushunchalar orqali diniy va dunyoviy qarashlarning o'zaro munosabati ifodalanadi. Sekulyarizatsiya jarayonida diniy qarashlardan dunyoviylik ustun qo'yilsa, sakralizatsiyada dinning mavqei kuchayishi e'tirof etiladi.”[1. – B. 240]

Din bugungi kunda ijtimoiy va shaxsiy hayotda avangardlikka, yetakchilikka da'vo qilayotganligi ham kuzatilmoqda. Mamlakatimizda aholining yarmidan ko'prog'ini tashkil qiluvchi yoshlarning diniy qoida va qadriyatlarga e'tiqod erkinligi sharoitida talpinishi sir emas. Din yosharib borayotganligi – bor hodisa, undan ko'z yumish mumkin emas. G'arb ilmiy adabiyotida sekulyarizmni demokratiyaga qarshi qo'yishga urinuvchi qarashlar ham mavjud[6. – B. 200]. Bunday qarashlar ham yetarli asoslarga da'vo qiladi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, sekulyarizmni demokratiyaga qarshi qo'yish mumkin emas. Konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan sekulyarizm pozitiv huquqiy hodisadir – u erkinlikni, huquqni kafolatlaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sekulyarizm ateizm ham emas, u diniylik va dunyoviylikning teng huquqligini, legitimligini kafolatlaydi. Jahon konstitutsiyashunosligida bu qoida mustahkamlangan bo'lib, aksariyat demokratik taraqqiyot yo'lidani boruvchi davlatlar bu qoidani e'tirof etishadi, u umuminsoniy huquqiy qadriyat maqomiga ega.

Bu yerda ta'kidlash lozimki, demokratiya prinsipi umuman dinga zid emas. Ayniqsa islom dini demokratizm prinsipiga asoslanadi – “umma” (jamoat) fikri va irodasi ustuvorligi e'tirof etiladi. Shu bois ayrim G'arb olimlarining islom dinini demokratiyaga zid deb baholashi g'irt bema'nilikdir. Islom dinining muqaddas kitobi – Qur'onda demokratiyaga hamohang qator oyat va suralar mavjud. Akademik E.Yusupov: “Islom dini insonlarni asrlar davomida ahillikka, hamkorlik va hamjihatlikka chorlagan, zo'rlik va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralagan, har bir shaxsni halollik, iymoniylik, insoflilik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga katta ta'sir ko'rsatgan”[2. –B.10] - degan

fikrida islom ta'limotining bosh mezoni jamiyatda mas'uliyat hissi ekanligi ta'kidlangan. "Darhaqiqat, islom dini paydo bo'lgan dastlabki yillarda va undan keyin ham ijtimoiy holatda, davlatni boshqarishda, xalqlar o'rtasidagi barcha munosabatlarda oila, turmush tarzini axloqiy shakllantirishda, islom asosiy mafkura rolini o'ynagan. Islom dini hukmron mafkura bo'lgan mamlakatlarda hozir ham u shunday vazifani o'tamoqda." [3. –B.34]

Diniylik va dunyoviylikning nisbati insoniyat tarixida doimo kun tartibida bo'lib keldi. Insoniyat tarixida diniy qadriyatlarning zaiflashuvi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini Rim imperiyasi misolida kuzatish mumkin. Ma'naviy buzuvchilik, fahsh va zino ishlar ko'payishi qudratli Rim imperiyasining eramizning boshlarida tanazzulga yuz tutishini tezlashtirdi. Jamiyatni boshqarish (governance) hokimiyatni huquqshunoslikni rivojlantirishga undadi – Rim fuqarolik huquqiga asos solindi, huquqiy norma va me'yorlar vositasida jamiyat barqarorligini saqlab qolishga harakat qilindi.

Buning tasdig'i – buyuk Sharq tabiatshunos olimlari Beruniy, Ibn Sino, al-Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalar Allohni inkor etmaganlar, diniylik va dunyoviylik o'zaro muvozanatini, ya'ni sekulyarizm prinsipini e'tirof etganlar. "Rasululloh (alayhis-salom)dan keyin chahoryorlar xam shu yo'lni tutdilar. Xazrati Umar (roziyallohu anhu) "Sizlarning yaxshingiz u dunyo va bu dunyo uchun harakat qilganingizdir", deb alohida ta'kidlaganlar. U zot masjiddan chiqmay, ertayu-kech ibodatga mashg'ul bo'lgan yosh yigitlarni tayoq bilan haydab, dunyoviy ish bilan shug'ullanishga chaqirganlari rivoyatlarda mashhurdir" [4. –B.27].

"Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida diniy bag'rikenglik g'oyalari nihoyatda ulug'langan. Buyuk mutafakkir G'azolliyning fikriga ko'ra, oqil kishilar uchun yer umumiy xonadondir, faqat joxillargina u seniki desa, bu meniki deb talashadilar. Jalloliddin Rumiy dinlarga olib boruvchi yullar turfa, maqsadlar esa mushtarakdir, deya o'z melioristik qarashlarini rivojlantirdi" [5. –B.12].

Sekulyarizm – davlat siyosati bilan bog'liq. Garchi Konstitutsiyada, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda "sekulyarizm" atamasi ishlatilmagan bo'lsa-da, mazmunan va mohiyatan ushbu dasturiy-huquqiy va siyosiy hujjatlar sekulyarizm ruhi bilan yo'g'rilgan.

Ma'lumki, tarixan sekulyarizm g'oyasining G'arbda tug'ilishiga sabab – cherkovning ijtimoiy taraqqiyot talablari ta'sirida tanazzul tomon yuz tutishi bo'ldi. Ikkinchi tomondan, G'arb mamlakatlari an'anaviy jamiyatdan sanoatlashgan kapitalistik jamiyatga o'ta boshlagan davrga to'g'ri keladi. Shu bois ko'zga ko'ringan AQSh olimi P.Bergerning "Evropada cherkovning tanazzuli sababi – kapitalizm, qolaversa sekulyarizatsiya emas, balki plyuralizmning paydo bo'lishi, cherkovning jamiyat ma'naviy hayoti ustidan monopoliyasiga barham berilishi hisoblanadi" [7.], degan mulohazasi o'rinlidir. Ushbu olim fikriga ko'ra sekulyarizm plyuralizmga nisbatan inson ongi korrelyati bo'lib, u dinni sub'ektivlashtiradi, ya'ni uni ijtimoiy darajadan shaxs,

individd ongi darajasiga tushiradi. Biroq bu narsa, ya'ni sub'ektiv sekulyarizatsiya halokatli bo'lib, u identlik tanazzuliga olib keladi. P.Bergerning ushbu mulohazalari bilan ko'pchilik kelishmaydi. Masalan, Germaniya Geydelberg universitetining professori, teolog va faylasuf Mixail Velker o'zining "Xristianlik va plyuralizm" deb nomlangan asarida din va plyuralizmning o'zaro kelishuviga erishishga urinadi, "divergensiya", ya'ni ko'pvariantlilik munosabtni taklif etadi[8. – S. 141-146.].

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy davlat sharoitida diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Diniy qadriyatlar insonlarni ma'naviy kamolotga, axloqiy poklikka va ezgulikka undasa, dunyoviylik tamoyili davlat boshqaruvida barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur ikki yo'nalishning o'zaro uyg'unligi jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi doirasida diniy va dunyoviy qadriyatlarning mutanosibligini saqlash orqali jamiyatda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash mumkin. Bu jarayonda huquqiy asoslarni takomillashtirish, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Demak, ijtimoiy davlatda diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash nafaqat jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda demokratik taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Falsafa: ensiklopedik lug'at/O'zR FA. I.Mo'minov nomidagi falsafa va xuquq in-ti. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 240. (344)
2. Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. –T.:To'qimachilik instituti nashriyoti. 1999. -B. 10.
3. Xo'jamurodov Ibrohim Ro'zievich, Yakubov Yusuf Mingishevich. Islom: jamiyat va shaxs. (Monografiya) -Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2007.- B.34.
4. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. Mas'ul muxarrir L. Abdullaev. – T.: Toshkent islom universiteti, 2017. – B.27. (160)
5. Mardonova F. B. O'zbek xalqining hozirgi zamon ijtimoiy-ma'naviy hayotida millatlararo tolerantlik (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2020. –B. 12. (40)
6. Viet Bader. Secularism of Democracy? Associational Governance of Religions Diversity. – IMISCOE Research: Amsterdam University Press. – P. 200.
7. Berger P. Me Jesus, incorporated. Rus. Per. – Berger P. Serkov kak predprinimatel // NG – religii, 2003, 6 avgusta.
8. Velker M. Xristianstvo i plyuralizm. – M., 2001. – S. 141-146.

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING GLOBAL YONDASHUVLARI

*Jo'rayeva Shahina Narzullayevna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning global yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro huquqiy mexanizmlar, iqlim adolati konsepsiyasi, ekologik xavfsizlik va zaif guruhlar huquqlarini ta'minlash masalalari yoritilib, barqaror rivojlanish va inson huquqlari o'zaro bog'liqligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, inson huquqlari, iqlim adolati, xalqaro huquq, global yondashuvlar, zaif guruhlar, barqaror rivojlanish.

Iqlim o'zgarishi bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb global muammolardan biridir. Uning oqibatlari hayot, sog'liq, oziq-ovqat, suv, boshpana, xavfsizlik va munosib turmush darajasi kabi asosiy inson huquqlarini bevosita va bilvosita cheklamoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan nochor, ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar, bolalar va yoshlar, ayollar hamda mahalliy va indigenus jamoalar iqlim inqirozidan ko'proq zarar ko'rmoqda. Shu bois iqlim o'zgarishiga faqat ekologik yoki iqtisodiy muammo sifatida emas, balki inson huquqlari inqirozi sifatida yondashish zarurati kuchaymoqda. BMT hujjatlari, Parij kelishuvi, mintaqaviy va milliy tizimlarda huquqiy javobgarlik, "iqlim adolati", "yo'qotish va zarar" hamda "iqlim reparaatsiyasi" kabi yondashuvlar shakllanib bormoqda. Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning global yondashuvlari, xalqaro va milliy mexanizmlar, hamda O'zbekiston uchun dolzarb yo'nalishlar tahlil qilinadi.

Iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilish masalasi so'nggi yillarda xalqaro hamjamiyat e'tiborida yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Global isish, cho'llanish, suv tanqisligi va ekstremal ob-havo hodisalari aholining hayot sifati, sog'lig'i va xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, iqlim o'zgarishi faqat ekologik muammo emas, balki inson huquqlarining to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida ham qaralmoqda.

Ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar – bolalar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, qishloq aholisi va migrantlar iqlim inqirozidan ko'proq zarar ko'rishi ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanadi. Bu holat "hech kim chetda qolmasligi" tamoyiliga zid bo'lib, davlatlardan maxsus himoya choralarini ko'rishni talab etadi. Inson huquqlari yondashuvi iqlim siyosatini ishlab chiqishda adolat, tenglik va javobgarlik tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qiladi [1].

Xalqaro hujjatlar, jumladan BMT konvensiyalari, Parij kelishuvi va mintaqaviy bitimlarda iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda [2]. Bunda, bir tomondan, atrof-muhitni muhofaza qilish, ikkinchi tomondan esa insonning yashash huquqi, sog'liqni saqlash, munosib mehnat va migratsiya bilan bog'liq huquqlari o'zaro uzviy bog'liq holda ko'riladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqlim siyosatini rejalashtirishda inson huquqlari standartlarini inobatga olgan davlatlarda iqlimga moslashish va yumshatish choralarning samaradorligi yuqori bo'ladi. Shu jihatdan, iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning global yondashuvlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu esa transmilliy hamkorlik, ilmiy asoslangan siyosat va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirishni talab qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari iqlim o'zgarishi inson huquqlariga ko'p qirrali va chuqur ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Iqlim bilan bog'liq ofatlar hayot, sog'liq, oziq-ovqat, suv, uy-joy va munosib turmush darajasi huquqlarini bevosita cheklamoqda [3].

Birinchidan, global isish, qurg'oqchilik, toshqin va bo'ronlar natijasida zaif guruhlar (ayollar, bolalar, keksalar, kambag'allar, qishloq aholisi, orol va qirg'oq hududlarida yashovchilar) eng katta zararni ko'rayotgani aniqlandi [4]. Bu tengsizlik iqlim adolati va inson huquqlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, iqlim o'zgarishi nafaqat jismoniy salomatlikka, balki ruhiy salomatlik va ijtimoiy barqarorlikka ham putur yetkazayotgani qayd etildi; zo'ravonlik, majburiy migratsiya, stress va ruhiy kasalliklar xavfi oshmoqda [5].

Uchinchidan, davlatlarning xalqaro huquq ostidagi majburiyatlari – hayot, sog'liq, oziq-ovqat, suv va sog'lom muhit huquqlarini ta'minlash uchun samarali mitigatsiya va adaptatsiya siyosati yuritish zarurligi isbotlandi [6]. Amaldagi huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, ularning ijrosi ko'p hollarda yetarli emasligi aniqlandi.

Shuningdek, natijalar huquq asosidagi yondashuv va "sog'lom atrof-muhit huquqi" konsepsiyasini kuchaytirish iqlim siyosatini yanada adolatli, inkluziv va barqaror qilishini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, xalqaro huquqiy mexanizmlar milliy qonunchilik bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarurdir. Inson huquqlarini ta'minlashda BMT, Yevropa kengashi va boshqa xalqaro institutlarining roli ortib bormoqda. Iqlim o'zgarishi oqibatida migratsiya, ekologik inqiroz va ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkin. Shu sababli davlatlar preventiv chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi lozim. O'zbekiston ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etib, milliy dasturlarini takomillashtirmoqda. Aholini huquqiy va ekologik madaniyatini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini

himoya qilishda muhim hamkor sifatida namoyon bo‘ladi. Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish iqtisodiy siyosat bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Milliy va xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari siyosatchilar, huquqshunoslar va ekologlar uchun amaliy ahamiyatga egadir. Kelgusida mazkur sohada kompleks ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurdir. Inson huquqlarini himoya qilish iqlim adolatini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir davlat barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida o‘z majburiyatlarini bajarishi shart hisoblanadi. Umuman olganda, iqlim o‘zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilish global va hamkorlikni talab qiladigan vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mayrhofer M. International human rights and climate change (policies): Challenging the concept of vulnerability // Environmental Science & Policy, 2024. <https://doi.org/10.1016/j.envsci.2024.103847>.
2. Song J. International Human Rights and the Climate Emergency: An Examination of the Climate Advisory Opinions of the International Court of Justice and the Inter-American Court of Human Rights // Human Rights Law Review, 2025. – P. 35. <https://doi.org/10.38135/hrlr.2025.35.003>.
3. Cima E. The right to a healthy environment: Reconceptualizing human rights in the face of climate change // Review of European, Comparative & International Environmental Law, 2022. <https://doi.org/10.1111/reel.12430>.
4. Raziya Kalmuratova Seytmuratovna. “Global iqlim o‘zgarishi va uning O‘zbekiston hududiga ta’siri”. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology 2, no. 5, 2025. – B. 119-123.
5. Addaney M. Addressing the impacts of climate change on human rights through adaptation-focused litigation: Cases before the African Union’s human rights bodies // Journal of Human Rights, 2025. – C. 353-369. <https://doi.org/10.1080/14754835.2025.2507588>.
6. Vidhate H. The Changing Paradigms of Human Rights in the Context of Climate Change and Environmental Justice // International Journal of Environmental Sciences, 2025. <https://doi.org/10.64252/y20vh638>.

IJTIMOIIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY XOTIRANI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Otabayev Ikromjon Usmonjonovich

Fasalafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonida tarixiy xotirani rivojlantirishning ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida tarixiy xotira milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik ongini shakllantirish hamda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida qaraladi. Shuningdek, tarixiy merosni asrash, tarixiy

xotirani yosh avlod ongiga singdirish va uni zamonaviy ta'lim hamda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar orqali rivojlantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida tarixiy xotirani rivojlantirish ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlash hamda jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy davlat, tarixiy xotira, milliy o'zlik, fuqarolik jamiyati, ma'naviy qadriyatlar, tarixiy meros, ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy davlat konsepsiyasi fuqarolarning farovon hayotini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda jamiyat barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan muhim siyosiy-ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday jamiyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va jamiyatning tarixiy xotirasini asrash hamda rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixiy xotira jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlab, fuqarolarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish hamda ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy xotirani asrash va rivojlantirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, tarixiy xotira xalqning o'zligini, tarixiy tajribasini va madaniy merosini saqlab qolishning muhim vositasidir. Shu nuqtai nazardan, tarixiy xotirani rivojlantirish orqali jamiyatda fuqarolik ongini shakllantirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlash mumkin.

Mazkur maqolada ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonida tarixiy xotirani rivojlantirishning ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy xotirani saqlash va rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari hamda uning jamiyat barqarorligi va fuqarolik jamiyati rivojida o'rni yoritiladi.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida milliy tarixiy xotirani rivojlantirish zaruriyati haqida biz yuqoridagi boblarda fikr yuritdik. Ushbu zaruriyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy jihatlari jamiyat vakillarining ongu – tafakkuri va tarixiy xotirasini to'la saqlab qoladi deyish noto'g'ri. Sizni fikringizcha bu eng maqbul yo'l hisoblanadimi? Albatta yo'q millatlarning shunday etnik stereotiplari bo'ladiki, ular hamisha o'zi doxil bo'lgan jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan. Milliy taraqqiyotning hozirgi davrida shaxs, uning faoliyat jarayonlari, kommunakativligi, kompetentligi, kerativ imkoniyatlari, manfaatlari tobora serqirra bo'lib o'z-o'zini persektiv anglashiga keng imkoniyatlar mavjud.

O'tmishda yuz bergan minglab, millionlab voqea-hodisalar, yashab o'tgan milliardlab odamlardan hammasi ham tarixiy xotirada saqlanib qolmaydi, bunday bo'lishi mumkin ham, zarur ham emas. Tabiiy savol tug'iladi: qanday voqealar yodda saqlanadi-yu, qandaylari unutiladi?

Yangi davr boshlanganda kechagi kun tarixiy xotirasida ustuvor bo'lgan o'tmish gahramonlari va qadriyatlari transformatsiyaga uchraydi, yangi kum manfaatlari, ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qayta baholanadi.

Tarixiy xotiraning dolzarbligi va ajratib olish xususiyatining asosiy sabablari: tarix to'g'risida bilimlar (har qanday bilim emas, aynan, tanlab olinayotgan bilimlar) hozirgi davrdagi voqea-hodisalarni sharhlash, chuqur tushunish uchun ahamiyatli bo'lish bilan bir vaqtda kelajak uchun ham tarixiy tajribaning ta'siri, qadri borligidadir.

"Tarixiy xotira selektiv xususiyatga egaligi tufayli ularni (tarixiy ong elementlarini) saralay oladi, bir tizimga solishga xizmat qiladi" yoki "tarixiy xotirada san'at, urf-odat, marosimlar bilan bog'liq axborotlar saralangan tarzda jamlanadi va saqlanadi"[1]. Bunday jarayonda saralangan axborot manbalari moddiylashib boradi. Masalan an'ana va marosimlar, urf-odat va boshqa jamoaviy xatti-xarakatlar paydo bo'lishidan avval u haqda qarash fikrlar, miflashtirilgan mulohazalar tarzida shakllangan keyinchalik esa unga atab o'tkalgan marosimlar va ushbu xarakatlar orqali yuzaga keladigan moddiylashgan xarojat bilan bog'liq tomonlar xotiraning moddiyligini bildiradi.

"Tarixiy xotira - ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'ishi, eslanishi, qadrlanishi[2]". Demak ushbu ta'rifda yuqoridagi fikrimizni qo'llab-quvvatlayapti. Qadriyatni yana bir jihatidan o'tmishning moddiy va ma'naviy boyliklarini avlodlararo vorisiyligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham "insonni butun insoniyat yaratgan moddiy va manaviy boyliklar bilan bog'lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ruhiy manaviy ozuqa beradigan qudrat tarixiy xotiradir"[3].

Tarixiy xotiraning roli katta. Xalq, millat tarixiy xotirani yo'qotar ekan, kelajakdan mahrum bo'ladi. Kelajak nafaqat orzu yoki istak, balki bilish predmeti ham bo'lgani uchun o'tmishni, masalan, O'zbekiston tarixini tushunish jarayoni uning zaruriy elementi hisoblanadi. Bu uning o'tmishni bilish bo'g'inigina qolmay, balki kelajakni prognoz qilishning tarkibiy qismidir.

Tarixiy xotiraning dinamikasining o'zgarib borishi jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar, tarixiga bo'lgan munosabatga ta'sir etadi. Natijada tarixga, tarixiy faktlarga nisbatan qarashlar mavjud davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib baholanadi va talqin etiladi. Zamonaviy o'zbek jamiyatida tarixiy xotirani derekonstruksiya qilish uning tarkibiy elementlarini rivojlantirish ikkinchi hukumat davrida yanada faolroq amalga oshirila boshlandi.

Shu bilan birga mustaqil O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishga doir bir qator konsepsiyalar ishlab chiqilgan[4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning milliy tarixiy xotirani rivojlantirish, aholida tarixiy madaniyatni yuksaltirish, yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirayotgan ishlarining samarasi o'laroq vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekistonda 2021-2030-yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi" yaratilmoqda. Ushbu jarayon ijtimoiy zaruriyatga aylanmoqda va

dunyo tarixida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lgan o'tmishimizni yangi tarixiy bilimlar bilan boyitish, o'tmishga nisbatan jamoatchilik qiziqishi kuchaytirish, chuqur bilim va ko'nikmalarga ega kreativ fikrlaydigan yangi avlodini yetishtirish, jamiyatda milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlashda xizmat qiladigan tarixiy tafakkurni tarbiyalash zaruriyati bilan bog'liq. Maqsad esa, o'tmishimizning boy va noyob tarixiy merosini milliy va xorijiy darajada targ'ib etishning yangicha va samarali tizimi yaratishdir.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida kishilar tarixiy xotirasini rivojlantirib borishning quyidagi yondashuvlarini qo'llash maqsadga muvofiq:

birinchisi, an'anaviylik - bunda tarixiy xotira mavjud marosimlar urf-odat, bayram va boshqa jamoaviy tadbirlarni o'tkazish va unda ishtirok etish orqali kishilarda o'tmish an'alarini his etish, ong va xotirada jamlash shakllanadi. Bu insondagi dastlabki tarixiy xotiraning amaliy vositasi hisoblanadi;

ikkinchisi, ta'limiy yondashuv – yoshlarda tarixiy ong va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy gumanitar fanlarni egallash, tarixiy bilimlar birlashmasidan iborat bo'lgan yondashuv;

uchinchisi, aksiologik - jamiyatda yashab kelayotgan va kishilar tomonidan qabul qilingan milliy tarixiy qadriyatlarni davlat miqyosida targ'ib etilishi orqali jamiyat tarixiy xotirasini rivojlantirish;

to'rtinchisi, akmeologik yondashuv - bu mavjud milliy tarixiy xotirani oliy qadriyat darajasiga ko'tarish va bu jarayonda jamiyatdagi barcha qatlamlarini qamrab olish;

beshinchisi, inklyuziv yondashuv- jamoa orsida yoki ma'lum bir guruh a'zolarining tarixiy xotirasini rivojlantirishda turli metodlar qorishmalaridan foydalanish;

oltinchi, androgogik yondashuv - yoshi katta keksa avlod vakillarining tarixiy xotiralari muhokama qilinadi, tuzatish va o'zgartirishlar kiritiladi. Buni biz ko'proq og'zaki tarix usulida ko'rishimiz mumkin;

yettinchi, innovatsion yondashuv - hozirgi texnologik yutuqlardan foydalangan holda amalga oshiriladigan jarayonlar hisoblanadi. Shu bilan birga, turistik, artefak, ramzlar, xronik, madaniy kabi yondashuvlar ham mavjud.

Bugungi kunda dunyoda keskin transformatsiya jarayonlari yuz berishi axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi yoki uni mustahkamlash hamda rivojlantirishga doir tendensiyalar avj olmoqda. Ushbu tendensiyalar jamiyatda tarixiy ongni transformatsiya bo'lishida, uni rivojlantirishda, jamiyatda ijtimoiy – milliy birdamlikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda innovatsion texnologik usul va vositalar (virtual tarix, virtual muzey, teledasturlar, o'tmish xodisalarini tiklashga qaratilgan loyihalar, siyosiy mavzulashtirilgan uchrashuvlar, ijtimoiy tarmoqdagi turli guruh va kanallar) bugungi kunda keng rivojlanmoqda. biz buni ijtimoiy tarmoqlarning turli segmentlarida ko'rib turibmiz, qaysi tarmoqlar jamiyati uyg'oq va sergak bo'lsa milliy o'zlikni mustahkamlash va rivojlantirish, siyosiy tarixni jonlashtirish, tarixni ijtimoiylashtirishga qaratilgan dastur va ijtimoiy loyihalarni

internet tarmog'ini "Tik-tok", "Facebook", "Instagram", "Twitter", "Youtube", "Viber", "Telegram" va boshqa dasturlarda ko'p kuzatamiz. Endi ushbu tarmoqlarning o'zbek segmentini ko'rib chiqadigan bo'lsak, faqat kundalik maishiy muammaloar, pul topish bilan bog'liq har qanday xarakatlar aks etgan tasvirlar, kulgu, tomosha, xeyterlik va boshqa sayoz saviyadagi loyiha va dasturlarni ko'rishimiz mumkin. To'g'ri Youtube tarmog'ida turfa mavzularga qaratilgan podkstlar berilyapti, lekin ularni soni barmoq bilan sanarlidir. Hamonki jamiyatda milliy birdamlikni saqlab qolish muhim ekan axborotlashgan jamiyatda yashab qolish uchun yuqoridagi tomonlariga jiddiy e'tibor berish lozim. Vaholanki globallashuv davrida axborot oqimini yopib qo'yishni iloji yo'q. Shuning uchun ushbu muammoga yechim bitta ijtimoiy loyihalarni internet tarmog'ida ko'paytirish zarur.

Zamonaviy jamiyatda tarixiy xotira ijtimoiy ong va milliy identiklikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. XX asrning 90-yillaridan boshlab global siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar natijasida jamiyatlarda tarixiy qadriyatlar va milliy madaniy merosga nisbatan turli tahdidlar paydo bo'ldi. Nemis olimi V. Bek bunday jarayonlarni "xavf jamiyati" deb atab, zamonaviy jamiyatda moddiy va ma'naviy hayotga ta'sir qiluvchi xavf-xatarlar kuchayib borayotganini ta'kidlaydi. Shu sababli tarixiy xotirani saqlash va rivojlantirish jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatida tarixiy xotirani rivojlantirish an'anaviy, ta'limiy, aksiologik, innovatsion va boshqa yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda tarixiy merosni asrash, yosh avlodda tarixiy tafakkurni shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, davlat siyosati darajasida tarix fanini rivojlantirish va tarixiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, axborot makonida tarixiy xotiraga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan manipulyativ texnologiyalar ham mavjud bo'lib, ular tarixiy voqealarni buzib talqin qilish yoki tarixiy ongni qayta shakllantirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Shu sababli tarixiy xotirani mustahkamlash, tarixiy bilimlarni chuqurlashtirish hamda jamiyatda milliy tarixga nisbatan hurmat va mas'uliyatni kuchaytirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarixiy xotira jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonida muhim ma'naviy omil hisoblanadi. Tarixiy xotira orqali jamiyat o'zining tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va madaniy merosini saqlab qoladi hamda ularni kelajak avlodlarga yetkazadi. Bu jarayon fuqarolarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixiy xotirani rivojlantirish ijtimoiy davlat tamoyillarini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki tarixiy merosni asrash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish va ularni yosh avlod ongiga singdirish orqali fuqarolik jamiyati rivojlanadi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlik

ta'minlanadi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlab, ijtimoiy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratadi.

Demak, tarixiy xotirani asrash va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, ta'limiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish ijtimoiy davlatni shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Shu bois tarixiy xotirani rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlarni amalga oshirish jamiyatning barqaror rivojlanishi va milliy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллажанова Д. Тарихий онг ва тарихий хотира // Фалсафа ва ҳуқуқ. - Тошкент, 2004. - № 2. - Б.82.
2. Фалсафа. Қомусий луғат. - Тошкент: Шарқ, 2005. - Б. 389.
3. Қурбонов Т.Н. Ёшларда миллий ғурурнинг шаклланишида маданий мероснинг роли: фалс.фан.номз. дисс...автореф - Тошкент: ЎЗМУ, 2005.-Б.12.
4. Азизхўжаев А.А., Аҳмедова Б. А., Асқаров А.А., Бобобеков Н.Н., Отажонов А., Содиков Н., Шамсутдинов Р., Холбоев С., Шоймардонов И. томонидан тузилган: "Ўзбек халқи давлатчилиги тарихи концепцияси (1999 й.) лойиҳаси". "Ўзбекистон тарихи", 1999, 1-сон.

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA INSON KAPITALI KONSEPSIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TALQINI

Samadov Tursunboy Adxamjonovich

Fasalafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), NamDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror rivojlanish sharoitida inson kapitali konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning inson kapitalini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlari hamda konseptual yondashuvlari o'rganiladi. Shuningdek, inson kapitalining ta'lim, sog'liqni saqlash, innovatsiya va ijtimoiy farovonlik bilan uzviy bog'liqligi yoritilib, uning barqaror rivojlanish jarayonidagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida inson kapitalini rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlari va ijtimoiy davlatni shakllantirishning muhim omillaridan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, barqaror rivojlanish, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, ta'lim, sog'liqni saqlash, innovatsiya, ijtimoiy taraqqiyot, investitsiya, inson salohiyati, jamiyat rivoji.

Hozirgi globallashuv va jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida inson kapitalini rivojlantirish masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda inson kapitali tushunchasi nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki

jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik resurs sifatida ham talqin etilmoqda. Ayniqsa, bilim, malaka, salomatlik va innovatsion salohiyat kabi omillar inson kapitalining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etib, ular jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi esa inson manfaatlari, ijtimoiy farovonlik va kelajak avlodlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashni nazarda tutadi. Shu jihatdan qaraganda, inson kapitalini rivojlantirish barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida qaraladi. Chunki inson salohiyatini oshirish orqali ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi, innovatsion faoliyat va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Mazkur maqolada barqaror rivojlanish sharoitida inson kapitali konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirishga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o'rganilib, inson kapitalining barqaror rivojlanish jarayonidagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy omili - ta'lim, sog'liqni saqlash, professionallik, ijodkorlik va axborot texnologiyalarning ilmiy va innovatsion taraqqiy etishi bilan yuzaga keladi.

Jamiyatdagi har qanday ijtimoiy hodisa ijtimoiy tizimning elementi sifatida paydo bo'lib, inson kapitali uning asosiy obektyga aylanib boradi. Inson kapitali – doimiy ravishda rivojlanib borishni va investitsiyalarni talab qilib, bu bilan jamiyatning turli soha hamda ko'rsatkichlarini shakllantiradi. Inson kapitali tushunchasi bo'yicha bugungi kungacha qator kitoblar bitilgan, ilmiy ishlar, dissertatsiyalar yoqlangan. Ularning barchasida insonga yanada ko'p imkoniyatlar yaratib berish, hayotni yengillatish borasida izlanishlar olib borilib, qachon hamma-hamma narsa yaxshi bo'lishi haqidagi savollarga javob izlangan.

Inson kapitalini takomillashtirish mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tadqiq etishda muhim ilmiy – amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

XX asr ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitali va ta'limga nisbatan munosabat asta-sekin tubdan o'zgara boshladi. Inson kapitalini rivojlantirishning nazariy – amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi – olimlar A.Smit, T.Shulst, G.Bekker, E.Denison, R.Solou, S.Fisher[3] tomonidan ilk bor tadqiq etilgan. T.Shulst[5] fikriga ko'ra, kapitalni: inson kapitali va ashyoviy kapitalga izchil taqsimlash imkonini beradi. Inson kapitali nazariyotchilaridan G.Bekker inson kapitali tushunchasini birinchi bo'lib mikrodarajada qo'llay boshladi.

A.Smit inson kapitalini shaxsning ta'lim olish jarayonida unda mehnat qobiliyatining rivojlanishi, hamda uning jamiyat uchun foyda keltirishga ixtisoslashuvining ahamiyati to'g'risida alohida ta'kidlaydi[17]. Fikrimizcha,

inson kapitali o'sha paytning nuqtai nazari bilan qaraganda, yangi qiymatni yaratishdagi mehnat qobiliyati bilan o'Ichangan.

S.Voronina talqinidagi inson kapitali tushunchasiga ko'ra aholining sog'liq darajasi ayniqsa muhim masala bo'lib, u har qanday mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi. Aynan aholining sog'lik darajasi inson kapitalini shakllantiradi[11], deya ta'kidlaydi. I.V. Ilinskiy inson kapitali ta'lim kapitali, sog'liq kapitali va madaniyat kapitalida iborat deb hisoblaydi[13].

Inson kapitali tarkibini kengroq tahlil etish uchun funktsiyaviy yondashuv printsiplini hisobga olish lozim. Funktsiyaviy yondashuvning metodologik printsiplari hodisani faqat uning ichki tarkibi bo'yicha emas, balki uning funktsiyaviy maqsadi, pirovard foydalanish maqsadi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni talab etadi.

Jahon iqtisodiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asr boshlariga qadar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida jismoniy kapital, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va moddiy resurslar yetakchi o'rin egallaganligi iqtisodiy adabiyotlarda qayd etilgan. Biroq XX asrning o'rtalaridan boshlab fan-texnika taraqqiyotining jadal rivojlanishi natijasida bilim, ilmiy tadqiqotlar samarasi va insonning intellektual salohiyati iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylandi. Natijada inson iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilib, iqtisodiyot fanida **inson kapitali** kategoriyasi shakllana boshladi.

Inson kapitali tushunchasining paydo bo'lishi iqtisodiyot va unga turdosh ijtimoiy fanlarning zamonaviy jamiyat talablariga javobi sifatida yuzaga keldi. Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining sur'atlari hamda sifati insonning bilim, tajriba va intellektual salohiyatini chuqur o'rganishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitali nafaqat iqtisodiy kategoriya, balki ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan tushuncha sifatida ham talqin qilinmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga ko'ra, inson kapitali insonning bilim, ko'nikma, tajriba, sog'liq, madaniyat va ijodiy salohiyati kabi sifatlarining majmui hisoblanadi. Bu sifatlar insonning jamiyatdagi faoliyati va mehnat jarayonida namoyon bo'lib, uning o'zi uchun daromad manbai bo'lish bilan birga, jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson kapitali jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim resurs sifatida qaraladi.

Inson kapitalining shakllanishi insonda to'plangan muayyan resurslar – sog'liq, bilim, malaka, kasbiy tajriba, ijodiy qobiliyat va mehnat salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu resurslar insonning o'zini rivojlantirishiga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shishiga imkon yaratadi.

Inson kapitali quyidagi muhim xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– insonning bilim va qobiliyatlari jamiyat taraqqiyotida muhim kapital sifatida namoyon bo'ladi;

- insonning ijodkorlik salohiyati kelajakda moddiy va ma'naviy farovonlikka erishish imkonini yaratadi;
- inson kapitali nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish omili hisoblanadi;
- inson kapitalining rivojlanishi uchun davlat, jamiyat va shaxs tomonidan muayyan investitsiyalar kiritilishi zarur.

Odatda inson kapitalining asosiy tarkibiy elementlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim kapitali (umumiy va maxsus bilimlar tizimi);
- ishlab chiqarish tajribasi va kasbiy ko'nikmalar;
- sog'liq kapitali;
- innovatsion faoliyat va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan axborotdan foydalanish imkoniyati.

Inson kapitalining rivojlanish darajasini baholashda bir qator ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ta'lim darajasi, kasbiy malaka va tajriba, sog'liq holati, madaniyat va ma'naviyat darajasi, ijodkorlik salohiyati hamda shaxsning jamiyatdagi faolligi inson kapitalining asosiy mezonlari hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish sharoitida inson kapitali mamlakatning innovatsion taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy yondashuvlar inson kapitalini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan siyosiy qarorlar, ijtimoiy dasturlar va iqtisodiy resurslar tizimini o'z ichiga oladi. Bunda ijtimoiy adolat, barqarorlik va inson manfaatlariga yo'naltirilgan taraqqiyot muhim o'rin egallaydi.

Shuningdek, inson kapitalining rivojlanishida ijtimoiy muhit ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi, mehnat bozori, ilmiy muassasalar va ijtimoiy institutlar inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillar hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi esa inson kapitalining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil inson kapitali konsepsiyasini faqat iqtisodiy kategoriya sifatida emas, balki insonning o'zini rivojlantirish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Содиржонов М. М. Инновацион тараққиёт йўлида инсон капиталини ривожланиш жараёнларини оптимallashtiriш имкониятлари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2020. – №2 (88). – Б. 57.
2. Geri Stenli Bekker (Gary Stanley Becker, 1930 yil 2 dekabrda tug'ilgan) – amerikalik iqtisodchi, "mikroiqtisodiy tahlil sohasini insonning qator xususiyatlariga qo'llash uchun" 1992 yilgi Nobel mukofoti laureati. Asosiy asarlari: "Kamsitishning iqtisodiy nazariyasi" ("The Economics of Discrimination", 1957), "Inson kapitali" ("Human Capital", 1964), "Iqtisodiy nazariya" ("Economic Theory", 1971).

3. Shultz T. Human Capital, family planning and their effects on population growth // American Economic Review. -1994. –May. P.45.

4. Smith A. An Inquiry into the Nature And Causes of the Wealth of Nations Book 2 – Of the Nature, Accumulation, and Employment of Stock. – London, 1776.

5. Teodor Uilyam SHults (Theodore William Schultz, 1902 yil 30 aprel, Arlington – 1998 yil 26 fevral, Ivanston, AQSH) – amerikalik iqtisodchi, “rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanish muammolari tadqiqotlari uchun” 1979 yilgi Nobel mukofoti laureati. Asosiy asarlari: “Jahon uchun oziq-ovqat” (“Food for the World”, 1945); “An’anaviy agrar sohasining transformatsiyasi” (“Transforming Traditional Agriculture”, 1964).

6. Содиржонов, М. "Инсон капитали ривожини шахсининг онги, билими, ахлоқ-одоби, дунёкарашига боғлиқ". "Янги Ўзбекистон" газетаси 10 (2022).

7. Усмонов Б. Ш. ва бошқ. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабоп рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. – 83 б.

IJTIMOIIY DAVLAT TARAQQIYOTIDA INSON HUQUQLARI MASALASI: ILMIY TALQINLARNING DOLZARBLASHUVI

Davron MUITOV, O‘zDJTU, Siyosiy fanlar kafedrasi professori
J.Fozilov, O‘zDJTU, Siyosiy fanlar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Ma’lumki davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatda ijtimoiy davlat g’oyasining oldinga surilishi – shubhasiz demokratik islohotlarga yangi kuch beruvchi g’oyaviy, amaliy-nazariy qarashlar davrini boshlab berdi.

Ya’ni Prezident Sh Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “O‘zbekiston inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga qat’iy sodiq qoladi.

O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari yo‘lida harakatga da’vat” tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettiradi”[1].

Albatta bunday paytda ijtimoiy masalalar bo‘yicha rasmiy davlat siyosati omillari o‘zgacha yangi tus ola boshlaydi. Davlat ijtimoiy dasturlarni davlat tomonidan real moliyalashtirish bo‘yicha yangi imkoniyatlar qidira boshlaydi, natijada davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo‘nalishlari yanada ravshanlashadi. Aynan inson huquqlariga doir sohada qonun va qonunosti hujjatlarining sifatli qabul qilinish va uni amaliyotga tadbiq etishni talqin jarayoni tobora dolzarblashib boradi.

Bugun shubhasiz ijtimoiy davlat bu birinchi navbatda mamlakatda ijtimoiy regulyatorlik siyosatini olib boruvchi, demak davlat faoliyatining barcha jabhalari va yo‘nalishlarida – shaxsning erkin kamoli hamda insonning yashash darajasini oshirishni asosiy maqsad tarzida ko‘ruvchi davlat shaklidir. U liberal, konservativ, skandinav kabi davlat ko‘rinish tarzida dunyoga kelgan. Shuning uchun siyosiy tahlillar ijtimoiy davlat tushunchasi palitrasining rang-barangligidan kelib chiqmoqda[2].

O‘z-o‘zidan bu kabi islohotlar ko‘lamiga ko‘ra ijtimoiy davlat taraqqiyoti trendlari, istiqboli va modellarini belgilab berishda inson huquqi bilan bog‘liq ijtimoiy siyosiy tashkilotlarning ahamiyatini kuchaytirib borishni ko‘zda tutadi.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy davlat hokimiyatning nufuzli e‘tirofi, unga kuch va hukmronlik timsoli deb qarash O‘zbekiston jamiyatining siyosiy mentalitetiga xos bo‘lib kelgan. Ikkinchi tomondan esa jamiyatimiz siyosiy mentalitetida davlat katta oilaga tenglashtirilib, huquqiy davlat tamoyillarining o‘z-o‘zidan e‘tirof etilishi yengil kechadi. Aslida fuqarolarning qonun va davlatga munosabati, ijtimoiy adolat hamda o‘z shaxsiy huquq va erkinliklarini tushunishi ayni shu holatdan kelib chiqadi.

So‘nggi yillarida O‘zbekistonda aholining ijtimoiy siyosiy faolligi, siyosiy va huquqiy ongi hamda siyosiy madaniyati darajasini yuksaltirishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlar amalga oshirildi va bu borada sobitqadamlik namoyish etilmoqda. Davlatning fuqarolik jamiyati bilan nisbati, bajaradigan ijtimoiy vazifasi va funksiyalari ko‘lami, davlatning jamiyatning ijtimoiy xizmatkori bo‘lishdek asosiy maqomi tobora teran anglab yetilmoqda. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy fikr davlat hokimiyati ustidan keng qamrovli nazorat o‘rnatilishini ta‘minlovchi mexanizmlarni vujudga keltirish borasida faol ish olib borilmoqda.

Endilikda bunday holatda demokratik rivojlangan davlatlar tajribasi bizlar uchun o‘ziga xos demokratiya maktabini o‘tashi mumkin. Bu qarashlar jamiyat ishlarida va uning siyosiy hayotida inson huquqlarining yangi katalizatori darajasidagi ilmiy-amaliy ishlanma, nazariyalarga ko‘proq e‘tiborni qaratishni zaruriyatga aylantiradi. Bu holatda davlat ijtimoiy siyosatiga ta‘sirchanligi bilan ma‘lum bo‘lgan siyosiy partiyalarning inson huquqlari doirasidagi yondashuvlari demokratik siyosiy bozor mantig‘i bilan bog‘liq bo‘ladi. Xususan xorijiy ilmiy talqinlarda siyosiy partiyalar – ommaviy hokimiyat organlaridagi partiyaviy tarkibi sifatiga ko‘ra baholanishini aytmqchi edik. Ularda partiyalarning ijtimoiy davlatga ta‘sir qilish darajasini aniqlash uchun esa partiyani klassifikatsiyalash amaliyotini oldinga surishgan. Bunday paytda siyosiy partiyalarga davlat ijtimoiy siyosati inson huquqlariga qanday ta‘sir o‘tkazishi bilan baho berilishi muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy davlatdagi inson huquqlari taraqqiyotiga zamonaviy siyosiy partiyalar qanday ta‘sir etishi mumkin? Nima uchun aksariyat siyosatchi va siyosatshunoslar aynan Skandinav davlatlarini eng muvaffaqiyatli tarzda ijtimoiy davlatlar qatoriga kiritishdi? Balki bunga skandinavlarining o‘tgan jahon urushlarda minimal qatnashish siyosati sabab bo‘lganmi? Yoxud Skandinav parlamentarizmida urush partiyalari qatorida radikal natsional-shovinistik partiyalarga imkon berilmayotganligimi? Shvedlarning “to‘liq bandlik” iqtisodiy kredosi, eng kuchli ijtimoiy himoya tizimi, davlatning xususiy mulkini rivojlantirishdagi roli, kasaba uyushmalari orqali yaxshi yashash mayli kabi tushunchalar nimani anglatadi? Biz ijtimoiy xalqparvar davlat qurish yo‘lida

aynan shu kabi savollar atrofida ilmiy-metodologik xulosalar qilishimizga to'g'ri keladi.

Masalaning ikkinchi tomoni afsuski, hozirgi geopolitik murakkabliklar, geosiyosiy turbulentlik davri YI yetakchi davlatlari ijtimoiy siyosatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Oxirgi paytda Buyuk Britaniya, Germaniya kabi andaza olishimiz ma'qul bo'lgan davlat parlamentlarida ijtimoiy masalalar o'rniga global geosiyosat bilan bog'liq ritorika kuchayib ketdi. Rossiya–Ukraina, Isroil–Falastin, Isroil–Eron mojarolari zamonaviy Yevropa siyosiy axborot makonining asosiy mavzusiga aylanib qoldi. Hatto yashillar harakati, ekologik partiya vakillarida ham agressivroq bir yoqlamalik mafkuraviy tendensiyalar kuchayib ketmoqda. Milliardlab yevro hajmidagi sarmoyalar asosan harbiy xarajatlar o'rnidan joy olmoqda, shu tariqa unikal yevropaviy ijtimoiy himoya tizimiga salbiy ta'sir o'tkazilmoqda. Bu nafaqat Yevropada, balki konflikt ishtirokchilarining barcha MDH vakillari ijtimoiy siyosatida ham salbiy natijalarni bermoqda.

Harqalay bugun korrupsiyadan butunlay xoli bo'lgan davlat va jamiyat boshqaruvi, ayniqsa ta'lim tizimidagi kuchli islohotlar o'zining ijobiy samarasini berdi. Taraqqiyot indeksi bo'yicha bu davlatlar ancha ilgarilab ketdi. Bugun skandinavlar jamiyati o'ta boylar ham va o'ta kambag'allar ham jamiyati emas. Qonun ustuvorligi tamoyili qadrlangan, turmush tarzi xuddi soliqlari kabi baland ijtimoiy demokratik davlatlardir.

G'arb demokratik modellarida ijtimoiy davlat bilan siyosiy partiyalar o'rtasida o'zaro aloqadorlik nihoyatda kuchli tayanchga egadir. Keng miqyosli partiyaviy siyosat ijtimoiy davlatning strukturasiga butunlay ta'sir o'tkazib boradi. Albatta siyosiy partiyalarning o'z elektorati bilan aloqadorligi mexanizmi ham o'z so'zini aytmay qolmaydi. Va aksincha ijtimoiy davlat tarafdorlari bo'lgan siyosiy partiyalarning obro'sizlanib qolishi, so'l partiyalar o'rtasida zaif raqobat ijtimoiy davlatning susayishiga olib keladi.

Shunday qilib ijtimoiy davlatda inson huquqlari g'oyasi parlamentimizdagi siyosiy partiya fraksiyalarining faoliyatini jonlantirishni ham taqozo qiladi. U ayni shu jihatdan barcha demokratik partiyalarni zamonaviy demokratik davlatlar tajribasini puxta o'zlashtirish va hayotga yangicha tadbiq etish strategiyasi ortidan ergashtiradi. Bu esa mazkur sohada ilmiy tadqiqotlarning o'ta dolzarbligini yanada tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. 70-bet.
2. S. Saidov Ijtimoiy davlat asoslari. Monografiya. -T.: "Brok class servis" nashriyoti. 8–10-bet.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIYOSIY PLYURALIZMNING O‘RNI

Sharof Agabayev

O‘zDJTU, Siyosiy fanlar kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyosiy plyuralizm fenomeni zamonaviy siyosiy nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan qayta talqin qilinadi. Unda siyosiy plyuralizm jamiyatdagi manfaatlar xilma-xilligining siyosiy tizimga integratsiyalashuvi, davlat qarorlarining legitimligini shakllantirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi murakkab institutsional mexanizm sifatida asoslanadi. O‘zbekiston misolida siyosiy plyuralizmning normativ asoslari, institutsional shakllanishi va funksional samaradorligi tizimli taхлил қилинади.

Kalit so‘zlar: siyosiy plyuralizm, legitimlik, fuqarolik jamiyati, siyosiy tizim, demokratik boshqaruv, O‘zbekiston.

XXI asrda jamiyat taraqqiyotini anglash va baholashga oid ilmiy yondashuvlar tubdan o‘zgarib bormoqda. Agar avvalgi davrlarda taraqqiyot asosan iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, sanoatlashuv darajasi yoki davlat boshqaruv apparatining markazlashgan samaradorligi orqali izohlangan bo‘lsa, bugungi kunda siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi nazariyalarida mazkur tushuncha ancha murakkab va ko‘p o‘lchamli hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Endilikda jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo, siyosiy institutlarning ochiqligi, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirok darajasi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning samaradorligi hamda qaror qabul qilish tizimining inklyuzivligi bilan baholanmoqda.

Aynan shu nuqtayi nazardan siyosiy plyuralizm zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy institutsional omillaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Siyosiy plyuralizmni faqat ko‘ppartiyaviylik bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan tor yondashuv hisoblanadi. Chunki mazkur tushuncha jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar, manfaatlar va qarashlarning siyosiy tizim doirasida tan olinishi, ularning institutsional shaklda ifodalanishi hamda davlat qarorlariga real ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq murakkab jarayonni anglatadi. Shu sababli siyosiy plyuralizmni “siyosiy ko‘plik” emas, balki “institutsional inklyuzivlik va manfaatlar muvozanati tizimi” sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy siyosiy nazariyalarda siyosiy plyuralizm davlat hokimiyatini zaiflashtiruvchi omil sifatida emas, balki uni optimallashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Chunki turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining ochiq ifodalanishi va ularning siyosiy tizimga integratsiyalashuvi qaror qabul qilish jarayonini yanada muvozanatli, asosli va ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat boshqaruvining legitimligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi misolida mazkur masala alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy-huquqiy islohotlar davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, parlament institutini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati rolini oshirish hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kengaytirishga qaratilgan. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya[1] davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni qayta konseptual asoslashga xizmat qildi. Unda siyosiy partiyalar jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi institut sifatida belgilanishi siyosiy plyuralizmning normativ asoslarini mustahkamladi.

Shu bilan birga, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun[2], "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun[3] hamda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Prezident farmonlari[4] siyosiy plyuralizmni amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatlar siyosiy plyuralizmni deklarativ tamoyildan real ishlaydigan institutsional mexanizmga aylantirishga qaratilganligini ko'rsatadi.

Biroq ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, siyosiy plyuralizmning huquqiy jihatdan mavjudligi uning amalda samarali ishlayotganini anglatmaydi. Ya'ni normativ baza shakllangan bo'lishiga qaramay, uning funksional natijadorligi siyosiy raqobat darajasi, siyosiy partiyalar o'rtasidagi mazmuniy farqlanish, fuqarolik jamiyati institutlarining ekspertlik salohiyati hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlarining real ta'sir kuchi bilan belgilanadi. Shu bois siyosiy plyuralizmni tahlil qilishda "mavjudlik" emas, balki "samaradorlik" mezoni ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli siyosiy plyuralizm fenomenini ilmiy jihatdan to'liq anglash uchun uni tarixiy-evolyutsion va konseptual rivojlanish doirasida tahlil qilish zarur. Mazkur tushuncha bir vaqtning o'zida siyosiy falsafa, demokratik nazariya va zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab nazariy konstruktsiyani ifodalaydi.

Siyosiy plyuralizmning dastlabki nazariy ildizlari klassik liberal tafakkurga borib taqaladi. XVII-XVIII asrlarda ilgari surilgan g'oyalar siyosiy hokimiyatni cheklash, uni bo'lish va jamiyatdagi manfaatlar xilma-xilligini tan olish zaruratini asoslab berdi [5;6]. Mazkur yondashuvda asosiy urg'u davlat hokimiyatining mutlaq shaklini inkor etish va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan edi. Garchi bu davrda "siyosiy plyuralizm" atamasi ilmiy muomalaga kiritilmagan bo'lsa-da, aynan shu nazariy qarashlar keyinchalik plyuralistik tafakkurning normativ poydevorini shakllantirdi.

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida siyosiy plyuralizm mustaqil nazariy paradigma sifatida shakllana boshladi. Bu davrda siyosiy tizimni monolit tuzilma sifatida emas, balki turli manfaatlar, guruhlar va institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir maydoni sifatida talqin qilish tendensiyasi kuchaydi. Ayniqsa, manfaatlar guruhlar nazariyasi siyosiy plyuralizmning empirik asoslarini mustahkamladi [7]. Ushbu yondashuvga ko'ra, siyosiy tizim barqarorligi turli ijtimoiy guruhlar

manfaatlarining ochiq ifodalanishi va ularning o‘zaro muvozanatlashuvi orqali ta’minlanadi. Shu tariqa, siyosiy plyuralizm davlatga qarshi turuvchi emas, balki siyosiy tizimni ichkaridan muvozanatlashtiruvchi mexanizm sifatida talqin qilina boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmida siyosiy plyuralizm nazariyasi yangi bosqichga ko‘tarildi. R.Dalning “poliarxiya” konsepsiyasi demokratiyani ideal xalq hokimiyati emas, balki raqobat va ishtirokning institutsional darajada tashkil etilgan tizimi sifatida tushuntiradi [8]. Uning yondashuvida siyosiy plyuralizmning asosiy mezonlari quyidagilar bilan belgilanadi: siyosiy raqobatning mavjudligi, fuqarolarning keng ishtiroki, muqobil axborot manbalarining ochiqligi va siyosiy erkinliklarning kafolatlanganligi. Mazkur konsepsiya siyosiy plyuralizmni nafaqat normativ g‘oya, balki amaliy tahlil vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishini ta’minladi.

Zamonaviy siyosiy fanlarda siyosiy plyuralizm tobora ko‘proq tizimli va ko‘p darajali hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Endilikda - manfaatlar xilma-xilligi; ularning institutsional ifodasi; kommunikativ muhokama maydoni; qaror qabul qilish mexanizmlari; legitimlik va ijtimoiy ishonch kabilar o‘zaro bog‘liq elementlar majmui hisoblanadi. Bu esa siyosiy plyuralizmni statik emas, balki dinamik, o‘zgaruvchan va moslashuvchan tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

O‘zbekiston siyosiy tajribasi ushbu nazariy evolyutsiyani milliy kontekstda qayta talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Mamlakatda siyosiy plyuralizm klassik g‘arb modelidan farqli ravishda faqat partiyaviy tizim orqali emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla tizimi, jamoatchilik kengashlari va ijtimoiy sheriklik mexanizmlari orqali ham amalga oshirilmoqda. Bu holat siyosiy plyuralizmning “kooperativ” va “kontekstual” modelini shakllantirayotganini anglatadi.

Shu bois, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda siyosiy plyuralizmni universal model sifatida emas, balki har bir jamiyatning tarixiy, madaniy va institutsional xususiyatlariga moslashgan tizim sifatida ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydigan hamda demokratik yo‘l bilan saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadigan institut sifatida belgilab olingan konstitutsiyaviy norma siyosiy plyuralizmning milliy modelini anglash uchun muhim ahamiyatga kasb etadi. Chunki bu yerda siyosiy plyuralizm nafaqat formal ko‘ppartiyaviylik, balki ijtimoiy vakillik va davlat hokimiyatini shakllantirishdagi institutsional ishtirok bilan bog‘lanadi. Shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyati xohish-irodani erkin bildirish, ixtiyoriylik, a’zolar teng huquqliligi, o‘zini o‘zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida amalga oshirilishi qonuniy belgilangan. Demak, siyosiy plyuralizmning huquqiy mohiyati ijtimoiy ko‘plikni siyosiy shaklga aylantirish va bu ko‘plikni qonuniy me’yorlar asosida boshqarish bilan izohlanadi.

Yana bir muhim jihat mazkur muammoni qiyosiy-siyosiy tahlillar asosida klassik nazariy konsepsiyalar (R.Dal, D.Truman, Y.Habermas) bilan O‘zbekiston siyosiy amaliyoti o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni o‘rganishdir [8-10]. Bunda uchta ya’ni, birinchidan, siyosiy raqobat va vakillik mexanizmlari; ikkinchidan, fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratining roli; uchinchidan, siyosiy legitimlikning shakllanish omillari kabi asosiy parametrlar asosida amalga oshiriladi. Bu siyosiy plyuralizmning universal nazariy mezonlari bilan milliy model o‘rtasidagi moslik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bugungi zamonaviy o‘zbek siyosatshunosligida “siyosiy plyuralizm”, “fuqarolik jamiyati”, “jamoatchilik nazorati”, “siyosiy ishtirok” kabi tushunchalarning mazmuni va talqini ko‘plab tadqiqotlarda ilimiy-nazariy jihatdan o‘rganilmoqda [10-12;13]. Bunda siyosiy plyuralizmning ko‘ppartiyaviylik, institutsional va kommunikativ talqinlari mavjudligi aniqlanib, ularning evolyutsion rivojlanish tendensiyalari ko‘rsatib berilgan. Bu esa siyosiy plyuralizm tushunchasining milliy ilmiy maktab doirasida qanday transformatsiyalanayotganini anglash imkonini yaratdi.

Umuman olganda, bugun O‘zbekiston siyosiy tizimida siyosiy plyuralizm shakllanish bosqichidan funksional rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda. Biroq ushbu jarayonning muvaffaqiyati siyosiy institutlarning real mustaqilligi, fuqarolik jamiyati institutlarining kuchayishi, siyosiy kommunikatsiya sifati, siyosiy madaniyatning rivojlanishi kabi omillarga bevosita bog‘liq.

Shu bois siyosiy plyuralizmni chuqurlashtirishda asosiy e’tibor miqdoriy ko‘rsatkichlarga emas, balki sifatli transformatsiyaga qaratilishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, siyosiy plyuralizmni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas institutsional omili sifatida talqin qilish zarurligini asoslab berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, siyosiy plyuralizmni faqat ko‘ppartiyaviylik yoki siyosiy institutlar soni bilan izohlash yetarli emas. U jamiyatdagi manfaatlar xilma-xilligining siyosiy tizimga integratsiyalashuvi, ularning institutsional ifodalanishi va davlat qarorlariga real ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadigan murakkab va ko‘p darajali hodisadir.

O‘zbekiston siyosiy tizimi misolida olib borilgan tahlillar siyosiy plyuralizmning uch darajada namoyon bo‘lishini aniqlash imkonini berdi: normativ, institutsional va funksional darajalar. Normativ darajada mamlakatda siyosiy plyuralizmning mustahkam huquqiy asoslari shakllangan. Konstitutsiya va tegishli qonunchilik siyosiy ko‘plik, fuqarolik ishtiroki va jamoatchilik nazoratini kafolatlaydi. Institutsional darajada esa siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla tizimi va jamoatchilik kengashlari siyosiy plyuralizmning asosiy tashuvchilari sifatida shakllanmoqda.

Shunday qilib, siyosiy plyuralizm O‘zbekiston sharoitida shakllanayotgan va rivojlanayotgan murakkab siyosiy hodisa bo‘lib, uning kelajakdagi samaradorligi institutsional rivojlanish bilan bir qatorda siyosiy madaniyat va ijtimoiy ishtirok darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur tadqiqot siyosiy

plyuralizmni jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida talqin qilish zarurligini ilmiy asoslab beradi va ushbu yo‘nalishda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy hamda amaliy poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). -T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 1996 (so‘nggi o‘zgartirishlar bilan).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. - T., 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi farmoni “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” // “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. - Toshkent, 2023.
5. Tulyakov E. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati islohotlari: tendensiyalar va istiqbollar // Analytical report. - Toshkent, 2022.
6. Shamsiddinov B.J., Yuldasheva X.J.Q. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning huquqiy asoslari // Ijtimoiy fanlar axborotnomasi. - 2023.
7. Norboyev S.Q. Siyosiy partiyalar - jamiyat va davlat o‘rtasidagi vositachi institut sifatida // Siyosiy tahlil jurnali. - 2023.
8. Dal R. Poliarxiya: ishtirok va muxolifat. -Nyu-Xeyven: Yel universiteti nashriyoti, 1971 yil.
9. Trumen D. Hukumat jarayoni: siyosiy manfaatlar va jamoatchilik fikri. -Nyu-York: Knopf, 1951 yil.
10. Xabermas Y. Jamoat sohasining tarkibiy o'zgarishi. -Kembrij: MIT Press, 1989.
11. Agabayev Sh. Siyosiy madaniyat va yoshlar saylov faolligi: nazariy va amaliy tahlil // Jamiyat va innovatsiyalar, № 6, Toshkent, 2025.
12. Lokk J. Hukumat haqidagi ikkita risola. - London, 1689.
13. Montesquieu Ch. De l’esprit des lois (The Spirit of Laws). - Geneva, 1748.

TURKIYADA IJTIMOIIY DAVLAT KONTEKSTIDA INSON HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ BILAN INTEGRATSIYASI VA HOZIRGI RIVOJLANISH

Erkan Avcı Metin o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Siyosiy fanlar kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiyada ijtimoiy ta'minot davlati tamoyili va inson huquqlarini himoya qilish o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro huquq nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy ta'minot davlatining asosiy tamoyillari, inson huquqlarining global ahamiyati va xalqaro integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Turkiya ishtirok etayotgan xalqaro konventsional va konstitutsiyaviy qoidalar nuqtai nazaridan inson huquqlarini

himoya qilishning dolzarb muammolari ko'rib chiqiladi va yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, inson huquqlari, xalqaro huquq, Turkiya, konstitutsiyaviy qoidalar, xalqaro integratsiya.

Kirish Ijtimoiy davlat – bu shaxsning munosib hayot kechirishi va ijtimoiy adolatni o'rnatishi uchun zarur bo'lgan minimal shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy huquqiy davlat modelidir. Ushbu model inson huquqlari faqat salbiy maqom huquqlari (daxlsizlik huquqlari) bilan cheklanib qolmasdan, balki ijobiy maqom huquqlari (ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar) nuqtai nazaridan ham kafolatlanishini taqozo etadi. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida "qonun ustuvorligi bilan boshqariladigan ijtimoiy davlat" mohiyati aniq ta'kidlangan va bu tamoyil davlatning asosiy maqsad va vazifalari qatoriga kiritilgan [1].

Globallashgan dunyoda inson huquqlarini himoya qilish millat-davlatlar yakka o'zi yengib o'tadigan muammo bo'lib qolmadi; u xalqaro huquq, umuminsoniy tamoyillar va mintaqaviy mexanizmlar orqali umumiy mas'uliyat sohasiga aylandi. Shu nuqtai nazardan, Turkiyaning Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi (EHES), Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) asosiy inson huquqlari konvensiyalari va Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi kabi xalqaro hujjatlarga qo'shilishi ijtimoiy davlat konsepsiyasining xalqaro standartlar bilan integratsiyasini ta'minladi. Ushbu maqola Turkiyada inson huquqlarini ta'minlashning zamonaviy yondashuvlarini ushbu integratsiya jarayonini uning nazariy va amaliy jihatlarini nuqtai nazaridan o'rganish orqali baholashga qaratilgan.

Ijtimoiy davlat liberal davlatning individual erkinliklarga urg'u berishini ijtimoiy birdamlik va iqtisodiy tenglik tamoyillari bilan to'ldiradigan tushunchani ifodalaydi. Bu tushuncha davlatdan bozor iqtisodiyoti sharoitida passiv regulyator bo'lish o'rniga, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun faol aralashishni talab qiladi. Nemis huquqshunosi Ernst Forstxoffning fikriga ko'ra, ijtimoiy davlat "ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirishga majbur bo'lgan davlatdir" [2].

Turkiya konstitutsiyaviy tizimida ijtimoiy davlat tamoyili ko'plab sohalarda, birinchi navbatda, mehnat hayoti, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash huquqi, ta'lim olish huquqi va uy-joy huquqida namoyon bo'ladi. Konstitutsiyaning 5-moddasida davlatning asosiy maqsad va vazifalari qatorida "shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini ijtimoiy qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga zid bo'lgan tarzda cheklaydigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etishga intilish" sanab o'tilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 56-moddasi har bir insonning sog'lom muhitda yashash huquqini, 60-moddasi ijtimoiy ta'minot huquqini va 42-moddasi ta'lim va o'rganish huquqini kafolatlaydi.

Ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillarini quyidagicha sanab o'tish mumkin:

1. **Inson qadr-qimmatini himoya qilish:** Farovonlik davlatining asosiy maqsadi shaxsning moddiy va ma'naviy farovonligini himoya qilish va oshirishdir.

2. **Teng imkoniyatlar:** Ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy holati yoki jismoniy nogironligi kabi omillardan qat'i nazar, shaxslar hayotda teng boshlanishini ta'minlash.

3. **Ijtimoiy adolat va birdamlik:** Daromadlarni taqsimlashda adolatni o'rnatish va ijtimoiy xavflarni (ishsizlik, kasallik, qarilik) jamoaviy birdamlik orqali hal qilishni ta'minlash.

4. **Minimal turmush darajasi:** Hech kim inson qadr-qimmatiga mos keladigan turmush darajasidan pastga tushmasligini ta'minlash.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish nafaqat milliy huquqiy qoidalarga, balki xalqaro huquq tomonidan belgilangan minimal standartlarga ham rioya qilishni talab qiladi.

Inson huquqlarining umuminsoniyligi tamoyili ushbu huquqlarni himoya qilishni nafaqat ichki qonunchilikning, balki xalqaro hamjamiyatning ham umumiy majburiyatiga aylantirdi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) bilan inson huquqlarini xalqaro huquqning asosiy masalasiga aylantirdi. Bu jarayon shaxsni xalqaro huquq subyekti maqomiga ko'tardi va davlatlar tomonidan o'z fuqarolariga nisbatan sodir etilgan inson huquqlari buzilishini xalqaro maydonda tergov qilish mavzusiga aylantirdi [3].

Yevropa Kengashining asoschi a'zosi sifatida Turkiya 1954-yilda Yevropa inson huquqlari bo'yicha konventsiyani ratifikatsiya qildi va 1987-yilda individual murojaat qilish huquqini, 1990-yilda esa Yevropa inson huquqlari sudining (YHHM) majburiy yurisdiksiyasini qabul qildi. YHHM tomonidan Turkiyaga oid minglab qarorlar ijtimoiy davlat tamoyili buzilgan ko'plab sohalarda (mulk huquqi, adolatli sudlov huquqi, so'z erkinligi va boshqalar) ichki qonunchilikda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, mulk huquqi nuqtai nazaridan, kompensatsiyasiz musodara qilish va uzoq davom etgan sud jarayonlari tufayli chiqarilgan huquqbuzarlik to'g'risidagi qarorlar Turkiya huquq tizimida ma'muriy va ijro huquqida islohotlarni zarur qildi [4].

Global hamkorlikning yana bir muhim jihati iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasidadir. Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi (1961, 1996-yilda qayta ko'rib chiqilgan) ijtimoiy huquqlarni himoya qilish bo'yicha eng keng qamrovli mintaqaviy hujjatdir. Turkiya Xartiyaning ko'plab qoidalarini ratifikatsiya qildi va vaqti-vaqti bilan Yevropa Ijtimoiy Huquqlar Qo'mitasiga hisobot berish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Mehnat huquqi, kasaba uyushmalari huquqlari, ijtimoiy ta'minot huquqi va ijtimoiy yordam olish huquqi kabi sohalarda xalqaro monitoring mexanizmlari Turkiyaning ijtimoiy siyosat sohasidagi taraqqiyotini kuzatib boradi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (BTM) inson huquqlari va rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beruvchi zamonaviy asosni taqdim etadi. 17 ta asosiy maqsad va 169 ta kichik maqsaddan iborat BTMlar qashshoqlikni yo'q qilish, ochlikni tugatish, sog'lom va sifatli hayotni ta'minlash, sifatli ta'lim berish, gender tengligiga erishish va tengsizlikni kamaytirish kabi ijtimoiy ta'minot davlatining maqsadlari bilan bevosita mos keladi [5].

Turkiya Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha milliy rivojlanish rejalari va strategiya hujjatlarini ushbu maqsadlarga moslashtirishga intilmoqda. 11-Taraqqiyot rejasi (2019-2023) va undan keyingi 12-Taraqqiyot rejasi (2024-2028) ijtimoiy siyosatni kuchaytirishga, mehnat bozorida inklyuzivlikni oshirishga va qashshoqlikka qarshi kurashishga qaratilgan bo'lib, "barqaror rivojlanish" tamoyilini o'z markaziga qo'yadi.

Biroq, Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda inson huquqlariga asoslangan yondashuvni qo'llash juda muhimdir. Ushbu yondashuv rivojlanish siyosati nafaqat iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan holda, balki ishtirokchi, kamsitishga qarshi va hisobdor tarzda ishlab chiqilishini talab qiladi. Turkiyada qochqinlarning (vaqtinchalik himoya ostidagi suriyaliklar) ijtimoiy huquqlardan foydalanish imkoniyati, nogironlarni ish bilan ta'minlash va ayollarning ishchi kuchida ishtirok etishi kabi masalalar Barqaror rivojlanish maqsadlaridan "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili bilan inson huquqlari nuqtai nazaridan baholanishi kerak bo'lgan sohalar qatoriga kiradi [6].

Turkiyada ijtimoiy ta'minot davlatining rivojlanishi xalqaro integratsiya jarayonlariga parallel ravishda davom etdi. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga (YEI) nomzod maqomi, ayniqsa 1999 yildagi Xelsinki sammitidan so'ng, ijtimoiy siyosat sohasida YEI qonunlariga moslashishga qaratilgan sa'y-harakatlarini tezlashtirdi. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik, ijtimoiy ta'minot tizimini qayta qurish va ish hayotida moslashuvchanlik va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanat (flexicurity) ga oid huquqiy qoidalar ushbu integratsiya jarayonining aniq natijalaridir.

Xalqaro integratsiyaning eng muhim vositalaridan biri normalarni sud pretsedentlari orqali o'tkazishdir. Yevropa Ittifoqi Inson Huquqlari Konvensiyasining Turkiyaga oid qarorlari nafaqat individual arizalarni ko'rib chiqishga olib keldi, balki Konstitutsiyaviy sudning individual ariza mexanizmining samaradorligini oshirdi (2012). Konstitutsiyaviy sud o'zining ko'plab qarorlarida Yevropa Ittifoqi Inson Huquqi Konvensiyasining yurisprudentsiyasiga murojaat qilish orqali ijtimoiy huquqlar va fuqarolik va siyosiy huquqlar o'rtasida birlikni o'rnatdi. Xususan, mulk huquqi (Konstitutsiyaning 35-moddasi), adolatli sudlov huquqi (36-modda) va shaxsiy hayotga daxlsizlik huquqi (20-modda) kabi sohalarida berilgan qonunbuzarlik qarorlari ma'muriyat faoliyatida va sud jarayonlarini oqilona vaqt ichida yakunlashda o'zgarishlarga olib keldi [7].

Biroq, xalqaro integratsiya jarayoni har doim ham muammosiz kechmaydi. So'nggi yillarda Turkiya xalqaro huquq bo'yicha ba'zi majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch keldi. Masalan, Yevropa Ittifoqi Inson Huquqi Konvensiyasining 6-moddasida kafolatlangan adolatli sud jarayoni huquqi nuqtai nazaridan, Favqulodda holat (2016-2018) davrida chiqarilgan Farmonlar bilan ishdan bo'shatilgan davlat xizmatchilari uchun samarali huquqiy choralar ko'rish imkoniyati cheklanganligi bo'yicha ko'plab qonunbuzarlik to'g'risidagi qarorlar chiqardi [8]. Bu holat xalqaro huquqning ustuvorligi printsipli va milliy suverenitet o'rtasidagi ziddiyatni va ijtimoiy davlatni qonun ustuvorligi printsipli bilan birgalikda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa Turkiyada ijtimoiy davlat tamoyili inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish nuqtai nazaridan muhim konstitutsiyaviy va huquqiy asosga ega. Xalqaro huquq bilan uyg'unlashtirish jarayoni, ayniqsa, Yevropa Ittifoqining Inson huquqlari bo'yicha konvensiyasi va Yevropa Ittifoqining qonuniy manfaatlari orqali, ijtimoiy huquqlar ustidan sud nazoratini kuchaytirdi va davlatning mas'uliyat doirasini kengaytirdi. Biroq, hozirgi qiyinchiliklarga qaramay, ushbu yutuqlarning doimiyligini va xalqaro standartlarga to'liq muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

1. **Sud mustaqilligini mustahkamlash:** Yevropa inson huquqlari bo'yicha konvensiya va Konstitutsiyaviy sud qarorlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini kafolatlaydigan mexanizmlar yaratilishi kerak. Ma'muriy va sud islohotlarini, ayniqsa, tarkibiy muammolarga olib keladigan qoidabuzarliklar (masalan, uzoq muddatli sud jarayonlari) uchun tezlashtirish kerak.

2. **Ijtimoiy huquqlarning inklyuzivligini oshirish:** Vaqtinchalik himoya ostidagi shaxslar, nogironlar, qariyalar va bolalar kabi nochor guruhlar uchun ijtimoiy huquqlardan foydalanishda kamsitishning oldini olish bo'yicha siyosatlar ishlab chiqilishi kerak va ushbu siyosatlarning amalga oshirilishi mustaqil monitoring mexanizmlari orqali kuzatilishi kerak.

3. **Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqlashtirish:** Rivojlanish rejalari va ijtimoiy siyosat hujjatlari inson huquqlariga asoslangan yondashuv bilan qayta tuzilishi kerak; iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash.

4. **Xalqaro monitoring mexanizmlarida to'liq ishtirok etish:** Turkiya o'zi a'zo bo'lgan xalqaro monitoring mexanizmlarida (masalan, Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi, BMT Inson huquqlari kengashining Universal davriy ko'rib chiqish jarayoni va boshqalar) samarali ishtirok etishi va hisobot berish majburiyatlarini to'liq bajarishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini ta'minlashda ijtimoiy ta'minot davlatining global ahamiyati xalqaro hamkorlik va huquqiy integratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Turkiyaning bu jarayondagi yutuqlari zamonaviy yondashuvlarni qo'llashning muhim namunasi bo'lib xizmat qilsa-da, oldinda turgan tarkibiy qiyinchiliklarni yengib o'tish siyosiy iroda, institutsional

salohiyat va fuqarolik jamiyati ishtirokini birgalikda safarbar qilishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi, 1982.
2. Forsthoff, E. (1971). *Der Staat der Industriegesellschaft* . Myunxen: CH Beck, p. 65.
3. Erturk, Y. (2020). *Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq* . Ankara: Seçkin Yayıncılık, 112-115-betlar.
4. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi. *Doğan va boshqalar/Turkiya* , 8803-8811/02, 8905-8912/02, 8915-8916/02 raqamli arizalar, 2004-yil 29-iyun.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2015). *Barqaror rivojlanish maqsadlari* . Nyu-York: BMT nashriyoti.
6. İçduygu, A. (2022). “Turkiyada qochqinlarning ijtimoiy huquqlaridan foydalanish imkoniyati: Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi baholash”. *Migratsiya tadqiqotlari jurnali* , 8(1), 45-72-betlar.
7. Konstitutsiyaviy sud. *Tug'ba Arslan va boshqalarning arizasi* , Ariza raqami: 2014/6354, 2018-yil 24-may.
8. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi. *Alparslan Altan Turkiyaga qarshi* , Ariza raqami 12778/17, 2019-yil 16-aprel.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR HUQUQLARI, XUSUSAN, TO'SIQSIZ TURIZM HIMOYASI

Mirodiljon Xomudjonovich Baratov,
O'zFA Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishning o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi xalqaro - huquqiy asoslar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan milliy normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilgan. Maqolada O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarida to'liq ishtirokini ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritib berilgan. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat hayotiga integratsiya qilishda duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish orqali inklyuziv jamiyatni shakllantirish, barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishish va inson salohiyatidan to'liq foydalanishni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish maqsadlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, inson huquqlari, inklyuziya, ijtimoiy himoya, O‘zbekiston.

Bugungi kunda va istiqbolda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) global kun tartibining markazida turibdi va 2030-yilga qadar hech bir inson e’tibordan chetda qolmasligi tamoyiliga asoslanadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar (NBS) ushbu umumiy maqsadlarga erishishda ajralmas qismidir. Ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda to‘liq ishtirok etishini ta’minlash inklyuziv jamiyat qurishning asosiy shartidir. Ushbu maqola BRM doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini (2020) ratifikatsiya qilishi bilan nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda yangi bosqichga qadam qo‘ydi. BRM kontekstida O‘zbekiston o‘z zimmasiga Kambag‘allikka barham berish (BRM-1), Sifatli ta’lim (BRM-4), Munosib ish va iqtisodiy o‘sinh (BRM-8) kabi bir qator maqsadlarga erishish majburiyatini olgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning teng imkoniyatlardan foydalana olishi ushbu maqsadlarga erishishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Mamlakatda “Inson qadri uchun” tamoyili amalga oshirilayotgan bir sharoitda, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasidan faol ishtirokchiga aylanishini ta’minlash ustuvor vazifadir. Ularning ta’lim, bandlik va sog‘liqni saqlash sohalarida to‘siqlarga duch kelishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirib, BRMga erishish sur‘atini sekinlashtiradi. Shu bois, mavzuning dolzarbligi huquqiy islohotlarni amaliy inklyuziya mexanizmlari bilan bog‘lash zarurati bilan belgilanadi.

A.Sen o‘z tadqiqotlarida insonning imkoniyatlari yondashuvi (The capabilities approach) nogironlik va adolat masalalarini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, nogironligi bo‘lgan shaxslarning farovonligi – ularning amalga oshirish imkoniyatlari bilan belgilanadi [1]. “Egalik”dan – “amalga oshirish imkoniyati”ga o‘tish: A.Sen tovarlar va resurslarga (masalan, pul yoki yordamchi uskunaga) egalik qilishning o‘zini farovonlik, deb bilmaydi. Aksincha, ushbu resurslar yordamida inson hayotida nimalarni qila olishi (funktsiyalar) va u o‘zi uchun qadrlil bo‘lgan hayotni qanday yashay olishi (imkoniyatlar) muhim. Bu nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun nihoyatda muhim. Chunki oddiy shaxsga berilgan bir xil miqdordagi pul yoki o‘quv materiallari nogironligi bo‘lgan shaxs uchun aynan o‘sha natijaga erishish imkoniyatini bermasligi mumkin (masalan, zinapoyali binoga kirish uchun ko‘p pul ham, oddiy eshik ham yetmaydi, pandus kerak). A.Sen nogironligi bo‘lgan shaxslar ko‘pincha shaxsiy xususiyatlari (nogironlik turi) va jamiyatdagi to‘siqlar tufayli, resurslarni farovonlikka aylantirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishini ko‘rsatadi. Uning fikri bizni shunchaki “yordam” berishdan, balki nogironligi bo‘lgan shaxslarning teng darajada “faoliyat yuritishi” uchun to‘siqlarni (jismoniy, ijtimoiy, institutsional) olib tashlashga undaydi. Ushbu yondashuv

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) falsafasining markazida turadi: agar biz hech kim e'tibordan chetda qolmasin desak, nogironligi bo'lgan shaxslarning BRMni o'z hayotlarida to'liq amalga oshirish imkoniyatini yaratishimiz shart. Ya'ni, ta'lim, bandlik va sog'liqni saqlashga rasmiy ruxsat berish emas, balki ularning bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishini ta'minlash lozim.

R.Rieser integratsiyadan inklyuziyaga o'tishda jamiyatning nogironlikka bo'lgan munosabatini o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi. U nogironlikning ijtimoiy modelini BRM uchun asos qilib oladi [2]. Integratsiya va inklyuziya farqi – R.Rieser aynan mana shu farqni ajratib ko'rsatgani muhim. Integratsiyada nogironligi bo'lgan shaxs mavjud tizimga moslashishga majbur bo'ladi (ya'ni, maktabga kirishi uchun qo'shimcha xizmatlar topishga harakat qiladi). Bu nogironlikning tibbiy modeliga yaqin turadi. Inklyuziyada esa, tizimning o'zi shaxsning ehtiyojiga mos ravishda o'zgaradi (ya'ni, maktab o'quvchi qabul qilingandan keyin pandus o'rnatadi, o'quv dasturini moslashtiradi). Bu nogironlikning ijtimoiy modeliga asoslanadi. R.Rieserning nogironlikning ijtimoiy modelini BRM uchun asos qilib olishi to'g'ri yondashuvdir. Ijtimoiy model nogironlikning sababini shaxsning kasalligida emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlarda (masalan, zinapoyalar, moslashmagan ta'lim usullari, kamsituvchi qonunlar) ko'radi. BRMning maqsadi tenglik va barqarorlik bo'lgani uchun, muammoni nogironligi bo'lgan shaxsdan olib, jamiyatning tuzilishiga yuklash (ijtimoiy model) BRM ruhiga to'liq mos keladi. O'zbekiston kabi BRMni joriy qilayotgan mamlakatlarda R.Rieserning bu chaqirig'i juda dolzarb. Nogironligi bo'lgan shaxslarni shunchaki ijtimoiy himoya obyekti deb bilishdan voz kechib, ularni jamiyatning faol, teng huquqli ishtirokchisi sifatida qabul qilish lozim. Bu nafaqat qonunlarni o'zgartirish, balki mahalliy darajadagi munosabatni, stereotiplarni va qarashlarni tubdan isloh qilishni talab qiladi.

T.Shakespeare nogironlik nazariyasiga doir tanqidiy yondashuvni rivojlantirib, huquqlar himoyasini kuchaytirishda o'z-o'zini himoya qilish harakatlarining rolini muhim, deb biladi [3]. T.Shakespeare nogironligi bo'lgan shaxslarni passiv yordam oluvchilar yoki faqatgina davlat himoyasiga muhtoj shaxslar sifatida ko'rishdan voz kechishni talab qiladi. Aksincha, ularni o'z hayotiy qarorlarini qabul qiluvchi, o'z huquqlari uchun kurashuvchi subyektlar (agentlar) sifatida tan olish kerak. Bu Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning ishtirokchilik va egalik tamoyiliga to'liq mos keladi. Siyosatning legitimligi: o'z-o'zini himoya qilish harakatlari qanchalik kuchli bo'lsa, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonun va siyosatning nogironligi bo'lgan shaxslarning haqiqiy ehtiyojlariga mos kelishi shunchalik ta'minlanadi. Agar siyosat faqat tepadan ishlab chiqilsa, u odatda amalda samarasiz bo'lib qoladi. Shuning uchun, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning nodavlat tashkilotlari (NNT) va jamoat birlashmalarini qo'llab-quvvatlash huquqiy himoyani kuchaytirishning asosiy strategiyasi hisoblanadi.

Harakatning transformatsion kuchi o'z-o'zini himoya qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularga o'z qadri-qimmatini anglashga yordam beradi. Bu esa, ularning jamiyatda to'liq va samarali ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan psixologik va ijtimoiy kapitalni yaratadi. T.Shakespearening fikri huquqiy himoyani shunchaki qonunlarni qabul qilish bilan cheklamasdan, balki nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z ovozigacha bo'lishi va o'z taqdirlarini o'zlari belgilash kuchini ta'minlash orqali demokratik inklyuziyani chuqurlashtirishga chaqiradi. BRM tasnifida bu huquqiy islohotlarning barqaror va amaliy bo'lishining kalitidir.

S.Mitra BRM va nogironlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga jalb qilish muhimligini ko'rsatadi [4]. Shahra Mitraning bu tahlili BRMga erishishning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy zaruriyat ekanini ta'kidlashi bilan juda muhim. U nogironlik masalasini xayriya yoki ijtimoiy himoya doirasidan olib chiqib, milliy iqtisodiy strategiya darajasiga ko'taradi. Iqtisodiy mantiqiy asos: S.Mitra asosan shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy jarayonlardan chetda qoldirish nafaqat adolatsizlik, balki milliy yalpi ichki mahsulot (YaIM) uchun katta yo'qotishdir. Ular ish bilan band bo'lsa, iste'molchi bo'ladi, soliq to'laydi va iqtisodiy yuk bo'lish o'rniga, iqtisodiy faollikka hissa qo'shadi. O'zbekiston uchun bu, ayniqsa, BRM-8 (Munosib ish va iqtisodiy o'sish) maqsadiga erishishda markaziy yondashuv bo'lishi kerak. BRMning to'liq imkoniyati: BRM "hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik"ka asoslangan. Agar nogironligi bo'lgan shaxslar iqtisodiy rivojlanish jarayoniga faol jalb etilsa, bu kambag'allikni qisqartirish (BRM-1) va tengsizlikni kamaytirish (BRM-10) maqsadlariga erishishni keskin tezlashtiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning oilalari ko'pincha qashshoqlik darajasida yashaydi, ularning ish bilan ta'minlanishi butun oilaning iqtisodiy holatini o'zgartiradi. Inklyuzivlikka investitsiya: S.Mitraning ishi bizni inklyuziv ta'lim, qulay infratuzilma va moslashgan ish joylariga qilingan investitsiyalar shunchaki xarajat emas, balki yuqori daromad keltiruvchi sarmoya ekaniga ishontiradi. Chunki bu sarmoya jamiyatning to'liq salohiyatidan foydalanish imkonini beradi. Xulosa: S.Mitraning yondashuvi nogironlikni inson huquqlari nuqtai nazaridan himoya qilish bilan birga, iqtisodiy foydalilik nuqtai nazaridan ham muhim ekanini isbotlaydi. O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarning iqtisodiy integratsiyasini ustuvor yo'nalishga aylantirish BRMga erishishning samarali va barqaror yo'li hisoblanadi.

A.Kanter BMT Konvensiyasini amalga oshirish jarayonida milliy qonunchilik va amaliyotlarni uyg'unlashtirishning ahamiyatiga urg'u beradi [5]. Kanterning bu fikri, ayniqsa, O'zbekiston kabi xalqaro shartnomalarni nisbatan yaqinda ratifikatsiya qilgan mamlakatlar uchun katta amaliy ahamiyatga ega. U huquqiy islohotlarning samaradorligini ta'minlashning asosiy shartini ko'rsatib beradi. Huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish: Normativ-huquqiy kafolatlar tizimi kompleksi (NHKTK) global minimal standartlarni belgilaydi, biroq uni har bir

mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirish talab etiladi. Agar milliy qonunchilik, masalan, nogironlikning tibbiy modeliga asoslanishda davom etsa, Konvensiyaning ijtimoiy modelga asoslangan ruhi amalda ro'yobga chiqmaydi. A.Kanterni urg'usi aynan mana shu konseptual uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Amaliyotning muhimligi: Qonunlarni qabul qilish bir masala, lekin ularni amalda bajarish – butunlay boshqa masala. Muallif, ehtimol, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda qonunlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda byurokratik to'siqlar, mablag' yetishmasligi yoki xabardorlikning pastligi sababli ularning ishlamasligini nazarda tutgandir. O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'lim, qulay infratuzilma va bandlik kvotalari kabi masalalarda qonunlar qabul qilinganidan keyin, ijro mexanizmlari va monitoring kuchaytirilishi kerak. BRM bilan aloqa: BRMga erishish uchun bu uyg'unlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy qonunchilik Konvensiya tamoyillariga to'liq mos bo'lsa, BRM-10 (Tengsizlikni kamaytirish) va BRM-16 (Adolat va tinchlik) kabi maqsadlar uchun mustahkam asos yaratiladi. Qonunlar, amaliyot va BRM maqsadlari o'rtasidagi uyg'unlik davlat siyosatining izchilligini ta'minlaydi. Xulosa: A.Kanterni fikri shunchaki huquqiy bo'lish bilan kifoyalanmasdan, balki siyosatni amaliy, izchil va Konvensiya ruhiga mos tarzda amalga oshirishga da'vat etadi. O'zbekistonda BRM doirasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda bu – qog'ozdagi islohotlardan real ijtimoiy o'zgarishlarga o'tishning asosiy shartidir.

N.Groce sog'liqni saqlash sohasida nogironligi bo'lgan shaxslarning cheklovlariga uchrashi BRM-3 (Yaxshi sog'liq)ga erishishga to'sqinlik qilishini isbotlaydi [6]. N.Groce ish BRMning muhim, ammo ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan jihatiga – sog'liqni saqlashda tengsizlik masalasiga urg'u beradi. Uning xulosasi nogironlikni ijtimoiy himoya doirasidan olib chiqib, umumiy sog'liqni saqlash siyosati markaziga qo'yish zarurligini ko'rsatadi. BRM-3ning inklyuzivligi: BRM-3 maqsadida "barcha yoshdagi barcha odamlar uchun sog'lom turmush tarzini ta'minlash va farovonlikni rag'batlantirish" nazarda tutilgan. N.Groce nogironligi bo'lgan shaxslar tibbiy xizmatlardan foydalanishda jismoniy (qulaylik), moliyaviy (arzonlik) va munosabatga oid (diskriminatsiya) to'siqlarga duch kelishi sababli, bu maqsadga to'liq erishib bo'lmashligini isbotlaydi. Kaskadli ta'sir (Cascade Effect): Nogironligi bo'lgan shaxslarning sifatli sog'liqni saqlash xizmatlariga cheklangan kirishi ularning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'liqning yomonlashuvi ta'lim olish (BRM-4), ish bilan bandlik (BRM-8) va kambag'allikdan chiqish (BRM-1) imkoniyatlarini pasaytiradi. Shu tariqa, N.Groce BRM-3 muvaffaqiyatsizligi boshqa barcha BRMlarga xavf solishini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoiti: O'zbekistonda tibbiyot muassasalarining qulayligi, tibbiyot xodimlarining nogironlik masalalarida inklyuziv bilim va ko'nikmalari hamda dori vositalarining arzonligi masalalarida to'siqlar mavjud. N.Groce O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini nogironlikka sezgir tahlil asosida isloh qilish zarurligini jiddiy dalillaydi. Tibbiy xizmatlar faqat davolashga emas, balki

reabilitatsiya va yordamchi texnologiyalarni o'z ichiga olgan keng qamrovli xizmatlarga yo'naltirilishi lozim. Xulosa: N.Grocing tahlili shuni ko'rsatadiki, BRM-3ga erishishning yagona yo'li – nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'liqni saqlash huquqlarini ustuvor va majburiy, deb bilishdir. Sog'liqni saqlash tizimini inklyuziv qilish butun jamiyatning farovonligiga xizmat qiladi.

A.X.Saidov O'zbekistonda inson huquqlari sohasidagi islohotlar va BMT Konvensiyasining milliy qonunchilikka implementatsiyasi masalalarini yoritadi [7]. A.X.Saidovning ishi O'zbekistonda NHKTKning ratifikatsiya qilinishi bilan boshlangan huquqiy o'zgarishlar davrining asosiy xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab beradi. Bu ish BRM kesimida mamlakatdagi o'zgarishlarni tushunish uchun nihoyatda muhim. Huquqiy transformatsiyaning e'tirofi: A.X.Saidov O'zbekistonda "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyil amalga oshirilayotgan bir sharoitda, NHKTK ratifikatsiyasi milliy qonunchilikni tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tkazish uchun huquqiy zamin yaratganini ta'kidlaydi. Bu shuni anglatadiki, nogironlik masalasi endi shunchaki ijtimoiy nafaqa to'lash emas, balki to'liq huquqiy tenglikni ta'minlash masalasiga aylandi. Implementatsiyaning murakkabligi: Uning ishida Konvensiyani milliy qonunchilikka implementatsiya (joriy etish) masalalari yoritilishi dolzarbdir. Chunki xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilishning o'zi yetarli emas. Eng katta qiyinchilik amaldagi kodekslar, qonunosti hujjatlar va jamoat amaliyotini Konvensiya ruhiga mos ravishda to'liq qayta ko'rib chiqishda yotadi. Ayniqsa, ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash va sud-huquq sohalarida aniq mexanizmlar va javobgarlikni belgilash talab etiladi. BRM uchun nazariy asos: A.X.Saidovning ishi BRMning 10-maqsadi (Tengsizlikni kamaytirish) va 16-maqsadi (Adolatli institutlar) uchun O'zbekistonda yaratilgan nazariy asosdir. Huquqiy islohotlar qanchalik mustahkam bo'lsa, inklyuziv ta'lim (BRM-4) yoki munosib ish (BRM-8) kabi ijtimoiy maqsadlarga erishish shunchalik osonlashadi. Xulosa: A.X.Saidovning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda siyosiy iroda va huquqiy bazaga ega. Endilikda ustuvor vazifa huquqiy uyg'unlikni amaliyotga to'liq tatbiq etish, ya'ni qonunlarni kundalik ijtimoiy va iqtisodiy hayotga singdirish hisoblanadi.

I.A.Karimov nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilgan [8]. I.A.Karimovning ushbu mavzuni tahlil qilishi BRM yo'nalishida, xususan, BRM-8 (Munosib ish va iqtisodiy o'sish) maqsadiga erishish uchun juda asosiy va amaliy ahamiyatga ega. U nogironligi bo'lgan shaxslarni nafaqaxo'r emas, balki iqtisodiy resurs sifatida ko'rish muhimligini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvning muhimligi: muallifning yondashuvi masalani faqatgina ijtimoiy himoya yoki xayriya doirasida cheklamasdan, balki uni mehnat bozori va iqtisodiy samaradorlik bilan bog'laydi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash nafaqat ularning shaxsiy qadr-qimmatini oshiradi, balki davlatning ijtimoiy yordamga sarflanadigan xarajatlarini kamaytiradi va soliq tushumlarini ko'paytiradi. Bu S.Mitranning iqtisodiy inklyuziya haqidagi fikrlariga to'liq mos

keladi [4]. Mexanizmlarning dolzarbligi: I.A.Karimov aynan mexanizmlarni tahlil qilgani amaliy jihatdan foydali. O'zbekiston sharoitida bu mexanizmlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- kasbga moslashtirilgan ta'lim yo'nalishida – nogironlik turiga va zamonaviy bozor talablariga mos kasb-hunar o'rgatish;

- ish joylarini moslashtirish (reasonable accommodation) yo'nalishida – ish beruvchilar uchun moliyaviy rag'batlar yaratish.

I.A.Karimovning tahlili BRMga erishishda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga to'liq integratsiyasini ta'minlash eng samarali yo'l ekanini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston uchun nafaqat ijtimoiy siyosat, balki strategik iqtisodiy rivojlanish masalasidir.

G.N.Yusupova inklyuziv ta'limning O'zbekiston maktablaridagi holati va uni rivojlantirish yo'llarini o'rgangan. Ta'limda qulay muhit yaratish zarurligini ilgari suradi [9]. Uning ishi BRM doirasida BRM-4 (Sifatli ta'lim) maqsadiga erishish uchun O'zbekistonda inklyuzivlikni ta'minlashda amaliy asos yaratadi. U ta'limda qulay muhit yaratish zarurligini ilgari surishi mutlaqo to'g'ri yondashuvdir.

BRM-4 bajarilishidagi markaziy nuqta: Inklyuziv ta'lim BRMning asosiy shartlaridan biridir. Biroq ta'lim tizimini inklyuziv qilish faqat nogironligi bo'lgan bolalarni umumiy maktablarga qabul qilish bilan cheklanmaydi. G.N.Yusupova ta'kidlaganidek, qulay muhit yaratilmas ekan, ta'lim sifatli va teng bo'lolmaydi. Qulay muhit deyilganda, faqat pandus va liftlar emas, balki o'quv materiallarining moslashtirilishi, o'qituvchilarning bilim darajasi va ijtimoiy munosabatlar ham tushuniladi. Masalan, turizm borasida imkoniyatli yoki to'siqsiz turizm turizmni rivojlantirishning dolzarb sohasi bo'lib, u to'siqsiz muhit bilan bog'liq. U 2006-yilda BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va Nogironlar uchun imkoniyatlarni tenglashtirish bo'yicha standart qoidalar kabi xalqaro hujjatlarga asoslangan.

Shunday qilib, keng ma'noda, to'siqsiz (kirish mumkin) muhit ko'pchilik odamlar uchun xavfsiz va qulay makondir. "To'siqsiz" turizm atamasi nafaqat nogironlarga, balki sog'liq muammolari tufayli funksional cheklovlariga ega bo'lgan odamlarga ham tegishli bo'lib, bu vaqtinchalik, ammo uzoq muddatli bo'lishi mumkin, birinchi marta 1991-yilda UNWTO Bosh Assambleyasining "90-yillarda nogironlar uchun turizm imkoniyatlarini yaratish" rezolyutsiyasi bilan kiritilgan. Pirovardida "barcha uchun turizm" tushunchasi turizm terminologiyasiga kiritildi. Va zamonaviy dunyoda "to'siqsiz", "kirish mumkin" tushunchalari bu atama endi nafaqat nogironlar uchun, balki qariyalar, kichik bolalari bor odamlar va funksional nuqsonlari bo'lgan odamlar uchun ham hech qanday to'siqlarning yo'qligi sifatida talqin qilinmoqda. Rossiya qonunchiligida bu guruhlar "kam harakatlanuvchi aholi guruhlari" (LMPG) ta'rifi ostida guruhlangan va "Harakatchanligi cheklangan shaxslar uchun bino va

inshootlarning kirish imkoniyati” deb nomlangan 59.13330.2016-sonli sanitariya qoidasida batafsil tavsiflangan.

Sh.R.Tursunov O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlariga bag‘ishlangan ilmiy ishni amalga oshirgan [10]. Sh.R.Tursunovning tadqiqoti to‘g‘ridan-to‘g‘ri Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)ning inklyuzivlik tamoyilini amalda qo‘llash masalasini ko‘taradi. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi muammolarni tahlil qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash uchun eng zarur amaliy qadamlarni aniqlashga yordam beradi. Muammoning haqiqiy ko‘lami: ijtimoiy xizmatlar, masalan: protezlash, reabilitatsiya, yordamchi uskunalar bilan ta‘minlash yoki uyda parvarishlash xizmatlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishi uchun asosiy shart hisoblanadi. Agar Sh. R. Tursunov ta‘kidlaganidek, ushbu xizmatlardan foydalanishda byurokratik to‘siqlar, sifatsizlik yoki yetishmovchilik mavjud bo‘lsa, bu BMT Konvensiyasining (Konvensiyaning 19-moddasi – mustaqil yashash va jamiyatga qo‘shilish) buzilishiga olib keladi. BRMga Ta’siri: Ijtimoiy xizmatlarga cheklangan kirish BRM-1 (Kambag‘allikka barham berish) va BRM-3 (Yaxshi sog‘liq) maqsadlariga erishishni qiyinlashtiradi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar xizmatlarga o‘z vaqtida ega bo‘lmasa, ularning sog‘lig‘i yomonlashadi va ish qobiliyati pasayadi, bu esa oilani qashshoqlikka olib kelishi mumkin.

A.M.Rasulov nogironlikning huquqiy asoslarini tahlil qilib, amaliyotda uchraydigan byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar bergan [11]. U huquqiy siyosatning eng muhim jihati – nazariyani amaliyot bilan bog‘lash zaruratiga urg‘u beradi. Uning tahlili shuni ko‘rsatadiki, qonunlar qanchalik mukammal bo‘lmasin, agar ijro jarayonida byurokratik to‘siqlar mavjud bo‘lsa, huquqiy himoya o‘z kuchini yo‘qotadi. Huquqiy himoyaning obyekti: qonunchilikda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan imtiyoz va huquqlar bilan real hayotda ulardan foydalanish jarayoni o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar ko‘pincha yordam yoki xizmat olish uchun uzoq navbatlar, ortiqcha hujjatlar yig‘ish, turli organlar oralab yurish kabi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu BRM-16 (Adolatli institutlar) maqsadiga erishishga to‘sqinlik qiladi. Byurokratiya – inklyuziyaning dushmani: Byurokratik to‘siqlar nafaqat vaqt va resurslarni isrof qiladi, balki nogironligi bo‘lgan shaxslarning qadr-qimmatiga ziyon yetkazadi hamda ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Misol uchun, nogironlikni tasdiqlash uchun tez-tez tibbiy ko‘riklardan o‘tish zaruriyati tibbiy modelning qoldig‘i bo‘lib, bu BMT Konvensiyasining (NHKTK) ruhiyatiga zid.

Taklif-tavsiyalar. O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularning hayot darajasini yaxshilash maqsadida BRMga erishish uchun quyidagi tavsiyalar bildiriladi:

Inklyuziv budjetlash tizimini joriy etish borasida – davlat budjetlarini (markaziy va mahalliy darajada) shakllantirish jarayonida ta‘lim, sog‘liqni

saqlash, transport va boshqa ijtimoiy yo‘nalishlardagi xarajatlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning ehtiyojlarini inobatga olgan, ya’ni nogironlikka sezgir tahlil asosida rejalashtirilishi zarur. Bunday yondashuv nogironlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, infratuzilma va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. S.Mitra [4] va Jahon banki [12] tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, nogironlikka sezgir siyosat va budjetlash mexanizmlarini qo‘llash nafaqat ijtimoiy inklyuziyani ta’minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Kompleks reabilitatsiya markazlarini rivojlantirish borasida – nogironligi bo‘lgan shaxslarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olgan “bir darcha” tamoyiliga asoslangan reabilitatsiya markazlarini har bir viloyatda tashkil etish zarur. Bunday yondashuv nogiron shaxslarning sog‘lig‘i va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlaydi. N.Groce tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko‘ra, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarning integratsiyalashuvi inklyuziv jamiyat barpo etishning asosiy shartlaridan biridir [6].

Bandlik kvota tizimini kuchaytirish borasida – davlat va xususiy sektor korxonalarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ajratiladigan ish o‘rinlari kvotasini oshirish hamda ushbu kvotaga rioya qilmagan subyektlarga soliq imtiyozlari o‘rniga jarima va kompensatsion to‘lovlar tizimini joriy etish zarur. Bunday yondashuv nogiron shaxslarning mehnat bozoriga integratsiyasini rag‘batlantiradi va ularning iqtisodiy faolligini oshiradi. I.A.Karimov [8] hamda C.Barnes va G.Mercer [13] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bandlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy integratsiya va inson qadr-qimmatini ta’minlashdagi muhim rolini asoslab beradi.

O‘z-o‘zini himoya qilish harakatlarini qo‘llab-quvvatlash borasida – nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat grantlari va xalqaro donorlik mablag‘lari orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy bilimni oshirish hamda o‘z huquqlarini himoya qilish salohiyatini mustahkamlash zarur. Bunday yondashuv nogiron shaxslarning jamiyatdagi faolligini kuchaytiradi, ularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylantiradi hamda inklyuziv boshqaruv tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish BRMga erishishning shunchaki ijtimoiy vazifasi emas, balki iqtisodiy va huquqiy zaruratidir. O‘zbekistonning BMT Konvensiyasini ratifikatsiya qilishi kuchli huquqiy asos yaratdi. Endilikda ustuvor vazifa statistik tahlil [14] asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, inklyuziv siyosatni moliyalashtirish va nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashdan iborat. Faqatgina shu yo‘l bilan “Hech kim e’tibordan chetda qolmaydi” degan BRM shiorini amalda ro‘yobga chiqarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Sen. Development as freedom. Oxford University Press // <https://global.oup.com/academic/product/development-as-freedom-9780192893307?lang=en&cc=nl>.
2. R.Rieser. Implementing inclusive education: A Commonwealth guide to implementing Article 24 of the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Commonwealth Secretariat.
3. T.Shakespeare. Disability rights and wrongs revisited. Routledge.
4. S.Mitra. Disability and the sustainable development goals: A perspective from the global South // The Review of Disability Studies. – №14 (1).
5. A.Kanter. The right to live in the community: A new perspective on the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities // Human Rights Quarterly. – №37 (1). – P.105-132.
6. N.Groce. Global goals, disability, and health: A critical analysis // The Lancet Global Health. – №5 (7). – P.658-659.
7. A.X.Saidov. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va O'zbekiston qonunchiligi // Yuridik fanlar axborotnomasi. – №2. – B.15-25.
8. I.A.Karimov. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozoridagi o'rni va bandligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va moliya. – B.78-85.
9. G.N.Yusupova. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim: Muammolar va yechimlar // Pedagogik ta'lim. – №5. – B.60-65.
10. Sh.R.Tursunov. Ijtimoiy himoya tizimida nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish. – №4. – B.101-110.
11. A.M.Rasulov. Nogironlik huquqining nazariy va amaliy masalalari // O'zbekiston huquqiy axborotnomasi. – №3. – B.45-50.
12. World Bank. (2011). Disability and inclusive development: A world report.
13. C.Barnes & G.Mercer. (2005). The social model of disability: Introducing the concept // Disability and Society. – №20 (3). – P.275-290.
14. Davlat statistika qo'mitasi (2025). O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar statistikasi.

IJTIMOIIY DAVLATDA TALABALAR HUQUQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI

Xolnazarova Dildora Mamatmuratovna
Guliston davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya va falsafa kafedrası dotsenti

закрепляет принципы равенства граждан, свободы совести и уважения культурного многообразия, что создает правовые предпосылки для формирования толерантных общественных отношений. Реализация государственной политики, направленной на укрепление межнационального согласия, развитие межкультурного диалога и сохранение этнокультурного многообразия, способствует формированию устойчивой модели мирного сосуществования различных народов.

Сегодня в республике созданы и совершенствуются все условия для мирного сосуществования представителей всех наций, народностей и религий. Все граждане нашей республики имеют равные конституционные права на выражение национальных и религиозных свобод. В статье 8 Конституции Республики Узбекистан сказано: «Народ Узбекистана составляют граждане Республики Узбекистан независимо от их национальности» [1, С.5]. А также в конституции гарантируется свобода совести. Так, статья 31 гласит: «Свобода совести гарантируется для всех. Каждый имеет право исповедовать любую религию или не исповедовать никакой. Недопустимо принудительное насаждение религиозных взглядов» [1, С.7]. В нашей стране принудительства не наблюдается в вопросах религиозности.

Вопросы укрепления межнационального согласия и развития культуры толерантности занимают важное место в государственной политике Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется формированию атмосферы взаимного уважения, гражданского единства и межэтнической гармонии, что рассматривается как одно из ключевых условий устойчивого социального развития страны.

Как отмечает Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, атмосфера дружбы, взаимного уважения и сплоченности, сложившаяся в стране, является важнейшим фактором обеспечения мира и стабильности в обществе, повышения эффективности проводимых социально-экономических реформ, а также укрепления международного авторитета государства. По словам главы государства, сохранение и развитие традиций межнационального согласия представляет собой одно из значимых достижений современного Узбекистана.

Следует отметить, что сохранение и дальнейшее развитие межнационального согласия рассматривается как важнейшая стратегическая задача современного этапа развития узбекского общества. Формирование культуры толерантности, укрепление межкультурного диалога и развитие гражданской солидарности выступают важными условиями социальной стабильности и устойчивого общественного развития в условиях глобализации [2].

Нами было проведено социологическое исследование для изучения национально-этнической толерантности в стране. В исследовании приняли участие 20 респондентов от 14-30 лет. В опросе приняли участие 50%

мужчин и 50% женщин из них: узбеков 70%, русских- 15%, казахов – 5% и 10% другой национальности.

Основные результаты опроса. Для определения положительного отношения молодежи к другим нациям, респондентам предлагалось ответить на вопрос: «Есть ли у Вас друзья, культура которых не схожа с Вами?» Согласно полученным данным, в общем, у 17 респондентов есть друзья другой национальности, а 3 респондента не имеют друзей другой национальности. 45% респондентов считают, что отношения между людьми разных национальностей в нашей стране улучшаются, и ровно такое же количество респондентов не заметили изменений, и только 10% респондентов считают, что ухудшаются.

По результатам исследования большинство респондентов 50% нейтрально относятся к проявлению нетерпимого отношения к представителям других национальностей, 5 респондентов отрицательно и столько же крайне отрицательно. При этом 75% опрошенных респондентов считают себя толерантным человеком, а остальные 25% не считают себя толерантными. По итогам баллов выяснилось, что у нас средний уровень толерантности. Такие результаты свидетельствуют о том, что, для респондентов характерно сочетание как толерантных, так и интолерантных черт. В одних социальных ситуациях они ведут себя толерантно, в других могут проявлять интолерантность. Но первая черта преобладает.




Рисунок 1. Отношение респондентов к межнациональному общению в дружеском кругу.

Также подтвердили вышесказанные ответы, выбрав вариант на нижеуказанное утверждение «Я хочу, чтобы среди моих друзей были люди разных национальностей» 85 % респондентов выбрали ответ (верно в высшей степени и верно в значительной степени) и 15% выбрали ответ (верно в некоторой степени) (рисунок 1).

Среди опрошенных респондентов на вопрос: «Как Вы реагируете на проявление нетерпимого отношения к представителям другой национальности?» 50% опрошенных ответили, что нейтрально; остальные 25% отрицательно и 25% крайне отрицательно. При том что на вопрос «Считаете ли Вы себя толерантным человеком?» 75% опрошенных

респондентов ответили «да». Стоит отметить, что толерантность – это небезразличное отношение, а терпимое отношение



Рисунок 2. Отношение респондентов к утверждению о строгой необходимости сохранения «чистоты нации».

Результаты исследования показывают, что 45% опрошенных не готовы принять в качестве члена семьи человека любой национальности и 80% респондентов не считают, что нужно сохранять чистоту нации (рис 2). Согласно полученным данным, 35% сомневаются либо до конца не уверены в своих ответах на эти 2 вопроса. На основе данных ответов респондентов на следующее утверждение: «Как Вы, считаете в смешанных браках больше проблем?» 85% опрошенных считают, что это неверное утверждение.

Проведённое исследование позволило выявить особенности формирования межнациональной толерантности среди молодежи и определить отношение молодых людей к представителям других национальностей в условиях современного многонационального общества. Результаты эмпирического исследования показали, что в целом среди респондентов преобладает позитивное и толерантное отношение к межнациональному взаимодействию. Большинство участников опроса отмечают наличие друзей другой национальности и выражают готовность поддерживать межкультурное общение, что свидетельствует о достаточно высоком уровне открытости к этнокультурному разнообразию.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Конституция Республики Узбекистан. - Т.: «Узбекистан», 2015. - С. 5.
2. Народное слово. № 158(7907) 30 йил 2021 г.

DAVLAT XIZMATIDA GENDER TENGLIK VA IJTIMOIIY DAVLAT: XALQARO STANDARTLAR VA HUQUQIY ASOSLAR

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Kotibiyati
Saylov jarayonini tashkiliy ta'minlash bo'limi boshlig'i o'rinbosari,
mustaqil izlanuvchi.*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ijtimoiy demokratik davlatlarda gender tengligini ta'minlash masalalari, davlat xizmati tizimida ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratishning xalqaro huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Gender tengligi nafaqat huquqiy tamoyil sifatida, balki institutsional mexanizmlar orqali amalga oshiriladigan kompleks siyosat yo'nalishi sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, davlat xizmati, ayollar huquqlari, xalqaro standartlar, gender meynstriming, kvota tizimi, shisha shift (glass ceiling), davlat siyosati.

Zamonaviy ijtimoiy demokratik davlatni rivojlantirishda gender tengligi tamoyili muhim o'rin tutadi. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash inson huquqlarini himoya qilishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimida gender tengligini ta'minlash davlat siyosatining samaradorligini oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonida turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini inobatga olish hamda inklyuziv boshqaruvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlat xizmatida gender tengligi faqat huquqiy tamoyil sifatida emas, balki institutsional mexanizmlar orqali amalga oshirilishi lozim bo'lgan kompleks siyosat yo'nalishi sifatida qaraladi. Bu borada xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qator huquqiy hujjatlar va standartlar davlatlar uchun asosiy yo'l xaritasi vazifasini bajaradi.

Gender tengligini ta'minlash sohasidagi xalqaro huquqiy tizim bir qator muhim konvensiyalar va deklaratsiyalarga tayanadi hamda davlatlarning mazkur yo'nalishdagi majburiyatlarini belgilab beradi. Xususan, 1979-yil 18-dekabrda qabul qilingan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi [1] konvensiya (CEDAW) gender tengligini ta'minlashga qaratilgan eng muhim xalqaro huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu konvensiya xalqaro huquq amaliyotida ko'pincha "ayollar huquqlari bo'yicha xalqaro bill" yoki "ayollar huquqlari to'g'risidagi xalqaro qonun" sifatida e'tirof etiladi.

Konvensiyaning 7-moddasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar mamlakatning siyosiy va jamoat hayotida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish maqsadida zarur huquqiy, institutsional va

tashkiliy choralarni ko'rishlari lozim. Mazkur normaga ko'ra, ayollarga erkaklar bilan teng sharoitlarda qator muhim siyosiy va fuqarolik huquqlari kafolatlanadi.

Jumladan, ular barcha saylovlar va umumxalq referendumlarida ishtirok etish, ovoz berish hamda saylanadigan organlarga saylanish huquqiga ega. Shuningdek, xotin-qizlarga davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarida ishtirok etish, davlat lavozimlarini egallash va davlat boshqaruvining turli darajalarida xizmat vazifalarini bajarish imkoniyati berilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, konvensiya ayollarning mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotiga daxldor masalalar bilan shug'ullanuvchi nohukumat tashkilotlar va jamoat birlashmalari faoliyatida ishtirok etish huquqini ham mustahkamlaydi. Ushbu huquqiy normalar xotin-qizlarning davlat boshqaruvi tizimida faol ishtirokini ta'minlash, qarorlar qabul qilish jarayonlarida ularning o'rnini mustahkamlash hamda rahbarlik lavozimlariga teng imkoniyatlar asosida ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, 1952-yil 20-dekabrda qabul qilingan "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya" [2] ayollarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi hamda davlat boshqaruvida faoliyat yuritishi huquqini xalqaro huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Mazkur konvensiya ayollar va erkaklar o'rtasida siyosiy huquqlar sohasida tenglikni ta'minlashga qaratilgan muhim xalqaro hujjatlardan biri hisoblanadi.

Konvensiyaning 3-moddasiga muvofiq, ayollar erkaklar bilan teng sharoitlarda va hech qanday kamsitishlarsiz milliy qonunchilikda belgilangan tartibda barcha davlat va jamoat xizmati lavozimlarini egallash hamda ushbu vazifalarni amalga oshirish huquqiga egadir. Mazkur norma ayollarning davlat boshqaruvi tizimida ishtirok etishi, davlat xizmatida faoliyat yuritishi va rahbarlik lavozimlariga teng imkoniyatlar asosida ega bo'lishining huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi.

Gender tengligini ta'minlashda mehnat munosabatlari sohasidagi xalqaro standartlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilingan 1958-yil 25-iyundagi 111-sonli "Mehnat va kasb sohasida kamsitish to'g'risida"gi [3] konvensiya mazkur yo'nalishdagi asosiy xalqaro huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Konvensiyaning 1-moddasida mehnat va kasb sohasida kamsitish tushunchasi ta'riflanib, jumladan, jins belgisiga asoslangan har qanday farqlash, cheklash yoki afzallik berish teng imkoniyatlar va teng munosabat prinsiplarini buzuvchi holat sifatida e'tirof etiladi. Qolaversa, 2-moddaga muvofiq, ishtirokchi davlatlar mehnat va kasb sohasida kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etishga qaratilgan milliy siyosatni amalga oshirishlari hamda barcha shaxslar uchun teng imkoniyat va teng munosabat tamoyillarini ta'minlashlari lozim. Ushbu normalar davlat xizmatiga qabul qilish, mehnat sharoitlari va xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarilish jarayonlarida gender asosida kamsitishga yo'l qo'ymaslikning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, mazkur xalqaro huquqiy hujjatlar davlat xizmatida gender tengligini ta'minlashning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi.

Qolaversa, xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan muhim siyosiy hujjatlardan biri 1995-yil 4–15-sentyabrda Pekin shahrida bo'lib o'tgan IV Jahon ayollar konferensiyasi doirasida qabul qilingan “Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi” hisoblanadi. Ushbu hujjat gender tengligi sohasidagi xalqaro siyosatning yangi bosqichini belgilab, davlat boshqaruvida gender meynstriming konsepsiyasini [4] ilgari surdi.

Gender meynstriming – bu davlat siyosati va dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonida xotin-qizlar va erkaklar manfaatlarini teng hisobga olishni nazarda tutadigan kompleks yondashuvdir. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, gender masalalari alohida sohada emas, balki barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosat yo'nalishlarida integratsiyalashgan holda ko'rib chiqilishi lozim.

Pekin platformasi davlat boshqaruvida qarorlar qabul qilish jarayonida ayollar ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushini kamida 30 foizga [5] yetkazish “kritik massa” tamoyili sifatida belgilangan. Bu ko'rsatkich, qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning ta'sirini sezilarli darajada namoyon qilish uchun zarur minimal bosqich sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, gender tengligini ta'minlash masalasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi (2030 Agenda for Sustainable Development) doirasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu hujjat 2015-yil 25-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan va unda 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi (SDGs) belgilangan. Bu maqsadlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional taraqqiyotini hamohang tarzda ta'minlashga qaratilgan.

Shular orasida, 5-maqsad [6] – gender tengligini ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga bag'ishlangan. Bu maqsad davlat xizmatchilari uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda ayollarning to'liq ishtirokini rag'batlantirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, 5.5-vazifa ushbu maqsadning amaliy qismi sifatida ayollarning qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan.

Davlat idoralari va qaror qabul qiluvchi organlarda ayollar ulushini oshirish, ularning rahbarlik va yetakchilik salohiyatini rivojlantirish ham 5-maqsadning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu nafaqat ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, balki davlat xizmati samaradorligi, institutsional barqarorlik va xizmat sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, davlat xizmatchilari gender asosida monitoring va baholash tizimlarini muntazam joriy etishlari lozim.

Shuningdek, gender siyosati davlat xizmatchilari faoliyatida amaliy yo'nalishlar va chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Bu quyidagilarni

o'z ichiga oladi ya'ni ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rahbarlik va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirokini rag'batlantirish, barqaror monitoring va tahlil tizimlarini joriy etish. Bu choralar ham ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ham iqtisodiy va institutsional taraqqiyotni qo'llab-quvvatlaydi.

Natijada, gender tengligi faqat ijtimoiy adolat masalasi sifatida emas, balki davlat organlarining samaradorligi va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida ham qaraladi. Shu bois, davlat xizmatchilari uchun gender siyosati nafaqat huquqiy majburiyat, balki xizmat sifati va institutsional barqarorlikni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, gender tengligini ta'minlash faqat huquqiy normalarni qabul qilish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Buning uchun davlat boshqaruvi tizimida amaliy mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, kvotalar tizimi gender tengligini ta'minlashda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Kvotalar ayollar uchun rahbarlik lavozimlarida yoki saylov ro'yxatlarida muayyan ulushni belgilash orqali qarorlar qabul qilish jarayonida gender muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotda bunday choralar vaqtinchalik maxsus mexanizmlar sifatida qo'llaniladi.

Ikkinchidan, davlat xizmatiga qabul qilish jarayonida genderni sezgir rekrutning siyosati muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv kadrlar tanlash jarayonida gender muvozanatini hisobga olish va barcha nomzodlar uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi.

Uchinchidan, davlat xizmatchilari uchun ish va oila hayoti o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Bularga moslashuvchan ish grafiklari, bola parvarishi bo'yicha ijtimoiy kafolatlar va ota-ona ta'tillari kiradi. Bunday choralar nafaqat ayollar, balki erkaklar uchun ham muhim hisoblanadi.

To'rtinchidan, davlat boshqaruvida ko'p hollarda kuzatiladigan "shisha shift" (glass ceiling) fenomenini bartaraf etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha ayollarning yuqori rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishiga to'sqinlik qiluvchi ko'rinmas ijtimoiy, madaniy va institutsional to'siqlarni anglatadi. Ularni bartaraf etish uchun ta'lim, liderlik dasturlari va institutsional islohotlar muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, davlat xizmatida gender tengligini ta'minlash zamonaviy demokratik boshqaruvning muhim sharti hisoblanadi. Bu nafaqat ayollarning huquqlarini himoya qilish, balki davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar va global rivojlanish dasturlari davlatlar uchun gender tengligini ta'minlash bo'yicha aniq huquqiy va institutsional asoslarni belgilab beradi. Ushbu standartlarga amal qilish davlat boshqaruvida shaffoflik, inklyuzivlik va adolat tamoyillarini mustahkamlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmatida gender tengligini ta'minlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy boshqaruv tizimiga samarali tatbiq etish zamonaviy davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1979-yil 18-dekabrda "Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiya. O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1995-yil 18-avgustda ratifikatsiya qilingan. <https://lex.uz/ru/docs/2685528>;
2. 1952-yil 20-dekabrda qabul qilingan "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya". O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga 1997-yil 30-avgustda Oliy Majlisning 501-I-sonli qarori bilan qo'shilgan. <https://lex.uz/docs/2690835>;
3. 1958-yil 25-iyundagi 111-sonli "Mehnat va kasb sohasida kamsitish to'g'risida konvensiya". O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1997-yil 30-avgustda Oliy Majlisning 499-I-sonli qarori bilan qo'shilgan. <https://lex.uz/ru/docs/2736803>;
4. Beijing Declaration and Platform for Action, Fourth World Conference on Women, 15 September 1995, A/CONF.177/20 (1995) and A/CONF.177/20/Add.1 (1995). 204-205. <https://hrlibrary.umn.edu/instree/beijing4.htm?utm>;
5. The United Nations Fourth World Conference on Women. Beijing, China - September 1995 Action for Equality, Development and Peace. <https://www.un.org/womenwatch/daw/beijing/platform/decision.htm?utm>;
6. Goal 5: Achieve gender equality and empower all women and girls. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/gender-equality>.

ADVOKATNING IQTISODIY SUDLARDA ISBOTLASHGA DOIR PROTSESSUAL VAKOLATLARI

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

"Davlat huquqiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi,

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy sud ish yurituvda advokatning isbotlash jarayonidagi protsessual vakolatlari milliy va xalqaro qonunchilik asosida tahlil qilinadi. Unda dalillarni taqdim etish va talab qilib olish tartibi, advokat so'rovi institutining huquqiy tabiati, dalillarni joyida ko'zdan kechirish mexanizmi, dalillarning maqbulligi, aloqadorligi, ishonchliligi va yetarliligi mezonlari, shuningdek sudyaning ichki ishonchi shakllanishida advokatning professional roli ilmiy asosda ochib beriladi. Xorijiy tajribada BMTning 1990-yildagi "Yuristlarning roliga oid asosiy prinsiplar", Yevropa Kengashining R(2000)21-sonli tavsiyasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining Dombo Beheer B.V. v. the Netherlands ishini tahlil qilish orqali advokatning dalillarni taqdim qilish va isbotlashga oid huquqiy kafolatlari ochib berilgan. Sud

amaliyotidagi Toshkent tumanlararo sudining 2024-yil 6-dekabr va Namangan tumanlararo iqtisodiy sudining 2024-yil 31-iyul ishlari bilan tanishib advokatlarning dalillarni to'plash, taqdim etish va asoslashdagi roli tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: isbotlash, dalil, advokat, protsessual vakolat, advokat so'rovi, maqbullik, aloqadorlik, ishonchlilik, yetarlilik, iqtisodiy sud, taraflarning tengligi va tortishuv tamoyili.

Iqtisodiy sud ish yurituvda isbotlash instituti odil sudlovni amalga oshirishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Isbotlash – bu taraflar tomonidan ish uchun ahamiyatli bo'lgan faktlarni dalillar yordamida aniqlash va sudning ushbu faktlar asosida huquqiy xulosa chiqarish jarayonidir. Mazkur jarayon taraflarning tengligi va tortishuv tamoyiliga asoslanadi, ya'ni har bir taraf o'z talab va e'tirozlarini asoslash majburiyatiga ega. Shu bilan birga, sud ishni har tomonlama, to'liq va obyektiv ko'rib chiqishi shart. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 69-moddasiga [1] ko'ra, dalillar ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Garchi normada advokat alohida tilga olinmagan bo'lsa-da, u vakillik asosida ishda ishtirok etuvchi shaxs manfaatlarini ifodalovchi subyekt sifatida isbotlash jarayonida to'laqonli protsessual vakolatlarga ega. Advokatning mazkur vakolatlari vakillik institutidan kelib chiqadi va u o'z ishonch bildiruvchisining protsessual huquq hamda majburiyatlarini amalga oshiradi. Advokatning isbotlashdagi birlamchi vazifasi – nizoning huquqiy tabiatini aniqlash va isbotlanishi lozim bo'lgan faktlar doirasini belgilashdir. Har bir iqtisodiy nizo muayyan yuridik faktlar majmuasiga tayanadi. Masalan, shartnoma tuzilganligi, majburiyat bajarilganligi yoki buzilganligi, zarar miqdori va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish kabi holatlar aniq dalillar bilan tasdiqlanishi lozim. Advokat aynan qaysi faktlar isbot predmeti doirasiga kirishini aniqlab, shunga mos dalillarni to'plash usullarini ishlab chiqadi.

Iqtisodiy sud ish yurituvda dalillarni talab qilib olish mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Amaliyotda ko'pincha zarur hujjatlar davlat organlari yoki yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar tasarrufida bo'ladi. Taraf esa ularni mustaqil ravishda qo'lga kiritmaydi. Bunday vaziyatda advokat sudga asoslantirilgan iltimosnoma kiritadi. Unda talab qilinayotgan dalilning aniq belgilari, ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar hamda dalil saqlanayotgan joy ko'rsatiladi. Sud ajrim chiqarib, dalilni taqdim etish muddati va tartibini belgilaydi. Ushbu tartib sud nazoratining huquqiy shakli sifatida namoyon bo'lib, dalillarni yashirish yoki sud talablarini bajarmaslikning oldini olishga xizmat qiladi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, turli huquq tizimlarida isbotlash jarayonining tashkil etilishi va unda advokatning o'rni muayyan tamoyillar asosida belgilanadi. Masalan, Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi (German Code of Civil Procedure) (ZPO) [2] normalariga ko'ra, isbotlash jarayoni asosan taraflarning tashabbusiga asoslanadi. Bu tizimda *Beibringungsgrundsatz* deb

ataluvchi tamoyil amal qiladi, ya'ni ish bo'yicha dalillarni taqdim etish majburiyati asosan taraflarga yuklatiladi. Sud esa odatda ishni taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillar va materiallar asosida ko'rib chiqadi hamda ularni baholaydi. Bunday usulda advokatning roli ayniqsa muhim bo'lib, u ishonch bildiruvchi manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur dalillarni to'plash, ularni tizimli ravishda taqdim etishda faol ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 9-moddasi [1.1] "Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi" sud ishlarini ko'rib chiqishda muhim prinsiplardan birini belgilaydi. Mazkur modda iqtisodiy sud ish yuritishida taraflarning teng protsessual imkoniyatlarga ega bo'lishini hamda sud jarayoni tortishuv asosida olib borilishini nazarda tutadi. Ya'ni sud ishni ko'rib chiqishda taraflar o'z talab va e'tirozlarini dalillar bilan asoslab berishi, qarshi taraf esa ushbu dalillarga nisbatan munosabat bildirish, ularni rad etish yoki qo'shimcha dalillar keltirish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Advokatning isbotlash jarayonidagi eng muhim vositalaridan biri advokat so'rovi institutidir. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga [3]muvofiq, advokat davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan hujjatlar hamda ma'lumotlarni so'rash va olish huquqiga ega. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida advokatning ish materiallari bilan tanishish va zarur ma'lumotlarni ko'chirib olish huquqi belgilangan va bu rasmiy yozma murojaat bo'lib, u axborot berish majburiyatini yuzaga keltiradi. Nazariy jihatdan advokat so'rovi huquqiy davlat tamoyillaridan biri – huquqni amalga oshirishning kafolatlanganligi prinsipiga asoslanadi. Agar advokat zarur axborot va hujjatlarga erkin ega bo'la olmasa, malakali yuridik yordam ko'rsatish imkoni cheklanadi. Advokatning mazkur huquqdan foydalanishi esa ushbu nomutanosiblikni bartaraf etuvchi huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Yevropa kengashi tomonidan qabul qilingan 2000-yildagi R(2000)21-sonli Tavsiya ("Recommendation No. R(2000)21")da [4] advokat kasbining mustaqilligini ta'minlash va uning erkin faoliyat yuritishi uchun zarur kafolatlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur tavsiyada advokatlar o'z kasbiy faoliyatini erkin, mustaqil va har qanday asossiz aralashuv yoki to'siqlarsiz amalga oshirishi davlat tomonidan kafolatlanishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu prinsip advokatlik faoliyatining samarali amalga oshirilishi hamda fuqarolarning sifatli huquqiy yordam olish huquqini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ushbu norma advokatning ish yuritish jarayonida zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishini ham nazarda tutadi. Chunki advokat ishonch bildiruvchi manfaatlarini himoya qilish jarayonida turli davlat organlari, muassasalar va tashkilotlardan tegishli axborot hamda hujjatlarni olishga ehtiyoj sezadi. Agar advokatning bunday ma'lumotlarga kirish imkoniyati sun'iy ravishda cheklansa yoki to'sqinlik qilinsa, bu nafaqat uning kasbiy faoliyatiga, balki sud jarayonining

adolatli va xolis o'tishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham mazkur tavsiyada advokatning kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish davlatlarning muhim majburiyatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu esa advokat so'rovi institutining xalqaro-huquqiy asoslarini ham mustahkamlaydi. Advokat so'rovi – advokatning davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslardan ishga oid zarur ma'lumotlarni olishga qaratilgan muhim protsessual vositalardan biri hisoblanadi. Agar advokatning axborot olish imkoniyati cheklansa, u holda taraflarning huquqlari ma'lum darajada buzilishi mumkin. Chunki sud jarayonida har bir taraf o'z pozitsiyasini asoslash uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Shu bois advokatning ma'lumot va hujjatlarni erkin olish huquqi nafaqat uning kasbiy mustaqilligini ta'minlaydi, balki sudlov jarayonida adolat va taraflarning tengligi tamoyillarini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dalillarni joyida ko'zdan kechirish instituti ham advokatning faol ishtirokini talab etadi. Ayrim ashyoviy yoki raqamli dalillarni sud majlisiga olib kelish imkoni bo'lmaganda, sud ajrim chiqarib, tekshiruvni dalil turgan joyda amalga oshiradi. Masalan, *ishlab chiqarish uskunalari, qurilish obyektlari, omborlardagi tovarlar yoki axborot tizimlari* joyida tekshiriladi. Bu jarayon bevositalik va dalillarning ishonchliligi tamoyillariga asoslanadi. Advokat tekshiruv jarayonida dalilning muhim jihatlariga e'tibor qaratadi, bayonnomaning to'liq rasmiylashtirilishini nazorat qiladi hamda zarur hollarda e'tiroz bildiradi. Dalillarning maqbulligi advokatning isbotlash strategiyasini belgilovchi asosiy mezondir. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 72-moddasiga [1.3.] ko'ra, agar qonun muayyan faktni aniq turdagi dalil bilan tasdiqlashni talab etsa, boshqa dalillar bilan isbotlashga yo'l qo'yilmaydi. Bu norma sud qarorlarining barqarorligi va huquqiy aniqligini ta'minlashga qaratilgan. Advokat har bir dalilni tanlashda uning maqbulligini tekshiradi. Masalan, *moliyaviy majburiyat bajarilganligini bank hujjatlari bilan, davlat ro'yxatidan o'tganlik faktini rasmiy reyestr ma'lumotlari* bilan tasdiqlash zarur. Dalillarning ishonchliligi va yetarliligi masalasida ham advokat muhim rol o'ynaydi. Dalilning ishonchliligi uning haqiqatga mosligi bilan belgilanadi. Advokat dalillarni o'zaro solishtiradi, ularning mantiqiy uyg'unligini ko'rsatadi yoki qarama-qarshi taraf dalillaridagi ziddiyatlarni ochib beradi. Yetarlilik esa dalillar majmuasining ishni to'g'ri hal etish uchun kifoya qilishi bilan bog'liq.

Sud amaliyotidan misollar keltiramiz. Toshkent tumanlararo sudining 2024-yil 6-dekabrda 4-1001-2302/908-sonli ish [5] ko'rilgan bo'lib, unda da'vogar va javobgar hamda ularning vakillari ishtirok etgan. Da'vogar sifatida "Sano" MChJ manfaatlarini O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi himoya qilgan va sudda uning manfaatlarini advokat Dj. Azimov hamda ishonchnoma asosida vakolat olgan boshqa vakil ifodalagan. Javobgar sifatida esa "XXX" MChJ qatnashib, uning manfaatlarini ishonchli vakil hamda korxona rahbari himoya qilgan. Sud jarayonida da'vogar vakillari, xususan advokat tomonidan 2022-yil 19-avgustdagi saqlash

shartnomasi, 2022-yil 30-dekabrda qo‘shimcha kelishuv, mahsulotlarni saqlashga topshirish va qaytarishga oid dalolatnomalar hamda boshqa hujjatlar sudga dalil sifatida taqdim etilgan. Advokat ushbu hujjatlar orqali javobgar tomonidan saqlash uchun qabul qilingan inert materiallar qaytarilmaganligini asoslab bergan hamda sudni ushbu holatni tasdiqlovchi yozma dalillar mavjudligiga ishonitirishga harakat qilgan. Javobgar vakillari esa da’vo talablariga e’tiroz bildirib, inert materiallar amalda topshirilmaganligini va ayrim hujjatlar sobiq rahbar tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanganligini vaj qilib ko‘rsatgan. Biroq sud ish materiallarini tahlil qilib, taraflar o‘rtasida tuzilgan saqlash shartnomasi hamda dalolatnomalar haqiqiy ekanligini, ular bekor qilinmaganini va javobgar tomonidan da’vogar da’vosini inkor etuvchi yetarli dalillar taqdim etilmaganligini aniqlagan. Natijada sud da’vogarning asosiy talabi bo‘lgan 3 843 187 354 so‘mlik inert materiallar qiymatini javobgar hisobidan undirish haqida qaror qabul qilgan. Shu bilan birga, da’vogar tomonidan talab qilingan 461 128 482,28 so‘m qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi tegishli tartibda tasdiqlanmagan hisobvara-q-faktura asosida talab qilinganligi sababli ushbu qism rad etilgan. Demak, mazkur ishda da’vogar tomon qisman g‘alaba qozongan, ya’ni asosiy talab qanoatlantirilgan, biroq qo‘shimcha talab rad etilgan. Ushbu natijaga erishishda advokatning sudda faol ishtiroki, dalillarni to‘plash va taqdim etish, ularni huquqiy jihatdan asoslab berish muhim rol o‘ynagan. Advokat tomonidan taqdim etilgan yozma dalillar sud tomonidan maqbul deb topilgani sababli da’vogar manfaatlari katta qismda himoya qilingan va nizoning hal etilishida advokatning protsessual vakolatlari amalda namoyon bo‘lgan. BMT tomonidan 1990-yil 7-sentabrda qabul qilingan **Yuristlarning roliga oid asosiy Prinsiplar** (“Basic Principles on the Role of Lawyers”)ning 21-bandiga [6] ko‘ra, advokatlar malakali huquqiy yordam ko‘rsatish uchun barcha zarur, hujjat va materiallarni tegishli tashkilotlardan erkin olish huquqiga egaligiga oid normalar keltirilgan. Mazkur norma advokatlarga malakali huquqiy yordam ko‘rsatish jarayonida ishga taalluqli bo‘lgan barcha zarur hujjatlar, ma’lumotlar va materiallarni tegishli davlat organlari, muassasalar hamda boshqa tashkilotlardan erkin olish imkoniyatini berishini nazarda tutadi. Bu norma advokat faoliyatining samaradorligini ta’minlash bilan birga, ularning ishni har tomonlama o‘rganishi, dalillarni to‘plash va tahlil qilish hamda himoya yoki vakillik vazifasini to‘liq bajarishiga xizmat qiladi. Mazkur prinsipning mohiyati shundan iboratki, advokat faqatgina ishonch bildiruvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, ishning to‘g‘ri hal etilishi uchun zarur bo‘lgan barcha dalillarni mustaqil ravishda izlash va to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Shu jihatdan, advokatga hujjatlar va boshqa materiallarni erkin olish huquqining berilishi isbotlash jarayonining muhim elementi hisoblanadi. Chunki sud jarayonida dalillarni taqdim etish va ularni asoslash taraflarning protsessual huquqlaridan biri bo‘lib, advokat bu jarayonda ishonch bildiruvchi manfaatlarini himoya qiluvchi professional subyekt sifatida faol ishtirok etadi.

Isbotlashning tortishuvga asoslangan samarali modeli sud amaliyotida, ayniqsa inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro sud institutlari faoliyatida ham keng talqin etilgan. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (European Court of Human Rights) [7] amaliyotida taraflarning dalillarni taqdim etish imkoniyatlari va ularni baholash mezonlari adolatli sudlovning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu sudning qarorlarida sud jarayonining taraflarning tengligi va tortishuvchanlik tamoyiliga asoslanishi, ya'ni har bir taraf o'z pozitsiyasini dalillar orqali asoslash va qarshi taraf keltirgan dalillarga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlanadi. Masalan, *Case Dombo Beheer BV v. the Netherlands* [8] ishida sud "qurollar tengligi" (equality of arms) tamoyiliga alohida e'tibor qaratgan. Mazkur ishda sud taraflarning har biri o'z dalillarini taqdim etish va ularni himoya qilish jarayonida bir xil protsessual imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligini qayd etgan. Sudning ta'kidlashicha, agar taraflardan biriga dalillarni taqdim etish yoki ularni bahslashish borasida ustunlik berilsa yoki aksincha, uning imkoniyatlari asossiz ravishda cheklansa, bu adolatli sudlov prinsipining buzilishiga olib keladi. Shu sababli sud jarayonida har bir taraf o'z pozitsiyasini asoslash uchun yetarli va teng imkoniyatlarga ega bo'lishi shart. *Mazkur yondashuv iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.* Chunki iqtisodiy sud ishlarida taraflar o'rtasidagi tortishuv asosan hujjatlar, iqtisodiy hisob-kitoblar, shartnomalar va boshqa dalillar orqali hal etiladi. Bunday sharoitda advokatning dalillarni to'plash, ularni sudga taqdim etish, qarshi taraf tomonidan keltirilgan dalillarga e'tiroz bildirish yoki ularni rad etish vakolatlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Advokatning ushbu protsessual vakolatlari taraf manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini yaratadi hamda sudning ishni har tomonlama, to'liq va xolis ko'rib chiqishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 73-moddasiga [1.4.] *muvofig, hammaga ma'lum faktlar va ilgari qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan aniqlangan holatlar qayta isbotlanmaydi.* Advokat mazkur normani qo'llash orqali ortiqcha isbotlashdan voz kechadi va sud e'tiborini asosiy nizoli holatlarga qaratadi. Sud tomonidan dalillarga baho berish sudyaning ichki ishonchiga asoslanadi. Advokat sud vakolatiga aralashmagan holda dalillarni tizimlashtiradi, ularning aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligini asoslaydi. U hech qachon dalilni mutlaq haqiqat sifatida talqin qilmaydi, balki dalillar majmuasining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Yana bir sud amaliyotidan misol. Namangan tumanlararo iqtisodiy sudining 2024-yil 31-iyuldagi 4-1604-2302/2500-sonli iqtisodiy ishida [5.1.] da'vogar – A hamda javobgar – "B" MChJ o'rtasida tuzilgan davlat-xususiy sheriklik bitimi yuzasidan nizo kelib chiqqan. Da'vogar sudga murojaat qilib, 2023yil 31-iyulda davlat reestriga olingan davlat-xususiy sheriklik bitimini bekor qilish hamda javobgar hisobidan 1 597 014 000 so'm asosiy qarzni undirishni so'ragan. Sud majlisida javobgar tomoni vakili S. Husanova ishonchnoma asosida ishtirok etib, shartnoma shartlari to'liq bajarilmaganligini tan olgan, biroq da'vogarning qarz undirish

talabi bo'yicha faqat mutaxassis tomonidan o'tkazilgan nazorat o'lchovi natijalarida aniqlangan summa doirasida majburiyatni tan olishlarini bildirgan. Ish materiallaridan ma'lum bo'lishicha, taraflar o'rtasidagi bitimga ko'ra javobgar 10 yil davomida 90 ta ijtimoiy soha obyektlarida isitish tizimini modernizatsiya qilish va qozonlarni almashtirish ishlarini bajarishi, da'vogar esa ushbu ishlarni amalga oshirish uchun oldindan to'lovlarni amalga oshirishi lozim bo'lgan. Da'vogar tomonidan jami 3 693 422 000 so'm miqdorida to'lov amalga oshirilgan bo'lsa-da, javobgar tomonidan ayrim obyektlarda ishlar yakunlanmaganligi, qozonlar to'liq o'rnatilmaganligi va ko'mir bilan ta'minlash majburiyatlari ham bajarilmaganligi aniqlangan. Sud ajrimiga ko'ra "Qurilishda nazorat xizmati" MChJ tomonidan o'tkazilgan nazorat o'lchovi natijasida 234 738 201,7 so'mlik ishlar bajarilmaganligi aniqlangan. Sud ushbu dalillarni tahlil qilib, javobgar tomonidan shartnoma shartlari jiddiy buzilgan degan xulosaga kelgan hamda bitimni bekor qilish haqidagi da'vo talabini qanoatlantirgan. Shu bilan birga, asosiy qarz undirish talabi to'liq emas, balki nazorat o'lchovi bilan tasdiqlangan 234 738 201,7 so'm qismi doirasida qanoatlantirilgan. Natijada sud da'voni qisman qanoatlantirib, bitimni bekor qilish hamda javobgar hisobidan 234 738 201,7 so'm asosiy qarz undirish haqida qaror chiqargan, qolgan qismi esa rad etilgan. Ushbu ishda advokat yoki vakilning sud jarayonidagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ular tomonidan sudga taqdim etilgan hujjatlar, nazorat o'lchovi natijalari va boshqa dalillar nizoni to'g'ri hal etishda asosiy rol o'ynagan. Advokat yoki vakil sud jarayonida dalillarni taqdim etish, ularni huquqiy jihatdan asoslash hamda taraf manfaatlarini himoya qilish orqali sudning adolatli qaror qabul qilishiga yordam beradi. Mazkur holatda ham taqdim etilgan dalillar sud tomonidan baholanib, faqat tasdiqlangan miqdor bo'yicha qarz undirilgani advokatning dalil taqdim etish huquqi sud jarayonida qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib advokat iqtisodiy sud ish yurituvida isbotlash institutining ajralmas va faol subyekti ekanligi haqida to'xtamga kelindi. Uning protsessual vakolatlari dalillarni qonuniy yo'l bilan to'plash, taqdim etish, mustahkamlash va baholash orqali sud qarorlarining qonuniyligi, asoslanganligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Advokatning isbotlashga doir protsessual vakolatlari iqtisodiy sud jarayonida adolatli va asosli qaror chiqarishning muhim kafolati hisoblanadi. Advokat so'rovi, dalillarni talab qilib olish va joyida ko'zdan kechirish kabi protsessual mexanizmlar advokatning faol ishtirokini ta'minlaydi va tortishuv hamda protsessual tenglik tamoyillarining amalda ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Bu orqali advokat iqtisodiy sud ish yurituvida nafaqat vakil, balki isbotlash jarayonining muhim subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi.
2. Zivilprozessordnung (ZPO) der Bundesrepublik Deutschland, §§ 138, 286. https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/_286.html

3. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-54503>

4.Recommendation No. R(2000)21 of the Committee of Ministers to member States on the freedom of exercise of the profession of lawyer. <https://www.icj.org/wp-content/uploads/2014/10/CoE-rec200021-freedom-exercise-profession-lawyer.pdf>

5.O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar tomonidan chiqarilgan internet tarmog'ida e'lon qilingan sud qarorlari. <https://public.sud.uz/report/choose-economic>

6.Basic Principles on the Role of Lawyers, Havana, Cuba. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-role-lawyers>

7.European Court on Human Rights website. <https://www.europarl.europa.eu/about-parliament/en/home>

8.CASE OF DOMBO BEHEER B.V. V. THE NETHERLANDS. [https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:\[%22001-57850%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:[%22001-57850%22]}).

IJTIMOYIY DAVLATLARDA BOLALARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK HOLATLARIDA "BIR TOM" (BARNAHUS) MODELI: XALQARO AMALIYOT VA UNING AHAMIYATI

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi
Kotibiyati Saylov jarayonini tashkiliy ta'minlash bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarida jabrlangan bolalarni himoya qilishga qaratilgan xalqaro institutsional mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, "Bir tom" tamoyiliga asoslangan Barnahus modeli, uning shakllanish tarixi, asosiy tamoyillari va xalqaro amaliyotdagi ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Barnahus modeli, bolalar zo'ravonligi, bolalar huquqi, do'stona sudlov, idoralararo hamkorlik, ijtimoiy himoya, huquqiy mexanizm, bir tom.

Bugungi kunda bolalarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasi jahon miqyosida davlatlar oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy demokratik davlatlarda bolalar huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan samarali institutsional mexanizmlarni shakllantirish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar amaliyotida zo'ravonlik va tazyiqdan jabrlangan bolalarni himoya qilish, ularga kompleks yordam ko'rsatish hamda huquqiy adolatni ta'minlashga qaratilgan innovatsion modellar joriy etilmoqda.

Shunday samarali mexanizmlardan biri sifatida “Bir tom” (One-Stop) tamoyiliga asoslangan Barnahus modeli alohida ahamiyatga ega. Ushbu model bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini tergov qilish, jabrlangan bolalarga tibbiy, psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatish hamda ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan integratsiyalashgan institutsional tizimni anglatadi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi – bola manfaatlarini markazga qo‘ygan holda barcha zarur xizmatlarni yagona, bola uchun xavfsiz va qulay muhitda taqdim etishdan iborat.

Barnahus modelining ilk asoslari AQSHda faoliyat yurituvchi Child Advocacy Centers (CAC) [1] tajribasiga borib taqaladi. Xususan, 1985-yilda AQSHning Alabama shtati, Xantsvill shahrida bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik holatlariga samarali javob chorasi sifatida mazkur markazlar tashkil etilgan. Ularning paydo bo‘lishiga bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari turli idoralar tomonidan alohida-alohida ko‘rib chiqilishi, natijada bolaning bir necha bor so‘roq qilinishi va bu jarayonda uning ruhiy holatiga yanada og‘ir travma yetkazilishi sabab bo‘lgan. Boshqacha aytganda, bola “jabrlanuvchi” sifatida ko‘plab takroriy so‘roqlarga duch kelar va bu holat uning ruhiy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatar edi.

Shu sababli bolaga nisbatan takroriy travmani kamaytirish hamda tibbiy ko‘rik, psixologik yordam va huquqiy himoya kabi asosiy xizmatlarni yagona muassasada ko‘rsatishga qaratilgan yangicha yondashuv ishlab chiqildi. Bunday markazlar bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini tergov qilishda ishtirok etuvchi ko‘p tarmoqli va idoralararo mutaxassislar guruhi uchun yagona hamkorlik platformasi vazifasini bajara boshladi.

Ushbu ilg‘or tajriba asosida 1998-yilda Islandiyada [2] birinchi marta Barnahus modeli joriy etildi. Mazkur atama island tilidan tarjima qilinganda “Bolalar uyi” ma‘nosini anglatadi. Islandiyada ushbu tizimning amaliyotga tatbiq etilishi bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini ko‘rib chiqish tartibida tub burilish yasadi va sohada innovatsion islohot sifatida baholandi.

Vaqt o‘tishi bilan mazkur model ijtimoiy ta‘minot va adliya tizimlari o‘zaro yaqin institutsional xususiyatlarga ega bo‘lgan Skandinaviya davlatlarida ham keng tarqaldi. Jumladan, 2005-yil fevralida Shvetsiyada [3] Prokuratura organi, Milliy politsiya boshqarmasi, Milliy sud-tibbiyot kengashi hamda Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot milliy kengashi tomonidan mamlakatning turli hududlarida sinov tariqasida Barnahus markazlarini tashkil etish vazifasi yuklatildi. Keyinchalik ushbu tashabbus 2007-yilda Norvegiyada, 2013-yilda esa Daniyada ham amalga oshirildi.

Hozirgi kunda Skandinaviya mintaqasi va Yevropa davlatlarining bir qator hududlarida Barnahus markazlari samarali faoliyat yuritmoqda. Xususan, Daniya, Farer orollari, Grenlandiya, Finlyandiya va Litvada 50 dan ortiq [4] shunday markazlar mavjud. Ushbu muassasalar bolalarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik holatlarini tekshirish, huquqiy, psixologik va tibbiy yordam

ko'rsatish hamda idoralararo hamkorlikni ta'minlash orqali bola manfaatlarini ustuvor qo'yishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Barnahus modeli ko'pincha "bolalar uchun do'stona odil sudlov" tizimining namunaviy ko'rinishi sifatida baholanadi. Hozirda mazkur model Yevropa Kengashi tomonidan Yevropa miqyosida faol targ'ib etilmoqda. Bir qator davlatlar ushbu modelni joriy qilgan yoki joriy etish jarayonini boshlagan. Masalan, Xorvatiya, Niderlandiya va Polshada bolalar uchun do'stona markazlar tashkil etilgan bo'lib, ularda mazkur xizmatlar yanada rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga Kipr, Angliya (London), Estoniya, Germaniya, Vengriya, Latviya, Ispaniya va Maltada Barnahus yoki shunga o'xshash modellarni joriy etish jarayoni turli bosqichlarda davom etmoqda. Bolgariya, Lyuksemburg, Portugaliya, Ruminiya va Buyuk Britaniyada esa ushbu tizimni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda[5].

Yevropa amaliyoti shuni ko'rsatadiki, Barnahus konsepsiyasini joriy etish turli davlatlarda milliy huquqiy va institutsional muhitga mos ravishda turlicha shakllanadi. Biroq uning asosiy tamoyillari barcha mamlakatlarda umumiy bo'lib qolmoqda.

Barnahus modeli bolalar uchun xavfsiz va qulay muhitda amalga oshiriladigan ko'p tarmoqli va idoralararo chora-tadbirlar tizimi bo'lib, u bir qator asosiy mezonlarga tayanadi. Jumladan:

Birinchidan, sud-tibbiy intervyular dalillarga asoslangan maxsus protokollar asosida o'tkaziladi. Bu esa bolaning ko'rsatmalari ilmiy asoslangan metodlar yordamida qayd etilishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, bola tomonidan berilgan ko'rsatmalarning daliliy kuchi tegishli huquqiy tartib-taomillar asosida ta'minlanadi. Bu holat, ayblov e'lon qilingan taqdirda ham, bolaning sud jarayonida qayta-qayta ko'rsatma berish ehtiyojini kamaytiradi va uning ruhiy holatiga ortiqcha bosim tushishining oldini oladi.

Uchinchidan, tibbiy baholash ham sud-tergov maqsadlari, ham bolaning jismoniy salomatligini tiklash nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Bu jarayonda sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkazilishi bilan bir qatorda bolaga zarur tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

To'rtinchidan, psixologik qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Jabrlanuvchi bola, shuningdek jinoyatga aloqador bo'lmagan oila a'zolari va vasiylar uchun qisqa va uzoq muddatli terapevtik xizmatlar ko'rsatiladi. Bu esa bola va uning yaqinlarida yuzaga kelgan ruhiy jarohatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, bolaning va uning oilasidagi boshqa farzandlarning himoyaga bo'lgan ehtiyojlari ham kompleks tarzda baholanadi. Zarurat tug'ilgan hollarda ularning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tegishli choralar ko'riladi [6].

Umuman olganda, Barnahus modeli huquqiy jarayonni soddalashtirish va bolaga nisbatan takroriy travmalarni kamaytirishga qaratilgan ko'p tarmoqli va idoralararo yondashuvni ifoda etadi. Ushbu tizimning asosida bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari bo'yicha ish olib boruvchi barcha mutaxassislar va idoralarni birlashtiruvchi "yagona darcha" yoki "bir tom ostida" tamoyili[7] yotadi.

"Bir tom tamoyili"ning mohiyati shundaki, mutaxassislar bolaning o'ziga borishi lozim. Shu bois Barnahus modeli ko'pincha to'rtta funksional xonani o'z ichiga olgan tuzilma sifatida tavsiflanadi: jinoiy tergov xonasi, himoya xonasi, jismoniy salomatlik xonasi va ruhiy salomatlik xonasi[8]. Bu xonalar ustidagi "tom" esa mazkur tizimning asosini tashkil etuvchi bilim, tajriba va idoralararo hamkorlikni anglatadi.

Mazkur yondashuv bolani barcha jarayonlar markaziga qo'yadi va quyidagi muhim tamoyilga amal qiladi: "huquqiy natijadan qat'i nazar, jarayon yakunida bola o'zini uning boshlanishidagiga nisbatan yaxshiroq his qilishi lozim."

Xalqaro va Yevropa darajasida qabul qilingan "bolalar uchun do'stona odil sudlov"ga oid qator siyosiy hujjatlar va yo'riqnomalarda ham bolalarni himoya qilishda idoralararo hamkorlikning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Odatda "bir tom ostida" faoliyat yurituvchi muassasalar tarkibiga huquqni muhofaza qiluvchi organlar, prokuratura, ijtimoiy ta'minot xizmatlari va tibbiy muassasalar kiradi. Bu jarayonda ijtimoiy xodimlar, psixologlar, politsiya xodimlari, prokurorlar hamda sud-tibbiyot ekspertlari kabi mutaxassislar ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, Barnahus modeli bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini ko'rib chiqishda bola manfaatlarini ustuvor qo'yadigan innovatsion institutsional mexanizm hisoblanadi. Ushbu model bolaning jinoiy jarayonda ishtirok etishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ruhiy bosimni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga mazkur tizim jinoyat ishlarini tergov qilish samaradorligini oshirish, idoralararo hamkorlikni mustahkamlash hamda bolalar uchun do'stona odil sudlov tizimini shakllantirishga hissa qo'shadi. Shu bois Barnahus modelini o'rganish va uni milliy huquqiy tizimlarga moslashtirish bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Johansson S., Stefansen K., Bakketeig E., Kaldal A. (2017) Implementing the Nordic Barnahus Model: Characteristics and Local Adaptions. In: Johansson S., Stefansen K., Bakketeig E., Kaldal A. (eds) Collaborating Against Child Abuse. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-58388-4_1;
2. Implementing the Barnahus Model in Croatia. 13.03.2026. <https://www.coe.int/en/web/children/barnahus-croatia>;
3. Landberg, Åsa and Carl Göran Svedin. 2013. Inuti ett barnahus. A Quality Review of 23 Swedish Barnahus. Stockholm: Save the Children Sweden;

4. Turid Heiberg. Enabling Child-Sensitive Justice The Success Story of the Barnahus Model and its Expansion in Europe. Council of the Baltic Sea States Secretariat. <https://www.barnahus.eu/en/wp-content/uploads/2023/07/PROMISE-Enabling-Child-Sensitive-Justice.pdf>;

5. O'sha manba;

6. Protection of children against sexual exploitation and abuse. Child-friendly, multidisciplinary and interagency response inspired by the Barnahus mode. <https://rm.coe.int/protection-of-children-against-sexual-exploitation-and-abuse-child-fri/16809e55f4>.

MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI ORQALI INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH: YEVROPA ITTIFOQI VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Sevara Nodirova

Siyosiy fanlar tadqiqotchisi,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya Mazkur tezisdagi mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlarining inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yevropa mamlakatlarida shakllangan mahalliy boshqaruv tizimi hamda O'zbekistonda mahalla institutining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi roli qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlarining inson huquqlarini ta'minlashdagi institutsional imkoniyatlari xalqaro huquqiy standartlar asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: mahalliy o'zini o'zi boshqarish, inson huquqlari, mahalla, fuqarolik jamiyati, mahalliy boshqaruv, desentralizatsiya.

Kirish. Zamonaviy siyosiy-huquqiy tadqiqotlarda inson huquqlarini samarali ta'minlash davlat boshqaruvining eng muhim mezonlaridan biri sifatida qaraladi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarining amalda ta'minlanishi faqat markaziy davlat institutlari faoliyati bilan cheklanmaydi, balki mahalliy boshqaruv organlarining institutsional salohiyatiga ham bevosita bog'liqdir [1]. Mahalliy boshqaruv tizimi fuqarolarning siyosiy ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy xizmatlarning samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishda muhim mexanizm hisoblanadi.


Yevropa davlatlarida mahalliy boshqaruv tizimi demokratik boshqaruvning muhim institutsional elementi sifatida qaraladi. Ushbu tizimning asosiy huquqiy tamoyillari European Charter of Local Self-Governmentda belgilangan bo'lib, unda mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi, subsidiarlik tamoyili hamda fuqarolarning mahalliy boshqaruvdagi ishtiroki kafolatlangan [2].

O'zbekistonda esa mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimining muhim instituti sifatida mahalla faoliyat yuritadi. Mahalla fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini ifodalash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi [5].

Yevropa davlatlarida mahalliy boshqaruv tizimi desentralizatsiya tamoyiliga asoslanadi. Ushbu modelga ko'ra davlat boshqaruvidagi ayrim vakolatlar markaziy hukumatdan mahalliy organlarga o'tkaziladi. Bu esa hududiy rivojlanish siyosatini samarali amalga oshirish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini ta'minlash imkonini beradi [3].

Mahalliy boshqaruv organlari ko'plab ijtimoiy xizmatlar – ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar va ijtimoiy yordam tizimini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy boshqaruv darajasida qabul qilingan qarorlar fuqarolarning kundalik hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va inson huquqlarining amalda ta'minlanishiga xizmat qiladi [4].

Mahalliy boshqaruv tizimlari



Made with Napkin

O'zbekistonda mahalla instituti fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish shakli sifatida shakllangan. Mahalla aholining ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlash, ijtimoiy yordam tizimini tashkil etish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar mahalla institutining institutsional imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan [5].

Takliflar

1. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlarining institutsional mustaqilligini kuchaytirish hamda ularning inson huquqlarini ta'minlashdagi vakolatlarini kengaytirish zarur.

2. Mahalliy boshqaruv tizimida fuqarolar ishtirokini oshirish uchun jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

3. Yevropa davlatlari tajribasini o'rganish asosida mahalliy boshqaruv organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari zamonaviy demokratik davlatlarda inson huquqlarini ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Yevropa davlatlari tajribasi mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligi va keng vakolatlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga xizmat qilishini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa mahalla instituti fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saul, M. (2024). Local authorities at the European Court of Human Rights. *The International Journal of Human Rights*.

2. Saul, M., Lambert, E. (2024). Subnational authorities and human rights in Europe. *The International Journal of Human Rights*.

3. Hariyanto, H., Meidina, A. (2024). Decentralization and the fulfilment of children's rights: Challenges for local government. *Lex Scientia Law Review*.

4. Sabitov, K. et al. (2024). Comparative analysis of decentralization and power distribution in local self-government. *Khazanah Hukum*.

5. Kendjayev, D. (2024). Theoretical views on the organization of local self-government. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*.

6. OECD (2019). *Making Decentralisation Work: A Handbook for Policy Makers*.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ КАК ФАКТОР ПОЛИТИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА: ОТ ТАНЗИМАТА К ДЖАДИДИЗМУ

Созукпинар Дилором Алимовна

*старший преподаватель кафедры общественных наук
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Республика Узбекистан*

Аннотация. В статье анализируется роль образовательных реформ в процессах политической модернизации общества. Рассматривается исторический опыт модернизационных преобразований в мусульманском мире, включая реформы Танзимата в Османской империи и деятельность

джадидского движения в Центральной Азии. Особое внимание уделяется взаимосвязи трансформации государственных институтов, образовательной системы и формированию нового общественного сознания.

Ключевые слова: политическая модернизация, образовательные реформы, джадидизм, общественное сознание.

В условиях современных социальных трансформаций вопросы модернизации общества приобретают особую актуальность. Одним из ключевых факторов таких преобразований выступает развитие системы образования, оказывающее существенное влияние на формирование интеллектуального потенциала общества и трансформацию социальных институтов.

Целью данной статьи является анализ роли образовательных реформ как важного фактора политической модернизации общества.

В политической науке модернизация рассматривается как процесс перехода общества от традиционных форм социальной организации к более институционально развитым моделям общественного устройства [1]. Подобные процессы обычно затрагивают различные сферы общественной жизни – политическую систему, экономические отношения, государственные институты и культурные ценности. В этом контексте образование выступает одним из ключевых механизмов формирования новых социальных групп и распространения научных знаний, необходимых для модернизации общества.

В этой связи особый интерес представляет исторический опыт образовательных реформ в мусульманском мире, где процессы модернизации нередко начинались именно с преобразования системы образования. В качестве показательного примера можно рассмотреть реформы Танзимата в Османской империи, а также деятельность джадидского движения в Центральной Азии. Несмотря на различие исторических условий, оба процесса были связаны с попытками обновления общественной жизни через реформирование образовательных институтов и распространение просветительских идей.

Подобные преобразования не возникли случайно. К первой половине XIX века Османская империя всё более явно сталкивалась с проблемой отставания от европейских государств в сфере государственного управления, военной организации, экономики, науки и образования. Осознание этого разрыва особенно остро воспринималось образованной частью османского общества, которая понимала необходимость глубоких преобразований для сохранения устойчивости государства и его международных позиций.

В этих условиях реформы постепенно стали восприниматься как историческая необходимость. Государственная власть также осознавала, что сохранение прежних административных и социальных механизмов уже не

соответствует новым историческим условиям. Именно поэтому модернизационные преобразования в Османской империи были инициированы преимущественно сверху – государством и реформаторски настроенной частью бюрократии, стремившейся обновить систему управления и создать более эффективные государственные институты.

Одним из наиболее значимых этапов институциональной модернизации Османского государства стали реформы Танзимата, начало которых связано с провозглашением Гюлханейского хатта-и шерифа в 1839 году. Данный документ обозначил курс на проведение масштабных преобразований в сфере государственного управления, правовой системы и общественных институтов. Эти реформы затрагивали не только административную структуру государства, но и более широкие сферы общественной жизни, включая экономические отношения, развитие государственных институтов и формирование новых моделей политического управления.

Важное место в этих преобразованиях занимало развитие системы образования, поскольку османские реформаторы осознавали, что модернизация государства невозможна без подготовки образованных кадров и формирования нового интеллектуального слоя общества. В этот период создаётся сеть новых учебных заведений, расширяется система светских школ и вводятся учебные дисциплины, связанные с естественными и общественными науками.

Просветительские идеи и модернизационные тенденции, возникшие в ходе реформ Танзимата, постепенно распространялись и в других регионах мусульманского мира. Они оказывали влияние на развитие общественной мысли и стимулировали поиски новых путей культурного и образовательного обновления общества.

В Центральной Азии подобные идеи образовательных реформ получили развитие в рамках джадидского движения, возникшего в конце XIX – начале XX века. В научных исследованиях джадидское движение рассматривается как важный этап культурной модернизации региона. Так, известный исследователь истории Центральной Азии, профессор Карлтон-колледжа (США) Адиб Халид отмечает, что джадидизм представлял собой попытку переосмысления культурной традиции и адаптации мусульманского общества к условиям современности [2].

Особое значение в деятельности джадидских реформаторов придавалось обновлению системы образования. Представители джадидского движения исходили из убеждения, что общественное развитие региона невозможно без распространения светских знаний и повышения уровня грамотности населения. Поэтому одной из важнейших задач реформаторов стало создание новой модели школы, способной обеспечить более эффективное обучение и расширение образовательного содержания.

В этой связи важное место заняли школы нового типа – школы «усул-и жадид» (нового метода). В отличие от традиционных образовательных учреждений, в этих школах применялись более рациональные и ускоренные методы обучения грамоте, а также постепенно расширялся круг изучаемых дисциплин. Помимо религиозных знаний в образовательный процесс включались предметы светского характера – история, география, математика и основы естественных наук.

Значительную роль в распространении идей образовательных реформ сыграли представители джадидского движения – просветители и общественные деятели, выступавшие за обновление системы образования и развитие общественной мысли. Среди наиболее известных представителей джадидизма можно назвать Махмудходжу Бехбуди, Абдулла Авлони, Мунавваркори Абдурашидханова и других реформаторов, деятельность которых была направлена на распространение знаний, создание новых учебных заведений и формирование современной интеллектуальной среды.

Подобные преобразования были направлены не только на повышение уровня образования, но и на формирование нового интеллектуального слоя общества. Через реформирование образовательных практик джадидские просветители стремились расширить кругозор населения, стимулировать развитие общественной мысли и подготовить поколение людей, способных воспринимать идеи социального и культурного обновления.

Опыт джадидских реформ показывает, что модернизация общества во многом связана с развитием системы образования и распространением научных знаний. При этом подобные процессы охватывают не только культурную сферу, но и более широкие области общественной жизни, включая развитие экономических отношений, совершенствование политических институтов и укрепление государственных структур.

В современных условиях реформирование образовательной сферы также рассматривается как одно из ключевых направлений общественного развития Республики Узбекистан. В период глубоких социально-экономических преобразований особое значение приобретает формирование образованного и интеллектуально активного поколения, способного воспринимать достижения современной науки и активно участвовать в развитии государства и экономики. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев неоднократно подчеркивает важность развития системы образования, поддержки науки и формирования культуры чтения среди молодежи. По его словам, воспитание молодежи, обладающей глубокими знаниями и современным мышлением, является одним из важнейших условий устойчивого развития общества [3].

Заключение. Образовательные реформы играют важную роль в модернизации общества и формировании нового общественного сознания. Исторический опыт реформ Танзимата и джадидского движения

показывает, что преобразование образовательных институтов тесно связано с более широкими процессами институциональной модернизации государства, включая развитие политической системы, экономических отношений и общественной мысли.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Huntington S. *Political Order in Changing Societies*. – New Haven, 1968.
2. Khalid A. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. – Berkeley, 1998.
3. Мирзиёев Ш.М. *Стратегия развития Нового Узбекистана*. –Т., 2022.

MEHNAT HUQUQI – INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING ASOSI

Odilov Nodirbek Odil O'g'li

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida mehnat huquqi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasini qamrab oladi. Mehnat huquqining falsafiy asosi jamiyatda inson hatti-harakatining tabiat va uning talablariga mos kelishini ta'minlashdan iboratdir. Mehnat huquqining falsafiy asosi mehnat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: demokratik jamiyat, inson huquqlari, mehnat huquqi, mehnat kodeksi.

Mehnat huquqi masalasi ijtimoiy falsafaning tarkibiy qismi sifatida rivojlanib kelayotgan yo'nalishdir. Insoniyatning rivojlanishib borishi va tarixiy taraqqiyotning ilk bosqichlaridan boshlab dastlabki mehnat taqsimotining vujudga kelishi va kishilar hayotida mehnat qilish va daromad olish g'oyalarining shakllanib borishini yuzaga keltirdi. Insoniyatning yangi rivojlangan davrga qadam qo'yishi va demokratik davlat va fuqarolik jamiyatlarining shakllanib borishi mehnat huquqiga ehtiyojning paydo bo'lishi va rivojlanib borishiga zamin yaratdi.

Mehnat huquqi falsafiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida rivojlanib kelar ekan, uning eng dastlabki ko'rinishlari antik davrlarda shakllangan bo'lib, qadimgi Yunon faylasuflarining huquq va falsafasiga oid nazariyalari hamda burchga oid falsafiy munosabatlarida o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Mehnat huquqi falsafiy asoslariga oid ushbu falsafiy yondashuvlar antik dunyo falsafiy ta'limotlarining mumtoz g'oyalari sifatida e'tirof etiladi [1. B. 177-195].

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk

ustuvorligiga asoslangan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, xalqning tinch va farovon hayoti uchun shart-sharoitlar yaratish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashiga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qilingan qonunlar jamiyat va davlat faoliyatining barcha sohalarini isloh qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida milliy qonunchilik va mehnat huquqiga oid ko'plab qarorlarning qabul qilinishi, insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringi milliy tizimi shakllantirishga asosiy e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat Parlamentiga murojaati doirasida parlamentning inson huquqlari sohasida vazifa va vakolatlarini kengaytirish bo'yicha bir qator tashkiliy choralar amalga oshirildi. Jumladan, fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha parlament komissiyasi tashkil etildi [2].

O'zbekiston Respublikasida mehnat huquqi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasini qamrab olib unda quyidagi huquqlar e'tirof etiladi:

- mehnat huquqi;
- ish jarayonida oqilona va adolatli shart-sharoitlar yaratib berilishiga bo'lgan huquq;
- kasaba uyushmalari tashkil etish va ularga birlashish huquqi;
- ijtimoiy ta'minot huquqi;
- oilaning himoya qilinishi huquqi;
- munosib turmush kechirish, xususan, yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ega bo'lish huquqi;
- tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi;
- ta'lim olish huquqi va h.k. [3].

Mehnat qilish huquqini falsafiy mushohada qilganda u muayyan shaxsni iqtisodiyotdan ajratib qo'yishdan yoki ishsizlarni ijtimoiy yolg'izlanib qolishdan himoya qiladi.

Mehnat qilish huquqi boshqa inson huquqlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, inson qadr-qimmatining ajralmas va o'ziga xos qismini shakllantiradi. Har bir inson o'z qadr-qimmatini bilan yashashga imkon beruvchi mehnat qilish huquqiga ega. Mehnat qilish huquqi shaxsning va uning oila a'zolarining yashashi, shuningdek, erkin kasb tanlashi yoki uni qabul qilishi, shaxsning rivojlanishi va jamiyatda e'tirof etilishi uchun hissa qo'shadi.

Mehnat huquqining falsafiy asosi jamiyatda inson hatti-harakatining tabiat va uning talablariga mos kelishini ta'minlashdan iboratdir. Mehnat huquqi inson faoliyatidan tashqarida sodir bo'la olmaydi. Mehnat huquqining inson faoliyati doirasida namoyon bo'lishi uni davlat, siyosat, jamiyat bilan mustahkam bog'lab, doimiy muvozanatni ta'minlaydi.

Mehnat huquqi ijtimoiy-falsafa yo'nalishida yetakchi o'rinni egallab, ijtimoiy mehnatga oid munosabatlarni tartibga solib turuvchi ijtimoiy-falsafiy va huquqiy normalarni o'z ichiga oladi. Buning amaliy natijasi esa inson kapitali va

mehnatni tashkil etish va undan foydalanishda namoyon bo'ladi. Mehnatga oid munosabatlarning falsafiy tahlili muayyan shaxsning ma'lum bir tashkilot, korxona va muassasa tarkibiga qo'shilishi va o'z mehnati bilan korxona jamoasi oldidagi funksional vazifalarni bajarishi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq, muayyan mehnat vazifasini bajaruvchi shaxs yoki xodim majburiyatlarini bajaruvchi ob'yektga va o'z jamoasi faoliyati bilan uyg'unlashgan, ya'ni mehnat faoliyatini bajaruvchiga aylanadi. Xodimning mehnat faoliyati muayyan tartib qoidalar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun, mehnat faoliyatida belgilangan tartib-intizom va qoidalarga bo'ysunishi mehnat samaradorligi va izchilligini belgilovchi omil sifatida e'tirof etiladi. Zero, mehnatga oid munosabatlar ixtiyoriy harakterga ega bo'lsada, ular bevosita ishlab chiqarish doirasida namoyon bo'lib, muayyan maqsadlarni ko'zlab amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali faoliyat funksiyasini bajaradi.

Mehnat huquqi mehnat bozori faoliyati natijasida yuzaga keluvchi va huquq sohalarining yetakchi o'rinlaridan biridir. Mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan barcha ijtimoiy munosabatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Zero, mehnat qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 2-moddasida nazarda tutilgan "Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'i himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unumdorligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko'maklashadi" deb qayd etilgan.

Mehnat huquqining falsafiy asoslari va uning belgisi mehnat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda hamda markazlashtirilgan usullarining uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 9-moddasida ta'kidlab o'tilganidek, mehnat sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi [4]. Mehnat huquqining falsafiy asoslari va uning predmeti mehnat shartnomasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar mehnatining ishlab chiqarishda qo'llanishi tufayli paydo bo'ladigan ijtimoiy mehnatga oid munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu munosabatlar mehnat huquqining falsafiy asoslarining o'zagi sanaladi.

Xulosa qilib aytganda mehnat huquqining falsafiy asoslarini tahlil etib borar ekanmiz, mehnat huquqining muayyan vazifalarini ham tahlil etishimiz lozim. Mehnatga huquqiy jihatdan ta'sir o'tkazishning asosiy yo'nalishlari uning vazifalarini o'zida mujassamlashtiradi. Umuman olganda, mehnat huquqi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy – tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Xususan, mehnat huquqining iqtisodiy vazifasi ishlab chiqarishga ta'sir o'tkazish orqali namoyon bo'lsa, siyosiy vazifasi ishlab chiqarish jarayonida xodimlar ijtimoiy –

siyosiy faolligini oshirishda, g'oyaviy tarbiyaviy vazifasi xodimlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashdagi ijtimoiy vazifasi mehnat qilish huquqining erkinligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нерсисянц В.С. Нуқуқ фалсафаси. – Т., 2003. – Б. 177-195.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.07.2019 yildagi "Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiyalar to'g'risida"gi 553-son qarori.
3. Inson huquqlari [Matn]: Parlament a'zolari uchun qo'llanma. Mas'ul muharrir A.Saidov. – T.: Baktria press, 2019. – B. 284.
4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. –T.: "Yuridik adabiyotlar Publish", 2023. – 816 b.

IJTIMOIIY DAVLATDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA ZAMONAVIIY YONDASHUVLAR

Eshankulova Dilafro'z Alisherovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda ijtimoiy davlat tushunchasining nazariy asoslari, uning inson huquqlari bilan bog'liqligi, globallashtirish sharoitidagi ahamiyati va zamonaviy institutsional mexanizmlari tadqiq qilinadi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi asosida ijtimoiy davlat modelining shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, konstitutsiyaviy islohotlar, globallashtirish, inklyuziv jamiyat, raqamli transformatsiya.

Ijtimoiy davlat - bu shaxsning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan siyosiy-huquqiy tizimdir [1]. Bu tushuncha zamonaviy davlatchilik taraqqiyotining eng oliy bosqichi sifatida namoyon bo'ladi va insoniyat tarixida davlatning roli faqatgina tartib o'rnatish yoki hududiy yaxlitlikni ta'minlashdan iborat bo'lmay, balki har bir shaxsning qadr-qimmatini ulug'lash, uning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish darajasiga ko'tarilganligini aks ettiradi [2].

Ijtimoiy davlatning nazariy ildizlari kishilik jamiyatining tadrijiy rivojlanish bosqichlariga borib taqaladi. Ma'lumki, Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari, xususan Abu Nasr Forobiyning "Fozil shahar ahli qarashlari" asaridagi davlat boshqaruvi haqidagi g'oyalar ijtimoiy davlatchilikning ilk nazariy asoslaridan biri bo'lib xizmat qilgan [3]. Forobiy fikrlashicha, adolatli

davlat fuqarolarning baxt-saodatini ta'minlash, ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish uchun majburdir. Bu g'oyalar keyinchalq G'arb siyosiy fikrida, ayniqsa sotsial-demokratik nazariyalarda rivojlantirildi.

Zamonaviy davrda esa modernizatsiya nazariyalari ijtimoiy davlatning institutsional shakllanishiga turtki bo'ldi. T.Parsons, N.Smelser, S.Xantington kabi olimlarning izlanishlari davlatning ijtimoiy funksiyalarini tizimli tahlil qilishga imkon berdi [4]. Xususan, ijtimoiy davlat nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi, balki ijtimoiy integratsiyani amalga oshiruvchi mexanizm sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlat modelining shakllanishi evolyusion tarzda amalga oshib bormoqda. Dastlab "Harakatlar strategiyasi" (2017), keyin "Taraqqiyot strategiyasi" (2020) va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi orqali ijtimoiy himoya va inson kapitalini rivojlantirishning izchil tizimi yaratildi [5]. Ushbu strategik hujjatlar ijtimoiy davlat qurishning uzluksiz va maqsadli siyosatini namoyon etadi.

Ijtimoiy davlatning zamonaviy tizimida davlat nafaqat boshqaruvchi, balki servis xizmatini ko'rsatuvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'lmoqda. "Servis davlat" modelida davlat aholi ehtiyojlarini qondirish usullarini doimiy takomillashtirib boradi [6]. Bu yondashuv fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini oshirish, ijtimoiy siyosatning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillari

Ijtimoiy davlatning barqarorligi uning fundamental tamoyillariga bog'liq bo'lib, ular O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinishi mamlakat davlatchilik tarixida yangi sahifa ochdi. Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi [7]. Bu shunchaki siyosiy deklaratsiya emas, balki davlatning o'z fuqarolari oldidagi mas'uliyatini yangi bosqichga olib chiqqan huquqiy poydevor hisoblanadi.

Ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyili. Bu tamoyil fuqarolarning jinsi, irqi, millati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, jamiyat hayotida ishtirok etishda teng huquqqa egaligini anglatadi [8]. Masalan, Konstitutsiyaning 37-moddasida fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanligi belgilab qo'yilgan [7]. Bu meritokratiya va professionallikni ta'minlash orqali ijtimoiy adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Amaliyotda bu tamoyil kadrlar siyosatida, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida teng imkoniyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Inson huquqlari ustuvorligi va davlat mas'uliyati. Konstitutsiyaning 54-moddasiga ko'ra, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir [7]. Davlat nafaqat huquqlarni e'lon qiladi, balki ularni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, g'amxo'rlik qiladi va himoyalaydi. Bu mas'uliyatning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi ijtimoiy davlatning

eng muhim belgisidir. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonda “inson – jamiyat – davlat” tamoyili ijtimoiy adolatning bosh mezonini sifatida xizmat qilmoqda [9].

Ijtimoiy davlat mehnatga layoqatsizlar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlariga alohida e‘tibor qaratadi [10]. Bunda xayriya yondashuvidan ijtimoiy huquqlarni ta‘minlash yondashuviga o‘tiladi. Masalan, nogironlikning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga o‘tish, shaxsning ijtimoiy makondagi to‘siqlardan xoli bo‘lishini kafolatlaydi [11]. Bu o‘zgarish nogironligi bo‘lgan shaxslarni faqat tibbiy yoki xayriya ob’ektidan to‘laqonli huquq egasiga aylantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy davlatda har bir islohot qonun doirasida amalga oshiriladi. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi (15-modda) inson huquqlarini sud orqali himoya qilish kafolatini beradi [7]. Huquq ustuvorligi tamoyili davlat hokimiyati organlarining huquqiy chorakorlik prinsipiga asoslangan faoliyatini ta‘minlaydi.

Ijtimoiy davlat va inson huquqlarining o‘zaro bog‘liqligi

Ijtimoiy davlat va inson huquqlari bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Inson huquqlarini ta‘minlamasdan turib, haqiqiy ijtimoiy davlatni qurib bo‘lmaydi. O‘zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida inson huquqlariga bag‘ishlangan moddalar soni 23 tadan 34 taga, normalar esa 37 tadan 98 taga ko‘paydi [12]. Bu o‘zgarishlar inson huquqlarini himoya qilishning yangi sifat bosqichiga o‘tishni ta‘minladi.

Inson huquqlarining yangi avlodi – ekologik huquqlar, sog‘liqni saqlash huquqi, munosib mehnat sharoitlariga bo‘lgan huquqlar ijtimoiy davlat majburiyatlarining ajralmas qismiga aylandi [13]. Masalan, davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish mas‘uliyatini o‘z zimmasiga oldi. Bu esa ta‘lim sohasida inson huquqlarini ta‘minlashning institutsional kafolatidir.

Shuningdek, shaxsning sudlanganligi uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi haqidagi norma (28-modda) insonparvar davlatchilikning eng yuksak namunasi bo‘lib, shaxs daxlsizligi va adolat tamoyilini mustahkamlaydi [7]. Bu norma kollektiv javobgarlikning oldini olish, shaxsning oilaviy aloqalarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlatning inson huquqlarini ta‘minlashdagi roli nogironligi bo‘lgan shaxslar misolida yaqqol ko‘rinadi. BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish (2021 yil) natijasida mamlakatda inklyuziv jamiyatni rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni kamsitishni taqiqlash va ular uchun to‘siqsiz muhit yaratish majburiyati yuklandi [14].

Ijtimoiy davlatni rivojlantirishda dunyo miqyosida bir nechta zamonaviy yondashuvlar ustuvorlik qilmoqda:

Raqamli transformatsiya (Digitalization). Raqamli texnologiyalar davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini kamaytirib, shaffoflikni oshiradi. O'zbekistonda "Elektron hukumat" tizimining joriy etilishi aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi [15]. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi esa moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. 2023 yilda elektron davlat xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 75 foizga yetdi [16].

Institutsional mexanizmlar - "Mahalla yettiligi". O'zbekistonning o'ziga xos tajribasi sifatida "mahalla yettiligi" tizimini keltirish mumkin. Bu tizim ijtimoiy muammolarni "mahallabay" hal qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga manzilli yordam ko'rsatish va ijtimoiy adolatni eng quyi bo'g'inda ta'minlash imkonini beradi [17]. Mahalla yettiligi a'zolari har oy aholi bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularning muammolarini o'rganadi va yechim topishga yordam beradi.

Xulosa. Ijtimoiy davlat inson qadrini yuksaltirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan muhim ijtimoiy-siyosiy jarayon hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyillarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy global sharoitda inson huquqlarini ta'minlash faqat huquqiy normalarni qabul qilish bilan cheklanmay, balki raqamli texnologiyalarni joriy etish, inklyuziv ijtimoiy muhitni shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi. Shu jihatdan, «inson - jamiyat - davlat» munosabatlaridagi uyg'unlik barqaror taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikning muhim omili hisoblanadi.

Shu bois ijtimoiy davlatni barpo etish insonning munosib hayotini ta'minlash va barqaror taraqqiyotga erishishga qaratilgan strategik vazifa bo'lib, inson huquqlarini ta'minlash esa jahon hamjamiyatining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Вассерман Л.А. Социальное государство: теория и практика // Государство и право. - 2019. - № 5. - С. 45-52.
2. Маккейн Дж. Правовое государство и социальное государство: взаимосвязь и взаимозависимость // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. - 2020. - № 3. - С. 12-18.
3. Форобий А.Н. Фозил шаҳар аҳли қарашлари / Таржима ва тасҳиҳ: А.А. Набибов. - Тошкент: Фан, 1993. - 224 б.
4. Парсонс Т. Система современных обществ / Пер. с англ. - М.: Аспект Пресс, 2017. - 270 с.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилгача бўлган тараққиёт стратегияси. - Тошкент: 2020. - 64 б.

6. Сиддиков М.Т. Сервис давлат: концепцияси ва амалга ошириш механизмлари // Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ахборотномаси. - 2022. - № 2. - Б. 15-22.
7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: «Адолат» МХАМ, 2023. - 120 б.
8. Исламов С.А. Ижтимоий адолат ва тенг имкониятлар: назарий-ҳуқуқий таҳлил // Ҳуқуқ ва давлат. - 2023. - № 4. - Б. 8-14.
9. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон: Давлат ва жамият тараққиёти. - Тошкент: Ўзбекистон, 2021. - 456 б.
10. Рахимов Р.А. Ижтимоий давлатнинг заиф қатламларни ҳимоя қилиш функцияси // Иқтисодий тадқиқотлар. - 2022. - № 3. - Б. 45-51.
11. Турсунов Н.А. Ногиронлигининг ижтимоий модели: назарияси ва амалиёти // Социология тадқиқотлари. - 2023. - № 1. - Б. 28-35.
12. Каримов Б.Ў. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг янги таҳрири: инсон ҳуқуқларининг кенгайтирилиши // Ҳуқуқшунослик. - 2023. – № 2. - Б. 5-12.
13. Хакимов Р.С. Инсон ҳуқуқларининг янги авлоди: экологик ва иқтисодий ҳуқуқлар // Ҳуқуқ ва давлат. - 2022. - № 6. - Б. 18-25.
14. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. - New York: United Nations, 2006. - 25 p.
15. Хошимов А.Р. «Электрон ҳукумат» тизими: ривожланиши ва самарадорлиги // Ахборот технологиялари. - 2023. - № 3. - Б. 12-19.
16. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. <https://stat.uz> (қаралган сана: 15.03.2024).
17. Ибрагимов Т.К. «Маҳалла еттилиги» тизими: ижтимоий муаммоларни ҳал этишнинг инноватсион ёндашуви // Маҳалла ва жамият. 2023. - № 1. -Б. 22-28.

UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MILLIY IDENTIKLIK TUYG‘USINI MUSTAHKAMLASHDA YANGI O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MUHIM QADAMLAR.

Maxmudov Lazizjon Yusupovich
*TIFT universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix”
kafedrasida katta o‘qituvchisi.*

Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy identiklikni mustahkamlash jarayoni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan ma’naviy-siyosiy muhitda shakllanib bormoqda. Umuminsoniy qadriyatlar – inson sha’ni, erkinligi, adolat, tinchlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat kabi tamoyillar – milliy identiklikning universal mazmun bilan boyishiga xizmat qilayotgani bilan birga, milliy o‘zlikni global ma’nolar tizimi ichida qayta talqin qilishga ham imkon bermoqda. Shu bois mazkur mexanizmlar ijtimoiy falsafaning nafaqat aksiologik, balki ontologik masalalarini ham yoritib beradi: milliy identiklikning

suveren, ichki mazmuni umuminsoniy qadriyatlarning global semiosferasida qayta mazmunlashtiriladi.

Bu jarayonni chuqur tushunishda millatning umuminsoniy ruhiyat asosidagi kayfiyati muhim metodologik yo'nalish beradi. Millatning haqiqiy o'zligi o'zini xalq sifatida emas, balki insoniyatning ma'naviy birligi ichida ko'rganida ravshanlashadi. Biroq universalizmga ortiqcha moyillik milliy identiklikning tarixiy-madaniy o'ziga xosligini soddalashtirib yuborishi mumkin. Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonning "Inson qadri" tamoyiliga asoslangan siyosati milliy identiklikni umuminsoniy ma'naviy birlikning lokal talqini sifatida shakllantirmoqda.

Milliy identiklik va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik aloqani talqin etishda millatning kosmopolit etikasi masalalarini anglash darajasi g'oyat mos keladi. Kosmopolit ong milliy o'zlikka tahdid emas; aksincha, insoniyligimizni milliy chegaralar doirasida chuqurroq anglashga yordam beradigan ma'naviy imkoniyati bo'lishi mumkin. Ammo u bu jarayonda "umuminsoniylik" niqobi ostida g'arbona normativ modellarni mexanik qabul qilish xavfini esdan chiqarmaslik zarur. Shu sabadan, Yangi O'zbekistonda gender tengligi, nogironlar huquqi, bag'rikenglik tamoyillarining kuchaytirilishi milliy identiklikni inkluziv tamoyillar bilan mustahkamlamoqda.

Umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash mexanizmi milliy identiklikni mustahkamlovchi eng muhim vositalardan biri – bu ijtimoiy ongning ma'naviy-etnik chegaralarini kengaytirishdir. Milliy o'zlik o'z chegaralarini faqat ichki qadriyatlardan emas, balki o'zini umuminsonga daxldor deb his qilishdan topadi. Ammo bunday ochiqlikning nazoratsiz kechishi identiklikning erishgan ma'naviy yaxlitligini bo'shashtirishi mumkin. Ayni paytda Yangi O'zbekiston yoshlari orasida global mas'uliyat, ekologik ong, migratsiya madaniyati, o'zga madaniyatlarga ochiqlikning kuchayishi identiklikni nafaqat mustahkamlab, balki yanada yuksaltirayotgani bejiz emas.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy identiklikka faqat ma'naviy emas, balki sotsiokognitiv darajada ham ta'sir qiladi. Bu nuqtada universal muloqot me'yorlari milliy identiklikning ichki kommunikativ strukturasi kuchaytiradi. O'zaro hurmatga asoslangan muloqot millat ongini mustahkamlaydi. Ammo universal muloqot me'yorlarining mahalliy mentalitetga moslashmagan modeli diskursiv nomutanosiblikni keltirib chiqarish xavfi borligini chuqur anglash kerak.

Yangi O'zbekistonning ochiq davlat siyosati, xalqaro maydondagi faol hamkorligi, jamoatchilik eshituvlari milliy identiklikning kommunikativ asosini mustahkamlashda katta rol o'ynamoqda.

Umuminsoniy qadriyatlarning milliy identiklikni mustahkamlashdagi yana bir mexanizmi – bu milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aksiologik sintezidir. Bu jarayonda millatning haqiqiy o'zligi o'z tarixiy mohiyatini universal ma'naviy ufqlar bilan birlashtira olgan joyda yuzaga keladi. "Yangi O'zbekiston 2030" strategiyasi shu sintezning amaliy shaklidir. Bu borada universal

qadriyatlarga haddan tashqari intilish ichki milliy qadriyatlarning o'z-o'zini himoya mexanizmlarini susaytirishi mumkinligiga alohida ahamiyat berilayotganini ta'kidlash lozim.

Milliy identiklikni mustahkamlashning ramziy-madaniy mexanizmlarida umuminsoniy qadriyatlar estetik sohada ham o'z aksini topadi. Insoniyat umumiy qadriyatlarni ramzlar orqali saqlaydi, ramzlarni anglash kengaygani sayin milliy identiklik ham universal ma'no bilan to'ladi. O'zbek madaniyatida milliy musiqaning global formatlarga integratsiyasi, adabiyotning tarjima makonida kengayishi, kinodagi umuminsoniy mavzular milliy identiklikni estetik universallik bilan boyitmoqda.

Bundan tashqari, umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash mexanizmi milliy identiklikni siyosiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu jihatdan millatning identikligi uning adolat va insonparvarlik bo'yicha qilgan tanlovlarida namoyon bo'ladi; qadriyatli tanlovsiz identiklik faqat ramziy shior bo'lib qoladi. Yangi O'zbekistonda adolat, inkluzivlik va insonparvarlik ustuvor tamoyil darajasida qo'yilayotgani milliy identiklikni global etik talablarga uyg'un shaklda mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ammo qadriyatlar siyosati amaliyot bilan mos bo'lmasa, aksiologik bo'shliq vujudga kelishi mumkinligidan ogoh bo'lish zarur.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy identiklikka ta'sir etishining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini amaliy faoliyatdan ma'naviy ma'no izlash konsepsiyasidan ham anglash mumkin. Ya'ni, insonning milliy o'zligi uning o'z faoliyati va jamiyatdagi ishlardan ma'naviy ma'no izlash jarayonida ochiladi, yuksak ma'naviy mazmun va ma'no topilgan jamiyatgina mustahkam identiklik yarata oladi. Bu borada ma'noning rasmiy belgilanishi emas, balki hayotiy tajribalar orqali topilishi kerakligi asosiy ahamiyatga egadir. O'zbek jamiyatida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning kuchayishi, yoshlar uchun maqsadlar falsafasining shakllanishi bu jarayonning amaliy ko'rinishidir. Bu jarayonni anglashda umuminsoniylik milliy o'zlikni inkor etmaydi; aksincha, milliy o'zlik ochiqlik jarayonida o'zining axloqiy mas'uliyatini ko'rsata oladi. Yangi O'zbekistonning ochiq jamiyat konsepsiyasi, davlat boshqaruvidagi shaffoflik, ijtimoiy muloqot institutlarining rivojlanishi milliy identiklikni aynan umuminsoniy oshkoralik etikasi bilan uyg'unlashtirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. Basic Books, 1973. – 102-6et.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshent, 2025 yil 26 dekabr.
3. Askarov M. Zamonaviy jamiyatda Identiklik masalasi / Mejdunarodnaya onlayn konferensiya «Sovremennaya psixologiya i pedagogika: analiz i rezultaty» // e-science.uz. – Chast I, 2020.

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA ILMIY SALOHİYATLI KADRLAR TAYYORLASHNING IJTIMOİY-FALSAFIY ASOSLARI

Boboqulov Zafarbek Rustamovich

O'zbekiston Respublikasi IIV

Malaka oshirish instituti bosh inspektori

Annotatsiya: Barqaror rivojlanish sharoitida yuksak salohiyatli, bilimli, mas'uliyatli, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish har qachongidan dolzarb masalaga aylangan. Ichki ishlar organlarini har jihatdan professional kadrlar bilan ta'minlash borasida mutlaqo yangi bosqichga qadam qo'yilmoqda.

Kalit so'zlar: ilmiy salohiyat, kasbiy-axloqiy madaniyat, xulq, axloq, tarbiya.

Barqaror rivojlanish sharoitida mamlakatimiz jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab, bir necha bor xalqaro e'tiroflarga ham sazovvor bo'lmoqda. Har bir qo'lga kiritgan yutuq zamirida va oliyjanob xalqimizning mashshaqatli mehnati hamda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning samarasi yotadi. Bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O'zbekistonni barpo etar ekanmiz bunda eng avvalo, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorligimizga shukrona keltirishimiz, va uni mustahkamlash yo'lida faoliyat yuritayotgan ichki ishlar xodimlari faoliyatini alohida e'tirof etmog'imiz darkor. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi" [1]. Shubhasiz ushbu e'tiroflar ichki ishlar xodimlarining qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida fidoyiligini oshirishga, ularning o'z professionalligi va salohiyatini oshirishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot bugungi zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va global o'zgarishlar oliy ta'limning ustuvor vazifalarini zamon talablariga moslashtirish hamda shunga mos ravishda muqobil milliy ta'lim tizimini yaratish jamiyatning zaruriy vazifalaridan biriga aylanib qolmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida yangilanishlar va izchil islohotlar olib borilayotgan bir davrda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirib borish ham mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Xususan, ichki ishlar sohasini chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish, yangicha zamonaviy mexanizmlar joriy etish borasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunda, eng avvalo, ichki ishlar organlarini aholining turli qatlamlari bilan bevosita muloqot olib bora oladigan yuksak ilmiy salohiyatli kadrlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlab borish xodimlarning professionalligini oshirib

borishi bilan birga, ularning manzilli ishlashi, yuzaga kelgan muammolarni o'z joyida va vaqtida hal etishiga hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga yordam beradi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda "ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilgan"ligini alohida e'tirofga sazovordir [2].

Insoniyat taraqqiyotga erishib borar ekan tadrijiy rivojlanish jarayonida har bir sohada yuqori malakali mutaxassisga ehtiyoj sezgan. Shu sababli, yuksak salohiyatli yetuk kadrlarni tayyorlash har doim eng muhim va dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Chunonchi, ichki ishlar organlarida ham davlatimiz islohotlarini to'la amalga oshirish va uni rivojlantirish uchun yetuk, professional va ilmiy salohiyatli kadrlarga ehtiyoji ortib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarni qondirish qolaversa, ichki ishlar tizimini professional kadrlar bilan to'ldirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son qarori qabul qilindi [3]. Ushbu qaror ichki ishlar organlari rahbarlari oldiga ichki ishlar safini axloqiy va kasbiy xislatlarga ega bo'lgan ilmiy salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish vazifalarini yuklamoqda. Natijada, ichki ishlar organlari kadrlar zahirasi o'z sohasini yaxshi biladigan, tezkor ammo xato va kamchiliklarsiz qarorlar qabul qila oladigan professional, ilmiy salohiyatli kadrlar bilan to'ldirib borishga alohida ahamiyat berildi. Shuningdek, "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-son Qarori ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada, ichki ishlar organlari xodimlarining muntazam malaka oshirishi tashkil etilib, mutaxassislik kafedralarida ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ilmiy daraja va unvonli xodimlarning jalb etilishiga hamda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi malakali kadrlarning ko'payib borishiga olib keldi. Bir so'z bilan aytganda salohiyatli kadrlar tayyorlashning o'ziga xos noyob tizimi yaratildi.

Ichki ishlar organlarini har jihatdan professional kadrlar bilan ta'minlash borasida mutlaqo yangi bosqichga qadam qo'yilmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida yangi ichki ishlar organlarida islohotlarning samarali amalga oshirilish borasida ichki ishlar xodimlari oldiga o'ziga xos dolzarb talablarni qo'ymoqdagi bu ularning yetuk, salohiyatli, vatanparvar va fidoiy bo'lishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, har bir xodimning muntazam kasbiy malakasini oshirish, ularning oliy ta'limdan keyingi ta'limda mustaqil tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritib ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni olishiga imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu o'z navbatida xodimlarning axloqiy kompetensiyasini rivojlantirib, professionalligini oshirishga hamda har bir huquqbuzarlikni nafaqat kasbiy professional, balki ilmiy nuqtai nazardan ham tahlil qilinib, o'ziga xos metodik taklif va tavsiyalarni ham ishlab chiqishga imkon yaratmoqda. Bu ichki ishlar xodimlarining ilmiy salohiyatining yuksalib borishiga imkon berishi bilan

birga, ularga ilmiy faoliyat bilan muntazam shug'ullanib borish kabi ulkan mas'uliyatni yuklaydi.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash, asrlar davomida sayqallanib kelayotgan an'ana va qadriyatlarimizni targ'ib etish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkib o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, xodimlarning bilim saviyasini yanada oshirish, yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bugungi taraqqiyot ichki ishlar xodimlaridan xalq manfaatlari, yurt tinchligi va Vatan ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilishni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat burchiga sadoqat va mas'uliyat hissini oshirish, Vatanga sidqidildan xizmat qilish sharaflari burch ekanligini ongu shuuriga singdirishda ilmiy salohiyatni oshirish uchun ilm bilan shug'ullanish, xodimlar orasida amaliyotda ko'rilgan professional faoliyatini yosh kadrlarga mohirona nazariy uslubda yetkazib berishni taqozzo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ички ишлар органлари ходимларига йўллаган табриги. 24.10.2020. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ички ишлар органлари ходимларига йўллаган табриги. 25.10.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6794>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 2017 йил 29 ноябрдаги Ички ишлар органлари кадрлари билан ишлаш ва уларнинг хизматини ташкил этиш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги PQ-3413-сон қарори. <https://lex.uz/uz/docs/3430641>.

SIYOSIY JARAYONLARDA DAVLAT LOBBIZMINING XUSUSIYATLARI

Inomova Dilfuza Odilovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy siyosiy tizimda lobbi faoliyatining mohiyati va davlat lobbizmi fenomenining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Lobbi tushunchasining siyosatshunoslik va huquqshunoslikdagi talqinlari o'rganilib, davlat organlari ham lobbi jarayonining subyekti sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, ichki va

xalqaro siyosatda davlat lobbizmining mexanizmlari, texnologiyalari hamda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida davlat lobbizmi zamonaviy siyosiy tizimning muhim elementlaridan biri ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: lobbi, davlat lobbizmi, siyosiy institutlar, manfaatlar guruhi, bosim guruhi, xalqaro lobbi, siyosiy qarorlar.

Kirish. Zamonaviy siyosiy tizimni lobbi faoliyatisiz tasavvur qilish deyarli mumkin emas. Siyosiy jarayonlarda ishtirok etuvchi har bir aktor ma'lum manfaatlarga ega bo'ladi va ushbu manfaatlarni amalga oshirish uchun turli mexanizmlar va vositalardan foydalanadi. Ana shunday mexanizmlardan biri lobbi faoliyati hisoblanadi.

“Lobbi” atamasi ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, dastlab Buyuk Britaniyada siyosiy amaliyot jarayonida shakllangan. Keyinchalik bu fenomen AQSh siyosiy tizimida keng rivojlandi va siyosiy institut sifatida mustahkam o'rin egalladi. Bugungi kunda lobbi faoliyati demokratik jamiyatlarda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishning muhim usullaridan biri sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, lobbi tushunchasini ilmiy jihatdan aniqlash masalasi siyosatshunoslikda hanuzgacha muhokama qilinayotgan muammolardan biridir. Ayrim tadqiqotchilar lobbi faoliyatini faqat nodavlat tashkilotlari faoliyati bilan bog'lashsa, boshqa olimlar davlat organlari ham ushbu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Lobbi tushunchasining nazariy talqinlari

Siyosiy fanlarda lobbi odatda siyosiy qarorlar qabul qiluvchi markazlarga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda manfaatlar guruhi yoki bosim guruhi o'z manfaatlarini ilgari surish maqsadida davlat institutlari bilan turli aloqalarni amalga oshiradi.

Huquqshunoslik adabiyotlarida lobbi faoliyati ko'pincha tor ma'noda talqin qilinadi. Masalan, ayrim mualliflar lobbi faoliyatini nodavlat tashkilotlari vakillarining davlat organlari bilan aloqalari orqali muayyan qarorlarni qabul qildirishga qaratilgan harakatlari sifatida izohlaydilar.

Biroq siyosiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv lobbi jarayonining barcha jihatlarini qamrab olmaydi. Chunki real siyosiy hayotda davlat organlari ham ba'zan lobbi faoliyatida faol ishtirok etadi. Masalan, hukumat muayyan qonun loyihasini qabul qildirish uchun parlamentga ta'sir o'tkazishi yoki ayrim iqtisodiy sektor manfaatlarini ilgari surishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy siyosatshunoslikda lobbi tushunchasini kengroq talqin qilish zarurati mavjud. Bu yondashuvga ko'ra, lobbi – bu turli siyosiy aktorlarning siyosiy qarorlar qabul qiluvchi markazlarga ta'sir ko'rsatish jarayoni hisoblanadi.

Davlat lobbizmi: mohiyati va asosiy shakllari.

Davlat lobbizmi – bu davlat organlari yoki hukumat vakillari tomonidan muayyan siyosiy, iqtisodiy yoki strategik manfaatlarni ilgari surish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Davlat lobbizmi bir nechta shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Ijroiya hokimiyati lobbizmi.

Hukumat yoki prezident administratsiyasi parlamentga ta’sir ko‘rsatib, muayyan qonun loyihalarini qabul qildirishga harakat qilishi mumkin.

Parlament lobbizmi.

Ayrim deputatlar yoki parlament fraksiyalari ma’lum iqtisodiy yoki ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qiluvchi qonun loyihalarini ilgari suradilar.

Ayrim vazirliklar yoki davlat idoralari o‘z sohalari manfaatlarini himoya qilish uchun siyosiy qarorlar qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan davlat lobbizmi siyosiy tizimda muhim rol o‘ynaydi. Chunki davlat organlari ko‘pincha turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy institutlar sifatida faoliyat yuritadi.

Xalqaro siyosatda davlat lobbizmi

Davlat lobbizmi xalqaro munosabatlar tizimida ham muhim ahamiyatga ega. Har bir davlat o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish uchun turli diplomatik va siyosiy vositalardan foydalanadi.

Xalqaro lobbizm quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- xalqaro tashkilotlar doirasida siyosiy ta’sir o‘tkazish;
- xorijiy mamlakatlarda lobbi kompaniyalarini yollash;
- iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish uchun diplomatik faoliyatni kuchaytirish;
- xalqaro ommaviy axborot vositalari orqali siyosiy imijni shakllantirish.

Masalan, ayrim davlatlar xorijiy mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilish yoki siyosiy qarorlarni o‘z manfaatlariga mos ravishda qabul qildirish maqsadida professional lobbi kompaniyalari xizmatlaridan foydalanadilar.

Biroq xalqaro lobbi faoliyatini tartibga solish murakkab masala hisoblanadi. Chunki xalqaro siyosiy maydonda davlatlar o‘rtasidagi raqobat ko‘pincha lobbi mexanizmlarining keng qo‘llanishiga olib keladi.

Davlat lobbizmining siyosiy tizimdagi o‘rni.

Davlat lobbizmi zamonaviy siyosiy tizimning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi hamda turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash imkonini beradi.

Biroq lobbi faoliyati ayrim hollarda korrupsiya yoki manfaatlar to‘qnashuvi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli ko‘plab davlatlarda lobbi faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar qabul qilingan.

Masalan, AQShda lobbi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik mavjud bo‘lib, u lobbi tashkilotlarining faoliyatini ochiq va shaffof tarzda yuritishni talab qiladi.

Bunday mexanizmlar lobbi faoliyatining qonuniyligini ta’minlash va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lobbi faoliyati zamonaviy siyosiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Lobbi jarayoni nafaqat nodavlat tashkilotlari, balki davlat organlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

Davlat lobbizmi ichki siyosatda ham, xalqaro munosabatlarda ham muhim rol o'ynaydi. Davlat organlari ba'zan lobbi jarayonining obyekti, ba'zan esa uning subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Shu sababli davlat lobbizmini chuqur o'rganish zamonaviy siyosiy jarayonlarni to'g'ri tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa global siyosiy tizim sharoitida davlat lobbizmining mexanizmlari va uning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sirini tahlil qilish siyosatshunoslik fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avtonomov A.S. Azbuka lobbirovaniya. – Moskva, 2004.
2. Ziabliuk N.G. SShA: lobbizm va siyosat. – Moskva, 1976.
3. Tolstix P.A. Praktika lobbizma v Gosudarstvennoy Dume RF. – Moskva, 2006.
4. Grafov D.B. Politicheskiy lobbizm inostrannyx interesov v SShA. – Moskva, 2015.
5. Sergunin A.A. Prezidentskiy lobbizm vo vneshney politike SShA. – Moskva, 1984.
6. Zetter L. Lobbying: The Art of Political Persuasion. – London, 2008.

IJTIMOIIY DAVLATDA YOSHLAR HUQUQLARI VA ULARNI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Xushmatova Gulnoza Norkulovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat sharoitida yoshlarning huquqlarini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Yoshlar huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslari, ijtimoiy davlat konsepsiyasining mazmuni hamda yoshlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda yoshlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan institutsional va huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida yoshlar huquqlarini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ayrim ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, yoshlar huquqlari, yoshlar siyosati, ijtimoiy himoya, siyosiy ishtirok, inson huquqlari, institutsional mexanizmlar.

Kirish. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda yoshlar mamlakat taraqqiyotining muhim ijtimoiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Har qanday davlatning kelajakdagi barqaror rivojlanishi yosh avlodning bilim darajasi,

siyosiy faolligi, ijtimoiy mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasiga bog'liq. Shu sababli yoshlar huquqlarini ta'minlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ijtimoiy davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Ijtimoiy davlat" konsepsiyasi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning munosib turmush darajasini yaratish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ushbu modelda yoshlar alohida e'tibor talab qiladigan ijtimoiy guruh sifatida qaraladi. Chunki yoshlar jamiyatning innovatsion salohiyati, inson kapitali va siyosiy modernizatsiya jarayonlarining muhim subyekti hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar huquqlarini ta'minlash nafaqat milliy siyosatning, balki xalqaro hamkorlikning ham muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO va boshqa xalqaro institutlar yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan turli normativ hujjatlar hamda dasturlarni ishlab chiqmoqda.

Asosiy qism. Ijtimoiy davlat tushunchasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash va fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlarini himoya qilishdan iborat. Ijtimoiy davlat modeli fuqarolarning ta'lim olish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, mehnat qilish hamda ijtimoiy himoya olish huquqlarini kafolatlashga qaratilgan. Yoshlar huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqaro huquqiy hujjatlarda yoshlarning asosiy huquqlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- ta'lim olish huquqi;
- mehnat qilish huquqi;
- siyosiy hayotda ishtirok etish huquqi;
- axborot olish va fikr bildirish erkinligi;
- ijtimoiy himoya huquqi.

Yoshlarning ushbu huquqlarini ta'minlash ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki yoshlar jamiyatning eng faol va innovatsion qatlami bo'lib, ular davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Yoshlar huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bir qator xalqaro hujjatlar mavjud. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya hamda boshqa hujjatlar yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim huquqiy asosini tashkil etadi.

Shuningdek, BMT tomonidan ishlab chiqilgan World Programme of Action for Youth (Yoshlar uchun harakatlar dasturi) yoshlarning ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, siyosiy ishtirok va ijtimoiy integratsiya masalalarini qamrab oladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlar huquqlarini ta'minlash samarali davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy davlat sharoitida yoshlar huquqlarini himoya qilish bir qator institutsional mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Davlat tomonidan yoshlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va davlat dasturlari qabul qilinadi. Bunday hujjatlar yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ko'plab davlatlarda yoshlar bilan ishlashga ixtisoslashgan maxsus institutlar mavjud. Ushbu institutlar yoshlarning muammolarini o'rganish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda yoshlar siyosatini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar tashkilotlari va volontyorlik harakatlari yoshlar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu institutlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning manfaatlarini himoya qilish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi raqamli davrda yoshlar huquqlarini himoya qilishda yangi mexanizmlar paydo bo'lmoqda. Onlayn platformalar, elektron murojaatlar tizimi, raqamli maslahatlashuvlar hamda kraudsorsing mexanizmlari yoshlarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga imkon yaratmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar siyosatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan kompleks institutsional va huquqiy mexanizmlar shakllantirilmoqda. Yoshlar siyosatining huquqiy asosini bir qator normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirishning asosiy prinsiplari va mexanizmlarini belgilab beradi. Mazkur qonun yoshlarning ta'lim olish, mehnat qilish, ijtimoiy himoya hamda siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, mamlakatda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida qator davlat dasturlari va strategik hujjatlar qabul qilingan. Ushbu dasturlar yoshlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

O'zbekistonda yoshlar siyosatini amalga oshirishda institutsional mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yoshlar ishlari agentligi yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi asosiy davlat institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu agentlik yoshlarning muammolarini o'rganish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash hamda yoshlar siyosati sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, mamlakatda yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini kengaytirishga qaratilgan yangi institutlar ham shakllantirilgan. Jumladan, Yoshlar parlamenti yoshlarning davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtirokini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim platforma hisoblanadi. Ushbu institut yoshlarning qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish, ularning siyosiy madaniyatini oshirish hamda davlat va yoshlar o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yoshlar huquqlarini ta'minlash tizimida fuqarolik jamiyati institutlari ham muhim rol o'ynaydi. Turli nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar tashkilotlari hamda volontyorlik harakatlari yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning manfaatlarini himoya qilish hamda yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyat olib bormoqda.

Zamonaviy sharoitda yoshlar siyosatini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron murojaatlar tizimi, raqamli platformalar va onlayn maslahatlashuv mexanizmlari yoshlarning davlat organlari bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa yoshlarning davlat boshqaruvi jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirish hamda ularning muammolarini tezkor hal etishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda yoshlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan siyosat ijtimoiy davlat tamoyillariga asoslangan bo'lib, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan kompleks mexanizmlar tizimini o'z ichiga oladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy davlat sharoitida yoshlar huquqlarini ta'minlash jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yoshlar huquqlarini himoya qilish tizimi samarali ishlashi uchun davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro hamkorlik o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shuningdek, yoshlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan innovatsion mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar asosida yoshlarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish hamda yoshlar siyosatini takomillashtirish ijtimoiy davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son Farmoni "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida".

2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", 2016-yil 14-sentabr, O'RQ-406.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".

XITOIY OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA “DOUBLE FIRST-CLASS” TASHABBUSINING USTUVOR YO'NALISHLARI

*Diyorov Sardobek Husanboy o'g'li,
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash instituti
Boshqaruv ko'nikmalari va yetakchilik mahoratini
rivojlantirish kafedrası o'qituvchisi,*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoyda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida “Double First-Class” tashabbusining ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda fan yo'nalishlarini rivojlantirish, akademik kadrlar salohiyatini oshirish, ilmiy jamoalarni shakllantirish hamda universitetlarning o'ziga xos ilmiy ustunliklarini mustahkamlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur tashabbus doirasida universitetlar tomonidan ustuvor yo'nalishlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar misollar asosida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Double First-Class tashabbusi, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, jahon darajasidagi universitetlar, fan yo'nalishlarini rivojlantirish, akademik salohiyat, ilmiy jamoalar.

Kirish. “Double First-Class” tashabbusi doirasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda natijadorlikka asoslangan baholash mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturga ko'ra, 2020-yilgacha bir qator universitetlar va fan yo'nalishlarini jahon darajasiga olib chiqish, ayrim fan sohalarini esa dunyoda yetakchi darajaga yetkazish maqsad qilib belgilangan.

2030-yilga borib esa yanada ko'proq universitetlar va ilmiy yo'nalishlar xalqaro miqyosda yetakchi o'rinlarni egallashi hamda Xitoy oliy ta'lim tizimining global raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Natijada dunyodagi eng yaxshilar qatorida birinchi darajali universitetlar, fanlar soni va imkoniyatlari ortib borishi bilan Xitoy oliy ta'limi xalqaro kuchga aylanadi[1].

Mazkur siyosatni amalga oshirish maqsadida mamlakatdagi ko'plab universitetlar jahon darajasidagi oliy ta'lim muassasalariga aylanish bo'yicha o'z strategik rivojlanish rejalarini ishlab chiqdilar. Bu jarayonda fan yo'nalishlarini rivojlantirish, akademik kadrlar tayyorlash, ilmiy jamoalarni shakllantirish hamda universitetlarning o'ziga xos ilmiy yo'nalishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Fan yo'nalishlarini rivojlantirish. “Double First-Class” tashabbusida ustuvor yo'nalishlardan biri yetakchi fan sohalarini rivojlantirish hisoblanadi. Ayniqsa, milliy xavfsizlik va davlat manfaatlari bilan bog'liq strategik fan yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, yangi

paydo bo'layotgan fan sohalari hamda fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish orqali sanoat transformatsiyasini qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy rivojlanishga hissa qo'shish maqsad qilingan[2]. Bunda mavjud resurslarni samarali taqsimlash, universitetlarning o'ziga xos ilmiy ustunliklarini shakllantirish va oliy ta'lim tizimining umumiy sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashabbus doirasida ko'plab universitetlar fan yo'nalishlarini rivojlantirish strategiyalarini faol ravishda amalga oshirmoqda. Masalan, **Tsinghua universiteti**[3] muhandislik va texnologiya, tabiiy fanlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar hamda hayot fanlari kabi asosiy yo'nalishlarga asoslangan ko'p bosqichli fan tizimini shakllantirgan. Shuningdek, **Pekin universiteti** [4] bir nechta fanlararo ilmiy guruhlarini rivojlantirish orqali xalqaro darajadagi yetakchi fan yo'nalishlarini shakllantirishni maqsad qilgan. **Beijing Normal universiteti** [5] fundamental fanlar, ta'lim, ekologiya va innovatsiya kabi ustuvor yo'nalishlarga asoslangan fan guruhlarini rivojlantirish orqali jahon darajasidagi universitetga aylanishni rejalashtirmoqda.

Kadrlar tayyorlash va akademik salohiyatni rivojlantirish. Universitetlarning asosiy vazifalaridan biri yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'lib, bu **“Double First-Class” tashabbusining** ham eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot ko'proq inson kapitali, bilim va malakaga tayanadigan omilga aylanmoqda. Shu sababli universitetlar ta'limning asosiy maqsadi – bilimli, ma'naviy yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor qaratishi zarurligi ta'kidlanadi. Xitoy Ta'lim vaziri Chen Baoshengning ta'kidlashicha, “Double First-Class” tashabbusini amalga oshirish jarayonida universitetlar o'zlarining asosiy vazifalariga qaytishi, fundamental maqsadlariga sodiq qolishi hamda ma'naviy tarbiya va ta'lim jarayonlarini uyg'un holda rivojlantirishi zarur. Universitetlar eng iste'dodli yoshlarni saralab qabul qilishi va ularni har tomonlama yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalashi lozim[6].

Jahon darajasidagi universitetlarni shakllantirish uchun ta'lim jarayonini takomillashtirish, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish va talabalar salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda Xitoy universitetlari ta'lim mazmuni va o'qitish usullarini modernizatsiya qilish bo'yicha turli yondashuvlarni qo'llamoqda. Masalan, **Zhejiang universiteti**[7] ta'lim jarayonida axborot almashinuvi va resurslardan samarali foydalanishga asoslangan ochiq ta'lim tizimini joriy etishga intilmoqda. **Shanghai Jiao Tong universiteti**[8] esa ta'lim dasturlarining sifatini oshirish, innovatsiya va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda magistratura va doktorantura bosqichida ilmiy va amaliy salohiyatni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonlar natijasida xalqaro darajada raqobatbardosh, innovatsion fikrlashga ega va keng dunyoqarashli mutaxassislarni tayyorlash ko'zda tutilgan.

Akademik jamoalarni shakllantirish. Jahon darajasidagi universitetlarni barpo etishda kuchli akademik jamoalarni shakllantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida yuqori malakali professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar inson kapitalining muhim qismi bo'lib, ular nafaqat o'z fan yo'nalishlarining rivojlanishiga, balki boshqa ilmiy sohalarning taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, **Fudan universitetida** nanotexnologiya bo'yicha yetakchi mutaxassislarining jalb etilishi materialshunoslik, biologiya va muhandislik kabi fan yo'nalishlarining rivojlanishiga turtki bergan[9]. Shu sababli "Double First-Class" tashabbusi doirasida akademik kadrlar salohiyatini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Xitoy universitetlari jahon darajasidagi oliy ta'lim muassasalarini shakllantirish jarayonida akademik jamoalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, **Fudan universiteti** yuqori malakali yosh olimlarni jalb etishga qaratilgan "Extraordinary 2025" dasturini amalga oshirdi[10]. Shuningdek, **Beihang universiteti**[11] yetakchi ilmiy kadrlarni tayyorlash va jalb etishga qaratilgan maxsus dasturlarni yo'lga qo'ygan. **Renmin universiteti**[12] esa yosh va o'rta avlod olimlarini qo'llab-quvvatlash orqali kelajakda fan yo'nalishlari yetakchilarini shakllantirishni maqsad qilgan. Ushbu chora-tadbirlar Xitoy universitetlarida ilmiy salohiyatni mustahkamlash va global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Fan yo'nalishlarining o'ziga xosligini takomillashtiris. "Double First-Class" tashabbusining muhim maqsadlaridan biri jahon darajasidagi oliy ta'lim tizimini shakllantirish bilan bir qatorda Xitoyga xos ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur tashabbus faqat xorijiy universitetlar tajribasini takrorlashga emas, balki xalqaro tajribani hisobga olgan holda milliy xususiyatlarga asoslangan ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, Xitoy oliy ta'lim siyosati jahon darajasidagi universitetlar bilan parallel rivojlanishni ta'minlash bilan birga, milliy ilmiy an'ana va xususiyatlarni saqlab qolishni maqsad qiladi.

Xitoy rahbariyati ham universitetlarning rivojlanishida milliy xususiyatlarga tayanish muhimligini ta'kidlab kelmoqda. Bu yondashuvga ko'ra, universitetlar boshqa mamlakatlar tajribasini ko'r-ko'rona takrorlash o'rniga o'ziga xos ilmiy yo'nalishlarini rivojlantirishi lozim. Shu sababli ko'plab universitetlar o'zlarining ustuvor fan sohaslarini rivojlantirish orqali xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga intilmoqda. Masalan, **Beijing Normal universiteti**[13] pedagogika sohasida yetakchi ilmiy markazga aylanishni maqsad qilgan bo'lsa, **Nanjing University of Information Science and Technology**[14] meteorologiya yo'nalishini rivojlantirish orqali xalqaro ilmiy markaz sifatida shakllanishni ko'zlamoqda. Shu kabi yondashuvlar Xitoy oliy ta'lim tizimida milliy xususiyatlarga ega va global miqyosda raqobatbardosh ilmiy yo'nalishlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. "Double First-Class" tashabbusi Xitoy oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim strategik siyosat sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu

tashabbus doirasida fan yo‘nalishlarini rivojlantirish, akademik kadrlar salohiyatini oshirish, ilmiy jamoalarni shakllantirish hamda universitetlarning o‘ziga xos ilmiy ustunliklarini kuchaytirish muhim yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirish universitetlar faoliyatini samarali tashkil etish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur siyosat natijasida Xitoy oliy ta’lim tizimi global ta’lim makonida yetakchi o‘rinlarni egallashga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. The State Council of the People’s Republic of China. (2015, October 24). Notice of the State Council on issuing the overall plan for coordinately advancing the construction of world first-class universities and first-class disciplines. Retrieved from [http:// www.gov.cn/zhengce/content/2015-11/05/content_10269.htm](http://www.gov.cn/zhengce/content/2015-11/05/content_10269.htm).
2. Ministry of Education, Ministry of Finance, & the National Development and Reform Commission. (2017, January 25). Notice of on issuing the implementation measures to coordinate the construction of world-class universities and first-class disciplines (Provisional). Retrieved from http://www.moe.gov.cn/srcsite/A22/moe_843/201701/t20170125_295701.html.
3. Tsinghua University. (2017, December 29). Construction plan for building world-class university.
4. University Peking. (2017, December 28). Notice of Peking University on issuing the construction plan for building world-class university (concise edition). Retrieved from http://pkunews.pku.edu.cn/xwzh/2017-12/28/content_300847.htm.
5. Beijing Normal University. (2017, December 29). The construction plan for building world-class university.
6. Sohu. (2016, October 18). Chen Baosheng: The implementation of Double First-Class Initiative should do four “returns”. Retrieved from http://www.sohu.com/a/116454957_171825.
7. Zhejiang University. (2017, December 31). Construction plan for building world-class university.
8. Shanghai Jiao Tong University. (2017, December 27). The construction plan for building world-class university. Retrieved from <http://gk.sjtu.edu.cn/Assets/userfiles/syspdf>.
9. Zhang W. , & Zhang M.C. (2018). Intercollegiate experience in the construction of the first-class universities in China: Based on the text analysis of 6 first-class universities’ construction policies. China Higher Education Research , (5), 26–31.
10. Guangming Daily. (2017, August 24). Pursuing the world-class “Fudan Dream” with Chinese characteristics. Retrieved from http://epaper.gmw.cn/gmrb/html/2017-08/24/nw.D110000gmrb_20170824_1-05.htm?div=-1.
11. Beihang University. (2017, December 28). The construction plan of Beihang University for building world-class university was officially issued (concise edition).

12. Renmin University of China. (2017, December 28). Construction plan for building world-class university.

13. Beijing Normal University. (2017, December 29). The construction plan for building world-class university. Retrieved from <http://xxgk.bnu.edu.cn/docs/20171231160833038183.pdf>.

14. Nanjing University of Information Science and Technology. (2017, December 28). The construction plan for building world-class university.

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK- DEMOKRATIK JAMIYATNING ASOSIY TAMOIYILI

Yusupova Sabohat

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik demokratik jamiyatning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda turli millat va etnik guruhlarining bir-birini hurmat qilishi, diniy, madaniy va ijtimoiy farqlarga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lishi, ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning kafolatidir. Ushbu maqolada millatlararo totuvlikning jamiyat hayotidagi o'rni, demokratik qadriyatlar bilan uyg'unligi va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bag'rikenglikni shakllantirishdagi ta'lim, madaniyat va qonuniy me'yorlarning roli muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, demokratik jamiyat, ijtimoiy barqarorlik, madaniy hamkorlik, qadriyatlar.

Bugungi globalizatsiya davrida jamiyatlar turli millat, etnik guruh va diniy qarashlarga ega insonlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun demokratik jamiyatlarda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash asosiy tamoyil hisoblanadi.

Keyingi yillarda davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Totuvlik – bu turli guruhlar o'rtasida do'stona va hurmatga asoslangan munosabatlarni o'rnatishdir [1]. Bag'rikenglik esa farq va xilma-xillikni qadrlash, kamsitmaslik va o'zaro yordamni nazarda tutadi [2].

Demokratik jamiyatning barqarorligi asosan fuqarolarning o'zaro hurmati va hamkorligiga bog'liq. Millatlararo totuvlik, inson huquqlarini hurmat qilish va teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi [3]. Masalan, ta'lim va madaniyat orqali turli millatlar va etnik

guruhlar bir-birini tushunishga o'rganadi, stereotiplar va kamsitish holatlari kamayadi [4].

Konstitutsiyamizning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekani mustahkamlangani barobarida, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi qayd etilgan. Shu asosda hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilayotgani, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilayotgani, tele-radio ko'rsatuvlari va eshittirishlari esa 12 tilda efirga uzatilayotgani juda muhimdir.

Bosh Qomusimizning 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi» degan norma belgilab qo'yilgan. Ana shu konstitutsiyaviy talabdan kelib chiqib, o'z taqdirini O'zbekiston bilan bog'lagan, mamlakatimiz farovonligi yo'lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz fuqaroligiga qabul qilish, chegara munosabatlarini tartibga solib, og'a-ini, qardosh-birodar bo'lib yashagan xalqlarning azaliy munosabatlarini qayta tiklash, uysizlarga uy berib, muhtojlarga muruvvat ko'rsatish, davlat idoralarini to'la-to'kis xalq uchun xizmat qildirish kabi uzoq yillar davomida o'z yechimini kutgan bunday og'riqli muammolarni hal etish oson kechgani yo'q. Tabiiyki, bularning barchasi – yuksak aql-idrok, donishmandlik, oqilona siyosat, fidoyilik va matonat mahsuli.

Shuningdek, qonuniy me'yorlar ham bag'rikenglikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Milliy va xalqaro huquq normalari, millatlararo nizolarni oldini olish, ijtimoiy moslashuvni rag'batlantirishga xizmat qiladi [5]. Shu tarzda, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik demokratik jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy tinchlik va taraqqiyotining poydevorini tashkil qiladi [6].

Demokratik qadriyatlar asosida shakllangan jamiyatlarda har bir fuqaroga o'z millati, dini va madaniyatiga qarab teng huquqlar beriladi [7]. Bu esa nafaqat ijtimoiy birdamlikni, balki mamlakatning ichki va tashqi siyosiy barqarorligini ham mustahkamlaydi [8].

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 15 noyabrdagi farmoni asosida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish va yanada takomillashtirishga doir eng muhim vazifalar belgilab berildi. Bu istiqbolli vazifalar 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari doirasida amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Birinchidan, millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Ikkinchidan, Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontsepsiyasi tasdiqlandi.

Uchinchidan, 2019–2021 yillarda Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi.

Bugungi kunda mazkur Kontsepsiya va “Yo'l xaritasi”ning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi izchil shug'ullanmoqda. Bunda Prezidentimiz Farmoni doirasida ushbu Qo'mitaning tuzilmasi yanada takomillashtirilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Jamiatimizda do'stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash, hech shubhasiz, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma'naviy sohalarda shiddatli islohotlarni izchil amalga oshirish hamda xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi. Bu hayotiy haqiqat amalda o'z tasdig'ini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyev, R. (2019). Millatlararo munosabatlar va totuvlik. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 45-bet.

2. Karimov, T. (2020). Bag'rikenglik va ijtimoiy integratsiya. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 32-bet.

3. United Nations. (2015). Human Rights and Social Justice in Democratic Societies. New York: UN Publications.

4. Bekmurodov, S. (2018). “Ta'lim orqali madaniy bag'rikenglikni oshirish”, *Pedagogika va Jamiyat*, 5(3), 12–19.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). Toshkent, 16-modda.

6. Smith, J. (2017). Social Cohesion in Multiethnic Societies. London: Routledge.

UNESCO. (2016). Promoting Tolerance and Understanding in Education. Paris: UNESCO Publications.

7. Haque, M. (2018). “Democracy and Ethnic Diversity: Global Perspectives”, *Journal of Political Studies*, 12(2), 77–90.

IJTIMOIIY DAVLAT SHAROITIDA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA IJTIMOIIY ONGNING RIVOJLANISHI

Nasridinov Yigitali Boratalievich

NamDU, Fuqarolik, jinoyat huquqi va protsess kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy ongga ta'siri va uning jamiyat taraqqiyotidagi falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, bilim va axborotning jamiyat rivojlanishidagi asosiy resursga

aylanishi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, inson kapitali, raqamli tafovut va axborot tengsizligi kabi masalalar muhokama qilinadi.

Kalit soʻzlar. axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy ong, falsafiy tahlil, inson kapitali, raqamli tafovut, bilim iqtisodiyoti, taraqqiyot.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi – axborotlashgan jamiyat shakllanmoqda. Bunday jamiyatda axborot va bilim ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning asosiy omiliga aylanib, jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida ijtimoiy munosabatlar, kommunikatsiya shakllari va inson tafakkuri tubdan oʻzgarib bormoqda. Shu bois axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy ongga taʼsirini falsafiy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Milliy munosabatlarda oʻtmish va ijtimoiy xotira saqlovxonalaridan siyosiy maqsadlarda foydalanish, etnik ongning transformatsiyasi, mahalliy nizolardan tortib urushlargacha, diniy, eʼtiqodiy qarama-qarshiliklardan tortib diniy ekstremizm va terrorizmgacha boʻlgan hatti-harakatlarni amalga oshirishda foydalanilmoqda, qolaversa, migratsiya munosabatlarining avj olishi, assimilyatsiya hodisalarining oʻsib borishi, xalqaro hamjamiyatlarda millatlarning oʻz manfaatlarini himoya qilish hamda madaniy identifikatsiyani saqlab qolishni taqozo etmoqda. Axborotlashgan jamiyatning keng taraqqiy etishi millat va xalqlar oʻrtasidagi integratsiya jarayonlarini yuksaltirishi barobarida xalqlarning oʻz tarixiy makondagi asoslarini bilishga boʻlgan intilishlarini kuchaytirib kishilarda milliy qadriyatlarni saqlash, jamiyatda ijtimoiy xotirani mustahkamlash, tarixiy oʻzlikni bilishga boʻlgan intilishlarini qondirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Axborotlashgan jamiyat – bu axborotni ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ulardan foydalanish jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida markaziy oʻrin egallagan tizim sifatida taʼriflanadi. Daniel Bell (1973) kabi sotsiologlar axborot jamiyatini postindustrial jamiyatning muhim bosqichi sifatida tasniflagan boʻlib, unda xizmat koʻrsatish sohasi va bilim iqtisodiyoti ustunlik qiladi. Manuel Kastels esa “Tarmoq jamiyati” (1996) konsepsiyasida axborot texnologiyalari global tarmoqlar orqali ijtimoiy tuzilmalarni qayta shakllantirishini taʼkidlaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan, axborotlashgan jamiyat nafaqat texnologik, balki ontologik va epistemologik oʻzgarishlarni ham talab qiladi. Axborotning cheksiz oqimi inson ongini, uning dunyoqarashini va oʻzini oʻzi idrok etishini oʻzgartiradi. Bu jarayon ijtimoiy ongning yangi shakllarini vujudga keltirib, individual va kollektiv identiklikni qayta belgilaydi.

Ijtimoiy ong jamiyat aʼzolarining umumiy qadriyatlar, eʼtiqodlar va bilimlar majmuasi sifatida taʼriflanadi. Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy ongning shakllanishi axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning taʼsirida sodir boʻladi.

Axborotlashgan jamiyat – bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichi bo‘lib, unda axborot ishlab chiqarish, saqlash va uzatish asosiy faoliyat sohasiga aylanadi. Bu atama avvalambor D. Bell, M. Kastels, Y. Masuda, P. Druker kabi tadqiqotchilar tomonidan nazariy asoslangan. D. Bellning postindustrial jamiyat modeli bilim va xizmatlar ustuvorligini ko‘rsatadi, M. Kastels esa axborot tarmoqlari orqali ijtimoiy tuzilmaning global transformatsiyasini tahlil qiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, axborotlashgan jamiyat ontologik va epistemologik muammolarni ilgari suradi: axborotning haqiqatga nisbati, raqamli haqiqat va virtual tafakkurning ijtimoiy ongga ta’siri kabi masalalar zamonaviy falsafaning markaziga chiqmoqda.

Inson - bu tabiatning super mukammal mahsuli, uning etik ongi va atrofi zamonaviy jamiyatning belg'isi sifatida o'zini namoyon etadi. Insonni inson qilayotgan xususiyatlar, ma'lumotlar va ma'naviyatning zamonaviy o'zgarishlari bilan bog'liq. Insonning ongi odamning rostligini, uning faoliyati va taassuriyatini tushuntiradi. Insonning ongi idora qiladigan faoliyat endi faqat oddiy qo‘l mehnati emas, balki fan va san’atni ham yaratishiga bo‘lgan ishonch yuksalib bordi. Demak, «taraqqiy qilayotgan fan-texnika insonlar ongining o‘shisha, ularning ma’naviy qiyofasiga, tafakkuriga ta’sir etdi»[1].

Insonning ongi haqida tushuntirilgan fikrlar, insonning tabiatiga, uning ijtimoiy, ma'naviy va intellektual potentsialiga e'tibor qaratadi. Insonning ongi haqida tahlil va tasavvurlar, insonning uning tabiatiga, jamiyatga va dunyoga ta'siri, uning o'zini tushunish va o'zini ifodalash shakllariga oid asosiy mavzularni o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalari nafaqat iqtisodiy tizimni, balki inson tafakkuri va dunyoqarashini ham o‘zgartirmoqda. Ijtimoiy ong – bu jamiyat a’zolarining jamoaviy fikrlash uslubi, qadriyatlar tizimi va madaniy identitetning majmuasi. Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy ong quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Axborot oqimlarining haddan ortiq ko‘pligi natijasida ong bo‘linadi, yaxlit dunyoqarash shakllanishi murakkablashadi.

Raqamli makon ongning asosiy shakllanish platformasiga aylanadi, natijada haqiqat va simulyakrlik o‘rtasidagi chiziqli yo‘qoladi (J. Bodriyar).

Tafakkur tezkor axborotga asoslangan bo‘lib, chuqur mulohaza jarayonlari zaiflashadi.

Bu holatlar axborot bilan ishlash madaniyatini va tanqidiy tafakkur kompetensiyalarini shakllantirish zaruriyatini tug‘diradi.

Axborotlashgan jamiyatda taraqqiyot tushunchasi falsafiy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqilishi lozim. An’anaviy ravishda taraqqiyot iqtisodiy o‘shish, texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy farovonlik bilan bog‘liq bo‘lgan. Biroq, axborot jamiyati bu tushunchani kengaytiradi va yangi falsafiy savollarni keltirib chiqaradi.

1. Axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotini tezlash tiradi, ammo bu jarayon inson erkinligiga qanday ta’sir qiladi? Marshall Maklyuxan (1964) “vositalar xabar bo‘lib xizmat qiladi” degan fikrni ilgari surib,

texnologiyalarning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi rolini ta'kidlagan. Axborot jamiyatida texnologik determinizm insonning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini cheklashi mumkin.

2. Axborot jamiyatida bilim va axborotga kirish imkoniyati teng taqsimlanmagan. Bu "raqamli bo'linish" muammosini keltirib chiqaradi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat adolat va tenglik tamoyillari nuqtai nazaridan muhokama qilinishi kerak.

3. Axborot jamiyatida taraqqiyot faqat texnologik yutuqlarga qarab baholanmasligi, balki insonning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga xizmat qilishi lozim. Fransis Fukuyamaning "Tarixning oxiri va oxirgi odam" asarida ta'kidlanishicha, axborot jamiyati insoniyatni yangi maqsadlarga yo'naltirishi, lekin bu maqsadlar insonning o'ziga xos qadriyatlariga mos kelishi kerak.

O'tmish hozirgi va kelajak voqea- hodisalarining inson ongida o'zaro to'qnashuvini sodir etishi bilan birga insondagi tarixiy tafakkurning asl mohiyatini ochib beruvchi bilim sohasi sifatida o'rta chiqadi. Bunda tarixiy haqiqat namoyon bo'ladi va shuni aytish kerakki, falsafiy-tarixiy adabiyotlarda «tarixiy haqiqat deb haqiqiy tarixiy (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy) voqelikka aytiladi»[2].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy ong o'zgaruvchan, dinamik va kompleks tizimga aylanmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon tafakkur, bilim, madaniyat va qadriyatlarning yangi paradigmasini shakllantirishga olib keladi. Taraqqiyot endi faqat moddiy emas, balki ma'naviy-axboriy mezonlar asosida baholanadi. Shu bois, axborotlashgan jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, raqamli tafakkurni shakllantirish va ijtimoiy ongning yangi shakllarini chuqur o'rganish bugungi falsafaning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Axborotlashgan jamiyat falsafiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bir tomondan, axborotning erkin oqimi bilim va ijodkorlikni rivojlantirsa, boshqa tomondan, axborot manipulyatsiyasi, maxfiylik muammolari va raqamli nazorat kabi masalalar inson erkinligiga tahdid soladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu muammolar insonning o'z-o'zini anglash va jamiyatning kelajagiga ta'sir qiladi.

Kelajakda axborotlashgan jamiyat yanada rivojlanishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va blokcheyn texnologiyalari ijtimoiy ongni yanada o'zgartiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon insoniyatning ma'naviy va axloqiy mas'uliyatini oshiradi. Axborot jamiyati nafaqat texnologik, balki insoniy qadriyatlar va maqsadlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Bunda kishilar tarixiy ongi ijtimoiy xotiraning davomiyligini ta'minlovchi omil sifatida jamiyatning yetuk ongini belgilab beruvchi ijtimoiy ong shaklidir. Ijtimoiy ong shakllari ijtimoiy munosabatlar negizida va jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi. Masalan, siyosiy ong – «siyosiy guruhlar, davlatlar, xalqlar, millatlar va elatlarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan siyosiy munosabatlarini aks ettiruvchi siyosiy tasavvur va tushunchalar, g'oyalar va qarashlardan umumlashgan tizimi»[3] hisoblansa, huquqiy ong – huquqiy

munosabatlarni tartibga soladi. Axborotlashgan jamiyat ijtimoiy ong va taraqqiyot nuqtai nazaridan yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jamiyatda axborotning roli, shaxslarning va jamiyatlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ongning o'zgarishi, axborotlashuv jarayonlarining natijasi bo'lib, bu, o'z navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishiga olib keladi. Falsafiy qarashlar, axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborotlashgan jamiyat zamonaviy taraqqiyotning muhim bosqichi bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Axborot va bilim jamiyat rivojlanishining asosiy resursiga aylanishi natijasida ijtimoiy munosabatlar, tafakkur tizimi hamda inson faoliyatining shakllari yangi mazmun kasb etmoqda. Bu jarayon jamiyatda innovatsion rivojlanish, bilim iqtisodiyoti va inson kapitalining o'sishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi ijtimoiy hayotda yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli tafovut, axborot tengsizligi va axborot xavfsizligi kabi masalalar zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot madaniyatini rivojlantirish, axborotdan ongli va samarali foydalanish hamda ijtimoiy ongni mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Demak, axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy ongni rivojlantirish, bilim va axborotdan oqilona foydalanish hamda inson kapitalini rivojlantirish jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Умумий психология: Педагогика ва психология бакалавриат таълим йўналиши талабалари учун дарслик. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. -Б.186.

2. Барг М.А. Исторический факт: структура, форма, содержание // История СССР. – 1976. – № 6. – С. 56-69.

3. Фалсафа. –Т.: Ўқитувчи. 2005. – Б. 204.

4. Содиржонов М. Yoshlar kundalik hayotining virtuallashuv sabablari va omillari (sotsiologik tahlil) //in Library. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 36-40.

5. Мухриддин Содирджонов Значение национальных и этносоциальных процессов в социологическом исследовании человеческого капитала // ОИИ. 2021. №5/S.: <https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-natsionalnyh-i-etnosotsialnyh-protssesov-v-sotsiologicheskom-issledovanii-chelovecheskogo-kapitala> (дата обращения: 21.05.2025).

6. Sodirjonov M. M. On the coverage of ethnic processes in the information space //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). 2020. –Т. 9. –№. 6. С. 165-171.

IJTIMOIIY DAVLAT KONSEPSIYASIDA INSON HUQUQLARI VA JAMIYAT SIYOSIY HAYOTIDA MA'NAVY QADRIYATLARNING ROLI

Sevara G'ayratovna RAXIMOVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy asoslari, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashdagi o'rni hamda jamiyat siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda demokratik jamiyat rivojida inson huquqlari, ijtimoiy adolat va fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida ma'naviy qadriyatlarni asrash, fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyatini rivojlantirish hamda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, inson huquqlari, ma'naviy qadriyatlar, siyosiy madaniyat, demokratiya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat.

Zamonaviy demokratik jamiyat rivojida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Inson huquqlarining himoya qilinishi jamiyatda barqarorlik, adolat va ijtimoiy tenglikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy siyosiy-huquqiy nazariyada ijtimoiy davlat konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-huquqiy davlat, shuningdek, shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga, ularning qonuniy vakillikni amalga oshirishni ta'minlashga, kamsitish yoki adolatsizlik holatlarini qoplash mexanizmlarini ta'minlashga yordam beradi. Bu qonun ustuvorligini mustahkamlashga, fuqarolarning faolligi va ishtiroki madaniyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishdan iboratdir. Mazkur konsepsiya davlat siyosatining markazida inson manfaatlari turishini nazarda tutadi.

Bizga ma'lumki, ijtimoiy, demokratik huquqiy davlat umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, tenglik va adolat tamoyillarini o'zida namayon etadigan siyosiy-huquqiy tashkilot hisoblanadi. Shu ma'noda, ijtimoiy, demokratik huquqiy davlatning ustuvor vazifalari sifatida fuqarolik jamiyatida sog'lom, huquqiy barqaror muhit yaratish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli bir tarzda qo'llab-quvvatlash, aholi o'rtasida ijtimoiy muhtojlik va kambag'allikni qisqartirish, inson va fuqarolarning huquqlaridan foydalanishlarida, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarini huquqni qo'llash borasida huquqiy ustuvorlik prinsipini kafolatlash, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlash kabilarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Shu bilan birga jamiyat siyosiy hayotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan ma'naviy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir. Ma'naviy qadriyatlar

fuqarolarning siyosiy madaniyatini shakllantirish, ularning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish hamda demokratik jarayonlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy asoslari nimalardan iborat? Ijtimoiy davlat tushunchasi siyosiy va huquqiy fanlarda davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini ifodalovchi muhim nazariy kategoriya hisoblanadi. Ushbu tushuncha XX asrning ikkinchi yarmida keng rivojlandi va bugungi kunda demokratik davlatlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillari inson huquqlarining ustuvorligi, ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik kabilardan iborat.

Turli mamlakatlar yoki mintaqalardagi ijtimoiy-huquqiy davlatni tahlil qilish uchun qiyosiy yondashuvdan foydalanish ijtimoiy-huquqiy siyosatni amalga oshirish modellari va yondashuvlarining xilma-xilligi haqida qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Turli huquqiy tizimlar va ularning fuqarolik jamiyatiga ta'sirini solishtirish ilg'or tajribalar va takomillashtirishning potensial yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Ijtimoiy-huquqiy davlat konsepsiyasini va uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi rolini o'rganish usullari, metodologiyasi va tadqiqot obyektlarini tanlash tadqiqot maqsadlariga, tadqiqot savollarining mohiyatiga va o'rganilayotgan o'ziga xos konkestga asoslanadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ijtimoiy davlat fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarini ta'minlash orqali jamiyatda barqaror rivojlanish uchun sharoit yaratadi.

Huquqshunos olim Sh.A.Sadullayevning ta'kidlashicha, huquqiy davlat - bu huquqiy asosda tashkil topadigan va jamiyat hayotining barcha sohalarida huquq ustuvorlik qiladigan davlat. Huquqiy davlat ayni paytda huquq ustunligi ta'minlangan, hokimiyatni taqsimlash prinsipi izchil amalga oshirilgan, shuningdek inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari tan olingan va kafolatlangan demokratik davlat hamdir.

Ijtimoiy-huquqiy davlatchilik g'oyasining bosh maqsadi jamiyatda huquq ustuvorligini kafolatlash sanaladi. Huquq ustuvorligini ta'minlash asosida ijtimoiy tengsizlik holatlarini imkon qadar bartaraf etish mumkin bo'ladi. Ya'ni, inson huquqlarini ta'minlash natijasida huquq ustuvorligining poydevori hisoblangan qonun ustuvorligiga erishish mumkin.

A.V.Malkoning fikr bildirishicha, turli darajadagi huquqbuzarliklar va qonunsiz hatti-harakatlarning oldini olish bo'yicha qonunchilik ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatiga ega bo'lgan davlat huquqiy davlatdir.

Mazkur fikr bo'yicha mulohaza yuritganda aytib o'tish o'rinli bo'ladiki, turli darajadagi huquqbuzarliklarni bartaraf etishda qonun ustuvorligini ta'minlagan davlat huquqiy davlatdir degan fikrni u darajada to'liq qo'llab

quvvatlab bo'lmaydi. Boisi, ijtimoiy-huquqiy davlat konsepsiyasining bosh g'oyasi inson huquqlari, erkinliklari va ularning qonuniy manfaatlarini ifoda etishda qonun ustuvorligini kafolatlashni nazarda tutadi. Aytmoqchi bo'lganimiz, ushbu fikrda huquqiy davlatning birgina huquqbuzarliklarni bartaraf etish bilan bog'liq jihati tahlil etilgan. Huquqiy davlatning belgilari sifatida baholanadigan teng huquqlilikning ta'minlanishi, davlat hokimiyati organlari vakolatlarining taqsimlanishi, sud hokimiyatining mustaqilligi kabi jihatlar inobatga olinmagan.v

Inson huquqlarini ta'minlashning ahamiyati Inson huquqlari har qanday demokratik jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlarining ta'minlanishi shaxs erkinligi va jamiyat barqarorligining muhim omilidir.

Ijtimoiy davlat sharoitida inson huquqlarini ta'minlash siyosiy huquqlarni kafolatlash, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoya qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, inson huquqlarining samarali himoyasi jamiyatda siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jamiyat siyosiy hayotida ma'naviy qadriyatlarning roli beqiyos. Jamiyat siyosiy hayotida ma'naviy qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Chunki ma'naviy qadriyatlar fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirishda, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy davlat, aholi uchun munosib turmush tarzini yaratishga xizmat qiladigan, ijtimoiy tengsizlik holatlarini muayyan davlat islohotlari yordamida bartaraf eta oladigan, davlat boshqaruvida qonuniylik va ijtimoiy adolat prinsipiga asoslanadigan davlat modelidir. Ushbu model aholi uchun iste'mol savatchasi darajasi hamda miqdorini aniq belgilash, aholi bandligini kafolatlash, inson va fuqarolarni munosib ish haqi bilan ta'minlash, adolatli mehnat sharoitlarini yaratish, aholini ishsizlikdan himoya qilish, aholi o'rtasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan strategiyalarga ega bo'lish, yoshlarni sifatli ta'lim bilan qamrab olishni yo'lga qo'yish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari ko'lamini yanada kengaytirish kabi maqsad hamda vazifalar bilan xarakterli hisoblanadi. Bu masalada O'zbekiston Respublikasi ham bir qator ijobiy islohotlarni amalga oshirganini ko'rish mumkin. Jumladan, -Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, monomarkazlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, inson va fuqarolarni tizimli ijtimoiy himoya qilish maqsadida, yoshlar, ayollar, temir daftarlar mexanizmlari ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq qilindi.

Ma'naviy qadriyatlar fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, siyosiy madaniyatni rivojlantirish, jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, demokratik qadriyatlarni qaror toptirish singari vazifalarni bajaradi. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlar jamiyatda adolat va halollik

tamoyillarini mustahkamlash orqali siyosiy tizimning barqaror faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy davlat rivojlanishi. Bugungi globallashuv jarayonlari davlat va jamiyat rivojlanishiga yangi talablar qo'yimoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, global iqtisodiy jarayonlar va madaniy almashinuv ijtimoiy davlat konsepsiyasini ham yangi sharoitlarga moslashtirishni talab etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan inson huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini rivojlantirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, milliy ma'naviy qadriyatlarni asrash, yoshlarning siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar muhim hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, aynan ushbu omillar jamiyat siyosiy hayotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy davlat konsepsiyasi inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan siyosiy-huquqiy tizimni ifodalaydi. Mazkur tizim fuqarolarning munosib hayot darajasini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyat siyosiy hayotida ma'naviy qadriyatlarning rivojlanishi esa demokratik jarayonlarning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ijtimoiy davlat qurilishida inson qadri, adolat va erkinlik tamoyillarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi prezidentining Konstitutsiyamizning 29 yilligida so'zlagan nutqi. 07.12.2021.
2. Almond G., Verba S. The Civic Culture. Princeton University Press, 1963.
3. Beetham D. Democracy and Human Rights. Polity Press, 1999.
4. Donnelly J. Universal Human Rights in Theory and Practice. Cornell University Press, 2013.
5. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. Princeton University Press, 1990.
6. Inglehart R. Culture Shift in Advanced Industrial Society. Princeton University Press, 1990.
7. Malko A. V. Pravovoe gosudarstvo // Pravovedenie, 1997. 40-S.
8. Marshall T. Citizenship and Social Class. Cambridge University Press, 1950.
9. Mishra R. The Welfare State in Crisis. Harvester Press, 1984.
10. Offe C. Contradictions of the Welfare State. London, 1984.
11. Putnam R. Making Democracy Work. Princeton University Press, 1993.
12. Sen A. Development as Freedom. Oxford University Press, 1999.
13. Sh.A. SAYDULLAEV. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYu, 2021. -B. 237.

MADANIYATLARARO MULOQOT KATEGORIYASI TAHLILNING NAZARIY-FALSAFIY ASOSI

Dulanboyeva Oygul

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Isomiddinova Iroda

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyatlararo muloqot tushunchasining kontseptual tahlili ochib beriladi. Shu bilan birga ushbu tushunchaning turli falsafiy nazariy yondashuvlarga ko'ra tavsiflari, ularning umumiy va farqli tomonlariga ham diqqat qaratiladi. Qolaversa, madaniyatlararo aloqa tushunchasiga nisbatan uyg'onish davri hamda gerменеftik nazariyalarning ham ta'siri ilmiy xulosalar orqali ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar. Madaniyat, kommunikatsiya, aloqa, dixotomiya, sotsiomadaniyat, status, ijtimoiy jarayon.

Ma'lumki, madaniyatlararo muloqot muammosi: "matn", "interpretatsiya", tushuntirish", "tushunish" kabi kategoriyalar bilan qayd etiladi[1]. Ushbu tushunchalarning eksplikatsiyasi tushunuvchan sotsiologiya, gerменевtik falsafa, strukturalizm kabi bevosita tushunish muammosini o'rganuvchi bir qator falsafiy kontseptsiyalarni o'zida mujassamlashtirgan gerменевtik doirada amalga oshiriladi. Bu ma'noda "matn" tushunchasi - sotsiomadaniy aloqadorlik muammosi va gerменевtikani bog'lovchi asosiy tushuncha sanaladi, chunki, sotsial muloqot, eng avvalo, harakatlar almashinuvi hamda matnlar interpretatsiyasi yoki matnlar harakati sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda subyektning matnni tushuna olish layoqati muhim ahamiyatga ega. Mazkur qarash lingvosotsiopsixologik yoki, semiosotsiopsixologik yondashuv deya nomlanadi. Ushbu yondashuv sotsial kommunikatsiyani bir tomondan, ijtimoiy subyektlarning o'zaro ta'sirini ta'minlashga, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor modellarini ishlab chiqishga qaratilgan universal sotsiomadaniy mexanizm sifatida o'rganishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, kishilarning muammoli vaziyatlarda amalga oshiradigan intentsional, muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida tadqiq etishga yo'l ochadi[2].

Semiosotsiopsixologik yondashuv tarafdorlari "matn-interpretatori" tipidagi kommunikativ tizimga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu tizimda matn muallifi va uning interpretatorlarining roli uzluksiz almashinib turadi. Mazkur soha doirasida matnlarning informativ-pragmativ talqiniy xususiyatlarini o'rganish usullari, shuningdek, sheriklarning o'zaro munosabat jarayonida intellektual muloqotga kirisha olish kabi shaxsiy qobiliyatlari o'rganiladi. Bu esa, o'z navbatida kommunikativ muammolarni nutq faoliyatining mexanizm, shakl, strukturalari bilan emas balki, sotsiomadaniy muhitda faqat

kommunikatsiya yordamida shakllanuvchi va faollashuvchi, inson ongining o'ziga xos holatini namoyon etuvchi: ijodiylik, intuitsiya, intellektuallik kabi qobiliyatlar bilan hal etishga imkon beruvchi yangi kontseptual apparatni yuzaga keltirdi[3].

Ushbu paradigma doirasida kommunikatsiya jamiyatdagi sotsio-madaniy muxitning barcha soxa va darajalarida mavjud, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy mexanizmi sifatida baholanadi. Bu ma'noda kommunikativ bilish jarayoni matnlarning vujudga kelishi va interpretatsiyasi natijasida paydo bo'ladi. Kommunikativ bilish faoliyat esa, moddiy, amaliy faoliyat bilan ham, ba'zan identifikatsiyalashgan, o'z motivlari natijasi, oqibatiga ega mustaqil faoliyat sifatida ham namoyon bo'ladi[4]. Falsafiy nuqtai nazardan madaniyatlararo kommunikatsiya nafaqat turli madaniyatlar, millatlar, etnoslar, davlatlar o'rtasidagi pragmatik muammolarni hal etishga qaratilgan ijtimoiy taqazolangan hodisa sifatida balki, madaniyatlarni o'z-o'zini rivojlantirishning muhim mexanizmi, ularning vorisiyligini ta'minlovchi omil hamda muloqot jarayoni sifatida ham baholanadi. Kommunikatsiya jarayonida har bir sherik o'zining individualligi va mohiyatini anglab boradi[5]. Madaniyatlarning o'zaro bir-birini boyitishga qaratilgan muloqoti ularning rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu xol ularning chuqur ildizlarini anglashga, o'z noyobligini, o'ziga xosligini, bilishga imkon yaratadi. Mazkur jarayonlar esa, olamni, inson hayoti ma'nosini anglashga qaratilgan turli dunyoqarashlar, bilimlar, ideallar qadriyat va me'yorlarning o'zaro ta'siri, ya'ni ijtimoiy kommunikatsiya doirasida amalga oshadi.

Madaniyatlararo kommunikatsiyaning ijtimoiy-integrativ funksiyasi ijtimoiy munosabatlarni keltirib chiqaruvchi, sheriklik va muloqotga yo'nalgan bo'lib, u sotsio-madaniy harakatning turli subyektlari vujudga keladigan, shakllanadigan ijtimoiy kommunikatsiyani yaratadi. "Matnni faoliyat" sifatidagi ijtimoiy kommunikatsiya nafaqat ijtimoiylikni balki borliq evolyutsiyasini vujudga keltiruvchi muhim sotsio-madaniy mexanizmlardan biri sanaladi. Falsafiy nuqtai nazardan dialog: "obyekt", "subyekt", "munosabat", "qarama-qarshi tomon", "men", "boshqalar" kabi kategoriyalar yordamida tushuniladi. "Obyekt" va "subyekt" kategoriyalarining o'rganish an'anasi, eng avvalo, XVIII-XIX asr olmon falsafasi, xususan I. Fixtning subyektiv idealizm kontseptsiyasi bilan bog'liq[6]. Mazkur kontseptsiyaga ko'ra, "Men" subyekt, "Men emas" obyektga qarama-qarshi qo'yiladi. Inson o'z mavjudligini aynan shu "Men emas"ga bo'lgan munosabati orqali anglaydi. Fixtning bu g'oyasini L. Feyerbax tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. U "Men" va "Sen" o'rtasidagi farq ularning muloqot tizimida imkoniy va zaruriy mavjudligining sharti ekanligini ta'kidlaydi. "Men" va "Sen" o'rtasidagi dialogning natijasi va muhim sharti o'zaro tushunish bo'lib, u falsafiy germenevtikaning asosiy muammolaridan biri sanaladi. Madaniyatlararo muloqot muammosi J.J. Russo, I.T. Gerder, I. Kant, O. Shpengler, A. Toynbi va madaniy antropologiya maktabi vakillarining asarlarida tadqiq etilgan. Mazkur olimlar madaniyatlararo munosabatning o'ziga

xos murakkabligini, uni biryoqlama tadqiq etib bo'lmashligini ta'kidlaydilar. Masalan, J.J. Russo madaniyatlarning betakror va xilma-xilligini yo'qotishga qaratilgan harakatlarga qarshi chiqadi. U turli xalqlar va millatlarning birlashish g'oyasini tanqid qilarkan, har qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar, madaniyatlarning noyobligi va xilma-xilligini saqlab qolish kerakligini aytadi[7]. I.G. Gerder esa, ushbu g'oyalarga qarama-qarshi pozitsiyani yoqlaydi. Unga ko'ra, madaniyatlarning o'zaro aloqadorligi ularning o'ziga xosligini saqlab qolishga imkon yaratadi. Faylasufning fikricha, madaniyatlarning kuchli izolyatsiyasi ularning halokatiga olib keladi. Biroq, boshqa madaniyatlar bilan kommunikatsiya natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar madaniyatning yadrosiga daxl qilmasligi kerak.

I.G.Gerderning g'oyalari keyinchalik I.Kant tomonidan rivojlantirildi[8]. Kant madaniyatni insoning ruhiy, ma'naviy olami natijasida birlashadigan elementlarning organik yaxlitligi va uyg'unligini aks ettiruvchi ma'naviy universum sifatida talqin etadi. Bu universum millat va xalqning xarakterida namoyon bo'ladi. I.Kant madaniyatlararo ta'sir jarayoniga o'ziga xos antinomiya keltiradi. Insoniyat o'zaro bir-biri bilan muloqotga kirishmasdan yashay olmaydi. Lekin, muloqotga kirishish natijasida o'zaro qarama-qarshi harakatni amalga oshiradilar. Tabiatan birlashib yashashga mos yaratilganliklari bois dissotsiatsiya, konflikt va ziddiyatlar orqali umumjahon fuqarolik jamiyatiga qarab intilmoqdalar. I.Kantning fikricha, insondagi muloqotga bo'lgan layoqat tabiiy bo'lib, undagi texnik, pragmatik va axloqiy qobiliyatlarni yuzaga chiqarishga imkon yaratadi, insonni aqlli jonzot sifatida namoyon qiladi[9]. Insondagi pragmatik qobiliyat jamiyatdagi tabiiy statuslarni mustahkamlashga, boshqalar bilan til topishishga imkon beradi. Madaniylashish jarayonida inson san'at va fan yordamida o'zidagi axloqiylikni rivojlantiradi, ezgulikka yondashadi hamda o'zining ijtimoiy tabiatini amalga oshiradi.

Keyinchalik, madaniyatlararo muloqot muammosi ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli soxalarida tadqiq etildi. V. Fon Gumbolt, K. Marks, E. Kassirer, M. Xaydeger asarlaridagi qarashlar kishilik jamiyati, madaniyati va ma'naviy olamida tilning muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi[10]. Til bir jihatdan o'zaro muloqotning asosiy sharti sanalsa, ikkinchi jihatdan, faqat muloqot shaklidagina u muayyan ma'no kasb etadi. Masalan, tilshunoslikda identiklikni grammatik ifodalash maqsadida (men, sen, u) kabi shaxs olmoshi kategoriyalaridan foydalaniladi. Keyinchalik falsafiy tadqiqotlar natijasida ushbu kategoriyalar lingvistik ma'nodan tashqari: inson va inson, inson va olam, inson va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda ham qo'llanildi. Muloqot muammosiga falsafiy yondashuvni boshlab bergan: I.G. Fixte, L. Feyerbax asarlarida inson va olam, inson va inson o'rtasidagi munosabatlar ob'ekt va sub'ekt o'rtasidagi muloqot sifatida tavsiflanadi. XX asrda shakllangan falsafiy maktab vakillari mazkur ob'ekt, sub'ekt munosabatlarini keskin tanqid qilish bilan birgalikda dialog ishtirokchilarining ontologik statuslarini tenglashtiradilar, ular har ikki tomonni teng xuquqli sub'ekt sifatida baxolaydilar. Dialogda ob'ekt,

sub'ekt munosabatlaridan voz kechib, yangi sub'ekt, sub'ekt munosabatlarini shakllantirish muammolari M. Buber, M.M. Baxtin asarlarida tatqiq etildi. M. Bubering konsepsiyasi “men” va “sen”, “men” va “u” kategoriyalarining ko‘p qatlamli tahliliga qaratilgan bo‘lib, unda insonning o‘zi kabi mavjudotlar va uning muayyan tizim, ya’ni tabiat bilan muloqoti tasvirlanadi[11]. Bir so‘z bilan aytganda M. Buber falsafasining asosini, “men” va “sen” kategoriyalari yordamida insoniy munosabatlarni tahlil etish tashkil qiladi. Buber borliqni inson va xudo, inson va olam, inson va inson o‘rtasidagi muloqot sifatida talqin qiladi. U munosabatlarning o‘ziga xos uch turini ajratib ko‘rsatadi: inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat – nutq paydo bo‘lmasdan oldin shakllangan; insonlar o‘rtasidagi munosabat – nutq bilan bog‘liq munosabat; oliy mavjudot bilan munosabat – ma’naviy muloqot. Har bir munosabatning o‘z olami mavjud: tabiat bilan munosabat moddiy olamni, insonlar bilan munosabat psixologik, emosional olamni, oliy mavjudot bilan munosabat, ma’naviy olamni taqazo qiladi. Biz ushbu olamlarga “kosmos”, “logos”, “eros” deya ulug‘vor nomlarni bermaylik, ular bir-biridan alohida nursiz bo‘lib qoladi”[12]. Muloqot strukturasi boshlang‘ich shaklining lingvistik xarakteri, uni o‘rganishda foydalaniladigan falsafiy kategorial apparatning xususiyatlarini belgiladi. Natijada, falsafiy ma’noda shaxs olmoshi bevosita grammatik mazmundan ko‘ra, muloqotni tashkil etgan tomonlarni ifodalash vositasiga aylandi. Muloqot jarayonida ob’ekt – sub’ekt munosabatlarining sub’ekt – sub’ekt munosabatlariga almashinishi dialog ishtirokchilarining ontologik statuslarining o‘zgarishiga olib keldi.

XX asrning 20 yillarida Yevropa fanida muloqot muammosiga nisbatan bir-biridan mustaqil holda ikki yondashuv shakllandi. Mazkur yondashuvlarning har ikkovi ham, muloqotni inson borlig‘ining ajralmas bo‘lagi sifatida o‘rgandi. Birinchi yondashuv Olmoniya va Avstriya olimlari: M. Buber, O. Rozenshtok, F.Rozensveyg, F.Gogarten, F.Koenlarning nazariy refleksiya g‘oyalari bilan bog‘liq. G‘arbdagi mazkur yondashuvning vujudga kelishi Olmon falsafiy an’anasi, xususan, I.G.Fixte va L. Feyerbaxlarning qarashlariga bog‘liq bo‘ldi[13]

Rossiyada muloqot muammosini o‘rganish an’anasi tilshunoslik sohasidan boshlandi. Til funksiyasining tahlili, jonli nutqning empirikasi, kishilar o‘rtasidagi real muloqotning o‘rganilishi mulohaza va fikrning o‘zaro taqazolanganligini, ya’ni nutqiy faoliyatning reflektiv xarakteri va uning ijtimoiy tabiatini aniqlash imkonini berdi. Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarida dialog nutq va tilni amalga oshiruvchi soha sifatida o‘rganiladi. O‘z navbatida mazkur tadqiqotlar muloqot strukturasi va undagi elementlarning o‘zaro aloqasini tahlil qilishga imkon yaratadi.

Madaniy universum doirasida muloqotni madaniyatlar mavjudligining asosi sifatida tushunish L.P.Karsavin, S.N.Trubeskoylarning nomi bilan bog‘liq[14]. Mazkur muammoni o‘rganishda, “umumbirlik” va “uchbirlik” tamoyili, shuningdek, madaniyat sub’ektini personal reallik sifatida baholash ularning boshlang‘ich pozitsiyasiga aylandi bu ma’noda madaniyat va shaxs

individual sub'ektlarning oddiy yig'indisi emas, ularning birlikdagi muvofiqlashgan ko'pligini anglatadi. Bu qarash madaniyatni – shaxs, jamiyat, insoniyat kabi “oliy individuallik”, ya'ni sub'ekt sifatida ko'rish imkonini beradi. Empirik soxada kechadigan jarayonlarning asosiy tavsifi shundaki, undagi o'zaro tushunish va rivojlanishga asoslangan sub'ektlarning doimiy aloqadorligi ta'minlangan bo'ladi. Har bir madaniyat o'ziga xos, biroq bu hol undagi aloqaga bo'lgan imkoniyatni cheklamaydi. Muayyan muloqotga kirisharkan, madaniyat, yaxlitlik doirasida yangi sifatga ega bo'ladi.

L.P. Karsavining muloqot konsepsiyasi g'oyasining yana bir muhim jixati shundaki, u madaniyat va uni tashkil qiluvchi elementlarni bir-biriga nisbatan mustaqil, lekin ayni paytda bir-birining tabiatiga kirib borishga tayyor sub'ektlar sifatida o'rganadi[15]. Ushbu tayyorgarlik muloqot jarayonida har ikkala tomonning teng xuquqli statusga ega bo'lgandagina amalga oshadi. O'zaro teng xuquqli ta'sir natijasida munosabatlarning samaradorligi yuzaga keladi.

Shaxslararo munosabatlar nuqtai nazaridan madaniyatlararo kommunikasiya, o'zaro bir-birini boyitish va tushunish ma'nosida, keng doiradagi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan birmuncha maqbul sanaladi. Gap shundaki sosium qaysidir ma'noda ijtimoiy rollar doirasida kishilarni bir-birlaridan uzoqlashtiradi, insonni o'z tabiatidan begonalashtiradi. Sosiumning maqsadi, insonni turli rollar yig'indisi va ularni amalga oshirish mexanizmi bilan ta'minlagan holda uni ijtimoiy mavjudotga aylantirishdan iborat. Madaniyatning maqsadi esa, insonni faqat ijtimoiy rollar bilan chegaralanishini oldini olib, uni ma'naviy yetuk shaxs qilib shakllantirishdir. Agar ijtimoiy kommunikasiya rollar orqali amalga oshiriladigan faollik bo'lsa, madaniy kommunikasiya esa, qadriyatli mo'ljallar orqali amalga oshiriladigan faollik sanaladi.

Bugungi kunda madaniyatlararo muloqot insonlar va madaniyatni tushunishning universal germeneytik kalitiga aylanib bormoqda. Bunday holatda madaniyatlararo muloqotni optimallashtirish uchun sharoitlarni qidirish sub'ektlararo muloqotning eng yuqori shakli sifatida ushbu fenomenni tahlil qilish va tasdiqlashni taklif qiladi. Xususan, Sharq va G'arb falsafasi va san'atining o'ziga xos xususiyatlari va ular tomonidan aniqlangan dunyoni tasvirlari va uni anglashning usullari (birinchi holda, ular intuisiya, ikkinchisida - aql tamoyiliga asoslanadi), bir tomondan, ushbu madaniyatlar sub'ektlarining o'zaro jalb qilish va qiziqishlarini, boshqa tomondan - hatto ziddiyatli vaziyatlarni to'liq tushunmaslikni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Соколов А.В. Коммуникативная деятельность и коммуникативные явления // НТБ. - 2001.
2. См. Марков А.П. Отечественная культура как предмет культурологии. СПб. СПбГУП, 2006.
3. Дридзе Т.М. Социальная коммуникация как текстовая деятельность в семи-психологии. // ОНС, 2006.
4. Карсавин Л.П. Философия истории. - М., 2015.

5. Дридзе Т.М. Социальная коммуникация как текстовая деятельность в семи-осоциопсихологии. // ОНС, 2006.
6. Каган М.С. Философия культуры. - СПб., 2016.
7. Запесоцкий А.С. Гуманитарная культура и гуманитарное образование. - СПб, 2016.
8. Орлова Э.А. Введение в социальную и культурную антропологию. - М.,1994.
9. Поршнев Б.Ф. Противопоставление как компонент этнического сознания. - М.: Наука, 2003.
10. Ермолаева Е.М. Ответный стиль как показатель национально- культурных различий // Социс., 2010. - №12.
11. Тихомиров Л. Религиозно-философские основы истории. М.: "Москва", 2008.
12. Ананев М.А. Экономика и география международного туризма. Изд. МГУ, 2005,.
13. Фирсов Б.М. Пути развития средств массовой коммуникации. Социологические наблюдения. - Л.: Наука, 2007.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЯ «ПОТРЕБИТЕЛЬ» И СТАТУС ПОТРЕБИТЕЛЯ В СФЕРЕ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ

***Ажимуратова Зулфира Баймуратовна,**
Каракалпакский Государственный Университет имени
Бердаха докторант базового 2- курса*

Аннотация. В статье анализируется понятие потребителя и особенности его правового статуса в сфере электронной коммерции. Рассматриваются положения законодательства Республики Узбекистан, международные правовые акты и научные подходы к определению категории «потребитель». Обосновывается необходимость совершенствования правового регулирования электронной торговли для обеспечения эффективной защиты прав потребителей.

Ключевые слова: потребитель, защита прав потребителей, электронная коммерция, электронный договор, дистанционная торговля.

Понятие «потребитель» является ключевой категорией в системе правового регулирования защиты прав потребителей и определяет круг лиц, на которых распространяются специальные гарантии, установленные законодательством. В соответствии со статьей 1 Закона Республики Узбекистан «О защите прав потребителей» потребителем признается гражданин, приобретающий, заказывающий либо намеревающийся приобрести или заказать товары (работы, услуги) для личных, семейных, домашних и иных нужд, не связанных с осуществлением

предпринимательской деятельности.[1] Данное определение отражает традиционный подход национального законодательства, согласно которому основной характеристикой потребителя выступает непредпринимательский характер цели приобретения товара или услуги.

Аналогичный подход закреплён и в международно-правовых актах. Так, в Руководящих принципах Организация Объединённых Наций для защиты интересов потребителей подчеркивается необходимость обеспечения прав лиц, приобретающих товары и услуги для личного потребления, а также создания эффективных механизмов их защиты.[2] В соответствии со статьей 2 Директивы 2011/83/ЕС о правах потребителей, потребитель определяется как физическое лицо, действующее вне рамок своей торговой, предпринимательской или профессиональной.[3] Указанные подходы свидетельствуют о международной унификации критериев определения потребителя.

В юридической доктрине также уделяется значительное внимание раскрытию сущности данного понятия. Так, российский ученый Е.А. Суханов отмечает, что потребителем следует признавать гражданина, который вступает в гражданско-правовые отношения с профессиональным участником рынка с целью удовлетворения личных потребностей, вследствие чего он нуждается в повышенной правовой защите. [4] В национальной литературе легальная конструкция понятия потребителя, как правило, используется в качестве исходной методологической основы. Так, Дж. И. Бабаев, анализируя правовой статус потребителя, отмечает, что критерии отнесения лица к потребителям обусловлены спецификой участия **физического лица** в приобретении товаров (работ, услуг) **для непрофессиональных (непредпринимательских) целей**. По мнению автора, именно данное целевое назначение потребления предопределяет необходимость установления для потребителя особого комплекса гарантий и механизмов защиты, отличающихся от общих правил гражданского оборота, рассчитанных преимущественно на равенство и сопоставимую осведомлённость участников договорных отношений. [5]

В условиях цифровизации понятие потребителя приобретает новые особенности, связанные с развитием электронной коммерции. Электронная коммерция предполагает заключение договоров посредством информационных систем, интернет-платформ, мобильных приложений и иных цифровых технологий. В Республике Узбекистан правовая основа функционирования электронной торговли закреплена в Законе «Об электронной коммерции» (ЗРУ-792 от 29 сентября 2022 года), который регулирует отношения, возникающие при осуществлении торговли с использованием информационных систем. [6] В рамках таких отношений потребитель выступает стороной электронного договора купли-продажи или оказания услуг.

Особенность статуса потребителя в электронной коммерции заключается в дистанционном характере заключения сделки, отсутствии возможности непосредственного осмотра товара до момента его получения, а также в использовании цифровых инструментов для оформления и исполнения договора. Как обоснованно подчеркивает, Эмилией Мишченич (Emilia Mišćenić), хорватский ученый-юрист, доктор права: «По сравнению с прежним потребителем, потребитель 21 - го века живет и действует в мире «куки» (cookies) и приложений, онлайн - шопинга, электронных платежей и электронных счетов, электронной коммерции и электронных подписей. Сегодня потребитель много времени проводит в этом виртуальном пространстве, именуемом «Интернет», который полон привлекательной рекламы, предлагающей множество продуктов, товаров и услуг, доступных в один клик мышкой». [7]

Таким образом, статус потребителя в сфере электронной коммерции характеризуется сочетанием общих прав, предусмотренных законодательством о защите прав потребителей, и специальных гарантий, обусловленных особенностями дистанционной формы заключения договора. В современных условиях правовое регулирование должно учитывать специфику цифровых торговых платформ, участие посредников (маркетплейсов), а также необходимость обеспечения прозрачности электронных сделок и эффективных механизмов защиты прав потребителей в онлайн-среде.

Использованная литература:

1. Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей» от 26.04.1996г. №221-И. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. // [электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/ru/docs/14643>
2. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей «О защите прав потребителей» от 22.12.2015г. // [электронный ресурс]: <https://docs.un.org/ru/a/res/70/186>
3. Директива N 2011/83/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза «О правах потребителей» // [электронный ресурс]: <https://commission.europa.eu>
4. Суханов Е.А. Российское гражданское право: учебник: в 2 т. Т. 1. – М.: Статут, 2011.
5. Babayev Dj.I., Scientific-practical description of the status of the consumer as a subject of relations arising from damage \ The American Journal of Political Science Law and Criminology. 2020y., 2(12), 123-131
6. Закон Республики Узбекистан «Об электронной коммерции» от 29.09.2022г. №ЗРУ-792. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. // [электронный ресурс]: <https://lex.uz/ru/docs/6213428>
7. Mišćenić, E. Protection of consumers on the EU digital single market: virtual or real one? / Emilia Mišćenić // The influence of the European legislation on national legal systems in the field of consumer protection: Copyright 2017 Wolters Kluwer Italia S.r.l., 2017. - P. 219 - 246.

XITOIY OLIY TA'LIM TIZIMIDA "DOUBLE FIRST-CLASS" TASHABBUSINING SHAKLLANISHIDA ICHKI VA TASHQI OMILLARNING TA'SIRI

*Diyorov Sardobek Husanboy o'g'li,
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada Xitoyda "Double First-Class" tashabbusining shakllanishida ichki va tashqi omillarning o'zni o'rganildi. Unda globallashtirish jarayonlari, bilim iqtisodiyotining rivojlanishi hamda oliy ta'limning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish zarurati tashabbusning tashqi omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Xitoyning iqtisodiy transformatsiyasi, innovatsion rivojlanish strategiyasi hamda Project 211 va Project 985 dasturlarining tajribasi ushbu tashabbusning ichki asoslari sifatida yoritiladi. Tadqiqot natijasida "Double First-Class" tashabbusi Xitoy oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda xalqarolashtirishda xizmat qiluvchi muhim strategik siyosat ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Double First-Class tashabbusi, jahon darajasidagi universitetlar, oliy ta'lim siyosati, Project 211, Project 985, Xitoy oliy ta'lim tizimi, inson kapitali, ta'limni xalqarolashtirish.

Kirish. Xitoyda oliy ta'lim sifatini oshirish, fan yo'nalishlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda universitetlarning xalqaro nufuzini mustahkamlash maqsadida 2015-yil 24-oktabrda Xitoy Davlat kengashi tomonidan "Jahon darajasidagi universitetlar va birinchi darajali fan yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha umumiy reja" qabul qilindi. Ushbu hujjat keyinchalik "Double First-Class" tashabbusi nomi bilan tanildi. Tashabbusning asosiy maqsadi jahon darajasidagi universitetlar va yetakchi fan yo'nalishlarini rivojlantirish orqali Xitoyni global oliy ta'lim sohasida yetakchi davlatlardan biriga aylantirishdan iborat edi.

Keyinchalik Xitoy Ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi hamda Milliy rivojlanish va islohotlar komissiyasi tomonidan tashabbusni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, jahon darajasidagi universitetlar va fan yo'nalishlarini shakllantirish mexanizmlarini belgilovchi hujjatlar hamda mazkur dasturda ishtirok etuvchi oliy ta'lim muassasalari ro'yxati e'lon qilindi. Ushbu hujjatlar tashabbusni amalga oshirish tartibi, tanlov mezonlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini aniq belgilab berdi. Natijada "Double First-Class" tashabbusi amaliy bosqichga o'tdi[1].

Globallashtirish jarayonining jadallashuvi davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va aloqalarni kengaytirib, oliy ta'lim tizimining xalqarolashtirishini jahon darajasidagi

universitetlarni shakllantirishning muhim omillaridan biriga aylantirdi. Shu sababli Xitoy hukumati oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, yetakchi ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish hamda jahon darajasidagi universitetlarni shakllantirish maqsadida ta'lim siyosatini qayta ko'rib chiqdi.

Mazkur jarayonda Xitoy hukumati oliy ta'lim sohasiga strategik investitsiyalarni jalb etish orqali universitetlar va ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Bu siyosat avval amalga oshirilgan Project 211 va Project 985 dasturlarining muvaffaqiyatli tajribasiga asoslanib, keyinchalik "Double First-Class" tashabbusining shakllanishiga zamin yaratdi.

Xalqaro muhitning ta'siri. Global bilim tizimining rivojlanishi va iqtisodiy tizimdagi o'zgarishlar natijasida axborot va bilim resurslari iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylandi. Yangi bilimlar va innovatsiyalarni yaratishda oliy ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi. Shu sababli oliy ta'lim tizimi iqtisodiy o'sish va texnologik taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada 2011-2012-yillarda universitetlar faoliyati natijasida 73 milliard funt sterlingdan ortiq iqtisodiy mahsulot yaratilgan bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 39,9 milliard funt sterlingiga teng, ya'ni 2011-yildagi umumiy YAIMning qariyb 2,8 foizini tashkil etgan[2].

Shuningdek, amerikalik iqtisodchi Gari Bekker tadqiqotlari ham oliy ta'limga investitsiya qilish inson kapitalini rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko'rsatadi[3].

Zamonaviy sharoitda iqtisodiy rivojlanishni faqat moddiy resurslarga tayanib ta'minlash yetarli emas. Shu sababli inson kapitali va ta'limga investitsiyalar jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Oliy ta'limga kiritilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mehnat unumdorligini oshirish orqali jamiyatning umumiy samaradorligini ham kuchaytiradi.

Shu sababli ko'plab davlatlar oliy ta'limni xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi sifatida ko'rib, ushbu sohaga investitsiyalarni ko'paytirmoqda. Masalan, 1998-2008-yillar oralig'ida AQSh oliy ta'limga OECD davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan uch baravar ko'p mablag' sarflagan[4]. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar ham oliy ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2004-2012-yillar davomida dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalarida yuqori darajadagi universitetlar hamda fan yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan 30 ga yaqin dasturlar amalga oshirilgan[5].

Ichki muhit ehtiyojlari. "Double First-Class" tashabbusining joriy etilishi Xitoyda oliy ta'lim sohasida ilgari amalga oshirilgan yirik dasturlar Project 211 va Project 985 siyosatining davomiyligi hamda yangilangan shakli hisoblanadi[6]. Bunday siyosatlarning shakllanishi Xitoyda uzoq tarixga ega. Masalan, 1995-yilda Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi tomonidan Project 211 dasturining umumiy rejasi tasdiqlanib, ushbu dastur rasman amalga

oshirila boshlandi[7]. Project 211 uch asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga olgan: ta’lim muassasalarining umumiy sharoitlarini yaxshilash, ustuvor fan yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda oliy ta’lim sohasida jamoat xizmatlari tizimini shakllantirish. Dasturining keyingi bosqichlarida ayniqsa muhim fan yo‘nalishlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

1998-yilda Xitoyning o’sha davrdagi prezidenti Jiang Zemin mamlakat modernizatsiyasini ta’minlash uchun jahon darajasidagi bir qator universitetlarni yaratish zarurligini ta’kidlagan[8]. Shundan so‘ng Xitoy Ta’lim vazirligi tomonidan “XXI asrda ta’limni rivojlantirish bo‘yicha harakatlar rejasi” e’lon qililib, unda jahon darajasidagi universitetlar va yetakchi fan yo‘nalishlarini shakllantirish vazifasi ilgari surildi. Ushbu siyosat Project 985 dasturining boshlanishiga asos bo‘ldi. Mazkur dasturlar natijasida Xitoy oliy ta’lim tizimi qisqa vaqt ichida sezilarli darajada rivojlanib, ta’lim sifati oshdi. Masalan, 2025-yilga kelib Xitoyning 6 ta universiteti “QS World University Rankings” reytingining eng yaxshi 100 taligiga kirgan, shuningdek 73 ta universitetning 576 ta fan yo‘nalishi dunyoning eng yaxshi 500 taligidan joy olgan[9]. Ijtimoiy muhit oliy ta’lim tizimining asosiy tayanchi bo‘lib, davlat oliy ta’lim siyosatini ishlab chiqishda muhim omil sifatida e’tiborga olinadi. Oliy ta’limning rivojlanishi aslida jamiyatlardagi o‘zgarishlarga moslashish jarayonini ifodalaydi. Hozirgi davrda Xitoy iqtisodiyoti “yangi normal” deb ataluvchi bosqichga o‘tmoqda. Bu jarayon juda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlaridan o‘rta darajadagi barqaror o‘sishga o‘tish, hajm va tezlikka asoslangan ekstensiv rivojlanish modelidan sifat va samaradorlikka yo‘naltirilgan intensiv rivojlanish modeliga o‘tish, sanoat tuzilmasining past va o‘rta darajadagi ishlab chiqarishdan o‘rta va yuqori darajadagi ishlab chiqarishga o‘zgarishi, shuningdek investitsiyalarga tayanilgan rivojlanishdan innovatsiyaga asoslangan rivojlanishga o‘tish hamda resurslarni taqsimlashda bozor mexanizmlarining rolini kuchayishi bilan tavsiflanadi[10].

Mazkur o‘zgarishlarga mos ravishda Xitoy oliy ta’lim muassasalarining ta’lim g‘oyalari va kadrlar tayyorlash modellari ham yangilanmoqda. 2015-yilda Ta’lim vazirligi, Milliy rivojlanish va islohotlar komissiyasi hamda Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan hujjatda o‘n uchunchi 5-yillik reja davrida mamlakat bo‘ylab 100 ta oliy ta’lim muassasasini amaliyot va tajriba platformalarini joriy etish orqali rivojlantirish belgilab berildi. Mazkur dasturlar ishlab chiqarish va ta’lim integratsiyasini kuchaytirish, universitetlar hamda korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan[11].

Bundan tashqari, Xitoy hozirda ijtimoiy transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Shu sababli mamlakatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlay oladigan yuqori malakali intellektual kadrlar zaxirasini shakllantirish dolzarb vazifaga aylangan. Aynan shu maqsadda jahon darajasidagi universitetlar va yetakchi fan yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xitoyda “Double First-Class” tashabbusining shakllanishida ichki va tashqi omillar muhim ahamiyat kasb etgan. Globallashuv jarayonlari, bilim iqtisodiyotining rivojlanishi hamda oliy ta’lim sohasidagi xalqaro raqobatning kuchayishi ushbu tashabbusning tashqi omillarini tashkil etadi. Shu bilan birga, Xitoyning iqtisodiy transformatsiyasi, innovatsion rivojlanish strategiyasi hamda Project 211 va Project 985 dasturlarining tajribasi uning ichki asoslari sifatida xizmat qilgan. Natijada “Double First-Class” tashabbusi Xitoy oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yetakchi fan yo’nalishlarini rivojlantirish hamda universitetlarning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan muhim strategik siyosat sifatida namoyon bo’lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sun, J.H. (2017). Institutional accumulation and development ideas of the Double First-class Initiative in Chinese universities. *Journal of Xiamen University (Arts & Social Sciences)*, 244(6), 17–24.
2. Universities UK. (2015). Why invest in universities. Retrieved from <http://www.universitiesuk.ac.uk/policy-and-analysis/reports/Documents/2015/why-invest-in-universities.pdf>.
3. Becker, G.S. (1975). *Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education* (2nd edition). New York, US: Columbia University Press.
4. Liu, H.Y., & Ma, L.T. (2012). A typical model of higher education investment in OECD countries. *Higher Education Research*, 33(5), 103–109.
5. Huang, B.Y. (2017). Scientific planning and innovation promotion: Accelerating the construction of world-class universities and first-class subjects with Chinese characteristics. *China Higher Education*, (19), 30–36.
6. Zhang D.H. (2016). Double first-class: Continuation and adjustment of key construction policies of colleges and universities in China in the new era. *Exploring Education Development*, (23), 67–72.
7. The State Council of the People’s Republic of China. (1995, October 18). Overall Plan for the Construction of Project 211.
8. Ministry of Education. (1998). Action Plan for the Revitalization of Education in the 21st Century.
9. Quacquarelli Symonds. (2025). World university rankings 2025. Retrieved from <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings>
10. Zhang W., & Zhang M.C. (2018). Intercollegiate experience in the construction of the first-class universities in China: Based on the text analysis of 6 first-class universities’ construction policies. *China Higher Education Research*, (5), 26–31.
11. Wang Q. (2018, June 29). 90 % of colleges and universities should undergo application-oriented transformation: Guangdong held a seminar on the transformation of undergraduate colleges and universities and the construction of characteristic applied colleges and universities.

ZAMONAVIY TA'LIMNING FALSAFIY TAMOYILLARI VA RAQAMLI MUHIT TRANSFORMATSIYALARI

Tursunxanov Baxtdjan

Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumani

21-sonli umumta'lim maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim falsafasining asosiy tamoyillari (insonparvarlik, konstruktivizm, hamkorlikda o'qish, umrbod o'rganish, tanqidiy tafakkur) raqamli transformatsiya sharoitida qayta talqin qilinadi. Raqamli muhitning ta'lim jarayoniga ta'siri – konnektivizm, aralash (blended) va masofaviy ta'lim, ochiq onlayn kurslar (MOOC), sun'iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar – nazariy manbalar asosida tahlil qilinadi. Global tendensiyalar bilan bir qatorda, O'zbekiston ta'limini raqamlashtirish tashabbuslari (infrastrukturani kengaytirish, LMS, elektron kundalik va boshqalar) falsafiy va metodik nuqtai nazardan muhokama qilinadi. Grafik va jadvalda falsafiy tamoyillarni raqamli muhitda namoyon bo'lishi hamda onlayn ta'limga talabning o'sish dinamikasi ko'rsatiladi. Natijalar ta'lim paradigmasining “o'qituvchi-markaz”dan “talaba-markaz”ga siljishi, media va axborot savodxonligining ahamiyati, ta'lim sifatini ma'lumotlarga tayangan baholash (learning analytics) orqali oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ta'lim falsafasi; konstruktivizm; konnektivizm; raqamli transformatsiya; aralash ta'lim; MOOC; sun'iy intellekt; media va axborot savodxonligi; learning analytics; raqamli ta'lim ekotizimi.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi jadal ravishda o'zgarib borayotgan raqamli davrga moslashmoqda. Globallashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonining falsafiy asoslarini qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ildi[1]. Ta'lim maqsadlari va tamoyillarini belgilovchi an'anaviy qarashlar bugungi innovatsion muhitda yangicha ma'no kasb etmoqda. Raqamli ta'lim, ya'ni raqamli texnologiyalar vositasida bilim olish, keng jamoatchilikka yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Raqamli ijtimoiylik ham shakllanib, o'quvchilar va o'qituvchilar virtual muhitda o'zaro muloqot qilish imkoniga ega bo'lishdi. Bunday axborot transformatsiyasi – ya'ni axborotni yaratish va tarqatish usullarining tubdan o'zgarishi – nafaqat ta'lim texnologiyasiga, balki ta'lim falsafasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limning asosiy falsafiy tamoyillari raqamli muhit sharoitida qanday namoyon bo'layotgani, global va mahalliy tendensiyalar, shuningdek, identiklik va ong masalalari yoritiladi.

Nazariy asoslar va falsafiy tamoyillar. Zamonaviy ta'lim falsafasi insonni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlash va umrbod o'qib-o'rganish g'oyalariga tayangan holda shakllangan. An'anaviy ta'lim tamoyillaridan insonparvarlik (humanistik yondashuv), talabaga yo'naltirilganlik (shaxsga

qarata o'qitish) hamda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bugungi kunda ham dolzarbdir. Biroq raqamli muhit ushbu tamoyillarni amalga oshirish usullarini o'zgartirmoqda[2]. Masalan, konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, o'quvchi bilimni faol ravishda, tajriba va muloqot orqali o'zi quradi; raqamli vositalar bu jarayonni yanada interaktiv va boy ma'lumotli qilishga xizmat qiladi[3]. Raqamli davr uchun maxsus taklif etilgan konnektivizm nazariyasi (G. Siemens va S. Downes) bilimning tarmoqlar orqali shakllanishini ta'kidlaydi – bunda o'quvchilar turli onlayn manbalar va jamoalarga ulanib, bilish jarayonini olib boradilar. Konnektivizm an'anaviy pedagogik nazariyalar chegaralarini kengaytirib, raqamli ta'limda nima amalga oshayotganini qayta mulohaza qilishga majbur etdi[4].

Ta'lim jarayonining falsafiy tamoyillari orasida barqaror rivojlanish va innovatsionlik ham muhim o'rin tutadi. Raqamli transformatsiya davrida ta'lim falsafasi innovatsion, texnologiyaga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratishga qaratilishi lozimligi ta'kidlanmoqda[5]. Bunda bilim berishdan ko'ra, bilim olishga o'rgatish, ya'ni o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish tamoyili ustuvor sanaladi. Zamonaviy ta'lim beruvchi endi nafaqat ma'lumotni uzatadi, balki o'quvchini tanqidiy fikrlashga, mustaqil o'rganishga va ijtimoiy hamkorlikka ilhomlantiradi. Raqamli vositalar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi – masalan, onlayn muhokamalar, masofaviy loyiha ishlari va virtual laboratoriyalar o'quvchilarni faol ishtirokga chorlab, konstruktiv o'quv muhitini yaratadi.

1-jadval

Zamonaviy ta'limning asosiy falsafiy tamoyillari raqamli davrda namoyon bo'lishi[6]

Falsafiy tamoyil	Raqamli davrdagi namoyon bo'lishi (misollar)
Insonparvarlik, subyektga e'tibor	Har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta'lim (personalizatsiya); masofaviy tutorlik va mentorlik.
Konstruktivizm (faol o'rganish)	O'quvchilar onlayn kurslar, simulatorlar va virtual laboratoriyalar orqali bilimni o'zlari kashf etadi; loyihaviy va muammoli ta'lim platformalari.
Hamkorlikda o'qish (kooperativ)	Raqamli muhitda jamoaviy muhokamalar, forumlar va guruhli chatlar orqali bilim almashinuvi; masofaviy jamoa loyihalari.
Umrbod o'qish tamoyili	Ochiq onlayn kurslar (MOOC) va vebinarlar orqali har qanday yoshda doimiy ravishda bilim olish imkoniyati; raqamli kutubxonalar.
Tanqidiy tafakkur va axborot savodxonligi	Internetdagi axborot oqimini tahlil qilish, ishonchli manbalarni ajratish ko'nikmalarini shakllantirish; feyk xabarlarqa qarshi immunitet hosil qilish.

Yuqoridagi tamoyillar ta'lim tizimining negizini tashkil etsada, raqamli muhitda ularni amalga oshirish shakli va vositalari yangilanmoqda. Masalan, ilgari sinf xonasida yuzma-yuz bahs-munozara asosida shakllangan tanqidiy fikrlash ko'nikmasi endilikda onlayn forumlar va bloglar orqali ham rivojlantirilmoqda. Shu tariqa, ta'lim falsafasi va raqamli texnologiyalar bir-birini to'ldirgan holda, asosiy maqsad – komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Raqamli muhit transformatsiyasi: ta'limga ta'siri. **Raqamli muhit transformatsiyasi** deganda axborot texnologiyalarining jadal rivoji oqibatida jamiyatning barcha jabhalarida, xususan, ta'lim sohasida ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar tushuniladi. Bugungi kunda axborot olish va ulashishning yangi shakllari paydo bo'ldi: internet tarmog'i, ijtimoiy media platformalari, raqamli kutubxonalar va boshqa manbalar ilmiy bilimlarni tarqatish va o'zlashtirishning an'anaviy chegaralarini kengaytirdi.

Ta'lim muhitining raqamlashtirilishi jarayonida raqamli ijtimoiylik tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ijtimoiylik – bu o'quvchi va o'qituvchilarning raqamli makondagi o'zaro aloqalari majmuasi bo'lib, u onlayn jamoalar, ijtimoiy tarmoqlar va professional tarmoqlarda namoyon bo'ladi. Masalan, talabalar global onlayn forumlarda bir-biri bilan hamkorlik qilib, bilim almashishi yoki o'qituvchilar xalqaro masofaviy konferensiyalarda fikr va tajriba almashishi – bularning barchasi ta'limning ijtimoiy aspektlari geografik chegaralardan mustasno ravishda kechayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon, o'z navbatida, ta'lim falsafasida “birga o'rganish” (collaborative learning) va ochiqlik tamoyillarini kuchaytirmoqda.

Raqamli muhitning ta'limga ijobiy ta'sirlari bilan birga, ayrim tahdid va muammolar ham mavjud. Ulardan biri – axborotga boy muhitda diqqatni jamlash qiyinlashuvi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ko'p medialardan foydalanish (multitasking) o'quvchilarda diqqatning bo'linishiga va e'tibor susayishiga olib keladi[7]. Bu esa chuqur va izchil o'qib-o'rganish sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, internetda turli xil sifatsiz axborotning ko'pligi tanqidiy tafakkur va axborot savodxonligi ko'nikmalarini yanada dolzarb qilmoqda – zamonaviy o'quvchi haqiqatdan yiroq yoki yolg'on ma'lumotlarni filtrlay olishni o'rganishi zarur.

Ta'limdagi raqamli transformatsiyaning global tendensiyalari qatorida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining joriy etilishini ham alohida qayd etish lozim. Sun'iy intellekt yordamida adaptiv ta'lim tizimlari yaratilmoqda – bular o'quvchining harakatlarini tahlil qilib, unga individual tarzda moslashtirilgan topshiriqlar va ko'rsatmalar beradi. Masalan, ayrim elektron ta'lim platformalari test natijalariga qarab avtomatik ravishda qo'shimcha mashqlar taklif qilishi yoki qiyinchilik darajasini moslab borishi mumkin. Bu yondashuv konstruktivistik tamoyillarni texnologiya asosida amalga oshirishga misoldir. Biroq, sun'iy intellektdan ta'limda foydalanish bilan bog'liq etik masalalar (shaxsiy

ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmlarning shaffofligi va hk) ham kun tartibiga chiqmoqda[8].

Mahalliy (O'zbekiston) raqamli transformatsiya tajribasi. Globallashtirish jarayonlar bilan hamnafas ravishda O'zbekistonda ham ta'limni raqamlashtirish bo'yicha katta qadamlar qo'yilmoqda. Xususan, 2020 yilda tasdiqlangan **“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi** doirasida ta'lim sohasini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha qator vazifalar belgilandi[9]. Ushbu strategiya asosida mamlakatdagi barcha ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulash, elektron hujjat aylanishi va masofaviy ta'lim mexanizmlarini joriy etish ishlari boshlab yuborildi.

O'tgan yillar mobaynida maktab va oliy ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi bilan jihozlash, tarmoqqa ulash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Jumladan, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, umumta'lim maktablarining 99,9% qismi internetga ulangan bo'lib, 4 700 dan ziyod kompyuter sinflari tashkil etildi, yuzlab interaktiv doskalar va robototexnika to'plamlari yetkazib berildi. Natijada hatto chekka hududlardagi maktablar ham global axborot tarmog'iga chiqish imkoniga ega bo'ldi. Shuningdek, **“Elektron kundalik”** tizimi joriy etilib, respublika bo'yicha 10 mingdan ortiq maktabda o'quvchilarning baholarini elektron tarzda qayd etish yo'lga qo'yildi. Bu o'quv jarayonida shaffoflikni ta'minlash va ota-onalar bilan aloqani mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mahalliy darajada raqamli ta'limni rivojlantirish borasida elektron platformalar va ilovalar yaratilmoqda. Masalan, oliy ta'lim muassasalari uchun masofaviy ta'lim platformalari (LMS-Learning Management System) joriy qilinib, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida masofadan dars materiallari almashinuvi, vazifalar topshirish va baholash ishlari avtomatlashtirilmoqda. O'zbekiston universitetlari xorijiy onlayn kurslar platformalari (Coursera, edX va boshqalar) bilan hamkorlik qilib, talabalariga global manbalardan foydalanish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, milliy raqamli kontentni boyitish, o'zbek tilidagi elektron darsliklar va videodarslar bazasini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Albatta, raqamli transformatsiya jarayonida duch kelinayotgan muammolar ham yo'q emas. Masalan, ayrim olis hududlarda internet tezligi va sifati talab darajasida emasligi sababli, raqamli vositalardan to'liq foydalanish imkoni cheklanyapti. Ba'zi ta'lim muassasalarida kompyuterlar eskirgan, ularni yangilash talab etiladi. Pedagog kadrlarning hammasi ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega emas – bu borada ular uchun muntazam treninglar o'tkazish zarur. Raqamli savodxonlik darajasi, ayniqsa, avvaldan kompyuter bilan ishlamagan o'qituvchilar orasida past bo'lishi mumkin. Shu sabab, O'zbekistonda o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida raqamli pedagogika va onlayn vositalardan foydalanish bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilayotir.

Mahalliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli transformatsiya ta'lim sifati va qamrovini oshirishda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maktab va oliy o'quv yurtlarida internetdan foydalanish ortishi bilan o'quvchilar global bilim manbalariga ulanib, dunyo miqyosidagi olimlar va tengdoshlar bilan muloqotga kirishmoqda. Biroq shu bilan birga, raqamli tafovutni (ya'ni, texnologiyalarga ega bo'lganlar va ega bo'lmaganlar o'rtasidagi farqni) kamaytirish, raqamli kontent sifati nazorat qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Natijalar va muhokama. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, raqamli muhitga o'tish zamonaviy ta'lim falsafasiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Eng avvalo, ta'lim paradigmasi o'zgarishi kuzatilmoqda – axborot texnologiyalari “o'qituvchi-markaz” modelidan “o'quvchi-markaz” modeliga o'tishni jadallashtirdi. O'quvchining o'z-o'zini boshqarishi, mustaqil ta'lim olishi va butun umr davomida o'qib-o'rganishi endi texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Masalan, onlayn kurslar orqali har bir kishi xohlagan vaqtda, xohlagan joyda yangi bilim olishi mumkin, bu esa an'anaviy ta'limning makon va zamonga bog'liq cheklovlarini bartaraf etmoqda.


Bundan tashqari, zamonaviy raqamli ta'lim jarayonida o'qituvchining roli ham o'zgarmoqda. Endilikda o'qituvchi axborotning yagona manbai emas, balki yo'l boshchi, fasilitator sifatida maydonga chiqmoqda. O'qituvchilar o'quv resurslarini kuratorlik qilish (saralash), o'quvchilarga mustaqil o'rganish jarayonida maslahat va ko'mak berish, onlayn muhitda muhokamalarni boshqarish kabi yangi rollarni bajarishmoqda. Bu jarayonda muallimlardan axborot texnologiyalari savodxonligi talab qilinadi va bu borada ko'plab mamlakatlarda katta e'tibor qaratilmoqda[10].

Raqamli ta'limning joriy etilishi bilan ta'lim sifati va samaradorligi masalalariga yangicha yondashuv paydo bo'ldi. Bir tomondan, texnologiyalar o'qitish usullarini boyitib, qiziqarli va interaktiv mashg'ulotlar yaratishga imkon bermoqda. Masalan, animatsion simulatsiyalar, virtual haqiqat (VR) ilovalari murakkab mavzularni yanada tushunarli qilishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, ta'lim jarayonini baholash va monitoring qilishning raqamli vositalari (masalan, o'quvchilarning onlayn faolligi va o'zlashtirishini kuzatuvchi tizimlar) paydo bo'lib, ma'lumotlarga asoslangan tahlil qilish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa qaror qabul qilishda (masalan, o'quv dasturini takomillashtirishda) ilmiy yondashuvni kuchaytiradi.

Global tendensiyalarga nazar tashlasak, dunyo bo'ylab raqamli ta'lim bozori keskin o'smoqda[11]. Tadqiqotlarga ko'ra, 2024 yilda global raqamli ta'lim industriyasining hajmi 26 milliard AQSh dollaridan oshib, 2030 yilga borib 130+ milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda[12]. Bu raqamlar raqamli ta'lim texnologiyalariga investitsiyalar ortib borayotganini anglatadi. Sun'iy intellekt, o'yinlashtirish (gamification), kengaytirilgan va virtual reallik kabi innovatsiyalar ta'lim sohasiga keng kirib kelmoqda. Kelajakda, ehtimol,

an'anaviy sinfxonalar o'rnini raqamli va fiziki muhitni birlashtirgan gibril makonlar egallashi mumkin.

Mahalliy tendensiyalar esa global o'zgarishlarning mintaqaviy aksidir. O'zbekistonda 2020-2024 yillarda internetdan foydalanuvchilar ulushi 76% dan 93% gacha oshgani jamiyat hayotining barcha jabhalari qatori ta'lim tizimi ham jadal raqamlashtanayotganidan dalolatdir



1-rasm. O'zbekistonda internetdan foydalanish darajasi (2021-2024-yillar)[13]

2021–2024 yillarda O'zbekiston aholisining internetdan foydalanish darajasi (% hisobida). Ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda internetdan foydalanuvchilar ulushi sezilarli ravishda oshib, 2024 yilda 93%dan yuqori ko'rsatkichga yetgan[14].

Yuqori penetratsiya darajasi ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun mustahkam asos yaratdi. "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasi natijasida deyarli barcha maktablarning onlayn tarmoqqa ulanganligi, elektron kundalik kabi tizimlarning joriy etilishi ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu o'zgarishlar zamonaviy o'quvchilarning **raqamli kompetensiyalarini** (media savodxonlik, axborot bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya) shakllantirishga ham zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, milliy darajada e'tiborga molik jihat shuki, raqamli transformatsiya jarayonida milliy madaniy hamda til xususiyatlarini inobatga olish zarur. Masalan, ta'lim platformalarining o'zbek tilida bo'lishi, kontentning mahalliy madaniyatga mosligi ta'lim samaradorligini oshiradi. Hozirda O'zbekistonda yaratilayotgan raqamli ta'lim resurslari tarkibida o'zbek tilidagi materiallar ulushi oshmoqda, lekin hali bu borada ko'p ish qilish lozim.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar davrida ta'lim sohasining falsafiy asoslari va amaliyoti qayta shakllanmoqda. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar quyidagicha xulosalarni qilishga imkon beradi:

• **Ta'lim falsafasidagi o'zgarishlar:** Innovatsion texnologiyalar rivoji an'anaviy ta'lim tamoyillarini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Zamonaviy ta'lim falsafasi o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv, umrbod o'qish, hamkorlik va tanqidiy tafakkurga tayanadi hamda raqamli muhitda bu tamoyillar yangi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Natijada ta'lim jarayonida paradigmatic siljish – axborotni singdirishdan ko'ra, mustaqil o'rganishga o'tish – kuzatilmoqda[15].

• **Raqamli transformatsiyaning ta'siri:** Raqamli muhit ta'lim imkoniyatlarini kengaytirdi. Onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar tufayli bilim olish geografik va vaqt doiralaridan chiqib, yanada qulaylashdi. Ayniqsa, pandemiya yillarida masofaviy ta'lim zaruriyati raqamli vositalarning qanchalik samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya diqqatning bo'linishi, axborot sifatini nazorat qilish kabi yangi muammolarni ham keltirib chiqardi, bu esa ta'lim mazmuniga alohida e'tibor bilan yondashishni talab qiladi[16].

• **Global va mahalliy tendensiyalar:** Dunyo miqyosida raqamli ta'lim bozori kengayib, turli innovatsion yondashuvlar sinovdan o'tmoqda (masalan, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim). O'zbekistonda ham ta'limni raqamlashtirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda – maktablar internet tarmog'iga ulandi, elektron tizimlar joriy etildi, pedagoglarning AKT savodxonligini oshirish choralari ko'rilmogda. Internetdan foydalanuvchilar ulushining keskin oshishi (93% dan ortiq) aholining raqamli kompetensiyasi o'sayotganini va raqamli ta'limga tayyorlik darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi. Bu tendensiyalar davom ettirilsa, raqamli tafovutni kamaytirish, sifatli mahalliy raqamli kontent yaratish va ta'lim sohasida global raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatlari oshadi.

• **Identiklik va ongga ta'siri:** (Ikkinchi maqolaning mavzusiga kirish sifatida) Raqamli muhit nafaqat o'qitish-uslubiyatga, balki shaxs shakllanishi aspektlariga ham ta'sir etadi. O'quvchilarning raqamli identikligi – ularning onlayn muhitdagi o'zini namoyon etishi – va raqamli ong (dunyoni raqamli idrok etish) masalalari alohida e'tiborga loyiq. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning raqamli makondagi xulq-atvori, mas'uliyati, axloqiy qarashlarini tarbiyalash ustuvor yo'nalishga aylanib bormogda. Zero, raqamli avlod nafaqat an'anaviy sinf, balki virtual dunyoda ham o'z o'rnini topishi, u yerda ham ongli va faol shaxs sifatida shakllanishi lozim.

Umuman qilib aytganda, zamonaviy ta'limning falsafiy tamoyillari raqamli transformatsiya sharoitida boyib, yangi ma'no kasb etmogda. Raqamli muhit ta'lim uchun mislsiz imkoniyatlar ochar ekan, biz ta'limning insonparvarlik mohiyatini saqlagan holda texnologiyalarni ongli va samarali qo'llash yo'lidan borishimiz kerak. Bunda falsafa va texnologiya o'zaro uyg'unlashib, kelajak avlodlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
2. Downes, S. (2012). Connectivism and connective knowledge. *Essays on meaning and learning networks*.
3. Laurillard, D. (2012). *Teaching as a Design Science*. Routledge.
4. OECD (2021). *Digital Education Outlook: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots*. OECD Publishing.
5. UNESCO (2019). *AI in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development*.
6. Hodges, C., et al. (2020). The difference between emergency remote teaching and online learning. *EDUCAUSE Review*.
7. Garrison, D. R., & Vaughan, N. (2008). *Blended Learning in Higher Education*. Jossey-Bass.
8. Weller, M. (2020). *25 Years of Ed Tech*. Athabasca University Press.
9. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates* (2nd ed.). Bloomsbury.
10. Veletsianos, G. (Ed.). (2020). *Learning Online: The Student Experience*. Johns Hopkins University Press.
11. World Bank (2020). *Remote Learning and COVID-19: The use of educational technologies at scale*.

BARQAROR RIVOJLANISHINING MAZMUNI VA MEZONLARI

Mamatova Fotima Abdusalomovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya. Maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasini shakllanishi, rivojlanishi uning mazmuni, mohiyati va kotsepsiyada inson omilining tutgan o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, konsepsiya, tamoyillar, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, milliy xo'jalik, barqaror ekotizm.

Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu milliy xo'jalikni barqaror rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Ma'lumki, iqtisodiyotning uzoq muddat davomida yuqori o'sish sur'atlar bilan o'sishi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ifodalaydi. Mamlakatda milliy xo'jalik barqaror rivojlanishini ta'minlash asosida aholi turmush farovonligi va sifatini yaxshilashda, shu bilan birga korxona va tashkilotlar tomonidan ijobiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishiladi[1]. Shuningdek, milliy xo'jalik barqaror rivojlanishini ta'minlashdan ko'zlangan asosiy maqsad barcha faoliyat sohalarida yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash bilan birga mamlakatning xom-ashyo bazasini himoya qilish hamda yashil

iqtisodiyotga o'tish asosida atrof-muhitni saqlab qolishdan iboratdir. Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi mamlakat iqtisodiyotining shunday holatini ifodalaydiki, unga ko'ra ishlab chiqarish, ijtimoiy hamda iqtisodiy ko'rsatkichlar yakuniy parametrlarining rivojlanishi ta'minlanadi.

Jahon iqtisodiyotida so'nggi asrda insoniyat ekologiyaga va atrof-muhit holatiga to'g'ri g'amxo'rlik qilmasdan iqtisodiy faoliyat olib bordi va rivojlandi. Sayyorada shaharlar yiriklashib, aholisi 20–35 millionli megapolislar ko'payib bormoqda. Bu energoresurslar, ayniqsa, yoqilg'iga bo'lgan talabni kun sayin o'sib bormoqda. Inson omili tufayli oxirgi yuz yilda yer sharida ekin ekiladigan yer maydoni to'rt dan bir qismga, o'rmonlar uchdan ikki qismga qisqardi. Buning natijasida dunyo bo'yicha keyingi 30 yil ichida hayvonot olamining 8–10 foizi qirilib ketdi. Sayyoramizda tropik o'rmonlar 14 foizni tashkil qilgan bo'lsa hozirda uning 6 foizi qoldi. So'ngi 50 yil ichida dunyoda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ichimlik suvi 60 foizga kamaydi[2]. Natijada butun ekotizimga antropogen tavsifdagi zarar yetkazildi, bu holat insoniyat istiqboliga tahdid solmoqda. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jahon xo'jalik iqtisodiyotida "yashil" iqtisodiyotga o'tish muhim hayotiy ehtiyojga aylandi.


"Barqaror rivojlanish" tushunchasi birinchi marta 1972 yilda Rim klubi tomonidan buyurtma qilingan Denniz i Donelloy Medouz tomonidan yozilgan dunyoga mashhur "O'sish chegaralari" asarida foydalanilgan: "Biz butun dunyo tizimini shakllantiruvchi modelni izlayapmiz, u quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: 1) to'satdan va nazoratdan chiqib ketadigan parchalanishdan holi barqaror bo'lishi. 2) butun aholining asosiy moddiy ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lishi lozim" [3]. 1972 yilda Stokgolmda bo'lib o'tgan atrof muhit muxofazasiga bag'ishlangan BMT konferensiyasida BMTning Atrof muhit dasturi (UNEP) ishlab chiqildi. "Barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini esa xavf ostiga qo'ymaslikga asoslangan rivojlanish tushuniladi" [4].

2000-yilda bo'lib o'tgan BMTning Mingyillik sammitida dunyo yetakchilari BMTning Mingyillik deklarasiyasini qabul qildilar, unda Mingyillik rivojlanish maqsadlari belgilab berildi, ulardan biri ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. Ushbu hujjatda mamlakatlarning global istiqbolda rivojlanishiga doir yangi yo'riqnomalar ko'rib chiqiladi, ular "Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM)" sifatida belgilangan, unda asosiylari tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrda "Bizning dunyomizni o'zgartirish: Barqaror rivojlanish bo'yicha 2030-yilgacha kun tartibi" deklarasiyasi katta ahamiyatga ega bo'lib, unda 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) belgilab berilgan. Ular orasida ekologik barqaror rivojlantirishning 5 ta asosiy maqsadi mavjud. Ekologik barqarorlik - bu barqaror tarkibiy tuzilmani funksiyalarini ekotizimning ichki va tashqi omillar ta'siridan tashkiliy tamoyillarini saqlab qolish qobiliyatidir[5]. Ishlab

chiqilgan BRMLari hozirgi va kelajak avlodlar uchun teng ekologik manfaatlar tamoyiliga asoslanadi. Barqaror rivojlanish tabiiy ekotizimlar va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi yaqin aloqadorlik munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, insonlar asosiy bo'g'indir, chunki ular global biosfera tizimidagi o'z rolini aniqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun uni saqlash va boshqarish uchun javobgardir.

Barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymaslikka qaratilgan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanishni "ijtimoiy"- "iqtisodiy"- "ekologik" uchlikning o'zaro bog'liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara hisobiga taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur etishimiz mumkin. Barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv global darajada ijtimoiy barqarorlik hamda madaniy xilma-xillikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning o'z me'yorida faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qilishi zarur bo'ladi[6]. Natijada, barqaror rivojlanishga qaratilgan konsepsiyaning asosini quyidagi 3 ta asosiy tamoyil tashkil etadi:



1.Rasm. Barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining asosiy tamoyillari[7]

Barqaror rivojlanish konsepsiyasida asosiy rol insonga berilgan, faqat u o'z xatti-harakatlari, tabiatga, biznesga va jamiyatga munosabati uchun, umuman olganda, barcha harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi mumkin. Bularning barchasi barqaror tizimni barpo etish jarayonida jamiyatning har bir a'zosi, fuqaro ishtirok etishini, kelajak esa har bir insonga bog'liqligini, shuning uchun har bir inson ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy sohalarga zarar yetkazmaslik uchun o'z ehtiyojlarini qondirishga ongli ravishda murojaat qilishi zarurligini bildiradi.

Ekologik komponenti tabiiy xilma-xillikni saqlash, bunda inson tomonidan tabiat resurslardan foydalanishda tabiatning maksimal chegaraviy imkoniyatlarini hisobga olinganda biosferani ifloslantiruvchi moddalarning zararli ta'siridan va iqtisodiy rivojlanish oqibatlaridan himoya qilish g'oyasini o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad - barqaror ekotizimni qayta tiklash, jamiyat o'z faoliyatini atrof-muhit holatiga va o'simlik va hayvonot dunyosining texnogen ta'siri va ekspluatatsiyasi yoki tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan yo'qotishlarni tiklash va to'ldirish qobiliyatiga moslashishi kerak.

Xulosa sifatida "barqaror rivojlanish", "yashil o'sish" va "yashil iqtisodiyot" tushunchalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning asosi sifatida qabul qilish mumkin. Shunday qilib, barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari, mezonlarining ko'p multivektorli tizimi to'rtta jihat: ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va raqamli bo'yicha aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot asosida "barqaror rivojlanish - bu bugungi va kelajak avlodlarning ehtiyojlari, atrof-muhitni qo'llab-quvvatlovchi chegaraviy imkoniyatlaridan oshmasligini imkon beruvchi milliy xo'jalikni muvozanatli ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va raqamli faoliyati jarayoni sifatida tushuntirishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva S.K. Iqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash masalalari. Iqtisodiy taraqqiyot va taxlil Ilmiy elektron jurnali. 2024 yil №5. B.385.
2. "Yashil iqtisodiyot sari: nazariy va amaliy yondashuvlar tahlili" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – T., TDIU. 2024. – 492 b.
3. Meadows D.H., Meadows D.L., Randers J., Behrens III W.W. The Limits to Growth: A Report for the Club of Rome's Project on the Predicament of Mankind. N.Y.: Universe Books. - 1972. - 205 p.
4. Yashil iqtisodiyot. Darslik. Asqarova M.T., Jamolov J.J., Xadjaev X.S. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi", 2022. – 312 B.
5. Luqmonov B. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish yo'llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024. Oktyabr. 7-son. 121-122 b.
6. Yoqubjonov D.I. "Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2023 yil. №8 son. B.20.
7. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

INSON QADRINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Sodiqova Mahbubaxon Raxmonaliyevna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson qadrini shakllantirishning konseptual asoslari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Inson qadrining mazmun-mohiyati, uning jamiyat taraqqiyoti, demokratik qadriyatlar hamda huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, inson qadrini ta'minlash va rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar – ijtimoiy institutlar, ta'lim tizimi, ma'naviy qadriyatlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Inson qadrini shakllantirishning konseptual yondashuvlari, uning nazariy-metodologik asoslari hamda zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inson qadri, konseptual yondashuv, ijtimoiy-falsafiy asoslar, inson huquqlari, demokratik qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy institutlar, jamiyat taraqqiyoti, insonparvarlik tamoyillari.

Kirish. Inson qadri - bu shaxsning jamiyat, davlat va madaniyat tizimida tan olinishi, hurmat qilinishi hamda uning huquq va erkinliklarining kafolatlangan holatini ifodalovchi ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy tushunchadir. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida inson qadrini shakllantirish masalasi global, mintaqaviy va milliy darajalarda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tushuncha demokratik jamiyat barpo etish, fuqarolik institutlarini mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta'minlashning konseptual asosi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz"[1] – degan fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson qadri tushunchasi qadimgi falsafiy qarashlardan boshlab shakllanib kelgan. Antik davr faylasuflari (Sokrat, Aflotun, Arastu) insonni ongli va axloqiy mavjudot sifatida talqin qilgan bo'lsa, Uyg'onish davrida inson shaxsi va uning erkinligi markaziy o'ringa chiqdi. Yangi davr falsafasida (I. Kant) inson qadrining asosiy mezoni sifatida shaxsning maqsad sifatida tan olinishi, uni vosita sifatida qo'llamaslik g'oyasi ilgari surildi.

Inson qadrini shakllantirishning muhim konseptual asoslaridan biri huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tamoyillaridir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, konstitutsiyaviy normalar va milliy qonunchilik inson qadrini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi.

Huquqiy konsepsiyada inson qadri:

- shaxsiy erkinlik va daxlsizlik;
- soʻz va fikr erkinligi;
- adolatli sud muhofazasi;
- davlat organlarining javobgarligi bilan taʼminlanadi.

Demokratik institutlarning samarali faoliyati inson qadrlining real hayotda roʻyobga chiqishiga xizmat qiladi.

Inson qadrlini shakllantirishda maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar alohida oʻrin tutadi. Milliy anʼanalar, diniy-axloqiy qarashlar va umuminsoniy qadriyatlar shaxsning ichki dunyosini boyitadi hamda ijtimoiy masʼuliyat hissini kuchaytiradi.

Axloqiy asoslar quyidagilarda namoyon boʻladi:

- oʻzaro hurmat va bagʻrikenglik;
- vijdon erkinligi;
- halollik va adolat;
- ijtimoiy masʼuliyat va fuqarolik burchi.

Taʼlim va tarbiya inson qadrlini shakllantirishning strategik omili hisoblanadi. Shaxsda tanqidiy fikrlash, huquqiy madaniyat, ijtimoiy faollik va vatanparvarlik tuygʻularini rivojlantirish orqali inson qadri mustahkamlanadi.

Zamonaviy taʼlim konsepsiyasida:

- shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv;
- kompetensiyaviy taʼlim;
- umrbod taʼlim gʻoyasi

asosida inson qadrlini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Globalashuv jarayonlari inson qadrlini shakllantirishga yangi imkoniyatlar bilan birga muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Axborot texnologiyalarining rivoji, madaniyatlararo muloqot va migratsiya jarayonlari inson huquqlarini himoya qilishni global masalaga aylantirdi.

Shu bois, inson qadrlini shakllantirishda:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligi;
- madaniy xilma-xillikka hurmat;
- global fuqarolik masʼuliyati kabi konseptual yondashuvlar muhim

ahamiyat kasb etadi.

Inson qadrlini shakllantirishning konseptual asoslari falsafiy, ijtimoiy, huquqiy, maʼnaviy va pedagogik omillar uygʻunligida namoyon boʻladi. Ushbu jarayon davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va shaxsning oʻzini oʻzi rivojlantirish faoliyati bilan uzviy bogʻliqdir. Inson qadrlini oliy qadriyat sifatida eʼtirof etish barqaror va adolatli jamiyat qurishning muhim sharti hisoblanadi.

Inson uchun eng oliy qadriyat uning hayoti va sogʻligidir. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatda “amalgam oshirilayotgan islohotlarimiz markaziga inson va uning manfaatlarini qoʻyib, davlatimiz rivojlanishi strategiyasini shakllantirdilar. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot - islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak”[2], - degan fikrlari ila inson

hayoti, ruhiy barkamolligi va uning yashash huquqi asosiy e'tiborda bo'lishi kerakligini qayd qiladi. Demak, respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faoliyatimizda inson, uning hayoti, ruhiy va ma'naviy barkamolligi, ichki imkoniyatlari va qobiliyatini amalga oshirish hamda yashashi uchun g'amxo'rlik yotadi. Mazkur masalani hal etishda, albatta, tarixiy-falsafiy bilimlarning ham ahamiyati kattadir.

“Inson va uning qadri muammosi – falsafaning azaliy mavzularidan biridir. Odam zotining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o'rni, insoniy fazilatlarini, shaxsiy xususiyati to'g'risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida turgan. Fan sohasida odamning jismoniy tuzilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o'rganish hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, uning ijtimoiy, ma'naviy qiyofasi va kamoloti bilan bog'liq jihatlari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzot uchun o'ziga o'xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o'rni, qadri, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq muammolar, azal-azaldan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obekti bo'lib kelgan”[3].

Globalashuv sharoitida inson haqidagi ta'limotlar g'oyat xilma-xil, muqobil ta'limotlardan iborat bo'lib, bir tomondan, uni kompleks-tizimli tasavvur qilishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, “ta'limotlar ummonidan” ma'qulini tanlashni taqozo qiladi. Shuning uchun insoniyat oldida qaysi ta'limot ilmiy-nazariy obektiv haqiqatga da'vogarlik qilishi, zamon talabiga javob berishi mumkin, degan savol muqarrar bo'lib turibdi. Jahon ilm-fanida bu kabi mezonlar “qadriyatlar sohasi”, “aksiologiya qonuniyatlari” tushunchasi qamroviga kiritib kelinadi. Aslida aksiologiya qonuniyatlari anchayin keng qamrovli bo'lib, unda asosan jamiyat farovonligi hamda inson qadri uchun va uning ma'naviy salohiyati uchun ximat qilishi tushuniladi.

Dunyoning nufuzli universitetlari hamda ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy tadqiqotlarda, G'arb va Sharq madaniyati qadriyatlar transformatsiyasining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga, aksiologik qonunlar nazariyasi va amaliyotining yangilanishi uning ratsional va konstruktiv jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shuning bilan bir qatorda, zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrab-avaylash, aksiologiya sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarida kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, aksiologik jarayonlarni muttasil ilmiy monitoring va prognozlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, aksiologik jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillar milliy va umuminsoniy qadriyatlar talabiga mos jamiyat qurish va jamiyat inson farovonligi va uning qadrlash yo'lida xizmat qilishi muhim hisoblanadi. Bu borada “Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim

masalalardan biridir”[4]. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining negizida “Inson qadri uchun” degan ulug‘vor g‘oyani amalga oshirilishi, shuningdek, 2022-yilni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”, 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlanishi bunda asosan vatanimizda yashayotgan har bir inson qadrini ulug‘lash, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Ayni paytda, O‘zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tishining aksiologik masalalari hamda uning bugungi amaliyot bilan uzviy bog‘liqlik dialektikasini chuqur va har tomonlama o‘rganish vazifalari ham dolzarblashib bormoqda[5].

Aksiologiya qadriyatlar va qadriyat sistemalarining jamiyat hamda inson hayoti uchun ahamiyatini, ularning ijtimoiy funksiyalarini ham o‘rganadi. Ma’lumki, qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasalar, gohida ma’naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydilar, faoliyatlarini boshqarib yoki yo‘lga solib turadilar. Bunda qadriyatlarning regulativ funksiyasi va ma’naviy mezon sifatidagi ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bir vaqtlar “Hamma yaxshi narsalar bolalarga”, degan shior bo‘lardi. Albatta, shunday. Ammo milliy yuksalish yo‘liga o‘tgan jamiyatda “Jamiki sa’y-harakatlar, ijtimoiy-ma’naviy sarf-xarajatlar, maqsad-muddao avvalo inson, uning kamoli va roziligi uchun”, degan shior bo‘lishi kerak. Bu shior zamirida ijtimoiy adolat tushunchasi yotadi[16].

Yangi O‘zbekistonda inson qadri va inson kamoloti masalasi bugungi kunda eng muhim va dolzarb masaladir. Buning boisi shuki, mustabid tuzumdan bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o‘tgan mamlakatimizda ushbu masala yanada keskinroq qo‘yilmoqda. Kishilararo munosabatda ba’zi qadriyatlarning qadrsizlana boshlaganligi, odamlar orasida giyohvandlik, firbgarlik, ishyoqmaslik, tekinxo‘rlik, o‘g‘rilik va boshqa yaramas illatlarning tez-tez sodir bo‘lib turishi hamda jamiyatda insonlarni qadrlashda barkamol avlodni tarbiyalashga diqqat-e’tiborni qaratishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистоннинг тараqqиёт стратегияси”. – Toshkent.: Ўзбекистон, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.
3. Qiём Назаров. Qadriyatlar falсафаси (Аксиология). -Toshkent.:2004.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. 1- tom.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. 1- tom.
6. Ахмаджон Мелибоев. Инсон qadри. Янги Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий газета. 2022 йил 9 июн, 114-сон.

IJTIMOIIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY- MADANIY QADRIYATLARNING O'RNI

Ibragimov Doniyor Baxtiyor og'li
NamDU, tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning ahamiyati, ularning milliy o'zlikni anglash hamda yosh avlodni axloqan tarbiyalashdagi roli tahlil etilgan. Ayniqsa, globallashuv sharoitida an'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, jamiyat, an'analar, o'zlikni anglash, axloq, yoshlar, globallashuv, rivojlanish.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy davlat konsepsiyasi fuqarolarning farovon hayotini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan muhim siyosiy-ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayoni nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillar, balki jamiyatning ma'naviy-madaniy asoslari bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, fuqarolik ongini shakllantirish hamda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar jamiyatning tarixiy tajribasi, milliy an'analari, ma'naviy merosi va madaniy rivojlanish darajasini o'zida mujassam etadi. Ular fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik, hamkorlik va o'zaro hurmat kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi. Shu sababli ijtimoiy davlatni rivojlantirish jarayonida jamiyatning ma'naviy-madaniy qadriyatlarini asrash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonida ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning tutgan o'rni hamda ularning ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi.

Ijtimoiy - madaniy qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u milliy o'zlik, tarixiy xotira, diniy va dunyoviy qarashlar, axloqiy me'yorlar, urf – odat, an'analar, adabiyot hamda san'at kabi ko'plab ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shuningdek, "Ijtimoiy - madaniy qadriyatlarga oila va nikoh, e'tiqod va din, san'at va madaniyat, ta'lim va fan, ekologiya va barqaror rivojlanish, bag'rikenglik va farqlarga hurmat, sog'liq va farovonlik, ijtimoiy adolat va tenglik, demokratiya va inson huquqlari kabi jihatlar kiradi." [1] Ushbu qadriyatlar jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy institutlar faoliyatida, shaxsning shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Demakki, ularni chuqur tahlil qilish va yangi davr talablariga mos tarzda

rivojlantirish jamiyatning har tomonlama yuksalishi uchun muhim asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yilda qabul qilingan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi va 2023-yilda umumxalq referendumida tasdiqlangan yangi Konstitutsiyasida ham inson qadri, ijtimoiy adolat, milliy o'zlik va madaniy meros ustuvor qadriyatlar sifatida belgilab qo'yildi. Bular esa nafaqat huquqiy hujjatlar darajasida, balki ijtimoiy amaliyotda ham tub burilishlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy - madaniy hayotni isloh qilish, qadriyatlarni tiklash va ularni zamonaviy hayotga integratsiyalash kabi vazifalar ilgari surilmoqda. Ushbu jarayon jamiyatning ijtimoiy ongida sezilarli o'zgarishlarga, ma'naviy yangilanishga zamin yaratmoqda.

Ko'p ilmiy adabiyotlar va maqolalarda ijtimoiy - madaniy qadriyatlar jamiyat hayotining turli jabhalarini qamrab oluvchi ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi. Shulardan J. Madraximovning yondashuvida, ijtimoiy - madaniy qadriyatlar axloqiy normalar, diniy, siyosiy va iqtisodiy e'tiqodlar, oilaviy hamda milliy an'analar bilan chambarchas bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Mamlakatimiz Prezidentining qarashlarida esa jamiyat barqarorligini ta'minlash zarurati mahalla hamda oila institutining ijtimoiy kuch sifatidagi o'rniga alohida ahamiyat berilganini guvohi bo'lamiz. Shuningdek, J. Madraximov mahalla tizimi milliy qadriyatlarni saqlash va yosh avlod ongiga singdirishdagi asosiy ijtimoiy institutlardan biri hisoblanishini va ta'lim hamda madaniy tadbirlar orqali bu qadriyatlarni mustahkamlash imkoniyati yaratilishini o'z takliflarida bayon etadi.

Shu bilan birga oilaning inson axloqiy tarbiyasidagi roli ham bir qator tadqiqotchilar tomonidan alohida e'tirof etiladi. Jumladan, Roziya Matibayeva oilani axloqiy qadriyatlar, hurmat, mehr - oqibat, mas'uliyat va an'analarni shakllantiruvchi makon sifatida ta'riflaydi. Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ma'naviy tarbiya jarayonidagi ahamiyati tobora ortib borayotgan davrda I.Usta-Alimova yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, axloqiy qadriyatlarni singdirish va ilm - fanga qiziqishni oshirishda ushbu vositalardan samarali foydalanishni ilgari suradi.

Shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy institutlarga ham qadriyatlar barqarorligini ta'minlovchi sifatida qaraydigan bo'lsak, unda mahalla va oilaning rolini beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Oila – muqaddas" degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib bo'lmaydi. Buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir, – deb takidlagan.[3]

Mahalla va oila institutlari faoliyatini qadriyatlar tarbiyaviy markazlariga aylantirish bo'yicha ijtimoiy loyihalarni rag'batlantirish muhim. Ular orqali ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik va o'zaro ishonch muhitini mustahkamlash mumkin.

Raqamli madaniyatni rivojlantirish orqali qadriyatlar targ'ibotini kuchaytirish zarur. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va raqamli kontent orqali milliy qadriyatlarni zamonaviy usullar bilan yosh avlod ongiga singdirish samarali bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda qadriyatlar masalasiga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Xususan, qadriyatlar transformatsiyasi, regional farqlar, gender va yoshlar kontekstida o'rganish orqali davlat siyosatiga ilmiy asoslangan tavsiyalar berilishi mumkin.

Ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning xalqaro kontekstda o'rganilishi O'zbekistonning global madaniyatlararo muloqotdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada xalqaro ilmiy hamkorlik va almashinuvlar rag'batlantirilishi kerak.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonida ijtimoiy-madaniy qadriyatlar muhim ma'naviy asoslardan biri hisoblanadi. Jamiyatda shakllangan milliy an'analar, madaniy meros va ma'naviy qadriyatlar fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat, hamjihatlik va fuqarolik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali jamiyatda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash hamda yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Shu jihatdan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Demak, ijtimoiy davlatni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga tayangan holda jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirish, milliy merosni asrab-avaylash va uni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biridir. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Социокультурные ценности: воздействие и влияние на общество. Источник: <https://obzorposudy.ru/polezno/sociokulturnye-cennosti-znachenie-i-vliyanie-na-bshhestvo> 25.01.2019

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/3351>

4. Madraximov Jahongir. Mahalla ma'naviy qadriyatlarni asrab avaylash va rivojlanish maskani <https://doi.org/10.5281/zenodo.13253319> Central asian journal of academic research volume 2, issue 2, february 2024. 67-73 – b.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN PRAGMATIK HAMKORLIK SIYOSATI

Yuldashev Bexzod Ruzimatovich
NanmDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan pragmatik hamkorlik siyosati va uning mintaqaviy barqarorlik hamda taraqqiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. So'nggi yillarda O'zbekiston tomonidan qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, siyosiy muloqotni mustahkamlash hamda savdo-iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalarni kengaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy yondashuvlar o'rganiladi. Shuningdek, ushbu hamkorlikning mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, o'zaro ishonchni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar. O'zbekiston, Markaziy Osiyo, pragmatik hamkorlik, mintaqaviy integratsiya, tashqi siyosat, iqtisodiy hamkorlik, barqaror rivojlanish, diplomatik munosabatlar.

Bugungi globallashtirish va mintaqaviy integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan sharoitda davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan o'zaro chambarchas bog'liq hudud bo'lib, bu yerda barqaror rivojlanish va xavfsizlikni ta'minlash ko'p jihatdan davlatlar o'rtasidagi samarali hamkorlik darajasiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan pragmatik hamkorlik siyosati mintaqada o'zaro ishonchni mustahkamlash, siyosiy muloqotni rivojlantirish hamda savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish, o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Bu siyosat Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik, transport-kommunikatsiya aloqalari, madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada mintaqada o'zaro ishonch va hamkorlik muhiti shakllanib, barqaror taraqqiyot uchun muhim sharoitlar yaratilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan pragmatik hamkorlik siyosatining asosiy yo'nalishlari, uning mintaqaviy integratsiya jarayonlari hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu hamkorlikning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari yoritilib, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rni ochib beriladi.

O'zbekiston mintakada rivojlangan iqtisodiy salohiyat, kommunikatsiyalar infratuzilmasi va malakali mehnat resurslariga ega. Bugun O'zbekiston aholisining soni 32 milliondan oshib ketdi. Shuningdek, u tabiiy resurslarga ham boy o'lkadir. Bu resurslarning aksariyati o'z ko'rsatkichlariga ko'ra betakrordir. Ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 50 nomdagi mineral resurslar kazib olinadi. Ularning baholangan qiymati 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Mamlakat oltin ishlab chikarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarda turadi. O'zbekistonda rangli metallarning kirkka yaqin koni bor. O'zbekiston mis va uran ishlab chikarish bo'yicha jahonning peshkadam o'n mamlakati katoriga kiradi. U kumush, rux, ko'rg'oshin va volfram zahiralari bo'yicha ham jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatimiz ancha katta energetik salohiyatga ega. O'zbekiston hududida umumiy zahiralari to'rt milliard tonnadan ko'prok bo'lgan 160 dan ortik neft konlari mavjud. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu strategik xomashyoni eksport kilishda O'zbekiston jahonda yetakchi o'rinlarda turadi. Bunday ijobiy mazmundagi statistik ma'lumotlarni yana ko'plab keltirish mumkin[1].

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida Markaziy Osiyo xalqaro instituti tashkil etildi. Mazkur institut mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, poytaxtimizda "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazilishi ham mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlash yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yillik maslahat uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusi ham mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. Birinchi uchrashuv 2018 yilda Nursultonda, ikkinchisi 2019 yilda Toshkentda o'tkazildi. Mazkur uchrashuvlar davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda siyosiy va iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga zamin yaratdi.

2017 yilning mart oyida O'zbekiston Prezidenti tomonidan Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga amalga oshirilgan tashriflar mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Tashriflar doirasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan hukumatlararo bitimlar imzolandi hamda biznes forumlar tashkil etildi. Shuningdek, chegaradosh hududlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni

rivojlantirish va mintaqaviy iqtisodiy forumlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi[3].

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada kengaydi. Jumladan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan 2016 yildan 2019 yilgacha bo'lgan savdo aylanmasi 2 barobardan ziyod oshib, 2,5 milliard dollardan 5,2 milliard dollargacha yetdi. O'sish ko'rsatkichlari Qozog'iston bilan – 1,8, Qirg'iziston bilan – 5, Turkmaniston bilan – 2,7 va Tojikiston bilan – 2,4 barobarni tashkil etdi.

Xususan, 2019 yil mintaqa davlatlarining tashqi savdo aylanmasi hajmi 2016 yilga nisbatan 56 foizga oshib, 168,2 milliardni tashkil etdi. Mintaqaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi esa 2019 yil 2016 yilga nisbatan 40 foizga oshib, 37,6 milliardni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019 yilda mintaqa davlatlariga tashrif buyurgan turistlar soni 2016 yilga nisbatan 93 foizga oshib, 18,4 million kishiga yetdi.

Mintaqaviy hamkorlikning muhim ahamiyati koronavirus pandemiyasi davrida ham namoyon bo'ldi. Markaziy Osiyo davlatlari pandemiyaga qarshi kurashda o'zaro axborot almashish, gumanitar yordam ko'rsatish hamda chegaralarda yuklarning uzluksiz harakatini ta'minlash orqali hamkorlikni kuchaytirdi. Natijada 29 dekabr holatiga ko'ra Markaziy Osiyoda koronavirus bilan kasallanganlar soni 375 ming kishini, ya'ni dunyodagi jami kasallanganlarning 0,5 foizini tashkil etdi. O'lim holati esa 1,7 foiz bo'lib, dunyodagi 2,1 foizlik ko'rsatkichdan past bo'ldi[4].

Bugungi kunda Markaziy Osiyo O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2021 yil yanvar–aprel oylarida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 foizga oshdi. Shu bilan birga, umumiy tovar aylanmasida mintaqa davlatlari ulushi 17,2 foizni tashkil etdi.

2020 yilda O'zbekiston bilan mintaqaviy tovar aylanmasida Qozog'iston ulushi 61 foizni, Qirg'iziston 18,2 foizni, Turkmaniston 10,6 foizni va Tojikiston 10,1 foizni tashkil etdi. 2016 yildan 2019 yilgacha O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti 1,3 milliard dollardan 2,5 milliard dollargacha oshib, umumiy eksportdagi ulushi 10,8 foizdan 14,5 foizga yetdi. Shuningdek, eksport hajmi Qozog'istonga – 1,5, Qirg'izistonga – 5,5, Tojikistonga – 2 va Turkmanistonga – 1,8 baravar oshdi[5].

2021 yilning yanvar–aprel oylarida Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 foizga oshdi va umumiy eksportda mintaqa davlatlari ulushi 19,9 foizni tashkil etdi. Xususan, 2020 yil yakunlariga ko'ra Markaziy Osiyo mamlakatlariga 454 million dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (45 foiz) hamda 365 million dollarlik to'qimachilik mahsulotlari (20 foiz) eksport qilindi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish jarayonida O'zbekiston muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, O'zbekiston va Qozog'iston tomonidan “Markaziy Osiyo

investitsiyaviy sherikligi” tashabbusini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot mintaqada investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Mintaqa davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar ham izchil rivojlanib bormoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga qariyb 150 million dollarlik yengil avtomobillar eksport qilingan bo‘lib, bu barcha avtomobillar eksportining 85 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Mazkur eksport hajmining asosiy qismi Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eksport qilinayotgan elektrotexnika mahsulotlarining 20 foizga yaqini Markaziy Osiyo mamlakatlariga yetkazib berilmoqda.

Mintaqa bozorlari ayrim tovar pozitsiyalari, xususan maishiy texnika mahsulotlari uchun muhim bozor hisoblanadi. Masalan, 2020 yilda “Artel” kompaniyasi mahsulotlarining yarim avtomatik kir yuvish mashinalari bozoridagi ulushi Qozog‘iston va Qirg‘izistonda 50 foiz, Tojikistonda 70 foizni tashkil etdi. Oshxona plitalari bozorida Qozog‘istonda 65 foiz, Qirg‘izistonda 20 foiz, suv isitgichlari bozorida esa Tojikistonda 58 foiz va Qozog‘istonda 37 foiz ulushga ega bo‘ldi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ham yuqori baholanmoqda. 2020 yilda mintaqa davlatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasi 142,6 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, shundan 12,7 milliard dollari yoki 8,9 foizi ichki mintaqaviy savdoga to‘g‘ri keladi[3].

Mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishda xalqaro hamkorlik ham muhim rol o‘ynamoqda. 2023 yil 19–20 may kunlari Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Qozog‘iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov hamda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Sian shahrida birinchi Markaziy Osiyo–Xitoy sammiti o‘tkazildi. Sammit yakunida Sian deklaratsiyasi qabul qilinib, to‘qqizta hujjat imzolandi.

Deklaratsiyada savdo to‘siqlarini kamaytirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va transport infratuzilmasini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, hujjatning 7-bandiga muvofiq Markaziy Osiyoning muhim Transevroosiyo transport markazlaridan biri sifatidagi maqomini oshirish, “Xitoy–Markaziy Osiyo” transport koridorini rivojlantirish hamda “Xitoy–Markaziy Osiyo–Janubiy Osiyo” yo‘nalishlarida multimodal transport tizimini kengaytirish zarurligi ta’kidlandi[6].

Shuningdek, “Yaqin Sharq, Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa”, jumladan “Xitoy–Qozog‘iston–Turkmaniston–Eron” hamda “Trans-Kaspiy” transport yo‘nalishlari bo‘yicha **Aqtau, Kurik va Turkmanboshi** dengiz portlari hamda **Termiz** shahrining tranzit salohiyatidan samarali foydalanish rejalashtirilmoqda.

Mazkur jarayonlar “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Markaziy Osiyoning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilib, mintaqa mamlakatlari, jumladan O‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshirmoqda. Sian deklaratsiyasi qabul

qilingach, “C+C5” formati orqali Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik yanada faollashmoqda.

Bundan tashqari, tarixan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘lini tiklash va mintaqaning xalqaro nufuzini oshirish maqsadlari ham ushbu loyihalarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda O‘zbekistonning geografik jihatdan Markaziy Osiyo markazida joylashganligi muhim strategik ustunlik hisoblanadi. Bu esa qo‘shni davlatlar bozorlariga tovarlarni qisqa yo‘nalishlar orqali yetkazib berish va transport xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Samarqand birdamlik tashabbusi” ham mintaqada umumiy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O‘zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, mintaqada o‘zaro ishonch va yaqin qo‘shnichilik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa Markaziy Osiyoni barqaror, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududga aylantirish uchun muhim asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқи / “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 11 ноябр № 228(6922)сон.

2. Жон Эдвард Хербст. Марказий Осиё: умумий келажак учун масъулият. “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 14 ноябр.

3. Нахимов О. Марказий Осиё давлатлари ўртасида савдо-иқтисодий ва инвестициявий ҳамкорликни ривожлантириш – тараққиётни таъминлаш омили <https://review.uz/oz/post/razvitie-torgovo-ekonomicheskogo-i-investicionnogo-sotrudnichestva-mejdu-stranami-centralnoy-azii-kak-faktor-obespecheniya-ix-razvitiya>

4. Мустафаев Б. Ўзбекистоннинг минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарор ва изчил ривожланишининг муҳим гарови <https://yuz.uz/news/ozbekistonning-mintaqaviy-siyosati-markaziy-osiyoda-barqaror-va-izchil-rivojlanishining-muhim-garovi>

5. "Янги Ўзбекистон" газетаси. № 125 (381), 2021 йил.

6. Омонов Б. Марказий Осиё давлатларини яқинлаштириш йўлида. https://uza.uz/ru/posts/markaziy-osiyoda-davlatlarini-yaqinlashtirish-yolida_524982.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINI NOMARKAZLASHTIRISH: HUQUQIY ASOSLAR VA MA’MURIY ISLOHOTLAR TAHLILI

Oltinoy Ma’mirova

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishning huquqiy asoslari va amaliyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Nomarkazlashtirish mahalliy hokimiyat organlari va demokratiya tamoyillari asosida fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida qatnashishini ta’minlaydi. Maqolada davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishning huquqiy asoslari, amaliy islohotlar va ularning samaradorligi haqida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, nomarkazlashtirish, mahalliy hokimiyat, huquqiy asoslar, ma’muriy islohotlar, demokratiya, fuqarolik jamiyati.

Mamlakatimizda davlat boshqaruv tizimini nomarkazlashtirishning huquqiy va siyosiy asoslarini shakllantirish maqsadlari mustaqillikning dastlabki davridan boshlandi. 1993-yilda mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish asosiy strategik pirovard maqsad deb e’lon qilinganidan keyin davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish islohotlari zaruratga aylandi. Shu bilan birga, birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan jamiyat va davlat rivojlanishining “O‘zbek modeli”ni e’lon qilinishi bilan mazkur modelni davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishsiz amalga oshirish mumkin emasligi aniqlashdi.

Mustaqillikning dastlabki choragida davlat hokimiyatini nomarkazlashtirishga oid rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo’lgan konstitutsiyaviy va huquqiy asoslar shakllantirildi. Lekin ularning barchasi asosan qog’ozda qolib ketdi. Amalda davlat hokimiyatini boshqarish markazlashtirish, ijro hokimiyat tizimi vakolatlarini oshirishga muhim e’tibor berildi. “Davlat – bosh islohotchi” tamoyili ijro hokimiyati, maxsus organlar, prokuratura va boshqa huquqni himoya qilish organlari vakolatlarini oshirish uchun xizmat qildi. Davlat hokimiyati iyerarxiyasi boshida maxsus xizmat, keyin ijro hokimiyat tuzilmalari turdi. Qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari esa hokimiyatning uchga bo’linish prinsipi hayotda ishlamagani uchun ijro hokimiyat homiyligida faoliyat yurita boshladi. Boshqaruvda yakka hokimiyatchilik ustunlik qildi.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tish e’lon qilingan bo’lsada, mamlakatda chuqur ildiz otgan avtoritar boshqaruv tizimining mavjudligi bu kabi munosabatlarni o’rnatishga yo’l qo’yadi. Chunki, fuqarolik jamiyati institutlari shakllanmagan, huquqiy davlatga xos belgilar shakllanmagan, yakkaboshchilik asosidagi avtoritar

boshqaruvga asoslangan mamlakatda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish mumkin emas edi. Qolaversa, davlat boshqaruvi bozor munosabatlariga moslashmagan bo'lib, u bu kabi munosabatlarni rivojlanishiga yo'l qo'ymas edi.

Davlat boshqaruv organlari tizimini nomarkazlashtirish islohotlari Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelganidan keyin boshlandi. U o'zining dastlabki prezidentlik davrida – 2017-yildan boshlab davlat hokimiyati boshqaruv organlarini nomarkazlashtirishga o'z diqqat-e'tiborini qaratdi. Uning tashabbusi va sa'i harakatlari bilan 2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatda davlat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish ma'muriy islohotlarning asosi yo'nalishlaridan biri sifatida e'lon qilindi [4].

Mamlakatda davlat boshqaruv tizimini nomarkazlashtirishni ma'muriy islohotlarning muhim omillaridan biri sifatida rivojlantirish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda qabul qilgan "Yangi O'zbekiston Ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida mujassamlashdi.

Shuningdek, Farmonga muvofiq ravishda 2023-yil 1-yanvardan boshlab mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining sonini 61 tadan 28 tagacha, shu jumladan vazirliklar sonini 25 tadan 21 tagacha qisqartirish, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalarini tartibga solish orqali ularni kamida 10 foizga qisqartirish, xususiy sektorga o'tkaziladigan davlat funksiyalari sonini kamida 3 barobarga oshirish, davlat-xususiy sheriklik va autsorsing mexanizmlarini keng joriy etishga [4] oid qarorlar qabul qilindi.

Shu bilan birga, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 2-maqsadida xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish, 3-maqсадida mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, shu jumladan hokimlarni saylash tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish. 6-maqсадida xususiy sektorga o'tkaziladigan ayrim davlat funksiyalari sonini 3 barobarga oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish ishlarini jadallashtirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash [2] vazifalari qo'yildi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 75-maqсадida "Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam «ovoziga» aylantirish, mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish, fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish, ularning faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, mahalliy kengashlarning 300 dan ortiq funksiyalarini qayta ko'rib chiqib, o'ziga xos bo'lmaganini bekor qilish vazifalari belgilandi. 76-maqсад Mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, ularni muddatidan oldin lavozimidan ozod

etishning huquqiy asoslarini yaratish. Hokimliklarning hududiy ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilashdagi rolini oshirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar (funktsiyalar) bo'yicha «vakolatlar reyestri»ni shakllantirish. Hokimliklar va vazirliklar bo'linmalarining bir-birini takrorlovchi 70 dan ortiq funksiyalarini optimallashtirish. Hokimliklarga yuklatilgan 500 dan ortiq vazifa orasidan ular faoliyatiga xos bo'lmaganlarini bekor qilish. 78-maqsadda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kamida 30 foiz vazifa va funksiyalarini mahalliy ijro organlariga o'tkazish [1].

Konstitutsiyaning 127-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining instituti sifatida e'tirof etilib, ularni davlat hokimiyati tizimiga kirmasligi mustahkamlab qo'yildi: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli" [5].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda davlat va mahalliy hokimiyat organlari tizimlarini nomarkazlashtirishning demokratik prinsiplar va huquqiy davlat talablariga javob bera oladigan huquqiy asoslarini o'zida ifodaladi. Undagi rivojlangan davlatlarga xos yangi qoida va prinsiplar mamlakatda davlat boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish va ma'muriy islohotlarni amalga oshirish uchun huquqiy asoslar hamda shart-sharoitlar yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/ 0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son.
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024 y., 06/24/221/0003-son; 28.12.2024 y., 06/24/227/1089-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 979-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston Ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2022 y. 21 dekabr//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2022 y., 06/22/269/1117-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2024-yil 2-fevral.// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLAR FAOLIYATINING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI BILAN BOG‘LIQLIGI

Maxmudov Feruz Tulkinovich

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Yurtimizda “Mahallabay” tizimni amaliyotda samarali ishlashini ta’minlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Mahallabay ishlash, mahalla, mahalla beshligi, mahalla yettiligi, ijtimoiy himoya.

Yurtimizda olib borilayotgan “mahallabay” ishlash mexanizmining ham muhim asosini ana shu tamoyil ya’ni, barcha soha vkillarining hamjihat bo‘lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashish bilan ifodalanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida bugungi kunda mahallalarda mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” keyinchalik soliq va ijtimoiy xizmat xodimining qo‘shilishi natijasida “mahalla yettiligi” tashkil etilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ehtiyojmand aholini ro‘yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi masalalarni tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o‘zida jamoaviy hal qilishdir. Shuningdek, bugungi kunda bandlik, tadbirkorlik va kasanachilik jamg‘armalari mablag‘lari har bir mahallaga taqsimlab berilmoqda.

Mahallalarda qulay va elektron ish yuritish yo‘lga qo‘yilib, amaldagi uchta platforma – “Onlayn mahalla”, “Xotin-qizlar”, “Yoshlar portali” o‘zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtirilgan. “Mahalla yettiligi” ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytirilib, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi bilan birgalikda ijtimoiy rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo qo‘llash bo‘yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo‘lib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, mahallalar – davlatimizning eng katta zaminidir [1]. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “mahallabay” va “fuqarobay” ish uslublari ayni damda aholi murojaatlari va jamiyatdagi ko‘plab muammolarni bartaraf etishda o‘z samarasini bermoqda.

Mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholining ijtimoiy talablaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilmoqda. “Mahallabay” ishlash, bu – barcha soha mutasaddilarining bir musht bo‘lib, mahallalardagi muammolar, aholi turmushidagi muhim masalalarni birgalikda hal etishning yangicha mexanizmidir [2]. Bugungi kunda yurtimiz hududlaridagi

muammolarni “mahallabay” aniqlash va bartaraf etish, xususan, hududlarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari ijrosini ta’minlash maqsadida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari mas’ul xodimlaridan iborat Ishchi guruhlar tuzilgan hamda mazkur amaliyot natijasida joylardagi odamlarni qiynayotgan ko‘plab ijtimoiy muammolar hal etilmoqda.

Xususan, mahallalarning ichki yo‘llari, ichimlik suvi va elektr ta’minoti, irrigatsiya tarmog‘ini yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Mahalla xodimlarining sektor rahbarlari va tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan olib borgan uzviy hamkorligi natijasida bugungi kunga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ko‘maklar berilib, xotin-qizlarning bandligi ta’minlanib kasb-hunarga o‘qitish ishlari jadal olib borilmoqda.

Yurtimizdagi mavjud barcha fuqarolar yig‘inlari qoshida tashkil etilgan “Ayollar maslahat kengashlari”da malakali psixologlarni jalb etgan holda ijtimoiy himoyaga va psixologik ko‘makka muhtoj ayollar uchun treninglar tashkil etilgan. “Har bir oila - tadbirkor” dasturi doirasida fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratish, fuqarolarning hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug‘ullanishlarga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolarga tomorqachilikni rivojlantirish maqsadida subsidiya ajratilib, ularning o‘quv kurslarida o‘qitilishi ta’minlanmoqda. O‘quv kurslarida kasb-hunarga o‘qitilgan fuqarolarga o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash uchun subsidiyalar ajratilmoqda.

“Mahallabay” tizimni amaliyotda samarali ishlashini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Jamoat xavfsizligi xodimlari tomonidan joylarda ishchi guruhlari tashkil etilib, yo‘l harakati xavfsizligi ta’minlanmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilayotganligi alohida ta’kidlangan. Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz-mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi, deya ta’kidladi davlat rahbari.

Bugungi kunda “Mahallabay” ishlash tizimda har bir mahallaga tijorat banklarining mas’ul xodimlaridan iborat doimiy vakil biriktirilaib, ular mahalla raislari bilan birga xonadonlardagi ahvolni, ishsizlar soni, ularning qiziqishlari, hududning “o‘shish nuqtalari”, mavjud tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini kengaytirish masalalarini o‘rganmoqdalar. Har bir mahallani rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda hokim yordamchilarining hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish tizimli ishlarni olib bormoqdalar. Xonadonlarni toifalarga ajratilib, daromadi kam, biroq daromad topishga harakat qilayotgan xonadonlar, doimiy daromadga ega, qo'shimcha daromad topish istagidagi xonadonlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan xonadonlar va iqtisodiy ahvoli yaxshi va o'ziga to'q xonadonlarga bo'lib o'rganilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilmoqda. Respublika kengashiga bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qilishi belgilab berilgan. "Mahallabay" tizimi asosida yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor qaratilib, aniq chora-tadbirlar asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahalla tizimini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. 26.09.2023. <https://president.uz/uz/lists/view/6695>.
2. Mahallabay" ishlash tizimi samaralari. 18.06.2021. <https://yuz.uz/news/mahallabay-ishlash-tizimi-samaralari>.

VATANPARVARLIK – INSONIYLIKNING ENG MUHIM KOMPONENTI SIFATIDA

Jurayev Sardorbek Xolmuminovich

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Vatanparvarlik bag'rikenglik insonni haqiqiy jasoratga, kerak bo'lsa jonini fido qilishga tayyorlaydi. Bugungi kunda har tomonlama mukammal ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurol vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tuyg'usi, urf-odat, meros, ma'naviyat, jasorat, globallashuv jarayoni.

Yurtimiz uzoq yillik, asrlarga tatigulik tarixga ega. Yurtimizning doimiy go'zal tabiati, moddiy-ma'naviy boyliklari, mehnatkash xalqi dunyoni o'ziga rom etib kelgan. Shu boisdan ham qadim Turon zaminini qo'lga kiritish barcha yashirin kuchlarning azaliy orzusi bo'lib uni amalga oshirishda har qanday vaziyatdan foydalanishga tayyor kuchlar borligini ham unutmashimiz darkor. Ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkir-allomalarimiz yaratgan milliy madaniy merosni asrab avaylashimiz lozim.

Vatanparvarlik tuyg'usi bu kishilarning kindik qoni to'kilgan o'z ona Vataniga, muhabbati va sadoqatini namoyon etadigan tushunchadir.

Vatanparvarlik tuyg'usi insoniyat, barcha xalqlar va millatlar uchun asrlar davomida sayqallanib kelgan oliy, umuminsoniy his-tuyg'ulardan biridir. Vatanparvarlik insonlarning o'z oshiyoni, kindik qoni to'kilgan yurt taqdiri mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan. Vatanparvarlik tuyg'usi insonda o'z vatanining o'tmishini va buguni bilan faxrlanish, har jabhada Vatan manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Zero, Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan [1].

Vatanparvarlik insonning o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joyi, zamin, maskaniga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy, ma'naviy xislatlari va fazilatlaridir. Fidoiylik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanib, uning oliy ko'rinishi jasoratdir.

Insoniyat taraqqiyotga erishib, ilm-fan taraqqiy etib borgani sari, mafkuraviy poligonlar va axborot xurujlarining ortib borishi insonlarning ongu tafakkurini o'zgartirish, ma'rifatli dunyoni barpo etish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda xalqlarning birdamligi millat kelajagini belgilovchi asosiy vosita ekanligini anglashimiz zarur. Zero bugungi kunda nga ommaviy axborot vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlarda ba'zan yaltiroq qog'ozga o'rab, ba'zan ochiqchasiga o'z niyatlarini bayon etayotganlarning chiqishi misolida guvoh bo'lyapmiz.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo'ygan bugungi kunda xalqimiz, yoshlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayot qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirishni alohida qayd etmog'imiz darkor [2].

Vatanni sevish hissi bizga begona emas. Vatan uchun jonini fido qilgan ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ming yillar davomida tillarda doston bo'lib kelishgan. Maslan, Chingizxon zulmiga qarshi Jaloliddin Manguberdi jasorati, Amir Temur shijoati, jadidlarimizning begunoh to'kilgan qoni, Abdulla Avloniyning so'z erkinligi uchun fidokorligi, Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlarni ilmili qilish, savodini chiqarish, chyet tilini o'rgatish haqidagi pandu-nasihatlar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, bu shijoatu jasoratlarning tag zamiri o'z manfaatini ko'zlash emas balki, ona Vatan istiqboli uchun vatanparvarlik qilish o'z jonini fido qilib bo'lsada uning kelajagi traqqiy etishi uchun xizmat qilish edi.

Vatanparvarlik buyuk tuyg'u ekan Vatan har birimizning qonimizda, jonimizda, ruhiyatimizda mavjlanar ekan vatanparvarlik bayrog'ini baland ko'tarib, Vatanni sevishni faqatgin so'zda emas amalda ham isbotlashimiz lozim. Jamiyatning barcha bo'g'inlari ayniqsa, xizmat lavozimida belgilangan barcha vazifalarni sidqidildan bajarish, taraqqiyotimizga hissa qo'shishi kamchiliklarni to'ldirish orqali millat va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish, fuqarolik mas'uliyatini oshirish, davlat va jamiyatda qabul qilgan har bir qonun va me'yoriy hujjatlarga so'zsiz bo'ysinish, haqiqiy vatanparvarlikning tamoyillaridandir.

Vatanni sevmok, unga sadoqat bilan xizmat qilish, tashvishli va quvonchli kunlarida hamdard va sherik bo'lish har bir insonning ma'naviy-axloqiy mas'uliyatidir. Buyuk o'zbek adibi Alixonto'ra Sog'unij Vatani va vatanparvarlik tuyg'usi xususida yozar ekan "har bir kishining beshta muqaddas narsasi ya'ni, Vatani, dini, moli, oilasi, joni bo'lishi lozim. "Biz, shu Vatani ahlimiz. Bu O'zbekiston Vatanimizning bir qatlami biz – o'zbek xalqi ota-bobolarimizning suyaklari bilan ko'tarilmishdir. Demak, bo'ynida ko'targan, qo'ynida saqlab, oq sut berib tarbiyat qilgan bu O'zbekiston – Turkiston bizning o'z ona Vatanimizdir" deb ta'kidlagan [3: 4].

Bugun tinchliksevar insoniyat ma'rifatli dunyoni istaydi. Ma'rifatli dunyoda davlatlar, siyosiy kuchlar, muholifatlar o'rtasida ma'naviy kelishuv yuzaga keladi. Ma'naviy kelishuv taraqqiyot darajasi, qaysi qit'ada joylashgani, aholisi soni, ijtimoiy yo'nalganlik holati, qarashlari, madaniyati, dinidan qat'i nazar, mamlakatlar, xalqlarning o'zligini hurmat qilish, umumiy taraqqiyot yo'lida maqsadlarini uyg'unlashtirishdan manfaatdorlik darajasidir.

Vatanni sevisish uchun katta qalb lozim. Bunday qalb doimo insonni haqiqiy jasoratga undaydi va uni Vatani yo'lida hech narsadan tap tortmaslikka kerak bo'lsa, jonini fido qilishga tayyorlaydi [4].

Xulosa qilib aytganda, matanparvarlik tuyg'usi har bir insonda shakllanib borar ekan o'zi tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan Vatani oldidagi farzandlik, fuqarolik burchini shakllantiradi. Vatanparvarlik Vatanni shunchaki sevisish, u to'g'risida she'r yozish, qo'shiq kuylash, chiroyli gapirishgina emas amalda ko'rsatish uning rivoji uchun o'z manfaatlaridan kechishdir. Vatanparvarlik borasidagi g'oyalar odamlarning avval sog'lom e'tiqodiga, so'ng amaliy harakatiga ta'sir etib, shu Vatanning ravnaqi uchun moddiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-ruhiy holatida aks etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2016 yil 20 avgust). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

2. Usmonov K. O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoref. -Toshkent, 2017. – B. 52.

3. Alixonto'ra Sog'unij. Turkiston qayg'usi. Arab imlosidan kirillga o'tkazib nashrga tayyorlovchilar: Ahadxonto'ra G'apponov Uvaysxonto'ra Shokirov. https://kutubxonachi.uz/media/books/turkiston-qaygusi_kutubxonachi.uz.pdf yu Kutubxonachi.uz. - B. 100.

4. A.Mavrulov. Vatani nima? Vatanparvarlik-chi? Yangi O'zbekiston gazetasi 28 fevral 2024. <https://yuz.uz/news/vatani-nima-vatanparvarlik-chi>.

**BOLALAR BILAN SODIR BO‘LADIGAN YO‘L TRANSPORT
HODISALARINING OLDINI OLISH INSON HUQUQLARINI
TA‘MINLASHNING ASOSI**
(pedagogik faoliyat misolida)

Ergashev Nurmuhammad Jalilovich
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Pedagogik faoliyatda bolalar bilan sodir bo‘ladigan yo‘l transport hodisalarining oldini olish inson huquqlarini ta‘minlashning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogika ta‘lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtirib, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, ta‘lim, tarbiya, bili, ko‘nikma, malaka, tjriba, fan tarmog‘i, yo‘l harakati xavfsizligi.

Ta‘limning zamonaviylashuvi aniqrog‘i taraqqiyotga moslashuvi pedagog kadrlarning ham kasbiy faoliyatini takomillashuviga olib keladi. Haqiqiy pedagog nafaqat pedagogik mahorat balki pedagogik qobiliyatga ham ega bo‘lishi zarur.

“Pedagogika” termini qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da paydo bo‘lgan bo‘lib, uning negizi “kuzatib boruvchi”, “yetaklovchi” ma’nolarni anglatadi. Ya’ni, Yunoncha “peydogog”, “paydi” - bola, “gogos” – yetaklovchi, “bola yetaklovchi” ma’nolarini anglatadi. Bugungi kundagi umumta‘lim maktablarida mashg‘ulotlarni o‘qituvchilar tomonidan didaktik disskurslarga oid o‘qitish nazariyasi shaklida tashkil etish orqali amalga oshirilishi aynan o‘sha yuqorida berilgan ta’rifga mos keladi [1]. O‘sha davrdan boshlab pedagogikani endi “o‘qish uchun qo‘llanma” haqidagi fan deb e’tirof etila boshlashgan.

Bugungi zamonaviy pedagogikada o‘qitish metodlari deganda o‘qitish maqsadiga erishish uchun, ta‘lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi. O‘qitish metodlari deganda esa o‘qitish maqsadga erishish uchun, ta‘lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

Pedagogika fanining ob’yekti maktab o‘quvchilari bo‘lib, uning predmeti beriladigan ta‘lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liqdir. Pedagogik ta‘lim-tarbiyadan maqsad taraqqiyotga qarab jamiyat talablari va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarining o‘zgarib borishini o‘rganishdir. Shunday qilib pedagogika ta‘lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtirib, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, ko‘rsatib beradi. Shuningdek ta‘lim tizimning barcha jabhalarini nazariy, ilg‘or tajribalar bilan qurollantiradi.

Yoshlarni to'g'ri tarbiya olish va iqtidorli bo'lish mahoratini takomillashtirib, ta'lim va tarbiya iboralaning o'zaro bog'liqligini namoyon etadi [2].

Agar tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllanib, kamol topsa, ta'lim chegaralangan ta'lim muassasalarida o'qituvchi-tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan davriy jarayonlarda olib boriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtirib dunyoqarashlar majmuini shakllantiradi. Ta'lim, tarbiya va ma'lumot uyg'unlashgan holda o'quvchini kamolotga yetaklasa o'qituvchi-tarbiyachi bunda yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishida yetakchilik qiladi. O'qituvchi maktabda ta'lim berish bilan shug'ullanar ekan, o'quvchilarni fan olami yangiliklaridan xabardor qilib, ularda insoniy sifatlarni shakllantirib, tarbiyalab boradi.

Ilm-fan tarqqiyoti, bu oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy axborot oqimini o'zlashtirish, ilmiy-tadqiqot malakalari, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o'quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Fanlarning shakllanishi o'ziga xos "fan daraxti"ni vujudga keltirsa uning tarmoqlari o'sha faning shoxlari misolida faoliyat yuritib keladi. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda aynan fan tarmog'i misolida bolalar yo'l transport hodisalarini oldini olishda harakat xavfsizligini ta'minlashga oid fan tarmog'ini kiritish ham dolzarb ham davr talabiga aylanib bormoqda.

So'nggi yillarda barqaror taraqqiyot asosi bo'lgan iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarining ortib borishi, aholi o'rtasida texnika transport vositalarining haddan ortiq darajada ko'payib borishiga olib kelmoqda. Natijada esa inson omiliga bog'liq bo'lgan holda yo'l transport hodisalarining harakat xavfsizligiga ta'sirini ortib borishiga olib kelmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda bolalar bilan bog'liq yo'l transport vositalarining ayanchli oqibatlari zahirida yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha yoshlarning bilim ko'nikma va malakalarini oshirishni aynan maktab ta'limidan boshlash lozimligini alohida qayd etish lozim [3]. Chunki, bolalar bilan bog'liq yo'l transport hodisalarining ayanchli statistikasi bugungi kunda ularning yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha birlamchi bilimlarining yetarli emasligi va ushbu fan tarmog'i maktab ta'lim dasturlariga kiritishga muhtoj ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Fan tarmog'ida bunday yangi ilmiy soha yoki ilmiy yo'nalishni qaror toptirish, jamiyatda mavjud holatlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o'z ichiga oladi. Aynan shu yo'nalishda oliy ta'limning iqtidorli bitiruvchilarini tayyorlash esa yo'l harakati faoliyati bilan bog'liq muammolarning yechilishiga vosita bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu o'z navbatida bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlovchi tizimda original va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini o'zlashtirgan va o'z ustida mustaqil ishlaydigan kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida yoshlarning yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga doir malaka va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida har bir fuqaroning yo'llarda mas'uliyat bilan harakatlanishi, yo'l qoidalariga amal qilishi muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim bo'g'inlarida yo'l harakati qoidalariga oid tushunchalarni izchil ravishda o'rgatib borish, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini muntazam ravishda mustahkamlanib borishiga xizmat qilib, yo'llarda xavfsiz harakatlanish qoidalariga amal qilishni jamoatchilik nazorati asosida nazorat qilish ya'ni, mahalla va ota-onalar jamoasi bilan yo'l patrul xizmati xodimlarining hamkorligini kuchaytirish yoshlar bilan bog'liq yo'l transport hodisalarining oldini olishda muhim samaradorlikga erishishi xizmat qilishi isbotlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yo'l harakati qoidalarini o'qitishning uzluksizligi va bosqichma-bosqichlik yoshlarda xavfsizlik madaniyatini barqaror shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biridir desak mubolag'a bo'lmaydi. Maktab o'quvchilarining yo'l harakati qoidalariga rioya qilishi nafaqat ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlaydi, balki ularning umumiy madaniyat, tartib-intizom va huquqiy ongning yuksalishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2002. – B. 207.
2. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2008.
3. M.Olimova. Yo'l harakati qoidalarini o'qitishda vizual metodlar samaradorligi. Pedagogik izlanishlar, 6 (1), 2019. – B. 88-94.

MAFKURAVIY IMMUNITET VA UNI YOSHLARDA SHAKLLANTIRISH MASALASI

Xushmatova Gulnoza Norkulovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Dunyoda globallashtirish jarayoni natijasi o'laroq axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi va kundalik hayotda ularning mustahkam o'rin olishi ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda turli salbiy holatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida umuminsoniy qadriyatlarga da'vat etuvchi taraqqiyotga undovchi ma'lumotlar bilan birgalikda hayotimizga tajavuzkor, g'arazli hamda buzg'unchi g'oyalar ham kirib kelmoqda. Yosh avlodni zamonaviy dunyoda kuzatilayotgan turli salbiy illatlardan asrash muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, amalda davlatning kelajagi va taraqqiyoti bilan

uzviy bog'liq. Shu nuqtai nazardan, ushbu masala har bir davlat uchun ob'ektiv zaruratdir.

Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurash kuchayib borayotganligi, bu kurashning harakteri yangi mazmun kasb etayotganligi, taktikasi va strategiyasi o'zgarayotganligi, jaxon tinchliksevar kuchlariga katta tahdid solayotganligi hozirgi murakkab va tahlikali sharoitda ma'naviy – ma'rifiy ishlarni davr talablari asosida tashkil qilish dolzarbligini ko'rsatmoqda.[1]

Prezidentimizning “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” asarida yoshlarni ma'naviy etuk inson qilib tarbiyalash, chinakam marifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi, yoshlar bilimi, saviyasini oshirish uchun ilm-marifat, yuksak ma'naviyat zarurati ilgari surilgan[2]. Mafkuraviy immunitet va uni yoshlarda shakllantirish masalalariga o'tishdan oldin “mafкура” tushunchasini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.Karimov mafkura xususida so'z yuritib shunday degan edi: mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga hos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman[3].

Amaldagi prezidentimiz SH.Mirziyoev mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichidagi asosiy g'oyasini quyidagicha tariflaydi: Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik , odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan[4].

Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi[5]. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki mafkuraviy immunitetni shakllantirishda asosiy e'tiborni maktablarga qaratmog'imiz lozimdir.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning muhim vazifalaridan biri, o'quvchilarning dunyoviy, ilmiy, dunyoqarshini shakllantirishdir. O'quvchilar uning asosida tarixiy taraqqiyotning rivojlanish yo'lini turli ijtimoiy hodisalarni

mustaqil anglab, mustaqil munosabat bildiradilar. Shu sababli ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'tish yoshlarni to'ldinlashtiruvchi zamonavuy hayot savollariga g'oyaviy nuqtai nazardan ishonarli javob berish zarur[6].

Shunday ekan, dunyo bo'yicha turli buzg'unchi g'oyalar yaqqol bo'y ko'rsatayotgan hozirgi sharoitda ertamiz egalari bo'lgan yoshlarimizni ularning ta'siridan asrab qolish yanada dolzarblik kasb etayotir. Shu bois mamlakatimizda jamiyatda radikallashuv, yoshlar ongining buzg'unchi, yot g'oyalar bilan zaharlanishini va dindan siyosiy maqsadda foydalanishning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar ro'yobga chiqarib kelinmoqda.

Mafkuraviy immunitet yoshlarning barqarorligini ta'minlovchi hamda yosh ongni begonlashuv, yoqimsiz taassurot, beqarorlik kabi salbiy omillarning tashqi va ichki ta'siridan himoya qilish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-pedagogik tizim hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, barcha tahdidlarni harakat va ko'rinishlariga ko'ra turkumlashtirishni taqozo etadi, bu esa yoshlarda mafkuraviy kompetensiyani shakllantirishning zaruriy shartidir. Tarkibiy tashkilotga ko'ra:

- oddiy (bir komponentli) tahdid;
- murakkab (ko'p komponentli) tahdid.

Shuni ta'kidlash kerakki, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tahdidlar murakkab (ko'p qirrali) hisoblanadi va turli sohalarga ta'sir qilishi bilan farqlanadi. Ular haqida ma'lumotga ega bo'lish tezroq javob berishni ta'minlaydi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan yondashganda tahdidlarning sabablari sifatida quyidagi hodisalarni ajratish mumkin:

- siyosiy nizolar;
- ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar;
- siyosiy aloqa shakllari (diplomatik munosabatlar);
- demografik vaziyat;
- siyosiy institutlar va shaxslararo munosabatlar;
- iqtisodiy va madaniy ahvol;
- ijtimoiy-pedagogik savodxonlik;

Aytish joizki, jamiyatda ijtimoiy-pedagogik savodxonlik masalasi alohida tadqiq qilinishi kerak. Ilmiy izlanishlarimiz ushbu mavzuni qisman qamrab oladi, chunki ijtimoiy-pedagogik savodxonlikning yuqori darajasi har qanday tahdidlarning salbiy asoratlarsiz (konstruktiv tarzda) o'tishini ta'minlaydigan tarbiyaviy kuch, mafkuraviy immunitetning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ilmiy usullardan foydalana bilishni taqozo etadi. Shuning uchun ekspert so'rovlari (stsenariy yondashuvi), anketa so'rovlari (jamoatchilik fikrini monitoring qilish), modellashtirish (jumladan, ijtimoiy-siyosiy muammolarni modellashtirish), simptomatologiya (belgilarni o'rganish), vizual-psixodiagnostika, test, kontent tahlili, qiyosiy tahlil, sotsiometriya, retrospektiv tahlil va amaliy tadqiqotlar tavsiya etiladi.

Yoshlarni o'z davlati va yurti mafkurasi ruhida tarbiyalash masalasi ijtimoiy-gumanitar o'quv fanlari, jumladan, pedagogika va psixologiya muammolari doirasida faol o'rganilib, jadallik bilan modernizatsiya qilinmoqda. Talabalarni g'oyaviy-siyosiy qarashlar, bugungi kun qahramonlari hayoti va faoliyatiga oid asarlar, hukumatimizning rasmiy va me'yoriy hujjatlari, milliy istiqlool g'oyasi hayotga tatbiq etilishini ta'minlovchi siyosiy-badiiy asarlar bilan yaqindan tanishtirish katta ta'sir ko'rsatishi ayon bo'ldi. talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish. Shu nuqtai nazardan, talabalar bilan nazariy seminar va konferensiyalar o'tkazish ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. To'garaklar faoliyati orqali o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy qarashlari shakllantirildi. Masalan, oliy o'quv yurtlari muzeylarida milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan tarixiy materiallar mavjud. Shu bois ayrim oliy ta'lim muassasalarida mazkur muzeylardagi ko'rgazmalar yuzasidan talabalar va ularning ota-onalari o'rtasida suhbatlar, ma'ruzalar, o'qishlar tashkil etildi. Ta'kidlash joizki, auditoriyadan tashqari tadbirlar o'quvchilarda milliy dunyoqarashning mafkuraviy asosini tashkil etibgina qolmay, balki uning amaliy harakatga aylanishini ham ta'minlaydi. Bunda talaba tinglovchi yoki kuzatuvchi rolida qolmaydi, balki bilimlarni mustaqil va erkin egallashga kirishadi va ilmiy va siyosiy axborotni tushunishga harakat qiladi. Bunda u o'zlashtirgan g'oyalarini tengdoshlari orasida faol targ'ib qila boshlaydi.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda eng muhim omillardan yana biri masala tarixiy xotiradir. Bu ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi bo'lib, o'tganlar xotirasini yodda saqlagan holda, e'zozlab yashash demakdir. Yoshlarni

shunday an'ana ruhida tarbiyalash, Vatanimiz tarixi bilan qurollantirish ma'naviyat va milliy mafkurani shakllantirish sohasidagi kechiktirib bo'lmaz vazifa. Tarix xalq ma'naviyatining asosidir. Binobarin, mustaqil O'zbekistonning buyuk ne'mati bo'lgan erki va ozodligi xalqimizning barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga zaminimizda voyaga yetgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib, o'z g'oyalari, tafakkuri bilan milliy g'oyaga asos solgan ajdodlarimizning boy merosi va sermazmun tarixiga ham tayanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, yoshlarimiz qalbi va ongiga milliy g'oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog'liqdir. Ana shularni nazarda tutib, yoshlarimizning mustaqil fikrlashi, ma'naviy olami, ijtimoiy faolligi o'sib borayotgani barcha yutuqlar poydevoriga, kuch-qudrat manbaiga aylanganligini, ayniqsa yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarning negizida inson omili hal qiluvchi rol o'ynayotganini kuzatish mumkin. Ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning tiklanishi, sog'lom avlodni har tomonlama yetuk, ma'nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy davlatchilik asoslari milliy o'zlikni anglash tamoyili bilan tobora mustahkamlanmoqda. Milliy-ma'naviy yangilanish, qadriyatlar qayta tiklanishi, iqtisodiy yuksalish taraqqiyot omiliga aylandi[7].

Xulosa qilib aytganda biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan. Bu borada quyidagilarga e'tibor berishni lozim deb hisoblaymiz: - Oilada, maktabgacha va maktab ta'limida ta'lim-tarbiyaga jiddiy yondashish zarur. - Bunda zamonaviy pedagog-tarbiyachi qiyofasini aks ettiruvchi konsepsiyani ishlab chiqish zarur. - Yoshlar qalbi va ongida zararli tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishda "ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oya"lari asos bo'lishi shart. - Yoshlar bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishda ota-onamahalla-ta'lim hamkorligini innovasion usullarini ishlab chiqish. - Yoshlarni Konstitutsiyaviy qadriyatlar hamda amaldagi qonunlarning mazmun - mohiyatini chuqur anglash va hurmat qilishga o'rgatib borish. - Maktab ta'limida Konstitutsiya va inson huquqlariga oid mavzularini chuqurroq tushuntirib borish lozim

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish", respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Samarqand: SamDCHTI, 2018/61/
2. Qodirov A. Quronboyev Q. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishning ilmiy-psixologik jihatlar. T/-Ma'naviyat, 2019.3b
3. I.Karimov Jamiyatning mafkurasi xalqni-xalq-millatni millat qilishga xizmat etsin// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.-T.:O'zbekiston, 1999.B84,89
- 4.O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining xamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi. <https://prezident.uz/uz/lists/view/4089>
5. Маънавият: асосий тушунчалар изохли луғати. Таҳрир ҳайъати: Х. Султонов ва б. – Т. Ғ. Ғулом. Номидаги НМИУ. 2009, - 292 б.
6. Акрамова Ш. Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш омиллари / Республика тарғибот маркази. – Тошкент: “Маънавият”, 2025. 21-22 б.
7. Xudoyberganov Sh.Sh “Yoshlarda mafkuraviy immunitetini shakllantirishning ijtimoiy-huquqiy masalasi” Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich T.: Mart 2022. 215-216.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MILLIY DAVLATCHILIKNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI

Yuldashev Askarjon Abdugappar o'g'li

*Toshkent fan va texnologiyalar universiteti
Kechki ta'lim bo'limi boshlig'ining o'rinbosari*

Annotatsiya. Mahmudxo'ja Behbudiy milliy uyg'onish jarayonlarida asosiy tutgan o'rn egallagan. Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi xizmatlari, darsliklar yaratish va matbuot orqali jamiyatni isloh qilish borasidagi faoliyati diqqatga sazovvor.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktabi, milliy uyg'onish, matbuot, islohot.

Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo'lgan taniqli dramaturg, publitsist va jamoat arbobi, Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishi oiladagi muhit undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan intilishda bo'lgan. Mahmudxo'ja

Behbudiy tarix, adabiyot, geografiya fanlari bilan shug'ullanish barobarida siyosiy islohotlarga ham qiziqadi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib borgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z yurtining ozodlikka erishishi uchun, eng avvalo, ozod yurtni boshqara oladigan va o'z yurtini rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan yangi avlodni tarbiyalash zarurligi g'oyasini ilgari suradi va shu g'oyalarni amalda tatbiq etish maqsadida yangi maktablar ochishga kirishadi. Natijada, 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi qishlog'ida Siddiqiy Ajziy va Rajabamin qishlog'ida Abduqodir Shakuriy bilan hamkorlikda yangi maktablar ochadi. 1908-yilda Abduqodir Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o'zining hovlisiga ko'chirtirib keltiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilning aprel oyidan turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marotaba, dastlab ikki, so'ngra to'rt sahifada chop etiladigan "Samarqand" gazetasini faoliyatini, ushbu gazeta moddiy tanqislik sabab 45 ta sondan so'ng to'xtagach, 1913-yilning 20-avgustidan esa "Oyna" jurnalining nashrini yo'lga qo'yadi. "Oyna" jurnali suratli, haftalik jurnal bo'lib, asosan o'zbek tilida nashr qilingan va unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilgan. Jurnalning Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiya davlatlarigacha tarqatilgani va uning nashri 1914-yil oktyabr oyiga qadar davom etgani, maqolalarda Turkiston o'lkasini isloh qilish g'oyalari ilgari surilganligi va bu maqolalar o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinganligi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, o'zbek dramaturgi va jurnalisti Ziyo Said tomonidan "Oyna" jurnaliga "Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi" deb, ta'rif berilgan [1].

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ilmiy merosi o'rganilar ekan, uning davlat miqyosidagi rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritganligi xususida ham qator ma'lumotlar uchraydi. ma'lumotlariga ko'ra, Behbudiyga milliy masalalar bo'yicha komissariatning turkiy millat masalalari bo'limini boshqarish topshirilgan. Komissariat nizomiga muvofiq, millatlar vakillari saylovlari o'tkazilgunga qadar quyidagi shaxslar vazifalarga: qozoq millatidan Xojikeldiyeva Kirg'iz, tatar millatidan Abdurahmon Abduxoliqov, turkiy millatidan Mahmudxo'ja Behbudiy, qipchoq millatidan Muhammadjon Shermuhamedov" tayinlangan [2].

Mahmudxo'ja Behbudiy umrining taxminan oxirgi ikki yili ilk sho'ro davriga to'g'ri kelgan. Uning xorijiy tillarni bilishi, keng mushohada va ko'p bilim egasi ekanligi, sho'rolarning turli jabhalarda boshlagan "inqilobiy" ishlariga aynan Behbudiyni jalb etilishiga sabab bo'ladi. U hatto Eron va Afg'oniston davlatlariga konsul qilib yuborishgacha taklif qilinadi. Biroq, Behbudiy o'z sog'ligi yomonligini bayon qilib bu lavozimdan bosh tortadi [3]. Yana bir tadqiqotda quyidagicha ma'lumotlar ham keltiriladi: "1918-yilda

bolsheviklar undan qutulish uchun Afgʻonistonga Shoʻro hukumati nomidan elchi qilib yuborish harakatiga tushadi. Behbudiy siyosiy oʻyinni anglab, eʼtiroz bildiradi, albatta” [4]. Biroq, ushbu hujjatlar Behbudiyning Turkiston siyosiy doirasida munosib oʻrni boʻlganligini koʻrsatadigan beqiyos dalildir.

Bugungi kunda Samarqand shahridagi Mahmudxoʻja Behbudiy yashagan Qoʻshtamgʻali mahallasi Mir Said Baraka koʻchasi, 47-uy, allomaning uy muzeyi faoliyat yuritmoqda. Ushbu uy muzeyida Mahmudxoʻja Behbudiyning nevarasi Nazirxon Behbudiy hamda evaralari Shoxruh va Zarrux Behbudiylar faoliyat yuritib kelishmoqda. “Zarafshon” gazetasida Behbudiyning evarasi Shohruh Behbudiyning quyidagi maqolasi ham eʼlon qilingan: “Taʼkidlash lozimki, maʼrifatparvar bobomiz oʻlimidan keyin “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnali tahririyati, “Behbudiy” nashriyoti xodimlari faoliyat koʻrsatgan ushbu uyni bolsheviklar tortib olgan. Bugungi kunda qadar bu yerda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi “Davlat mulkini ijaraga berish markazi” davlat unitar korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda edi. Samarqand shahridagi viloyat pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida Mahmudxoʻja Behbudiyga atab haykal-byust oʻrnatilgan. 2025-yil 3-yanvarda esa Toshkent shahridagi adiblar xiyoboniga Mahmudxoʻja Behbudiyning yana bir haykali qad rostladi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxoʻja Behbudiyning milliy davlatchilikni rivojlantirish borasidagi qarashlari oʻsh davrda mustaqillik gʻoyasining debochasi edi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yilda Turkiston jadidlik harakati asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi Mahmudxoʻja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisidagi qaror qabul qilindi. Mahmudxoʻja Behbudiy nomi zamonlar osha abadiy, tillarda doston boʻlib qolaveradi. Uning oʻgitlari hamon dolzarb, zamon andozalariga mos. Behbudiy qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va maʼrifiy meros ona Vatan istiqboliga xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ziyo Said. Oʻzbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). – Toshkent-Samarqand: Oʻzbekiston davlat nashriyoti, – T.: 1974. – 50.
2. Rinat Shigabdinov, Ravshan Abdullayev. Mahmudxoʻja Behbudiy hayotining nomaʼlum sahifalari. <https://www.uzanalytics.com/tarix/6815//> 25.02.2020.
3. .Shodmonov Behbudiyning vasiyati. <https://yuz.uz/news/behbudiyning-vasiyati> // 31.07.2023.
4. Zarafshon”ning Behbudiysi [Matn]: maqolalar / Toʻplovchi va nashrga tayyorlovchi: Akram Haydarov. – T.: “Sahhof” nashriyoti, 2020. – 144 b.

IJTIMOIIY DAVLAT SHAROITIDA OILA INSTITUTINING SOTSIOLOGIK TALQINI VA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH MASALALARI

Jumanazarova Asal

O'zbekiston davlat jahon tillari o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat sharoitida oila institutining sotsiologik talqini hamda inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Oila jamiyatning muhim ijtimoiy instituti sifatida uning huquqiy asoslari, davlat tomonidan himoya qilinishi hamda oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi hamda bolalar va xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashga oid milliy qonunchilik normalari tahlil qilingan. Shuningdek, oila institutini tushuntirishda strukturaviy-funksionalizm, ijtimoiy konstruktivizm hamda zamonaviy sotsiologik yondashuvlarning nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijasida oila huquqlarini ta'minlash ijtimoiy davlat rivoji hamda inson huquqlarini himoya qilishning muhim omillaridan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: oila instituti, ijtimoiy davlat, inson huquqlari, oilaviy munosabatlar, gender tengligi, bolalar huquqlari, sotsiologik nazariya, ijtimoiy barqarorlik.

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanib, u nafaqat ijtimoiy munosabatlarning asosiy shakli, balki inson huquqlarini amalga oshirishning muhim makoni sifatida ham namoyon bo'ladi. Oila institutining barqarorligi jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik hamda demografik rivojlanish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli oila munosabatlarini huquqiy tartibga solish hamda ularni sotsiologik jihatdan o'rganish zamonaviy ijtimoiy davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy huquqiy tizimlarda oila huquqlarini ta'minlash davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida tan olinib, davlat tomonidan himoya qilinishi belgilangan. Konstitutsiyaning 76-moddasida oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini ekanligi hamda uning davlat va jamiyat muhofazasida bo'lishi qayd etilgan. Shuningdek, mazkur moddaga ko'ra, nikoh erkinlik va tomonlarning teng huquqliligi asosida tuziladi. Bu norma oilaviy munosabatlarda erkak va ayol tengligi tamoyilini mustahkamlaydi hamda oila institutining ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

Oilaviy munosabatlarni batafsil tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi muhim o'rin tutadi. Mazkur kodeks oilaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari, nikoh tuzish tartibi, er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda ota-onalar va bolalar

o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Jumladan, kodeksning 2-moddasida oilaviy qonunchilikning asosiy prinsiplari sifatida nikohning ixtiyoriyligi, er-xotin teng huquqliligi, oilada bolalar manfaatlarining ustuvorligi hamda oilaning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi belgilangan. Shuningdek, 19-moddada er-xotinning oilada teng huquq va majburiyatlarga egaligi qayd etilgan bo'lib, bu norma gender tengligini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Bolalar huquqlarini ta'minlash masalasi ham oilaviy huquqning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida Qonun alohida ahamiyatga ega. Mazkur qonunning 3-moddasida bolaning asosiy huquqlari, jumladan, yashash, rivojlanish, ta'lim olish hamda oilada tarbiya topish huquqlari mustahkamlangan. Shuningdek, ushbu qonunda bolalarning manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Oilaviy munosabatlarda gender tengligini ta'minlash masalasi ham muhim huquqiy asosga ega. Bu borada Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida Qonun muhim rol o'ynaydi. Mazkur qonunning 4-moddasida erkaklar va ayollarning teng huquq va imkoniyatlari kafolatlanishi, shuningdek, gender kamsitishining oldini olish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan.

Oila huquqlarining huquqiy asoslari xalqaro huquqiy hujjatlar bilan ham mustahkamlangan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida nikoh erkinligi, er-xotin tengligi hamda oilaning jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishi belgilangan. Bu hujjat oilani inson huquqlarining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi.

Shuningdek, bolalar huquqlarini xalqaro darajada himoya qilishda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya muhim o'rin tutadi. Mazkur konvensiyaning 9-moddasida bolaning ota-onasi bilan birga yashash huquqi hamda oilaviy muhitda tarbiya topish zarurligi belgilangan. Bu norma bolalar manfaatlarini himoya qilishda oila institutining markaziy o'rni mavjudligini ko'rsatadi.

Ayollar huquqlarini himoya qilish sohasida Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya muhim xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur konvensiyaning 16-moddasida nikoh va oilaviy munosabatlarda erkaklar va ayollarning teng huquqliligi mustahkamlangan.

Oila institutining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirishda sotsiologik nazariyalar ham muhim o'rin tutadi. Strukturaviy-funksionalizm nazariyasiga ko'ra, oila jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biridir. Masalan, Talcott Parsons oila jamiyatda ijtimoiylashuv va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institut ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, oila jamiyatning madaniy qadriyatlarini yangi avlodga yetkazuvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Shuningdek, sotsiologiyada ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi ham oila institutini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko'ra,

ijtimoiy institutlar, jumladan oila ham, jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy konstruksiyalardan iboratdir. Bu g'oya Peter L. Berger va Tomas Lukmann tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular ijtimoiy institutlar insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanishini ta'kidlaydilar.

Zamonaviy sotsiologiyada oila institutining transformatsiyasi masalalarini tahlil qilishda A.Giddensning qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, globallashuv va modernizatsiya jarayonlari oilaviy munosabatlarning shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatib, nikoh va oilaning yangi modellari paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oila huquqlarining huquqiy asoslari milliy qonunchilik hamda xalqaro huquqiy standartlarning o'zaro uyg'unligi orqali shakllangan. Shu bilan birga, oila institutini chuqurroq tushunish uchun sotsiologik nazariyalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy normalar oilaviy munosabatlarni tartibga solsa, sotsiologik yondashuvlar oila institutining jamiyatdagi funksional ahamiyatini ochib beradi. Natijada oila huquqlarini ta'minlash ijtimoiy davlatni rivojlantirish hamda inson huquqlarini himoya qilishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шарҳлар. –Т.: Адолат, 2000, 44-бет.
3. Tagiyeva G.G., OILA VA GENDER SOTSILOGIYASI O'quv-qo'llanma. – T.: «SamDU nashriyoti», 2022 – 248 b.
4. Абдуллаева Я. Қорақалпоғ'истон хотин-қизлари. Кеча ва бугун (XIX-XX а). – Т.: Ижод дунёси, 2004. – Б.111.

GLOBAL JAMIYAT RIVOJIDA MIGRATSIYANI IJTIMOIIY-FALSAFIY TUSHUNISH ISTIQBOLLARI

Paxriddinov Umidjon Mo'minovich
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada migratsiyaning global jamiyat rivojidagi o'rni hamda uning ijtimoiy, madaniy va institutsional jarayonlarga ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiya zamonaviy globallashuv sharoitida jamiyatlar o'zgarishini belgilovchi muhim omil sifatida ko'riladi. Shuningdek, migratsiyaning mehnat bozori, ta'lim va ijtimoiy institutlarga ta'siri hamda transmilliy aloqalar orqali tajriba almashinuvi ahamiyati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: global migratsiya, globallashuv jarayoni, ijtimoiy institutlar, mehnat migratsiyasi, transmilliylik (transnationalism), ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy remittanslar

Kirish. Migratsiyaning global jamiyat shakllanishiga taʼsiri. Globallashuv jarayoni aholi migratsiyasini jahon miqyosidagi harakatlantiruvchi kuchga aylantirdi. Bugungi kunda yer yuzida qariyb 300 millionga yaqin xalqaro migrant yashamoqda. Bu dunyo aholisining taxminan 3,6 foizini tashkil qiladi va ushbu koʻrsatkich 1990-yillardan beri deyarli ikki baravarga oʻsdi[1, 21]. Migratsiya hozirgi global tizimda tovarlar va kapital aylanmasi bilan bir qatorda integral tarkibiy qismga aylangan.

“Xalqaro migrantlar soni yil sayin oshib bormoqda va bu jarayon insoniyatning yagona global hamjamiyat sifatida integratsiyalashuviga turtki bermoqda. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi, taʼlim va qochqinlik oqimlari bu integratsiya jarayonining muhim qismi boʻlib, global muammolarni (iqlim oʻzgarishi, demografik nomutanosiblik) birgalikda hal qilish zarurligini yanada ochiq koʻrsatmoqda”[2, 3-5]. Demak, migratsiya global jamiyatni shakllantirishda bir paytning oʻzida ham sabab, ham oqibat sifatida quyidagilarda namoyon boʻladi: u globallashuvga turtki boʻlsa, globallashuv esa oʻz navbatida migratsiya oqimlarini yanada kuchaytirmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Migratsiyaning globallashuv sharoitida global jamiyat shakllanishiga koʻrsatayotgan taʼsirini, uning ijtimoiy institutlar, identifikatsiya jarayonlari hamda transmilliy aloqalar bilan oʻzaro bogʻliqligini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy-falsafiy yondashuvga asoslanib olib borildi. Unda tahlil va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda interdisiplinar metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning obyekti. Mazkur tadqiqotning obyekti globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan migratsiya jarayonlari hamda ularning global jamiyat shakllanishiga koʻrsatayotgan ijtimoiy-falsafiy taʼsiri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Migratsiya faqat global jamiyatning umumiy manzarasini emas, balki uning ichki ijtimoiy tuzilmalarini ham oʻzgartiradi. Bu oʻzgarishlar muhojirlarni yuboruvchi va ularni qabul qiluvchi mamlakatlarda har xil koʻrinishda yuzaga chiqadi. Masalan, mehnat migratsiyasi tufayli oila instituti sezilarli darajada oʻzgaradi. Uzoq vaqt alohida yashashga majbur oilalar bunday hayotga moslashadi. Bu holat, ayniqsa, bolalarda “ivazli bolalik” deb ataluvchi vaziyatni keltirib chiqaradi: ota-onasi xorijda ishlayotgan bolalar koʻpincha boshqa qarindoshlar qaramogʻida yoki qarovsiz qoladi. Mazkur atama, baʼzi tadqiqotlarda, bozor iqtisodiyoti sharoitida bolalarning xizmatlari va faoliyatining tijoratlashuvi, ularning mehnati va eʼtiborining tovar sifatida baholanishi jarayonini ham anglatadi[3, 17-19]. Shu bilan birga, migrantlar orqali mamlakatga yangi qadriyatlar kirib kelishi oilaviy munosabatlar madaniyatiga ham taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Ijtimoiy institutlar migratsiyadan ko'p jihatdan foyda ko'rishi mumkin. Masalan, iqtisodiy institutlar nuqtai nazaridan migrantlar o'z mehnati va tadbirkorligi orqali qabul qilgan mamlakatning iqtisodiyotiga hissa qo'shadilar. Yangidan ish o'rinlari yaratilishi, innovatsiyalar, startaplarning paydo bo'lishi ko'p hollarda muhojirlarning sa'y-harakatlari bilan bog'liq. Jahon Banki ma'lumotlariga qaraganda, yuqori daromadli mamlakatlarda mahalliy aholining 83% qismi migratsiya tufayli farovonlikning oshishidan bahramand bo'lgan, chunki muhojirlar mehnat bozorini to'ldirib, mahalliy ishchilariga yordam beradigan ko'nikmalarni olib keladi va soliq to'lovchi sifatida jamiyatga hissa qo'shadi[4]. Shu bilan birga, muhojirlarni yuboruvchi mamlakatlar ham migratsiyaning "meva"laridan foydalanadi, migrantlarning vataniga jo'natayotgan mablag'lari remittanslar mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, 2023-yili rivojlanayotgan mamlakatlarga jo'natilgan ishchi muhojirlar pul mablag'lari 656\$ milliardga yetgan bo'lib, bu summa ushbu mamlakatlarga kirgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va rasmiy taraqqiyot yordamlaridan ham ortiqdir. Bu resurslar esa ko'plab oilalar farovonligi, ta'lim va sog'liqni saqlashga sarflanib, ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilmoqda[5]. Migratsiyani jamiyat rivojining muhim drayveri, ya'ni modernizatsiya omili sifatida baholash mumkin, chunki muhojirlar o'z yurtlariga nafaqat moddiy mablag', balki yangi g'oyalar, texnologiyalar va madaniy qadriyatlarni ham olib kiradilar. Ilmiy adabiyotlarda bu kabi g'ayrimoddiy ta'sirlar "ijtimoiy remittanslar" deb atalib, ular muhojirlarning bilim, tajriba va qarashlari orqali jamiyatda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga turtki beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotdan quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin: birinchidan, tartibli va insoniy migratsiya butun jamiyat uchun foydali bo'lib, kambag'allikni kamaytirish, ishchi kuchini to'ldirish, yangi g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy va madaniy farovonlikni oshiradi. Ikkinchidan, migratsiya oilaviy munosabatlar, ta'lim, mehnat bozori va huquq tizimi kabi ijtimoiy institutlarni o'zgartiradi; ularni yangi vazifalar va chaqiriqlarga moslashishga majbur qiladi. Shu bilan birga, muhojirlar tomonidan yuboriladigan remittanslar va ijtimoiy remittanslar yurt iqtisodiyoti va madaniy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Uchinchi jihat - ko'pmillatli va ko'pmadaniyatli jamiyatlarda ijtimoiy birdamlikni ta'minlash uchun muhojirlarning samarali integratsiyasi, mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik va ijtimoiy muvozanatni saqlash muhimligini ko'rsatadi. To'rtinchidan, global migratsiya oqimlari shaxsiy va jamoaviy identifikatsiyaning gibridd shakllarini yuzaga keltiradi, bu esa shaxsning o'zini va jamiyatdagi o'rnini anglash jarayonlarini murakkablashtiradi.

Shu asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, migratsiya siyosatini puxta rejalashtirish va amalga oshirish orqali uni global miqyosda barqaror rivojlanish vositasiga aylantirish. Ikkinchidan, muhojirlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda ularning integratsiyasini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozoriga kirishini rag'batlantirish. Uchinchidan, yuboruvchi

mamlakatlarda remittanslar va “ijtimoiy remittans”lardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, muhojirlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning qayta integratsiyasini osonlashtirish.

Shunday qilib, migratsiyani ijtimoiy taraqqiyot va barqaror global hamjamiyatni shakllantirish vositasi sifatida boshqarish zamonaviy globallashuv sharoitida strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2022. - Geneva: IOM Publications -2022. - P. 21.
2. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). International Migration Highlights. -New York: United Nations Publications. 2020. -P. 3-5.
3. Buckingham D. The Material Child: Growing Up in Consumer Culture. - Cambridge: Polity Press - 2011. Shuningdek - UNICEF. Impact of International Migration on Children Left Behind. - Florence: UNICEF Office of Research-Innocenti - 2020. - P. 17-19.
4. Leveraging Economic Migration for Development: A Briefing for the World Bank Board. 2023. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/167041564497155991/pdf/Leveraging-Economic-Migration-for-Development-A-Briefing-for-the-World-Bank-Board.pdf?>
5. Remittances and Migration//World Bank. www.worldbank.org/en/topic/migration/brief/remittances-knomad?

JAMIYATDA IJTIMOIIY ZIDDIYATLARNI BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.

***Islomov Sharof Abduraxmonovich**
NamDU mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy ziddiyatlarning mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etishning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Ijtimoiy ziddiyatlarning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy omillar bilan bog‘liqligi yoritilib, ularni tinch yo‘l bilan hal etishning huquqiy va institutsional mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mahalla instituti, ta’lim-tarbiya jarayoni, fuqarolik jamiyati va ochiq siyosiy muhit ziddiyatlarni kamaytirishda muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar. ijtimoiy ziddiyat, jamiyat, ziddiyatlarni boshqarish, ijtimoiy barqarorlik, murosa, fuqarolik jamiyati, mahalla instituti, dialog madaniyati.

Ijtimoiy ziddiyatlar jamiyatda kuzatiladigan kelishmovchiliklar, bahs-munozaralar, bir guruhlar yoki jamoa manfaatlarini bilan boshqasining manfaatlarini to‘qnashganida kelib chiqadigan holat sifatida ta’riflanadi. Odatda bu turli

iqtisodiy, siyosiy, madaniy yoki ma'naviy sabablar tufayli yuzaga keladi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda ziddiyatlar jamiyatda zaruriy jarayon sifatida baholanadi, chunki ular turli tuzilmalarda adolat mezonlarini qayta ko'rib chiqish, yangi islohotlar o'tkazish, ma'lum bir muammoning yechimini talab qilish uchun turtki bo'ladi. Ziddiyatlarni tushunishda bir qancha yondashuvlar mavjud. Ba'zilar ziddiyatlarning asosiy ildizlarini iqtisodiy manfaatlar o'rtasida ko'rishadi. Bu yondashuvda iqtisodiy boylikka ega bo'lish yoki uni taqsimlash tartibi belgilab beradigan nizolar asosiy o'rin tutadi. Boshqa qarashda esa ziddiyatlar kishi ongidagi farqlar, ma'naviy qadriyatlar, dunyoqarashlar tufayli paydo bo'ladi. Ya'ni iqtisodiy yoki siyosiy manfaatlardan ko'ra, ma'lum bir guruhlar birlarini tushuna olmaydigan madaniy stereotiplar muhimroq sabab sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ba'zi tahlilchilar uchun ziddiyat jamiyat ichida tabiiy ravishda yuzaga keladigan kurash bo'lib, u bilan birga jamiyat taraqqiy etishi mumkin. Ya'ni turli fikrlar, g'oyalar, konsepsiyalar yoki siyosiy dasturlar to'qnashuvi jamiyatni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu jarayonda tushunmovchiliklar, nizolar yuzaga kelishi tabiiydir. Shu sababli ziddiyatni to'liq yomon holat sifatida baholamasdan, unda islohotlarning "ittiruvchi kuchi" borligini ham e'tirof etish lozim.

Jamiyatda uchraydigan barcha ziddiyatlar, aslida, turli manfaatlar, qadriyatlar va maksadlar mushtarak joyda kesishganida vujudga keladigan murakkab jarayonlardir. Bunday holatlar taraqqiyot omili sifatida ham, beqarorlik manbai sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Ularning qanday shakllanishi va qanday hal etilishi jamiyat siyosiy-huquqiy tizimi, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, ma'naviy muhit, ta'lim va tarbiya ustuvor yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, ziddiyatlar tasodifiy voqelik emas, balki ichki va tashqi omillar ta'sirida muntazam ravishda paydo bo'ladigan, asta-sekin shakllanayotgan murakkab munosabatlar yig'indisidir. Jamiyatdagi ziddiyatlar nazariy jihatdan o'zaro bir necha maktablar tomonidan turlicha izohlanadi. Ba'zi quyi nuqtayi nazarlarda ular manfaatlar to'qnashuvi yoki iqtisodiy sharoitlar omili sifatida ko'riladi. Boshqa qarashlarda esa, ziddiyatlar tushunmovchiliklar, xususan, qadriyatlar, siyosiy guruhlar yoxud jamiyatda mavjud madaniy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlar ortidan kelib chiqishi mumkin deb aytiladi. Shu o'rinda funksional yondashuv ziddiyatlarni rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy holat sifatida talqin etib, ularda taraqqiyot uchun muayyan imkoniyatlar ko'radi. Postmodernistik qarash esa ziddiyatlarning doimiy ekanini ta'kidlaydi: turli manfaatlar, guruhlar, estetik yoki axloqiy nuqtayi nazarlar har doim to'qnashuvga moyil, ularni mutlaqo bartaraf etish esa amalda imkonsiz. Shuning uchun ziddiyatni o'z vaqtida taniy bilish, uni mojaro darajasiga yetkazmaslik, murosa va muzokara uslubida hal qilish eng maqbul yo'l sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston sharoitida ziddiyatlarni kamaytirish va ehtimoliy nizolarni bexatar yechim sari yo'naltirish bo'yicha tarixiy an'analardan tortib, bugungi zamonaviy siyosiy islohotlarga'acha ko'plab usullar shakllangan. Azaldan mahalla tizimi mahalliy darajada istiqomat qiladigan aholi o'rtasidagi

tushunmovchiliklar yoki nizolarni hal etishda muhim rol o'ynagan. Kattalar maslahatiga asoslangan mentalitet, jamoaviy birdamlik, ezgulik, totuvlik kabi qadriyatlar ziddiyatlarni kuchaytirmasdan, birlamchi bosqichlardayoq yumshatish imkoniyatini yaratgan. Mustaqillik yillarida esa siyosiy institutlar faoliyat yuritishi kuchaytirilib, huquq-tartibot organlarining jamoatchilik bilan uzviy aloqada ishlashi uchun keng huquqiy baza yaratildi. Bu jarayonda inson huquqlari, demokratik institutlar, siyosiy partiyalar faoliyatini liberallashtirish, axborot oshkoraligi kabi tamoyillar mustahkamlandi. Natijada, odamlar o'z muammolarini ochiq bayon qilish, huquqiy mexanizmlardan foydalangan holda murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunday sharoitda mojarolar oshib ketishi oldini olish osonlashdi.

Ziddiyatlarni bartaraf etish yoki ularni boshqarishda har doim bir necha muhim poydevorlar muhimdir. Birinchisi, huquqiy tizim mustahkam bo'lishi shart, ya'ni nizolar bilan bog'liq har qanday holatni ko'rib chiquvchi qonunlar aniq, tushunarli va aniq institutsional mexanizmlar bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak. Ikkinchisi, siyosiy muhitda ochiqlik, fikrlar rang-barangligini ta'minlash zarur. Aholi, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar va mahalla kabi birlamchi jamoalar bunday jarayonda faol bo'lishsa, nizolarni samarali hal etish juda osonlashadi. Uchinchisi, iqtisodiy rivojlanish, aholi farovonligini oshirish ham ziddiyatlar kamayishiga yo'l ochadi, chunki ma'lum bir toifa odamlar iqtisodiy yetishmovchiliklar, ishsizlik yoki resurslar uchun raqobat sababli nizoga kirishidan oldin, ularga imkoniyatlar yaratish nizolar kelib chiqishini minimal darajaga tushiradi.

Milliy miqyosda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar, huquqiy baza takomillashuvi, demokratik institutlarning nufuzi ortayotgani, ommaviy axborot vositalari erkinligi hamda huquqiy madaniyat taraqqiyoti ziddiyatlarning ildiziy sabablarini oldindan aniqlash va ilg'or xalqaro tajribadan samarali foydalanish imkonini beradi. Ana shu jarayonda mahalla instituti ham muayyan islohotlarga moslashib, aholi bilan yaqin hamkorlikda bo'lish, yoshlar bilan ishlash, ayollar huquqlarini ta'minlash, mahalla a'zolari o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklar yoki nizolarni vaqtida bartaraf etish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda. Shu bois mahalla tizimi, mahalliy darajada ko'plab muammolarni kattaqurbi nizoga aylantirmasdan yechish imkoniyati sifatida yuksak qadrlanadi. Ziddiyatlarni oldini olishda ta'lim va tarbiya jarayoni muhim o'rin tutadi. Chunki muqobil fikrlashni rivojlantirish, tanqidiy tafakkurni shakllantirish, ongli ravishda murosa yo'lini tanlash ko'nikmasini beradigan ta'lim tizimi jamiyat a'zolarini nizoli holatlarda samimiy dialog olib borishga yo'naltiradi. Yoshlar ilmiy-amaliy dunyoqarashi qanchalik keng bo'lsa, ziddiyatlarga yondashuvlari ham shunchalik chuqur fikrlash asosida bo'ladi. Shu ma'noda, O'zbekiston ta'lim tizimida ko'plab yangilanishlar, xorijiy o'quv muassasalari bilan hamkorlikdagi dasturlar, ilg'or pedagogik metodlarni joriy etish, yoshlarning huquqiy bilimni oshirish kabi jarayonlar kuzatilmoqda. Bular, bir tomondan, shaxsning mafkuraviy immunitetini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan,

jamiyatda paydo bo'ladigan ziddiyatlarni ortidan ko'ndalang keladigan keskinliklarni ham uzoq muddatli natijalar bilan kamaytiradi.

Bu jarayonda axborot makoni ham muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari erkinlashishi, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ommalashgani, odamlar o'rtasida fikr almashish jarayonini oshkorona ko'rinishga olib chiqdi. Agar axborot makonida uydirma yoki yolg'on ma'lumotlar tarqalsa, nizolar yanada kuchayishi mumkin. Shu sababli axborot manbalarida mas'uliyatli yondashuvni ta'minlash, haqqoniy ma'lumot tarqatish, odamlarning noroziligi yoki norozi fikrlariga munosabat bildirishda samimiyat va ochiqlikka e'tibor berish kerak. Hozirda turli internet nashrlari, blogerlar, mustaqil jurnalistlar davlat idoralarining rasmiy axboroti bilan bir qatorda xabar taqdim etish imkoniyatiga ega. Ularning faoliyati ziddiyatlarning ildiz sabablarini oshkor qilish, aholining qonuniy talablari yoki e'tirozlarini haqqoniy yoritib, ularni hal etish manzilli siyosatlarini rivojlantirish uchun yordamchi platforma vazifasini bajarishi mumkin. Ziddiyatlardan kelib chiqadigan pozitiv natija ham borligini unutmashlik lozim. Har qanday ziddiyat taraqqiyot chuqurlashuviga turtki bo'lishi mumkin. Chunki vaziyat tafsilotlari chuqur o'rganiladi, muammolar aniqlanadi, ma'lum bir siyosiy-huquqiy yechimlar qabul qilinadi, yangi institutlar tashkil etiladi yoki mavjudlari isloh qilinadi. Ziddiyat muqobil g'oyalar oqimida namoyon bo'ladi, jamiyat salohiyatini oshirish uchun yangi tadbirlar rejalashtiriladi. Muqobil manfaatlar ma'lum bir umumiy maqsad atrofida yig'ilsa, iqtisodiy yoki siyosiy sohada sifatli islohotlar uchun zamin paydo bo'ladi. Shu ma'noda, ziddiyatni "yomon" yoki "yaxshi" deb taqsimlash emas, aksincha, uni qanday boshqarish, qanday institutsional asosda tartibga solish eng muhim masala sanalib, jamiyat a'zolari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ylgi sifatida, bugungi kungacha saylovlar tizimini isloh qilish, davlat idoralarining jamoatchilik oldida hisobdorligini oshirish, "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tushunchani joriy etish orqali nizolar kelib chiqishi oldini olishga yo'naltirilgan siyosatni bosqichma-bosqich kuchaytirib bormoqda. Joylarda "Xalq qabulxonalari" faoliyati, fuqarolar bilan onlayn-oflayn uchrashuvlar, sayyor qabullar kabi mexanizmlar muammolarning "og'riqli nuqta"larini ertasiga qoldirmasdan, tezda yechim izlashni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlarning rol va nufuzini oshirish orqali demokratik muhit shakllanishi ta'minlanadi. Bunday g'oyalar, amalda turli ijtimoiy loyihalarda aks etar ekan, ziddiyatlarning oldini olish ham osonroq kechadi. Xalqaro hamkorlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bir mamlakatda paydo bo'layotgan ziddiyat ko'pincha global darajada ham extiyot qilinishi lozim bo'lgan tahlikali vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu terrorizm, ekstremizm, odam savdosi, axborot xurujlari kabi xavflar bilan ham bog'liq. Shu bois har qanday nizoli o'choqni barvaqt aniqlash va bartaraf etish butun mintaqaning taraqqiyoti uchun muhim. Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro

siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorligi, shu jumladan, transport kommunikatsiyalari va logistika loyihalari, mintaqaviy bozorlar integratsiyasi, ta'lim va fan sohasi almashinuvlari ham aynan ziddiyatlarni tinch yo'l bilan muhokama etish, murosa etish muddaosini quvvatlaydi. Bu jarayonda, masalan, suv resurslarini birgalikda boshqarish yoki sarhad masalalarida chegaralarni aniq belgilash kabi kichik ko'rinadigan, biroq juda muhim masalalar asrab-avaylab yechilsa, uzoq yillik nizolar oldini olish mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, jamiyatda ziddiyat bo'lishi – rivojlanish jarayonining tabiiy bir ko'rinishidir. Maqsad – ularni mutlaqo bekor qilish emas, balki ularni oqilona tarzda boshqarish, adolatli yechim topib, har bir manfaatdor tomon uchun maqbul yo'lni shakllantirishdir. Ziddiyat mustaqil taraqqiyot uchun imkoniyat beruvchi element sifatida ham namoyon bo'ladi, agar uning oqimi yaxshi yo'naltirilsa. O'zbekistonda mavjud tarixiy an'analar, huquqiy islohotlar, jamoatchilik institutlari va xalqaro hamkorlikka asoslangan yondashuvlar ana shunday ziddiyatlarni yengillashtirishda, oldindan aniqlashda va kanchalik tezkorlik bilan xususiyatlarga mos yechimlar yaratishda muhim o'rin tutadi. Islohotlar jarayoni tobora chuqurlashgan sari, dialog madaniyati, murosa, hamkorlik kabi tamoyillar yanada mustahkamlanadi, bu esa yoshlar tarbiyasida, jamoat fikrida, siyosiy qarorlarda o'z aksini topib, jamiyatda barqaror taraqqiyotga erishishni ta'minlaydi. Shu tariqa, ziddiyatlar jamiyat hayotidagi birlamchi xavf faktori sifatida ko'rilmadan, aql bilan yondashilsa, taraqqiyotni kuchaytirishga xizmat qiladigan dialektik jarayon sifatida maydonga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “O'zbekiston”, 2021. – 464 б.
2. Дарендорф Р. Социальные конфликты в индустриальном обществе. – Москва: Аспект Пресс, 2002. – 384 с.
3. Козер Л. Функции социального конфликта. -М.: Идея-Пресс, 2000. -208 с.
4. Тоффлер А. Третья волна. – Москва: АСТ, 2004. – 784 с.

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY VA DUNYOVIY DAVLAT QURISHNING MA'NAVIY–MAFKURAVIY ASOSLARI

O'rinboyev Ulug'bek O'rolboy o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Yangi O'zbekistonda ulkan imkoniyatlar va jadal islohotlar izchillik va tizimlilik asosida olib borilmoqda. Ushbu maqolada mazkur islohotlardan ko'zlangan maqsad, Yangi O'zbekistonni yangilangan dunyo tartibida o'zining mustahkam o'rniga va o'z mavqeiga ega bo'lgan rivojlangan, demokratik, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga yo'naltirilganligi o'rganilgan. Shuningdek bu maqsadlarga yetish uchun jamiyatning barcha sohalarida

demokratik, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish uchun muhim chora-tadbirlar, yo‘l xaritalari va natijaga qaratilgan shahdam qadamlar qo‘yilmoqda. Masalaning O‘zbekiston jamiyatida dolzarbligidan kelib chiqib, mazkur maqolada davlatchilik tarixi, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat tushunchalarining mazmun mohiyati haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Undan tashqari, Yangi O‘zbekiston tushunchasining umummilliy g‘oya va harakatga aylanishi, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish jamiyat ehtiyoji sifatida ko‘rib chiqilgan. Mavzuga oid mahalliy va xalqaro ekspertlarning fikr-mulohazalaridan iqtiboslar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, xalq hokimiyati, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat, sekulyarizatsiya, jamoatchilik, ijtimoiy soha, dunyoviylik, fan va ta’lim, madaniyat, ma’naviyat, mafkura, hokimiyat, tenghuquqlik, ochiqlik, plyuralizm, jamiyat, tabaqa, qatlam, e’tiqod, millat va elat, ijtimoiy birdamlik.

Yangi O‘zbekistonda xalq hokimiyatiga asoslangan, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish borasida muhim tashabbuslar ishlab chiqilib, jamiyat hayotiga faol ravishda targ‘ib qilinmoqda. Bu tashabbuslar o‘z samarasini berishi aniq. Ijtimoiy siyosatning mamlakatimizda hali ham ilmiy doiralarda yetarli darajada o‘rganilmagan soha sifatida rivojlanishi, uning milliy standartlarini ishlab chiqish, O‘zbekistonning dunyoviy davlat sifatida maydonga chiqishi muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Buning sababi shundaki, “inson qadr-qimmati” tushunchasi ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy siyosatning muhim xususiyatini tashkil etadi. Chunki har qanday dunyoviy davlatda ijtimoiy siyosat shaxsning ustuvorligi, uning qadr-qimmati, huquq va manfaatlari asosida shakllanadi.

Ayni shu maqsadda 2022-yilning iyun oyida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha keng jamoatchilik, mutasaddilar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda: “Inson qadr-qimmatini anglash ijtimoiy holatni anglash bilan bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy davlat ijtimoiy nomutanosiblikni kamaytirish va muhtojlarning ehtiyojlarini qondirish uchun samarali siyosatni amalga oshirish uchun namunadir. Ijtimoiy davlat muhtojlarning farovonligi va farovonligi uchun zarur bo‘lgan minimal iste‘mol tovarlari bilan ta’minlashga harakat qiladi. Buning uchun yashash uchun ish haqini ta’minlash, qashshoqlikni kamaytirish, ish o‘rinlarini yaratish, shaxs va uning oilasiga munosib hayot kechirish imkonini beruvchi xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash zarur. Shu bilan birga, ishsizlikdan himoya qilish, sifatli ta’lim, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oila, bolalar, ayollar, keksalar, nogironlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridandir.” deb ta’kidlagan edi.

Yangi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy, huquqiy va dunyoviy davlat qurish g‘oyasi allaqachon umummilliy harakatga aylanishga ulgurgan. Xo‘sh, ijtimoiy

va dunyoviy davlat o'zi qanday bo'ladi? Ularning qanday farqli jihatlari va o'xshashliklari bor? O'zbekiston shu paytgacha dunyoviy davlat emasmi? Shu va boshqa ko'plab savollar bugun bizning jamiyatimizda ilmiy doiralarda bot-bot takrorlanmoqda. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab demokratik dunyoviy davlat sifatida e'tirof etilgan va bu bosh qonunimizda ham mustahkamlangan. Yuqoridagi savollarga javob topish maqsadida quyida "ijtimoiy" va "dunyoviy davlat" tushunchalariga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz:

"Ijtimoiy davlat – har bir inson uchun farovon turmush darajasi, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlattir" [1].

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda "O'zbekiston–ijtimoiy davlat" degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman chunki "Inson qadri" tushunchasi "ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu g'oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug'lash, insonga xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassamdir" [2], deb ta'kidlagan edi.

Turli mamlakatlar va mintaqalarda ijtimoiy davlat shakli va rivojlanish yo'nalishida katta farqlar mavjud. Barcha ijtimoiy davlatlar aksariyat ijtimoiy dasturlarni xususiy tashkilotlar orqali boshqaradi va davlat hususiy sherikchilik asosida ijtimoiy xizmatlarni taqdim etadi. "Ijtimoiy davlatning xizmatlari ham turli hududiy darajalarda taqdim etiladi

"Ushbu tushunchaning etimologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak nemischa "Sozialstaat" (ijtimoiy davlat) atamasi 1870-yildan boshlab nemis ijtimoiy siyosatchilari (sozialpolitiker) tomonidan ishlab chiqilgan. Atama Otto fon Bismarkning konservativ islohotlari doirasida joriy etilgan davlatni qo'llab quvvatlash dasturlarini tavsiflash uchun ishlatila boshlangan.

Bugungi kunda bu atama faqat XIX asrda industrializatsiya, milliy davlatlarning shakllanishi va demokratizatsiya tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida paydo bo'lgan "zamonaviy" ijtimoiy davlat uchun qo'llanadi. "Inglizcha "welfare state" farovonlik davlati atamasi betaraf tasvirlovchi atama bo'lsa, nemis tilidagi "Wohlfahrtsstaat" atamasi ko'pincha salbiy ma'noda ishlatiladigan atama sifatida qo'llanadi" [3].

Yangi O'zbekiston siyosiy jihatdan ochiq va demokratik davlatni rivojlantirishga intilmoqda. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faol ishtiroki, so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalari demokratik qadriyatlarining muhim ko'rsatkichidir. Bu tamoyillar barqarorlik va ijtimoiy totuvlikni ta'minlaydi.

"Dunyoviy davlat" tushunchasi davlatning diniy tashkilotlar va dinlardan mustaqilligi bilan bog'liq. Bu modelda davlat boshqaruvi diniy qadriyatlarga emas, dunyoviy qonunlar va tamoyillarga asoslanadi. Dunyoviy davlatlar odatda

diniy erkinlikni kafolatlaydi, lekin diniy institutlarning davlat siyosatiga ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'yilmaydi.

“Sekulyarizatsiya” (lotincha – zeasikz dunyoviylik) Uyg'onish davrida yevropada keng tarqalgan qarash bo'lib ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, inson ongi va faoliyatida dunyoviylik ta'sirining kuchayib borish jarayonini ifoda etadi. XVII-XVIII-asrlarda Yevropada cherkovning yakka hukmronligiga qarshi shakllangan bo'lib, davlat bilan cherkovning bir-biridan ajratilishi, diniy tashkilot faoliyat doiralarining qisqartirilishi sekulyarizatsiyaga xos xususiyatlardir. Jamiyat hayotida o'sha davrda diniy xizmatlar va ibodatlarining kamayishi, fuqarolik ishlarini davlat ixtiyoriga o'tkazilishi adabiyot, san'at va axloqda dunyoviylik ro'lining oshib borishi sekulyarizatsiya bilan bog'liq. “Sekulyarizatsiya – ijtimoiy munosabatlar rivoji bilan bog'liq bo'lib, ilm–fan va texnikaning o'sishiga to'siq bo'lgan jarayonlar o'rnini yangilik egallashi natijasi ro'y beradi” [4]. Dunyoviy davlat yoki sekulyar davlat deganda diniy institutlar va diniy e'tiqodlardan mustaqil bo'lgan davlat tuzumi tushuniladi. Bunday davlatda din siyosatdan ajratilgan, barcha fuqarolarga teng huquq berilgan, hech bir din davlat tomonidan rasman qo'llab-quvvatlanmaydi. Dunyoviy davlat, odatda, shaxsiy erkinlik, adolat va inson huquqlarini himoya qilish uchun muhim deb hisoblanadi. Bunday davlatlar ko'pincha o'z fuqarolarini har xil diniy va ijtimoiy guruhlar orasida hamkorlikka va murosaga chaqiradi. Dunyoviy davlatning asosiy xususiyatlari:

- Din va davlatni ajratish: Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan mustaqil va hukumat diniy qoidalar bilan bog'lanmaydi.

- Din erkinligi: Har bir fuqaro yashash va o'z diniga e'tiqod qilish huquqiga ega.

- Diniy betaraflik: Davlat barcha dinlarga teng munosabatda bo'ladi va ularga bir xil huquqlar beradi.

Dunyoviy davlatning misoli sifatida Fransiya va Turkiyani ko'rsatish mumkin. Ushbu davlatlarda diniy institutlar davlat ishlariga aralashmaydi, diniy ta'limot davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Ayni paytda O'zbekistonda ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish jarayoni jamiyat hayotida yangi sahifalarni ochmoqda. Dunyoviy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda turli toifalar o'rtasida o'zaro hurmat, tenglik va barqaror rivojlanishni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Kelgusida bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ijtimoiy-siyosiy islohotlarni davom ettirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash zarur. Yuqoridagi keltirilgan malumotlardan kelib chiqadigan bo'lsak, keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yirik islohotlarning aksariyati ijtimoiy sohaga qaratilganini ko'rish mumkin. Xususan, aholini ijtimoiy himoya qilishni qo'llab-quvvatlash va kuchaytirish, unga davlat kafolatlari tizimini ta'minlash borasidagi ishlar amalga oshirildi. Davlat siyosati darajasida aholining farovon va baxtli hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish,

ishsizlik va qashshoqlikni kamaytirish, turmush sharoiti va sifati bo'yicha tengsizlikning oldini olish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu xayrli ishlar "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat", degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarish, xalqimizni rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Qonunchilik va xuquqiy siyosat instituti. - Toshkent. "Adolat" milliy xuquqiy axborot markazi, 2023-yil.- 8-bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqidan.

3. Fay, S. B. (January 1950). "Bismarck's Welfare State". *Current History* XVIII (101): 1–7.

4. Dinshunoslik: Qomusiy lug'at/ Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.– T.:Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, -2017. 337- bet.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA GLOBALLASHUV JARAYONINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Zavqiddin Gadoev Ibodovich
O'zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi

XX asrning so'nggi choragida jahon rivojlanishida sotsiomadaniy voqelikni jiddiy tarzda o'zgartirayotgan muhim jarayonlar boshlandi. Bu eng avvalo, globallashuv jarayonining omillaridan biri hisoblanuvchi zamonaviy informatsion texnologiyalarni jamiyatning barcha sohalariga kirib borishida o'z ifodasini topadi. O'z navbatida, zamonaviy globalizatsion jarayonlar davlatlararo iqtisodiy, madaniy munosabatlarning kuchayishi, shuningdek, dunyoni yaxlitligicha anglashning jadallashishi, global informatsion(axboriy) kenglikni(makon) shakllantirish zaruratini yaratadi.

Global informatsion kenglikni shakllanishi ko'p jihatdan informatsion oqimlarning jadallashuvi va ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga va umuman, jamiyatning informatsion kommunikativ rivojlanish omillariga asoslanadi. Zamonaviy informatsion texnologiyalar xususan, elektron OAV ommaviy ongga ta'sir ko'rsatishga imkon yaratadi va insonlar kundalik hayotiga shunchalik chuqur singib ketadiki, ular ishtirokisiz sotsial va madaniy jarayonlar lozim darajada ahamiyat kasb etmagan bo'lar edi. Ta'kidlash joizki, butun dunyoda OAV tizimi globallashuv jarayonining avj olishida faol tarzda ishtirok etadi so'nga o'zi ham uning ta'siriga tushib qoladi. Zamonaviy ya'ni, globallashuv sharoitlarida qator jarayonlarning murakkab hamohangligi natijasi sifatida yuzaga kelgan globallashuv omillari sababli, OAV faoliyatini tahlil qilish qiyinlashadi.

Globallashuv jarayonining sotsial-madaniy jihatlari turli talqinlarni keltirib chiqarganligi bois, bu jarayon madaniyatlar almashinuvida tabiiy hisoblanishi yoki asosiy sub'ektlari AQSh va transmilliy korporatsiyalar bo'lgan madaniyat industriyasiga ta'sir etuvchilar tufayli yuzaga kelishi o'rganiladi. "Global qishloq" sharoitida jamiyatni boshqarishning o'ziga xos usullarini yaratayotgan global televideniening globallashuv jarayonlari bilan bevosita bog'liqligini aniqlash globallashuv jarayonlarining yo'nalishi va shakllarini aniq belgilab berishga yordam beradi. Sotsiologik adabiyotlarda globallashuv jarayoni va OAV, xususan televideniening faoliyatida o'zaro mutanosib, parallel jihatlar mavjudligi keltiriladi.

Dastlabki ilmiy izlanishlar taraqqiyotning yangi bosqichlarini o'rganilishiga asoslangan bo'lib, 1960 - yillardan boshlab g'arb sotsiolog-postindustrialistlari D.Bell, P.Draker, M.Kastels, A.Toffler va boshqa mualliflar tomonidan o'rganilgan[1]. Mualliflar o'z adabiyotlarida rivojlangan davlatlarning sotsial rivojlanish jarayonining sifatli bosqichiga o'tayotganligini muhokama etib, bu jarayonlarga yaqinlashib kelayotgan postindustrial jamiyat (kelajakning postindustrial jamiyati) sifatida qarab, bu postindustrial yoki informatsion jamiyat ekanligini tahlil qiladilar.

Global audiovizual OAVning dastlabki shakllanishi zahirida o'z navbatida globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog'langan texnologik, iqtisodiy, siyosiy va sotsial xarakterdagi jarayonlarning o'rni bor. Dastlabki bosqichda (1940-1960 yillar) televidenie milliy tizim sifatida shakllana boshlagan va davlatlar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash vositasi sifatida davlat tomonidan to'liq nazorat qilingan.

1960-yillar so'ngida televizion kanallar va dasturlarning kengayishi tomoshabinlar qiziqishiga sazovor bo'lib, telepriemniklar narxini tushishiga olib keldi. Bu bosqichda yo'ldoshli aloqa yaratilishi va mediasektorning tijoriylashuvi natijasida televideniening internatsionallashuvi boshlandi. 1980-yillar o'rtalarida televidenie global mediatartib joriy etilishi hamda tijoriylashuv jarayonining chuqurlashuvi shuningdek, yuqori informatsion texnologiyalarning yaratilishi (uch turdagi efirga uzatishning yuzaga kelishi: raqamli, kabel va yo'ldosh aloqa) oqibatida davlatning bevosita nazoratidan chiqib yangi sifat bosqichiga o'tadi va global OAVga aylanadi.

Yangiliklar dasturlari amalga oshirish jarayonida makro va mikro darajada global sotsial voqelikni tarkib toptiradi. Makrodarajada televizion yangiliklar TVning davlatlar faoliyatiga sotsial voqelik sifatida qaralishiga va dunyoda informatsion shaffoflikni yuzaga kelishida ishtirok etadi Mikrodarajada teleyangiliklar ta'siri kun tartibini belgilab berish yo'li bilan, ya'ni tomoshabinlar uchun ahamiyatli va global muammolarni ajratib berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, televideniening real vaqt va kenglikda axborot uzatish imkoniga ega ekanligi tomoshabinlarning qabul qilish xarakterlarini o'zgartiradi va sotsial jarayonlarning deterritorizatsiyasini yuzaga keltiradi (qayta hududlashuv).

Ko'ngilochar dasturlar, xususan teleseriallar zamonaviy jamiyatning globallashuv shakllaridan biri hisoblanadi. Bir tomondan, teleseriallar o'ziga xos qadriyatlarga ega individual jamiyatlarni xarakterlovchi global madaniyat targ'ibchisi hisoblanadi. Bu qadriyatlar jamiyatning fragmentatsiya manbaiga aylanuvchi yangi tipdagi shaxsning shakllanishiga yordam beradi. Boshqa tarafdin esa, seriallarning o'zi muvaffaqiyatli format, fabula tufayli global tarzda tarqaladi. Bunday holatda, teleseriallar litsenziya asosida aniq bir davlatning mahalliy, madaniy o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda yaratiladi. Bu jarayonning globallashuvi seriallarni yaratilishi, tuzilishi va mahalliylashuvida o'z ifodasini topadi.

XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan jamiyat hayotining barcha sohalari transformatsiyasi axborot ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida tarqalishi bilan bog'liq. Sotsiologiyada bu o'tish davri bir biriga o'xshash bo'lgan informatsion va kommunikatsion texnologiyalarning shakllanishi natijasida yuzaga kelgan sivilizatsiya evolyusiyasining yangi bosqichi ko'rinishida qaralgan industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish deb talqin etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2018. 1-jild. – 530-b.
2. Bell D. Опыт социального прогнозирования. - М.: Academia, 1999.,
3. Draker P. Postkapitalisticheskoe obshchestvo. Antologiya. / Pod red. V. L. Inozemseva. - М.: Academia, 1999.,
4. Kastels M. Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshchestvo i kultura" - М.: GU VShE, 2000.,
5. Toffler A. Tretiya volna. - М.: ACT, 2002.

IJTIMOIIY DAVLATDA SIYOSIIY ISHTIROK VA BARQAROR RIVOJLANISH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Erkinov Ilxomjon Elmurodjon o'g'li

O'zMU

Siyosatshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy davlatda fuqarolar siyosiy ishtirokining barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati nazariy va qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. BRM 16-maqsadi kontekstida fuqarolik ishtirokini institutlashtirish mexanizmlari, Finlyandiya va Braziliya xalqaro tajribasi hamda O'zbekistondagi amaliyot o'rganilgan. Maqolada elektron ishtirok, "servis davlat" va "tashabbusli byudjet" modellarining ijtimoiy davlat shakllanishidagi roli ochib berilgan va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, siyosiy ishtirok, barqaror rivojlanish, BRM-16, elektron ishtirok, tashabbusli byudjet, jamoatchilik nazorati.

Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati, eng avvalo, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita hamda bilvosita ishtirok etish huquqini kafolatlash bilan o'lchanadi. Fuqarolarning siyosiy ishtiroki – bu shunchaki saylovlarda ovoz berish emas, balki davlatning strategik qarorlarini qabul qilish jarayonlariga aralashish, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish va davlat siyosatini shakllantirishda faol qatnashish demakdir. Xalqaro huquq normalarida, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida har bir inson o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan [1].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida (BRM) belgilangan 16-maqсад – “Tinchlik, adolat va samarali institutlar” – barcha darajalarda qarorlar qabul qilishda fuqarolarning ishtirokiga asoslangan, ochiq va vakillik muassasalarini yaratishni global vazifa sifatida belgilagan [2]. Shunday bo'lsa-da, 2024-yilgi xalqaro tahlillar ko'rsatadiki, BRM 16-maqсад bo'yicha global miqyosda faqat 40 foiz davlatlar monitoring ma'lumotlarini taqdim eta olmoqda; ko'pchilik davlatlarda fuqarolar siyosiy ishtiroki hali ham institutsional jihatdan yetarlicha mustahkamlanmagan [3].

Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan konseptual g'oyaga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvida fuqarolar ishtirokini takomillashtirishning yangi institutsional jihatlari – jamoatchilik muhokamalari, ochiq byudjet, elektron petitsiyalar – faol joriy etilmoqda. Mazkur maqolada ushbu mexanizmlar xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi.

Siyosatshunoslik nazariyasida davlat va fuqaro munosabatlarining an'anaviy vertikal (hokimiyat-bo'ysunuvchi) modelidan gorizontaal (hamkorlik va sheriklik) modeliga o'tishi “xalq va hokimiyat” munosabatlarini demokratlashtirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Fuqarolarning siyosiy ishtirokini to'laqonli ta'minlamasdan turib, qabul qilinayotgan qonunlar, davlat dasturlari va siyosiy islohotlarning legitimligiga erishib bo'lmaydi.

Bu ma'noda, ijtimoiy davlatda jamoatchilik nazorati insonning bevosita boshqaruvda ishtirok etish huquqini ro'yobga chiqaruvchi eng kuchli institutsional mexanizm sanaladi. O'zbekiston Respublikasida “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va faol fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan qonuniy nazorat o'rnatishiga huquqiy asos yaratdi [4]. Ushbu mexanizm davlat apparatiga o'z xatolarini o'z vaqtida ko'rish, byurokratiya va korrupsiyaning oldini olish hamda xalq oldidagi hisobdorlikni ta'minlash imkonini beradi – bu barqaror rivojlanish maqsadlarining bevosita kafolatidir.

BRM 16.7 ko'rsatkichi – fuqarolarning qarorlar qabul qilishga inklyuziv ishtiroki – bu sohada xalqaro monitoring asosi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich fuqarolarning o'z fikri tinglanishiga bo'lgan ishonchi darajasini o'lchaydi [5].

Xalqaro miqyosda bu ko'rsatkich bo'yicha etakchi o'rinlarni egallovchi davlatlarning tajribasi O'zbekiston uchun muhim metodologik asos bo'la oladi.

Finlyandiya modeli: institutsionallashtirilgan fuqarolik ishtiroki. Finlyandiya BRM global reytingida yetakchi o'rinni egallagan davlatlar qatorida bo'lib, siyosiy ishtirokning institutsionallashtirishida noyob tajribani namoyon etmoqda. Finlyandiya 30 yildan ortiq davomida faoliyat yuritib kelayotgan Barqaror Rivojlanish Milliy Komissiyasi – hukumat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqotni tizimli yo'lga qo'yuvchi asosiy platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu komissiya Bosh vazir raisligida ish yuritib, barcha ijtimoiy guruhlariga – xususiy sektor, fuqarolik jamiyati, ilm-fan, mahalliy hokimiyat vakillari – qarorlar qabul qilishda real ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi [6]. Finlyandiyaning bu modeli barqaror rivojlanish siyosatini birgalikda shakllantirishning jahon miqyosidagi namunasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Finlyandiya tajribasining asosiy o'ziga xos jihati – hukumatning BRM ijrosi bo'yicha hisobotini to'rt yilda bir marta parlamentga taqdim etishi va bu jarayonga mustaqil fuqarolik jamiyati ekspertizasini majburiy tarzda qo'shish amaliyotidir. Bu mexanizm fuqarolar nazoratini davlat siyosatining ajralmas qismiga aylantiradi va hukumatning hisobdorligini institutsional jihatdan mustahkamlaydi.

Braziliya tajribasi: “Tashabbusli byudjet” modeli. Fuqarolar siyosiy ishtirokining eng muvaffaqiyatli institutsional shakli sifatida 1989-yilda Braziliyaning Porto-Alegre shahrida joriy etilgan “Participatory Budgeting” (Tashabbusli byudjet) modeli butun dunyoda tan olingan. Ushbu model doirasida fuqarolar mahalliy byudjetning bir qismini qanday sarflash to'g'risida bevosita qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ldi. Porto-Alegre tajribasi shuni ko'rsatdiki, bu mexanizm joriy etilgan dastlabki o'n yil ichida suv va kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlangan uy xo'jaliklari ulushi 75 foizdan 98 foizga ko'tarildi; boshlang'ich ta'lim muassasalari soni to'rt barobarga oshdi [7].

Porto-Alegre modelining o'ziga xos siyosiy ahamiyati shundaki, u fuqarolarni resurslarni taqsimlashning passiv benefitsiarlari sifatida emas, balki ijtimoiy infratuzilmani shakllantiruvchi faol siyosiy subyektlar sifatida tan oldi. Bugungi kunda dunyoning 11 000 dan ortiq shahrida ushbu modelning turli ko'rinishlari qo'llanilmoqda [8]. BRM 16.7 maqsadi bilan bevosita bog'liq bo'lgan bu tajriba O'zbekistondagi “Tashabbusli byudjet” dasturining metodologik asosi sifatida ham muhim ilmiy qiziqish uyg'otmoqda.

Ikkala tajribani qiyosiy tahlil qilish quyidagicha umumiy xulosani beradi: ijtimoiy davlatda fuqarolar siyosiy ishtirokining barqaror rivojlanishga hissasi – bu tasodifiy yoki ixtiyoriy jarayon emas, balki maxsus huquqiy-institutsional mexanizmlar orqali shakllantirilgan tizimli siyosatdir.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida fuqarolarning siyosiy ishtiroki o'zining an'anaviy shakllari bilan bir qatorda raqamli – neoinstitutsional ko'rinishga ham o'tmoqda. BMTning Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index) xalqaro metodologiyasiga ko'ra, siyosiy jarayonlardagi raqamli ishtirok uchta asosiy

darajani o'z ichiga oladi: elektron axborotlashtirish (e-information), elektron maslahatlashuv (e-consultation) va elektron qaror qabul qilish (e-decision-making) [9]. Fuqarolarning ushbu uchala bosqichda faol ishtirok etishi inson huquqlarining global axborot makonida ta'minlanishini anglatadi.

O'zbekistonning milliy siyosiy amaliyotida mazkur tendensiya o'zining yorqin ifodasini "Tashabbusli byudjet" portali, jamoatchilik petitsiyalari tizimi ("Mening fikrim") hamda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali (regulation.gov.uz) misolida topmoqda. Xususan, davlat byudjetining ma'lum bir qismini hududiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirishda fuqarolarning bevosita ovoz berish orqali qatnashishi (participatory budgeting) amaliyotining joriy qilinishi mamlakatimizdagi siyosiy ishtirokning yangi sifat ko'rinishi bo'ldi. Ushbu mexanizm orqali fuqarolar nafaqat o'z hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda bevosita qaror qabul qilmoqda, balki ularning ongida "siyosiy daxldorlik" (political efficacy) hissi mustahkamlanmoqda.

O'zbekiston 2024-yilgi BMT Elektron hukumat rivojlanish indeksida 63-o'rinni egalladi va birinchi marta "juda yuqori" EGDI guruhiga kirib, elektron ishtirokning mamlakat miqyosida kengayib borayotganini ko'rsatdi. Biroq raqamli platforma mavjudligi bilan fuqarolarning real siyosiy qarorlarga ta'sir ko'rsata olishi o'rtasidagi farqni bartaraf etish hali dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy davlat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda davlat va fuqaro munosabatlarini "servis davlat" modeli asosida qayta qurish muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy nazariyada ushbu model davlatni fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi, sifatli ijtimoiy-siyosiy xizmatlar taqdim etuvchi muassasa sifatida talqin qiladi. O'zbekiston Respublikasida xalq bilan muloqotning institutsionallashuvi – xususan, Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari tarmog'ining yaratilishi fuqarolarga o'z muammolarini to'g'ridan-to'g'ri davlatning yuqori bo'g'inlariga yetkazish va siyosiy kun tartibini shakllantirishda ishtirok etish imkonini berdi [10].

Siyosatshunoslikda davlat hokimiyatining kuchi faqat uning majburlov apparati bilan emas, balki jamiyatning unga bo'lgan ishonchi (political trust) bilan o'lchanadi. Fukuyamaning "ijtimoiy kapital sifatidagi ishonch" konsepsiyasiga ko'ra, fuqaro qabul qilinayotgan qarorlarga real ta'sir ko'rsata olishini his qilgandagina "siyosiy begonalashuv" (political alienation) sindromi yo'qoladi va davlat islohotlariga daxldorlik hissi shakllanadi [11]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki – xoh Finlyandiyaning komissiya modeli, xoh Braziliyaning tashabbusli byudjet mexanizmi bo'lsin – fuqarolar real qarorlar qabul qilishga jalb etilganda ular o'z davlatiga bo'lgan ishonchi ortadi va shu tariqa ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida mahalliy Kengashlar rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligida jamoatchilik ekspertizasini o'tkazish majburiyligini belgilash kabi mexanizmlar aynan davlat

va jamiyat o'rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlash hamda inson huquqlarini BRM talablari darajasida himoya qilishga qaratilgan [12]. Bu islohotlar Finlyandiya va Braziliya tajribasining asosiy saboqlari bilan ham uyg'un keladi: siyosiy ishtirok samarali bo'lishi uchun u qonuniy, muntazam va real ta'sirga ega bo'lishi zarur.

Jamiyatning barqaror taraqqiyotini kafolatlash va inson huquqlarini to'laqonli ta'minlash faqatgina davlat boshqaruviga fuqarolarni keng jalb etish, ularning siyosiy ishtirokini neoinstitutsional vositalar – elektron hukumat, servis davlat, ochiq byudjet – yordamida takomillashtirish orqali amalga oshadi. Finlyandiya va Braziliya tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy davlat barqarorligining asosi – bu fuqarolarning siyosiy ishtirokini institutlashtirishdan iborat. BRMning 16-maqsadida belgilanganidek, samarali, ochiq va hisobdor institutlarni yaratish bugungi islohotlarning asosiy o'zagini tashkil etishi lozim.

Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Mahalliy darajada siyosiy ishtirokni kengaytirish. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida byudjet ijrosi va hududiy dasturlarni tasdiqlashdan oldin majburiy tartibda “Ochiq jamoatchilik eshituvlari” institutini joriy etish va qonuniylashtirish. Finlyandiya komissiyasi tajribasiga tayanib, ushbu eshituvlarga mustaqil fuqarolik jamiyati ekspertizasini qo'shish maqsadga muvofiqdir.

2. “Tashabbusli byudjet” qamrovini ijtimoiy siyosatga integratsiya qilish. Braziliya Porto-Alegre modeli ko'rsatganidek, fuqarolarning moliya boshqaruvidagi ishtirokini faqat infratuzilma bilan cheklab qolmasdan, ijtimoiy himoya, ekologiya va yoshlar siyosatiga oid mahalliy dasturlarni moliyalashtirish yo'nalishlariga ham kengaytirish.

3. “Davlat organlarining ochiqlik va ishtirok indeksi”ni joriy etish. Davlat idoralari faoliyatini baholashda qabul qilinayotgan qarorlarga aholini qanchalik jalb etgani (elektron platformalar orqali olingan takliflar ulushi) asosida yagona milliy indeksni ishlab chiqish.

4. Fuqarolik ta'limi tizimini mustahkamlash. Yangi avlodni siyosiy ishtirokka tayyorlashda fuqarolik ta'limini o'rta va oliy ta'lim dasturlariga majburiy kiritish. Finlyandiyaning “Barqaror rivojlanish Yoshlar guruhi” tajribasi bu yo'nalishda o'rganishga loyiq model hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy davlatda siyosiy ishtirok va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik – bu nazariy abstraktsiya emas, balki Finlyandiya va Braziliya kabi davlatlar tomonidan empirik jihatdan isbotlangan siyosiy haqiqatdir. O'zbekiston uchun bu tajribaning ahamiyati shundaki, u mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning to'g'ri yo'nalishda ekanligini tasdiqlaydi va keyingi qadamlar uchun aniq institutsional modellar taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III) rezolyutsiyasi. 21-modda. <https://www.ohchr.org/en/human-rights>
2. United Nations. The Sustainable Development Goals Report 2023. Goal 16 – Peace, Justice and Strong Institutions. – New York: UN, 2023. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2023/>
3. International IDEA. SDG 16 as an Enabler of the 2030 Agenda. Policy Paper No. 32. – Stockholm: International IDEA, July 2024.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3663397>
5. UNDP. SDG 16.7.2: Ensuring Inclusive and Responsive Decision-Making. Policy Brief. – New York: UNDP, 2022. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2022-09/Final%20Policy%20Brief%2016%207%202_0_0.pdf
6. Ministry for Foreign Affairs of Finland. 2030 Agenda – Sustainable Development Goals. URL: <https://um.fi/agenda-2030-sustainable-development-goals>
7. World Resources Institute. Porto Alegre: Participatory Budgeting and the Challenge of Sustaining Transformative Change. – Washington, D.C.: WRI, 2019. <https://www.wri.org/research/porto-alegre-participatory-budgeting-and-challenge-sustaining-transformative-change>
8. Tandfonline. Participatory budgeting and local development: Impacts, challenges, and prospects. Local Development and Society. 2024. <https://doi.org/10.1080/26883597.2024.2391664>
9. United Nations. E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. Chapter 3: E-Participation Index. – New York: UN DESA, 2024. <https://desapublications.un.org/publications/un-e-government-survey-2024>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4904-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3089924>
11. Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. – New York: Free Press, 1995.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6324756>.

IJTIMOIIY DAVLATNI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR RAQAMLI BOSHQARUV MODELLARI INTEGRATSIYASI

Abdullayev Diyorbek Azadovich
O'zMU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy davlatni rivojlantirish va inson huquqlarini ta'minlashda ilg'or xorijiy davlatlar, xususan, Estoniya, Janubiy

Koreya, Singapur hamda Xitoy Xalq Respublikasining raqamli boshqaruv modellari tahlil qilingan. Ushbu xalqaro tajribalarning siyosiy mohiyati o'rganilib, raqamli integratsiyalashuv orqali Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va shaffoflik mexanizmlarini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, inson huquqlari, raqamli boshqaruv, xalqaro integratsiyalashuv, elektron hukumat, xorij tajribasi, siyosiy javobgarlik.

Globalashuv va axborot jamiyati davrida ijtimoiy davlatning asosiy funksiyalari o'zining an'anaviy chegaralaridan chiqib, xalqaro integratsiyalashuv jarayonlari bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Jahon Bankining xalqaro tadqiqotlariga ko'ra, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi eng muhim global standartlardan biriga aylandi [1]. Bugungi kunda elektron hukumat shunchaki axborot-kommunikatsiya yechimi emas, balki davlatning fuqarolar oldidagi hisobdorligini, inson huquqlarining daxlsizligini va davlat xizmatlarining ochiqqligini kafolatlovchi fundamental siyosiy institut sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatga faol integratsiyalashuvi hamda Yangi O'zbekistonni ijtimoiy davlat sifatida shakllantirish strategiyasi jahondagi muvaffaqiyatli raqamli boshqaruv modellarini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Xususan, Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) kabi davlatlarning elektron hukumat sohasidagi institutsional taraqqiyoti o'zining interaktivligi, shaffofligi va davlat xizmatchilarining siyosiy javobgarligi mexanizmlari bilan ajralib turadi [2]. Ushbu maqolada mazkur xorijiy modellar doirasida inson huquqlarini ta'minlashning o'ziga xos ilg'or jihatlari va ularni xalqaro integratsiyalashuv negizida O'zbekistonning milliy ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy kontekstiga joriy etish imkoniyatlari tadqiq qilinadi.

Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlashning xalqaro integratsiyalashuvi davlat boshqaruviga eng ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu borada Yevropa va Osiyoning yetakchi mamlakatlari tajribasi davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarning tamoman yangi huquqiy-siyosiy qiyofasini yaratdi.

Xususan, Estoniya raqamli boshqaruv modelining eng muhim yutug'i fuqarolarga yo'naltirilganlik va ma'lumotlar almashinuvining markazlashmagan arxitekturasidir (X-Road tizimi). Mazkur tizim fuqarolarga bir marta taqdim etilgan ma'lumotni davlat organlari tomonidan qayta so'ramaslik ("Once-only" tamoyili) huquqini kafolatlaydi [3]. Estoniya tajribasida davlat xizmatlarining 99 foizi onlayn rejimda ko'rsatilishi ijtimoiy davlatning eng muhim tamoyili – aholining zaif qatlamlari, shu jumladan, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning xizmatlardan to'siqsiz foydalanish huquqini (accessibility) to'laqonli ta'minlaydi. Bundan tashqari, elektron ovoz berish (e-Voting) va

elektron petitsiyalar fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirib, insonning asosiy siyosiy huquqlarini raqamli makonda himoya qilishning global standartiga aylandi.

Janubiy Koreya tajribasi esa raqamli boshqaruvning shaffoflik va siyosiy javobgarlik (political accountability) mexanizmlarini yorqin aks ettiradi. Ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida Janubiy Koreyada ishga tushirilgan "e-People" (e-Saram) umummilliy portali inson huquqlari buzilishi, korrupsiya holatlari hamda ma'muriy adolatsizliklar ustidan fuqarolarning bevosita shikoyat qilish huquqini amalga oshiruvchi yagona markazlashtirilgan mexanizm hisoblanadi [4]. Mazkur portal nafaqat muammolarni hal etadi, balki davlat siyosatini shakllantirishda jamoatchilik fikrini integratsiya qilish orqali davlat xizmatchilarining jamiyat oldidagi hisobdorligini ta'minlaydi. Janubiy Koreya raqamli hukumati ochiq ma'lumotlar (Open Data) siyosati orqali fuqarolarning axborot olish huquqini ijtimoiy nazoratning asosiy quroliga aylantirgan.

Ushbu ikki davlat tajribasining xalqaro ahamiyati shundaki, ular raqamli texnologiyalardan shunchaki byurokratik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun emas, balki fuqaroning davlat oldidagi qadr-qimmatini huquqiy jihatdan yuksaltirish, ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish va davlat apparatining shaffof ishlashini ta'minlash uchun foydalanadi [5]. Bu jihatlar inson huquqlarini himoya qilish xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyili ekanligini amaliyotda tasdiqlaydi.

Osiyoning yana ikki yetakchi davlati – Singapur va Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tajribasi ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlashning o'ziga xos pragmatik va proaktiv modellarini taqdim etadi. Singapurning "Aqlli millat" (Smart Nation) strategiyasi davlat xizmatlarini raqamlashtirishda ijtimoiy ehtiyojlarni oldindan prognoz qilish va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu modelda raqamli hukumat inson huquqlarining muhim qismi bo'lgan munosib turmush darajasini ta'minlash vositasi sifatida ko'riladi. Xususan, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan maxsus raqamli sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam platformalari inklyuziv jamiyat qurishning asosiy omiliga aylangan [6].

Xitoy Xalq Respublikasi amaliyotida esa ijtimoiy davlat tamoyillarini ro'yobga chiqarishda raqamli hukumatning "yagona oyna" va "tarmoqli boshqaruv" (grid management) tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. XXRda ulkan ma'lumotlar bazalarini (Big Data) integratsiya qilish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, qashshoqlikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash kabi fundamental ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni amalga oshirishda yuqori samaradorlikka erishilmoqda [7]. Ushbu model markazlashgan boshqaruv sharoitida davlatning o'z fuqarolari oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini tezkor va manzilli bajarishida raqamli instrumentlarning siyosiy quvvatini namoyon etadi.

Global raqamli boshqaruv tajribalarining turli modellarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilg'or xalqaro mexanizmlarni milliy tizimga joriy etish shunchaki texnologik ko'chirma bo'lib qolmasligi lozim. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-

siyosiy va iqtisodiy sharoitlarida ushbu modellarni integratsiya qilish davlat boshqaruvi tizimini qonun ustuvorligi va inson qadri tamoyillariga to'liq bo'ysundirishni anglatadi.

Estoniyaning axborot erkinligi va interaktivlik tajribasini, Janubiy Koreyaning korrupsiyaga qarshi murosasiz va jamoatchilik nazoratiga asoslangan "e-People" platformasini, shuningdek, Singapurning proaktiv ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish usullarini O'zbekistonning milliy elektron hukumat arxitekturasiga bosqichma-bosqich tatbiq etish strategik ahamiyatga ega. Buning natijasida davlat organlarining yopiqqligi bilan bog'liq byurokratik to'siqlar bartaraf etiladi hamda "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan siyosiy postulat raqamli makonda o'zining haqiqiy yechimini topadi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy davlatning xalqaro standartlarga mos ravishda fuqarolar huquq va manfaatlarini kafolatlashiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv va axborot asrida ijtimoiy davlatni barpo etishni zamonaviy raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ilg'or xorijiy davlatlar, xususan, Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy tajribasi shuni yaqqol ko'rsatadiki, elektron hukumat faqatgina davlat idoralaridagi qog'ozbozlikni qisqartirish yoki xizmatlarni tezlashtirish vositasi bo'lib qolmasligi kerak. Uning eng oliy maqsadi – xalqaro maydonda e'tirof etilgan inson huquqlarini amalda kafolatlovchi, davlatning xalq oldidagi hisobdorligini ta'minlovchi hamda davlat va jamiyat o'rtasida mustahkam ishonch ko'prigini o'rnatuvchi asosiy siyosiy mexanizmga aylanishdir. Qachonki raqamlashtirish jarayonlari adolat, ochiqlik va tenglikka xizmat qilsagina, u chinakamiga ijtimoiy davlatning mustahkam tayanchiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations. *E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government*. New York: UN. – 2022.
2. Kalsi, N. S., & Kiran, R. *E-governance success factors: An analysis of e-government initiatives*. International Journal of Public Administration, 38(4). 2015.– P. 320-323.
3. Kalvet, T. *Innovation: a factor explaining e-government success in Estonia*. Electronic Government, an International Journal, 9(2). 2012. – P. 144-146.
4. Kim, S., & Lee, J. *E-participation, transparency, and trust in local government*. Public Administration Review, 72(6). 2012. – P. 820-825.
5. Bertot, J. C., Jaeger, P. T., & Grimes, J. M. *Using ICTs to create a culture of transparency: E-government and social media as openness and anti-corruption tools for societies*. Government Information Quarterly, 27(3). 2010.– P. 264-266.
6. Hoe, S. L. *Smart city in Singapore: How smart is it?* ISS Working Paper. 2016. – P. 12-15.
7. Meng, Q., & Li, Y. *Digital Government and Public Service Delivery in China*. Journal of Contemporary China Studies. 2018. – P. 45-48.

IJTIMOIIY DAVLATDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA ZAMONAVIIY YONDASHUVLARDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI

Zayniddin G'o'chchiyev

O'zDJTU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola ijtimoiy davlat doirasida inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyatini va zamonaviy yondashuvlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNTT) o'rini tahlil qiladi. Maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi, uning fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi vazifalari, global darajada inson huquqlarini ta'minlashning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy himoya, ijtimoiy xizmatlar, fuqarolarni huquqiy savodxonlikka o'rgatish va innovatsion yondashuvlar orqali davlat siyosatiga qo'shayotgan hissasi yoritilgan. Maqola zamonaviy yondashuvlar, NNTT va davlat hamkorligining samarali mexanizmlari va global tajribalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, inson huquqlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, huquqiy himoya, global ahamiyat, zamonaviy yondashuvlar, jamiyat ishtiroki.

Bugungi kunda inson huquqlari har bir davlat va jamiyatning eng asosiy qadriyatlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Inson huquqlarining himoyasi nafaqat shaxsning erkin va qadr-qimmatini ta'minlash, balki butun jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy davlat tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy davlat deganda, fuqarolarining hayot darajasi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan siyosiy va huquqiy tizim tushuniladi. Bu tizimning asosiy maqsadi nafaqat fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, balki ijtimoiy barqarorlikni, adolatni va shaxsning huquqiy himoyasini mustahkamlashdir.

Ijtimoiy davlat kontseptsiyasi XX asr boshlarida Yevropada shakllana boshlagan bo'lib, uning asosiy vazifasi fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy himoyasini ta'minlashdir. Shu bilan birga, u xalqaro huquq me'yorlari bilan mustahkamlangan va ko'plab davlatlar qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy davlatning vazifalari uch asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: iqtisodiy himoya, ijtimoiy himoya va huquqiy himoya.

Iqtisodiy himoya – bu yo'nalish fuqarolarni mehnatga layoqatli bo'lganlar uchun ish o'rinlari bilan ta'minlash, minimal daromad va pensiya kafolatini yaratish orqali iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Shu yo'nalishning ahamiyati shundaki, shaxs o'zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok eta oladi. Misol uchun, ish bilan

ta'minlash dasturlari, ijtimoiy nafaqa va pensiya tizimlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi va fuqarolarni qashshoqlikdan himoya qiladi.

Ijtimoiy himoya esa fuqarolarning sog'liqni saqlash, ta'lim, turar joy va boshqa ijtimoiy xizmatlarga ega bo'lishini nazarda tutadi. Bu orqali jamiyatdagi tengsizliklarni kamaytirish va har bir fuqaroning asosiy ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'ladi. Ijtimoiy himoya dasturlari nafaqat eng zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlaydi, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligini oshiradi. Masalan, bepul yoki arzon ta'lim va tibbiy xizmatlar, ijtimoiy uy-joy dasturlari fuqarolarning hayot sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Huquqiy himoya esa davlatning sud tizimi orqali inson huquqlarini ta'minlash, diskriminatsiya va kamsitishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, shaxsning erkin va adolatli jamiyatda yashashini kafolatlashni o'z ichiga oladi. Huquqiy himoya nafaqat individual erkinliklarni mustahkamlaydi, balki ijtimoiy adolatni saqlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlatning huquqiy himoyasi shaxsning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladigan kafolatlarni o'z ichiga oladi, bu esa jamiyatning barqarorligini oshiradi [2].

Zamonaviy davrda inson huquqlarini ta'minlash vazifasi faqat davlat organlarining zimmasidagi mas'uliyat bilan cheklanmaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTT) ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. NNTTlar inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy adolatni targ'ib qilish, fuqarolarning ehtiyojlarini monitoring qilish va davlat siyosatining samaradorligini oshirish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi. Ularning ishtiroki ijtimoiy davlatning samarali ishlashini qo'llab-quvvatlaydi va huquqiy hamda ijtimoiy me'yorlarning amaliyotda ijrosini nazorat qiladi. Shu tariqa, davlat va NNTTlar o'rtasidagi hamkorlik inson huquqlarining to'liq va samarali ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlat modeli shaxsning erkinligi va ijtimoiy barqarorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da davlatlarning o'z fuqarolarining asosiy huquqlarini himoya qilish majburiyligi ta'kidlangan. Ushbu hujjat shuni ko'rsatadiki, inson huquqlari nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham kafolatlanishi lozim.

Shu bilan birga, deklaratsiyada aytilishicha, davlatlar shaxsning sog'lig'i, ta'lim olish imkoniyati, turar joyga ega bo'lishi kabi asosiy ehtiyojlarini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni saqlashga majburlar.

Inson huquqlarini ta'minlash masalasi faqat milliy darajada emas, balki global miqyosda ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ijtimoiy davlatning inson huquqlarini himoya qilishdagi global ahamiyati quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

Xalqaro normativ hujjatlar bilan uyg'unlik: Davlatlar BMT, Yevropa Kengashi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi xalqaro institutlar orqali inson huquqlarini himoya qilishga majburdir.

Ijtimoiy barqarorlik jamiyatdagi turli ijtimoiy nizolar va mojarolarni kamaytirish bilan bevosita bog'liqdir. Inson huquqlari ta'minlangan jamiyatda fuqaro o'z erkinliklari va imkoniyatlarini his qiladi, bu esa ichki nizolar va jamoatchilikda kelib chiqadigan ziddiyatlarning oldini oladi. Shu bois, inson huquqlarini himoya qilish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy darajadagi barqarorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Global nuqtai nazardan, ijtimoiy davlatlar inson huquqlariga e'tibor qaratgan holda boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish orqali xalqaro maydonda rivojlanishga hissa qo'shadi. Bu jarayon davlatlararo aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni birgalikda amalga oshirish imkonini beradi hamda xalqaro hamjamiyatning ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy davlatning samarali ishlashi uchun faqat davlat organlariga tayanish yetarli emas. Jamiyatdagi fuqarolar ishtiroki va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTT) – bu davlatdan mustaqil, foyda ko'rishni maqsad qilmagan, ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan institutlardir. Ular ijtimoiy davlatning huquqiy va ijtimoiy tizimlarini mustahkamlashda bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchi navbatda, NNTTlar inson huquqlarining buzilishini doimiy ravishda kuzatib boradi va bu holatlarni xalqaro hamjamiyatga yetkazadi. Masalan, Amnesty International va Human Rights Watch kabi tashkilotlar inson huquqlarining buzilish holatlarini global miqyosda monitoring qiladi va davlatlarga amaliy tavsiyalar beradi. Bu jarayon davlat organlarining majburiyatlarini samarali bajarishiga va inson huquqlarining kafolatlanishiga yordam beradi.

Ikkinchi jihatdan, ko'plab NNTTlar sog'liqni saqlash, ta'lim, nogironlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun turli xizmatlarni amalga oshiradi. Shu tariqa, ular davlatning ijtimoiy funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydi va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, NNTTlar jamiyatdagi shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirishga hissa qo'shadi. Fuqarolarni huquqlarini bilishga va ulardan faol foydalanishga o'rgatadi, natijada ular davlat organlariga o'z talablarini bildirishda faol ishtirok etadi va ijtimoiy jarayonlarda faollik ko'rsatadi.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari innovatsion yondashuvlarni qo'llashga intiladi. Ular raqamli monitoring tizimlari, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali inson huquqlarini himoya qilish faoliyatini amalga oshiradi. Bunday yondashuvlar nafaqat samarali, balki tezkor va shaffof monitoring imkonini beradi hamda davlat siyosatining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy yondashuvlar davlat va NNTTlarning o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Bunda birgalikda ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, texnologik monitoring tizimlaridan foydalanish, NNTTlar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va fuqarolar ishtirokini oshirish kabi yo'nalishlar mavjud. Shu yo'l bilan inson huquqlarini ta'minlash jarayoni nafaqat samarali, balki xalqaro standartlarga mos va shaffof bo'ladi.

Ijtimoiy davlat va NNTTlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi samaradorligini oshirish maqsadida bir qator tavsiyalar mavjud: NNTTlarning resurslarini kengaytirish va ularning faoliyatini moliyaviy hamda huquqiy qo'llab-quvvatlash, davlat va NNTTlar o'rtasidagi hamkorlikni rasmiylashtirish, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali monitoring tizimlarini rivojlantirish, fuqarolarni huquqiy savodxonlik bo'yicha doimiy o'quv va treninglar bilan ta'minlash, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish. Natijada, ijtimoiy davlat va NNTTlar o'rtasidagi hamkorlik inson huquqlarini ta'minlashni yanada samarali, barqaror va innovatsion qilish imkonini beradi hamda ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi[6].

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlash global miqyosda muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlat organlarining faoliyatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlari zamonaviy yondashuvlar orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda, fuqarolar huquqlarini himoya qilishda va davlat siyosatini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ikki institutning hamkorligi inson huquqlarini ta'minlashni yanada samarali, shaffof va innovatsion qiladi, bu esa global darajada tinchlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xasanov B. Inson huquqlari va jamiyatdagi roli. -T.: Fan, 2019. 198 b.
2. Islomov M. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy funksiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 210-b.
3. Qodirov S. Ijtimoiy davlat va barqaror rivojlanish. Toshkent: Akademiya, 2018. - 175-b.
4. Tursunov A. Fuqarolik jamiyati va NNTTlar. -T.: Yangi Avlod, 2022. – 222-b.
5. Karimova N. Inson huquqlari va global me'yorlar. -T.: Sharq, 2021.-200-b.
6. Yo'ldoshev R. Ijtimoiy siyosat va davlat funksiyalari. -T.: Fan va texnologiya, 2020. -190-b.

YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI

Sharof Agabayev,

O'zDJTU Siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti

Sodiq Isariyev,

O'zDJTU Siyosatshunoslik yo'nalishi

4-kurs bitiruvchi talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda yoshlar siyosiy madaniyatida qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni zamonaviy siyosiy nazariyalar va empirik tadqiqotlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Globallashtirish, raqamli kommunikatsiyalar, institutsional islohotlar hamda milliy taraqqiyot

strategiyalari sharoitida yoshlar siyosiy qadriyatlar tizimining o'zgarish tendensiyalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosiy madaniyati, qadriyatlar transformatsiyasi, siyosiy ijtimoiylashuv, globallashuv, raqamli siyosat, siyosiy ishtirok, institutsional ishonch, fuqarolik faolligi.

Zamonaviy siyosiy taraqqiyot sharoitida yoshlar siyosiy madaniyati masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan yoshlar jamiyatning innovatsion salohiyatini belgilovchi, siyosiy tizimning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy qatlam hisoblanadi.

An'anaviy siyosatshunoslikda siyosiy madaniyat barqaror tizim sifatida talqin etilgan bo'lsa, bugungi kunda u dinamik va transformatsiyaga moyil fenomen sifatida qayta ko'rib chiqilmoqda [1]. Ayniqsa, yoshlar siyosiy madaniyatida qadriyatlar tizimining o'zgarishi zamonaviy siyosiy jarayonlarning eng muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida siyosiy qadriyatlar milliy chegaralardan chiqib, transmilliy xarakter kasb etmoqda. Bu esa yoshlar ongida global va milliy qadriyatlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar rivoji yoshlar siyosiy ongining shakllanish mexanizmlarini tubdan o'zgartirib, yangi siyosiy qadriyatlar tizimini yuzaga keltirmoqda [2].

O'zbekiston sharoitida ham yoshlar siyosiy faolligini oshirish, ularning siyosiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida yoshlarning fuqarolik faolligini rivojlantirish va ularning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish masalalari alohida e'tiborga olinmoqda [3].

Siyosiy madaniyat tushunchasi zamonaviy siyosatshunoslikning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, u jamiyatdagi siyosiy jarayonlarning mazmuni, yo'nalishi va barqarorligini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Siyosiy madaniyatni fuqarolarning siyosiy tizimga nisbatan bilimlari, hissiy munosabatlari va baholovchi qarashlari majmui sifatida tushunish mumkin.

Mazkur yondashuv siyosiy madaniyatni individual ong darajasida shakllanuvchi hodisa sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, keyingi tadqiqotlarda siyosiy madaniyat faqat individual emas, balki kollektiv va institutsional darajada ham namoyon bo'lishi ta'kidlangan. Xususan, siyosiy madaniyatni jamiyatning tarixiy tajribasi, an'analari va siyosiy xulq-atvor namunalarini o'zida mujassam etuvchi tizim sifatida izohlanadi [4].

Siyosiy madaniyatning nazariy talqinida qadriyatlar markaziy o'rin egallaydi. Qadriyatlar siyosiy xulq-atvorni yo'naltiruvchi normativ mezonlar sifatida namoyon bo'lib, ular orqali individlar siyosiy voqelikni anglaydi va unga munosabat bildiradi. Shu jihatdan, siyosiy qadriyatlar jamiyatdagi siyosiy barqarorlik va legitimlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

G'arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan postmaterialistik qadriyatlar nazariyasi siyosiy madaniyat tadqiqotlarida yangi bosqichni boshlab berdi. Unga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish va xavfsizlik darajasi oshishi bilan jamiyatda materialistik qadriyatlardan postmaterialistik qadriyatlarga o'tish kuzatiladi [5]. Bu jarayon ayniqsa yoshlar orasida tezroq kechadi, chunki ular yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda shakllanadi.

O'zbekistonlik olimlar ham siyosiy madaniyat masalasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. Xususan, A.Saidov siyosiy madaniyatni demokratik jamiyatning huquqiy asoslarini mustahkamlovchi omil sifatida baholaydi [6]. N.Jo'rayev esa siyosiy madaniyatni siyosiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida talqin etadi [7].

Shuningdek, zamonaviy o'zbek tadqiqotchilari yoshlar siyosiy madaniyatini alohida ilmiy yo'nalish sifatida ko'rib, unda qadriyatlar tizimining transformatsiyasini markaziy muammo sifatida belgilamoqdalar. Bu esa siyosiy madaniyatni statik emas, balki dinamik va evolyutsion jarayon sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Natijada, siyosiy madaniyat va qadriyatlar tizimini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, u siyosiy tizimlarning samaradorligi, legitimligi va barqaror rivojlanishini tushunishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy siyosiy jarayonlarda yoshlar siyosiy qadriyatlarining transformatsiyasi ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u global, institutsional, texnologik hamda ijtimoiy-madaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Ushbu jarayonni chuqur anglash uchun uning asosiy determinantlarini tizimli ravishda tahlil qilish zarur. Globallashuv jarayoni yoshlar siyosiy ongining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. U siyosiy qadriyatlarning milliy chegaralardan chiqib, universal xarakter kasb etishiga olib kelmoqda.

Globallashuv siyosiy makonni kengaytirib, yangi normativ standartlar va qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Natijada yoshlar ongida demokratiya, inson huquqlari, gender tengligi va ekologik mas'uliyat kabi global qadriyatlar mustahkamlanmoqda. Biroq, ushbu jarayon qarama-qarshi tendensiyalarni ham yuzaga keltiradi. Bir tomondan, global qadriyatlar integratsiyasi kuzatilsa, ikkinchi tomondan, milliy identiklikni saqlashga intilish kuchayadi. Bu esa yoshlar siyosiy qadriyatlarining dual va gibrid xarakter kasb etishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalar yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvining asosiy platformasiga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn media va raqamli kommunikatsiya vositalari siyosiy axborotni tez va keng tarqatish imkonini bermoqda. Bugungi "tarmoqli jamiyat" sharoitida siyosiy ong axborot oqimlari orqali shakllanadi va transformatsiyaga uchraydi. Yoshlar aynan shu muhitda faol bo'lgani sababli, ularning siyosiy qadriyatlari ko'proq vizual, fragmentar va tezkor xarakter kasb etadi.

Shuningdek, raqamli faollik (onlayn petitsiyalar, hashtag faolligi, raqamli kampaniyalar) siyosiy ishtirokning yangi shakllarini yuzaga keltirib, an'anaviy siyosiy faoliyatni to'ldiruvchi omilga aylanmoqda.

Yoshlar siyosiy qadriyatlari shakllanishida siyosiy ijtimoiylashuv institutlari muhim rol o'ynaydi. Ular orasida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin: oila va yaqin ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi (maktab va oliy ta'lim muassasalari), ommaviy axborot vositalari hamda davlat va jamoat tashkilotlari. Siyosiy ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, aynan ushbu institutlar orqali yoshlar siyosiy qadriyatlarni o'zlashtiradi va siyosiy tizimga integratsiyalashadi. O'zbekiston sharoitida yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi institutlar (Yoshlar ishlari agentligi, ta'lim tizimi, jamoat tashkilotlari) yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Yoshlar siyosiy qadriyatlari transformatsiyasida avlodlar almashinuvi ham muhim omil hisoblanadi. Har bir yangi avlod o'ziga xos ijtimoiy tajriba, kommunikatsiya vositalari va qadriyatlar tizimiga ega bo'ladi. Bu jarayon natijasida siyosiy identiklikning yangi shakllari (global, raqamli, gibril identiklik) yuzaga keladi. Natijada yoshlar siyosiy qadriyatlari ko'proq moslashuvchan va pluralistik xarakter kasb etadi. Yoshlar siyosiy qadriyatlari transformatsiyasi ko'p omilli jarayon bo'lib, u globallashuv, raqamli texnologiyalar, institutsional omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va milliy qadriyatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

O'zbekistonlik olimlar ta'kidlashicha, mamlakatda yoshlar siyosiy qadriyatlari transformatsiyasi gibril-evolyutsion model asosida kechmoqda. Bu model quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: milliy qadriyatlar (an'ana, jamoaviylik) saqlanib qolmoqda, global qadriyatlar (erkinlik, faollik) integratsiyalashmoqda va davlat siyosati yoshlar faolligini rag'batlantirmoqda. Bunda yoshlar siyosiy madaniyati barqarorlik va modernizatsiya uyg'unligida shakllanmoqda. Yoshlar siyosiy qadriyatlari transformatsiyasi ko'p yo'nalishli va ko'p modellik jarayon bo'lib, u zamonaviy siyosiy tizimlarning murakkab tabiatini aks ettiradi. Transformatsiya jarayonining yo'nalishlari (individualizatsiya, raqamli faollik, identiklik o'zgarishi) va modellari (evolyutsion, gibril, fragmentatsion, innovatsion) birgalikda yoshlar siyosiy madaniyatining yangi konseptual modelini shakllantiradi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar siyosiy qadriyatlari transformatsiyasi global va milliy omillarning sintezi asosida kechmoqda. Bir tomondan, milliy qadriyatlar (an'analar, ijtimoiy birdamlik, ma'naviy meros) saqlanib qolayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, global demokratik qadriyatlar (erkinlik, inson huquqlari, fuqarolik faolligi) faol integratsiyalashmoqda. Bu esa yoshlar siyosiy madaniyatining o'ziga xos gibril modelini shakllantirmoqda.

Shuningdek, ko'plab tadqiqotlarda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishda siyosiy ta'lim va ijtimoiylashuv mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli siyosiy madaniyatni shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqish, yoshlar siyosiy ishtirokini institutsional va norasmiy darajada

qo'llab-quvvatlash hamda milliy va global qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash kabi ilmiy-amaliy yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarurligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yoshlar siyosiy qadriyatlari transformatsiyasi zamonaviy siyosiy tizimlarning barqaror rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib, uni chuqur o'rganish siyosiy boshqaruv, fuqarolik jamiyati va demokratik institutlar rivoji uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Almond G.A., Verba S. Fuqarolik madaniyati. Princeton, 1963.
2. Castells M. Tarmoq jamiyatining yuksalishi. Oksford, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent, 2022.
4. Pye L. Siyosiy madaniyat va siyosiy rivojlanish. Princeton, 1965.
5. Inglehart R. Modernizatsiya va postmodernizatsiya. Princeton, 1997.
6. Saidov A.X. Siyosiy madaniyat va huquqiy ong: monografiya. -T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2020. - 320 b.
7. Jo'rayev N. Siyosiy jarayonlar nazariyasi – T.: Ma'naviyat, 2019. - 256 b.

EKOTURIZMNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Choriyeva Nargiza Ibotovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizmning barqaror rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda ekoturizmning iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy rivojlanish va ekologik barqarorlikka ko'rsatadigan ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba, xususan, Italiya misolida ekoturizmni rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ekoturizmning tabiiy resurslarni asrash, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash va ekologik ongni shakllantirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, mahalliy jamoalar, tabiiy resurslar, ekologik transport, turizm.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida turizm sohasi jadal rivojlanayotgan iqtisodiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish, ekologik muammolarning kuchayishi va ijtimoiy tengsizlik kabi omillar turizmni yangi, barqaror shakllar asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Aynan shunday sharoitda ekoturizm konsepsiyasi shakllanib, u

nafaqat sayyohlik faoliyati, balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni o'zida mujassam etgan tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ekoturizm tabiatni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni asrash hamda mahalliy aholi manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yo'nalish orqali turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ekoturizm tabiiy muhitni asrash va mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turizm shakli sifatida dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. Barqaror rivojlanishning uchta asosiy yo'nalishi – iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik – ekoturizmning asosiy maqsadlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqola ekoturizmning ushbu yo'nalishlarga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi va uning global va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasini baholaydi. [1, B.315]

So'nggi yillarda global turizm tizimida barqarorlik, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari keskin dolzarblik kasb etmoqda. BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO), Global Sustainable Tourism Council (GSTC), UNEP va UNESCO kabi xalqaro institutlar ekoturizmni XXI asr turizmining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etgan. Ekoturizmning asosiy maqsadi – tabiiy hududlarni asrab-avaylash, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash va sayyohlarga ekologik mas'uliyatli sayohat tajribasini taqdim etishdir. Shu bois ekoturizm global darajada iqtisodiy foyda, ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishning muvozanatli uyg'unligini ta'minlaydigan zamonaviy turizm modeli sifatida shakllangan.

Ekoturizm konsepsiyasining xalqaro shakllanishi Ekoturizm tushunchasi ilk bor 1980-yillarda xalqaro ekologik tashkilotlar tomonidan ilmiy maydonga kiritilgan bo'lib, u o'zida quyidagi tamoyillarni mujassamlashtiradi:

- tabiiy muhitga minimal zarar yetkazish;
- biologik xilma-xillikni asrash;
- mahalliy jamoalarning manfaatlarini himoya qilish;
- ekologik ta'lim va ongni oshirish;
- barqaror iqtisodiy faoliyatni yaratish. [2, B. 12]

Ekoturizmning barqaror rivojlanishida ekologik transport tizimlarining keng joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Italiya ekologik transport vositalari, jumladan, elektr transport va velosiped yo'laklarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali ekoturistik yo'nalishlarni yanada jozibador qilishga erishmoqda. Bu esa mamlakatdagi ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirish bilan birga, ekologik muvozanatni saqlashga ham xizmat qilmoqda. Ekoturizmning bugungi rivojlanish tendensiyalari uning barqaror turizm tamoyillariga asoslangan holda o'sayotganligini ko'rsatmoqda. Global miqyosda ekoturizmning iqtisodiy va ekologik ahamiyati ortib borayotgani, hukumatlar tomonidan atrof-muhit muhofazasini ta'minlashga qaratilgan siyosatning

shakllanishiga turtki bermoqda. Italiya tajribasi esa ekoturizmni rivojlantirishning samarali modellaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ekologik barqarorlik va mahalliy hamjamiyatlarning integratsiyalashuvi asosida shakllangan ekoturistik strategiyalar kelgusida ekoturizm sektorining yanada mustahkam rivojlanishiga zamin yaratadi. [3, B. 760]

Barqaror turizm rivojlanishi turistlar hamda qabul qiluvchi hududlarning ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, kelajak avlodlar uchun tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarni saqlab qolish hamda ularni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Turizm ayrim hududlarda turli xil ijobiy hamda ayrim hollarda muayyan murakkab ta'sirlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, u qishloq xo'jaligi, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish kabi boshqa iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining rivojlanishini rag'batlantiradi hamda mahalliy aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. [4, B. 682]

Shunday qilib, ekoturizmning o'ziga xos xususiyatlari tabiat bilan muloqot qilish istagini rag'batlantiradi va qondiradi, tabiat va madaniyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi va turoperatorlarni va sayyohlarni tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishga undaydi.

Shuningdek, ekoturizm tabiiy hududlarni barqaror rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Ekoturizmning ko'pgina ta'riflari yoki barqarorlikka erishish maqsadi yoki ushbu maqsadga erishish vositasi, ya'ni "tabiiy va madaniy muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish", "tabiatni muhofaza qilish manfaati uchun iqtisodiy daromadni oshirish" yoki ekologik ta'lim. Shuning uchun Kreg Lindberg (Lind-berg va boshq.1998) oddiy va umumiy konseptual ta'riflardan foydalanishni taklif qilishdi: "Ekoturizm barqaror va tabiatga yo'naltirilgan turizm va dam olish". Turizmda barqarorlik turizmning ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy ta'sirlarining ijobiy umumiy muvozanatini, shuningdek, tashrif buyuruvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sirini nazarda tutadi. Shunday qilib, ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan eng yuqori umumiy ijobiy ta'sirga ega bo'lgan sayyohlik faoliyati yana-da barqarordir. [5]

Xulosa shu sifatida shuni aytish mumkinki, ekoturizm zamonaviy turizm tizimida barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. U tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash va mahalliy jamoalarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali uch asosiy yo'nalish – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekoturizmni rivojlantirishda davlat siyosati, xalqaro tajriba va zamonaviy infratuzilmaning, xususan ekologik transport tizimlarining o'rni beqiyosdir. Italiya tajribasi bunga yaqqol misol bo'lib, u ekoturizmni samarali tashkil etish orqali iqtisodiy va ekologik manfaatlarni muvozanatlashtirishga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zaynitdinov Sh., Yo'ldoshev A. Ekoturizm va uning barqaror rivojlanishga ta'siri. Vol. 51 No. 1 (2025): Лучшие интеллектуальные исследование | Часть-51 | Том-1, B.-315
2. Sharipov Sh. Ekoturizmning global rivojlanish tamoyillari va barqaror turizm konteksidagi ahamiyati. Journal of Integrity in Ecosystems and Environment, Volume: 1 Issue: 1 Year: 2023, ISSN: XXXX-XXXX, B.-12
3. Xayrullayeva N. Muhofaza qilish va barqaror rivojlanish: Ekoturizmning ilmiy jihatlari va Monsivo transchegaraviy biosfera qo'riqxonasi tajribasi tahlili. "Raqamli Iqtisodiyot" Ilmiy-Elektron jurnali| 10-SON WWW.INFOCOM.UZ
4. Abduraxmanova A. O'zbekiston Qishloq hududlarining barqaror rivojlanish yo'nalishlarida qishloq turizmi va Ekoturizm-Asosiy ustuvor yo'nalishlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2026 yil, mart. №3-son, B.-682
5. <https://www.ferganatourism.uz/ekoturizm>.

FORMS OF STATE EDUCATIONAL POLICY AND ITS MANAGEMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN

Rizaeva Lobar Toshpulatovna,
teacher of the Department of "Political Science" of the
National University of Uzbekistan

Abstract: This article examines the forms of state educational policy in Uzbekistan, its main directions, and the specific features of the management system. It scientifically highlights issues of education system modernization, state-led reforms, the effectiveness of management mechanisms, and the importance of institutional factors. Additionally, the role of the state in shaping educational policy, the regulatory framework, and the significance of strategic decisions are discussed. The study also explores contemporary approaches to managing the education system and their impact on social development.

Keywords: educational policy, state governance, education system, reforms, strategic development, institutional factors, pedagogical process.

Introduction. In today's conditions of globalization and digital transformation, the education system is emerging as one of the decisive factors in the development of society. The sustainable development of any state, first of all, directly depends on how effectively its education system is organized. Therefore, the issue of forming education policy and its effective management is recognized as one of the most urgent problems of the modern era.

Since the years of independence, Uzbekistan has undergone large-scale reforms to radically renew the education system, develop it in line with the requirements of the times, and bring it into line with international standards. These reforms involve not only updating the content of education, but also

improving its management system. The state acts as the main subject in the development and implementation of education policy and regulates this process from a regulatory and legal perspective [1].

Educational policy serves to form the intellectual potential of society, comprehensively develop the younger generation, and train personnel suitable for the modern labor market. In this regard, the education system is considered not only a social institution, but also a strategic resource of the state. Through education, innovative thinking, social activity, and competitiveness are formed in society.

In modern conditions, the process of managing the education system is manifested as a complex and multifaceted system. In it, strategic planning, management decision-making, control and monitoring mechanisms operate in harmony with each other. At the same time, the education system is characterized by centralized and The coherence of decentralized management elements is an important factor in ensuring efficiency.

Institutional factors are of particular importance in the management of the education system. Interaction between state bodies, educational institutions, non-governmental organizations and other subjects of society ensures the sustainable development of the education system. At the same time, the qualifications of pedagogical personnel, their professional training and the level of application of modern approaches directly affect the quality of education [2].

In the framework of the development of the education system in Uzbekistan, special attention is paid to the introduction of digital technologies, the use of innovative methods and the study of international experience. This will help bring the education system to a new level and increase its competitiveness. At the same time, identifying and eliminating existing problems in the implementation of education policy is of great scientific and practical importance.

Main part. The education system in Uzbekistan has been formed as one of the priority areas of state policy and plays the role of an important social institution in ensuring the sustainable development of society. Through the education system, not only knowledge and skills are imparted, but also the socialization of the individual, his professional and spiritual formation are carried out. Therefore, effective management of the education system is an important component of state policy.

The process of managing the education system is a complex and multi-stage system in which state bodies, educational institutions and other social institutions operate in an interconnected manner. In this system, the combination of strategic planning, organizational management, control and monitoring mechanisms is one of the main factors determining the quality of education. The scientific basis of management decisions and their effective implementation in practice directly affect the development of the education system [3].

Institutional factors play an important role in the education system. These factors include state administrative bodies, regulatory legal acts, educational institutions and their mutual cooperation. The harmony of these factors ensures the stable functioning of the education system. At the same time, the balance of centralized and regional management elements in the management system is also important. If centralized management serves to determine the overall strategy, the regional management system allows taking into account local needs. In modern conditions, innovative approaches are gaining importance in the development of the education system. The introduction of digital technologies, the development of distance learning forms, and the use of interactive teaching methods serve to increase the efficiency of the educational process. At the same time, the introduction of digital management mechanisms in the education system ensures openness and transparency of the management process[4].

The qualification of pedagogical staff and their professional development are one of the important factors determining the effectiveness of the education system. The acquisition of modern knowledge and skills by teachers, the use of innovative methods and an individual approach to students contribute to the improvement of the quality of education. Therefore, improving the system of training pedagogical staff and their professional development is one of the important tasks.

Financing mechanisms are also of particular importance in managing the education system. Strengthening the material and technical base of educational institutions, creating modern infrastructure, and efficient use of resources contribute to improving the quality of education. At the same time, the financial sustainability of the education system can be ensured by developing cooperation between the public and private sectors.

In the process of modernizing the education system in Uzbekistan, it is important to study international experiences and adapt them to the national system. By developing the education system based on international standards, it is possible to increase its competitiveness and ensure its integration into the global education space[5].

Results and Discussion. As a result of the analysis, it can be seen that significant positive changes are taking place in the field of education system management in Uzbekistan. In recent years, the material and technical base of educational institutions has been strengthened, and the level of provision with modern educational tools has increased. This serves to improve the quality of the educational process and increase the efficiency of education. At the same time, as a result of the improvement of management mechanisms in the education system, decision-making processes are becoming more systematic and effective[6].

The introduction of modern management approaches to the education system is also one of the important results. The development of strategic planning, performance-based management and monitoring systems allows for

the effective organization of the activities of educational institutions. At the same time, the widespread introduction of digital technologies serves to ensure transparency in the management process, accelerate information exchange, and increase management efficiency[7].

However, the analysis also reveals some problems. In particular, the high level of centralization in the management system in some cases limits the ability to fully take into account regional needs. Uneven distribution of resources, insufficient development of infrastructure in some regions, and shortcomings in the training of pedagogical personnel can negatively affect the quality of education. Therefore, it is necessary to ensure a balanced approach to managing the education system.

Conclusion. The results of this study show that the management of the education system in Uzbekistan and the formation of state education policy are closely related processes. The education system, as one of the main factors of social development, remains one of the priority areas of state policy. Therefore, effective management of the education system, strengthening its institutional foundations and developing it in accordance with modern requirements are of great importance.

The analysis shows that the reforms being implemented to modernize the education system in Uzbekistan are yielding positive results. The material and technical base of educational institutions is being improved, the management system is being improved, and modern pedagogical and digital technologies are being introduced. This contributes to an increase in the quality of education and the training of competitive personnel.

REFERENCES:

1. Abdukarimov H.A. Ta'lim tizimini boshqarishning nazariy asoslari // Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – B.154.
2. Qodirov B.R. Zamonaviy ta'lim siyosati va uning rivojlanish yo'nalishlari // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – B.132.
3. Rasulov Sh.M. Davlat boshqaruvi tizimida ta'limning o'rni // Darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B.118.
4. Tursunov D.K. Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar // Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – B.140.
5. Mamatov N.S. Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – B.125.
6. Xolmatov A.J. Ta'lim menejmenti va boshqaruv samaradorligi // Darslik. – Toshkent: Universitet, 2020. – B.110.
7. Yo'ldoshev F.Q. Ta'lim tizimini isloh qilishning ijtimoiy omillari // Monografiya. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022. – B.147.

O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING TARIXIY-HUQUQIY ASOSLARI

G‘o‘chchiyev Zayniddin Gulmurodovich
O‘zDJTU

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar) zamonaviy fuqarolik jamiyatining ajralmas instituti hisoblanadi. Ular davlat va bozor o‘rtasida joylashgan “uchinchi sektor” sifatida ijtimoiy munosabatlarni muvozanatlashtirish, aholi manfaatlarini ifodalash hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy adabiyotlarda NNTlar foyda olishni asosiy maqsad qilib qo‘ymagan, balki ijtimoiy, madaniy, ilmiy, xayriya va boshqa umumjamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi mustaqil tashkilotlar sifatida ta’riflanadi (Salamon, Anheier, 1997).

NNTlarning asosiy belgilari sifatida institutsional mustaqillik, o‘zini o‘zi boshqarish, ixtiyoriylik, foyda taqsimlanmasligi va jamoat manfaatlariga yo‘naltirilganlik kabilar ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu yondashuv Robert Putnam tomonidan ilgari surilgan fuqarolik jamiyati nazariyasida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unda ijtimoiy kapital va jamoaviy faollik demokratik institutlarning samaradorligini belgilovchi omil sifatida baholanadi.

Metodologik jihatdan NNTlarni o‘rganishda institutsional yondashuv, tizimli tahlil, tarixiylik tamoyili hamda komparativ tahlil usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ularning rivojlanish dinamikasini, ichki tuzilmasini hamda davlat bilan o‘zaro munosabatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston hududida nodavlat institutlarning shakllanishi uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. An’anaviy jamiyat sharoitida mavjud bo‘lgan mahalla, vaqf institutlari hamda diniy-xayriya tashkilotlari zamonaviy NNTlarning dastlabki prototipi sifatida qaralishi mumkin.

Mahalla tizimi o‘z-o‘zini boshqarishning noyob shakli bo‘lib, unda ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam va jamoaviy mas’uliyat mexanizmlari amal qilgan. Vaqf institutlari esa ijtimoiy himoya, ta’lim va diniy faoliyatni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynagan. Biroq ushbu institutlar zamonaviy huquqiy va institutsional mezonlarga to‘liq mos kelmagan bo‘lsa-da, fuqarolik jamiyati elementlarining tarixiy asosini tashkil etgan.

1917–1991-yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududida faoliyat yuritgan jamoat tashkilotlari davlat nazorati ostida bo‘lgan. Ushbu davrda mustaqil nodavlat sektor mavjud bo‘lmagan, barcha jamoat birlashmalari markazlashgan boshqaruv tizimiga bo‘ysungan. Kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari (masalan, Komsomol) formal ravishda jamoat tashkilotlari sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, ularning faoliyati mustaqil emas, balki davlat mafkurasiga va

siyosatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan edi. Shu sababli mazkur davrni NNTlarning rivojlanishi nuqtai nazaridan cheklangan bosqich sifatida baholash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi bilan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bu jarayonda NNTlar muhim institut sifatida e’tirof etildi.

1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning birlashish huquqi mustahkamlab qo‘yildi. Bu esa NNTlar faoliyatining konstitutsiyaviy asosini yaratdi. Shuningdek, 1991-yilda qabul qilingan “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun NNTlarni tashkil etish va faoliyat yuritishning dastlabki huquqiy mexanizmlarini belgilab berdi.

Mazkur davrda:

- ilk mustaqil NNTlar tashkil etildi;
- fuqarolik tashabbuslari shakllana boshladi;
- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

2000-yillardan boshlab O‘zbekistonda NNTlar faoliyati tizimli ravishda rivojlana boshladi. Ushbu bosqichda ularning huquqiy maqomi mustahkamlandi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi.

1999-yilda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun NNTlarning huquqiy maqomini aniq belgilab berdi. Keyinchalik “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi (2003-yil) hamda “Homiylilik to‘g‘risida”gi (2007-yil) qonunlar qabul qilinib, NNTlar faoliyatining moliyaviy asoslari kengaytirildi.

Ushbu davrning muhim xususiyatlari:

- NNTlar sonining oshishi;
- davlat grantlari tizimining joriy etilishi;
- ijtimoiy loyihalarda NNTlar ishtirokining ortishi.

2016-yildan boshlab O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. NNTlar faoliyatini erkinlashtirish, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda davlat bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunning amaliy ahamiyati oshirilib, davlat organlari va NNTlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari takomillashtirildi. Shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi soddalashtirildi, hisobot tizimi optimallashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 2007-yil 3-yanvarda qabul qilingan bo‘lib, ushbu Qonun nodavlat notijorat tashkilot faoliyati kafolatlaring umumiy masalalari, ular faoliyatining asosiy kafolatlari shakllari, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari va javobgarlik borasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Homiylilik to‘g‘risida”gi Qonuni 2007-yil 2-mayda qabul qilingan, O‘zbekistonda homiylilik faoliyati va homiylarning

huquqiy maqomi, homiylik tashkilotlarini tashkil etish, faoliyat yuritishi, to'xtatish va tugatishning huquqiy asoslari, homiylikning amalga oshirilishida davlatning ishtirok etishi, xalqaro homiylik faoliyati kabi masalalarni huquqiy tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining O'zbekistonda "Ishtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni 2014-yil 25-sentyabrda qabul qilingan, ijtimoiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, bugungi kundagi sotsial-iqtisodiy rivojlantirishga doir dasturlarni amalga oshirishda, gumanitar muammolarni hal qilishda, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari chegaralarini aniq

belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni 2018-yil 12-aprel davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

v) *maxsus qonunlar.* Nodavlat notijorat tashkilotlarining u yoki bu tashkiliy- huquqiy shakllarini tartibga soluvchi bir guruh qonunlar mavjud. Ularni qabul qilingan sanasi (xronologiya) bo'yicha quyidagicha bayon etish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni (1991-yil 15-fevral), O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni (1996-yil 26-dekabr), O'zbekiston Respublikasining "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonuni (2003-yil 29-avgust), O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonuni (2004-yil 30-aprel), O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri, 2018-yil 9-iyul), O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri 2019 yil 6 dekabr), O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri, 2021-yil 5-iyul).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari. Mamlakatimizda qonun chiqaruvchi hokimiyat vazifasini bajaradigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nodavlat notijorat tashkilotlari sohasini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki bu sohani davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga qaratilgan bir qancha qarorlar va qo'shma qarorlar qabul qilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab- quvvatlash jamoat fondi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha

kiritish haqida” Qo’shma qarori (2008-yil 30-sentyabr); O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo’shma Qarorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori (2008-yil 10-iyul); O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining vazifalarini amalga oshirish uchun zarur normativ-huquqiy hujjatlarni hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha parlament komissiyasining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qo’shma qarori (2008-yil 10-iyul); O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qo’shma qarori (2008-yil 3-iyul) va boshq.

Shuningdek, NNTlar davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar rivojlanishi tarixiy va huquqiy jihatdan bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Ularning zamonaviy shakllanishi mustaqillikdan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida NNTlar fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida mustahkamlanib bormoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy asoslarini belgilashda *halqaro hujjatlar* ham alohida o‘rin tutadi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokol, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Uyushish erkinligi va kasaba uyushmalariga uyushish huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi, Kasaba uyushmalariga uyushish va jamoa muzokaralarini olib borish huquqi prinsiplarini qo‘llash to‘g‘risidagi Konvensiyasi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Konvensiyasi), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi Konvensiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, Yevropada nohukumat tashkilotlari maqomining asosiy prinsiplari va tushuntirish xati [6, 10-169-betlar] va boshq.

Shunday qilib, davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlari bu huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga xizmat qiladigan yoki yo‘naltirilgan, davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan, davlat organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-

quvvatlash amalga oshiriladigan, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tijorat tashkilotlarining ijtimoiy foydali maqsadlarni amalga oshirish borasidagi ijtimoiy sheriklikka asoslanadigan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, hamda qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadigan ikki va ko'p tomonlanma munosabatlar tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.R.Xolmanova O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat birlashmalari tizimidagi o'rni.: Yuridik fanlar nomzodi ... dissertatsiya. – Toshkent, 2012.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008.
3. Chexiya Respublikasi Konstitutsiyasi / Ma'sul muharrir A.X.Saidov. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2012.
4. Конституции государств Европы: В 3 т. Т.1 / Под общей редакцией и со вступительной статей директора Института законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации Л.А.Окунцова. – Москва: Издательство Норма, 2001. – С.582.
5. Конституции мира: Сборник конституций государств мира Т.6 / Сост. и авторы вступ. статей У.Таджиханов, А.Х.Саидов – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 1998. – С.361.
6. Notijorat huquq bo'yicha xrestomatiya / Tuzuvchilar: As'yanov Sh., Abdulin M. – Toshkent, 2009.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗМЕРЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ

*Ахмедова Шахризода Анваровна,
УзГУМЯ, преподаватель
Кафедры Политический наук,*

Аннотация. Статья анализирует трансформацию социального государства под влиянием экологических вызовов XXI века. Раскрывается взаимосвязь социальной и экологической политики, обосновывается роль концепций устойчивого развития и «зелёной экономики». Показано, что экологическая безопасность становится ключевым элементом социальной справедливости, формируя модель экологически ориентированного социального государства как основы устойчивого общественного развития и повышения качества жизни населения.

Ключевые слова: социальное государство; экологическая справедливость; устойчивое развитие; зелёная экономика; экологическая политика.

Annotatsiya. Maqolada XXI asr ekologik muammolari ta'siri ostida ijtimoiy davlatning transformatsiyasi tahlil qilinadi. Ijtimoiy va ekologik siyosat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib beriladi hamda barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyalarining roli asoslanadi. Ekologik xavfsizlik ijtimoiy adolatning muhim elementi ekanligi ko'rsatilib, u ekologik yo'naltirilgan ijtimoiy davlat modelini shakllantirishi, jamiyatning barqaror rivojlanishi va aholi hayot sifati oshishining asosi ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat; ekologik adolat; barqaror rivojlanish; yashil iqtisodiyot; ekologik siyosat.

Современное социальное государство рассматривается как ключевой институт обеспечения социальной справедливости, перераспределения общественных благ и защиты уязвимых групп населения. В российской научной традиции оно определяется как государство, ориентированное на создание достойных условий жизни и снижение социального неравенства [1, с. 52]. Как отмечает Л. А. Морозова, оно выступает не только гарантом социальной политики, но и механизмом поддержания общественной стабильности [2, с. 87].

В условиях XXI века данная модель трансформируется под влиянием экологических вызовов – изменения климата, деградации окружающей среды и роста экологических рисков. По мнению В. В. Лазарева, современное государство должно учитывать экологический фактор как неотъемлемую часть социальной политики, поскольку качество окружающей среды напрямую влияет на уровень жизни населения [3, с. 134].

В этой связи усиливается значение концепции устойчивого развития, предполагающей интеграцию социальных и экологических приоритетов. Как подчёркивает С. А. Боголюбов, обеспечение экологической безопасности становится важнейшей функцией социального государства, направленной на защиту права граждан на благоприятную окружающую среду [4, с. 29].

В российской научной традиции социальное государство определяется как «государство, принимающее на себя обязанность по обеспечению социальной справедливости и защите прав граждан в социально-экономической сфере». Как отмечает В. В. Лазарев, его сущность состоит в институционализации социальной функции государства, направленной на снижение социальных рисков и поддержание стабильности. Ключевыми принципами выступают социальная справедливость, равенство возможностей, государственная ответственность и солидарность. По мнению Л. А. Морозовой, именно они образуют

«нормативное ядро социального государства, обеспечивающее баланс между свободой личности и социальной защитой».

Вместе с тем классическая теория социального государства ограничена преимущественно социально-экономическими параметрами, игнорируя экологический фактор. Между тем, как подчёркивает С. С. Алексеев, современное развитие государства требует учёта экологической безопасности как условия реализации прав человека [5, с. 213]. Это обуславливает необходимость расширения традиционной модели за счёт экологического измерения.

В условиях нарастающих экологических вызовов особое значение приобретает концепция экологической справедливости, отражающая неравномерное распределение экологических рисков. Экологические угрозы в большей степени затрагивают уязвимые группы населения. В этой связи С. А. Боголюбов подчёркивает, что право на благоприятную окружающую среду является неотъемлемой частью социальных прав граждан. Следовательно, экологическая безопасность становится важным элементом социальной политики.

Расширение функций социального государства в сторону экологической защиты отражает переход к комплексному пониманию справедливости, где экологическая справедливость выступает продолжением социальной. При этом современные исследования подтверждают тесную взаимосвязь социальной и экологической политики: экологические проблемы усиливают социальную нестабильность, влияя на здоровье, занятость и качество жизни. По мнению О. Л. Дубовик, ухудшение состояния окружающей среды увеличивает социальные издержки и снижает качество человеческого капитала [5, с. 118].

Кроме того, экологические кризисы вызывают структурные изменения на рынке труда, что требует интеграции экологических стандартов в социальную политику. В этой связи, как отмечают российские исследователи, современное государство должно обеспечивать не только социальную защиту, но и экологическую безопасность как основу устойчивого развития [5, с. 41].

Переход к устойчивому развитию становится ключевым направлением трансформации социального государства, требующим интеграции социально-экономических и экологических приоритетов. В этой логике особую роль играет концепция green esonotu, ориентированная на сочетание экономического роста с снижением экологических рисков и сохранением природного капитала. Как отмечает С. Н. Бобылев, «переход к “зелёной экономике” представляет собой стратегическое направление модернизации» [7, с. 23], что расширяет функции социального государства, включая экологическое регулирование.

Ключевыми направлениями трансформации выступают развитие «зелёной экономики», создание экологически ориентированных рабочих

мест и поддержка устойчивого потребления. По мнению В. И. Данилова-Данильяна, экологизация экономики формирует новые сегменты рынка труда [8, с. 57]. При этом государство выполняет не только регулирующую, но и просветительскую функцию, формируя экологическую культуру.

Переход к устойчивому развитию связан с глобальной повесткой United Nations и Целями устойчивого развития, реализация которых требует усиления социальной и экологической функций государства [9, с. 41]. В результате формируется модель экологически ориентированного социального государства.

Практически это проявляется через государственные экологические программы, развитие возобновляемой энергетики и участие гражданского общества. Как подчёркивает О. Л. Дубовик, взаимодействие государства и ННО является важным условием решения экологических проблем. В контексте Узбекистана данные процессы находят отражение в реализации стратегических инициатив, включая программу «зелёная экономика – 2030», направленную на обеспечение устойчивого развития, рациональное использование природных ресурсов и повышение экологической безопасности. Проводимые экологические реформы свидетельствуют о постепенном переходе к интеграции социальных и экологических приоритетов в государственной политике.

Таким образом, социальное государство в XXI веке претерпевает качественную трансформацию под воздействием экологических вызовов, что обуславливает необходимость переосмысления его сущности и функций. Ключевым выводом является положение о том, что социальная справедливость в современных условиях невозможна без экологической справедливости, поскольку качество окружающей среды непосредственно определяет уровень и качество жизни населения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Теория государства и права: учебник / под ред. В.В. Лазарева. – М.: Юрайт, 2020.
2. Морозова Л.А. Теория государства и права. – М.: Норма, 2019.
3. Лазарев В.В. Общая теория права и государства. – М.: Юрист, 2018.
4. Боголюбов С.А. Экологическое право. – М.: Норма, 2021.
5. Алексеев С.С. Теория права. – М.: БЕК, 1995.
6. Дубовик О.Л. Экологическое право России. – М.: Норма, 2020.
7. Бобылев С.Н. Экономика устойчивого развития. – М.: Юрайт, 2020.
8. Данилов-Данильян В.И. Экологическая безопасность. – М.: Наука, 2018.
9. Глазьев С.Ю. Устойчивое развитие и государственная политика. – М.: Экономика, 2019.

IJTIMOIIY DAVLAT VA INSON HUQUQLARI: YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Sevara RAXIMOVA

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasi hamda inson huquqlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari tahlil qilinadi. Xususan, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy islohotlar kontekstida jamiyat barqarorligini ta’minlashda inson huquqlari himoyasi va ijtimoiy siyosatning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda ijtimoiy davlatning nazariy asoslari, uning rivojlanish modellari hamda demokratik davlatlar tajribasi asosida inson huquqlari kafolatlarini mustahkamlashning zamonaviy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy davlatni rivojlantirish jarayonida davlat institutlari, fuqarolik jamiyati va siyosiy partiyalarning o‘rni ham tahlil qilinadi. Muallif tomonidan jamiyat barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy siyosatning institutsional samaradorligini oshirish hamda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, inson huquqlari, Yangi O‘zbekiston, jamiyat barqarorligi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy siyosat, demokratik institutlar, siyosiy partiyalar, huquqiy davlat, ijtimoiy himoya.

Hozirgi globallashuv sharoitida davlat taraqqiyoti va jamiyat barqarorligini ta’minlash masalasi ko‘plab siyosiy va ijtimoiy tadqiqotlarning markaziy mavzusiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan davlat boshqaruvi modeli zamonaviy demokratik jamiyatlarning muhim belgisi sifatida e’tirof etilmoqda.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi aynan ana shu tamoyillar asosida shakllangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi fuqarolarning munosib turmush darajasini ta’minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashdan iboratdir. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatini kuchaytirishga qaratilgan.

Ijtimoiy davlat modelini shakllantirish jarayonida asosiy ilmiy muammolardan biri – inson huquqlari kafolatlarini real ijtimoiy siyosat bilan uyg‘unlashtirish masalasidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, inson huquqlarini qonuniy jihatdan mustahkamlash yetarli emas, balki ularning samarali amalga oshirilishi uchun kuchli ijtimoiy institutlar, rivojlangan fuqarolik jamiyati hamda barqaror siyosiy tizim zarur hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlatni rivojlantirish jarayonida inson huquqlari va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi institutsional

bogʻliqlikni kuchaytirish, jamiyat barqarorligini taʼminlashda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish orqali fuqarolarning ijtimoiy xavfsizligini mustahkamlash, demokratik institutlar faoliyatining ijtimoiy davlat taraqqiyotiga taʼsirini oʻrganish singari ilmiy muammolar dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish ijtimoiy davlat konsepsiyasining amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasining qanday nazariy asoslari bor? Ijtimoiy davlat tushunchasi XX asrda Gʻarb siyosiy falsafasida shakllangan boʻlib, u davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini nazarda tutadi. Mazkur modelga koʻra davlat fuqarolarning ijtimoiy himoyasi, taʼlim, sogʻliqni saqlash hamda bandlik siyosatini taʼminlash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy davlat nazariyasining rivojlanishida Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya va boshqa Yevropa davlatlarining tajribasi muhim oʻrin tutadi. Bu mamlakatlarda kuchli ijtimoiy siyosat, rivojlangan ijtimoiy himoya tizimi hamda demokratik institutlar jamiyat barqarorligini taʼminlashning asosiy omili sifatida namoyon boʻladi[1].

Yangi Oʻzbekistonda ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonlari jadallashmoqda. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qoʻllab-quvvatlash hamda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish boʻyicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish ham jamiyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati ham ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynamoqda.

Oʻzbekistonda jamiyat barqarorligini taʼminlashda davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish hamda fuqarolarning boshqaruv jarayonlarida ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, 2016-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi tashkil etildi. Ushbu tizim orqali fuqarolar davlat organlariga bevosita murojaat yuborish imkoniyatiga ega boʻldi va qisqa vaqt ichida millionlab murojaatlar koʻrib chiqildi[2].

Shuningdek, davlat boshqaruvida ochiqlikni taʼminlash maqsadida Open Budget Uzbekistan ishga tushirildi. Bu portal orqali fuqarolar mahalliy budjet mablagʻlarini qanday loyihalarga sarflash boʻyicha taklif berish va ovoz berish imkoniyatiga ega. Portal 2019-yildan boshlab ishlay boshlagan boʻlib, fuqarolarning davlat budjeti taqsimotida bevosita ishtirokini taʼminlaydi[3].

Masalan, 2025-yilda “Tashabbusli budget” jarayonida butun respublika bo‘yicha 11 milliondan ortiq ovoz berilgan va minglab ijtimoiy loyihalar moliyalashtirilgan. Bu fuqarolarning davlat boshqaruvi va mahalliy rivojlanish jarayonlarida faol qatnashayotganini ko‘rsatadi[4].

Bundan tashqari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari ham davlat siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular jamiyat manfaatlarini ifodalash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Jamiyat barqarorligini ta‘minlashda inson huquqlari juda muhim o‘rni tutadi. Inson huquqlarining ta‘minlanishi jamiyat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish orqali davlat jamiyatda adolat va ishonch muhitini shakllantiradi.

Jamiyat barqarorligi huquqiy davlat tamoyillarining mustahkamligi, ijtimoiy tenglik va adolatning ta‘minlanishi, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch kabi omillar orqali ta‘minlanadi. Shu jihatdan inson huquqlari ijtimoiy davlatning asosiy qadriyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlat modeli jamiyat barqarorligini ta‘minlashning muhim siyosiy va ijtimoiy mexanizmlaridan biridir. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlash hamda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kelgusida ijtimoiy davlatni rivojlantirish uchun inson huquqlarini himoya qilish institutlarini takomillashtirish, ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish, demokratik boshqaruv mexanizmlarini yanada rivojlantirish singari yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratish zarurdir. Mazkur yo‘nalishlar jamiyat barqarorligini mustahkamlash hamda ijtimoiy davlat konsepsiyasini amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat nashriyoti, 2023.
3. Saidov S. Ijtimoiy davlat asoslari. – T.: Brok Class Servis nashriyoti, 2020.
4. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi. O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy ma’ruza. – Toshkent, 2022.
5. Qodirov M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2018.

TA'LIM JARAYONIDA MNEMONIKA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA MOSLIGI

Abdurashidova Rushana Farhodovna,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida mnemonika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Mnemonik usullar o'quvchilarning xotira, diqqat, tafakkur va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, mnemonika texnologiyalarining o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga ta'siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: mnemonika texnologiyasi, kognitiv qobiliyat, ta'lim samaradorligi, ijodkorlik, xotira, interaktiv ta'lim, o'quv motivatsiyasi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish va bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mnemonika texnologiyasi o'quvchilarning xotira jarayonlarini faollashtirish, bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirish hamda o'quv jarayonini qiziqarli tashkil etishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Mnemonika texnologiyasi inson xotirasini mustahkamlash va ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtirishga xizmat qiluvchi maxsus usullar majmuasidan iborat bo'lib, u ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilar murakkab ma'lumotlarni obrazlar, assotsiatsiyalar, ranglar, belgilar yoki vizual tasvirlar orqali tezroq eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mnemonika texnologiyasidan o'quvchilarni o'qitishda foydalanish ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kognitiv jarayonlar – xotira, diqqat, tafakkur, idrok va tasavvur – o'quv jarayonining asosiy psixologik komponentlari hisoblanadi. Mnemonik usullar aynan ushbu jarayonlarni faollashtirish orqali bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. Mnemonika texnologiyasi o'quvchilarning intellektual salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Chunki mnemonik metodlar orqali o'rganilayotgan material turli obrazlar va assotsiativ bog'lanishlar asosida qayta ishlanadi. Bu esa o'quvchilarning analitik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda murakkab axborotlarni tizimli ravishda idrok etish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, mnemonika texnologiyasi o'quvchilarning diqqatni jamlash, ma'lumotni tahlil qilish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini ham

rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mnemonika texnologiyasini ta'lim jarayoniga joriy etish o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu texnologiya yordamida o'quv jarayoni yanada qiziqarli, interaktiv va mazmunli tashkil etiladi. Mnemonik usullar o'quvchilarning bilimlarni mustahkamlashiga yordam berish bilan birga, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini ham oshiradi. Chunki bu metodlar orqali ta'lim jarayonida turli ranglar, tasvirlar, belgilar va ovozli elementlardan foydalaniladi.

Bunday yondashuv o'quvchilar uchun o'rganish jarayonini qiziqarli va ijodiy faoliyatga aylantiradi. Shuningdek, mnemonik metodlar o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar yangi mavzularni o'zlashtirish jarayonida turli obrazlar yaratish va axborotni vizual shaklda ifodalash orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar [1].

Mnemonika texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi hamda kognitiv qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Mnemonik metodlar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar o'quv materialini tezroq eslab qolish, uni uzoq muddatli xotirada saqlash hamda yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mnemonika texnologiyasi qo'llanilgan o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqatni jamlash darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, obrazli tasvirlar, rangli belgilar va assotsiativ bog'lanishlar orqali berilgan ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan tezroq o'zlashtirilgan. Bu esa o'quv jarayonida axborotni qayta ishlash tezligini oshirgan.

Shuningdek, mnemonika texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirganligi kuzatildi. O'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida turli tasviriy obrazlar yaratish, ma'lumotlarni grafik shaklda ifodalash hamda turli assotsiativ bog'lanishlar tuzish orqali ijodiy yondashuvni namoyon etganlar. Tadqiqot davomida mnemonik metodlarning ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham ijobiy ta'siri aniqlangan. Guruhli mashg'ulotlar va interaktiv o'yinlar asosida tashkil etilgan faoliyat jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, hamkorlikda ishlash hamda muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirganlar. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mnemonika texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki o'quvchilarning kognitiv, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu texnologiyani zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida mnemonika texnologiyalaridan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogika va kognitiv psixologiya tadqiqotlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda. Ilmiy manbalarda qayd

etilishicha, mnemonik texnikalar inson xotirasining assotsiativ va obrazli mexanizmlariga asoslanadi hamda murakkab ma'lumotlarni eslab qolish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Shu sababli, ta'lim jarayonida mnemonik metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashiga yordam beradi. Pedagogika va psixologiya sohasidagi ko'plab tadqiqotlar mnemonika texnologiyalarining kognitiv rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar mnemonik strategiyalar orqali o'quvchilarning diqqatni jamlash, ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanishini ta'kidlaydilar. Bunday yondashuv o'quvchilarning nafaqat xotira jarayonlarini, balki mantiqiy va analitik tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda mnemonika texnologiyalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri ham keng tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vizual assotsiatsiyalar, ramzlar, ranglar va tasvirlar orqali berilgan ma'lumotlar an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan tezroq va samaraliroq o'zlashtiriladi. Bu holat o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish bilan birga, o'rganish jarayonini ijodiy va interaktiv shaklga keltiradi. Bundan tashqari, mnemonika texnologiyalarining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. Guruhli mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar va hamkorlikda bajariladigan topshiriqlar orqali mnemonik metodlar o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi [2]. Bu esa o'quvchilarda jamoada ishlash, fikr almashish va o'z nuqtai nazarini asoslab berish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida mnemonika texnologiyalari innovatsion pedagogik metodlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilmoqda. Masalan, muammoli ta'lim, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirilgan mnemonik texnikalar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natijalar bermoqda. Shu asosda aytish mumkinki, mnemonika texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarning kognitiv, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida mnemonik metodlardan keng foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida mnemonika texnologiyalaridan foydalanishning barqaror rivojlanish maqsadlariga mosligi o'quvchilarning kognitiv, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarning xotira jarayonlarini mustahkamlash, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mnemonika texnologiyasi ta'lim jarayonini interaktiv va ijodiy faoliyatga aylantirib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida mnemonik metodlardan keng foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buzan T. The Memory Book: The Classic Guide to Improving Your Memory. – New York: Penguin Books, 2003.
2. Baddeley A. Working Memory, Thought and Action. – Oxford: Oxford University Press, 2007.

YOSHLAR BILAN ISHLASHNING HUQUQIY-MA'NAVIY ASOSLARI: UYUSHMAGAN YOSHLAR MASALASI

Baxrom Djalolov

Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Mubina Ne'matjonova

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarni qo'llab-quvvatlashning eng muhim jihatlari hamda huquqiy-ijtimoiy asoslarining shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, joylashda uyushmagan yoshlarni turli sohalarda o'z imkoniyatlarini namoyon etishda davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar hamda uning huquqiy istiqbollari bayon etib beriladi.

Kalit so'zlar: Konstitsiya, uyushmagan yoshlar, kamolot, alloma, xalqaro terrorizm, ekstremizm, jamiyat, taraqqiyot, qonun, farmon, prezident.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga e'tibor va ularni qo'llab-quvvatlash har qachongidan boshqacha ko'inishda tus olmoqdaki, uning zamirida yurtimiz yoshlarini har tomonlama kamolotga erishishini ta'minlash hamda barcha sohalarda ular uchun mavjud shart-sharoitlarni ta'minlab berishdan iboratdir.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Dunyoga buxoriylar, beru-niylar, termiziylar, moturidiylar, xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolar bergan jonajon vatanimiz yoshlari ulug' ajdodlariga munosib bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur"[1.:27]

Ayniqsa, uyushmagan yoshlarni ham davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda uning ijtimoiy-ma'naviy asoslari yaratildi hamda sohada huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

Buning boisi, keyingi yillarida dunyoning turli nuqtalarida xalqaro terrorizm va ekstremizmning kuchayib borayotganligi va ularda asosiy ishtirokchilari yoshlardan iborat bo'lib qolayotganligi jahon hamjamiyatini xavotirga solmoqda, ayniqsa O'zbekiston Respublikasida bu boradagi huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yanada kuchaytirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

2017 yil 19-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-sessiyasida qilgan ma'ruzasida yoshlarning ongi-tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi, ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotganligi, bugungi dunyo yoshlarining miqdori 2 milliard kishini tashkil etayotganligini ta'kidlab, asosiy vazifa-yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virus"i tarqalishini oldini olish, shu munosabat bilan O'zbekistonning globallashuv va axborot kommunikatsiya jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi[2.:128].

Yuqoridagi omillarning yuz berishi shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat jinoyatchiliklarning sodir bo'lishi, yoshlar tarbiyasidada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va xatolar tahlili natijasida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoyalashda o'ziga xos mexanizmni yanada takomillashtirishni vaziyat taqozo etayotganliginin ko'rsatib turibdi. Ayniqsa keyingi yillarda huquqiy-ijtimoiy hayotimizda keng muomilada uchrayotgan yangi termin-"uyushmagan yoshlar" masalasi va uni hal etishning ustuvor muammolari o'ziga xos ravishda mulohazaga undamoqda.

Savol tug'iladi, ushmagan yoshlar kim o'zi?, nimaga uyushmagan?, ularni kim uyushtirishi kerak o'zi? kabi savollar bugungi kunda ko'plab uchramoqda. Qanday muammolar tufayli mamlakatimizda uyushmagan yoshlar qatlami vujudga keldi? kabi savollar bugungi kunga kelib, o'zining zudlik bilan yechimini topish kerak bo'lgan, mamlakatimizdagi barcha idoralar hamda muassasalarning ustuvor vazifalariga aylandi.

2017-yil 30-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" mavzusida nutq so'zladi va ushbu nutqida uyushmagan yoshlar atamasiga quyidagi ta'rifni berdi.

"Uyushmagan yoshlar" atamasi o'qimaydigan, tayin bir mashg'ulotga ega bo'lmagan, salbiy ta'sirlarga beriluvchi yoshlarga nisbatan ishlatilib, jinoyatchilikni ko'payishida ularning ham hissasi ko'p bo'layotganligini, xususan, 2016 yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqini huquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani hammamizni xavotirga solayotganligi, ular tomonidan Prezidentning Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonarlarga kelib tushayotgan murojaatlar bilan tanishilganda, ularning aksariyatida "bizni hech kim eshtimaydi", bizni hech kim tushunmaydi", biz bilan hech kim qiziqmaydi", "rahbarlar o'zini o'ylash bilan ovora" degan mazmundagi kayfiyatning aniqlanganligini prezidentimiz o'z ma'ruzalarida alohida ta'kidlab o'tdilar.

Bugungi kunda respublikamizda 10 milliondan ziyod yigit-qizlarning yoshlar qismini tashkil etayotganligi va ular bilan to'la to'kis ishlaydigan yagona

va harakatchan mazmundagi hamda yoshlar uchun "sotsial lift" vazifasini o'tovchi, o'z davrini o'tab bo'lgan va bugungi kun talablariga javob bera olmagan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati o'rnida O'zbekiston yoshlar ittifoqini tashkil etilganligi va ushbu ittifoqqa juda katta vakolatlar berilganligi, xususan 2017 yil 5 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi farmonini qabul qilinishi bu boradagi xayrli ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi[3.:101].

Ushbu farmon yoshlar bilan ishlash tizimida tub burilish yasagan muhim voqea sifatida tilga olinib, farmonga asosan, yurtimizda nafaqat yangi yoshlar tashkiloti, balki yoshlarga oid davlat siyosatini amlaga oshirishda ishtirok etuvchi va vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlash-tiradigan Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengashi ham tuzildi. Bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etildi.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlashga doir qonunlar ijrosini nazorat qilishdagi mavjud bo'lgan muammolar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston yoshlar ittifoqi vakolatlarini kengaytirish va yoshlar bilan ishlashdagi asosiy funksiyalari takomillashtirib ko'rsatib berilsada, yoshlar faoliyati uchun ma'sul bo'lgan respublika va mahalliy idoralarlarning vakolatlarining harakatchan tizimidagi ayrim idoralarning ma'suliyatini yanada kuchaytirishni zamon talab qilmoqda.

Xususan, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga doir muhim xujjat-2016-yil 12-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomoni-dan, 2016-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan qabul qiligan hamda 2016-yil 14-sentyabrdan kuchga kirgan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 2-bobida yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar, muassasalar va ularning vakolatlari ko'rsatib o'tiladi hamda qonunning 18-moddasida "yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda mahalliy o'zini boshqarish organlarini ishtirok etishi" deb nomlanib, unda mahalliy o'zini boshqarish organlarining yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishdagi vakolatlar ko'rsatib o'tilgan[4].

Yoshlarning taqdiri masalasida birinchi o'rinda oila va mahallaning o'rni va rolini hech kim inkor etolmaydi. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim- yesirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlanganligi, mahallaning xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz tarbiyasi, maishiy turmush tarzida katta ta'sirga ega ekanligidan dalolat berib turibdi.

Voyaga yetmagan, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga doir qonunlar ijrosini nazorat qilishdagi mavjud bo'lgan muammolardan biri mahalliy o'zini boshqarish organlari va uning yetakchisi bo'lmish oqsoqolning o'z hududidagi uyushmagan yoshlarning muammolarini o'rganishda va uning tahlilini olib borishda tashkilot-chilik yetishmayotganligi va yuqori organlar bilan yoshlar muammosini yechimini yechib berishda "ko'prik" vazifasini o'tashda o'z ma'suliyatini oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanib qolmoqda.

Ayniqsa, tuman qishloqlarida mahalla oqsoqollarining ko'plari, tuman hokimligining mahalladagi shunchaki ijroiya organiga aylanib qolayotganligi, ularda tashabbuskorlik yetishmayotganligi, yoshlar mummoalariga nisbatan beparvolik ko'zga tashlanmoqdaki, ko'plab qishloq joylaridagi yoshlarni xorijga ishlashga ketishga intilayotganliklari va ulaning keyingi taqdirlariga mahalla oqsoqollari tomonidan loqayd qarayotganliklarini kuzatish mumkin.

Respublikamizda eng ko'p uyushmagan yoshlar hozirgi paytda, qishloq mahallarida istiqomat qilayotganliklari va ularni respublikamiz shaharlariga hamda xorijiy mamlakatlarga ish qidirib ketayotganliklarini kuzatishimiz mumkin bo'lib, qishloq mahallalarida uyushmagan yoshlarni jipslashtirish, muayyan maqsad ostida birlashtirish, ular orasida manaviy-ma'rifiy tadbirlarni kuchaytirish orqali "yurtga daxldorlik hissi"ni oshirish kabi ustivor vazifalar to'la amalga oshirilsa, ba'zi bir yoshlar orasida bekorchilik kayfiyatlari barham topib, ularda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabat to'la shakllanadi va yaxshi tomonga o'zgaradi. Buning uchun quyidagi vazifazalarni amalga oshirilsa (albatta, bu taklif) qishloq joylarida kelajakda mahalla istiqboli va yoshlar kelajagi uchun uchun yo'l ochadi:

- Qishloq mahallarlari bilan shahar mahallalari orasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis, dehqonchilikdagi intensiv samaradorlikni o'rganish va uni kuchaytirishda tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish:

- Tumanlarda eng faol va tajribali oqsoqollar ishtirokida "Oqsoqollar kengashi"ni tashkil etish va ularning yoshlar muammolarini o'rganish va bartaraf etish yo'lidagi tajribalarni seminarlar orqali ommalashtirish:

- Qishloq joylarida hunarmandlarning ozligini va ular tomonidan qiziqishi bo'lgan uyushmagan yoshlarni to'la qamrab olinmasligi hamda ma'lum bir imtiyozlar yaratish hisobiga shaharlarda istiqomat qiluvchi hunarmandlarni yoki ularning tajribali shogirdalarni qishloq mahallariga jalb qilishda mahallaning o'ziga xos sharoitidan kelib chiqqan holda, qaysi hunarga mahalla yoshlarini qiziqishini o'rganilishi va ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda shahar hunarmandalarini qishloq markazlarida shart-sharoitlar yaratish, buning uchun avvalo "shahar va qishloq hamkorligini yanada kuchaytirish" dasturini yaratish.

- O'rta-maxsus kasb hunar ta'limi muassasalari o'rtasida tashkil etib kelinayotgan va "uyushgan yoshlar" ya'ni talabalar jamoalarini orasida o'tkazib kelinayotgan turli musobaqalarga, xususan, "Yosh qutqaruvchi", "Yosh chegara

chi”, "Shunqorlar”, "Yosh o't o'chiruvchi” kabi tadbirlarga mahallalarning 30 yoshgacha bo'lgan, uyushmagan yoshlardan iborat guruhlarni shakllantirish va ularni mehnatiga yarasha rag'batlantirish orqali ularni ham shu kabi musobaqalarda ishtirokini ta'minlash, ularni musobaqalarga tayyorlashda hududdagi maktablarning chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash o'qituvchilarini hamkorlikka chaqirish, hamda ularni tashkillashtirishda mahalla oqsoqollarini ma'suliyatini yanada oshirish,

”Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 17-moddasida mudofaa ishlari bo'yicha organlarning yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari”da belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mahalla va mudofaa bo'limlari, favqulodda vaziyatlar, ichki ishlar organlari o'rtasida musobaqa nizomlarni yaratish, g'olib bo'lgan jamoa yoshlarni harbiy xizmatga olishda va boshqa jarayonlarda imtiyozlarni yaratish, shu orqali uyushmagan yoshlar orasidan iqtidorli va chaqqon yigit-qizlarni saralash, shu bilan birga ularni "mahallaning g'urur va iftixori”ga aylantirish kerak[5].

- “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 12-moddasiga muvofiq, “madaniyat va sport ishlari bo'yicha organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari”ga muvofiq, mahallalar o'rtasida uyushmagan yoshlarni qamrab olish, sport musobaqalarini ayniqsa, futbolni tashkil etish, iqtidorli va serg'ayrat yoshlarni saralash orqali jamoaviy sport o'yinlariga jalb qilish, buning uchun qishloq joylariga futbol seleksionerlarini taklif etish orqali uyushmagan yoshlar orasida sportga bo'lgan qizishlarini yanada kuchaytirish, kelajakda futbol bo'yicha jahon chempionlarida O'zbekistonning to'la ishtirokni muvaffiqiyatli ta'minlashda hozirdan zamin hozirlash va asosiysi uyushmagan yoshlar orasida bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazishda ham muhim ahamiyat kasb etishini barchaga yetkazish;

- Yoshlar orasida to'ydan keyini arziyas sabablar tufayli o'zaro ajralishlarni oldini olish, ular orasida oilaga munosabat madaniyatini hamda oila borasida o'zlarning mustaqil fikrlarni o'rganish hamda tahlil etib borish yuzasidan kelin-kuyovlarni to'y oldidan fuqarolik holati dalolatnomalarni yozish bo'limlarda yoki mahalla idoralarida maxsus oila testlaridan o'tkazish va bunda tajribali psixolog, boshqa soha mutaxassislarini jalb etish, test jarayonlarida oila qurish va uning ma'suliyatini o'zida aks ettirgan savollarni tuzish orqali kelin-kuyovlarning, ayniqsa, yigitlarning oila tushunchasiga bo'lgan kayfiyatini o'rganishdan iborat bo'ladi;

- o'zini boshqarish organlari va uning yetakchisi bo'lmish oqsoqollar tomonidan ayni paytda xorijda ishlab kelayotgan yoshlarimizni oilalaridan domiy xabardor bo'lib turish hamda ularning ota-onalari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish;

Yuqorida tilga olingan fikrlar mavjud holatlar va kuzatishlar yuzasidan kelib chiqqan va mahalliy sharoitimizdan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan takliflar bo'lib, albatta ushbu takliflar voyaga yetmagan, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga doir qonunlar ijrosini nazorat qilishdagi mavjud bo'lgan

muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari yo'lidagi ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi mumkin va uyushmagan yoshlar muammosini o'rganish, tahlil qilish, ularni bartaraf etishda albatta mahallaning o'rni va roli beqiyosligini unutmashimiz darkor[6].

Shu bilan birga 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini asosiy pirovard maqsadi-yoshlar manffalarini himoya qilishning uzoq yillarga mo'ljallangan kafolatiga zamin yaratib bedi, jumladan, 79-moddasida, "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy ekologik huquqlarini himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellectual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashti-rishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" deb belgilanishi sohada huquqiy poydevorni yanada mustah-kamlashda muhim ahamiyat kasb etdi[7.:30].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni har tomonlama riovjlanishi va yuksak kamolotga erishishda uning huquqiy madaniyatini yanada oshirish hamda bu borada davlatimiz olib borayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish- bugungi kunning eng muhim va kechiktirib bo'lmas vazififalaridan biri desak adashmagan bo'lamiz.

Zero, Prezidentimiz SH.Mirziyoyev aytganlaridek, "Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalsh, ularning fuqarolik pozisiyasini mustah-kamlash juda muhim vazifadir" degan mazmundagi fikrlari yuqoridagi fikrlarning yaqqol ifodasidir[7.:253].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev. Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir". -T.: "Tasvir". 2021.
2. Solnoma. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyati xronikasi. Toshkent.: O'zbekiston. 2022.
3. O'sha joyda.
4. "Huquq" gazetasi. 2016 yil 22 sentyabr. №38
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: O'zbekiston. 2023.
6. Mirziyoyev. Sh. Yangi O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi. -T.: O'zbekiston. 2023.

IJTIMOIIY DAVLATDA KORRUPSIYANING INSON HUQUQLARIGA TAHDIDI VA UNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Bo'riyeva Mushtariy Baxromovna

O'zbekiston Milliy universiteti Sotsiologiya kafedrası magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezida ijtimoiy davlat sharoitida korrupsiyaning inson huquqlariga ko'rsatadigan salbiy ta'siri hamda uning jamiyat taraqqiyotiga tahdidi tahlil qilinadi. Korrupsiya fuqarolarning tenglik, adolat, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va boshqa asosiy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiluvchi muhim omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, korrupsiyani bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari, jumladan, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida ijtimoiy davlatda inson huquqlarini samarali himoya qilish korrupsiyaga qarshi tizimli kurash bilan bevosita bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, inson huquqlari, ijtimoiy davlat, korrupsiyaga qarshi kurash, shaffoflik, fuqarolik jamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, Ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi qat'iy belgilangan. Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi – bu inson, uning hayoti, qadri, huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb bilib, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Ijtimoiy davlatning mohiyati – bu davlat o'z faoliyatida iqtisodiy va siyosiy manfaatlardan ustun qo'ygan holda, inson farovonligi, ijtimoiy adolat va barcha fuqarolar uchun munosib turmush darajasini ta'minlashni asosiy vazifa deb bilishi demakdir [1].

Ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashdan iborat. Biroq korrupsiya ushbu maqsadlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilib, davlat boshqaruvi tizimida shaffoflikning pasayishiga, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga hamda fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchining susayishiga olib keladi.

Korrupsiyaning mavjudligi ta'lim, sud-huquq tizimi hamda ijtimoiy himoya sohalarida fuqarolarning teng huquqlilik tamoyilini buzishi mumkin. Natijada ayrim shaxslar yoki guruhlar noqonuniy yo'llar orqali ustunlikka ega bo'lib, boshqalarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish inson huquqlarini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yilda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga va inson huquqlarining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi hamda davlatlarni korrupsiyaga qarshi samarali choralar ko'rishga chaqiradi [2].

Korrupsiya inson huquqlariga rioya etish va ularni amalga oshirish yo'lida katta to'siq hisoblanadi. Korrupsiyaga faqat iqtisodiy va siyosiy nuqtai nazardan qarashdan ko'ra, inson huquqlari yondashuviga o'tish tushuncha o'zgarishini talab qiladi. Bunda korrupsiya faqat boylikni noqonuniy o'zlashtirish yoki davlat xarajatlarini noto'g'ri yo'naltirish (bu esa mamlakatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga zarar yetkazadi) sifatida emas, balki inson huquqlarining ehtimoliy buzilishi sifatida ko'riladi.

Shu bilan birga, BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlari korrupsiya va resurslarni noto'g'ri boshqarish shuningdek, teng huquqlarni ta'minlash uchun zarur resurslarni taqsimlashga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri ekanligini qayd etadi. BMT hujjatlarida ham korrupsiya inson huquqlaridan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi, davlat institutlarining samaradorligini pasaytirishi hamda fuqarolarning asosiy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilishi qayd etilgan. Shu sababli so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishda inson huquqlariga asoslangan yondashuv keng qo'llanilib, ushbu yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashishda inson huquqlari tizimini muhim normativ asos sifatida ko'rib chiqadi [3].

Korrupsiyaga qarshi choralar bilan inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlik korrupsiyaga qarshi kurashishda inson huquqlari mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Inson huquqlariga rioya qilinishini milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada monitoring qilish uchun turli mexanizmlar mavjud. Bu mexanizmlar inson huquqlari buzilgani haqida shaxsiy shikoyatlarni qabul qilishi va davlatlar tomonidan inson huquqlarining umumiy amalga oshirilishini ko'rib chiqishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda inson huquqlarining ta'minlanish darajasi ham past bo'ladi. Masalan, Transparency International tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida eng past o'rinlarni egallagan davlatlar ko'pincha inson huquqlari bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelayotgan mamlakatlar hisoblanadi [4].

Korrupsion harakatlar odamlar va jamiyatlarga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi hollarda ular taqiqlangan kamsitish shakllariga teng bo'lishi yoki bevosita individual huquqlarni buzishi mumkin. Keng tarqalgan korrupsiya inson huquqlarini himoya qiluvchi javobgarlik tizimlarini zaiflashtiradi, bu esa javobsizlikka (impunity) olib keladi va qonun ijrosiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, korrupsiya jamoaviy huquqlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish, ayniqsa, zaif yoki jamiyatda chetlashtirilgan guruhlariga mansub odamlarning huquqlarini kuchaytirish, ularning ishtirokini ta'minlash va himoya qilish uchun juda muhimdir.

Korrupsiya inson huquqlarining to'liq amalga oshirilishiga hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga jiddiy to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. U davlatning o'z fuqarolarini zarur ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmalar bilan ta'minlash imkoniyatlarini cheklaydi, qonun ustuvorligini zaiflashtiradi hamda siyosiy jarayonlarning samarali faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiyaning inson huquqlariga ta'siri bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bevosita ta'sir holatlarida shaxs korrupsion harakat natijasida darhol zarar ko'radi, masalan, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining pora talab qilishi yoki sud qarorining pul evaziga adolatsiz chiqarilishi inson huquqlarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishiga olib keladi. Bilvosita ta'sir esa korrupsiya inson huquqlarining buzilishiga olib keluvchi voqealar zanjirining bir qismi sifatida namoyon bo'lgan holatlarda kuzatiladi. Masalan, tibbiy vositalarni xarid qilish jarayonidagi korrupsiya sababli sifatli dori-darmonlarning yetishmasligi fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, qurilish sohasidagi korrupsion amaliyotlar natijasida sifatsiz va xavfsizlik talablariga javob bermaydigan binolar qurilishi tabiiy ofatlar vaqtida insonlarning hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi [5].

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya ijtimoiy davlat tamoyillariga zid bo'lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, u inson huquqlari va erkinliklarining to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Korrupsiyaning mavjudligi davlat resurslarining adolatsiz taqsimlanishiga, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga hamda fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchining pasayishiga olib keladi. Shu bois zamonaviy sharoitda korrupsiyaga qarshi kurashishda inson huquqlariga asoslangan yondashuvni qo'llash, davlat boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://constitution.uz/oz/pages/ijtimoiy_davlat_mohiyati.
2. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией. –Т.: Центр [повышения квалификации юристов](#), 2013. С.139.
3. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development, GA Res. 70/1, 25 September 2015, Points 16.4, 16.5.
4. For the human rights situation, see Amnesty International Report 2016/17 (2017).
Raoul Wallenberg Institute of Human Rights and Humanitarian Law. *How Corruption Affects Human Rights*. Available at: <https://rwi.lu.se/how-corruption-affects-human-rights/> (accessed 13 March 2026).

IJTIMOIIY DAVLATDA INSON QADRI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Esonova Dilnura

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

“Inson qadri uchun, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash – Yangi O'zbekiston siyosatining eng ustuvor yo'nalishidir”.

Shavkat Mirziyoyev

Anotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat sharoitida inson huquqlarini ta'minlash masalasining global ahamiyati va uning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson huquqlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ijtimoiy davlat konsepsiyasining mazmuni hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, globalizatsiya jarayonida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari va xalqaro tajribalar tahlil etiladi. Maqolada inson huquqlarini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar hamda O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilib, tadqiqot natijasida ijtimoiy davlatni rivojlantirishda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, inson huquqlari, global jarayonlar, demokratik jamiyat, ijtimoiy adolat, inson qadri, huquqiy himoya, zamonaviy yondashuvlar.

Ijtimoiy davlat tushunchasi va inson huquqlarini ta'minlashning nazariy asoslari. Ijtimoiy davlat – bu fuqarolarni nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoya qiladigan davlat shakli bo'lib, uning asosiy maqsadi inson qadri va erkinliklarini ta'minlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, har bir demokratik davlat ijtimoiy adolatni amalga oshirish va fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga intiladi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi zamonaviy jamiyatlarda nafaqat nazariy asos sifatida, balki amaliy vosita sifatida ham shakllanib kelmoqda, chunki u fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va teng imkoniyatlarni yaratish orqali jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy davlat kontsepsiyasi zamonaviy siyosiy nazariyalarda fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan asosiy tamoyil sifatida qaraladi[1].

Ushbu kontsepsiya davlatning faqat huquqiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy majburiyatlarini ham o'z zimmasiga olishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy davlat – bu fuqarolarga munosib hayot sharoitlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy himoya ta'minlaydigan davlat shaklidir[2].

Inson huquqlari esa davlat siyosatining markazida turadi, chunki jamiyat taraqqiyoti va barqaror ijtimoiy muhit inson huquqlarining kafolatlanishi bilan bevosita bog‘liq[3].

Ijtimoiy davlat nazariyasida inson huquqlarini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ijtimoiy adolatni ta‘minlash – fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilish orqali jamiyatda tenglikni yaratish.

Fuqarolarning asosiy ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy nafaqalar kabi xizmatlar orqali inson qadri himoyalaniishi.

Huquqiy himoya mexanizmlari – inson huquqlari buzilgan taqdirda ularni himoya qiluvchi qonuniy mexanizmlarning mavjudligi.

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy davlat konsepsiyasi va inson huquqlarini ta‘minlash o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki davlatning ijtimoiy siyosati insonlarning hayot sifatini bevosita shakllantiradi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Ijtimoiy davlat va inson huquqlarini ta‘minlashning O‘zbekistondagi amaliy tajribasi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlat konsepsiyasi va inson huquqlarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlashicha: “Inson qadri uchun, uning huquq va erkinliklarini ta‘minlash – Yangi O‘zbekiston siyosatining eng ustuvor yo‘nalishidir”[4]. Bu fikr O‘zbekistonda ijtimoiy himoya va huquqiy kafolatlarning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida aniq tasavvur beradi. *O‘zbekistonning ijtimoiy davlat yo‘nalishidagi siyosati nafaqat huquqiy kafolatlarni kuchaytirishga, balki fuqarolar hayotining amaliy farovonligini oshirishga qaratilgan. Misol uchun, mehnat, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat inson qadri va teng imkoniyatlarni ta‘minlashni markaziy vazifa sifatida belgilab olgan. Bu yondashuv ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash bilan birga, fuqarolar ishtirokini rag‘batlantiradi va jamiyatda ishonch va ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi*

Ijtimoiy davlat konsepsiyasining O‘zbekistondagi asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi – mehnat, pensiya, nafaqa va ijtimoiy xizmatlar orqali inson qadri ta‘minlanadi[5].

Ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlari – barcha fuqarolarga teng imkoniyat yaratish orqali jamiyat barqarorligi qo‘llab-quvvatlanadi[6].

Huquqiy kafolatlar va monitoring – inson huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar va milliy mexanizmlar orqali fuqarolar xavfsizligi ta‘minlanadi[7].

Shuningdek, O‘zbekistonning zamonaviy yondashuvi ijtimoiy davlatni rivojlantirish bilan birga raqamli texnologiyalar orqali inson huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, elektron huquqiy portal va shikoyat tizimlari fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni soddalashtirmoqda

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlat konsepsiyasi va inson huquqlarini ta'minlash nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, davlat siyosatining markazida inson qadri va erkinliklari turadi. Shu kontekstda amalga oshirilayotgan islohotlar – mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalaridagi yondashuvlar – fuqarolarning hayot sifatini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, milliy tajriba ko'rsatadiki, ijtimoiy davlatni rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, adolat va ishonchni mustahkamlaydi

Bugungi globalizatsiya sharoitida inson huquqlarini ta'minlash masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy davlatlar inson huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlari va strategiyalarini joriy qilmoqda, shu jumladan: raqamli texnologiyalar orqali shikoyat va monitoring tizimlarini yaratish, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish, hamda fuqarolarning ijtimoiy adolat va barqaror hayotga erishishini ta'minlash.

Xalqaro tajribaga nazar soladigan bo'lsak, rivojlangan davlatlar inson huquqlarini himoya qilishda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy xizmatlar va huquqiy kafolatlarni birlashtirad. Shu yondashuvlar jamiyatdagi tenglik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston tajribasida esa, ijtimoiy davlat konsepsiyasi va inson huquqlarini himoya qilish milliy islohotlar va zamonaviy texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Elektron huquqiy portal va shikoyat tizimlari, raqamli monitoring va ma'lumotlar bazasi fuqarolarning huquqlari buzilgan holatlarni tezkor aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi[8].

Shu bilan birga, O'zbekistonning xalqaro huquqiy standartlarga moslashuvi va hamkorlik yondashuvlari ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta'minlashning samaradorligini oshirmoqda.

Xulosa. Zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy davlat va inson huquqlarini ta'minlash masalasi nafaqat milliy siyosat, balki global jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Rivojlangan davlatlar tajribasidan olingan samarali mexanizmlar – ijtimoiy xizmatlar, huquqiy kafolatlar va raqamli monitoring – O'zbekistonda inson huquqlari va ijtimoiy himoyani ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalarini ijtimoiy yordam tizimida ham ko'rish mumkin. Masalan, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi tizimlar orqali ehtiyojmand fuqarolarni aniqlash va ularga davlat tomonidan moddiy hamda ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlari joriy etildi. Bu tizimlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilib, ijtimoiy davlat tamoyillarining amalda qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy va xalqaro yondashuvlarni uyg'unlashtirish fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning samarali mexanizmini yaratadi. Natijada,

zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasi inson qadri, erkinliklari va adolatni ta'minlashni asosiy vazifa sifatida belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nussbaum M. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press, 2011.
2. Umarova I.M. *Concept of the Social State and Its Role in Ensuring Human Rights*. Tashkent: University Publishing House, 2022.
- 3).Krennerich M. *Human Rights: Politics and Practice*. Routledge, 2020.
- 4). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
- 5). Botirov Z.S. *Ijtimoiy davlat prinsipi va inson qadr-qimmati*. Toshkent: Milliy Universitet Nashriyoti, 2021.
- 6).Umarova I.M. *Ijtimoiy davlat va inson huquqlari*. Toshkent: Universitet Nashriyoti, 2022.
- 7).Azimov F. *Inson huquqlari va ijtimoiy himoya tizimi*. Toshkent, 2019.
- 8). Raxmonov D. Raqamli texnologiyalar va inson huquqlari himoyasi. Toshkent, 2020.

К АКТУАЛЬНЫМ ПРОБЛЕМАМ ПРИВИТИЯ УЗБЕКСКИМ СЛУШАТЕЛЯМ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ВОПРОСАМ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО СТАТУСА ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОПОРЯДКА

Урдашев Азамат Бахтиёрович

преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация: в данной статье анализу подвергнуты приоритеты работы со слушателями курсов по философии и религиоведению в ракурсе привития им навыков гражданской позиции и понятия прав человека, самоидентификации в условиях глобального изменения миропорядка.

Ключевые слова: национальная учебная программа, (PISA) ОЭСР, Индекс человеческого капитала (ИЧК), Цели устойчивого развития, Государство всеобщего благосостояния.

«...новый Узбекистан начинается с порога школ» Президент Ш. Мирзиёев, дек. 2020 г., обращение к парламенту

2016 год знаменуется началом быстрых всеобъемлющих и широкомасштабных рыночно-ориентированных изменений, с ориентацией на интеграцию в мировое экономическое пространство в условиях демографического роста, когда Узбекистан стоит на перекрестке экономических и демографических преобразований.

И в условиях все нарастающего влияния мировой глобализации на уклад и обустройство стран ЦА региона, все более актуальное значение

приобретают вопросы самоидентификации узбекской молодежи в новых условиях в качестве граждан кардинально новой формации, когда права человека соизмеряются с актуальной жизненной и мировой практикой.

С 2000 года численность населения трудоспособного возраста в стране увеличилась примерно на 50 процентов, а в настоящее время наблюдается стабильный рост населения в возрасте от 0 до 9 лет, что означает, что в ближайшие десятилетия в Узбекистане будет значительно преобладать доля молодежи. Улучшение образования и профессиональной подготовки с целью повышения квалификации молодого населения действительно может повысить конкурентоспособность Узбекистана и помочь извлечь выгоду из этого демографического фактора, при условии, что при непосредственном взаимодействии (синергии) всех ступеней систем образования Республики удастся кардинально расширить горизонты ментального восприятия новым поколением узбекистанцев меняющегося миропорядка, критического отношения к уровню своей конкурентоспособности в нем на основе предоставляемых государством прав и возможностей саморазвития.

Согласно индексу человеческого капитала (ИЧК) Всемирного банка 2020 г., качество базовых навыков, которые молодые люди приобретают в течение своих школьных лет в Узбекистане, делает их до 40% менее продуктивными во взрослом возрасте в случае, если не будет ускорена реализация качественно новой и целостной **Национальной учебной программы**, призванной развивать у учащихся компетенции XXI века и восполнять недостатки прошлого образования. Дефицит квалифицированной рабочей силы является одним из наиболее важных ограничений, с которыми сталкиваются работодатели в Узбекистане, при этом уровень зачисления в высшие учебные заведения имеет тенденцию к снижению и варьируется в диапазоне 16%-18% (валовой показатель зачисления).

Осознавая критическую важность инвестирования в навыки и образование своего населения, руководство Республики за последние несколько лет поставило перед сектором очень амбициозные цели и приняло ряд мер, направленных на их достижение, начиная с дошкольного образования, в рамках которого основное внимание сконцентрировано на расширении системы и увеличении набора, чтобы обеспечить равный доступ к качественному дошкольному образованию и повысить уровень готовности к школьному обучению.

В сфере общего образования основное внимание уделяется повышению успеваемости учащихся по национальным и международным оценкам, а также перспективам роста профессиональных компетенций учителей и разработке требований к преподавателям XXI века, как нормативных (профессиональная аттестация), так и качественных критериев современного учителя. К 2030 году Узбекистан намерен войти в число 30

лучших стран в Международной программе по оценке образовательных достижений учащихся (PISA) ОЭСР.

Апеллирование главы Государства ко всем задействованным структурам на профессиональную ориентацию и обучению иностранным языкам преследует, по сути, цел защитит права молодежи в условиях все ужесточающийся конкуренции на внутреннем и внешнем рынке труда, в условиях демографического давления и нестабильности в мире. «Эти вещи не должны быть агитацией, изменения должны глубоко ощущаться каждым молодым человеком в каждой локации каждый день. Так, из Нового Узбекистана исчезнут понятия необразованной, безработной, неквалифицированной и неорганизованной молодежи», - констатирует лидер страны.

Построение Государства всеобщего благосостояния – концепции политического устройства, при которой гос-во играет ключевую роль в защите и развитии экономического и социального благополучия своих граждан, начинается, собственно, со школьной и студенческой «сками», подразумевающей, в числе других прав, обеспечение доступа к конкурентоспособному уровню образования в мировом масштабе. При этом нужно исходить из того, что каждый некомпетентный выпускник – это колоссальная нагрузка на экономику Республики, без возможности социализироваться как внутри, так и за пределами родины, при отсутствии каких-либо адаптивных навыков, включая коммуникативные, а также способностей к критическому мышлению, что есть «краеугольный камень» учебных программ ведущих мировых вузов.

В этих условиях, критически важным выступает роль гуманитарных дисциплин, призванных в форме коллоквиума дать слушателям осознать себя в качестве активных участников гражданского общества с соответствующими правами. Мировоззренческое сопоставление: «Я» - Мир в ходе диалогов со слушателями способствует недопущению внедрения в их сознание социопатических идей, которые могут усугубляться фанатичными и, более того, экстремистскими идеями того или иного толка. При этом надо исходить из того, что ВУЗ пребывания слушателя – это, фактически, его первый осознанный жизненный опыт столкновения с государством, что накладывает на административный и преподавательский состав особую ответственность в ракурсе воспитания самодостаточного гражданина и патриота с собственным восприятием окружающего мира, в том или ином локальном представлении, перед которым стоит задача стать самодостаточной личностью, имеющей право на достойный уровень жизни, справедливость и эгалитарные возможности независимо от их рыночной стоимости или социального статуса. И который будет воспринимать государство не как «ночного сторожа» (которое только охраняет порядок), а как к родине, стоящей на охране его человеческих прав, осознавая в полной мере ответственность за защиту её интересов и безопасности, позиционируя

себя как ее полноправный представитель со всеми сопутствующими правами и обязанностями.

СПИСОК ИСТОЧНИКОВ:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису, 29 дек. 2020 г. <https://president.uz/ru/lists/view/4057>.
2. Индекс человеческого капитала 2020, Всемирный банк, <https://www.worldbank.org/en/publication/humancapital>.
3. Исследование Всемирного банка по диагностике роста (2019 г.);
4. <http://uis.unesco.org/en/country/uz>.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA INSON HUQUQLARINING SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Botirova Nigina Baxodir qizi

Stajyor-o‘qituvchi, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarining sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Insonning sog‘lom hayot kechirish huquqi barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlarini ta‘minlash barqaror rivojlanishga erishishning muhim sharti sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Barqaror rivojlanish, inson huquqlari, sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy himoya, aholi salomatligi.

Bugungi kunda barqaror rivojlanish insoniyat taraqqiyotining muhim konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda muvozanatni ta‘minlash orqali jamiyat farovonligini oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda inson huquqlarini ta‘minlash, ayniqsa sog‘liqni saqlash sohasida, muhim o‘rin tutadi. Har bir inson sog‘lom hayot kechirish va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Bu huquq xalqaro hujjatlarda ham mustahkamlab qo‘yilgan [1].

2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) 17 ta asosiy maqsaddan iborat bo‘lib, ulardan biri sog‘liqni saqlash bilan bog‘liqdir. Xususan, uchinchi maqsad “Sog‘lom hayotni ta‘minlash va barcha yoshdagi insonlar farovonligini oshirish”ga qaratilgan. Ushbu maqsad aholining sog‘lig‘ini saqlash, kasalliklarning oldini olish, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi [2].

Inson huquqlari tizimida sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish huquqi muhim o‘rin egallaydi. Har bir inson sifatli tibbiy yordam olish, kasalliklarning oldini olish va sog‘lom hayot kechirish huquqiga ega. Bu tamoyillar xalqaro huquqiy hujjatlarda, jumladan “Universal Declaration of Human Rights”da ham belgilab qo‘yilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlari ichida sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq eng muhim yo‘nalishlardan biri Sustainable Development Goal 3 hisoblanadi. Mazkur maqsad barcha yoshdagi insonlar uchun sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash va farovonlikni oshirishga qaratilgan.

Sog‘liqni saqlash tizimida inson huquqlarini ta‘minlash barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Agar jamiyatda tibbiy xizmatlardan teng va adolatli foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lsa, aholining salomatligi yaxshilanadi, mehnat unumdorligi oshadi va iqtisodiy rivojlanish tezlashadi. Shu sababli sog‘liqni saqlash tizimida inson huquqlarini himoya qilish barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi [3].

Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ham barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega. Aholining jismoniy faolligi, to‘g‘ri ovqatlanishi va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralar jamiyat salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan sog‘liqni saqlash tizimida inson huquqlarini ta‘minlash barqaror va barqaror rivojlangan jamiyatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [4].

Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish orqali aholining hayot sifati yaxshilanadi, kasalliklar kamayadi va jamiyatning barqaror rivojlanishi ta‘minlanadi. Ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish, tibbiy xizmatlarning hamma uchun teng va ochiq bo‘lishi inson huquqlarining muhim ko‘rinishidir.

4. Agreement on Cooperation in the Joint Management, Use and Protection of Water Resources of Interstate Sources. – Almaty: Interstate Commission for Water Coordination (ICWC), 1992.
5. Orazaliev K., Mukasheva A., Ybyray N., Nurekeshov T. Current regulation of water relations in Central Asia // Regional Science Policy & Practice. – 2024. – Vol. 16. – №. 9. – Art. 100038.
6. UNECE, UNESCO, UN-Water. Progress on Transboundary Water Cooperation 2024. – Geneva: UN-Water, 2024.
7. World Bank. Kambarata-1 Hydropower Plant Project (HPP). – Washington, D.C.: World Bank, 2025.

ПОРЯДОК РЕАЛИЗАЦИИ МЕР ПО ОСВОБОЖДЕНИЮ ОТ ОТБЫВАНИЯ НАКАЗАНИЯ

Жамалова Юлдуз Тайировна

Магистрант Каракалпакского государственного университета

Аннотация: В данной статье указаны некоторые замечания относительно понятия, признаков, правовых оснований и видов института освобождения от наказания в соответствии с уголовным законодательством Республики Узбекистан. Также отмечено, что некоторые специалисты полагают: освобождение от наказания зависит от самого деяния и различается в зависимости от обстоятельств, связанных с личностью. В качестве примеров приведены: освобождение от наказания по обстоятельствам, связанным с деянием, что выражается в таких видах, как амнистия или помилование, а также освобождение от наказания в связи с истечением срока его исполнения.

Ключевые слова: Основания освобождения от наказания, испытательный срок, юридические и фактические основания освобождения

от наказания, примерное поведение, добросовестное отношение к труду, виды освобождения от дополнительных мер наказания.

В теории уголовного права нет единого мнения относительно понятия института освобождения от наказания. В теории под освобождением от наказания понимается отказ от полного или частичного применения наказания к лицу, а также использование определённых ограничений и запретов, исходя из характера наказания.

Для более полного и правильного формулирования понятия института освобождения от наказания необходимо уточнить его специфические признаки. Соответственно, следует сказать, что освобождение от наказания состоит из совокупности уголовно-правовых и уголовно-исполнительных норм. В этом смысле освобождение от наказания означает предоставление лицу возможности не отбывать наказание полностью или частично, что выражается в отказе государства применять наказание либо продолжать его исполнение. Оно может быть применено только при условии всесторонней оценки степени и характера общественной опасности преступного деяния, а также степени общественной опасности личности, совершившей преступление[1].

Освобождение от наказания определяется невозможностью его исполнения (болезнь осуждённого, нетрудоспособность, истечение срока исполнения приговора) либо нецелесообразностью (искреннее раскаяние осуждённого).

Поскольку признание лица виновным в совершении преступления и назначение наказания является исключительной прерогативой суда, освобождение от наказания осуществляется только судом.

Некоторые учёные выделяют следующие два основания для освобождения от наказания:

- случаи, когда возможно нравственное исправление осуждённого и без реального и полного отбытия назначенного наказания (досрочное условное освобождение от отбывания наказания, освобождение от наказания в связи с истечением срока исполнения приговора, замена более мягким наказанием и др.);
- ситуации, при которых невозможно нравственное исправление осуждённого по каким-либо объективным причинам (освобождение от наказания по болезни).[2]

Эти случаи, на наш взгляд, различаются по наличию у суда права либо обязанности освободить осуждённого от наказания. Соответственно, основания освобождения от наказания делятся на два вида:

1. обязательные – освобождение от наказания является обязанностью суда;
2. факультативные – освобождение от наказания рассматривается как право суда.

Под «обязательным освобождением от наказания» в основном понимаются: досрочное условное освобождение от отбывания наказания; освобождение от наказания по болезни; освобождение от наказания в связи с истечением срока исполнения приговора.

По перечисленным основаниям освобождение от наказания подпадает под обязанность суда. Поскольку при таких обстоятельствах при освобождении осуждённого от наказания учитываются различные объективные причины – факт отбытия определённой части наказания, болезнь, либо истечение срока исполнения приговора.

А освобождение от наказания по факультативным основаниям рассматривается как право суда, которое осуществляется с учётом состояния осуждённого.

Аналогично, основания освобождения от наказания делятся также на условные и безусловные виды. Условный вид отличается тем, что в зависимости от дальнейшего поведения осуждённого возможно или невозможно отменит назначенное наказание.

Классификация освобождения от наказания по видам необходима для всестороннего пересмотра сущности данного института, его уголовно-правовых признаков и особенностей социального назначения. Кроме того, применение института освобождения от наказания объясняется тем, что в ряде случаев признано нецелесообразным применять наказание, несмотря на принцип минимизации уголовной репрессии, а также с учётом принципов гуманизма и справедливости, неизбежности наказания за каждое преступление.

Основные виды освобождения от наказания в соответствии с национальным уголовным правом включают основания освобождения от наказания без отбывания определённой части назначенного наказания. К ним относятся: освобождение от наказания в связи с истечением срока исполнения приговора; освобождение в связи с утратой лицом общественной опасности; освобождение в связи с искренним раскаянием виновного; условное осуждение; освобождение от наказания по болезни или в связи с утратой трудоспособности.

А под видами освобождения от дополнительного наказания понимается, что осуждённый, начав отбывать наказание, освобождается от него при определённых условиях после отбытия определённой части назначенного наказания. Для них характерны: условно-досрочное освобождение от отбывания наказания; замена наказания более мягким; освобождение от наказания на основании акта амнистии или помилования.[3]

М.Х. Рустамбоев объясняет освобождение от наказания в полном объёме, частично, а также в так называемых смешанных видах освобождения от наказания.

При полном освобождении от наказания осуждённый вовсе не приступает к отбыванию наказания, установленного приговором суда. Предполагается, что приговор не предусматривает освобождения от отбывания той или иной части назначенного наказания, а исполнение касается только какой-либо части данного наказания для осуждённого.

Частичное освобождение от наказания выражается в освобождении от наказания в процессе его отбывания либо в замене неотбытой части наказания более мягким. К этой категории видов освобождения от наказания относится условно-досрочное освобождение от отбывания наказания; для неё также характерна замена наказания более мягким.

При частичном освобождении от наказания осуждённый начинает отбывать наказание, установленное приговором, и отбывает его определённую часть. После отбытия части наказания, с учётом положительных сторон его поведения за этот период, активного участия в общественной деятельности и других особенностей, суд освобождает его от дальнейшего отбывания неисполненной части назначенного наказания, а также заменяет один вид наказания более мягким, который стоит выше в системе наказаний.

Кроме того, смешанный вид освобождения от наказания включает в себя как полное, так и частичное освобождение от наказания, к которому относятся освобождение от наказания по причине болезни или утраты трудоспособности; освобождение от наказания на основании акта амнистии или помилования.

Также общие основания освобождения от наказания подразделяются на субъективные, объективные и смешанные виды. Субъективные виды освобождения от наказания включают такие ситуации, как положительное поведение лица после совершения преступления, примерное поведение, добросовестное отношение к труду и учёбе, выполнение требований установленного порядка для видов наказания, признание вины, активное содействие в раскрытии преступления и возмещение причинённого ущерба. То есть сюда относится освобождение лица от наказания в связи с утратой им характера общественной опасности, установленного уголовным законом; освобождение от наказания в связи с тем, что виновный искренне раскаялся в своём деянии; условное осуждение; досрочное освобождение от отбывания наказания; основания для замены наказания более мягким[4].

Объективные основания освобождения от наказания возникают вследствие изменений в природе и обществе. К ним относится освобождение от наказания в связи с истечением срока исполнения; примером служат основания для освобождения от наказания в связи с болезнью или утратой трудоспособности.

Смешанный тип включает в себя как объективные, так и субъективные факторы. При этом объективным, общественным изменением выступает принятие акта амнистии, а субъективным –

помилование. Таким образом, смешанный вид освобождения от наказания охватывает ситуации, когда акт амнистии или помилования применяется вследствие того, что лицо уже отбывало определённый срок наказания и было освобождено от его дальнейшего отбывания за примерное поведение.

Основы освобождения от наказания также различаются специалистами в зависимости от деяния и в зависимости от личности.

Освобождение от наказания по обстоятельствам, связанным с деянием, включает основания для освобождения от наказания в связи с истечением срока исполнения приговора, а также на основании акта амнистии или помилования.

К обстоятельствам, связанным с личностью, относятся: освобождение от наказания в связи с утратой лицом признака общественной опасности; условное осуждение; условно-досрочное освобождение от отбывания наказания; замена наказания более мягким; освобождение от наказания по болезни или в связи с утратой трудоспособности; освобождение от наказания в связи с тем, что виновный искренне раскаялся.

Обращаясь к основаниям освобождения от наказания по обстоятельствам, зависящим от личности, следует отметить, что освобождение от наказания в связи с утратой общественной опасности личности закреплено в статье 70 Уголовного кодекса, где устанавливается, что лицо, совершившее преступление, может быть освобождено от наказания, если к моменту рассмотрения дела обстоятельства изменились либо если лицо признано утратившим общественную опасность, проявив примерное поведение, добросовестное отношение к труду или учёбе.

Данное правило, в отличие от видов освобождения от ответственности, предусмотренных статьёй 65 Уголовного кодекса, обусловлено тем, что на момент рассмотрения дела обстоятельства изменились либо лицо, совершившее преступление, проявило примерное поведение, добросовестное отношение к труду или учёбе.

Согласно данной статье, для освобождения от наказания должны быть соблюдены два условия:

- если обстоятельства изменились на момент рассмотрения дела;
- необходимо доказать, что поведение лица, совершившего преступление, изменилось в положительную сторону, выражается в примерном отношении и добросовестности к труду или учёбе.

В отдельных судах выносятся решения о том, что изменение нормативно-правовых актов в сфере уголовного права декриминализует деяние. Можно добавить, что единственным обстоятельством, декриминализирующим деяние, является принятие закона, отменяющего данное деяние как преступление, но ещё не вступившего в силу. Только в этом случае лицо может быть освобождено от наказания, так как совершённое деяние утратило свою общественную опасность вследствие изменения обстоятельств[5].

А в случае освобождения от наказания в связи с тем, что виновный фактически раскаялся в своём деянии, активность лица при указанных выше условиях после совершения ранее не представляющего большой общественной опасности или не очень тяжкого преступления означает возможность освобождения лица от наказания за ранее совершённые преступления.

При условном осуждении устанавливается один из видов наказаний – лишение свободы в отношении лица, направление в дисциплинарную часть, ограничение по службе или исправительные работы, – однако оно фактически не отбывается.

Согласно законодательству Республики Узбекистан, условное осуждение считается видом «освобождения от наказания». Однако в уголовном законодательстве некоторых стран СНГ это обстоятельство указывается в структуре главы о назначении наказания. Исходя из этого, считается ошибочным рассматривать условное осуждение как разновидность освобождения от наказания.

Условное осуждение как следующий вид освобождения от наказания (статья 72 УК) определяется в статье 72 Уголовного кодекса. Условное осуждение означает назначение наказания лицу и признание его виновным без реального отбывания наказания. При условном осуждении осуждённому назначается конкретное наказание и устанавливается испытательный срок, в течение которого предусматривается условие исполнения назначенного реального наказания в случае нарушения условий испытательного срока.

Условное осуждение относится к смешанным видам освобождения от наказания (статья 72 УК), условно-досрочное освобождение от отбывания наказания (статья 73 УК) включает замену наказания более мягким видом (статья 74 УК). Поскольку эти виды освобождения от наказания также связаны как с обстоятельствами, зависящими от личности, так и с обстоятельствами, зависящими от самого деяния.

При вынесении приговора по статье 72 УК судья вместо одного из наказаний, указанных в части 1 данной статьи, назначает испытательный срок от одного до трёх лет и возлагает определённые обязанности. Согласно пункту 35 постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 3 февраля 2006 года № 1 «О практике назначения наказания за преступления судами», в соответствии с частью шестой статьи 72 УК, если условно осуждённый не выполняет возложенные на него обязанности, суд имеет право принять решение о приведении в исполнение наказания, установленного приговором. При этом, учитывая характер совершённого преступления и определённые обстоятельства, сведения о личности осуждённого и его поведении в течение испытательного срока, суд может принять решение оставить условный приговор в силе полностью.

Испытательный срок будет считаться успешным, если осуждённый в соответствии с данным правилом своевременно выполняет возложенные на

него судом обязанности в течение испытательного срока. В случае невыполнения возложенных обязанностей наказание, установленное приговором, подлежит исполнению, например, в виде лишения свободы, исправительных работ, направления в дисциплинарную часть или отбывания ограничений по службе.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Ефремова Ирина Алексеевна. Понятие, признаки, основания и виды института освобождения от наказания // Вестник ССГА. 2018. № 1 (120).
2. Рустамбаев М.Х. Уголовное право. Часть II. – Т.: «Илм зийо», 2011. – С.177.
3. Бохан А.П., Хачатрян С.С. Классификация видов и оснований освобождения от наказания // Юрист. – Москва, 2014. – № . – С.59.
4. Сверчков В.В. Основания освобождения от уголовной ответственности и (или) наказания: система, законодательная регламентация, эффективность применения: автореф. дисс. юр. наук. – Нижний Новгород, 1997. – С.17.
5. Кабулов Р., Атажонов А. А. и др. Уголовное право. Общая част. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2012. – С. 373
6. Костылева О. В. Освобождение от наказания в связи с изменением обстановки: современные тенденции правоприменения // Библиотека криминолога. Научный журнал. – Москва, 2013. – № 2. – С. 284.
7. Бабаян С. Л. Освобождение от отбывания наказания: проблемы и пути совершенствования / С. Л. Бабаян // Уголовно-исполнительное право. – 2018. – Т. 13(1–4), № 3. – С. 309–314
8. Постановление Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан № 1 от 3 февраля 2006 года «О практике назначения наказания за преступление судами». <https://lex.uz/docs/1455976>.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA XALQARO HAMKORLIK

Saidaliyeva Nilufar Farhod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati, uning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni hamda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining roli keng yoritiladi. Inson huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari, xalqaro-huquqiy me'yorlar va milliy islohotlar o'rtasidagi uyg'unlik masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida inson huquqlarini ta'minlash barqaror rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va demokratik jamiyat qurishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, globallashuv, xalqaro hamkorlik, konstitutsiyaviy kafolat, huquq ustuvorligi, barqaror rivojlanish, demokratik tamoyillar.

XXI asrda globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi inson huquqlari masalasini xalqaro siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Inson huquqlari har bir shaxsga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lgan tabiiy va ajralmas huquqlardir. Ularni ta'minlash huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy mezonini hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, shaxsiy va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan.

Mazkur norma davlat siyosatining inson manfaatlariga xizmat qilishini belgilaydi hamda inson huquqlarini himoya qilishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi.

Bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlash masalasi faqat milliy doirada emas, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki inson huquqlari buzilishi global barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Inson huquqlari universallik, tenglik va ajralmaslik tamoyillariga asoslanadi. Ular barcha insonlarga millati, irqi, dini, jinsi va boshqa belgilaridan qat'i nazar teng ravishda taalluqlidir. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlarining asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

Ushbu hujjat insonning yashash huquqi, erkinlik, fikr bildirish, ta'lim olish va mehnat qilish huquqlarini xalqaro miqyosda e'tirof etdi. Inson huquqlarining ta'minlanishi jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlaydi. Huquqlari kafolatlangan shaxs jamiyat hayotida faol ishtirok etadi va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadi. Aksincha, huquqlar cheklangan sharoitda ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Inson huquqlarini samarali himoya qilish xalqaro hamkorlikni talab etadi. Davlatlar o'zaro shartnomalar va konvensiyalar orqali inson huquqlarini himoya qilish sohasida majburiyatlar oladi. Xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: xalqaro-huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish; davriy milliy hisobotlar taqdim etish; monitoring mexanizmlarida ishtirok etish; tajriba almashish va ekspertlik yordamini rivojlantirish.

Bunday hamkorlik inson huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmlarini mustahkamlaydi va milliy qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilish sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyaviy o'zgarishlar inson huquqlarining ustuvorligini yanada mustahkamladi. Sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish ham inson huquqlarini amalda ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, samarali boshqaruv tizimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli milliy islohotlar xalqaro standartlar bilan uyg'unlikda olib borilishi muhimdir.

Hozirgi xalqaro munosabatlarda inson huquqlari shunchaki ma'naviy tushuncha emas, balki iqtisodiy qurolga aylandi. Davlatlar o'rtasidagi savdo

shartnomalari endilikda "Inson huquqlari bandi" (Human Rights Clause) bilan imzolanmoqda. Agar davlat o'z hududida inson haqlarini qo'pol ravishda buzsa, xalqaro hamjamiyat unga nisbatan iqtisodiy cheklovlar yoki investitsiya embargolarini qo'llamoqda. Bu mexanizm davlatlarni o'z ichki siyosatida demokratik tamoyillarga amal qilishga majburlovchi eng kuchli tashqi omildir. O'zbekistonning paxta boykotidan chiqishi aynan mana shu xalqaro talablar va ichki islohotlarning uyg'unlashuvi natijasidir.

Inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati bugun migratsiya masalasida yaqqol ko'rinmoqda. Urushlar, kambag'allik va iqlim o'zgarishi sababli yuzaga kelayotgan millionlab qochqinlar huquqi bugun xalqaro hamkorlikning eng og'riqli nuqtasi. Davlatlar nafaqat o'z fuqarolarini, balki o'z hududiga kelgan har qanday shaxsning (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki qochqinlar) hayoti va daxlsizligini himoya qilishga majbur. Bu borada "Nezhalovat" (qaytarib yubormaslik) tamoyili xalqaro huquqning ustuvor normasi hisoblanadi.

Inson huquqlarining haqiqiy holati jamiyatning eng zaif qatlamlari – nogironligi bo'lgan shaxslar, bolalar va keksalar huquqlari qanday himoyalanganligi bilan o'lchanadi. **Inovatsiya:** O'zbekistonning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ni ratifikatsiya qilishi, bu sohadagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka olib kirdi. Endi nogironligi bo'lgan shaxslarga "sadaqa ob'ekti" emas, balki "huquq sub'ekti" sifatida qarash majburiyati yuklandi.

Inson huquqlarini ta'minlash faqatgina Deklaratsiya bilan cheklanib qolmaydi. Xalqaro huquqda **"Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill"** deb ataluvchi hujjatlar majmuasi mavjud bo'lib, ular davlatlar uchun majburiy hisoblanadi.

O'zbekiston ushbu xalqaro hujjatlarga qo'shilish orqali o'z zimmasiga nafaqat qonunlarni qabul qilish, balki har 4-5 yilda BMT qo'mitalariga hisobot berish majburiyatini ham olgan. Bu esa milliy qonunchilikning xalqaro ekspertlar nazoratida ekanligini anglatadi.

Inson huquqlarini ta'minlash 2030-yilgacha bo'lgan **Global Barqaror Rivojlanish Maqsadlari** bilan uzviy bog'liq. Xususan: **16-maqsad:** Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv. Bu bevosita inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga barham berish va barcha uchun odil sudlovni ta'minlashni ko'zda tutadi. **Gender tengligi (5-maqsad):** Ayollar va qizlarning huquqlarini ta'minlamasdan turib, global barqarorlikka erishib bo'lmaydi.

O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan alohida qonunlar aynan shu global maqsadning bir qismidir. Xalqaro hamkorlikning eng samarali usullaridan biri – bu tajriba almashish va ta'limdir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson o'z huquqini bilmasa, uni himoya qila olmaydi.

BMTning Inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi talablaridan kelib chiqib, O'zbekistonda ham inson huquqlari bo'yicha milliy o'quv kurslari joriy etilmoqda.

Bu jarayonda YeXHT (OSCE) va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda sudyalari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va talabalar uchun maxsus platformalar yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini ta'minlash globallashtirish davrida strategik ahamiyat kasb etadi. U tinchlik, xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratadi. Xalqaro hamkorlik esa inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmi bo'lib, umumiy standartlarni shakllantirish va ilg'or tajribalarni joriy etishga xizmat qiladi. Shu bois milliy va xalqaro darajadagi sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA XALQARO HAMKORLIK

Usmonova Ozoda Sobirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati hamda ushbu jarayonda xalqaro hamkorlikning institutsional va huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Inson huquqlari zamonaviy xalqaro tizimning universal qadriyati sifatida e'tirof etilib, tinchlik, barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Samarali xalqaro hamkorlik va o'zaro majburiyatlarni bajarish davlatlar o'rtasida ishonch va uzoq muddatli taraqqiyot kafolati sifatida alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: inson xavfsizligi, universal qadriyatlar, xalqaro mas'uliyat, inson huquqlari normativ ta'sir instrumenti sifatida, xalqaro birdamlik.

Kirish. “Qayd etish kerakki, - deydi K.Vasak, - inson huquqlari va erkinliklari inson hayotining turli sohalarini: shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini ta'minlab beradi. Shu munosabat bilan, ular guruhlar va nomlanish bo'yicha turlarga bo'linadi. Biroq, bu huquqlar nafaqat hayotiy faoliyatning turli sohalariga taalluqlidir, balki ular paydo bo'lish vaqti bo'yicha ham farqlanadi. Shu yerdan esa inson huquqlari avlodlari paydo bo'lgan”[1]. Shuni qayd etish lozimki, globalizm davridagi yangi xavflarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda, inson huquqlarining yangi “to'rtinchi avlodlari” ham shakllanmoqdaki, ular yangi huquqlarning vujudga kelishiga va mavjud huquqlar turining o'zgarishiga hamda ularga rioya etilishi bilan bog'liq nazorat mexanizmlarining takomillashtirilishiga olib keladi. Ko'p tadqiqotchilar, to'rtinchi avlod huquqlari XXI asrda shakllanadi, deyishmoqda. Bu, birinchi navbatda, yangi axborot texnologiyalari bilan, qolaversa, tibbiyot, biologiya,

genetika va qishloq xo'jaligidagi kashfiyotlar bilan bog'liq bo'lgan huquqlardir[2].

Usullar va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida umumilmiy usullar-tizimli yondashuv usuli va inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlar va huquqiy normalarni o'rganishda normativ-huquqiy tahlil usuli qo'llanildi. Adabiyotlar tahlili doirasida inson huquqlari va institutsional mexanizmlarga oid xalqaro tashkilotlar hujjatlari va ilmiy maqolalar asosida mavzuning zamonaviy talqini tahlil qilindi hamda mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi.

Muhokama va natijalar. Inson huquqlari tushunchasini dunyoda ijtimoiy indeks bo'yicha insonga o'xshab yashash tamoyillari sifatida bir yoqlama emas, aksincha bola huquqlari, ayollar huquqlari (gender tenglik), migrantlar huquqlari, oilaviy zo'ravonlikdan to jamiyatdagi ayirmachilikning eng oddiy ko'rinishigacha bo'lgan salbiy holatlarni yo'qotish zarurati sifatida ulkan va o'ta muhim bir soha deb tasavvur qilish zarur. Sababi masalani asl mohiyati, uni ko'lamini to'g'ri tushunish bilan ham bog'liqdir. Eng e'tiborlisi esa nafaqat xalqaro hamkorlikning ahamiyati, balki har bir shaxsning roli va axloqiy jihatlarini ham muhimligidir. Ya'ni biz jamiyatdagi umumiy yurish-turish jarayonida ham o'zaro huquqlarimizni hurmat qilsak, shaxsiy kamsitilish holatlarini yo'qotsak, o'zaro muloqotda insonni insonligi uchun hurmat qilsak, bu butun bir global zanjirga aylanib, o'zining asl ahamiyatini ifodalaydi.

“Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak”[3] deyiladi 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 2- moddasida. Ushbu deklaratsiyasi inson huquqlarining universalligini e'tirof etib, ularni xalqaro huquqiy tizimning asosiy me'yoriga aylantirdi. Shundan so'ng inson huquqlari masalasi ko'p tomonlama hamkorlik, xalqaro shartnomalar va monitoring mexanizmlari orqali tartibga solina boshlandi.

Masalani boshqa tomoni ham mavjudki, bu hozirgi geosiyosiy jarayonlar nafaqat, inson huquqlari sohasida hamkorlikni yanada kuchaytirishni, shuningdek uning xarakterini ham to'g'ri anglashni talab etishidir. Sababi, axborot erkinligi, internet, sun'iy intellekt, raqamli va iqtisodiy- texnologik rivojlanish jarayonlari nafaqat qulaylik yaratmoqda, balki shaxsiy hayot daxlsizligini buzilishi, kiberjinoyatlar ko'lamini ortishi, soxta axborot (dezinformatsiya) va hattoki gibril urushlar kabi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro hamkorlik ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi. Davlatlar o'zaro majburiyatlarni bajarish, tajriba almashish va institutsional mexanizmlarni

rivojlantirish orqali inson huquqlarining samarali himoyasiga erishadi. Shuningdek bu davrda shaxsiy ogohlik masalasi ham davr talabiga aylanmoqda. O'tkazilgan tahlillar asosida inson huquqlarini ta'minlashning quyidagi global ahamiyatlari ajratib ko'rsatiladi:

Tinchlik va barqaror rivojlanish	Ichki legitimlik tashqi siyosatda samaradorlik garovi bo'lib xizmat qiladi.
O'zaro ishonch	Ayniqsa, migratsiya sohasida inson huquqlari kafolati o'zaro ishonch mustahkamligini oshiradi.
Xalqaro imijni oshirish	Misol, Skandinaviya davlatlari.
Xalqaro nufuz va yumshoq kuch elementi	Iqtisodiy va siyosiy barqarorlik omili, ayniqsa investitsiya jalb etish jarayonida.

“Hukumat yuritayotgan ichki xulq- atvor siyosati (masalan, demokratiya), xalqaro institutlar (boshqalar bilan ishlash) va tashqi siyosatdagi (tinchlik va inson huquqlarini ilgari surish) qadriyatlar o'zgalarning imtiyozlariga kuchli ta'sir qiladi”[4]. AQSH mudofaa vazirining xalqaro xavfsizlik masalalari bo'yicha sobiq maslahatchisi, siyosatshunos Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan yuqoridagi fikrlar ham inson huquqlarini nafaqat mamlakat ichki siyosati uchun ahamiyatli qiladi, balki uni tashqi siyosatida yumshoq kuchini mustahkamlovchi jozibadorlik vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa. Inson huquqlarini himoya qilish global masala bo'lib, uni ta'minlashda gumanitar tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. BMT, Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Jamiyati, Doctors Without Borders (MSF), Amnesty International va Human Rights Watch kabi institutlar gumanitar yordam ko'rsatish, inson huquqlarini monitoring qilish va targ'ib qilishda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, Afrikadagi Sudan, Efiopiya, Mali va Niger yoki Yaqin Sharq misolida, inson huquqlari buzilishi ko'pincha milliy tizimlarning zaifligi va xalqaro mexanizmlarning yetarli ishlamasligi bilan bog'liq. Natijada, samarali xalqaro hamkorlik va monitoring inson huquqlarini ta'minlash hamda barqaror rivojlanishni kafolatlashning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mo'minov A.R., Tillabayev M.A. Inson huquqlari: darslik. – 2-nashr. –T.: “Adolat”, 2013. – 55b.
2. Mo'minov A.R., Tillabayev M.A. Inson huquqlari: darslik. – 2-nashri. –T.: “Adolat”, 2013. – 64b.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // BMT Bosh Assambleyasi, 1948-yil 10- dekabr.
4. Nay, J. Yumshoq kuch: Jahon siyosatida muvaffaqiyat vositasi. / Ingliz tilidan S. Valiyev tarjimasini. – Toshkent: “TRUST AND SUPPORT”, 2023. – 44b.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA XALQARO HAMKORLIK

Saidaliyeva Nilufar Farhod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati, uning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni hamda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining roli keng yoritiladi. Inson huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari, xalqaro-huquqiy me'yorlar va milliy islohotlar o'rtasidagi uyg'unlik masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida inson huquqlarini ta'minlash barqaror rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va demokratik jamiyat qurishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, globallashuv, xalqaro hamkorlik, konstitutsiyaviy kafolat, huquq ustuvorligi, barqaror rivojlanish, demokratik tamoyillar.

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi inson huquqlari masalasini xalqaro siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Inson huquqlari har bir shaxsga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lgan tabiiy va ajralmas huquqlardir. Ularni ta'minlash huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy mezoni hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan [1].

Mazkur norma davlat siyosatining inson manfaatlariga xizmat qilishini belgilaydi hamda inson huquqlarini himoya qilishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi.

Bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlash masalasi faqat milliy doirada emas, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki inson huquqlari buzilishi global barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Inson huquqlari universallik, tenglik va ajralmaslik tamoyillariga asoslanadi. Ular barcha insonlarga millati, irqi, dini, jinsi va boshqa belgilaridan qat'i nazar teng ravishda taalluqlidir. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlarining asosiy tamoyillarini belgilab berdi [2].

Ushbu hujjat insonning yashash huquqi, erkinlik, fikr bildirish, ta'lim olish va mehnat qilish huquqlarini xalqaro miqyosda e'tirof etdi. Inson huquqlarining ta'minlanishi jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlaydi. Huquqlari kafolatlangan shaxs jamiyat hayotida faol ishtirok etadi va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadi. Aksincha, huquqlar cheklangan sharoitda ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Inson huquqlarini samarali himoya qilish xalqaro hamkorlikni talab etadi. Davlatlar o'zaro shartnomalar va konvensiyalar orqali inson huquqlarini himoya qilish sohasida majburiyatlar oladi. Xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: xalqaro-huquqiy

hujjatlarni ratifikatsiya qilish; davriy milliy hisobotlar taqdim etish; monitoring mexanizmlarida ishtirok etish; tajriba almashish va ekspertlik yordamini rivojlantirish.

Bunday hamkorlik inson huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmlarini mustahkamlaydi va milliy qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilish sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar inson huquqlarining ustuvorligini yanada mustahkamladi. Sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish ham inson huquqlarini amalda ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Ilmiy manbalarda ta‘kidlanishicha, samarali boshqaruv tizimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli milliy islohotlar xalqaro standartlar bilan uyg‘unlikda olib borilishi muhimdir.

Hozirgi xalqaro munosabatlarda inson huquqlari shunchaki ma‘naviy tushuncha emas, balki iqtisodiy qurolga aylandi. Davlatlar o‘rtasidagi savdo shartnomalari endilikda "Inson huquqlari bandi" (Human Rights Clause) bilan imzolanmoqda. Agar davlat o‘z hududida inson haqlarini qo‘pol ravishda buzsa, xalqaro hamjamiyat unga nisbatan iqtisodiy cheklovlar yoki investitsiya embargolarini qo‘llamoqda. Bu mexanizm davlatlarni o‘z ichki siyosatida demokratik tamoyillarga amal qilishga majburlovchi eng kuchli tashqi omildir. O‘zbekistonning paxta boykotidan chiqishi aynan mana shu xalqaro talablar va ichki islohotlarning uyg‘unlashuvi natijasidir.

Inson huquqlarini ta‘minlashning global ahamiyati bugun migratsiya masalasida yaqqol ko‘rinmoqda. Urushlar, kambag‘allik va iqlim o‘zgarishi sababli yuzaga kelayotgan millionlab qochqinlar huquqi bugun xalqaro hamkorlikning eng og‘riqli nuqtasi. Davlatlar nafaqat o‘z fuqarolarini, balki o‘z hududiga kelgan har qanday shaxsning (fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar yoki qochqinlar) hayoti va daxlsizligini himoya qilishga majbur. Bu borada "Nezhalovat" (qaytarib yubormaslik) tamoyili xalqaro huquqning ustuvor normasi hisoblanadi.

Inson huquqlarining haqiqiy holati jamiyatning eng zaif qatlamlari – nogironligi bo‘lgan shaxslar, bolalar va keksalar huquqlari qanday himoyalanganligi bilan o‘lchanadi.

Inovatsiya: O‘zbekistonning "Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya"ni ratifikatsiya qilishi, bu sohadagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka olib kirdi. Endi nogironligi bo‘lgan shaxslarga "sadaqa ob‘ekti" emas, balki "huquq sub‘ekti" sifatida qarash majburiyati yuklandi.

Inson huquqlarini ta‘minlash faqatgina Deklaratsiya bilan cheklanib qolmaydi. Xalqaro huquqda **"Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro bill"** deb ataluvchi hujjatlar majmuasi mavjud bo‘lib, ular davlatlar uchun majburiy hisoblanadi

O'zbekiston ushbu xalqaro hujjatlarga qo'shilish orqali o'z zimmasiga nafaqat qonunlarni qabul qilish, balki har 4-5 yilda BMT qo'mitalariga hisobot berish majburiyatini ham olgan. Bu esa milliy qonunchilikning xalqaro ekspertlar nazoratida ekanligini anglatadi. Inson huquqlarini ta'minlash 2030-yilgacha bo'lgan **Global Barqaror Rivojlanish Maqsadlari** bilan uzviy bog'liq. Xususan: **16-maqсад:** Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv. Bu bevosita inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga barham berish va barcha uchun odil sudlovni ta'minlashni ko'zda tutadi. **Gender tengligi (5-maqсад):** Ayollar va qizlarning huquqlarini ta'minlamasdan turib, global barqarorlikka erishib bo'lmaydi. O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan alohida qonunlar aynan shu global maqsadning bir qismidir. Xalqaro hamkorlikning eng samarali usullaridan biri – bu tajriba almashish va ta'limdir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson o'z huquqini bilmasa, uni himoya qila olmaydi.

BMTning Inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi talablaridan kelib chiqib, O'zbekistonda ham inson huquqlari bo'yicha milliy o'quv kurslari joriy etilmoqda.

Bu jarayonda YeXHT (OSCE) va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda sudyalari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va talabalar uchun maxsus platformalar yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini ta'minlash globallashtirish davrida strategik ahamiyat kasb etadi. U tinchlik, xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratadi. Xalqaro hamkorlik esa inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmi bo'lib, umumiy standartlarni shakllantirish va ilg'or tajribalarni joriy etishga xizmat qiladi. Shu bois milliy va xalqaro darajadagi sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 maydagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Qonuni.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948 yil 10 dekabr.
3. Ismoilova T. Milliy boshqaruv: tarix va taraqqiyot. // "Mahalla kuzgusi" jurnali, 2007.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. (Ushbu kitobda inson huquqlarini ta'minlash va "Inson qadri uchun" tamoyili haqida fundamental g'oyalar mavjud).
5. Akmal Saidov. "Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq". – Toshkent: "Adolat", 2022.
(Muallif inson huquqlari bo'yicha O'zbekistonning eng yetuk ekspertlaridan biri bo'lib, xalqaro mexanizmlarni tushunishda yordam beradi).
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. "Barqaror rivojlanish maqsadlari: 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi". 2015-yil.

(Maqolangizdagi barqaror rivojlanish qismini boyitish uchun eng asosiy xalqaro hujjat).

7. Kassese A. "International Law in a Divided World". – Oxford University Press, 2018. (Xalqaro huquq va inson huquqlari o'rtasidagi global bog'liqlikni tahlil qilish uchun xalqaro miqyosdagi eng mashhur darsliklardan biri).

IJTIMOIIY DAVLATDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA ZAMONAVIIY YONDASHUVLAR

Muzaffarova Marjona Ali qizi.

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat sharoitida inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati hamda ushbu jarayonda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson huquqlarini himoya qilish ijtimoiy davlatning muhim vazifalaridan biri ekani asoslab berilib, bu borada xalqaro standartlar, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni yoritiladi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlashda raqamli boshqaruv, ochiqlik va xalqaro hamkorlik kabi zamonaviy mexanizmlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy davlatda inson huquqlarini samarali ta'minlash uchun huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, inson huquqlari, global standartlar, huquqiy kafolatlar, fuqarolik jamiyati, demokratik institutlar, zamonaviy boshqaruv.

Kirish. Hozirgi globallashtirish jarayonida inson huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro hamjamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biriga aylangan. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish nafaqat demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri, balki ijtimoiy davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda inson huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi fuqarolarning munosib hayot kechirishi, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan siyosiy-huquqiy tizimni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro standartlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ochiq boshqaruv tamoyillari va raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynamoqda.

Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlash bugungi global kontekstda davlat siyosati va huquqiy tizimning eng muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ijtimoiy davlat tamoyili fuqarolarning ijtimoiy adolat, tenglik va

farovonlik huquqlarini ta'minlashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi; aynan shu tamoyil O'zbekiston Konstitutsiyasida ham mustahkamlangan bo'lib, davlat shaxsning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb biladi va ularni himoya qilishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatadi [1]. Ijtimoiy davlat konsepsiyasining huquqiy mohiyati shundaki, u nafaqat ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishni, balki fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini samarali himoya qiluvchi institutlar va mexanizmlarni yaratishni ham talab qiladi [2].

Xalqaro huquq doirasida inson huquqlarini ta'minlashning umumjahon standartlari shakllangan bo'lib, BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda boshqa mexanizmlar davlatlardan fuqarolarning barcha asosiy huquqlarini himoya qilishni talab qiladi [3]. Shu nuqtai nazardan, milliy qonunchilik xalqaro standartlarni ichki huquq tizimiga integratsiya qilib, ham xalqaro, ham milliy kafolatlarni mustahkamlaydi. Bu esa ijtimoiy davlat mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun muhim omildir.

Zamonaviy sharoitda inson huquqlarini ta'minlash jarayoni an'anaviy huquqiy mexanizmlardan tashqari yangi yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat siyosatining bajapilishini monitoring qilish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishda faol rol o'ynaydi. Shuningdek, ochiq boshqaruv tamoyillari va raqamli texnologiyalar davlat xizmatlariga erkin kirish, shikoyat yo'llarini soddalashtirish hamda shaffoflikni oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu tarzda, raqamli boshqaruv inson huquqlarini himoya qilishda samaradorlikni oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi [4].

Ijtimoiy adolat tamoyili ham inson huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki adolat fuqarolarning teng huquqlarini, imkoniyatlarini va resurslarga kirish imkonini kafolatlash orqali amalga oshiriladi. Biroq, huquqiy madaniyat darajasi past bo'lgan jamiyatlarda fuqarolarning o'z huquqlarini talab qilish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa xalqaro va milliy huquqiy me'yorlar mavjud bo'lsa ham ularning amalda to'liq ta'minlanmay qolishiga olib keladi [5].

Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik inson huquqlarini ta'minlash jarayonini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar va hamkor davlatlar o'rtasidagi tajriba almashish va huquqiy standartlarni uyg'unlashtirish yo'li orqali ijtimoiy davlatlarda inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirish imkoniyati oshadi.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, unda huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, raqamli boshqaruv vositalaridan faol foydalanish va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish muhim o'rin tutadi. Bu yondashuvlar davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi hamda jamiyatning demokratik barqarorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Ijtimoiy davlat tamoyili va inson huquqlari. Constitution.uz rasmiy sayti.
3. Toshpo'latov D. Zamonaviy jamiyatda inson huquqlari himoyasi // Universal Conference ilmiy maqolalar to'plami.
4. Ijtimoiy adolat va huquqiy madaniyat masalalari // Inlibrary.uz ilmiy maqolalar bazasi.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA XALQARO HAMKORLIK

Homidova Zebiniso Akbar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati hamda ushbu jarayonda xalqaro hamkorlikning o'rni tahlil qilinadi. Inson huquqlarining mohiyati, asosiy tamoyillari va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning roli, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning zarurligi va bu boradagi xalqaro huquqiy mexanizmlar haqida ma'lumot beriladi. Maqolada inson huquqlarini ta'minlash jamiyatda tinchlik, barqarorlik va adolatni mustahkamlashning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'z: demokratik jamiyat, tenglik, xalqaro tashkilotlar, huquqiy himoya, ijtimoiy adolat, barqaror rivojlanish.

Bugungi globallashuv davrida inson huquqlari shunchaki huquqiy tushuncha emas, balki har qanday davlatning demokratik qiyofasini belgilovchi asosiy mezoniga aylandi. Inson qadr-qimmatini, erkinligi va huquqlarini ta'minlamasdan turib, na iqtisodiy taraqqiyotga, na uzoq muddatli tinchlikka erishib bo'lmaydi.

Inson huquqlari – bu barcha insonlarning qadr-qimmatini tan oladigan va himoya qiladigan standartlar (mezonlar) hisoblanadi. Inson huquqlari insonlarning jamiyatda va bir-biri bilan qanday yashashini, shuningdek, ularning davlat bilan munosabatlarini va davlatning ular oldidagi majburiyatlarini tartibga soladi.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda inson huquqlarini ta'minlash masalasi nafaqat alohida davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Inson huquqlari buzilishi jamiyatda ijtimoiy nizolar, tengsizlik va adolatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli inson huquqlarini himoya qilish va ularni ta'minlash borasida xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari birgalikda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan turli dastur va

loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu jarayon inson huquqlarining global darajada ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Inson huquqlarining mohiyati va asosiy tamoyillari:

Inson huquqlari insonning erkin yashashi, rivojlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan asosiy huquq va erkinliklar majmuasidir. Inson huquqlarining eng muhim xususiyati shundaki, ular universal, ajralmas va tengdir.

Universal degani – bu huquqlar dunyoning barcha hududlarida yashovchi insonlarga tegishli ekanligini anglatadi. Ajralmaslik esa inson huquqlarini hech kim insondan tortib ololmasligini bildiradi. Tenglik tamoyili esa barcha insonlar qonun oldida teng ekanligini anglatadi

Inson huquqlari va xalqaro hamkorlikning asosiy xalqaro-huquqiy asosi 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo'lib, u barcha odamlarning tengligi va qadr-qimmatini e'tirof etadi. O'zbekiston ushbu xalqaro tamoyillarga asoslangan holda, 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya doirasida BMT qo'mitalariga muntazam hisobotlar taqdim etmoqda.

Inson huquqlarining global ahamiyati

Bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlash global muammo sifatida qaralmoqda. Chunki inson huquqlari nafaqat alohida davlatlar rivojlanishiga, balki butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga ham ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, inson huquqlari jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Inson huquqlari hurmat qilinadigan davlatlarda fuqarolar o'z huquqlariga ega bo'ladi va jamiyatda adolatli muhit shakllanadi. Aksincha, inson huquqlari buzilgan jamiyatlarda nizolar, zo'ravonlik va siyosiy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchidan, inson huquqlari iqtisodiy rivojlanishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim olish huquqi, mehnat qilish huquqi va teng imkoniyatlar jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Inson kapitalining rivojlanishi esa davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, inson huquqlari ijtimoiy adolatni ta'minlashga yordam beradi. Gender tengligi, irqiy tenglik va kamsitilmaslik tamoyillari inson huquqlarining muhim qismi hisoblanadi. Bu tamoyillar jamiyatda barqaror va adolatli muhitni yaratishga xizmat qilad

Inson huquqlarini himoya qilish jarayonida xalqaro tashkilotlar muhim o'rin tutadi. Bu borada eng yetakchi tashkilotlardan biri BMT hisoblanadi. Ushbu tashkilot inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro standartlarni ishlab chiqish va davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Bugungi kunda inson huquqlari bilan bog'liq ko'plab muammolar global xarakterga ega. Masalan, inson savdosi, migratsiya, qochqinlar muammosi va diskriminatsiya kabi masalalar bir nechta davlatlarni qamrab oladi.

Shuning uchun bu muammolarni hal qilishda davlatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Davlatlar xalqaro shartnomalar tuzish, tajriba

almashish va qo'shma dasturlarni amalga oshirish orqali inson huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlaydi.

Masalan, qochqinlar huquqlarini himoya qilish sohasida United Nations High Commissioner for Refugees tashkiloti muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilot qochqinlarga yordam ko'rsatish, ularning huquqlarini himoya qilish va ularni xavfsiz joylashtirish bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston va inson huquqlarini ta'minlash

Bugungi kunda O'zbekiston ham inson huquqlarini ta'minlash borasida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan turli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ko'plab xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirib bormoqda. Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyat yuritmoqda. Bu jarayonlar mamlakatimizda demokratik jamiyatni rivojlantirish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini ta'minlash bugungi kunda global ahamiyatga ega bo'lgan muhim masalalardan biridir. Inson huquqlari jamiyatda tinchlik, adolat va barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik inson huquqlarini yanada samarali himoya qilishga yordam beradi. Shu sababli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va inson huquqlarini hurmat qilish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A .Saydullayev , B.I.Ismailov ,N.F.Saydalixodjayeva ,S.Z.Tilavova Davlat va huquq asoslari 10-sinf –Toshkent, 2003.
2. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti <http://insonhuquqlari.uz>
3. Insin huquqlari umumjahon deklaratsiyasi –Parij: United Nation Bosh Assambleyasi, 1948-yil, 10-dekabr.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ И КЛЮЧЕВЫЕ ИНИЦИАТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

Мирзораимова. М.Ш.

*Студентка 4 курса, группа 2203 СТ, направление «Политология»,
Узбекский государственный университет мировых языков*

Аннотация: В статье исследуется эволюция роли Республики Узбекистан в Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) в период с 2016 по 2026 гг. Проведен комплексный анализ инициатив Ташкента в

сферах региональной безопасности, транспортной логистики, «зеленой» энергетики и народной дипломатии. Особое внимание уделено мега-проектам железных дорог «Китай – Кыргызстан – Узбекистан» и Трансафганского коридора. Автор обосновывает тезис о том, что Узбекистан трансформировался из пассивного участника в стратегического модератора и драйвера экономической повестки ШОС.

Ключевые слова: ШОС, Узбекистан, региональная безопасность, транспортные коридоры, Афганистан, экономическая дипломатия, РАТС, ВИА, «зеленая» экономика.

Введение. Современная геополитическая архитектура Евразии претерпевает фундаментальные изменения. В условиях перехода к полицентричному миропорядку региональные организации становятся центрами формирования новых правил игры. Шанхайская организация сотрудничества (ШОС), объединяющая страны с суммарным ВВП более 25% от мирового, выступает ключевым гарантом стабильности.

Для Республики Узбекистан, находящейся в географическом сердце Центральной Азии, участие в ШОС – это не только вопрос внешней политики, но и залог устойчивого внутреннего развития. С 2016 года, под руководством Президента Шавката Мирзиёева, внешнеполитический курс страны приобрел характер прагматичной открытости. Ташкент перешел к активной стратегии формирования повестки дня внутри ШОС, предлагая решения, которые отвечают интересам как крупных держав (Китая, России, Индии), так и малых государств центральноазиатского региона. Актуальность статьи обусловлена необходимостью научного осмысления того, как инициативы «Нового Узбекистана» меняют облик ШОС в условиях её расширения и глобальной климатической повестки.

Трансформация архитектуры региональной безопасности

Исторически ШОС создавалась как механизм обеспечения коллективной безопасности. Узбекистан вносит определяющий вклад в это направление через функционирование Региональной антитеррористической структуры (РАТС) со штаб-квартирой в Ташкенте.

Борба с нетрадиционными угрозами.

В период 2020–2026 гг. Узбекистан инициировал расширение мандата РАТС, включив в него вопросы мониторинга киберпространства и борьбы с использованием ИТ-технологий в целях терроризма. Создание специализированного Центра ШОС по информационной безопасности в Ташкенте позволило синхронизировать усилия спецслужб стран-участниц, предотвратив сотни попыток вербовки молодежи через социальные сети.

Афганский фактор: от «угрозы» к «возможности».

Стратегическая инициатива Узбекистана заключается в изменении восприятия Афганистана внутри ШОС. Ташкент последовательно продвигает формулу: «Стабильный Афганистан – залог стабильности всей

Евразии». Работа Контактной группы «ШОС – Афганистан» под председательством Узбекистана была направлена на вовлечение временного правительства Кабула в экономические проекты. В сентябре 2025 года на саммите президент Узбекистана призвал активизировать работу этой группы для разработки конкретных механизмов вовлечения Кабула в региональные проекты. Автор полагает, что именно гуманитарная и экономическая дипломатия Ташкента (Термезский хаб) стала альтернативой силовым сценариям, предотвратив экспорт нестабильности в страны Центральной Азии.

Экономическая дипломатия: динамика и приоритеты

Экономическое измерение ШОС для Узбекистана является приоритетным. Основная цель – преодоление транспортной изолированности и диверсификация рынков.

Таблица 1

Динамика товарооборота Республики Узбекистан с ключевыми государствами-членами ШОС (2020–2025 гг.)
(в млрд долларов США)

Страна-партнер	2020 г.	2021 г.	2022 г.	2023 г.	2024 г.	2025 г. (предв.)
Китай	6,4	8,0	8,9	13,7	15,1	16,8
Россия	5,6	7,5	9,3	9,9	11,2	12,5
Казахстан	3,0	3,9	4,6	4,4	4,8	5,2
Индия	0,44	0,49	0,69	0,78	1,1	1,4
Пакистан	0,12	0,18	0,24	0,35	0,5	0,7
ИТОГО ШОС	17,5	22,6	26,5	32,8	37,1	41,5

Источник: Составлено автором на основе ежегодных отчетов Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан.

Анализ данных подтверждает, что за последние 5 лет товарооборот Узбекистана со странами ШОС вырос в 2,3 раза. Особого внимания заслуживает лидерство Китая, чей удельный вес в торговле достиг почти 40% от общего объема ШОС. «Это свидетельствует о закреплении за КНР статуса ключевого геоэкономического вектора развития Узбекистана в рамках ШОС». Россия остается ключевым партнером в сфере промышленной кооперации, а Индия и Пакистан демонстрируют наиболее высокие темпы роста за счет фармацевтического и аграрного секторов. «Динамика роста торговли с Пакистаном обусловлена запуском транзитных перевозок через Афганистан в рамках транспортного коридора "Узбекистан – Афганистан – Пакистан"».

Транспортная связуемость: проекты века

Центральное место в стратегии Узбекистана занимает превращение региона в транзитный мост Евразии.

Железная дорога «Китай – Кыргызстан – Узбекистан» (ККУ).

Этот проект, старт которого был официально дан в 2024 году, является кратчайшим путем из Китая в Европу и на Ближний Восток. «На начало 2026 года проект перешел в активную фазу прокладки тоннелей, что подтверждает статус Узбекистана как ключевого транзитного хаба». Протяженность маршрута по территории Кыргызстана и Узбекистана (около 454 км) позволит сократить время в пути на 8–10 суток. Экономический эффект для Узбекистана заключается не только в транзитных сборах, но и в развитии сопутствующей инфраструктуры в Ферганской долине.

Трансафганский коридор «Термез – Мазари-Шариф – Кабул – Пешавар».

Проект «Южной магистрали» открывает Узбекистану выход к пакистанским портам Гвадар и Карачи. Автор доказывает, что этот коридор в 3 раза дешевле и в 2 раза быстрее существующего пути через Суэцкий канал. С участием Пакистана как полноправного члена ШОС, данный проект получил статус трансконтинентальной значимости.

Экологическая дипломатия и «зеленая» повестка

Климатические вызовы стали катализатором технологического сотрудничества внутри ШОС. Узбекистан, реализуя стратегию «зеленого» роста, активно привлекает технологии ВИЭ из Китая и Индии.

Технологический альянс.

За период 2023–2025 гг. при участии китайских компаний в Узбекистане введено в эксплуатацию более 12 ГВт мощностей солнечной и ветровой генерации. Ярким примером промышленной кооперации стал завод BYD Uzbekistan Factory в Джизаке – первое производство электромобилей китайского бренда в Центральной Азии. Это подтверждает переход Узбекистана от роли импортера к роли регионального производителя высокотехнологичной продукции.

Программа «Зеленый пояс ШОС».

Инициатива Узбекистана по созданию системы регионального лесовосстановления и борьбы с засухой в Приарале получила поддержку на Астанинском саммите 2024 года. Автор подчеркивает, что экологическая повестка в ШОС стала инструментом «мягкой силы», способствующим объединению стран вокруг общечеловеческих проблем.

Культурно-гуманитарное сотрудничество: народная дипломатия

Стабильность политических союзов напрямую зависит от уровня доверия между народами.

Создание в 2018 году Центра народной дипломатии ШОС в Ташкенте позволило институционализировать гуманитарные связи. Проекты в сфере образования и туризма (статус Самарканда как туристической столицы ШОС) направлены на создание позитивного имиджа Организации. Автор

отмечает, что Узбекистан успешно продвигает «Шанхайский дух» через популяризацию общего исторического наследия Великого Шелкового пути.

Выводы и рекомендации

Подводя итоги исследования, автор формулирует следующие выводы:

1. Узбекистан из потребителя безопасности превратился в стратегического модератора ШОС, предлагающего конкретные решения для всей Евразии.

2. Экономическая повестка Ташкента (транспортные коридоры) стала цементирующим фактором для Организации в условиях санкционного давления на некоторых её членов.

3. «Зеленая» трансформация экономики Узбекистана при поддержке партнеров по ШОС создает основу для долгосрочного устойчивого развития региона.

Рекомендация: Для дальнейшего углубления интеграции необходимо ускорит создание Банка развития ШОС, инициативу которого активно продвигает Узбекистан. Это позволит финансировать мега-проекты (ККУ и Трансафган) за счет внутренних ресурсов Организации, минуя зависимость от внешних финансовых рынков.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзиёев Ш.М. Выступление на саммите Шанхайской организации сотрудничества в Астане. – Т.: «Узбекистан», 2024.

2. Отчет Агентства «Статистический ежегодник Республики Узбекистан. – Ташкент: Агентство статистики при Президенте РУз, 2025. – 180 с.»

3. Самаркандская декларация Совета глав государств-членов ШОС от 16 сентября 2022 г.

4. Хартия Шанхайской организации сотрудничества (г. Санкт-Петербург, 7 июня 2002 г.) // Официальный сайт ШОС.

5. Сафаев С.С. Роль Узбекистана в региональной интеграции Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ. – 2023. – №2.

6. Мирзиёев Ш.М. Стратегия Нового Узбекистана. – Ташкент: "O'zbekiston", 2021. «Статистический ежегодник Республики Узбекистан. – Ташкент: Агентство статистики при Президенте РУз, 2025. – 180 с.»

7. Эргашев Б. Новая роль Узбекистана в ШОС: от безопасности к экономическому лидерству // Восточный курьер. – 2025. – №3. – С. 45–52.

IJTIMOIIY DAVLATNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM, TIBBIYOT VA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING AHAMIYATI

Boymuratova Farzona Nuriddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annonatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlatni rivojlantirish jarayonida ta'lim, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy himoya tizimlarining ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekistonda ushbu sohalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda mazkur tizimlarning o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, inson kapitali, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy barqarorlik.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ijtimoiy davlatni barpo etish va rivojlantirish dunyo mamlakatlari siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy davlat fuqarolarning munosib hayot darajasini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan davlat boshqaruvining muhim modeli hisoblanadi. Bunda ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasining asosiy maqsadi inson kapitalini rivojlantirish, fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, sog'liqni saqlash xizmatlarini takomillashtirish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ijtimoiy davlat – bu eng avvalo inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar yaratish, odamlar uchun munosib turmush sharoitlarini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishni anglatadi". Shu sababli ham mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya sohalarni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimining ijtimoiy davlat rivojidagi o'rni

Ta'lim tizimi jamiyat rivojining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Sifatli ta'lim inson kapitalini rivojlantiradi, fuqarolarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi hamda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirish va stajirovka o'tash tizimini takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlar

yaratildi. 2018-yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Bu esa ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish va ilmiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.[1]

Shuningdek, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish hamda xalqaro e'tirofga erishish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Ushbu chora-tadbirlar ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqib, ijtimoiy davlat taraqqiyotiga muhim hissa qo'shmoqda.

Davlat rahbari tomonidan ta'lim sohasiga qaratilgan e'tibor natijasida so'nggi besh yil davomida mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan xorijiy universitetlar filiallari tashkil etildi va oliy o'quv yurtlari soni 125 taga yetkazildi.[2]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shunchalik tez rivojlanadi va ko'plab ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi".

Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida 2019-yil 8-oktabrda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjatda intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.[3]

Tibbiyot tizimining ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi ahamiyati

Ijtimoiy davlat tushunchasini malakali va sifatli tibbiy xizmatlarni ta'minlash tasavvur qilish qiyin. Aholining sog'lig'ini saqlash, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish hamda tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qo'shimcha 140 ta oilaviy shifokor punkti va poliklinikalar tashkil etish, olis va chekka hududlarda 520 ta ixcham tibbiyot punktlarini tashkil etish rejalashtirilgan.[4]

Shuningdek, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha uch yillik katta dastur amalga oshirilmoqda. Tug'ruq komplekslarini zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlash hamda ularning imkoniyatlarini kengaytirish orqali o'rinlar sonini 35 foizga oshirish belgilangan.

Sog'lom jamiyat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli tibbiyot tizimini rivojlantirish ijtimoiy davlat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy davlatni rivojlantirishda ijtimoiy himoya tizmining tutadigan o'rni

Ijtimoiy himoya tizimi aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Keng ma'noda ijtimoiy himoya – bu ijtimoiy xatar yuzaga kelgan holatlarda aholining barcha qatlamlariga moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan tizimdir. Tor ma'noda esa u kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.[5]

Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish maqsadida mamlakatimizda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2016-yil 28-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to'g'risida,,gi PF-4904-sonli farmonga muvofiq xalq qabulxonalari tashkil etildi.[6]

2021 yildan boshlab aholni ijtimoiy himoya qilish, manzilli ijtimoiy himoyani ta'minlash hamda hududlardagi muammolarni joyida bartaraf etishda, xonadonbay ishlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahallabay ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida,,[7]gi qarori qabul qilindi. „O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida,,[8]gi, „2011-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida,,[9]gi, „Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida,,[10]gi qonunlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va amaliyotda joriy etildi.

Natijada davlat budjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilmoqda. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish hamda kambag'allik ko'rsatkichlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, „ Ijtimoiy yordam-aholining barcha toifalari bilan muloqatda bo'lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o'rganish, balki ta'minlashdan iborat,,[11] Bu sa'y-harakatlarning barchasi bar bir davlatning rivoji negizini tashkil etadi va yangi sivilizatsiya bosqichlari tomon yetaklaydi. Qolaversa ijtimoiy taraqqiyotda adolatning ham roli katta, bu esa sivilizatsiyalashgan jamiyat bilan chambarchas bog'liq. „Sivilizatsiyalashgan jamiyat nima? BU erkinlik, adolat, aql va qonunga asoslashgan jamiyatdir[12].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligi statistik ma'lumotlari.
3. Yuz.uz (<https://yuz.uz/uz/news>) sayti, Sobitxon Turg'unovning maqolasi (Namangan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor).
4. Sog'liqni saqlash vazirlining statistik ma'lumotlari.

5. A.V. Vaxabov, Ijtimoiy siyosat: O'quv qo'llanma. Toshkent: MUMTOZ SO'ZI, 2019 B.72.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4904-sonli farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahallabay ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. 19.03.2021 yildagi 152-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni, 25.07.2022 yildagi PF-175-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-58-son.

11. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T:"O'zbekiston", 2017 yil, 10.b.

12. Yaxshilikov J.Ya "Muhammadiyev N.E.Falsafa. Darslik Samarqand: SamDU nashri 2021. -B.272.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH ORQALI IJTIMOY DAVLATNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO INTEGRALLASHUVI

*G'oyibberdiyeva Aziza Habibjon qizi,
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi*

Annonatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlash orqali ijtimoiy davlatni rivojlantirish masalalari hamda bu jarayonda xalqaro integratsiyaning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro tajriba, davlat siyosati va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy davlatni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, ijtimoiy davlat, xalqaro integratsiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro hamkorlik, demokratik qadriyatlar, ijtimoiy siyosat, davlat boshqaruvi.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida inson huquqlarini ta'minlash har bir davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ularni amalda ta'minlash ijtimoiy davlatni barpo etishning asosiy shartlaridan biridir. Ijtimoiy davlat fuqarolarning munosib

turmush darajasini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda jamiyatda adolat va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda inson huquqlarini himoya qilish masalasi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro tashkilotlar bilan integratsiya jarayonlari inson huquqlarini ta'minlash va ularni samarali himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy tizimga joriy etish ijtimoiy davlatni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, inson huquqlarini ta'minlash orqali ijtimoiy davlatni rivojlantirishda xalqaro integratsiyaning o'rni va ahamiyatini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy davlatni mustahkamlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

Milliy va xalqaro aspektda munosabatlarni qurishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish jahon hamjamiyati-davlat-shaxs zanjiri doirasida o'zaro munosabatlarning murakkab jarayonlari mavjudligini ko'rsatadi. Bu masala, ayniqsa, chora-tadbirlar samaradorligi va inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy va xalqaro huquq tizimlari uchun ahamiyati jihatidan dolzarbdir.

Muhimligi shundaki, har bir mamlakatda huquqni muhofaza qilish organlarida inson va fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishiga oid misollar mavjud bo'lib, bu holatda mamlakatning rivojlanish darajasiga, fuqarolik jamiyatining huquqiy ongini rivojlantirish darajasiga uning siyosiy rejimiga bog'liqlik tendensiyasi kuzatilmaydi.

Darhaqiqat, inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi ehtimolini istisno etib bo'lmaydi. Inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi uchun har qanday harakat, ba'zan esa harakatsizlik turtki bo'lishi mumkin. Ijtimoiy, siyosiy yoki shaxsiy huquqlar buzilishi mumkin va bu inson huquqlarini ta'minlash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish darajasiga bog'liq emas.

Umuman olganda, huquqbuzarlik avvalo jamoatchilikning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmasligi sabab bo'ladi. Bunday holatda esa davlat huquqiy ong va huquqiy madaniyat asoslarini insonlarga singdirish, jamiyatda madaniyatni rivojlantirishdan, fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilinishini ta'minlanishi kafolati bo'ladigan qonunchilik asoslari bilan xabardor qilishdan hamda inson huquqlari buzilishiga salbiy munosabatni shakllantirishdan ma'lum darajada manfaatdor hisoblanadi.

Inson huquqlari va erkinliklarining xalqaro miqyosda amalda mustahkamlanishi, mavjud sharoit va rivojlanish tufayli fuqarolarga bunday huquqlar berilmasligi mumkin bo'lgan boshqa mamlakatlarda ushbu huquqlarga rioya etilishini nazorat qilish imkonini beradi, ammo bu huquqlarning buzilishini istisno qilmaydi deyish mumkin. Ya'ni, inson huquq va erkinliklarini davlatlar miqyosida solishtirish orqali muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli huquqiy choralar ko'rish imkoni kelib chiqishi mumkin.

Inson huquqlari va erkinliklarining milliy hamda xalqaro standartlarini uyg'unlashtirish qonunchilikni ishlab chiqishning asosidir. Inson huquqlari va erkinliklarining shakllanish, mustahkamlanish sivilizatsiyasi jamiyat taraqqiyoti, ko'proq davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq tartibga solish imkonini beradigan inson huquqlari va erkinliklariga oid qonunchilik majmuasini yaratishga borib taqaladi. Inson huquqlari va erkinliklarining milliy hamda xalqaro standartlarini uyg'unlashtirish qonunchilikni ishlab chiqishning asosidir. Inson huquqlari va erkinliklarining shakllanish, mustahkamlanish sivilizatsiyasi jamiyat taraqqiyoti, ko'proq davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq tartibga solish imkonini beradigan inson huquqlari va erkinliklariga oid qonunchilik majmuasini yaratishga borib taqaladi

Inson huquqlarining keng miqyosda mustahkamlanishi va qo'llanilishi xalqaro huquq institutining huquqiy ahamiyating uning funktsional to'liqligi va milliy huquq tizimlari uchun ahamiyatini ko'rib chiqish imkonini beradi. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha fuqarolar huquqlarining yagona ta'rifini o'rnatgan birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. Deklaratsiya qoidalari 30 ta moddadan iborat bo'lib, inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Billga to'liq kiritilgan [1]. Quvonarlisi shundaki, deklaratsiya orqali insonparvarlik, mehr-oqibat, haqiqat tuyg'ulari mustahkamlandi, bu esa ularni hamma joyda qonuniy ravishda erkin qo'llash imkonini berdi [2] Negaki, deklaratsiyada belgilangan qoidalar universal qoidalar bo'lib, ular har qanday shaxs tomonidan buzilgan istalgan huquqni himoya qilish va tiklash uchun qo'llanilishi mumkin.

Deklaratsiyaning ahamiyatliligi qoidalarini ishlab chiqish va ular asosida mustaqil xalqaro hujjatlarni qabul qilish imkonini berdi. Bunday hujjatlarga quyidagilar kiradi: – 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt, – Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt. Inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalarining alohida ahamiyatini inobatga olgan holda, ularga rioya etilishiga ko'maklashish, ijtimoiy, moddiy va shaxsiy fazilatlaridan qat'i nazar, shaxsga nisbatan hurmatning fundamental asoslarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasi, boshqa har qanday davlat kabi, o'z fuqarolarining manfaatlari va huquqlarini himoya qilishni ta'minlashdan manfaatdor hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bunday manfaatning asoslari Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining qoidalarida o'z aksini topgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti asosiy kafolatchi sifatida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalalarini hal qilishni Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudiga yuklaydi. Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi esa qonunlarga rioya qilish ustidan nazorat vakolatiga ega bo'lgan davlat organidir[3]

–buzilgan huquq va erkinliklarni himoya qilish uchun milliy qonunchilik tartib qoidalarini qo'llash; –buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash uchun xalqaro yurisdiksiya organlariga murojaat qilish imkoniyati.

Inson huquqlarining xalqaro miqyosda rivojlanishini hisobga olgan holda, bugungi kunda juda ko'p mamlakatlar huquq sohasida rivojlanishga, inson huquq va erkinliklarini to'liq, har tomonlama himoya qilish uchun tegishli baza yaratishga tayyorligini e'lon qilmoqdalar. Shu o'rinda fuqarolar huquqlarining buzilishi to'g'risidagi nizoni hal qilish bo'yicha amalga oshirilgan sa'y-harakatlar tufayli davlat qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish va milliy qonunchilik orqali hal qilib bo'lmaydigan nizoni hal qilish zarurati tug'ilganda xalqaro sud organlariga bevosita murojaat qilish imkoniyati ta'minlanishini aytish mumkin [4].

Hozirgi vaqtda inson huquqlarini himoya qilish borasida muayyan muammolar mavjud. Huquqni qo'llash amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlatlar ko'pincha yagona xalqaro qoidalarini qo'llashdan bosh tortadilar, ularni o'xshash milliy huquq normalari bilan almashtiradilar, bu erishilgan natijaga salbiy ta'sir qiladi va umuman olganda, xalqaro universallik 30-AVGUST, 2024-YIL 68 tamoyilini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi deyish mumkin. Qolaversa, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, himoya qilish masalalarini tartibga solish sohasida davlat mexanizmini ishlab chiqish ham muammo sifatida qaralmoqda. Ushbu tendensiya bizni tegishli qonunchilik qoidalarini ishlab chiqish zarurligi haqida ham o'ylashga majbur qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va o'rganilayotgan masalalar bo'yicha mutaxassis bo'lgan alohida mualliflarning fikrlarini tahlil qilish yetarli terminologiya bazasining yo'qligi qabul qilingan me'yoriy-huquqiy qoidalarining sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi, degan fikrga kelish imkonini berdi, Nega deyilganda, u bir xil turdagi huquqiy tushunish imkoniyati, terminologik chalkashliklarni keltirib chiqaradi, turli mamlakatlar huquq institutlarini yagona tekislikda shakllantirish imkoniyatini oldini oladi. Hozirgi vaqtda davlatlar o'rtasidagi muloqot fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'liq, har tomonlama himoya qilishni ta'minlash zarurati bilan bog'liq holda murakkablashmoqda. Jahon hamjamiyatiga va alohida davlatlarga taalluqli madaniy, huquqiy, ijtimoiy muammolardagi tafovutlar tufayli o'zaro tushunishga erishish juda qiyin bo'lib bormoqda

Jahon hamjamiyati va davlatlar vakillari o'rtasidagi muloqot, hukumatlararo va nodavlat notijorat tashkilotlar darajasidagi o'zaro hamkorlik yo'li bilan erishilgan xalqaro kelishuvlarni hisobga olgan holda munozarali qoidalarini tartibga solish, murakkab geosiyosiy tendentsiyalardan chetga chiqish, inson huquq va erkinliklarini xalqaro huquqiy hujjatlar asosida tartibga solish hamda ta'minlash masalalarida umumiy kelishuvga erishish imkonini beradi. Umuman olganda, xalqaro shartnoma va konvensiyalarni ratifikatsiya qilish, milliy qonunchilikka ayrim huquqiy institut va tuzilmalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy

yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga qarshi Konvensiyaning Fakultativ protokoli yoki Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokoli, samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy aktlar. Bundan tashqari, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida inson huquqlari sohasida milliy qonunchilikka hamda qonun chiqaruvchi organga kiritilgan institutlarga sifatli ta'sir ko'rsatadigan chuqur ilmiy va doktrinal tadqiqotlar olib borish zarur. Biroq, ming afsuski, jahon miqyosida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish zamonaviy jamiyatda inson huquqlarini ta'minlashning muammoli xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023. – 13–14-moddalar, 8–10-betlar.
2. Universal Declaration of Human Rights (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi). – BMT, 1948. – 1–3-moddalar, 2–4-betlar.
3. Akmal Saidov. Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Adolat, 2019. – 25–32-betlar.
4. Xamid Odilqoriyev, Ibrohim Tulteyev. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – 112–118-betlar.
5. Jo'rayev A. O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar va inson huquqlarini himoya qilish. – Toshkent, 2019. – 45–52-betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi materiallari. – Toshkent, 2022. – 15–18-betlar.

KORRUPSIYA: JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TAHDID

Mirzaobitova Shaxlo Mirabbos qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ko'zga ko'rinmas, lekin bugungi kunda global muammoga aylangan va chuqur ildiz otgan tahdidlari tahlil qilingan. Muallif korrupsiyani faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy omil sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada korrupsiyaning “normalizatsiyalashuvi” ya'ni, unga yuzaki qarash va uni oddiy vaziyat sifatida qabul qilish xavfi, ayniqsa yoshlarga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi va shu bilan birgalikda keltirilgan statistik ma'lumotlar va tajribalar asosida korrupsiyaning ijtimoiy qadriyatlar yemirilishiga va barqaror taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi omil sifatidagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, ijtimoiy taraqqiyot, normalizatsiya jarayoni, ijtimoiy adolat, shaffoflik, barqarorlik, islohotlar, korrupsiya shakllari, CPI.\

Bugungi kunda korrupsiya dunyoning deyarli barcha davlatlari duch kelayotgan muhim muammolaridan biridir. Korrupsiya o‘zi nima? U jamiyatga qanday xavf soladi? – shu kabi savollarga javob beradigan bo‘lsak korrupsiya-bu huquqiy vakolatga ega shaxsning shaxsiy manfaati yo‘lida o‘ziga yuklangan vazifalarni suiiste’mol qilishi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotiga va rivojiga jiddiy to‘sqinlik qiladi va bu jamiyatni turli xil yo‘llar bilan iskanjaga olib boradigan daxshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya, huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi va natijada inson huquqlari buziladi. Ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu zararli illatni jamiyatga ta’sirini bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilib kelayotgan bo‘lsada, hali hanuz to‘liq bartaraf etilgani yo‘q. Barchamizga ma’lumki, bu illatning kelib chiqish sabbalarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashishning bir qancha samarali yo‘llarini toppish, ildizini quritish uchun mutaxassislar, turli xil institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, xatto minglab tadqiqotlar o‘tkazilgan va hozirda ham davom etmoqda. Ammo bu yomon illatga qarshi kurashishda hanuzgacha, barcha millatlar uchun foydali bo‘ladigan ya’ni, qo‘l keladigan aniq bir yechim yo‘q. Shu sababli ham har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini, qonunlarini o‘zi belgilaydi.

Shulardan kelib chiqib, 2017-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va korrupsiyaga qarshi kurashishning foydali huquqiy asoslari yaratildi.

2024-yilgi Corruption Perceptions Index (CPI) natijalariga qaraganda, 180 ta mamlakatning uchdan ikki qismidan ortig‘i 50 ballik shkalada 50 dan past ball oldi, ya’ni monopoliyaviy manfaatlar, shaffoflik yetishmasligi va asosiysi poraxo‘rlik ya’ni korrupsiya davom etmoqda. Shuningdek, oxirgi o‘n yilni olib qaraydigan bo‘lsak, 47 mamlakat eng past darajalarga yetib, barqaror past darajadagi korrupsiya tendensiyasini ko‘rsatmoqda.

Korrupsiyaning shakllariga to‘xtaladigan bo‘lsak, asosiy 3 ta shakllarini aytib o‘tish joiz:

- PETTY THEFT (kichik o‘g‘irlik)- oddiy poraxo‘rlik yoki “speed money” (tezkor xizmat uchun sovrin);
- GRAND THEFT (ulkan o‘g‘irlik)- davlat byudjetidan ulkan miqdordagi summalarni yo‘qotish;
- ACCESS MONEY (kirish puli)- maxfiy lobbi yokida siyosiy homiylik orqali manfaatdor siyosatchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Har bir shakl jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni buzadi, taraqqiyoti yo‘lida to‘sqinlik qiladi.

Xalqimizda “Kasallikni davolagandan ko‘ra, uning oldini olgan afzaldir” degan naql bor. Bu naql korrupsiyaga qarshi kurashda ham asosiy ahamiyatga ega. Korrupsiya bilan kurashish kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanishi lozim biroq, korrupsiya ba’zida kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Misol uchun ta’lim yo‘nalishini oladigan bo‘lsak ham talabar baholarini yomon bo‘lib qolishini oldini olsh maqsadida ham kichik

korruptsiyaga yo‘l qo‘yishadi. Bunday holatlar yoshlar ongida korruptsiyaga nisbatan loqaydlikni shakllantiradi. O‘zbekiston Yoshlar agentligining 2023-yildagi so‘rovnomalariga ko‘ra, respondentlarning 41 foizi pora berish yoki olish holatini kerakli deb baholagan. Bunday qaror esa jamiyat korruptsiya bilan hamnafas bo‘lib qolmaydi degani emas va bu tahdidni yanada kuchayishiga olib keladi.

O‘zbekiston korruptsiya bo‘yicha xalqaro reytingda nechanchi o‘rinda turgani hammamiz uchun qiziq. O‘zbekiston korruptsiya bo‘yicha xalqaro reytingda 180 ta davlat orasida 146-o‘rinda turadi. Bu ko‘rsatkich hozircha yaxshi lekin bu degani korruptsiyaga qarshi kurashishni to‘xtatish kerak degani emas aksincha, yanada ko‘proq harakat qilib bu darajani yo‘q qilish lozim. Korruptsiyani oldini olish avvalo o‘zimizdan, yani shaxsdan boshlanadi. Negaki, bizning kichkinagina qo‘ygan qadamimiz ya‘ni qilgan tanish bilishchiligimiz, yon bosishimiz katta-katta korruptsiyalarni boshlanishiga sabab bo‘lib qolishi mumkin. Shunday ekan, “Korruptsiyaga qarshi kurash” shiori ostida jamiyatdaga tahdidlarni yo‘q qilishimiz lozim.

Korruptsiya - bu faqat jinoyat emas, bu- taraqqiyotga qarshi “ichki dushman”dir. U ijtimoiy adolatni buzadi, odamlar o‘rtasidagi ishonchni yemiradi va kelajak avlod ongiga xavf soladi. Jamiyatda korruptsiyaga qarshi madaniyatni oshirish, shaffoflikni ta‘minlash va halol mehnatni qadrlash orqali bu muammoga qarshi kurashish mumkin. Korruptsiyaga kurashish esa birinchidan ta‘limdan boshlanishi kerak. Kelajak avlodni sog‘lom, bilimli, va muhimi halol qilib tarbiyalash uchun ta‘lim sohasini tozalash jamiyatdan bundan yomon illatni olib tashlash zarur. Korruptsiya bilan samarali kurashish jamiyatni yanada barqaror va farovon qilishning asosiy kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘raqulov, T. (2021). Korruptsiya va uning ijtimoiy ongga ta‘siri. Ijtimoiy fanlar, 1(1), 45-52. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. (2022). 2022-yil yakunlari bo‘yicha korruptsiya holatlari tahliliy hisobot. Toshkent: Agentlik nashri. <https://.anticorruption.uz>.
3. Mirziyoyev. Sh ning 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatnomasi.
4. Shaxriyorov Hamidulla Shuxrat o‘g‘li. Korruptsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlar tajribasi. February 2022. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. www.oriens.uz.
5. UNDP. (2019). Human Development Report 2019: Beyond income, beyond averages, beyond today. New York: United Nations Development Programme.
6. <https://nbu.uz/maqolalar/korruptsiya-taraqqiyot-kushandasi>.

IJTIMOIIY DAVLAT VA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI HAMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Amirov Xasan Istam o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.

Hozirgi kunda hamma joyda ijtimoiy davlat haqida gapirilayotganini eshitamiz, lekin talaba sifatida o'ylab ko'rsam, bu shunchaki balandparvoz atama emas, balki bizning har bir kunimiz, o'qishimiz va kelajagimiz bilan bog'liq bo'lgan hayotiy zaruriyatdir. Ijtimoiy davlat deganda men birinchi navbatda inson qadri va uning huquqlari shunchaki qog'ozda qolib ketmaydigan, balki amalda har bir fuqaro o'zini himoyalangan his qiladigan tizimni tushunaman. Inson huquqlari biz uchun faqat qonun kitoblaridagi moddalar emas, balki sifatli va bepul ta'lim olishimiz, zamonaviy tibbiy xizmatdan foydalanishimiz va ertaga universitetni bitirganimizda munosib ish o'rniga ega bo'lishimiz kafolatidir.

XXI asr biz yoshlar uchun juda ko'p imkoniyatlar eshigini ochgan bo'lsa-da, shu bilan birga juda katta mas'uliyatni ham yuklamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasini hozirgi kunda haqiqiy hayot-mamot masalasi deb bejiz aytmaganlar, chunki biz qanday tarbiya olsak, qanday bilimga ega bo'lsak, davlatimizning kelajagi ham shunday bo'ladi. Ijtimoiy davlat biz yoshlarga mana shu kelajakni qurishimiz uchun poydevor yaratib beradi, bizni tushkunlikdan va ishsizlikdan himoya qiladi.

Aslida ijtimoiy davlat va inson huquqlari tushunchalarini chetdan qidirishimiz shart emas, chunki bizning tariximiz va ma'rifatparvar bobolarimiz, xususan Abdulla Avloniy bu borada bizga katta meros qoldirgan. Avloniyni tarbiya haqidagi o'g'itlari bugungi ijtimoiy islohotlarimizning mazmunini tashkil etadi. U tarbiyani shunchaki xulq-atvor emas, balki insonni jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradigan pedagogiya fani deb bilgan.

Uning fikricha, har bir millatning saodati va davlatlarning tinch-osuda yashashi yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liq. Bilimli va tarbiyali inson o'z huquqini taniydi, boshqalarni ham hurmat qiladi, jamiyat oldidagi burchini anglaydi. Ilm insonning ko'zini ochadi, uning zehni va fikrini o'tkir qiladi, yaxshini yomondan ajratishga o'rgatadi. Talaba sifatida shuni aytishim kerakki, biz olayotgan bilimimiz bilan nafaqat diplom egasi bo'lishimiz, balki jamiyatimizning ijtimoiy barqarorligiga hissa qo'shishimiz kerak.

Davlatimiz esa bizga sifatli ta'lim berish orqali eng asosiy ijtimoiy huquqimizni ta'minlab bermoqda. Hozirgi kunda maktablarda "Tarbiya" fanining yangicha o'qitilishi bizning ma'naviy huquqlarimizni himoya qilishning bir usulidir. Oldinlari bu fanlar tarqoq edi, lekin endi ularning birlashtirilishi inson kapitalini rivojlantirishning yaxlit tizimini yaratdi. Bu tizimda Yaponiya,

Singapur va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning tajribasi o'rganilgani biz yoshlar uchun ham qiziq, ham muhimdir.

Chunki bugungi hayot bizdan faqat nazariy bilimni emas, balki mustaqil fikrlashni, tezkor va innovatsion qarorlar qabul qilishni talab qilmoqda. Biz jamiyatga tayyor mutaxassis bo'lib kirishimiz uchun ma'lum bosqichlardan o'tamiz va bu bosqichlarning har birida davlat bizni qo'llab-quvvatlashi kerak. Boshlang'ich maktab davrida bolada orzu qilish va maqsad qo'yish shakllansa, o'smirlik davrida tanqidiy tahlil qilish va jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmaslik ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Yuqori sinf va talabalik yillarida esa biz yangi ish o'rinlari yarata oladigan, o'z burch va majburiyatlarimizni to'la anglaydigan shaxsga aylanishimiz kerak. Ijtimoiy davlat bizning munosib hayot kechirishimiz va o'z haq-huquqimizni talab qila olishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Hozirgi internet va globalashuv asrida biz yoshlarni chalg'itadigan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi yot g'oyalar juda ko'p.

Bunday sharoitda ijtimoiy davlat bizga ma'naviy qalqon bo'lishi lozim. Biz dunyodagi murakkab geosiyosiy jarayonlarga to'g'ri baho bera olishimiz, axborotlarni saralashni bilishimiz shart. Agar biz o'z huquqlarimizni yaxshi bilsak va vatanimizni sevsak, hech qanday mafkuraviy xurujlar bizni yo'ldan qaytara olmaydi. Islom dinining asl tinchlikparvar mohiyatini, milliy qadriyatlarimizni va bag'rikenglikni to'g'ri tushunishimiz ham bizning ijtimoiy barqarorligimiz garovidir.

Dunyo tajribasiga nazar tashlasak, har bir mamlakatning o'z taraqqiyot yo'li borligini ko'ramiz. Yangi O'zbekiston tanlagan yo'l – "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan ijtimoiy davlat yo'lidir. Bu degani, bizning har bir orzu-umidimiz, har bir huquqimiz davlat e'tiborida deganidir. Inson kapitaliga, ya'ni biz yoshlarga tikilayotgan sarmoya kelajakda davlatimizning iqtisodiy qudratini oshiradi.

Biz bilimli bo'lsak, davlatimiz ham kuchli bo'ladi. Ijtimoiy davlat qurish – bu faqat hukumatning ishi emas, bu bizning, ya'ni talaba-yoshlarning ham ishtirokimizni, tashabbusimizni talab qiladigan jarayondir. Biz o'z haq-huquqimizni taniydigan, burchimizga sodiq va ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishsakgina, ijtimoiy davlatning asl maqsadlariga erishamiz.

Avloniy bobomiz aytganidek, najotimiz tarbiyada, bilimda va ahillikda. Inson huquqlari to'liq ta'minlangan, adolatli jamiyatda yashash har birimizning orzumiz, bu orzuni haqiqatga aylantirish esa o'z qo'limizdadir. Davlatimiz bizga imkoniyat beryapti, biz esa bu imkoniyatlardan o'zimiz, oilamiz va vatanimiz ravnaqi uchun foydalanishimiz kerak.

Geosiyosiy jarayonlar deganda biz ko'pincha uzoq mamlakatlardagi siyosiy o'yinlarni tushunamiz, lekin aslida bu jarayonlar har birimizning ongimiz va yashash tarzimizga ta'sir o'tkazadi. Bugungi globalashuv asrida davlatlar o'rtasidagi chegara faqat xaritada qoldi, axborot makonida esa hech qanday chegara yo'q. Shu bois, talaba sifatida tushunishimiz kerakki, geosiyosiy

kurashlar hozirda qurol bilan emas, balki "yumshoq kuch" (soft power) orqali, ya'ni madaniyat, mafkura va axborot yordamida olib borilmoqda. Yoshlarning ongini egallash – bu har qanday geosiyosiy kuchning asosiy maqsadidir, chunki ertaga jamiyatni boshqaradigan qatlam aynan biz bo'lamiz.

Ijtimoiy davlat mana shu murakkab vaziyatda biz uchun ma'naviy himoyachi vazifasini bajarishi lozim. Dunyoda yuz berayotgan turli nizolar, iqtisodiy sanksiyalar yoki siyosiy o'yinlar ortida har doim muayyan manfaatlar yotadi. Agar bizda mustaqil va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati shakllanmagan bo'lsa, biz osongina birovlarining qo'lida mafkuraviy o'yinga aylanib qolishimiz mumkin. Nargiza Ismatova ta'kidlaganidek, yoshlarda "axborot filtri"ni shakllantirish, ya'ni qaysi ma'lumot to'g'ri, qaysisi yolg'on (feyk) ekanligini ajrata olish – bu bugungi kunning eng katta huquqiy va ma'naviy ehtiyojidir.

Shuningdek, geosiyosiy jarayonlar sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish masalasi ham inson huquqlarining muhim qismi hisoblanadi. "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida bizga tiqishtirilayotgan begona qadriyatlar ko'pincha inson erkinligi bilan niqoblanadi, lekin aslida ular bizni ma'naviy ildizlarimizdan uzib tashlashga xizmat qiladi. Abdulla Avloniy aytgan tarbiya aynan mana shu joyda bizga kerak: o'z tarixini va milliy qadriyatlarini bilgan yoshlar har qanday geosiyosiy xurujlarga nisbatan chidamli bo'ladi. Ijtimoiy davlat esa bizga o'zligimizni anglash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimiz uchun ma'rifiy imkoniyatlarni taqdim etadi.

Oxirgi yillarda dunyoda yuz berayotgan voqealar shuni ko'rsatmoqdaki, geosiyosiy barqarorlik bo'lmagan joyda inson huquqlari birinchi bo'lib poymol qilinadi. Urushlar, migratsiya inqirozlari va iqtisodiy tanazzullar birinchi navbatda yoshlarning ta'lim olish va kelajak qurish huquqlarini cheklaydi. Shuning uchun ham biz yoshlar davlatimizdagi tinchlik va barqarorlik naqadar katta boylik ekanini, bu barqarorlikni asrash uchun esa hushyorlik va bilim eng asosiy qurolimiz ekanini anglashimiz shart. Ijtimoiy davlat bizga tinchlikni kafolatlar ekan, biz ham o'z navbatimizda mas'uliyatli fuqaro bo'lish orqali bu barqarorlikka hissa qo'shishimiz kerak.

Xulosa qilib aytga ijtimoiy davlatning eng buyuk yutug'i – bu o'z burchini taniydigan, haq-huquqini himoya qila oladigan va ma'naviy boy fuqarolarning ko'pligidir. Mana shunday jamiyatda inson huquqlari shunchaki so'z emas, balki hayot tarziga aylanadi. Biz o'tmishimizdan kuch olib, zamonaviy bilimlarni egallab, kelajakni barpo etamiz va bu yo'lda ijtimoiy davlat bizning eng yaqin ko'makchimiz bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. (Yangi tahrirda ijtimoiy davlat tamoyillari va inson huquqlari kafolatlari bo'yicha asosiy manba).
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. (Yoshlar siyosati va ma'naviy yuksalish tamoyillari).

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. (Milliy tarbiya tizimining pedagogik asosi).

4 Ismatova N.K. "Ziyo-zukko ta’lim maskani" tajribasi: ta’lim va tarbiya integratsiyasi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-y il 6-iyuldagi 422-son qarori. "Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida".

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. (Milliy o‘zlik va mafkuraviy immunitet masalalari).

7.UNESCO Reports (2022-2024). Global Citizenship Education and the Social Contract for Education. (Global ta’lim va ijtimoiy shartnoma bo‘yicha xalqaro tajriba tahlili).

8. Siyosatshunoslik: darslik. (Tahrir hay’ati). – Toshkent: Akademnashr, 2021. (Geosiyosiy jarayonlar va "yumshoq kuch" nazariyalari).

TURKEY IN THE WORLD: COOPERATION THROUGH THE PRISM OF TOURISM

Otanazarova Guzal Adilbekovna

*Tashkent ISFT INSTITUTE - student of
international finance and applied accounting;*

Abstract. Turkey's strategic geographical location, rich cultural heritage, and diverse landscapes have positioned it as a major player in global tourism. This article explores Turkey's role in fostering international cooperation through tourism, examining how its tourism industry enhances diplomatic relations, economic ties, and cultural exchanges. By analyzing Turkey's tourism policies, international partnerships, and visitor demographics, the study highlights the multidimensional impact of tourism on Turkey's global standing. The findings underscore the importance of sustainable tourism development and the potential for tourism to serve as a bridge between nations.

Keywords: Turkey, tourism, international cooperation, cultural exchange, economic impact, sustainable development.

Turkey's unique position at the crossroads of Europe and Asia has endowed it with a rich tapestry of cultural, historical, and natural attractions. These assets have not only made Turkey a prime destination for tourists but have also facilitated its emergence as a significant player in international cooperation. This article delves into the various dimensions of Turkey's tourism sector and its role in fostering global partnerships.

Historical Context of Turkey’s Tourism

Turkey's tourism sector has undergone significant transformation over the decades. From the early days of limited international tourism to its current status as a top global destination, Turkey has strategically leveraged its cultural and

natural resources. Key historical sites such as Istanbul's Hagia Sophia, the ancient ruins of Ephesus, and the fairy-tale landscapes of Cappadocia have played crucial roles in attracting international visitors (T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2019).

Tourism as a Diplomatic Tool

Tourism has become an essential instrument in Turkey's diplomatic toolkit. Through bilateral and multilateral agreements, Turkey has enhanced its diplomatic relations with numerous countries. Initiatives such as visa-free travel agreements and joint cultural festivals have not only boosted tourist arrivals but also strengthened diplomatic ties. The influx of tourists from diverse regions fosters mutual understanding and cultural appreciation, which are vital for maintaining peaceful international relations[1].

Economic Impact of Tourism

The economic significance of tourism in Turkey cannot be overstated. As one of the country's major economic sectors, tourism contributes significantly to GDP, employment, and foreign exchange earnings. In 2019, Turkey welcomed over 45 million international tourists, generating approximately \$34.5 billion in revenue[2]. This influx of foreign currency supports local economies, stimulates investment in infrastructure, and creates numerous job opportunities.

Cultural Exchange and International Cooperation

Turkey's tourism industry serves as a conduit for cultural exchange and international cooperation. The rich cultural interactions between Turkish hosts and international visitors lead to a deeper understanding and appreciation of diverse traditions and customs. Cultural festivals, art exhibitions, and culinary events provide platforms for showcasing Turkey's cultural heritage while promoting global cultural dialogue[3].

Sustainable Tourism Development

Sustainable tourism development is crucial for ensuring that Turkey's natural and cultural resources are preserved for future generations. The Turkish government has implemented various measures to promote sustainable practices, such as eco-friendly accommodations, responsible tourism campaigns, and conservation projects. International cooperation in sustainable tourism initiatives further enhances Turkey's global reputation as a responsible and forward-thinking tourism destination.

Challenges and Future Prospects

Despite its successes, Turkey's tourism sector faces challenges such as political instability, environmental degradation, and fluctuating global travel trends. Addressing these challenges requires coordinated efforts between the government, private sector, and international partners. Future prospects for Turkey's tourism industry remain optimistic, with ongoing investments in infrastructure, diversification of tourism offerings, and strategic marketing campaigns aimed at new and emerging markets.

Practical Suggestions and Recommendations

1. *Enhancing Infrastructure*: To accommodate the growing number of tourists, Turkey should invest in modernizing and expanding its transportation and hospitality infrastructure. This includes improving airport facilities, developing efficient public transport networks, and ensuring high standards in accommodation services.

2. *Diversifying Tourism Offerings*: Turkey should diversify its tourism products to attract a broader range of visitors. This can include promoting niche markets such as medical tourism, adventure tourism, and cultural tourism. Special attention should be given to underdeveloped regions with unique attractions.

3. *Marketing and Promotion*: Strategic marketing campaigns targeted at emerging markets can help attract new visitors. Utilizing digital platforms and social media to showcase Turkey's attractions can also reach a wider audience.

4. *Education and Training*: Investing in education and training programs for tourism professionals can improve service quality. Establishing hospitality and tourism management programs in universities and vocational schools can help create a skilled workforce.

Turkey's tourism industry plays a pivotal role in enhancing international cooperation, economic growth, and cultural exchange. By leveraging its unique geographical and cultural assets, Turkey has established itself as a key player in the global tourism landscape. Continued focus on sustainable development, strategic partnerships, and innovative tourism policies will ensure that Turkey remains a leading destination for tourists worldwide, fostering deeper international cooperation in the process.

REFERENCES:

1. World Tourism Organization (UNWTO). (2020). International Tourism Highlights.
2. T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı. (2019). Tourism Statistics.
3. Tosun, C. (2001). Challenges of sustainable tourism development in the developing world: the case of Turkey. Tourism Management.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH ORQALI IJTIMOIIY DAVLATNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO INTEGRATSIYALASHUV

Xorunbek Samadov Anvar o'g'li

Ilmiy rahbar: dots. Zamonov Z. T.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquqlarini ta'minlash orqali davlatni rivojlantirishda xalqaro integratsiyaning qanchalik muhimligi tushuntiriladi va bu O'zbekiston misolida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: BMT, Inson huquqlari xalqaro deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Kirish. Xalqaro huquq va institutlar global miqyosda inson huquqlarini targ'ib qilish va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Inson huquqlarini himoya qilishning bu jihati turli xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlariga bog'liq bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bu borada yetakcho o'rinni egallaydi. 1945-yilda tashkil etilgan BMT o'zining turli organlari, jumladan, Bosh Assambeliya, Xavfsizlik kengashi va inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar idorasi (OHCHR) kabi ixtisoslashgan agentliklar orqali xalqaro inson huquqlarini standartlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Bunday tashkilotlar homiyligida muhim shartnomalar, konvensiyalar va xalqaro bitimlarning qabul qilinishi a'zo davlatlarni inson huquqlarining asosiy tamoyillariga rioya qilishga majburlovchi huquqiy asos yaratdi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHHD), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ISHHXP) va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR) kabi siyosiy hujjatlar xalqaro inson huquqlari qonunchiligining asosini tashkil etadi. Bu hujjatlar milliy yoki madaniy shartidan qat'iy nazar, barcha shaxslar ega bo'lgan keng qamrovli huquqlarni ifodalaydi.

Xalqaro huquq integratsiyasida 1948-yilning 10-dekabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Boah Assambeliyasining 217a(Sh) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi eng muhim hujjat hisoblanadi. Unda quyidagicha yoziladi: Barcha odamlar erkin, qadrd-qimmat va boashqa huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarga muomala qilishlari zarur. Har bir inson, biror bir idanayirmachiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlaridan qat'iy nazar, mazkur Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan qat'iy nazar, ushbu hudud mustaqilmi, vasiylikdami, o'zini o'zi boshqaradimi, yoki mustaqilgi biror bir tarzda cheklanganmi, bundan qat'iy nazar sira ayirmachilik bo'lmasligi kerak.

Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy dahlsizlik huquqiga egadir.

Har bir inson, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, o'zining huquq sub'ekti sifatida tan olinish huquqiga egadir.

Mazkur Deklaratsiyada yozilgan qaror va hukmlarni 1992-yilning 8-dekabirida qabul qilingan va 2023-yilning aprel oyidagi referendumdan so'ng o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan holda 1-mayidan kuchga kirgan Ozkeiston Reapublikasining Konstitutsiyasida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 8-modda, O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, Ozbekiston Resoublikasi fuqarolari tashkil etadi. 19-modda, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga binoan

hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikada barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyoz faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

24-modda, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar. 25-modda, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi.

26-modda, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas. 27-modda, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilgan eng katta o'zgarish ijtimoiy davlat tushunchasining kiritilishi bo'ldi. Ya'ni, 1-modda, O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, deyiladi.

2020-yil 13-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi BMT bosh Assambeliyasi tomonidan BMT ning inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylanadi. Bu holat mamlakatning inson huquqlarini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yilning 22-fevral kuni BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida nutq so'zlaydi. Unda, O'zbekiston misolida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan choralar haqida gaprib o'tadi.

Birinchidan, insonning siyosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turadi.

Ikkinchidan, biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz.

Uchinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratiladi.

To'rtinchidan, aholimizning yarmidan ko'pini tashkil etadigan yoshlar huquqlarini himoya qilish doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Beshinchidan, biz Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon banki bilan hamkorlikda majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish bo'yicha

katta ishlarni amalga oshirdik. Bu islohotlarimizdagi asosiy yutuqlarimizdan biri bo'ldi.

Oltinchidan, "Inson huquqlari sohasida ta'lim deklaratsiyasining 10 yilligiga bag'ishlab biz Oliy komissar boshqarmasi bilan birgalikda global forum o'tkazishni taklif etamiz.

Yettinchidan, Bosh kotib Antoniu Guterrish Janobi Oliylarining fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sonini kamaytirish bo'yicha qat'iy choralar ko'rish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatlaymiz.

Aynan shu asosda ijtimoiy davlat g'oyasi amalda xalqaro integratsiyalashuv yordamida rivojlanib kelmoqda. Bunga inson huquqlari bo'yicha xalqaro kengashlar, turli hujjatlar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo shu bilan to'xtab qolish kerak emas. Chunki, adolat ijtimoiy institutlarning birinchi fazilatidir, chunki tafakkur haqiqat tizimlarida bo'lgani kabi qanchalik oqlangan va iqtisodiy bo'lsa, nazariya, agar u noto'g'ri bo'lsa, rad etilishi yoki qayta ko'rib chiqilishi kerak. Xuddi shunday, qonunlar institutlar qanchalik samarali va yaxshi tartibga solingan bo'lishidan qat'iy nazar, isloh qilinishi yoki bekor qilinishi kerak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Universal Human Rights In Theory and Practice (Jack Donnelly, bob-3).
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1-;2-;3-;6-moddalar).
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1-;8-;19-;24-;25-;26;27-moddalar).
4. prezident.uz.
5. A Theory of justice (John Rawls, bet-3).

ВЛИЯНИЕ АВТОМАТИЗАЦИИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Абдуганиева Нигина Улугбековна

Студентка факультета восточной филологии.

Узбекский Государственный Университет Мировых Языков

Аннотация. Статья посвящена анализу влияния технологий искусственного интеллекта на рынок труда в секторах образования и социальных услуг в странах Центральной Азии. На основе зарубежных и отечественных источников рассматриваются глобальные тенденции автоматизации, выявляются профессии под угрозой вытеснения, определяются направления адаптации кадрового потенциала. Результаты показывают, что при грамотной государственной политике ИИ способен трансформировать, а не уничтожать занятость в данных секторах.

Ключевые слова: искусственный интеллект, автоматизация труда, рынок труда, образование, социальные услуги, Центральная Азия, цифровая трансформация, переподготовка кадров.

Annotatsiya. Ushbu maqola Markaziy Osiyo mamlakatlarida ta'lim va ijtimoiy xizmatlar sektoridagi mehnat bozoriga sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Xalqaro va mahalliy manbalarga asoslanib, avtomatlashtirish tendensiyalari, xavf ostidagi kasblar va kadrlarni moslashtirishning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mehnat avtomatizatsiyasi, mehnat bozori, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar, Markaziy Osiyo, raqamli transformatsiya, kadrlarni qayta tayyorlash.

Введение. Технологии искусственного интеллекта впервые в истории технологических революций демонстрируют способность к выполнению когнитивных задач: распознаванию речи, логическому выводу, адаптивному обучению. Это выдвигает на первый план вопрос о судьбе занятости в секторах, традиционно считавшихся защищёнными от автоматизации, – прежде всего в образовании и социальных услугах. В странах Центральной Азии эти сектора являются крупнейшими работодателями: в Узбекистане в сфере образования занято около 14% работающего населения, в Казахстане – порядка 10% [ILO, 2019]. Начиная с 2018 года все государства региона приняли национальные стратегии цифровой трансформации, прямо предусматривающие внедрение ИИ в государственные услуги.

Актуальность исследования определяется противоречием между неизбежностью технологических изменений и неготовностью региональных рынков труда к быстрой структурной перестройке. Цель работы – анализ потенциального влияния ИИ-автоматизации на занятость в секторах образования и социальных услуг Центральной Азии и выработка рекомендаций по адаптации кадров.

Ключевым теоретическим ориентиром служит работа К. Фрей и М. Осборна, по оценкам которых около 47% рабочих мест в США подвержены высокому риску автоматизации [Frey, Osborne, 2017, p. 268]. Авторы выделяют три препятствия для машинного замещения: восприятие и манипуляция, творческий интеллект и социальный интеллект. Именно последний компонент защищает педагогов и социальных работников от полного вытеснения.

Д. Асемоглу и П. Рестрепо показали, что ИИ чаще берёт на себя отдельные задачи внутри профессии, не уничтожая её полностью [Acemoglu, Restrepo, 2018, p. 14]. Для учителя это означает автоматизацию проверки тестов и ведения журнала при сохранении воспитательной и развивающей функции. Э. Бриньолфссон и Э. Макафи дополняют эту картину концепцией «цифрового разрыва»: работники, способные

дополнять ИИ-системы, повышают продуктивность, тогда как не освоившие цифровые инструменты рискуют оказаться вытесненными [Brynjolfsson, McAfee, 2014, p. 175].

Глобальный рынок ИИ в образовании демонстрирует взрывной рост: по данным ОЭСР, инвестиции в EdTech-сектор в 2022 году превысили 20 млрд долларов США [OECD, 2023, p. 45]. Адаптивные платформы (Khan Academy, Duolingo), системы автоматической проверки эссе и чат-боты для академического консультирования уже воздействуют на трудовые функции преподавателей и методистов. Систематический обзор 146 исследований выявил четыре ключевые области применения ИИ в высшей школе: оценка, персонализация обучения, предсказательная аналитика и диалоговые агенты [Zawacki-Richter et al., 2019, p. 15].

В сфере социальных услуг ИИ применяется для прогностической аналитики – раннего выявления семей группы риска и автоматизации обработки заявлений на получение пособий. ЮНЕСКО фиксирует, что ни одна страна мира пока не провела полной автоматизации ни одной человекоцентричной социальной профессии [UNESCO, 2022, p. 58]: сочетание «человек + ИИ» устойчиво превосходит по эффективности оба варианта по отдельности.

Регион характеризуется значительной неоднородностью. Казахстан реализует программу «Цифровой Казахстан» с прямым финансированием ИИ-платформ в образовании. Узбекистан принял Стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030», акцентируя внимание на электронных государственных сервисах. По данным АБР, от 40 до 65% работников образовательной и социальной сферы региона заняты в государственных структурах [ADB, 2018, p. 73], что обуславливает высокую зависимость темпов трансформации от бюджетного финансирования.

Ключевой структурной проблемой является разрыв в цифровой грамотности между городскими и сельскими работниками. В Узбекистане более 58% учителей работают в сельской местности с ограниченным доступом к высокоскоростному интернету. Ни одна из стран региона пока не располагает специальным законодательством, регулирующим применение ИИ в образовании или социальных услугах, что создаёт правовую неопределённость для всех участников рынка.

Для наглядного представления дифференцированного риска автоматизации по профессиям в рассматриваемых секторах была составлена сводная таблица на основе адаптации методологии Frey & Osborne (2017) применительно к условиям Центральной Азии с учётом актуальных данных МОТ и Азиатского банка развития. Критериями оценки служили степень рутинности трудовых функций, наличие компонента социального интеллекта и уровень цифровой замещаемости конкретных задач.

Таблица. Уязвимость профессий к автоматизации в секторах образования и социальных услуг ЦА

Профессия	Риск автоматизации	Автоматизируемые функции
Делопроизводитель, секретарь	Высокий (> 70%)	Документооборот, рассылки, планирование
Учитель начальных классов	Средний (30–50%)	Тестирование, отчётность
Социальный работник (базовый)	Средний (35–55%)	Сбор данных, заполнение отчётов
Педагог-психолог	Низкий (< 20%)	Эмпатия, консультирование
Оператор базы данных	Высокий (> 75%)	Ввод данных, обновление реестров
Преподаватель вуза	Низкий (< 10%)	Частичное тестирование

Источник: адаптация методологии Frey & Osborne (2017) с учётом данных МОТ и АБР.

В краткосрочной перспективе (3–5 лет) наиболее уязвимы административные должности: операторы баз данных, секретари учебных частей, специалисты по начислению социальных выплат. По оценке ВЭФ, именно административный труд в государственном секторе составляет наибольшую долю рабочих мест, которые могут быть ликвидированы в странах с переходной экономикой к 2025–2027 годам [WEF, 2020, р. 30]. В среднесрочной перспективе трансформируется содержание труда учителей и социальных работников: рутинные функции перейдут к ИИ-ассистентам, а значимость наставничества, педагогического дизайна и работы с особыми потребностями возрастет.

В качестве положительного примера адаптации следует отметить сингапурскую программу SkillsFuture, показавшую, что при целенаправленной переподготовке работники с базовым образованием осваивают цифровые инструменты за 12–18 месяцев [WEF, 2020, р. 35]. Для университетов, подобных УзГУМЯ, цифровая трансформация открывает нишу подготовки специалистов по локализации ИИ-платформ, лингвистическому дизайну диалоговых систем и педагогическому проектированию в цифровой среде.

Для схематичного отображения направлений трансформации занятости и возможных траекторий перетока кадров между группами профессий целесообразно использовать блок-схему, визуализирующую три зоны риска — высокого, среднего и низкого — с указанием вектора профессиональной переориентации. Ниже приведён авторский графический элемент, разработанный на основе обобщения рассмотренных в статье данных (рис. 1).




Рис. 1. Трансформация занятости в секторах образования и социальных услуг под влиянием ИИ-автоматизации (составлено автором).

Закключение. Проведённый анализ позволяет сформулировать три ключевых вывода. Во-первых, ИИ-автоматизация не создаёт угрозы полного вытеснения педагогов и социальных работников, однако неизбежно трансформирует содержание их труда, повышая требования к цифровым, аналитическим и межличностным компетенциям. Во-вторых, страны Центральной Азии находятся на ранней стадии трансформации, что при грамотной политике даёт возможность избежать ошибок, уже допущенных более зрелыми экономиками. В-третьих, высшие учебные заведения региона, прежде всего гуманитарные университеты, обладают конкурентным преимуществом в подготовке кадров для работы в симбиозе с ИИ-системами. Перспективными направлениями дальнейших исследований являются количественная оценка уязвимости конкретных должностей и социологические опросы самих работников сектора.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Acemoglu D., Restrepo P. Artificial Intelligence, Automation, and Work // NBER Working Paper. – 2018. – No. 24196. DOI: 10.3386/w24196
2. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2018: How Technology Affects Jobs. – Manila: ADB, 2018. – 214 p.
3. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. – New York: W. W. Norton & Company, 2014. – 336 p.
4. Frey C. B., Osborne M. A. The Future of Employment // Technological Forecasting and Social Change. – 2017. – Vol. 114. – P. 254–280. DOI: 10.1016/j.techfore.2016.08.019
5. International Labour Organization. Work for a Brighter Future. – Geneva: ILO, 2019. – 64 p.
6. OECD. OECD Employment Outlook 2023: Artificial Intelligence and the Labour Market. – Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/08785bba-en

7. Popenici S. A. D., Kerr S. Exploring the Impact of Artificial Intelligence on Teaching and Learning // Research and Practice in Technology Enhanced Learning. – 2017. – Vol. 12. – Art. 22.
8. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-Makers. – Paris: UNESCO, 2022. – 118 p.
9. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2020. – Geneva: WEF, 2020. – 163 p.
10. Zawacki-Richter O. et al. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16. – Art. 39.

UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTAB O`QITUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISHNING AYRIM MASALALARI (sotsiologik tahlil)

Jorayev Muhammadsher Ma`rufovich
O`zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qituvchilar faolligiga ta`sir etuvchi omillar sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Amaliy tadqiqot natijalari o`qituvchilar tomonidan texnik ta`minotni kuchaytirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur deb baholanganini ko`rsatdi. Tadqiqot o`qituvchi motivatsiyasi va ta`lim sifati o`rtasida uzviy bog`liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Kalit sozlar: Ta`lim tizimi, o`qituvchi kasbiy kompetensiyasi, pedagogik innovatsiya, o`quv jarayoni, sotsiologik tadqiqot, malaka darajasi, motivatsiya omillari, moddiy-texnik baza, interaktiv ta`lim, ta`lim muhit, kasbiy tayyorgarlik, ta`lim sifati.

Kirish: Bugungi kunda ta`lim sifati mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qituvchilarning faolligi ta`lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy elementlardan biridir. Zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalar tez sur`atlar bilan rivojlanib borayotgan sharoitda o`qituvchilarning motivatsiyasi, kasbiy tayyorgarligi va tashabbuskorligi ta`lim sifatiga bevosita ta`sir qiladi. Shu sababli o`qituvchilar faoliyatini tahlil qilish va ularning kasbiy rivojlanishini rag`batlantirish masalalari ayni paytda dolzarb bo`lib qolmoqda. Mazkur maqolada umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qituvchilar faolligiga ta`sir etuvchi omillar sotsiologik yondashuv asosida o`rganilgan. Tadqiqot natijalari o`qituvchilarning texnik ta`minot va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga bo`lgan ehtiyojini aniqladi, shuningdek, motivatsiya va ta`lim sifati o`rtasidagi uzviy bog`liqlikni tasdiqladi. Shu jihat maqolani dolzarb va amaliy ahamiyatga ega

qiladi, chunki o'qituvchilarning faolligini oshirish orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilash mumkin.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatning ma'naviy yangilanishiga erishish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish hamda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga qaratilgan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan bormoqda. Inson omili, uning har tomonlama barkamol rivojlanishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit va samarali mexanizmlarni yaratish, eskicha tafakkur hamda ijtimoiy xulq-atvor stereotiplarini yangilash mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadi va asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Xalqning boy intellektual salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnologiyalar yutuqlari asosida puxta kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim omilidir. Shu bilan birga, maktab o'qituvchilarining bilim va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog kadrlar sifatini yaxshilash muhim vazifalardan biridir. Darsliklar va o'quv-metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarini xalqaro standartlarga mos zamonaviy modellarga asoslangan holda rivojlantirish ham ta'lim sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari sirasiga kiradi.

Ta'lim tizimi jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy institut sifatida ta'lim shaxsni ijtimoiylashtirish, madaniy qadriyatlarni avlodlardan avlodga o'tkazish hamda kasbiy malakalarni shakllantirish vazifasini bajaradi. U jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan ta'lim – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki ijtimoiy munosabatlar, me'yorlar va rollarni shakllantiruvchi tizimdir. Ta'lim orqali shaxs jamiyatdagi o'rnini anglaydi, faol fuqaro sifatida kamol topadi. Shu bois ta'lim tizimi iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalar bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Ta'lim tizimi jamiyat barqarorligini ta'minlash, innovatsion taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy mobillikni kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. U mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda milliy qadriyatlarni asrash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, ta'lim shaxsning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Zamonaviy jamiyatda ta'lim innovatsiyalar manbai sifatida namoyon bo'lib, ilmiy-tadqiqot faoliyati orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Shu bois ta'lim tizimiga investitsiya kiritish strategik ahamiyat kasb etadi.

O'rta umumiy ta'lim maktablarida o'qituvchilarning faolligini oshirish masalasida O'zbekiston sharoitida bir qator muammolar mavjud deb hisoblash

mumkin. Avvalo, ayrim hududlarda o'qituvchilarning ish yuklamasi yuqori bo'lib, ortiqcha hujjatbozlik va turli hisobotlar ularning ijodiy ishlashiga to'sqinlik qiladi. Bu esa dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, moddiy rag'batlantirish tizimi har doim ham o'qituvchilarning mehnatini to'liq aks ettirmaydi. Maosh va mukofot tizimidagi cheklovlar ichki motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda kasbiy o'sish uchun teng sharoitlarning yetarli emasligi ham faollikni kamaytiradi. Yana bir muhim muammo – malaka oshirish kurslarining amaliyotga yetarlicha yo'naltirilmaganligidir. Nazariy bilim ko'p bo'lsa-da, real sinf sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan metodik ko'nikmalar yetishmasligi kuzatiladi. Texnik va raqamli infratuzilmaning barcha maktablarda bir xil darajada rivojlanmaganligi ham o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashiga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, chekka hududlarda internet tezligi va texnik jihozlar bilan bog'liq muammolar mavjud. Bundan tashqari, jamoada sog'lom psixologik muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi, rahbariyat va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqot muammolari ham pedagoglarning tashabbuskorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois mazkur muammolarni kompleks ravishda hal etish o'qituvchilar faolligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston maktablarida qo'llanilayotgan 5 ballik baholash tizimi amaliyotda adolatli yondashuv imkoniyatlarini ba'zida cheklab qo'yish ehtimoli bor. Ushbu tizim asosan sobiq Sovet Ittifoqidan qolgan stereotip sifatida saqlanib qolgan bo'lib, u o'quvchining haqiqiy bilim darajasini to'liq aks ettirmaydi. Nazariy jihatdan baholash o'quvchining bilim, ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarini aniqlash vositasi bo'lishi kerak, ammo amaliyotda bu tizim ko'pincha faqat maksimal yoki o'rtacha ball bilan chegaralanadi. Misol uchun, agar o'qituvchi o'quvchini tahlil qilganda uning -4 ballga loyiq ekanligini aniqlasa ham tizim 4 balldan pastni qo'yishga imkon bermaydi; shuningdek, +4 ballga loyiq bo'lgan o'quvchiga ham tizim to'liq ijobiy bahoni bera olmaydi. Bu holat o'quvchilarni haqiqiy bilim darajasini aks ettirmaydigan bahoga loyiq qilishga olib keladi va pedagogik jarayonda shaffoflik hamda adolatlilik tamoyillarini buzadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonch zaiflashadi, o'quvchilarning ichki motivatsiyasi pasayadi va ularning bilim darajasini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik ishlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, baholash tizimi faqat formal xarakterga ega bo'lib, individual yondashuvni, kreativ fikrlash va tashabbusni to'liq baholay olmaydi. Bunday tizim pedagoglarning faoliyati sifatini oshirish va o'quvchilarda haqiqiy bilimni shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni faqat o'qitish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, Yaponiyadagi tizimga o'xshash yondashuv ham samarali bo'lishi mumkin. U yerda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga baho qo'yilmaydi, baholash esa faqat keyingi sinflarda amalga oshiriladi, bu esa adolatsizlik va

stressni kamaytiradi. Amaliyotda taklif sifatida 20 ballik tizimni joriy etish mumkin, xuddi rivojlangan Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladigan tizimga o'xshash. Masalan, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida baholash tizimi o'quvchilarning individual qobiliyatini aniqlash va ularni bosqichma-bosqich rag'batlantirishga qaratilgan. Bu tizim o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqroq, adolatli va shaffof tarzda baholash imkonini beradi. Shuningdek, 20 ballik tizim o'qituvchilarga o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, individual yondashuvni qo'llash va darslarda innovatsion metodlarni joriy etish imkoniyatini beradi. Bu nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki pedagoglarning tashabbuskorligini kuchaytiradi va ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qiladi. Shu yo'l bilan amaldagi 5 ballik tizimni zamonaviy, adolatli va raqobatbardosh 20 ballik tizim bilan almashtirish O'zbekiston ta'lim tizimida adolatsizlikni kamaytirish, pedagoglarning faolligi va innovatsion yondashuvlarini rag'batlantirish, shuningdek, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston maktablarida o'qituvchilarning ilmiy darajalari juda cheklangan va mavjud ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalari bilan solishtirganda sezilarli darajada pastdir. Amaliyotda aksariyat maktab o'qituvchilari faqat oliy toifa yoki birinchi toifa sifatida baholanadi, ilmiy daraja egasi bo'lgan pedagoglar esa son jihatidan juda kam. Bu holat pedagoglarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirishga, yangi metodik va innovatsion yondashuvlarni yaratishga imkoniyatni cheklaydi. Shu bilan birga, ilmiy darajasi yuqori bo'lmagan o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'quvchilarning rivojlanishi uchun zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalarni to'liq qo'llash imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Natijada maktabdagi ta'lim sifati, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish darajasi cheklanadi, pedagoglarning professional o'sishi sekinlashadi va mamlakat ta'lim tizimining umumiy raqobatbardoshligi pasayadi. Shuningdek, ilmiy darajalarning kamligi o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni maktab darslariga integratsiya qilish imkoniyatlarini ham cheklaydi. Bu esa o'z navbatida pedagogik yangiliklarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirishni sustlashtiradi.

O'zbekiston maktablarida pedagoglarning ilmiy darajalari amaliyotda faqat oliy toifa va birinchi toifa bilan chegaralangan bo'lib, bu ularning professional rivojlanishi va pedagogik faolligiga sezilarli cheklovlar qo'yadi. Ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'qituvchilarni doimiy ravishda rag'batlantirish, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish, innovatsion metodlarni qo'llashga undash zarur, ammo mavjud ikki toifa tizimi bu imkoniyatlarni yetarlicha ta'minlamaydi. Misol uchun, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida pedagoglar uchun 15–17 turli ilmiy va kasbiy toifalar mavjud bo'lib, ular o'qituvchilarning malaka darajasi, ilmiy salohiyati va pedagogik faolligini aniq belgilaydi. Bu tizim pedagoglarga professional o'sish yo'nalishlarini ochadi, yangi metodlarni sinab ko'rishga

imkon beradi, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishni rag'batlantiradi va ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. O'zbekistonda esa ikki toifa doirasida qolgan pedagoglar ko'pincha "qobiq"da bo'lib, tashabbuskorlik va innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yetarli rag'batga ega emas. Bu esa ta'lim jarayonining monotonlashuvi, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini to'liq rivojlantirish imkoniyatining cheklanishi va pedagoglarning professional o'sishining sekinlashishiga olib keladi. Shuning uchun O'zbekistonda Germaniya va Skandinaviya tajribasiga o'xshash, bosqichma-bosqich rag'batlantiruvchi, ilmiy va metodik faoliyatni hisobga oluvchi ko'p toifali tizim joriy etish lozim. Bu tizim pedagoglarning faolligi va tashabbuskorligini oshiradi, ularni innovatsion yondashuvlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashga undaydi, natijada maktablarda ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi va o'quvchilarning bilim hamda ko'nikmalarini yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi.

O'rta umumiy ta'lim maktablarida o'qituvchilarning faolligini oshirish ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biridir. Avvalo, o'qituvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini kuchaytirish zarur. Ularning mehnatini qadrlash, muvaffaqiyatlarini e'tirof etish va rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish faollikni oshiradi. Shuningdek, zamonaviy va amaliy malaka oshirish kurslarini tashkil etish, interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgatish o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qulay ish muhiti yaratish, ortiqcha hujjatbozlikni kamaytirish va jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish, hamkorlikni kuchaytirish va mentorlik tizimini rivojlantirish ularning faolligi va tashabbuskorligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va ta'lim jarayonini xalqaro talablarga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-637-son) O'zbekiston ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashni, ta'limning barcha bosqichlarida, jumladan umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish vazifalarini belgilaydi. 2024-yil 1-fevraldan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-901-son) pedagog kasbining huquqiy maqomini yanada mustahkamlab, ularning huquq va majburiyatlarini hamda kasbiy faoliyatiga doir kafolatlarni aniq belgilab beradi. Mazkur hujjat pedagogika yo'nalishini tanlayotgan yoshlar uchun ham kelgusidagi kasbiy faoliyatning ijtimoiy va huquqiy asoslarini belgilaydi. 2025-yil 28-aprelda qabul qilingan Prezident Farmoni "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida" (PF-73-son) pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini tizimli ravishda rivojlantirish va ularning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan aniq mexanizmlarni nazarda tutadi. Unga ko'ra, 2025/2026 o'quv yilidan boshlab pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni yanada modernizatsiya qilinadi hamda sirtqi ta'lim shakllari qayta ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-51, PF-61 va PF-277-sonli qarorlari (2025-yil) ham yoshlar siyosati, ta'lim sifatini oshirish hamda maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishga doir ustuvor vazifalarni belgilab beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarining faolligini oshirish bugungi kunda ta'lim tizimidagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim sifati ko'p jihatdan o'qituvchining darsga bo'lgan munosabati, tashabbuskorligi va zamonaviy yondashuvlardan foydalanishiga bog'liq. Faol o'qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o'quvchini qiziqтира oladi, uni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va dars jarayonini samarali tashkil etadi.

Men Toshkent shahri Chilonzor tumani 101-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazdim. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'qituvchilar hozirgi umumiy o'rta ta'lim tizimiga ijobiy munosabat bildirishdi. Ular ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashlarini aytishdi. Bu esa o'qituvchilar yangiliklarga ochiq ekanini va tizimdagi islohotlarga moslashishga tayyorligini ko'rsatadi. O'qituvchilar tomonidan eng ko'p bildirilgan taklif elektron doskalar va kompyuterlar sonini ko'paytirish zarurligi bo'ldi. Ularning fikricha, zamonaviy texnik vositalar darsni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Prezentatsiyalar, videodarslar va interaktiv metodlardan foydalanish o'qituvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanganligi sababli, texnik jihozlarning yetarli bo'lishi o'qituvchi faolligiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, o'qituvchilar malaka toifalarini oshirish masalasiga ham ijobiy fikr bildirishdi. Toifa o'qituvchining kasbiy darajasi va tajribasini ko'rsatadi. Toifa oshishi o'qituvchi uchun rag'bat, motivatsiya va kasbiy o'sish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida uning dars jarayonidagi faolligini kuchaytiradi. O'qituvchi o'z mehnati qadrlanishini his qilsa, yanada mas'uliyat bilan ishlaydi va o'z ustida ko'proq ishlashga harakat qiladi. Umuman olganda, o'tkazilgan so'rovnoma shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar ta'lim tizimidan qoniqish bildirgan holda, moddiy-texnik bazani kuchaytirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishni muhim deb hisoblaydi. Agar maktablarda zamonaviy texnologiyalar ko'paytirilsa va o'qituvchilarga rag'batlantirish tizimi kuchaytirilsa, ularning faolligi yanada oshadi. Faol o'qituvchi esa sifatli ta'limning asosiy omilidir.

Xulosa: O'qituvchilarning faolligi va ta'lim sifati o'zaro uzviy bog'liq. Ularning motivatsiyasini oshirish uchun zamonaviy texnik vositalar, elektron doskalar, kompyuterlar va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari ta'minlanishi zarur. Agar maktablarda shunday sharoitlar yaratilsa, o'qituvchilar darslarni interaktiv

va qiziqarli o'tkazadi, pedagogik tashabbuslari ortadi va natijada o'quvchilarning bilim darajasi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, malaka toifasini oshirish va rag'batlantirish tizimi ham o'qituvchi faolligini kuchaytiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini yaxshilash faqat o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin, chunki ular ta'lim jarayonining markaziy ishtirokchisi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uzedu.itsm.uz>.
2. <https://lex.uz>.
3. Abdullaeva, M. O'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar. –T.: Fan va texnologiya, 2018. –212 b.
4. Azizxodjaeva, N.N. Pedagogika fanini o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 2007. –320 b.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA XALQARO HAMKORLIK

Minasova Adiba

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali hozirgi kunda inson huquqlarini ta'minlashning global darajada ahamiyatligi hamda bu yo'nalishda o'tkazilgan xalqaro hamkorliklar haqida tanishib chiqamiz. Davlatning asosiy tarkibiy qismi xalq hisoblanadi, shu sababli xalqining huquqlarini himoya qila olmagan hukumat davlatchiligiga putur yetkazishi mumkin. Inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan yuksak e'tibor yurtimizning qanchalar demokratik davlat ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Inson huquqlari, globallashuv, xalqaro hamkorliklar, davlatchilik, Inson huquqlarining uch avlodi, Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi.

Kirish. Inson huquqlari – shaxsning hayotiy ehtiyojlari, yashashi, kamol topishi, jamiyat va davlat bilan aloqasini ta'minlovchi xususiyatlar hisoblanadi. Inson jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida davlat qonunlarida mustahkamlangan o'z huquqi, burchi va erkinlikini, shuningdek uning shani va qadr-qimmatini oliy vazifa sifatida e'tirof etadi. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o'zining yaralish ibtidosi va rivojlanish bosqichlariga ega. Adabiyotlarda bu “inson huquqlarining uch avlodi” deb atalib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

• Inson huquqlarining “birinchi avlodi” fuqorolik va siyosiy huquqlari hisoblanadi.

- Inson huquqlarining “ikkinchi avlodi” bir nechta obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida shakllanadi.

- Inson huquqlarining “uchinchi avlodi” “hamjihatlik huquqlari” deb ham ataladi va ular davlatlardan ustun turuvchi xarakterga ega. Umuman olganda, bu huquqlar tinchlikka, bexavotir atrof-muhitga bo’lgan huquq hamda shaxsning iqtisodiy va madaniy me’roslaridan foydalanish huquqlarini o’z ichiga oladi.



Inson huquqi logotipi

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlash va ta’minlashning demokratik tamoyillari har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan va hozirda ham bu masala globaligicha qolmoqda. Demokratiya va qonun ustuvorligi tushunchalari ma’lum darajada inson huquqlari hamda davlat hokimiyati o’rtasidagi munosabatlar bilan bog’liq. Har qanday shaxs ma’lum darajada erkinlik bilan ta’minlangan. Ammo, shaxs o’z manfaatlarini yo’lida boshqa shaxslarning, ya’ni o’zi kabi jamiyat a’zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda ish ko’rishi kerak. Erkinlik – bu shaxsning o’z xatti-harakatlarini ongli-ixtiyoriy tanlash qobiliyati va imkoniyat. Huquq – har doim erkin fuqarolarning birgalikda yashashi uchun zarur bo’lgan shaxs erkinligini qisman cheklashdir.

Insonning o’z erkinlik va huquqlari uchun davom etgan uzoq kurash bu mavzuni global darajaga yetkazdi. Quyida jahon bo’ylab umuminsoniy ahamiyatga ega, inson huquqlarini targ’ib etuvchi huquqiy hujjatlarni ko’rib chiqamiz:

- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil). Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan har bir shaxsning huquqlari, qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligi hamda jamiyatda shaxsning o’rni va shunga ko’ra burch va erkinliklarini ta’minlash maqsadida yaratilgan.

- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt(1996). Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining nizomida e’lon qilingan prinsiplarga muvofiq tarzda, shaxsiy huquqlariga halaqit bermasdan, ijtimoiy-siyosiy sohalarida huquq va erkinliklarini ta’minlab, ularga amal qilinishini ham nazorat qiladi.

•O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi konstitutsiyada inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18-52-moddalar). Shuningdek, inson huquqlari va kafolatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7,8,9,10-boblarida berib o‘tilgan.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10-dekabr 2018-yildagi PQ-4056-sonli qaroriga muvofiq, “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi faoliyati tashkillashtirish” to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar inson huquq va erkinlarini ta‘minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularni himoya qilishga oid xalqaro norma va standartlarini ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.

Xulosa. Inson huquqlari – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari hamda da‘volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo‘lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo‘ravonlikka, inson sha‘nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o‘z sha‘ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e‘tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog‘liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo‘lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. Umuman olganda, inson huquqlarining ta‘minlanishi har bir davlat uchun muhim hisoblanadi, chunki insonsiz davlat “davlat” maqomiga ega emas. Davlatlar bu tamoyillarni o‘zlarining bosh vazifasi sifatida bilib va buni Konstitutsiya va shu kabi huquqiy hujjatlarda belgilab kelmoqda. Inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar oli borilmoqda. O‘zbekiston 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘lganidan keyin xalqaro inson huquqlari standartlarini, jumladan deklaratsiya tamoyillarini qabul qilgan va milliy qonunchiligiga joriy etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat va huquq asoslari. -Toshkent, 2023.
2. Inson huquqlari:darslik/A.R.Mo‘minov; mas’ul muharrir A.X.Saidov, 2-nashr, T.: Adolat, 2013.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi//
4. Inson huquqlari. <https://share.google/8UGLiBFz60uDkPqFY>.

IJTIMOIIY DAVLATDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Sevinch Botirjonova

*A second-year student of the Faculty of English
Philology at the Uzbekistan State World Languages*

Annotatsiya: Inson huquqlari demokratik jamiyatlarning poydevori va ijtimoiy adolat, iqtisodiy rivojlanish va global tinchlikning asosiy omilidir. Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlash nafaqat huquqiy majburiyat, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatdir. Ushbu maqolada inson huquqlarini himoya qilishning ahamiyati, zamonaviy jamiyatda duch keladigan muammolar va global miqyosda qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar o'rganiladi. Muvaffaqiyatli strategiyalarni namoyish etish uchun Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyodan real dunyo misollari muhokama qilinadi. Tadqiqotda inson huquqlariga hurmat madaniyatini shakllantirishda hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va texnologiyalarning roli ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, ijtimoiy davlat, global ahamiyat, zamonaviy yondashuvlar, huquqiy islohotlar, xalqaro hamkorlik, raqamli vositalar

Kirish. Inson huquqlari barcha shaxslarning qadr-qimmati, erkinligi va farovonligini himoya qiluvchi universal tamoyillardir. Ijtimoiy davlat o'z fuqarolari uchun tenglik, adolat va asosiy ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni ta'minlash majburiyatini oladi. Inson huquqlarini himoya qilish siyosiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish uchun juda muhimdir.

Masalan, 2023-yilgi Human Rights Watch hisobotiga ko'ra, Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiya kabi kuchli huquqiy himoyaga ega mamlakatlar ijtimoiy rivojlanish va fuqarolarning qoniqish indekslarida doimiy ravishda yuqori o'rinlarni egallaydi. Bu mamlakatlar bepul tibbiy yordam, ta'lim va ijtimoiy ta'minotni ta'minlaydi, bu esa inson huquqlariga hurmat milliy farovonlik bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Global miqyosda inson huquqlari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHHR, 1948) va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (FSHXP, 1966) kabi xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Biroq, bu huquqlarni amalda ta'minlash ko'pincha texnologik, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarga moslashadigan zamonaviy strategiyalarni talab qiladi.

Ijtimoiy davlat barcha fuqarolarni, ayniqsa zaif guruhlarini kamsitish, ekspluatatsiya va beparvolikdan himoya qilishga intiladi. Ijtimoiy davlatdagi asosiy inson huquqlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ta'lim olish huquqi: Ta'lim fuqarolarga jamiyatda to'liq ishtirok etish imkonini beradi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar barcha darajalarda bepul ta'lim beradi, bu esa yuqori savodxonlik darajasi va malakali ishchi kuchiga olib keladi.

- Sog'liqni saqlash huquqi: Tibbiy yordam olish imkoniyati qashshoqlikni kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni yaxshilaydi. Masalan, Kanadaning universal sog'liqni saqlash tizimi barcha fuqarolarning daromadlaridan qat'i nazar tibbiy yordam olishini ta'minlaydi.

- Fikr bildirish va yig'ilishlar erkinligi: Fuqarolar o'z tashvishlarini bildirishlari va qaror qabul qilishda ishtirok etishlari kerak. Germaniyada Grundgesetz (Asosiy qonun) so'z va yig'ilishlar erkinligini kafolatlaydi, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlaydi.

- Ijtimoiy ta'minot va farovonlik: Zaif aholi uchun xavfsizlik tarmoqlarini yaratish tenglikni mustahkamlaydi va ijtimoiy keskinlikni kamaytiradi.

Skandinaviya mamlakatlarining mustahkam ijtimoiy ta'minot tizimlari global mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu huquqlarni ta'minlash orqali ijtimoiy davlatlar fuqarolar va davlat institutlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, bu esa tinchlik va taraqqiyot uchun juda muhimdir.

Inson huquqlari nafaqat milliy boshqaruvga, balki xalqaro munosabatlar va global barqarorlikka ham bevosita ta'sir qiladi.

1. Tinchlik va xavfsizlik: Inson huquqlarini himoya qiluvchi mamlakatlarda ichki nizolar kamroq uchraydi. Masalan, Norvegiyaning ozchiliklar huquqlari va nizolarni hal qilishga sodiqligi unga ichki barqarorlikni saqlash va global tinchlik tashabbuslariga hissa qo'shish imkonini berdi. Aksincha, Suriya va Afg'oniston kabi mamlakatlarda inson huquqlarining buzilishi uzoq davom etadigan mojarolar, qochqinlar inqirozlari va xalqaro aralashuvga olib keldi.

2. Iqtisodiy o'sish: Inson huquqlariga hurmat iqtisodiy farovonlik bilan bog'liq. Investorlar oldindan aytib bo'ladigan huquqiy tizimlar va shaffof boshqaruvga ega barqaror jamiyatlarni afzal ko'rishadi. Jahon banki (2022) ma'lumotlariga ko'ra, kuchli inson huquqlari tizimiga ega mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sishi kuzatiladi va ko'proq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi.

3. Xalqaro obro' va diplomatiya: Inson huquqlarini himoya qilish millatning global miqyosdagi obro'sini oshiradi. Kanada va Yangi Zelandiya kabi davlatlar qochqinlarni himoya qilish, gender tengligi va tubjoy xalqlarning huquqlari uchun maqtovg'a sazovor. Bu diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik va global ta'sirni rivojlantiradi.

Inson huquqlarini himoya qilishga zamonaviy yondashuvlar

XXI asr inson huquqlarini himoya qilish uchun texnologiya, qonun va fuqarolarning ishtirokini birlashtirgan innovatsion strategiyalarni talab qiladi.

1. Texnologiya va raqamli vositalar: Raqamli monitoring platformalari NNTlar va hukumatlarga huquqbuzarliklarni real vaqt rejimida kuzatish

imkonini beradi. Ijtimoiy media kampaniyalari xabardorlikni oshiradi va jamoatchilik harakatlarini safarbar qiladi. Masalan, Amnesty Internationalning Dekoderlar loyihasi butun dunyo bo'ylab inson huquqlari buzilishining potentsial holatlarini tahlil qilish uchun sun'iy intellekt va kraudsorsingdan foydalanadi.

2. Xalqaro hamkorlik: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Human Rights Watch va Xalqaro Jinoyat Sudi kabi global tashkilotlar inson huquqlarini ta'minlashda qiynalayotgan davlatlarga rioya qilinishini kuzatib boradi va ularni qo'llab-quvvatlaydi. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiya (CEDAW) kabi ko'p tomonlama shartnomalar global amaliyotlarni standartlashtirishga yordam beradi.

3. Huquqiy islohotlar: Raqamli maxfiylik, iqlim huquqlari va ozchiliklarni himoya qilish kabi zamonaviy muammolar yangilangan huquqiy asoslarni talab qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR fuqarolar uchun raqamli maxfiylik huquqlarini ta'minlaydi, bu inson huquqlarining zamonaviy texnologiyalar qonunchiligiga integratsiyalashuvini aks ettiradi.

4. Ta'lim va jamoatchilik ishtiroki: Maktablar va universitetlarda inson huquqlari bo'yicha ta'lim xabardorlikni oshiradi va tenglikni targ'ib qiladi. Fuqarolarning siyosatni shakllantirishda ishtiroki hukumatning hisobdorligi va shaffofligini oshiradi. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi inson huquqlari, demokratiya va tenglik bo'yicha majburiy kurslarni o'z ichiga oladi, bu esa ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolarni shakllantiradi.

Taraqqiyotga qaramay, butun dunyo bo'ylab ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda:

- Siyosiy beqarorlik va mojarolar: Fuqarolar urushlari, terrorizm va avtoritar rejimlar samarali ijro etilishiga to'sqinlik qiladi.

- Korruptsiya: Zaif huquqiy tizimlar huquqbuzarliklarning nazoratsiz davom etishiga imkon beradi.

- Madaniy va ijtimoiy to'siqlar: An'anaviy amaliyotlar xalqaro inson huquqlari standartlariga zid kelishi mumkin.

- Iqtisodiy tengsizlik: Qashshoqlik ta'lim, sog'liqni saqlash va huquqiy himoyadan foydalanishni cheklaydi.

Ushbu muammolarni hal qilish hukumatlar, NNTlar, xalqaro institutlar va fuqarolik jamiyati o'rtasida muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni talab qiladi.

- Norvegiya: Kuchli ijtimoiy ta'minot dasturlari va ozchiliklarni himoya qilish yuqori ijtimoiy ishonch va global tan olinishga hissa qo'shadi.

- Kanada: Qochqinlar siyosati va tubjoy amerikaliklar huquqlari doirasi ijtimoiy birdamlikni yaxshilaydi.

- Finlyandiya: Inson huquqlari bo'yicha ta'limni birlashtiradi, fuqarolarning o'z huquqlarini yoshligidan tushunishlarini ta'minlaydi.

- Yevropa Ittifoqi: GDPR kabi huquqiy islohotlar raqamli maxfiylik va huquqlarni himoya qilishdagi zamonaviy muammolarni aks ettiradi.

Xulosa. Inson huquqlarini himoya qilish ijtimoiy barqarorlik, milliy farovonlik va global rivojlanish uchun muhimdir. Texnologiya, huquqiy

islohotlar, ta'lim va xalqaro hamkorlikni o'z ichiga olgan zamonaviy strategiyalar rivojlanayotgan muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir. Tenglik, adolat va erkinlikni ta'minlash orqali ijtimoiy davlatlar nafaqat fuqarolar hayotini yaxshilaydi, balki global tinchlik va barqaror rivojlanishga ham hissa qo'shadi.

Norvegiya, Kanada, Finlyandiya va Yevropa Ittifoqi a'zolari kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson huquqlariga hurmat ham axloqiy jihatdan zarur, ham amaliy jihatdan foydalidir. 21-asr uchun innovatsion yechimlarni an'anaviy himoya bilan integratsiya qilish adolatli, tinch va inklyuziv dunyoni qurishning kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1948). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1966). Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR).
2. Xalqaro Amnistiya. (2022). Global inson huquqlari to'g'risidagi hisobot.
3. Yevropa Ittifoqi. (2018). Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari (GDPR).
4. Smith, J. (2019). Inson huquqlari va ijtimoiy siyosat. Oksford universiteti nashriyoti.
5. Human Rights Watch. (2023). Jahon hisoboti: Inson huquqlari amaliyoti.
6. CEDAW. (1979). Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konventsia.

ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING HUMAN RIGHTS: MANAGEMENT STRATEGIES IN A SOCIAL STATE

To'xtamurodova Dilrabo Husan qizi

Uzbek State University of World Languages

1st year Bachelor student Management 2501-group

Abstract. This article explores the symbiotic relationships between economic management and the protection of human rights. It argues that human rights are not only legal policies but are also supported by economic policies. The research examines how effective public administration and wealth redistribution policies can ensure access to work, education, and social security. Through examining contemporary management strategies, the paper proposes that digital transformation in fiscal policy can reduce inequality and improve the "social contract" between the government and its citizens [7].

Keywords: Social state, human rights, economic mechanisms, public management, social protection, human capital, poverty alleviation, economic efficiency, Corporate Social Responsibility (CSR), digital governance.

Introduction. In the modern world, the development of a Social State represents a major transformation, linking economic policy closely with the protection of human dignity rather than being just a political transition. While human rights are usually understood through legal frameworks, their actual implementation is closely connected to economic stability and effective public administration. Without a strong financial system and clear management practices, the constitutional promises of social protection remain unattainable rather than practical. This paper explores how macroeconomic policies and management improvements play a key role in ensuring the right to work, education, and social security. By looking at current management approaches, we argue that the 'Social State' works best when human rights are central to a country's economic plans, turning social welfare from an expense into a valuable investment in human potential [2,7].

Analysis and discussion

1. The Economic Efficiency of Human Rights: A Management Perspective

Traditional economic models typically regarded social spending as a "cost" for the government. However, contemporary management theories, such as Human Capital Theory, argue that safeguarding human rights - such as access to health, education, and fair labor conditions - is a strategic investment [3]. From a management perspective, a "Social State" operates most efficiently when it employs Results-Based Management (RBM) in its social programs.

- **Resource Allocation:** Effective management involves the careful use of limited state resources to achieve the greatest possible social benefit.

In Uzbekistan, the practical application of these management principles is seen in the 'Iron Notebook' (Temir Daftar) system. From a management perspective, this is not just a list of people in need, but a detailed method for identifying those who require support. It ensures the right to social security by using data to distribute resources effectively. The system classifies households that are at risk and keeps track of their progress as they move out of poverty. This approach creates an active cycle of management that shifts from providing aid without effort to helping people become more economically independent. The system ensures that government money is used efficiently, directly supporting the Uzbekistan – 2030 goal of reducing poverty by half, through organized and structured oversight [10].

- **Corporate Social Responsibility (CSR):** In a social state, the responsibility of upholding human rights is not only the government's duty. Private sector organizations must also embed ethical standards and labor rights into their business practices to ensure long-term viability and build a strong brand reputation [4].

2. Macroeconomic Stability and Social Protection

The achievement of human rights cannot take place without macroeconomic stability. High inflation, unemployment, and market fluctuations directly affect the Right to an Adequate Standard of Living. Economic growth

and human rights support each other; a stable economy creates financial room for social protection systems, while a secure and healthy workforce increases productivity [5,9].

Key economic systems in a Social State include:

1. Progressive Taxation: A method to redistribute wealth and support public services.

2. Labor Market Regulation: Ensuring fair wages protects against "working poverty," which is essential for sustaining consumer spending and economic activity.

3. Digital Governance (GovTech): Using digital tools improves the management of the economy by lowering "transaction costs" in delivering social services, ensuring that assistance reaches those in need without loss or misuse.

The achievement of human rights cannot be realized without a stable macroeconomic environment. The "Uzbekistan – 2030" Strategy acknowledges this by establishing clear economic goals that protect the population's quality of life[1].

1. Poverty Reduction through Economic Management: A key focus of the Strategy is to reduce the poverty rate by half. This is an important economic task that includes the creation of 5 million well-paid jobs. By managing the labor market effectively, the government ensures that people have the right to work and receive fair wages, which are fundamental to a social state.

2. Digital Transformation (GovTech): The Strategy's objective of digitizing all government services is a major management innovation. Digital governance allows citizens to access services such as social benefits and legal documents without facing corruption. This transparency is the foundation of a contemporary social agreement [6,8].

3. The Impact of Education on the Economy: By aiming to provide preschool education to all and increasing enrollment in higher education, the government is managing the long-term economic process. In economic terms, this lowers future unemployment costs and raises the national Innovation Index, showing that social rights drive economic growth.

Conclusion and recommendations

The shift towards a Social State involves more than just legal or political changes; it is a complex management task that needs a strong economic base. This research shows that protecting human rights from access to education to social security depends on a country's financial stability and how well it uses its resources. Without strong economic policies, social promises remain unfulfilled.

7. Summary of Findings

The analysis shows that Human Capital is the main link between economics and human rights. When a country manages its healthcare and education systems well, it is not only meeting a legal requirement; it is also improving its long-term potential for economic growth.

The "Uzbekistan - 2030" Strategy plays a key role in this process.

By setting big goals - like doubling GDP to \$160 billion and cutting poverty in half - the state is creating the financial room needed to keep the social contract [1]. Additionally, the use of Digital Governance (GovTech) has been proven to be an important tool in reducing corruption and making sure social benefits reach the right people with lower costs.

8. Strategic Recommendations

To achieve a Social State in line with the Uzbekistan - 2030 vision, the following management-focused steps are recommended:

- Implement Results-Based Budgeting (RBM): Move social spending from being based on inputs to being based on results.

Funding for social programs should be linked to clear outcomes, like improved literacy rates or lower unemployment in certain regions.

- Encourage Corporate Social Responsibility (CSR): The government should offer tax breaks to private companies that follow international labor standards and help build local social infrastructure. This helps share the responsibility of the Social State between the public and private sectors.

- Expand the Digital Social Registry: Using the National Agency for Social Protection, the state should improve digital monitoring systems to provide real-time information about vulnerable groups. This supports quick responses during social crises and stops resources from being misused.

- Focus on High-Value Job Creation: Economic planning should emphasize the "Right to Work" by drawing investments into high-tech industries. This ensures that people are not just relying on social support but are contributing to the national economy.

In conclusion, the importance of human rights in the 21st century is their role in driving economic modernization. By looking at social rights through the lens of strategic management, Uzbekistan can ensure both the dignity of its people and the long-term growth of its economy.

REFERENCES:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Uzbekistan – 2030 Strategy". Lex.uz online database.
2. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.
3. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review, 51(1), 1-17.
4. Drucker, P. F. (2008). Management: Tasks, Responsibilities, Practices. Harper Business.
5. UNDP. (2022). Human Development Report 2021-2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. United Nations Development Programme.
6. World Bank. (2023). Social Protection and Labor: Uzbekistan Country Profile. World Bank Group.
7. Rousseau, J.-J. (1762). The Social Contract.
8. United Nations. (2022). E-Government Survey: The Future of Digital Government.

9. ILO. (2023). World Employment and Social Outlook: Trends 2023.
10. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2021).

IJTIMOIIY DAVLATNING TUSHUNCHASI VA UNING TAMOYILLARI

Jamoliddinov Boburmirzo Baxodirjon o'g'li
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy davlat, uning mazmun-mohiyati, tamoyillari, kelib chiqish tarixi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy davlatning vazifalari, O'zbekiston Respublikasi qay darajada ijtimoiy davlat ekanligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, teng imkoniyatlar, aholi farovonligi, konstitutsiya, ijtimoiy mohiyat, inson manfaatlari, Hindistonda ijtimoiy davlat, ijtimoiy davlat konsepsiyasi.

Kirish: Ijtimoiy davlat – bu davlat(yoki yaxshi tashkil etilgan ijtimoiy institutlar tarmog'i) o'z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qiladigan va rivojlantiradigan boshqaruv shakli. U teng imkoniyatlar, boylikning adolatli taqsimlanishi va fuqarolarga minimal hayot sharoitlariga ega bo'lmaganlar uchun davlatning javobgaarligi tamoyillariga asoslanadi. Ijtimoiy davlatda inson, uning hayoti, huquq va erkinlikari, qadri oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o'z faoliyatini aynan inson manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda quradi, ya'ni siyosiy va iqtisodiy qarorlar avvalo inson farovonligiga xizmat qilishi kerak. Nemischa „sozialstaat"(ijtimoiy davlat) atamasi 1870-yildan boshlab nemis ijtimoiy siyosatchilari(sozialpolitikler) tomonidan ishlab chiqilgan. Atama Otto fon Bismarkning konservativ islohotlari doirasida joriy etilgan davlatni qo'llab-quvvatlash dasturlarini tavsiflash uchun ishlatila boshlangan.

Asosiy qism: Hindiston imperatori Ashoka miloddan avvalgi III asrda ijtimoiy davlat g'oyasini ilgari surgan. U o'zining "dharma"sini (din yoki yo'l) faqat balandparvoz so'zlar to'plami sifatida emas, balki davlat siyosati masalasi sifatida qabul qilinishiga harakat qilgan. U „barcha odamlar mening farzandlarimdir" va „mening harakatlarim faqatgina barcha tirik mavjudotlar oldidagi qarzimni ado etish uchundir" deb e'lon qilgan. Bu podshohlikning butunlay yangi ideali edi. Ashoka urush va zo'ravonlik bilan bosib olishdan voz kechgan. Shuningdek, u ko'plab hayvonlarni o'ldirishni ta'qiqlagan.

U dunyoni sevgi va e'tiqod orqali zabt etishni istaganligi sababli, Dharma targ'iboti uchun ko'plab missiyalar yuboradi. Bunday missiyalar Misr, Yunoniston va Shri-Lankaga yuborilgan. Dharma targ'iboti ko'plab ijtimoiy chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan. Imperiya ichida va tashqarisida odamlar va hayvonlarni davolash markazlari tashkil etilgan. Soyali bog'lar, quduqlar, mevali

bog'lar va dam olish uylari barpo etilgan. Ashoka shuningdek, keraksiz qurbonliklar va behuda isrofgarchilik, intizomsizlik va xurofotga olib keladigan ayrim yig'ilishlarni ta'qiqlagan. Ushbu siyosatlarni amalga oshirish uchun u *Dharmamahamattalar* deb atalgan yangi mansabdorlar guruhini yollaydi. Ushbu guruhning vazifalaridan biri turli sekta odamlariga adolatli munosabatda bo'linishini ta'minlash edi. Ular, ayniqsa, mahbuslarning farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari kerak edi.

Shuningdek hozirgi zamon tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, ijtimoiy davlat deganda, ijtimoiy sohaga ustuvorlik qaratiladigan, fuqarolarning tengligi, ularning turli tabaqalarga ajralishiga yo'l qo'ymaydigan, umumfarovonlik ta'minlangan jamiyat tushuniladi. Ijtimoiy davlat tushunchasi davlatning shunchaki „qo'riqchi“ vazifasini bajarishdan ko'ra ko'proq – iqtisodiy jarayonlarga faol aralashish, ijtimoiy xavf-xatarlardan himoya qilish, daromadlarni qayta taqsimlash va asosiy ijtimoiy xizmatlarni kafolatlash majburiyatini anglatadi.

Davlatning ijtimoiy mohiyati shuni anglatadiki, O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolariga nafaqat huquqiy va demokratik erkinliklarni, balki moddiy va ma'naviy farovonlikni ham ta'minlashni o'zining strategik burchi deb biladi.

Davlat o'z faoliyati shunday yo'lga qo'yadiki, unda hech kim jamiyatning yordamidan mahrum bo'lib qolmasligi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy-huquqiy tizimiga fundamental o'zgarish kiritdi. Unda O'zbekistonning huquqiy va demokratik davlat sifatidagi mavqeyi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy davlat ekanligi qat'iy mustahkamlandi. Bu konstitutsiyaviy me'yor davlatning ijtimoiy mohiyatini, ya'ni uning fuqarolar uchun ijtimoiy adolatni, tenglikni va munosib turmush darajasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdagi faol rolini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Davlatning ijtimoiy mohiyati mamlakat siyosatining markaziga „Inson qadri“ tamoyilini joylashtirish orqali chuqur ma'no kasb etdi. Bu shuni bildiradiki, ijtimoiy kafolatlar endi davlatning ixtiyoriy ehsoni emas, balki har bir fuqaroning hurmatini ta'minlashga qaratilgan asosiy huquqi sifatida qaraladi. Davlat barcha fuqarolarga, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga, ta'lim, mehnat va tibbiyot sohalarida teng imkoniyatlar yaratishga majbur. Konstitutsiyada O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida belgilanishi chuqur huquqiy ma'noga ega bo'lib, davlatni aholining ijtimoiy himoyasi, minimal turmush darajasi, sifatli ta'lim va tibbiyot kabi asosiy huquqlarini ta'minlashga majbur qiladi. Bu konstitutsiyaviy kafolatlar ijtimoiy himoyani oddiy hayriya akti emas, balki fuqarolarning majburiy huquqi sifatida qayta belgilaydi. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiq e'tirof etilishi va kafolatlanishi belgilangan. O'zbekistonning xalqaro shartnomalari uning huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi tan olingan.

Ijtimoiy mohiyatni huquqiy mustahkamlash Konstitutsiyaga kiritilgan normalar asosida qabul qilinayotgan va amalga oshirilayotgan qonun hujjatlarida aks etadi(masalan, „Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlari). Ijtimoiy davlat konsepsiyasini amalga oshirishda mamlakatning strategik maqsadi, tarqoq byurokratik yordam tizimidan majburiy ijtimoiy kafolatlarga asoslangan, markazlashgan, yaxlit va raqamli boshqariladigan ijtimoiy xavfsizlik tizimiga o‘tishni taqozo etdi.Bu esa keyingi siyosat o‘zgarishlarini huquqiy jihatdan murakkablashtiradi va bu siyosatlarning qaytarilish ehtimolini kamaytiradi.

Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari aniq strategik hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va 2030-yilgacha Aholini Ijtimoiy Himoya Qilish Strategiyasi (PF-175-son) orqali amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi mamlakatning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat bo‘lib, u barqaror iqtisodiy o‘sish orqali O‘zbekistonni daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olishiga qaratilgan. Ushbu strategiyaning ijtimoiy himoyaga oid markaziy maqsadi – aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishdir.

Xulosa: Ijtimoiy davlatning samarali ishlashi faqatgina yaxshi qonunlarga emas, balki ularning qanday yaratilishi va amalga oshirilishiga bog‘liqdir. Huquq ikodkorligi jarayoniga zamonaviy tamoyillar va mexanizmlarni joriy etishga alojida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy adolat, xalqchilik(aholi ehtiyojlariga moslashish), ochiqlik va samaradorlik kabi tamoyillarni joriy etish asosiy maqsad hisoblnadi. Shuningdek, „aqli tartibga solish” modellari va qabul qilinayotgan qarorlar ta’sirini tahlil qilish metodologiyasini joriy etish orqali qonun ijodkorligining texnik sifatini oshirish ko’zda tutilgan. „One in two out” yoki „Sunset clauses” kabi zamonaviy uslublarning tatbiq etilishi hukumatning tartibga solish yukini kamaytirishga va ijtimoiy qonunlarning vaqtinchalik dolzarbligini saqlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://constitution.uz/oz/pages/ijtimoiy_davlat_mohiyati
2. "Bismarck's Welfare State". Current History XVIII (101): 1–7.
3. Thakur, Upendra. Studies in Indian History, Chaukhamba oriental research studies. Chaukhamba Orientalia, 1989.
4. <http://www.cs.colostate.edu/~malaiya/ashoka.html>
5. Зухриддинович, Е. Д. (2022). АНТИКОРРУПЦИОННАЯ СТРАТЕГИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЗАРУБЕЖНЫЙ И.
6. <https://parliament.gov.uz/articles/539>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023.
8. Lex.Uz sayti materiallari.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GLOBAL AHAMIYATI VA XALQARO HAMKORLIK

Raximova Dilnoza Xoliquz qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada inson huquq va erkinliklarini ta'minlash nafaqat jamiyat farovonligini, balki davlat iqtisodiyoti barqarorligini ham belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib hizmat qilishi, fuqarolarning huquqlari faqat mamlakat miqyosidagi masala emas, global ahamiyat kasb etishi tahlil etiladi. Davlat o'z fuqarolari huquqlarini xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarga zid bo'lmagan ravishda qonun bilan taminlaydi va himoyalaydi. Shunday ekan, inson huquqlarini ta'minlash davlatning faqat burchi emas, xalqaro maydondagi mas'uliyati hamdir.

Kalit so'zlar: raqamli huquqlar, shaxsiy daxlsizlik, kiberjinoyatlar, siyosat, islohot, modernizatsiya, demokratlashtirish.

Inson huquqlarini ta'minlash bu shunchaki qonuniy normalar emas, balki tinchlik va barqarorlikning asosidir. Birgina yashash huquqini misol qilib keltiradigan bo'lsak, bu insonning tug'ilishi bilanoq egalik qiladigan asosiy huquqidir. Undan mahrum qilishga hech kim xaqli emas, ushbu qoidani buzganlar esa qonun oldida qat'iy javobgarlikka tortiladi. Xalqaro huquq normalariga asoslanib Respublikamizda ham 2005-yil 1-avgustdagi PF-3641 Prezident farmoniga binoan tasdiqlanib, 2008-yil 1-yanvardan o'lim jazosi butunlay bekor qilingan hamda Konstitutsiyamizning 25-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi" [1] deya mustahkamlab qo'yilgan. Qaysiki jamiyatda fuqarolarning erkinliklari to'laqonli ta'minlangan, huquqlari qonun bilan himoyalangan bo'lsa, o'sha yerda ijtimoiy adolat, tinchlik-farovonlik, iqtisodiy barqarorlik hukm suradi. Bugungi jadallik bilan rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyati oldida inson huquqlarining muhofazasi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Fuqarolarini har tomonlama: siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik huquqlarini muhofaza qilish har bir mamlakatning burchidir. Taraqqiy etkan zamonaviy texnologiyalar ham hayot jabhasining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani hech kimga sir emas, ammo tanganing ikki tomoni bo'lganidek, texnologiyalarning rivoji o'ziga xos muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Fuqarolarni kiberjinoyatlardan muhofaza qilish, "raqamli huquqlar"ni himoyalash ham bugungi kunimizda katta ahamiyat kasb etmoqda. Davlatga endilikda nafaqat shaxs xavfsizligini, balki shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ham ta'minlash majburiyati yuklatilmoqda. Inson huquqlarining buzilishi faqat davlat ichidagi muammo

emas, u global ijtimoiy adolat zanjiriga ham ta'sir ko'rsatadi. Davlatlarda chegaralar mavjud, lekin inson qadr-qimmatini va erkinligi chegara bilmaydi. BMT, UNISEF kabi xalqaro nufuzli tashkilotlar butun dunyo bo'ylab inson huquqlarini har tomonlama himoya qiladi. Qaysiki davlatda fuqarolar siyosatdan rozi, farovon va xavfsiz yashay olsa, ona vataniga muhabbatli bo'lsa, o'sha yerda ilm-fan rivojlanadi, tinchlik hukm suradi, iqtisodiyot barqarorlashadi, madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar shakllanadi. Bugungi kunda o'z hududida inson huquqlari prinsiplarini ta'minlagan davlatlar farovon shu bilan birga dunyo hamjamiyatida o'z nufuziga ega. Turli xalqaro tashkilotlar masalan, Human Rights Watch va Freedom House[2] reytinglariga ko'ra, Shimoliy Yevropa davlatlari Norvegiya, Shvetsiya, Daniya va Finlyandiya inson huquqlari eng yaxshi ta'minlangan mamlakatlar sifatida tan olingan.

Ona vatanimiz O'zbekiston ham o'z oldiga shunday oliy maqsadlar qo'ygan: xalqning farovon hayot kechirishi ta'minlash, fuqarolar xavfsizligi va xalq manfaatlarini hamma narsadan ustun tamoyillari asosida siyosat olib bormoqda. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, avvalambor, Sovet tuzumida ko'p jabhalarda poymol qilingan inson huquqlarini tiklashga e'tibor qaratila boshladi. "Islohot- islohot uchun emas, avvalo inson uchun" tamoyili asosida birinchi Prezidentimiz I.Karimov mustaqil O'zbekistondagi o'zgarishlarning bosh g'oyasi xalq manfaati, inson qadr-qimmatini yuksaltirish va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi kerakligini takidlaydilar. Shuningdek, Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" hamda uchinchi bo'limi "Jamiyat va shaxs" deb nomlangan va ushbu bo'limlardagi har bir modda fuqarolarning shaxsiy daxlsizligini, huquq va erkinliklarini qonunan ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, Konstitutsiyaning 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiya muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart" deb belgilangan. Bu birgina moddaning o'zidan bilishimiz mumkinki, inson huquqlari xalqaro normalarga asoslanib kafolatlanadi. Inson nafaqat o'zi yashab turgan davlatning, balki butun hamjamiyatning himoyasidadir. Shuningdek, 54-moddada insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularni himoya qilish davlatning oliy maqsadi ekanligi ta'kidlangan [3].

Inson huquqlarini xalqaro darajada himoyalash, avvalambor, xalqaro hamkorlikni va millatlararo totuvlikni talab qiladi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev dunyo hamjamiyati bilan barqaror xalqaro munosabat o'rnatish prinsiplarini ilgari surdilar. Shu asnoda 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75- sessiyasida "Biz uchun inson huquqlari- bu shunchaki deklarativ tushuncha

emas, balki jamiyatimizni demokratlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilishning asosiy mezonidir” deya inson huquqlarini ta’minlash g’oyasini jahon sahnasida ilgari surdilar [4]. 2021-yildagi BMT Inson huquqlari bo’yicha kengashning 46-sessiyasidagi O’zbekiston ushbu kengashga a’zo bo’lgandan keyingi ilk chiqishida quyidagi fikrni bildiradilar: “Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash, O’zbekistondagi islohotlarimizda eng ustuvor o’rin egallaydi. Biz inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarimizga qat’iy sodiq qolamiz” deb ta’kidlaganlar. 2025-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi chiqishida esa Prezidentimiz Yangi O’zbekiston strategiyasi mohiyatini aynan inson huquqlari bilan bog’ladilar: “Ustuvor maqsadimiz – mamlakatimizda yashayotkan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o’zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir. Buning uchun ortga qaytmas islohotlarimizni izchil davom ettirmoqdamiz” [5]. Umuman olganda, davlatimizda amalga oshirilayotgan siyosatning oliy maqsadi inson huquq va erkinliklari ta’minlash va bu orqali jamiyat farovonligini barqarorlashtirishga qaratilgan. Shuningdek, O’zbekiston xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki bilan dunyoda o’z o’rni va nufuziga ega bo’lib bormoqda. Ma’lumot o’rnida shuni ta’kidlash joizki, O’zbekiston MDH ga 1991-yil 8-dekabrda, yirik xalqaro tashkilot BMT ga 1992-yil 2-martda a’zo bo’lgan shuningdek, yana ko’plab xalqaro tashkilotlar a’zosi hisoblanadi. Bunday xalqaro hamkorlik chet el davlatlari bilan do’stona munosabat o’rnatish, iqtisodiy barqaror hamkorlikni ta’minlash mamlakatda fuqarolarning erkin va farovon yashashlari hamda o’z huquq va imtiyozlaridan to’laqonli foydalana olishlari uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat siyosatida inson qadr-qimmatini birinchi o’ringa qo’yiladigan, huquq va erkinliklari qonun bilan muhofaza qilinadigan bo’lsa o’sha davlatda iqtisodiy barqarorlik, ta’lim, fan, sport umuman hayotning barcha jabhalarida rivojlanish bo’ladi. Xalqaro munosabatlarda istiqbolli hamkorliklar yo’lga qo’yiladi, millatlaro totuvlik ta’minlanadi. Chunki dunyo hamjamiyati mamlakat nufuzini fuqarolarining farovon turmush tarzi bilan ham baholaydi. Shunday ekan, bugungi kunda inson huquqlarini ta’minlash nafaqat mamlakatning ijtimoiy barqarorligini kafolatlaydi, balki global ahamiyat kasb etadi va xalqaro hamkorlik ham ta’minlashga o’z hissasini qo’shadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Insonning asosiy huquq va erkinliklarini taminlash O’zbekistonda amalga oshirilayotkan barcha demokratik islohotlarning eng muhim ustuvor yo’nalishi hisoblanadi. Biz har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan siyosat yuritamiz va bu boradagi ishlarni xalqaro hamkorlar bilan birgalikda davom ettiramiz”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023. 20-bet.
2. Freedom House, Freedom in the World Report. Human Rights Watch. World Report. Washington. 2025-yil / https://freedomhouse.org/sites/default/files/2025-02/FITW_World_2025_Feb.2025.pdf.
- 3 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023. 26-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidan – 2020-yil/ <https://president.uz/oz/lists/view/3845>.
5. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 80- sessiyasidagi nutqidan – 2025-yil./<https://parliament.gov.uz/ru/news/bmt-bosh-assambleyasining-80-sessiyasi-tinchlik-taraqqiyot-va-inson-huquqlari-uchun>.

IJTIMOIIY DAVLAT TUSHUNCHASI VA ASOSIIY TAMOIYILLARI

Po'latov Farrux

O'zbekiton davlat jahon tillari universiteti talabasi,

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat tushunchasining shakllanishi, uning nazariy asoslari va asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy davlat modelining tarixiy rivojlanishi, uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati hamda O'zbekiston Respublikasida ushbu konsepsiya asosida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat yo'nalishlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, farovonlik davlati, ijtimoiy himoya, inson kapitali, ijtimoiy adolat.

Zamonaviy siyosiy-huquqiy tafakkurda davlat faoliyatining samaradorligi faqatgina siyosiy boshqaruv yoki huquqiy tartibni ta'minlash bilan emas, balki fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlash darajasi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy davlat konsepsiyasi zamonaviy davlatchilikning muhim institutsional modeli sifatida shakllangan.

Ijtimoiy davlat tushunchasi ilmiy muomalaga XIX asrda nemis iqtisodchisi va sotsiologi *Lorenz von Stein* tomonidan kiritilgan. U davlatni faqat huquqiy institut sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarni yumshatish va fuqarolarning farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida talqin qilgan. Shtaynning fikriga ko'ra, davlat jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarni muvozanatlashtirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi lozim [1].

Mazkur konsepsiyaning rivojlanishida Germaniya kansleri *Otto von Bismarck* alohida o'rin egallaydi. XIX asr oxirida Bismark tomonidan Germaniyada joriy etilgan ijtimoiy sug'urta tizimi zamonaviy ijtimoiy davlat modelining amaliy asoslarini yaratdi. Bu tizim kasallik sug'urtasi, mehnat jarohati sug'urtasi va pensiya tizimini o'z ichiga olgan bo'lib, davlatning

fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini institutsional darajada mustahkamladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy davlat modeli Yevropa davlatlarida keng rivojlandi. Ayniqsa, Skandinaviya davlatlarida shakllangan “farovonlik davlati” (welfare state) konsepsiyasi davlatning ijtimoiy siyosatini yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qildi. Siyosatshunos olim *Gøsta Esping-Andersen* ijtimoiy davlatlarning uchta asosiy modelini – liberal, konservativ va sotsial-demokratik modellarni ajratib ko‘rsatadi [2].

Ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillari

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi bir qator fundamental tamoyillarga asoslanadi. Ular quyidagilar:

Ijtimoiy adolat tamoyili

Ijtimoiy davlat jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan siyosat olib boradi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish orqali teng imkoniyatlar muhitini shakllantirish maqsad qilinadi.

Ijtimoiy himoya tizimi

Ijtimoiy davlat fuqarolarni kambag‘allik, ishsizlik, kasallik va boshqa ijtimoiy xavflardan himoya qilish uchun samarali ijtimoiy ta‘minot tizimini shakllantiradi. Bunday tizim nafaqalar, subsidiyalar, sug‘urta tizimi va ijtimoiy xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Inson kapitalini rivojlantirish

Ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ilm-fanni rivojlantirish orqali fuqarolarning intellektual va professional salohiyatini oshirish ijtimoiy davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Teng imkoniyatlar tamoyili

Jamiyatdagi har bir fuqaro o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu sababli davlat ta‘lim, bandlik va ijtimoiy mobilitetni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratadi.

So‘nggi yillarda Uzbekistonda ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yishga qaratilgan davlat siyosati muhim o‘rin egallaydi.

Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lash va fuqarolarning ijtimoiy farovonligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. 2023-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda mamlakatning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomi mustahkamlandi. Bu esa davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini yanada kengaytiradi. Mazkur konsepsiyani amaliyotga joriy etish maqsadida qator ijtimoiy dasturlar ishlab chiqildi. Jumladan:

- “*Temir daftar*” – ehtiyojmand oilalarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimi

• “*Ayollar daftari*” – xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratilgan tizim

• “*Yoshlar daftari*” - yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni qo‘llab-quvvatlash tizimi

Shuningdek, *O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi* tashkil etilishi ijtimoiy himoya tizimini markazlashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ta’lim sohasida ham ijtimoiy davlat tamoyillariga mos ravishda qator imtiyozlar joriy etilgan. Jumladan, ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar uchun alohida davlat grantlari ajratilishi, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘shimcha kvotalar joriy etilishi hamda talabalar uchun foizsiz ta’lim kreditlari berilishi ijtimoiy siyosatning muhim ko‘rinishlaridan biridir.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim institutsional asoslaridan biri hisoblanadi. U davlat siyosatining markaziga inson manfaatlarini qo‘yish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar ham aynan shu tamoyillarga asoslanib, fuqarolarning farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lorenz von Stein. *Geschichte der sozialen Bewegung in Frankreich von 1789 bis auf unsere Tage*. Berlin, 1850.

2. Gøsta Esping-Andersen. *The Three Worlds of Welfare Capitalism*. Princeton University Press, 1990.

3. Otto von Bismarck va Germaniyada ijtimoiy sug‘urta tizimi tarixiga oid tadqiqotlar.

4. United Nations. *World Social Report*.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy sayti: <https://parliament.gov.uz>.

6. <https://uzbekembassy.com.my/uzb/newspress/ozbekistonijtimoiydavlat.html>.

7. https://constitution.uz/oz/pages/ijtimoiy_davlat_mohiyati.

BARQAROR RIVOJLANISH VA INSON HUQUQLARI: GLOBALLASHUV DAVRIDAGI STRATEGIK SINTEZ

Mirzalatifova Madina Xusan qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola ‘‘Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va inson huquqlari o‘rtasidagi dialektik aloqani o‘rganadi. Maqolada 2030-yilgacha bo‘lgan kun tartibi shunchaki iqtisodiy dastur emas, balki inson huquqlarini amaliyotga tatbiq etishning global mexanizmi ekanligi isbotlanadi. Shuningdek, "Yashil huquqlar", gender tengligi va adolatli sudlov kabi

yo'nalishlarning BRM bilan bog'liqligi xalqaro huquq normalari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: BRM 2030, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, ekologik huquq, huquqiy davlat, kamsitmaslik, universal deklaratsiya, barqaror iqtisodiyot.

Kirish. Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan kambag'allikka barham berish, sayyoramizni himoya qilish va 2030-yilga qadar barcha odamlar tinchlik va farovonlikdan bahramand bo'lishini ta'minlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish yo'lidagi universal chorlov sifatida qabul qilingan.

Barqaror rivojlanish sohasidagi 17 maqsad kompleks xususiyatga ega bo'lib, ularda bir sohadagi harakatlar boshqa sohalardagi natijalarga ta'sir qilishi hamda rivojlanish ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi lozimligi e'tirof etiladi.

Maqsadlar:

- kambag'allikka barham berish;
- ochlikka barham berish;
- sog'lik va farovonlik;
- sifatli ta'lim;
- gender tengligi;
- toza suv va sanitariya;
- arzon va toza energiya;
- munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish;
- sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma;
- tengsizlikni kamaytirish;
- barqaror shaharlarva aholi yashash joylari;
- mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish;
- iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish;
- dengiz ekotizimlarini asrash;
- quruqlikdagi ekotizimlarni asrash;
- tinchlik, adolat va samarali boshqaruv;
- barqaror rivojlanish yo'lidagi hamkorlik[1]

I. Gumanitar va Huquqiy integratsiya: O'zaro bog'liqlik matritsasi

BRM va inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlikni uchta asosiy ustun orqali tahlil qilish mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar (BRM 1-5, 8-10): Kambag'allikni tugatish, ochlikka barham berish, sog'liqni saqlash va ta'limga bo'lgan huquqlar. Bular Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktning (ICESCR) ajralmas qismidir.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar (BRM 16): Adolatli sudlov, korrupsiyaga qarshi kurash, axborot olish erkinligi va shaxsiy daxlsizlik. Bu maqsad inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Kollektiv va ekologik huquqlar (BRM 7, 12-15): Munosib atrof-muhitga bo'lgan huquq. Bu soha insoniyatning yashash huquqini saqlab qolish uchun global mas'uliyatni yuklaydi.

II. "Hech kimni ortda qoldirmaslik" – Inson huquqlarining oliy mezonidir. BRMning asosiy falsafasi bo'lgan "Hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili inson huquqlaridagi kamsitmaslik (non-discrimination) prinsipining amaliy ifodasidir.

Tengsizlikni kamaytirish (10-maqсад): Irqi, jinsi, tili yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish.

Gender tengligi (5-maqсад): Ayollar huquqlarini ta'minlash nafaqat adolat talabi, balki iqtisodiy barqarorlikning asosiy shartidir.

III. Ekologik huquqlar va Barqarorlik

Zamonaviy xalqaro huquqda "sog'lom atrof-muhitga ega bo'lish huquqi" insonning fundamental huquqlaridan biri sifatida tan olingan (BMT Inson huquqlari kengashi, 2021). 13-maqсад (Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) va 15-maqсад (Quruqlikdagi ekotizimlarni saqlash) bevosita kelajak avlodlarning yashash huquqini himoya qilishga qaratilgan. Ekologik inqiroz – bu huquqiy inqirozdir, chunki u oziq-ovqat, suv va xavfsizlik kabi bazaviy huquqlarni xavf ostiga qo'yadi[2].

IV. O'zbekistondagi islohotlar kontekstida tahlil

O'zbekiston o'zining yangilangan Konstitutsiyasida BRM tamoyillarini mustahkamladi. Masalan, "Inson qadri uchun" tamoyili 1-maqсад (kambag'allikni qisqartirish) va 16-maqсад (adolatli davlat) bilan hamohangdir. Davlatning ijtimoiy majburiyatlari (bepul ta'lim, tibbiy yordam) BRM indikatorlari asosida monitoring qilib borilmoqda[3].

Xulosa. Barqaror rivojlanish va inson huquqlarining birlashishi – bu shunchaki nazariya emas, balki global inqirozlardan (iqlim o'zgarishi, iqtisodiy tengsizliklar) chiqishining yagona strategik yo'lidir. Hech kim e'tibordan chetda qolmasligi va iqtisodiy taraqqiyot inson huquqlari hisobiga amalga oshirilmasligi shart. Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun inson huquqlari poydevor vazifasini o'taydi. Inson huquqlari ta'minlanmagan joyda iqtisodiy o'sish barqaror bo'lmaydi. Strategik sintezning mohiyati shundaki, har qanday islohot yoki global loyiha faqat raqamlar uchun emas, balki inson qadr-qimmati va farovonligi uchun xizmat qilishi kerak.

Bugungi kunda "toza va sog'lom atrof-muhitga ega bo'lish" fundamental inson huquqi sifatida tan olinmoqda. Bu kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimizni belgilaydi. Globallashtirish sharoitida davlatlar nafaqat o'z hududida, balki global miqyosda tengsizlikni kamaytirish va adolatli resurs taqsimoti bo'yicha hamkorlik qilishga majbur[4].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarisiz barqaror rivojlanishga, barqaror rivojlanishsiz esa inson huquqlarining to'liq ta'minlanishiga erishib bo'lmaydi.

Tavsiyalar: Davlat dasturlarini ishlab chiqishda inson huquqlariga asoslangan yondashuvni (HRBA) majburiy etib belgilash;

BRM ko'rsatkichlarini inson huquqlari bo'yicha milliy hisobotlar bilan integratsiya qilish;

Ekologik javobgarlikni huquqiy majburiyat sifatida yanada kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/sustainable-development-goals>.
2. Danish Institute for Human Rights. The Human Rights Guide to the SDGs. [Online Database].
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir). 2023.
4. https://sg.docworkspace.com/d/sbTakaACfwuoT29f_f0len4x6bohifwlqbo?sa=601.1245.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Barqaror_rivojlanish_maqsadlari.

IJTIMOIIY DAVLAT TUSHUNCHASI VA UNING TAMOYILLARI

Murodov Farrux ma'ruf o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish tarixi va zamonaviy ko'rinishlari yoritilib boriladi. Tadqiqot davomida ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillari, xususan, ijtimoiy adolat va inson huquqlari ustuvorligi yozib o'tilgan. Shuningdek, zamonaviy O'zbekiston bu borada qanaqa islohotlar olib borayotgani va bunda davlatning asosiy roli qanaqa ekanligi batafsil tushuntirilib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, kelib chiqish tarixi, zamonaviy ko'rinishlari, asosiy tamoyillar, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, zamonaviy O'zbekiston, O'zbekiston-2030 strategiyasi, islohotlar, davlatning roli.

Kirish: Bugungi globallashuv va turli-tuman zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida har qanday demokratik jamiyatning asosiy maqsadi inson qadri, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishning eng samarali yo'li sifatida jahon hamjamiyatida "ijtimoiy davlat" konsepsiyasi ko'rib chiqilmoqda. Ijtimoiy davlat deganda, birinchi navbatda, har bir fuqaroning munosib yashashi uchun sharoit yaratib beradigan tizim tushuniladi.

O'zbekistonning asosiy ustuvor yo'nalishi etib aynan ijtimoiy davlat tamoyillarini joriy etish belgilandi. Xususan, yangilangan Konstitutsiyamizda O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu esa davlatning o'z fuqarolari oldidagi mas'uliyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Ushbu maqolada biz ijtimoiy davlat nima ekanligi, uning qanday qoidalari borligi va O'zbekistonda bu borada qanday ishlar qilinayotganini ko'rib chiqamiz. Maqoladan maqsad – ijtimoiy davlatning mazmunini sodda tilda tushuntirib berish va uning jamiyat uchun foydasini ko'rsatishdir.

Asosiy qism: Ijtimoiy davlat tushunchasining yaralish tarixi qadimgi Hindistonga borib taqaladi. Xususan, Hindiston imperatori Ashoka miloddan avvalgi III asrda ijtimoiy davlat g'oyasini ilgari surgan. U o'zining „*dharma*“sini (din yoki yo'l) faqat balandparvoz so'zlar to'plami sifatida emas, balki davlat siyosati masalasi sifatida qabul qilinishiga harakat qilgan. U „barcha odamlar mening farzandlarimdir“ va „mening harakatlarim faqatgina barcha tirik mavjudotlar oldidagi qarzimni ado etish uchundir“ deb e'lon qilgan. Bu podshohlikning butunlay yangi ideali edi. Ashoka urush va zo'ravonlik bilan bosib olishdan voz kechgan. Shuningdek, u ko'plab hayvonlarni o'ldirishni ta'qiqlagan.

U dunyoni sevgi va e'tiqod orqali zabt etishni istaganligi sababli, Dharma targ'iboti uchun ko'plab missiyalar yuboradi. Bunday missiyalar Misr, Yunoniston va Shri-Lankaga yuborilgan. Dharma targ'iboti ko'plab ijtimoiy chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan. Imperiya ichida va tashqarisida odamlar va hayvonlarni davolash markazlari tashkil etilgan. Soyali bog'lar, quduqlar, mevali bog'lar va dam olish uylari barpo etilgan. Ashoka shuningdek, keraksiz qurbonliklar va behuda isrofgarchilik, intizomsizlik va xurofotga olib keladigan ayrim yig'ilishlarni taqiqlagan. Ushbu siyosatlarni amalga oshirish uchun u Dharmamahamattalar deb atalgan yangi mansabdorlar guruhini yollaydi. Ushbu guruhning vazifalaridan biri turli sekta odamlariga adolatli munosabatda bo'linishini ta'minlash edi. Ular, ayniqsa, mahbuslarning farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari kerak edi. Ijtimoiy davlat g'oyalari qadimgi dunyoda paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning zamonaviy va huquqiy shakli XIX asrning oxirida Germaniyada Otto fon Bismark islohotlari bilan bog'liqdir. Germaniya tajribasi ijtimoiy sug'urta va fuqarolarni davlat tomonidan tizimli himoya qilish modelini butun dunyoga yoyilishiga turtki berdi.

Ijtimoiy davlatning mazmun-mohiyati - fuqarolarning munosib hayot kechirishi, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va iqtisodiy farovonlikni ta'minlashni o'zining asosiy vazifasi deb biladigan boshqaruv shaklidir. Uning mazmuni inson qadrini ulug'lash, ehtiyojmandlarni qo'llab-quvvatlash, bepul ta'lim va tibbiyot kabi ijtimoiy kafolatlarni taqdim etishga qaratilgan.

Ijtimoiy davlatning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- **Inson qadri uchun:** Davlat siyosatining markazida inson, uning huquqlari va manfaatlari turadi.

- **Ijtimoiy himoya:** Kam ta'minlanganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish hamda ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish.

- **Adolatli taqsimot:** Boylikning adolatli taqsimlanishi, ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirish va kambag'allikni qisqartirish.

• **Teng imkoniyatlar:** Barcha fuqarolar uchun ta'lim, mehnat va dam olish huquqlarini kafolatlash.

• **Davlat majburiyatlari:** Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan, bepul yoki imtiyozli ijtimoiy xizmatlar (sog'liqni saqlash, ta'lim) ko'rsatish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasida ham ijtimoiy adolat, shaxs erkinliklari asosiy prinsip ekanligi aytib o'tilgan. Quyidagi moddalarda bu haqida ma'lumotlar keltirilgan:

1-modda. O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

13-modda. O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadri-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

14-modda: Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, **ijtimoiy adolat** va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi qayd etildi.

19-modda: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanishi va ular albatta **ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi** shartligi belgilandi.

42-modda: Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish huquqiga ega.

57-modda: Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi, ularning hayot sifatini oshirish choralari ko'rilishi mustahkamlandi.

Ijtimoiy davlatning eng muhim ustunlari bu- **ijtimoiy adolat va inson huquqlaridir**. Ijtimoiy adolat-bu jamiyatdagi boyliklar va imkoniyatlarning barcha fuqarolar o'rtasida to'g'ri taqsimlanishidir. Bu hamma bir xil oylik olishi kerak degani emas, balki:

1. Har bir inson o'z qobiliyatini ko'rsatishi uchun teng imkoniyatga ega bo'lishi (masalan, kambag'al oilaning iqtidorli farzandi ham sifatli ta'lim olishi);

2. Davlat boylardan olingan soliqlar hisobiga muhtojlarga (nogironligi borlar, keksalar) yordam berishi tushuniladi.

Ijtimoiy davlatda **inson huquqlari ustuvorligi** insonning yashash, ishlash va bilim olish huquqi shunchaki qog'ozda qolmaydi. Davlat bu huquqlarni real hayotda ta'minlashni o'z zimmasiga oladi:

1. Munosib turmush darajasi: Har bir insonning ovqatlanish, kiyinish va uy-joyga ega bo'lish huquqi kafolatlanadi.

2. Tibbiy himoya: Insonning sog'lig'i uning hamyoniga bog'liq bo'lib qolmasligi, ya'ni asosiy tibbiy xizmatlar hamma uchun ochiq bo'lishi kerak

Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurish jarayoni shunchaki nazariya emas, balki aniq strategik maqsadlarga asoslangan amaliy islohotlar

bosqichiga o'tdi. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bu islohotlarning huquqiy va iqtisodiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Quyida ushbu islohotlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha keng ma'lumotlar keltirilgan:

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishdan iborat:

- har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;
- barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ijtimoiy davlat qurish yo'lidagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ushbu strategiya bosh maqsadi – har bir fuqaroning hayotdan rozi bo'lib yashashini ta'minlashdir.

Bu jarayonda davlatning roli quyidagi muhim yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Kafolat beruvchi (Regulyator): Davlat har bir inson uchun eng zarur bo'lgan bepul tibbiy xizmatlar paketi va sifatli ta'lim olish imkoniyatini qonuniy kafolatlaydi.

2. Ijtimoiy himoyachi: Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali yordamga muhtoj har bir oila va shaxsga "manzilli" yordam yetkazib berish tizimini boshqaradi.

3. Imkoniyat yaratuvchi: Davlat faqatgina nafaqa berish bilan cheklanib qolmasdan, aholini kasb-hunarga o'qitish, imtiyozli kreditlar berish va uy-joy bilan ta'minlash orqali insonlarning o'z hayotini o'zi yaxshilashi uchun sharoit yaratadi.

4. Adolatni ta'minlovchi: Soliq va iqtisodiy siyosat orqali jamiyatdagi resurslarni qayta taqsimlab, ijtimoiy tabaqalanishning oldini oladi va imkoniyatlar tengligini nazorat qiladi.

Xulosa: Maqolani yakunlar ekanmiz bu maqola orqali o'rganilgan ijtimoiy davlat tushunchasi va uning tamoyillari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy dunyoda davlatning asosiy vazifasi faqatgina iqtisodiy o'sish emas, balki har bir insonning qadr-qimmatini ulug'lash va munosib hayot sharoitini yaratib berishdir. Ijtimoiy adolat va inson huquqlari bu tizimning poydevori bo'lib, ular jamiyatda imkoniyatlar tengligini ta'minlashga va aholining yordamga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan kafolatlangan himoyaga olishga xizmat qiladi. Tarixiy nuqtayi nazardan ijtimoiy davlat g'oyalarining ildizlari qadimgi Hindistondagi insonparvarlik islohotlariga borib taqalsa-da uning zamonaviy va tizimli ko'rinishi Germaniyada shakllandi va ushbu model bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining ham ustuvor yo'nalishiga aylandi va yangilangan Konstitutsiyamizda davlatimizning ijtimoiy maqomi qat'iy belgilab qo'yildi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, kambag'allikni qisqartirish, sifatli ta'lim va tibbiyotning hamma uchun ochiqligini ta'minlash davlatning o'z fuqarolari oldidagi mas'uliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda davlat nafaqat ijtimoiy ko'mak beruvchi, balki har bir shaxsning o'z salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zamin yaratuvchi asosiy tayanch vazifasini o'tamoqda. Yakuniy fikr sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy davlat tamoyillarining hayotga to'liq tatbiq etilishi jamiyatda adolat qaror topishiga, barqarorlikning mustahkamlanishiga va har bir fuqaroning o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [The Edicts of King Asoka](#), Colostate.
2. Thapar, Romila. [The Penguin History of Early India: From the Origins to AD 1300](#). Penguin, 2003 – 592-bet. [ISBN 9780-1-4193742-7](#).
3. Thakur, Upendra. [Studies in Indian History](#), Chaukhambha oriental research studies. Chaukhamba Orientalia, 1989.
4. [Indian History](#), Tata McGraw-Hill Education, 1960, A-185-bet.
5. [Indian History](#). Tata McGraw-Hill Education, 1960. –184–85-bet. [ISBN 9780071329231](#).
6. Kher, N. N.; Aggarwal, Jaideep. [A Text Book of Social Sciences](#). Pitambar Publishing – 45–46-bet. [ISBN 978-812091466-7](#).
7. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023 <https://lex.uz/docs/-6600413>.
8. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
9. Mo'minov A.R. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2019.
10. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy.
11. Gough, I. (1989), „The Welfare State“, *The New Palgrave Social Economics*, New York: W.W. Norton, 276–281-bet
12. “O'zbekiston-2030”strategiyasi (<https://strategy.uz/index.php?static=strategy>).

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDA DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI: O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARI

Xudiyorova Charos Baxtiyor qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Hozirgi davrda inson huquqlari tushunchasi klassik huquqiy normalardan chiqib, raqamli va ijtimoiy ekotizimning bir qismiga aylandi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun" tamoyili davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi[1]. Tadqiqotning maqsadi – global raqamli transformatsiya sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini tahlil qilishdir.

Kalit so'zlar: Inson qadri, fuqarolik jamiyati, jamotchilik nazorati, raqamli huquqlar, ijtimoiy sheriklik, huquq ustuvorligi, konstitutsiyaviy islohotlar.

Zamonaviy jamiyatda inson huquqlari endi faqat jismoniy dunyoda emas, balki virtual makonda ham himoya qilinishi shart[2]. Davlatning roli bu borada tubdan o'zgardi bular:

- **Algoritmik shaffoflik:** Davlat organlari sun'iy intellektdan foydalanganda (masalan, ijtimoiy yordam tayinlash yoki sud qarorlari tahlilida) qarorlar adolatli va kamsitishsiz qabul qilinishini kafolatlashi shart[2].

- **Kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar:** Fuqaroning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligi inson qadriining ajralmas qismiga aylandi[4]. Davlat bu ma'lumotlarni o'g'irlanishdan himoya qiluvchi asosiy qalqondir.

- **Davlat xizmatlarining raqamlashishi:** "Elektron hukumat" tizimi orqali korrupsiyani cheklash va inson omilini kamaytirish – inson huquqlarini ta'minlashning eng samarali zamonaviy usulidir[3].

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlari (NNTlar, bloggerlar, mustaqil tahlilchilar va mahalla) davlat ustidan **real vaqt rejimida (real-time)** nazorat o'rnatgan.

- **Ijtimoiy tarmoqlar platforma sifatida:** Telegram, Facebook yoki maxsus "Mening fikrim" portallari orqali fuqarolar qonun buzilishlarini tezkorlik bilan jamoatchilikka olib chiqmoqda. Bu "jamoatchilik sanksiyasi" mexanizmini yuzaga keltirdi[5].

- **Ekologik faollik:** Zamonaviy jamiyatda "toza atrof-muhitga bo'lgan huquq" birinchi planga chiqdi. Ekologik NNTlar yirik sanoat loyihalari ustidan jamoatchilik ekspertizasini o'tkazmoqda (masalan, daraxtlarni saqlab qolish yoki havo sifatini monitoring qilish).

- **Ochiq budjet (Open Budget):** Fuqarolarning soliqlar qayerga sarflanishini o'zlari ovoz berish orqali hal qilish imkoniyati – bu iqtisodiy huquqlarning amaldagi oliy ko'rinishidir.

Hozirgi davrda davlat va jamiyat hamkorligi quyidagi oʻta muhim yoʻnalishlarda namoyon boʻlmoqda:

Yoʻnalish	Davlatning vazifasi (Kafolat)	Jamiyatning roli (Nazorat va Ko'mak)
Gender tenglik	Tazyiqdan himoya qilish, kvotalar va qonuniy "himoya orderlari" berish.	Jamiyatdagi stereotiplarni oʻzgartirish, ayollarni reabilitatsiya qilish.
Inklyuzivlik	Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun "to'siqsiz muhit" yaratish.	Ularning jamiyatga integratsiyasiga ko'maklashish va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik.
Media erkinligi	Axborot olish huquqini qonuniy mustahkamlash.	Fakt-cheking (ma'lumotni tekshirish) va yolg'on xabarlarga qarshi kurashish.

Hozirgi jamiyatda inson huquqlariga yangi turdagi tahdidlar paydo bo'ldi. Insonning sha'ni va qadr-qimmatini internetda himoya qilish dolzarb masalaga aylandi.

• **Davlat** bu borada kiber-jinoyatchilikka qarshi qonuniy jazo choralarini ko'radi.

• **Fuqarolik jamiyati** esa "Media-savodxonlik"ni oshirish orqali odamlarni axborot hujumlaridan va manipulyatsiyadan himoya qiladi[2].

Xulosa qilib aytadigan bo'sam zamonaviy jamiyatda inson huquqlarini ta'minlash – bu **vertikal buyruq emas, balki gorizontal hamkorlikdir**[1]. Davlat qanchalik ochiq bo'lsa va fuqarolik jamiyati qanchalik faol bo'lsa, huquq buzilishlari shunchalik kamayadi. Bu jarayonda texnologiyalar (blokcheyn, ochiq ma'lumotlar) inson huquqlari himoyachilarining asosiy quroliga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (Yangi tahrir). – T.: "Adolat", 2023.
2. BMTning "Inson huquqlari va sun'iy intellekt" bo'yicha rezolyutsiyasi. (2024).
3. Karimov A. Raqamli davrda inson huquqlari: tahlil va prognozlar. – T., 2025.
4. World Justice Project. Rule of Law Index 2025. (Global tahliliy ma'lumotlar).
5. Toshqulov J. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy nazorat mexanizmlari. – T., 2024.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH ORQALI IJTIMOIIY DAVLATNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Farida Sobirova G'afur qizi

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy davlat barpo etish jarayonida inson huquq va erkinliklarining roli ahamiyati haqida yoziladi. Men "Inson qadri uchun" tamoyili asosida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish, "Yoshlar kelajak poydevori" maqomi ostida inklyuziv ta'limni rivojlantirish va xorijiy tillarni o'zlashtirish masalalarini tahlil qilaman. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiya normalarining ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va xalqaro tajribaning milliy qonunchilikka tadbiqini ham batafsil yoritib o'taman. Maqola yakunida ta'kidlab o'tgan fikr-mulohazalarimga xotima qilaman.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, inson huquqlari, inson qadri, ijtimoiy himoya, huquqiy islohatlar, inklyuzivlik, yoshlar poydevor, Konstitutsiya.

Kirish. Avvalo, har bitta davlat inson bilan jamiyat barpo qila oladi. Xo'sh davlat tushunchasi o'zi nima? Davlat – bu shunchaki "qorovul" emas, balki insoniyatning erkinlik va taraqqiyot sari intilishiga, o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'ya olishiga kuch va sharoit qilib beradigan, hamma joyda har qanday millat vakili oldida yurtiga suyana olishligini his qilib muloqotda bo'lishini ta'minlaydigan ijtimoiy mexanizmdir. Ijtimoiy davlatni rivojlantirishda inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir fuqaroning ma'naviy va axloqiy saviyasi, ijtimoiy faolligi va davlatga bo'lgan ishonchi bilan quriladi. Inson omili, ya'ni jamiyatdagi har bir a'zo o'z mas'uliyatini anglab, faol ishtirok etganida qudratli davlat paydo bo'ladi. Shu o'rinda jadidlar harakati namoyondalaridan biri Ismoilbek G'aspiralining falsafasini kiritmoqchiman. U inson falsafasida aql-idrok va ta'lim milliy uyg'onishning asosiy poydevori hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, davlat va jamiyat qurishda inson omili, aql-idroki va ta'lim qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy davlat saviyasi baland bo'ladi. Xolbuki, har bir inson faqat o'zini o'ylagan holda, o'z bilganicha umrguzaronlik qilsa, davlat va xalq bir-biriga zid tarzda faoliyat yuritsa, bunday holatda ko'zlangan maqsad sarob bo'ladi.

Davlat farovonligi fuqarolarning faol ishtiroki, mehnatsevarligi va yuqori salohiyatiga bog'liq va inson nafaqat ijtimoiy xizmat oluvchi, balki bilim, madaniyat va yuksak axloq orqali jamiyat barqarorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy bunyodkor kuchdir. Ushbu fikrga misol keltirib o'tsam, agar davlat yiliga eng kamida 10 ming aholini ijtimoiy jihatdan qo'llasa, keying yil o'sha ko'mak olgan insonlar 2 baravar jamiyatni yuksaltirishga hissa qo'sha oladi. Ijtimoiy davlat faqatgina davlat organlari tomonidan emas, balki fuqarolarning faolligi va mas'uliyati orqali to'laqonli shakllanadi.

Ijtimoiy davlat- bu o'z fuqarolariga munosib hayot darajasini kafolatlaydigan, fuqarolar o'rtasida adolatni ta'minlaydigan, boy-kambag'al yoki sog'lom-nogiron tamoyilini butkul yurtidan yiroq tutadigan ,xalq manfaatlaridan kelib chiqib ish ko'radigan boshqaruv shakli tushuniladi. Eng birinchi "ijtimoiy davlat" tushunchasi qanday paydo bo'lganligiga e'tibor qaratmoqchiman. Tarixga yuzlansam, ushbu tushuncha ilk bor 1850-yillarda Lorens for Shteyn tomonidan qo'llanilgan. Shteyn bu tushunchani quyidagicha izohlaydi: kambag'al tabaqani ham boy va qudratlilar qatoriga qo'shish, har qanday mansab egasiga adolat teng bo'lishi shart deb izohlaydi. Milliy davlatchiligimizni ham o'rganadigan bo'lsak, "ijtimoiy davlat" tushunchasiga juda ko'p marta guvoh bo'lamiz, masalan, IX-X asrlarda yashab o'tgan olimlardan biri Abu Nasr Farobiy o'z asari ya'ni "Fozil odamlar shahri" da ham ushbu tushunchaning mohiyatini keng ochib beradi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy davlat rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichi – uni konstitutsiyaviy tamoyilda qurish, davlatning alohida turi sifatida talqin qilib boshlagan. Urushdan ko'p o'tmay, ijtimoiy davlat konstitutsiyaviy tamoyil sifatida Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya keyinroq ya'ni 1970-yillarda Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya konstitutsiyalarda mustahkamlangan. Biz esa to'laqonli ravishda konstitutsiyaviy yo'ldan 1992-yil 8-dekabrda buyon bosib o'tmoqdamiz. Ushbu tizim bizning davlat boshqaruvi tizimimizdagi institutsional o'zgarishlarga olib keldi. Jumladan, alohida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi kabi ijtimoiy himoya tizimida maxsus vakolatli davlat organlari tashkil etildi. Prezidentimiz ham ajdodlar aqidalarini davom ettirgan holda quyidagi fikrlarni keltirib o'tganlar: "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar ko'prigidir.

Shuningdek, odamlar tinch-totuv va munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir",- deb ta'kidlagandi. Mana shunday talab va shartlarga munosib bo'la oladigan jamiyat ustida ijtimoiy mustahkam davlat qura olamiz. Mening O'zbekistonim ham 1991-yildan buyon inson qadrini ulug'lash, aholiga beminnat xizmat ko'rsatish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va muhtoj qatlamimizga amaliy yordam berish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash moduli asosida faoliyat yuritib, bugungi – o'tgan yillarimizga nisbatan eng go'zal va chiroyli hayot tarzini aholiga in'om etayotgani hech birimizga noma'lum emas, albatta. So'nggi yillarda yurtimiz istiqboliga, bosib o'tayotgan yo'lga nazar tashlasak, "Inson qadri" negizi ostida bir qancha keng ko'lamli islohatlar olib borilmoqda.

Xususan, aholining ijtimoiy muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab quvvatlash va ularga davlat tomonidan subsidiyalar ajratish va eng kam miqdordagi imtiyozli kreditlar joriy etildi. Odamlarning farovon hayotdan rozi bo'lib turmush kechirish uchun munosib sharoit yaratish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, aholi ishsizligini kamaytirish, daromadni oshirish, turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishga yo'l qo'ymaslik, yoshlarni xorijiy tillarga

bo'lgan qiziqishini orttirish va kasb-hunarga yo'naltirish kabi bir qancha masalalarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Ishsiz aholini ish bilan ta'minlash, kafolatlangan sifatli ta'lim olish, bepul tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni, migrantalar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yurtimiz xizmatida shahid bo'lgan qahramonlarimizning oila va yaqinlariga amaliy ko'mak ko'rsatish davlatimizning doimiy diqqat markazidadir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun Respublika miqyosida joriy etilgan "Ayollar daftari" "Temir daftar" "Yoshlar daftari" va "mahallabay" ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini hayotga tadbiq etilayotgani va real ko'rinishiga bitta sabab desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohatlar va ularning ijobiy natijalarini ham keltirib o'taman.

"Temir daftar" juda ham muhtoj oilalar uchun tashkil qilingan edi va o'tgan yillar davomida ushbu tizim orqali 600 mingdan ortiq oilaga moddiy va ma'naviy ko'mak berildi. Ushbu ro'yxat vakillariga parrandachilik, chorvachilik, asalarichilik va issiqxonalar qurish uchun subsidiyalar ajratilib, kambag'allik darajasi 2022-yildan 2024-yilga qadar 17% dan 11% gacha tushishiga shu tizim sabab bo'ldi.

"Ayollar daftari"bu – qaysidir ma'noda "Ayollar ruhining uyg'onishi". Sababi ko'plab xotin-qizlar o'z kelajagini qurishiga, biznesini rivojlantirish bilan birgalikda uyda o'tirgan bir nechta ishsiz ayollarni ham ish bilan ta'minlashga erishdilar. Bundan tashqari boquvchisi bo'lmagan va uy-joyga muhtoj ayollarning qariyb 20 mingdan ortig'iga uy-joy kompensatsiyalari va subsidiya asosida uylar topshirildi.

"Yoshlar daftari" - yoshlarning rivojlanishi va kelajagi uchun dastlabki qadam edi. Ushbu daftarga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarimiz uchun turli ko'rinishdagi yordamlar qilindi, masalan, to'lov-kontraktida o'qiydigan 100 mingdan ortiq talabalar kontrakti davlat tomonidan qoplandi, o'zini o'zi band qilmoqchi bo'lganlarga esa motokultivator, dehqonchilikda kerak bo'lgan asbob-uskunalar va kompyuter kabi jihozlar bepul berildi.

Bu tizimlar orqali davlat insonning yashash, mehnat qilish, ta'lim olish va bepul xizmatlardan foydalanish huquqlarini shunchaki aholini "og'zini yopish" uchun emas, balki real hayotda ta'minlayotganini isbotlaydi. Shuningdek, "ijtimoiy davlat" ni yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida shu bilan birga ayni zamon bilan hamnafas bo'lgan holda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya 2023-yil 30-apreldagi referendum asosida qabul qilindi. Ushbu yangilangan Konstitutsiyada eng asosiy omil qilib "Inson sha'ni, qadr-qimmati va huquqlarining kafolati" olingani xalqimizning yanada imkoniyatlar eshigini ochishiga sabab bo'ldi, misol uchun, ba'zi vatandoshlarimiz xorijga chiqib oldindan shoshqaloqlik qilib, oldindan

fuqaroligini olib qo'yib keyinchalik afsus qilganlar ham talaygina mana shu muammoga yechim sifatida endilikda fuqarolik olishini ta'qiqlab qo'yishdi.

Bundan ko'rinib turibdiki, davlatimiz har bir fuqaroni huquqlarini va ijtimoiy himoyasini o'z zimmasiga olgan. Va yana ta'lim, sport yo'nalishlarida ham bir qancha yangiliklar kiritilgan. Masalan, imkoniyati cheklangan yoshlar ham bema'lol olimpiada, davlat tadbirlarida va ijtimoiy hayotda barcha fuqaro bilan tengligi alohida e'tiborga olingan.

“Ijtimoiy davlat ustunlari” tizimi bilan tanishib chiqishingiz mumkin.

1. Ta'lim	Bepul maktab va grandlar	Bilim olish huquqi
2. Tibbiyot	Kafolatlangan tibbiy xizmat	Salomatlikni muhofaza qilish
3. Bandlik	Ish o'rinlari va ishsizlik nafaqasi	Daromad manbaiga ega bo'lish
4. Uy-joy	Imtiyozli ipoteka va ijtimoiy uylar	Boshpana bilan ta'minlash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. constitution.uz <https://constitution.uz>.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. - 1948-yil <https://uz.wikipedia.org>.
3. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. “Yangi O'zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston” 2023-yil
5. Espin- Andersen, G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton university press.

O'ZBEKISTONDA OILA FAROVONLIGINI TA'MINLASHDA NIZOLARNI OLDINI OLIISH XUSUSIYATLARI

*Primova Nilufar Akbar qizi – O'zMU
Sotsiologiya kafedrası magistranti*

Oilaviy munosabatlar jamiyatning asosiy ijtimoiy birliklaridan biri hisoblanadi. Oila barqarorligi va farovonligi nafaqat shaxsiy baxt, balki jamiyat barqarorligi va ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhimdir. Shu sababli oiladagi nizolarni oldini olish va ularni boshqarish tizimlarini yaratish mamlakatning ijtimoiy siyosati va huquqiy tizimida muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda jamiyatimizda oilaviy maishiy zo'ravonlik muammosi jiddiy ijtimoiy xavf-

xatarlardan biri sifatida eʼtiborga molikdir. Oilaviy zoʻravonlik nafaqat ayollar va bolalar hayotiga bevosita zarar yetkazadi, balki oila institutining mustahkamligini soʻndiradi, jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli, ushbu muammoni oldini olish va unga qarshi kurashishda samarali tizim va mexanizmlarni yaratish bugungi kun talabidir. Bu jarayonda profilaktika inspektorlari, xususan, xotin-qizlar bilan ishlash faoliyati muhim oʻrin tutadi. Profilaktika inspektorlari jamiyatda oilaviy zoʻravonlikning oldini olishga yoʻnaltirilgan faoliyatni amalga oshirishda huquqiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini hisobga olib, xotin-qizlarga yordam koʻrsatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda asosiy vositalardan biridir. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarimiz, yaʼni oʻzbek xalqining anʼanalari, madaniyati, oila va jamiyatga munosabati profilaktika inspektorining ishfaoliyatida muhim oʻrin egallaydi. Milliy qadriyatlar oilaviy munosabatlarni tartibga solishda, zoʻravonlikka qarshi kurashishda barqaror asos yaratadi. Milliy qadriyatlar deganda, avvalo, oila birligi, mehr-oqibat, hurmat, odamlararo sadoqat, inson shaʼnini qadrlash kabi tamoyillar tushuniladi. Ushbu qadriyatlar oʻzbek xalqining asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhitida oʻzining chuqur ildizlarini topgan. Bugungi kunda esa ushbu qadriyatlarni zamonaviy huquqiy tizim va ijtimoiy amaliyot bilan uygʻunlashtirish orqali oilaviy zoʻravonlikka qarshi samarali choralar koʻrilmoqda.

Oilaviy nizolar turli sabablarga koʻra yuzaga keladi. Tadqiqotlarga koʻra, eng keng tarqalgan omillar sifatida kommunikatsiya yetishmovchiligi, shaxsiy chegaralarning buzilishi, iqtisodiy stress va majburiyatlar boʻyicha noaniqlik qayd etilgan. Shu bilan birga, yosh oilalarda nikohning dastlabki yillarida nizolar koʻproq paydo boʻlib, ularni boshqarish qobiliyati oila barqarorligini taʼminlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oʻzbekistonda oilaviy nizolarni oldini olishning huquqiy va ijtimoiy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila asosiy ijtimoiy institut sifatida belgilangan va oilani himoya qilish boʻyicha qonunlar oilaviy nizolarni erta aniqlash va profilaktika qilish mexanizmlarini nazarda tutadi. Huquqiy mexanizmlar oiladagi nizolarni faqat hal qilish emas, balki ularni oldini olishda ham samarali boʻlishi mumkin.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari va fuqarolar yigʻinlari oilaviy nizolarni aniqlash va oldini olishda faol ishtirok etadi. Ular oilaga huquqiy maslahat beradi, nizolarni erta bosqichda aniqlaydi va jamoat darajasida qoʻllab-quvvatlashni taʼminlaydi. Bu mexanizm jamiyat barqarorligini oshirishga va oilalarning ijtimoiy farovonligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Masalan, oila qadriyatlarini mustahkamlash, mehr-muhabbat va hurmatni targʻib qilish orqali zoʻravonlik holatlarining oldini olishda ijtimoiy muhitni ijobiy tomonga oʻzgartirish mumkin. Bu esa oʻz navbatida, zoʻravonlikni kamaytirish va jamiyatda sogʻlom oila muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda oilaviy zoʻravonlikka qarshi kurashda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda xalqaro standartlar va huquqiy meʼyorlarga

ham rioya qilish muhimdir. Bu ikki tamoyilni uyg'unlashtirish profilaktika inspektorining faoliyatini yanada professional va samarali qiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar profilaktika inspektorlari uchun nafaqat madaniy asos, balki kuchli vosita hisoblanadi. Maqolaning mazmuni profilaktika inspektorining xotin-qizlar bilan ishlashfaoliyatida oilaviy maishiy zo'ravonlikni oldini olishda milliy qadriyatlar qanday ahamiyat kasb etishini, ularni amaliyotda qo'llashning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu qadriyatlarni rivojlantirish va jamiyatda ularning ahamiyatini oshirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Maqola orqali profilaktika inspektorlari faoliyatining zamonaviy talablarga mos kelishi, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda milliy madaniyat va qadriyatlarning rolini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi maqsad qilingan.

Psixologik tadqiqotlar oilaviy nizolarni oldini olishda kommunikatsiya madaniyati, emotsional intellekt, murosa va konstruktiv muloqotning muhimligini ko'rsatadi. Yosh oilalarda konfliktologiya asoslarini o'rgatish va emotsional qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish nizolarni kamaytirishga yordam beradi.

An'anaviy ijtimoiy institutlar, xususan mahalla tizimi, oilaviy nizolarni erta aniqlash va hal etishda muhim rol o'ynaydi. Mahalla xodimlari va jamoatchilikning jalb qilinishi oilalarga maslahat berish, konfliktlarni hal etish va barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, jamiyatdagi qo'llab-quvvatlash tizimlari oiladagi muammolarni hal qilishda ijtimoiy va psixologik jihatdan ham samarali hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanda qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni va 2023 yil 22 dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytirilgan majlisidagi "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" mavzusidagi nutqida "Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayoni yuz berayotgan"ligi g'oyasi asoslab berilgan. Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilab berilgan 7 ta yo'nalishning beshinchi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishi bo'yicha 71-78 maqsadlarning mohiyati ham oilaning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, mahalla xotin-qizlar faollari uchun huquqiy asos hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 100 ta maqsaddan iborat bo'lib, 69-maqsad: "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash", deb nomlangan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oila farovonligini ta'minlashda nizolarni oldini olish huquqiy, psixologik, ijtimoiy va madaniy mexanizmlarning

birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon oilaning barqarorligi va jamiyat farovonligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirishda innovatsion tarbiya texnologiyalar va metodlardan ya'ni, multimedia resurslari, o'quv va badiiy adabiyotlar, elektron axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maxsus teleradio rukunlari, reportajlar, ijtimoiy loyihalar, ilmiy-ommabop, badiiy, multiplikatsiyaviy hujjatli filmlar, elektron ta'lim resurslari, ma'sus interaktiv veb loyihalar, audivizual, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, hikoya, davra suhbat, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqalardan foydalanish faoliyat natijalarini doimiy kuzatish, nazorat qilish, tahlil etish, monitoring qilish o'zining ijobiy samarasini berishi muqarrar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umida Nuriddinovna, N. (2025). Oilaviy nizolarning oldini olish: huquqiy asoslar, profilaktika hamda hal etish mexanizmlari tahlili. *MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA Xalqaro Ilmiy Jurnali*, 16–21. <https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.254>
2. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – T.: O'qituvchi. 1999. - 2000 b.
3. Sharipova D. Ma'naviyat barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2002.
4. Nazarov Q. Oila yoki oila boshqarish tartiblar. –T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2016.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI BILAN INSON HUQUQLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Tursunova Feruza Raximovna,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti talabasi

Anotatsiya Ushbu tezisda barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Hozirgi global rivojlanish jarayonida iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda inson huquqlarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy tenglik, ekologik muvozanat va inson huquqlarini himoya qilishni ham nazarda tutadi. Maqolada barqaror rivojlanish maqsadlarining inson huquqlari bilan qanday uyg'unlashgani, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va davlat siyosatidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson huquqlari va barqaror rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardan birining rivojlanishi ikkinchisining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Barqaror rivojlanish, inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, barqaror taraqqiyot, ekologiya, iqtisodiy rivojlanish, global maqsadlar, jamiyat taraqqiyoti.

Kirish. XXI asrda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - barqaror rivojlanishni taʼminlashdir. Dunyo miqyosida iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlash masalalari tobora dolzarb boʻlib bormoqda. Shu sababli barqaror rivojlanish konsepsiyasi global rivojlanish strategiyasining muhim qismi sifatida eʼtirof etilmoqda. Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlarning ham imkoniyatlarini saqlab qolishdan iboratdir.

Barqaror rivojlanish jarayonida inson huquqlarini taʼminlash alohida ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlari har bir shaxsning erkin yashashi, taʼlim olishi, sogʻlom muhitda hayot kechirishi va teng imkoniyatlarga ega boʻlishini kafolatlaydi. Shu bois barqaror rivojlanish maqsadlari inson huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bogʻliqdir.

Barqaror rivojlanish tushunchasi va uning mazmuni:

Barqaror rivojlanish -bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashga qaratilgan rivojlanish modelidir. Bu model jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyotini taʼminlashni maqsad qiladi. Barqaror rivojlanishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash;

ijtimoiy adolat va tenglikni rivojlantirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

inson farovonligini oshirish.

Mazkur yoʻnalishlar bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ularning uygʻunligi jamiyatning barqaror rivojlanishini taʼminlaydi. Agar iqtisodiy rivojlanish ekologik muvozanatni buzsa yoki ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirs, bunday rivojlanish barqaror hisoblanmaydi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari -bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirigʻidir. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030 yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, yaʼni 2030 yilga moʻljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan oʻzining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan. Mamlakatlar ushbu maqsadlarni oʻzining milliy sharoitlariga moslashtirishi, har bir vazifaga tegishli statistik koʻrsatkichlar uchun miqdoriy koʻrsatkichlarni aniqlashi hamda

vazifalar va aniq miqdoriy ko'rsatkichlarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Departamentida (UNDESA) Barqaror Rivojlanish Maqsadlari bo'limi (DSDG) BRMLar va ular bilan bog'liq tematik masalalar, shu jumladan suv, energetika, iqlim, okeanlar, urbanizatsiya, transport, fan va texnologiyalar uchun moddiy yordam ko'rsatish va salohiyatni oshirish bo'yicha ishlarni ta'minlaydi.

Inson huquqlari tushunchasi:

Inson huquqlari -bu har bir inson tug'ilganidan boshlab ega bo'ladigan asosiy huquq va erkinliklar majmuidir. Bu huquqlar insonning qadr-qimmati, erkinligi va tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Inson huquqlariga quyidagilar kiradi:

yashash huquqi;
ta'lim olish huquqi;
mehnat qilish huquqi;
so'z va fikr erkinligi;
tenglik va adolat huquqi.

Inson huquqlarini ta'minlash har qanday demokratik jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki inson huquqlari jamiyatda tinchlik, barqarorlik va adolatni ta'minlashga yordam beradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarining o'zaro bog'liqligi

Barqaror rivojlanish maqsadlari inson huquqlarini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, sifatli ta'limni ta'minlash maqsadi har bir insonning ta'lim olish huquqini amalga oshirishga xizmat qiladi. Qashshoqlikni kamaytirish esa insonlarning munosib turmush darajasiga ega bo'lish huquqini ta'minlaydi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy yo'nalishlari inson huquqlari bilan quyidagicha bog'langan:

Qashshoqlikni tugatish -insonlarning munosib hayot kechirish huquqini ta'minlaydi.

Sifatli ta'lim -har bir insonning bilim olish huquqini kafolatlaydi.

Gender tengligi -erkak va ayollar o'rtasida teng huquqlarni ta'minlaydi.

Sog'liqni saqlash -insonlarning sog'lom yashash huquqini himoya qiladi.

Toza suv va sanitariya -xavfsiz va sog'lom muhitda yashash huquqini ta'minlaydi. Bu maqsadlarning amalga oshirilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish va inson huquqlari jamiyat taraqqiyotining muhim omillari hisoblanadi. Agar jamiyatda inson huquqlari hurmat qilinsa, fuqarolar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila oladi. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun sog'lom muhitni saqlab qolishga yordam beradi. Bu jarayonda inson

huquqlarining ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega, chunki ekologik xavfsizlik ham insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Inson huquqlarini ta'minlash barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish insonlarning munosib hayot kechirishini ta'minlaydi. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni saqlash orqali inson huquqlarini himoya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli davlatlar va xalqaro tashkilotlar barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish orqali inson huquqlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratishi zarur. Barqaror rivojlanish shunchaki iqtisodiy ko'rsatkich emas, balki inson qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan strategik jarayondir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson huquqlari ta'minlanmagan jamiyatda barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Huquqiy asos: BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan kun tartibidagi 17 ta maqsadning 90% dan ortig'i bevosita xalqaro inson huquqlari shartnomalariga tayanadi. Bu degani, har bir maqsad (masalan, kambag'allikni tugatish yoki ta'lim sifati) aslida insonning fundamental huquqidir.

Ijtimoiy bog'liqlik: Inson huquqlarini himoya qilish (ayniqsa, so'z erkinligi va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish) davlat boshqaruvida shaffoflikni oshiradi, bu esa resurs vositalarining talon-toroj qilinishini oldini olib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ekologik mas'uliyat: Sog'lom atrof-muhitga ega bo'lish huquqi bugungi va kelajak avlodlarning yashash huquqi bilan tengdir. Barqaror rivojlanish bu huquqni ta'minlashning yagona amaliy mexanizmi hisoblanadi.

Investitsiyaviy jozibadorlik: Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inson huquqlari va qonun ustuvorligi ta'minlangan davlatlarga kiritilayotgan sarmoyalar barqaror va uzoq muddatli xarakterga ega bo'ladi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish-bu inson huquqlarini amalda joriy etish demakdir. Davlat siyosatida iqtisodiy islohotlar inson huquqlari konsepsiyasi bilan integratsiya qilinsagina, jamiyatda chinakam farovonlik va ijtimoiy adolat qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Sen.Development as Freedom.-Oxford:Oxford University Press,1999. (Rivojlanish va inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab beruvchi asar).
- 2.Alston P.Goodman R.International Human Rights.-Oxford:Oxford University Press,2013.(Xalqaro inson huquqlari tizimi bo'yicha fundamental qo'llanma).
- 3.Donnelly J.Universal Human Rights in Theory and practice.-Ithaca:Cornell University Press,2013.(Inson huquqlarining nazariy asoslari).

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING AHAMIYATI VA XALQARO HAMKORLIK MEXANIZMLARI

*Shokirova Mubina Nabijon qizi,
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,
Siyosatshunoslik 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati hamda ushbu jarayonda xalqaro hamkorlikning o'rnini tahlil qilinadi. Inson huquqlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy qadriyatlaridan biri sifatida qaralib, ularning xalqaro darajada himoya qilinishi masalasi Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro hamjamiyatning ustuvor yo'nalishiga aylangani yoritib beriladi. Ayniqsa, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilishning muhim xalqaro huquqiy asosini yaratgani ta'kidlanadi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda uning institutlari, xususan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi faoliyatining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tezisdagi inson huquqlarining ta'minlanishi jamiyatda adolat, tenglik, ijtimoiy barqarorlik va demokratik boshqaruvni mustahkamlashda muhim omil ekanini asoslab beriladi. Shuningdek, xalqaro konvensiyalar, sud organlari va nodavlat tashkilotlarning faoliyati orqali inson huquqlarini global miqyosda himoya qilish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, global hamkorlik, xalqaro huquq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, xalqaro tashkilotlar, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik boshqaruv, global monitoring, xalqaro sud organlari.

Inson huquqlari zamonaviy jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, har bir insonning sha'ni, qadr-qimmatini va erkinligini himoya qilishga qaratilgan universal huquq va erkinliklar majmuasini ifodalaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin inson huquqlarini himoya qilish xalqaro hamjamiyatning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy asoslarini shakllantirdi va ushbu sohada global hamkorlikni rivojlantirishga muhim turtki berdi.

Qayd etish lozimki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 400 dan ortiq tillarga nashr qilingan, dunyoda birorta ham hujjat bunchalik ko'p tillarga tarjima qilinmagan. Bu esa, uning universal xususiyati va ko'lamidan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ko'plab demokratik mamlakatlar konstitutsiyalarining asosiga aylangan, u fundamental huquq va erkinliklarga hurmat va rag'batlantirishning mezoni bo'lgan etalon hisoblanadi[1].

Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida inson huquqlarini ta'minlash masalasi faqat alohida davlatlarning ichki siyosati doirasida hal qilinadigan masala bo'lib qolmay, balki xalqaro hamjamiyatning umumiy mas'uliyati sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiya jarayonlarining kuchayishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada oshirib, inson huquqlari bilan bog'liq muammolarning ham global xarakter kasb etishiga olib kelmoqda. Shu sababli inson huquqlarini samarali himoya qilish faqat milliy darajadagi huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki xalqaro hamkorlik, umumiy standartlar va monitoring tizimlari orqali ham ta'minlanadi. Bu jarayonda davlatlar o'rtasidagi siyosiy va huquqiy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro huquq normalarini amaliyotga tatbiq etish hamda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi doirasida faoliyat yurituvchi turli institutlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi, inson huquqlarini himoya qilish, ularning buzilishi holatlarini monitoring qilish hamda davlatlarga tavsiyalar berish orqali bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, turli xalqaro nodavlat tashkilotlar ham inson huquqlarining buzilishi bilan bog'liq muammolarni o'rganish, jamoatchilik e'tiborini ularga qaratish va xalqaro hamjamiyatni faol choralar ko'rishga undash orqali ushbu jarayonga katta hissa qo'shmoqda.

Inson huquqlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquqlarning ta'minlanishi jamiyatda adolat, tenglik va ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Inson huquqlariga rioya qilinadigan davlatlarda fuqarolarning erkinligi, siyosiy faolligi va ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi, bu esa demokratik boshqaruv tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi va Davlatning Konstitutsiyasida inson huquqlari borasida belgilangan bandlarni ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. In- sonning huquq va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlatning asosiy majburiyatidir. Mazkur tamoyil konstitutsiyaviy qurilish asoslari tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Uning asosiy xususiyatlaridab biri quyidagicha: insonning huquq va erkinliklari boshqa barcha ijtimoiy munosabatlar shakllanishining, jumladan, davlat qurilishining oliy qadriyatidir. Davlat tan oladigan va himoya qiladigan inson huquqlari va boshqa qadriyatlar o'zaro muvofiq kelmasa, inson huquqlariga ustunlik beriladi.[2]

Shuningdek, inson huquqlari tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Agar jamiyatda inson huquqlari buzilsa, bu ijtimoiy ziddiyatlar, noroziliklar va siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli inson huquqlarini himoya qilish global miqyosda barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu masala xalqaro kun tartibida ham muhim o'rin egallaydi va u Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan ham bevosita bog'liqdir.

Inson huquqlarining xalqaro himoyasi – bu inson huquqlari va erkinliklarini, ushbu huquq va erkinliklarning davlatlar tomonidan amalda hayotga tatbiq etilishi bo'yicha davlatlarning majburiyatlarini belgilab beruvchi va mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisi, shuningdek, ushbu huquq sohasi bo'yicha davlatlar o'z majburiyatlarini bajarishi ustida xalqaro nazorat mexanizmi va alohida shaxsning buzilgan huquqlarini bevosita himoya qilishdir[3].

Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Ular inson huquqlarining buzilishi holatlarini monitoring qilish, davlatlar faoliyatini baholash hamda ushbu sohada xalqaro tavsiyalar ishlab chiqish orqali global tizimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi inson huquqlarining ta'minlanishi bo'yicha davlatlar faoliyatini tahlil qiladi va zarur tavsiyalar beradi. Bundan tashqari, Amnesty International hamda Human Rights Watch kabi xalqaro nodavlat tashkilotlar turli mamlakatlarda inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni o'rganib, ularni xalqaro jamoatchilikka yetkazish orqali muhim faoliyat olib boradi. Ushbu tashkilotlar tomonidan tayyorlanadigan hisobotlar davlatlarning inson huquqlari sohasidagi siyosatini takomillashtirishga ham yordam beradi.

Inson huquqlarini ta'minlash jarayonida davlatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Bu hamkorlik turli xalqaro konvensiyalar, shartnomalar va deklaratsiyalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu huquqiy hujjatlar inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha umumiy standartlarni belgilab beradi hamda davlatlarning majburiyatlarini aniqlashtiradi. Bunga yana bir qo'shimcha misol sifatida keltirishimiz mumkin, BMT Nizomining 13-moddasiga muvofiq, Bosh Assambleyaning asosiy vazifalaridan biri ham „..iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalaridagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini irqi, jinsi, tili va dinini ajratmagan holda amalga oshirishga ko'maklashish“ maqsadida inson huquqlari masalalarini o'rganish va tadqiq etish ishlarini uyushtirish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. [4]

Bundan tashqari, xalqaro sud organlari ham inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Xalqaro jinoiy sud og'ir xalqaro jinoyatlarni ko'rib chiqish orqali adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Yevropa inson huquqlari sudi inson huquqlari buzilgan holatlarni ko'rib chiqib, jabrlangan shaxslarning huquqlarini tiklashga yordam beradi. Shunday qilib, xalqaro tashkilotlar, huquqiy mexanizmlar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlik inson huquqlarini global miqyosda samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, inson huquqlari zamonaviy jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, u har bir insonning sha'ni, qadr-qimmatini va erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu masala xalqaro hamjamiyatning ustuvor yo'nalishiga aylangan va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

inson huquqlarini himoya qilishning global huquqiy asoslarini belgiladi. Ushbu deklaratsiyaning 1-moddasida keltirilganidek, hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak. [5] Ushbu moddaning o'zidayoq, biz inson huquqlarining himoyasi qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida inson huquqlarini himoya qilish faqat milliy darajada hal qilinadigan masala bo'lib qolmay, balki xalqaro hamkorlik, umumiy standartlar va monitoring mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi, shuningdek, nodavlat tashkilotlar inson huquqlari buzilishlarini monitoring qilish, tavsiyalar berish va jamoatchilik e'tiborini jalb qilish orqali global tizimni mustahkamlashga hissa qo'shadi. Shuningdek, inson huquqlarining ta'minlanishi jamiyatda adolat, tenglik, ijtimoiy barqarorlik va demokratik boshqaruvning rivojlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro sud organlari va konvensiyalar orqali ham bu jarayon mustahkamlanadi. Shu bois, davlatlar va xalqaro hamjamiyatning hamkorligi inson huquqlarini samarali himoya qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, inson huquqlarini himoya qilish nafaqat milliy, balki global mas'uliyat bo'lib, u tinchlik, xavfsizlik va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda markaziy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Abdulxay, T.Mirzatillo, Inson huquqlari, darslik. -T.: "Adolat", 2023, 3-bet.
2. O'sha manba, 27-bet.
3. 1 Международное право. /Под. ред.Бекяшева К.А. -М.: Проспект. 1999. - С. 200.
4. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. -T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. 152-bet,
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>.

GLOBALLASHUV ASRIDA INSON HUQUQLARINING TA'MINLANISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Fayzullayev Asliddin Fazliddin o'g'li
,O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv davrida inson huquqlariga ahamiyat berilishining amaliy ahamiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatib o'tilgan, shuningdek, ushbu maqolada inson huquqlari ta'minlanishining bir necha sabablari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, inson huquqlari, gender tengligi, sud-huquq tizimi, BMT, xabares-korpus, iqtisodiy rivojlanish, assotsiatsiya.

Kirish: Globallashuv jarayonlari umuminsoniy huquq qadriyatlarining ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq voqeliklar bo'lsa-da, ular milliy huquqni inkor etmaydi, balki milliy huquqiy tizimlar orqali o'z maqsadlariga erishadi, real borliqda ob'ektivlashtiradi. Inson huquqlari deganda, davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan shaxsning yoki shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklariga rioya etilishi va buni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan davlat individ o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlar tushuniladi. Bunday munosabatlarning buzilishi, ya'ni, inson huquqlariga daxldor bo'lgan mavjud qonunlarga rioya qilmaslik, fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shaxslar tomonidan to'sqinlik qilinishi, yoki bo'lmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlarining bajarilmasligi, xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka yetarli darajada implementatsiya qilinmasligi va ularga amaliyotda yetarli darajada rioya etilmasligi kabi holatlar mamlakatdagi inson huquqlarining buzilishi holatlariga olib keladi.

Asosiy qism: Globallashuv sharoitida esa "ommaviy" madaniyatning kirib kelishi asrlar mobaynida davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun asos bo'lgan sivilizatsiyaviy qadriyatlarining yo'qolishiga olib kelmoqda. Shunindek, migratsiya, kiberxavfsizlik, ekotizim, axborot xuruji va boshqa turdagi yangi xavflarning kelib chiqishi BMT nizomlari va davlatlardagi konstitutsiyalarda nazarda tutilgan huquqlarning amalda yo'qqa chiqishiga olib keladi. Ajablanarli jihati shundaki, ushbu xavflar yaqin 10 yil ichida davrma-davr shiddat bilan rivojlandiki, ular terrorizm, ekstremizm kabi xavflardan ham dolzarb masalaga aylandi. Globallashuv va milliy huquqiy tizimlar o'rtasida mohiyatan uyg'unlik mavjuddir. Ushbu uyg'unlik globallashuv jarayonlari va milliy huquqiy tizimlarning insoniyat va taraqqiyot manfaatlaridan kelib chiqqanidadir. Globallashuv jarayonlarining umumsayyoraviy, umuminsoniy manfaatlar ifodasi kelishi o'z-o'zidan malum, u e'tiroz uyg'otmaydi, ammo milliy-huquqiy tizimlar har doim ham umuminsoniy talablarga mos bo'lavermaydi.[1]

Hozirgi kunda butun dunyoda inson huquqlarining himoya qilinishida sud-huquq tizimining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, sud tizimida joriy etilgan aybsizlik priziumsiyasi, xabaes-korpus tizimi hamda Miranda qoidasi va boshqa huquqlarning joriy etilishi sud jarayonlarining inson huquqlari foydasiga ishlashidan dalolat beradi. Bundan tashqari, saylov jarayonlarida mahbuslarga ham saylash huquqi berilganligi mamlakatda inson sha'ni, qadr-qimmatini yuksak ekanligidandir.

Miranda qoidasi-fuqaroni birinchi marta davlat organlari tomonidan biror-bir ish da gumon qilinuvchi sifatida jalb qilinayotganda, unga birlamchi huquqlari tushuntirib berilishi demakdir. Ya'ni ushlab turish chog'ida shaxs o'z huquqlari to'g'risida xabardor qilinishi, uni ushlab turgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi shaxs huquqlari tushunarli bo'lganmi, degan savolga ijobiy javob olishi lozim.

Ushbu qoidaning "Miranda" deyilishiga sabab nima degan savol tug'ilishi tabiiy. 1966-yil AQSHda Miranda ismli shaxs qo'lga olinadi, gumonlanuvchi

sifatida uning birlamchi huquqlari tushuntirib berilmaydi. O'shanda Amerikadagi shtat sudyasi Mirandaga nisbatan aynan yuqorida keltirilgan so'zlar aytilmagani uchun uni sud zalidan ozod qiladi. Shu bois, "Miranda qoidasi" xalqaro jinoyat protsessual huquqida me'yor sifatida muhrlanadi.

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish bo'yicha muhim institutlardan biri "Xabeas-korpus akt" xalqaro darajada umume'tirof etilgan hujjat sifatida shaxs erkinligini ta'minlash yo'lida o'ziga xos yangi davrga asos solgan.

Xabeas-korpus (lot.habeas-corpus) - "tanani sudga keltirish", ya'ni ushlangan yoki xibsga olingan shaxsni adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi hisoblanib, ehtiyot chorasi sifatida sanksiya berish, lavozimidan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralariining asosligiga faqat sud tomonidan baho berish amaliyotini joriy qilinishi, o'z navbatida, sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini ta'minlashni, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini kuchaytirishni nazarda tutadi. Sobiq SSSR davlatidagi sud jarayonlariga nazar solsak, undagi jarayonlarni tashkil etish uchun "yuqori" darajadagi bilim kerak. Ayniqsa, tergovchilarning hech qanday tergov jarayoni tashkil etilmasligi ham inson huquqlarini inobatga olmaslik va sud ishtirokchilarining to'raligicha davlat manfaatlariga xizmat qilganligining natijasidir. Xususan, sudya Sa'dulla Qosimov ustidan o'tkazilgan sud jarayonida Moskvadan kelgan sudya Ivanov va prokuror armani Katanyan boshchiligida o'tkazilganligi hamda prokuror Shamsutiddin Badriddinov ustidan o'tkazilgan sud jarayonida ham yuqoridagi shaxslarning ishtirok etishi barchasi markaz foydasiga bo'lganligidan dalolatdir.

Mamlakatda iqtisodiyot va aholi hayoti yaxshilanishi uchun hokimiyat har doim kuchli yetakchiga ehtiyoj sezadi. Shuningdek, yaxshi yetakchi hokimiyatga saylov orqali hokimiyatga keladi. Ammo, hozir biz monarxiya davlatlarda bu jarayon asta-sekin iqtisod bilan birgalikda qanday qilib rivojlanaganligini XVI-XVII asrlardagi Fransiya va Angliya misolida ko'rib chiqamiz. Bu davrda Fransiya jadal iqtisodiy rivojlanish davrini boshdan kechirdi. Bunga qirolning soliqlarni kamaytirishi, kichik ishlab chiqaruvchilar uchun qulay moliyaviy sharoit yaratishi, ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi boj soliqlarini joriy qilishi, texnik yangiliklarni qo'llab-quvvatlashi orqali erishildi. Qirol bilan burjuaziya o'rtasidagi ittifoq mustahkamlanib, xalqning noroziligi ham pasdaydi. XVIII asr oxirlariga kelib esa qirol yangi soliqlarni joriy etishi oridan aholi ham norozilik bildirib 1789-yil "Inson huquqlari deklaratsiyasi"ning qabul qilinishiga Ta'sis Majlisi orqali erishdi. Deklaratsiya mulkdor bo'lish, ovoz berish, so'z erkinligi kabi huquqlar kiritilgan edi.

XIX asrga kelib Angliyada mashinalashgan ishlab chiqarish oqibatida mashinalar 150 million odamning qo'l mehnatiga teng ishni bajardi. Bu vaqtda mamlakat aholisi 12 million kishidan iborat edi. Temir yo'llar va yirik sanoat korxonalarining qurilishi katta mablag' talab etganligi sababli, tijorat banklarining qudratini yanada oshirdi. Jahon tarixida ilk marta mamlakat

iqtisodiyotida yetakchilik qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tdi. Hozirgi kunga kelib ham bu davlatlar dunyodagi kuchli yettilik davlatlar qatoridan joy olgan[1].

Globallashuv asrida ijtimoiy davlatda saylash inson huquqlarining ajralmas va yuqori ahamiyatga molik qismidir. Sababi, xalq o'z xohish-irodasidan kelib chiqqan holda o'z vakillarini hokimiyatga kelishida muhim o'rin egallaydi. Saylash huquqiga erishish turli davlatlarda turlicha jarayonda kechgan. Masalan "dunyo demokratiyasining otasi bo'lmish" - Angliyada qiyin kechgan edi. 1836-yil London shahrida ishchilarning "Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi assotsiatsiyasi" tuzildi. U saylov huquqini kengaytirish masalasida 12 yil davomida parlamentga uch marta xartiya (chartiya)-yorliq topshiradi. Barcha erkaklarga umumiy saylov huquqi berilishi uchun boshlangan harakat tarixga "chartistlar harakati" nomi bilan kirdi. Bu harakat garchand yengilgan bo'lsa-da, keying parlament islohotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Ushbu voqealar 1832-yilgi parlamentning saylov tartibini o'zgartirishga oid islohotlari fonida yuz bergan edi. 1867-yil ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi. Unga ko'ra shaharlarda o'z uyiga ega bo'lgan hamda alohida xonadonda turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi.[2] Shunday bo'lsa-da, ayollarga ancha vaqtgacha saylash huquqi berilmagan. 1893-yil Yangi Zelandiya butun dunyoda ayollarga umummilliy saylovlarda ovoz berish huquqini bergan birinchi davlatligi, bu o'sha davrdagi siyosiy madaniyat uchun inqilob edi. 1906-yil Finlandiya Yevropada ayollarga to'liq siyosiy huquqlar, ya'ni saylash va nomzodini qo'yish kabi huquqlarni birinchi bo'lib berganligi bilan e'tiborga loyiqdir. 1917-yil Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelgan Turkiston Muxtoriyatida ayollarga saylash huquqi berilganligi, o'sha davrdagi ilg'or demokratik qarashlarning amaldagi ifodasidir. 1920-yilda AQSH konstitutsiyasiga kiritilgan 19-tuzatishdan so'ng ayollar saylash huquqiga ega bo'ldi. Shu tariqa, boshqa davlatlarda ham ayollarga saylash huquqini berish dolzarb masalaga aylandi. Qiziqarli jihat shundaki, Angliyada 1928-yil ayollarga saylov huquqi berilishi, 1867-yilgi erkaklarnikidan farqli o'laroq, 30 yoshga to'lgan hamda ma'lum bir mulkka ega bo'lish kabi yosh va mulk senzlari bilan cheklandi. Ammo, hozirgi vaqtga kelib hech qaysi ijtimoiy davlatda saylash huquqi cheklanganligini ko'rish imkonsiz bo'lgan ishdir. Globallashuv davrida ijtimoiy davlatda saylash huquqi zamonaviy demokratiya va huquqiy davlatning asosi hisoblanadi. Saylov huquqi-bu nafaqat siyosiy jarayon, balki inson huquqlarini ta'minlashning muhim mexanizmidir. Fuqarolar o'z ovozlari orqali davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatiga ta'sir o'tkazadilar. Bu huquqiy kafolatlar konstitutsiya va xalqaro hujjatlar bilan himoyalangan. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrida qabul qilingan "Inson huquqlarining Umumjahon Deklaratsiyasi"ning 21-moddasida demokratik prinsiplar asosidagi saylovlarning inson huquqi sifatidagi o'rni quyidagicha ta'riflanadi: "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o'z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hokimiyatning asosi bo'lishi kerak; bu iroda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta'minlovchi

boshqa shunga teng ahamiyatga ega bo'lgan umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanishi lozim".[3]

Mulkdor bo'lish huquqi esa ijtimoiy-huquqiy davlatning muhim tomoni va uning natijasining samarasidir.Xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatning qaror topishi bevosita mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan birga davom etadigan jarayondir. Agar AQSH tarixiga e'tobor bersak XIX asr oxiri XX asr boshlarida tadbirkorlar uchun yaratilgan qulay moliyaviy muhit ortidan 1894-yil YaIM bo'yicha dunyoda peshqadam davlatga aylandi. O'rta asr tarixida ham Sohibqiron Amir Temur o'z davlatlarda mulkdorlarga alohida e'tibor bergan.Xususan, u bo'sh yerlardan unumli foydalanib, bog'-rog' barpo qilgan kishidan 3 yilgacha xiroj olmaslikni buyurib,to'rtinchi yildan hosiliga qarab xiroj olish haqida ko'rsatma beradi.Shu bilan birga,avvalda bog' barpo qilib,hozirda ahvoli yomonlashgan kishiga qanday yordam kerakligini o'rganib, xoh moddiy,xoh resurs jihatidan bo'lsin avvalgi holiga qaytishga ko'maklashishida qo'llab-quvvatlash lozimligini ta'kidlagan. Bu esa o'sha vaqtlarda ham tadbirkorlarning davlat rivojidagi o'rni chuqur anglab yetilganligidan xabar beradi.[4]

Xulosa qilib aytganda,yuqorida sanab o'tilgan ba'zi huquqlar ijtimoiy davlatning keying tarqqiyotida muhim o'rin tutishini anglagan holda,ushbu maqolada bunga to'xtaldik.hozirgi globallashuv asridagi inson huquqlarining asosiy yo'nalishlari va ular o'zining davrlar mobaynida shakllanib kelganligi bilan diqqatga sazovordir. Albatta inson ham davlat tomonidan yuklatilgan majburiyatlarga mas'uliyat bilan yondashishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.Nasrullayev, J.Mustafoev. 8-sinf Jahon Tarixi 2019, 37-41, 97-100-betlar;
2. Akmal Saidov. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, 20-22-betlar;
3. Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi, 1948.12.10 BMT Bosh Assambleyasi sammiti. 21-modda;
4. M.Lafasov, D.Qodirova, U.Jo'rayev, E.Xoliqov, 9-sinf Jahon Tarixi 2019, 49-51-betlar.

MUNDARIJA:

Kirish soʻz.....	3
Vahob Kuchkarov Hoshimovich, Dialectics of ensuring human rights and understanding of the national self-consciousness.....	6
Yoqubov Toʻychibek Abduraxmonovich, Oʻzbekistonda xalq deputatlari mahalliy kengashlar faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari.....	11
Akramova Shaxnoza Abrorovna, Bola huquqlarini taʼminlashda ijtimoiy hamkorlikning zamonaviy mexanizmlari.....	15
Raxmonov Sunnatillo Mavlonovich, Jaloliddin rumiy ijodini oʻrganishning tarbiyaviy ahamiyati.....	22
Саидов Санжар Шавкатович, Концепция светской государственности: анализ зарубежного и национального опыта.....	25
Beyhan Şan, Osmanli hukuk sisteminden modern medeni hukuka: türkiye’de kadin haklarinin dönüŖümü.....	32
Zamonov Zokir Turgʻinovich, Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish va huquqbuzarlik profilaktikasini taʼminlashda ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kengaytirish masalalari.....	36
Раупова Манзура Турсуновна, К вопросу о классификации источников повышенной опасности.....	41
Isomov Muxammadjon Kurontoyevich, Inson huquqlarini ijtimoiy davlat kontekstida himoya qilish: xalqaro tajriba va innovatsion strategiyalar.....	45
Захидов О.Х, Роль индивидов в развитии общества.....	50
Abduxoliq Tashanov, Jamiyatda buzgʻunchi gʻoyalarning madaniy va axloqiy muammolari.....	53
Davronova Feruza Raxmonovna, Yangi oʻzbekistonda xotin-qizlarga nisbatan davlat siyosatidagi zamonaviy yondashuvlar.....	59
Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich, Ijtimoiy davlatni shakllantirishda ijtimoiy kapitalni rivojlantirishning ahamiyati.....	62
Xurshid Eshov Xurramovich, Zamonaviy dunyoda inson huquqlarini himoya qilishning global ahamiyati va davlat siyosati.....	67
Akaeva Marapat Abduxalikovna, Xotin-qizlarni zoʻravonlikdan himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari.....	70
Эмирова Елена Энверовна, Человеческий фактор и компьютерная диагностика в прогнозировании социальных процессов.....	75
Баратова Махбуба Мубинжановна, Искусственный интеллект и права человека в сфере светского образования и свободы вероисповедания в новом узбекистане.....	78
Zakirova Feruza Gulyamovna, Tibbiyot pedagogikasini rivojlantirishda xalqaro integratsiyalashuv.....	82
Malohat Zoirova, Oʻzbekistonda jamoatchilik nazoratini takomillashtirishda	85

xorijiy tajribaning roli.....	
Iqboljon Orziyev, Ijtimoiy davlatda diniy va dunyoviy qadriyatlar muvozanati.....	90
Jo'rayeva Shahina Narzullayevna, Iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning global yondashuvlari.....	94
Otabayev Ikromjon Usmonjonovich, Ijtimoiy davlatni shakllantirishda tarixiy xotirani rivojlantirishning ahamiyati.....	96
Samadov Tursunboy Adxamjonovich, Barqaror rivojlanish sharoitida inson kapitali konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy talqini.....	101
Davron MUITOV, Ijtimoiy davlat taraqqiyotida inson huquqlari masalasi: ilmiy talqinlarning dolzarblashuvi.....	105
Sharof Agabayev Kurbanbay o'g'li, Jamiyat taraqqiyotida siyosiy plyuralizmning o'rni.....	108
Erkan Avcı Metin o'g'li, Turkiyada ijtimoiy davlat kontekstida inson huquqlarining xalqaro huquq bilan integratsiyasi va hozirgi rivojlanish.....	112
Mirodiljon Xomudjonovich Baratov, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, xususan, to'siqsiz turizm himoyasi.....	117
Xolnazarova Dildora Mamatmuratovna, Ijtimoiy davlatda talabalar huquqiy tafakkurini rivojlantirishning strategik ahamiyati.....	126
Akramxodjayev Bori Toxtaxodjayevich, Dam olish bilan bog'liq inson huquqlarining ta'rifi va turizmni iqtisodiyotning barqaror sohasiga aylantirish istiqbollari.....	130
Alimova Zulayho Ibrohimovna, Badiiy tarjima falsafasining yog'dusi.....	139
Ахмедова Ф.М., Шаумарова Н.К., Формирование межэтнической толерантности молодежи как важное условие обеспечения прав человека в социальном государстве.....	145
Isamutdinov Ravshan Raxmonovich, Davlat xizmatida gender tenglik va ijtimoiy davlat: xalqaro standartlar va huquqiy asoslar.....	149
Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi, Advokatning iqtisodiy sudlarda isbotlashga doir protsessual vakolatlari.....	153
Isamutdinov Ravshan Raxmonovich, Ijtimoiy davlatlarda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarida "bir tom" (barnahus) modeli: xalqaro amaliyot va uning ahamiyati.....	160
Sevara Nodirova, Mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari orqali inson huquqlarini ta'minlash: yevropa ittifoqi va o'zbekiston tajribasi.....	164
Созукпинар Дилором Алимовна, Образовательные реформы как фактор политической модернизации общества: от танзимата к джадидизму.....	166
Odilov Nodirbek Odil O'g'li, Mehnat huquqi – inson huquqlarini ta'minlashning asosi.....	170
Eshankulova Dilafruz Alisherovna, Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar.....	173
Maxmudov Lazizjon Yusupovich, Umuminsoniy qadriyatlar va milliy identiklik	177

<i>tuyg‘usini mustahkamlashda yangi o‘zbekistonda amalga oshirilayotgan muhim qadamlar.....</i>	
<i>Boboqulov Zafarbek Rustamovich</i> , Barqaror rivojlanish sharoitida ilmiy salohiyatli kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari.....	180
<i>Inomova Dilfuza Odilovna</i> , Siyosiy jarayonlarda davlat lobbizmining xususiyatlari.....	182
<i>Xushmatova Gulnoza Norkulovna</i> , Ijtimoiy davlatda yoshlar huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlari.....	185
<i>Diyorov Sardobek Husanboy o‘g‘li</i> , Xitoy oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishda “double first-class” tashabbusining ustuvor yo‘nalishlari.....	189
<i>Yusupova Sabohat</i> , Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik- demokratik jamiyatning asosiy tamoyili.....	193
<i>Nasridinov Yigitali Boratalievich</i> , Ijtimoiy davlat sharoitida axborotlashgan jamiyat va ijtimoiy ongning rivojlanishi.....	195
<i>Sevara G‘ayratovna Raximova</i> , Ijtimoiy davlat konsepsiyasida inson huquqlari va jamiyat siyosiy hayotida ma‘naviy qadriyatlarning roli.....	200
<i>Dulanboyeva Oygul, Isomiddinova Iroda</i> , Madaniyatlararo muloqot kategoriyasi tahlilning nazariy-falsafiy asosi.....	204
<i>Ажимурамова Зулфира Баймуратовна</i> , Определение понятия «потребитель» и статус потребителя в сфере электронной коммерции.....	209
<i>Diyorov Sardorbek Husanboy o‘g‘li</i> , Xitoy oliy ta‘lim tizimida “double first-class” tashabbusining shakllanishida ichki va tashqi omillarning ta‘siri.....	212
<i>Tursunxanov Baxtdjan</i> , Zamonaviy ta‘limning falsafiy tamoyillari va raqamli muhit transformatsiyalari.....	216
<i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i> , Barqaror rivojlanishining mazmuni va mezonlari.....	223
<i>Sodiqova Mahbubaxon Raxmonaliyevna</i> , Inson qadrini shakllantirishning konseptual asoslari.....	227
<i>Ibragimov Doniyor Baxtiyor og‘li</i> , Ijtimoiy davlatni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning o‘rni	231
<i>Yuldashev Bexzod Ruzimatovich</i> , O‘zbekistonning markaziy osiyo davlatlari bilan pragmatik hamkorlik siyosati.....	234
<i>Oltinoy Ma‘mirova</i> , O‘zbekistonda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish: huquqiy asoslar va ma‘muriy islohotlar tahlili.....	239
<i>Maxmudov Feruz Tulkinovich</i> , Yangi o‘zbekistonda mahallar faoliyatining barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog‘liqligi.....	242
<i>Jurayev Sardorbek Xolmuminovich</i> , Vatanparvarlik – insoniylikning eng muhim komponenti sifatida.....	244
<i>Ergashev Nurmuhammad Jalilovich</i> , Bolalar bilan sodir bo‘ladigan yo‘l transport hodisalarining oldini olish inson huquqlarini ta‘minlashning asosi (pedagogik faoliyat misolida).....	247
<i>Xushmatova Gulnoza Norkulovna</i> , Mafkuraviy immunitet va uni yoshlarda shakllantirish masalasi.....	249

Yuldashev Askarjon Abdugappar o'g'li , Mahmudxo'ja behbudiyning milliy davlatchilikni rivojlantirish borasidagi qarashlari.....	254
Jumanazarova Asal , Ijtimoiy davlat sharoitida oila institutining sotsiologik talqini va inson huquqlarini ta'minlash masalalari.....	257
Paxriddinov Umidjon Mo'minovich , Global jamiyat rivojida migratsiyani ijtimoiy-falsafiy tushunish istiqbollari.....	259
Islomov Sharof Abduraxmonovich , Jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish imkoniyatlari.....	262
O'rinboyev Ulug'bek O'rolboy o'g'li , Yangi o'zbekistonda ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishning ma'naviy-ma'fkuraviy asoslari.....	266
Zavqiddin Gadoev Ibodovich , Axborotlashgan jamiyat va globallashuv jarayonining o'zaro bog'liqligi.....	270
Erkinov Ilxomjon Elmurodjon o'g'li , Ijtimoiy davlatda siyosiy ishtirok va barqaror rivojlanish: xalqaro tajriba va o'zbekiston amaliyoti.....	272
Abdullayev Diyorbek Azadovich , Ijtimoiy davlatni rivojlantirishda ilg'or raqamli boshqaruv modellari integratsiyasi.....	277
Zayniddin G'o'chchiyev , Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati va zamonaviy yondashuvlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni.....	281
Sharof Agabayev, Sodiq Isariyev , Yoshlar siyosiy madaniyatida qadriyatlar transformatsiyasi.....	284
Choriyeva Nargiza Ibotovna , Ekoturizmning barqaror rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati.....	288
Rizayeva Lobar Toshpulatovna , Forms of state educational policy and its management system in uzbekistan.....	291
G'o'chchiyev Zayniddin Gulmurodovich , O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-huquqiy asoslar.....	295
Ахмедова Шахризода Анваровна , Экологическое измерение социального государства: от социальной защиты к устойчивому развитию.....	299
Sevara Raximova , Ijtimoiy davlat va inson huquqlari: yangi o'zbekistonda jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi zamonaviy yondashuvlar.....	303
Abdurashidova Rushana Farhodovna , Ta'lim jarayonida mnemonika texnologiyalaridan foydalanishning barqaror rivojlanish maqsadlariga mosligi.....	306
Baxrom Djalolov, Mubina Ne'matjonova , Yoshlar bilan ishlashning huquqiy-ma'naviy asoslari: uyushmagan yoshlar masalasi.....	309
Bo'riyeva Mushtariy Baxromovna , Ijtimoiy davlatda korrupsiyaning inson huquqlariga tahdidi va uni bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari.....	315
Esonova Dilnura , Ijtimoiy davlatda inson qadri va zamonaviy yondashuvlar.....	318
Урдашев Азамат Бахтиёрович , К актуальным проблемам привития узбекским слушателям концептуальных мировоззренческих подходов к вопросам гражданско-правового статуса человека в условиях глобализации.....	321

<i>миропорядка.....</i>	
Botirova Nigina Baxodir qizi , Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarining sog'liqni saqlash tizimidagi o'zaro bog'liqligi.....	324
Bahrom Ibragimov , Ijtimoiy adolat - ma'rifatli jamiyatning ma'naviy yuksalishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida.....	327
Фозилов Жалолiddин Расулжон угли , Узбекистан как социальное государство: позитивные изменения в внешней политике.....	329
Wang Wei , The scholarly image of ulugh beg in the historical narrative of uzbekistan: a case study of history of uzbekistan (grade 8) (2023 edition).....	332
Zhang Mingda , Social processes in uzbekistan, development of the family and mahalla system.....	336
Humoyiddin Yoqubov , Mintaqaviy ma'naviy-ma'furaviy transformatsiyalar sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarining institutsional tahlili.....	348
Liu Rui , Transboundary water cooperation in central asia: from allocation to risk governance.....	355
Жамалова Юлдуз Тайировна , Порядок реализаци мер по освобождению от отбывания наказания.....	359
Saidaliyeva Nilufar Farhod qizi , Inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati va xalqaro hamkorlik.....	365
Usmonova Ozoda Sobirjon qizi , Inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati va Xalqaro hamkorlik.....	368
Saidaliyeva Nilufar Farhod qizi , Inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati va xalqaro hamkorlik.....	371
Muzaffarova Marjona Ali qizi , Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar.....	374
Homidova Zebiniso Akbar qizi , Inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati va xalqaro hamkorlik.....	376
Мирзораимова. М.Ш Стратегические приоритеты и ключевые инициативы республики узбекистан в рамках шанхайской организаций сотрудничества на современном этапе.....	378
Boymuratova Farzona Nuriddin qizi , Ijtimoiy davlatni rivojlantirishda ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati.....	383
G'oyibberdiyeva Aziza Habibjon qizi , Inson huquqlarini ta'minlash orqali ijtimoiy davlatni rivojlantirishda xalqaro integrallashuvi.....	386
Mirzaobitova Shaxlo Mirabbos qizi , Korruptsiya: jamiyat taraqqiyotiga tahdid....	390
Amirov Xasan Istam o'g'li , Ijtimoiy davlat va inson huquqlarini ta'minlashning global ahamiyati hamda zamonaviy yondashuvlar.....	393
Otanazarova Guzal Adilbekovna , Turkey in the world: cooperation through the prism of tourism.....	396
Xorunbek Samadov Anvar o'g'li , Inson huquqlarini ta'minlash orqali ijtimoiy davlatni rivojlantirishda xalqaro integratsiyalashuv.....	398
Абдуганиева Нигина Улугбековна , Влияние автоматизации на основе	

<i>искусственного интеллекта на рынок труда в сфере образования и социальных услуг в странах центральной азии.....</i>	401
Jorayev Muhammadsher Ma`rufovich</b> , Umumiy o`rta ta`lim maktab o`qituvchilarning faolligini oshirishning ayrim masalalari (sotsiologik tahlil).....	406
Minasova Adiba , Inson huquqlarini ta`minlashning global ahamiyati va xalqaro hamkorlik.....	412
Sevinch Botirjonova , Ijtimoiy davlatda inson huquqlarini ta`minlashning global ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar.....	415
To`xtamurodova Dilrabo Husan qizi , Economic mechanisms for ensuring human rights: management strategies in a social state.....	418
Jamoliddinov Boburmirzo Baxodirjon o`g`li , Ijtimoiy davlatning tushunchasi va uning tamoyillari.....	422
Raximova Dilnoza Xoliqul qizi , Inson huquqlarini ta`minlashning global ahamiyati va xalqaro hamkorlik.....	425
Po`latov Farrux , Ijtimoiy davlat tushunchasi va asosiy tamoyillari.....	428
Mirzalatifova Madina Xusan qizi , Barqaror rivojlanish va inson huquqlari: globallashuv davridagi strategik sintez.....	430
Murodov Farrux Ma`ruf o`g`li , Ijtimoiy davlat tushunchasi va uning tamoyillari.....	433
Xudiyorova Charos Baxtiyor qizi , Inson huquqlarini ta`minlashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining roli: o`zaro hamkorlik mexanizmlari.....	438
Farida Sobirova G`afur qizi</b> , Inson huquqlarini ta`minlash orqali ijtimoiy davlatni rivojlantirish istiqbollari.....	440
Primova Nilufar Akbar qizi O`zbekistonda oila farovonligini ta`minlashda nizolarni oldini olish xususiyatlari.....	443
Tursunova Feruza Raximovna , Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan inson huquqlarining o`zaro bog`liqligi.....	446
Shokirova Mubina Nabijon qizi , Globallashuv sharoitida inson huquqlarini ta`minlashning ahamiyati va xalqaro hamkorlik mexanizmlari.....	450
Fayzullayev Asliddin Fazliddin o`g`li , Globallashuv asrida inson huquqlarining ta`minlanishining bugungi kundagi ahamiyati.....	453

**“IJTIMOIY DAVLATDA INSON
HUQUQLARINI TA’MINLASHNING
GLOBAL AHAMIYATI VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materillari to’plami
(2025-yil 25-mart)**

Bosishga ruxsat etildi. 28.02.2026 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 10.5, Adadi 100. Buyurtma № 58
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a